Turg'unov Tahir

FALSAFA



796.01/075.8)
T-95

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SPORT VAZIRLIGI

O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA
VA SPORT UNIVERSITETI

Turg'unov Tahir

FALSAFA

O‘quv qo‘llanma

O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY
TARBIYA VA SPORT UNIVERSITETI
AXBOROT RESURS MARKAZI
№ 614.3022/5

TOSHKENT
«EVRIKA NASHRIYOT-MATBAA UYI» MCHJ -2025

UO'K: 796.01
KBK: 75.144.1

Muallif:
Turg'unov Tahir – O'ZDJTSU "Ijtimoiy-gumanitar fanlar" kafedrasi dotsent v.b

Taqrizchilar:
O'zDJTSU Ijtimoiy-gumanitar fanalr kafedrasi, s.f.b.f.d. (PhD), dotsent. **N.S. Abdikadirova**
CHDPU, Fakultetlararo ijtimoiy fanlar kafedrasi mudiri f.f.d. (Phd) **L.K. Axatov**

T. Turg'unov. **"Falsafa"** [O'quv qo'llanma] / T - **«EVRIKA NASHRIYOT-MATBAA UYI» MCHJ** 2025 - 356 b.

Mazkur o'quv qo'llanma 61010300 – Sport faoliyati (faoliyat turlari bo'yicha), 61010800 – Adaptiv jismoniy tarbiya va sport (parasport) yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun tayyorlangan bo'lib, unda falsafaning asosiy tushunchalari, uning rivojlanish tarixi, muhim nazariy yondashuvlar va ilmiy oqimlar yoritilgan. O'quv qo'llanma falsafaning turli yo'nalishlari, jumladan, ontologiya, epistemologiya, etika, estetika kabi sohalarini hamda Sharq va G'arb falsafasining o'ziga xos xususiyatlarini batafsil tushuntiradi. Falsafiy dunyoqarashni shakllantirishda uning ahamiyati, jamiyatdagi o'zgarishlarni tahlil qilish va ma'naviy rivojlanishning dolzarb masalalariga bag'ishlangan mavzular o'z aksini topgan. Qo'llanma talabalarga falsafiy tafakkurni rivojlantirish, bilimlarni chuqurroq anglash va amaliyotda qo'llashda yordam beradi.

ISBN 978-9910-6151-7-6

© «EVRIKA NASHRIYOT-MATBAA UYI», 2025
© T. Turg'unov, 2025

***

Данное учебное пособие подготовлено для студентов, обучающихся по направлениям 61010300 – Спортивная деятельность (по видам деятельности) и 61010800 – Адаптивная физическая культура и спорт (параспорт). В пособии изложены основные философские понятия, история развития философии, важнейшие теоретические подходы и научные школы. Учебное пособие подробно объясняет различные направления философии, включая онтологию, эпистемологию, этику, эстетику, а также особенности восточной и западной философии. В нем освещаются темы, посвященные значению философского мировоззрения, анализу изменений в обществе и актуальным вопросам духовного развития. Пособие помогает студентам развивать философское мышление, глубже понимать полученные знания и применять их на практике.

***

This textbook is designed for students enrolled in the academic programs 61010300 – Sports Activity (by types of activity) and 61010800 – Adaptive Physical Education and Sport (Parasport). It presents the fundamental philosophical concepts, the history of philosophy's development, key theoretical approaches, and major scientific schools.

The textbook provides a detailed explanation of various branches of philosophy, including ontology, epistemology, ethics, and aesthetics, as well as the distinctive features of Eastern and Western philosophy. It covers topics related to the importance of philosophical worldview, analysis of social changes, and pressing issues of spiritual development.

The textbook helps students develop philosophical thinking, gain a deeper understanding of knowledge, and apply it in practice.

KIRISH

Olam va odamlar o'rtasidagi munosabatlar, inson qadri va uning mazmuni, dunyodagi o'zgarishlar, o'zaro aloqadorlik va bog'liqlik hamda taraqqiyotning umumiy qonuniyatlari falsafaning asosiy mavzulari hisoblanadi. Falsafa – insoniyatning bir necha ming yillik tarixiy taraqqiyoti davomida yaratilgan ilm va madaniyatning ajralmas tarkibiy qismidir. Inson bor ekan, «Olam va odam nima? Ular qanday paydo bo'lgan? Voqelik qanday qonuniyatlar asosida yashaydi, o'zgaradi va taraqqiy etadi? Umrning mazmuni nimadan iborat?» kabi masalalar barchani o'ylantiradi.

Falsafaning asosiy vazifasi inson ongida sog'lom aqlga mos dunyoqarashni shakllantirishdan iborat. Falsafa fanining dolzarbligi bugungi globallashuv davrida ma'naviy sohada vujudga kelayotgan muammolarni hal etish, tafakkurni shakllantirish, ongni turli zararli g'oyalardan saqlash va uni falsafiy bilimlar bilan qurollantirish zarurligi bilan belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining *ta'lim haqida* fikrlari bu masalalarning yanada dolzarb bo'lishini tasdiqlaydi. Shavkat Mirziyoyevning 2017-yilda aytgan nutqida: "Yuksak ilmu fan bilan kuchli davlat barpo etish uchun ta'limni rivojlantirishni maqsad qilib qo'yishimiz kerak" degan so'zlar, ta'limning nafaqat jamiyat taraqqiyotidagi, balki har bir insonning shaxsiy rivojida ham muhim o'rni borligini ta'kidlaydi. Uning so'zlariga ko'ra, ta'lim tizimi ijtimoiy va ma'naviy taraqqiyotning poydevori bo'lib, unda yoshlarni bilimga, insoniy qadriyatlarga hurmat va barkamol shaxs sifatida tarbiyalash zarur.

Ushbu fikrlar ***O'zbekiston Respublikasi Ta'lim to'g'risidagi qonunida*** ham aks etgan. Unda ta'limning har tomonlama rivojlanishiga, inson huquqlari va erkinliklarini hurmat qilishga

asoslangan yondashuvlar ko'zda tutilgan. Ushbu qonun, ta'limning barcha darajalarida ilmiy izlanishlar va ta'lim jarayonining o'zgaruvchan dunyo talablariga moslashuvini ta'minlashni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. Bundan tashqari, ***"Ўзбекистон — 2030 стратегияси мўғрисида"***da ham ta'limning global o'zgarishlarga qanday moslashishi va milliy ijtimoiy taraqqiyotga qanday hissa qo'shishi ko'rsatilgan.

Ushbu fan bakalavriat ta'lim yo'nalishlarida o'qitilishi belgilangan bo'lib, turli davrlarning ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy qarashlarini mujassamlashtirib, voqea va hodisalarning mohiyatini anglashni, ularga munosabat bildirishni shakllantiradi hamda analitik, sintetik va kreativ tafakkurni hosil qiladi. Ta'limning bu mazmuni nafaqat ilmiy bilimlarni o'zlashtirishni, balki ijtimoiy va ma'naviy qadriyatlarni chuqur anglashni ham ta'minlaydi.

Ushbu o'quv qo'llanmada falsafa fanining predmeti va obyektiga oid masalalar ilmiy-uslubiy tizimlashtirilgan holda yoritilgan. Shuningdek, falsafiy dunyoqarash va falsafa tarixidagi davrlar, oqimlar, faylasuflar ijodi, qadimgi Sharq va G'arb dunyosidagi falsafiy fikrlarning rivojlanish tarixi, borliq hamda olamni falsafiy anglash va bilish muammolari, olam va odam, inson va jamiyat aloqadorlik munosabatlari va qonuniyatlari tahlil etiladi.

Ushbu o'quv qo'llanma Oliy Ta'lim muassasasi 'talabalari uchun mo'ljallangan. Qolaversa, har bir mavzu sxematik va jadval ko'rinishidagi topshiriqlar, nazorat savollari, testlar va glossariy bilan boyitilgan.

KIRISH

Olam va odamlar o'rtasidagi munosabatlar, inson qadri va uning mazmuni, dunyodagi o'zgarishlar, o'zaro aloqadorlik va bog'liqlik hamda taraqqiyotning umumiy qonuniyatlari falsafaning asosiy mavzulari hisoblanadi. Falsafa – insoniyatning bir necha ming yillik tarixiy taraqqiyoti davomida yaratilgan ilm va madaniyatning ajralmas tarkibiy qismidir. Inson bor ekan, «Olam va odam nima? Ular qanday paydo bo'lgan? Voqelik qanday qonuniyatlar asosida yashaydi, o'zgaradi va taraqqiy etadi? Umrning mazmuni nimadan iborat?» kabi masalalar barchani o'ylantiradi.

Falsafaning asosiy vazifasi inson ongida sog'lom aqlga mos dunyoqarashni shakllantirishdan iborat. Falsafa fanining dolzarbligi bugungi globallashuv davrida ma'naviy sohada vujudga kelayotgan muammolarni hal etish, tafakkurni shakllantirish, ongni turli zararli g'oyalardan saqlash va uni falsafiy bilimlar bilan qurollantirish zarurligi bilan belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining *ta'lim haqida* fikrlari bu masalalarning yanada dolzarb bo'lishini tasdiqlaydi. Shavkat Mirziyoyevning 2017-yilda aytgan nutqida: "Yuksak ilmu fan bilan kuchli davlat barpo etish uchun ta'limni rivojlantirishni maqsad qilib qo'yishimiz kerak" degan so'zlar, ta'limning nafaqat jamiyat taraqqiyotidagi, balki har bir insonning shaxsiy rivojida ham muhim o'rni borligini ta'kidlaydi. Uning so'zlariga ko'ra, ta'lim tizimi ijtimoiy va ma'naviy taraqqiyotning poydevori bo'lib, unda yoshlarni bilimga, insoniy qadriyatlarga hurmat va barkamol shaxs sifatida tarbiyalash zarur.

Ushbu fikrlar ***O'zbekiston Respublikasi Ta'lim to'g'risidagi qonunida*** ham aks etgan. Unda ta'limning har tomonlama rivojlanishiga, inson huquqlari va erkinliklarini hurmat qilishga

asoslangan yondashuvlar ko'zda tutilgan. Ushbu qonun, ta'limning barcha darajalarida ilmiy izlanishlar va ta'lim jarayonining o'zgaruvchan dunyo talablariga moslashuvini ta'minlashni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. Bundan tashqari, ***"Ўзбекистон — 2030 стратегияси мўғрисида"***da ham ta'limning global o'zgarishlarga qanday moslashishi va milliy ijtimoiy taraqqiyotga qanday hissa qo'shishi ko'rsatilgan.

Ushbu fan bakalavriat ta'lim yo'nalishlarida o'qitilishi belgilangan bo'lib, turli davrlarning ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy qarashlarini mujassamlashtirib, voqea va hodisalarning mohiyatini anglashni, ularga munosabat bildirishni shakllantiradi hamda analitik, sintetik va kreativ tafakkurni hosil qiladi. Ta'limning bu mazmuni nafaqat ilmiy bilimlarni o'zlashtirishni, balki ijtimoiy va ma'naviy qadriyatlarni chuqur anglashni ham ta'minlaydi.

Ushbu o'quv qo'llanmada falsafa fanining predmeti va obyektiga oid masalalar ilmiy-uslubiy tizimlashtirilgan holda yoritilgan. Shuningdek, falsafiy dunyoqarash va falsafa tarixidagi davrlar, oqimlar, faylasuflar ijodi, qadimgi Sharq va G'arb dunyosidagi falsafiy fikrlarning rivojlanish tarixi, borliq hamda olamni falsafiy anglash va bilish muammolari, olam va odam, inson va jamiyat aloqadorlik munosabatlari va qonuniyatlari tahlil etiladi.

Ushbu o'quv qo'llanma Oliy Ta'lim muassasasi 'talabalari uchun mo'ljallangan. Qolaversa, har bir mavzu sxematik va jadval ko'rinishidagi topshiriqlar, nazorat savollari, testlar va glossariy bilan boyitilgan.

FALSAFANING MOHIYATI VA JAMIYAT TARAQQIYOTIDAGI ROLI

Reja:

1. Falsafaning ta'rifi va etimologiyasi. Falsafaning inson tafakkuri va jamiyatdagi o'rni.
2. Falsafaning asosiy tushunchalari va yo'nalishlari (ontologiya, epistemologiya, aksiologiya va boshqalar).
3. Falsafaning jamiyat taraqqiyotidagi roli.
4. Falsafaning funksiyalari. Falsafiy dunyoqarash shakllari


Tayanch so'z: *Falsafa, faylasuf, milliy falsafa, jamiyat, dunyoqarash, falsafa predmeti.*

Har qanday noma'lum so'zning mazmunini uning etimologiyasidan, ya'ni u qachon, qanday va nima uchun yuzaga kelganini aniqlash orqali tushunish mumkin. «Falsafa» tushunchasi yunoncha «phileo» (sevaman) va «sophia» (donolik) so'zlaridan kelib chiqqan bo'lib, bu atama dastlab «donolikka muhabbat» degan ma'noda ishlatilgan.

«Falsafa» tushunchasi yunoncha *phileo* – sevaman, *sophia* – donolik so'zlaridan kelib chiqqan bo'lib, mazkur atamaning dastlabki ma'nosini «donolikka muhabbat» deb talqin qilish mumkin. «Falsafa» so'zini ilk bor qadimgi yunon mutafakkiri Pifagor miloddan avvalgi VI asrda ishlatgan. U bu atamani afsonalar, rivoyatlar va an'analar orqali avloddan-avlodga o'tuvchi bilim hamda inson o'z aqliga tayanib, mushohada yuritish va borliqni tanqidiy tushunish yo'li bilan olishi mumkin bo'lgan bilimni farqlash maqsadida qo'llagan.

Ongning paydo bo'lishi ilmiy tasavvurlarga muvofiq ravishda insonning tarixiy rivojlanishi bilan bog'liq. Odam miyasi o'sib,

mehnat faoliyati rivojlangan sari, verbal (nutq orqali) muloqot ta'sirida inson tafakkuri rivojlanib, murakkab mavhumliklarni tushunadigan darajaga yetgan. Shu tariqa inson tushunchalarga ta'rif berish, mulohazalar bildirish va mushohada yuritish yo'li bilan aqliy ish bilan shug'ullana boshlagan.



Ongning paydo bo'lishi insoniyat tarixining eng muhim bosqichlaridan biri bo'lib, u odam miyasi rivojlanib borishi, mehnat faoliyati va nutq orqali muloqot qilish ehtiyoji ortishi bilan bog'liq. Bu jarayon insonni o'z-o'zini anglash, tushunchalarga ta'rif berish, fikr yuritish va tafakkur qilish kabi murakkab faoliyatlarga yetaklagan. Natijada inson faqat amaliy harakat qilish bilan cheklanmay, balki borliqni tushunish, bilish va tahlil qilishga o'ta boshladi.

Falsafa Hindiston, Xitoy, Bobil, Markaziy Osiyo va qadimgi Yunonistonda taxminan bir vaqtda vujudga kelgan bo'lib, u avvalo dunyoni oqilona anglash usuli sifatida shakllangan. Bu jarayonda odamlarning dunyoqarashi tubdan o'zgargan. Bilim, tafakkur va tahliliy fikrlash sezgi va e'tiqodlardan ustunlik qila boshladi.

Qadimda ham odamlar hayot mazmunini tushunishga harakat qilgan. Ilgarigi jamiyatlarda ota-bobolarining so‘zlariga, diniy rahbarlarning ta’limotlariga shubhasiz ishonish odati mavjud edi. Ammo faylasuflar yangi yondashuvni ilgari surib, shubha qilish, mustaqil fikrlash va anglashga chorlovchi metodlarni joriy etdilar. «Ishonma, balki o‘zing fikr qil!» shiori falsafiy tafakkurning asosiy tamoyiliga aylandi.

Falsafa tayyor bilimlar va dogmatik e‘tiqodlarni qabul qilishdan farqli o‘laroq, insonni savollarni shakllantirish va ularga javob izlashga o‘rgatadi. Qadimgi Yunoniston va Rimdan boshlab falsafa borasida ko‘plab bahslar olib borilgan. Ko‘p hollarda falsafa o‘zining dolzarbligini yo‘qotdi degan qarashlar ham mavjud bo‘lgan, ammo u har doim inson tafakkurining asosi bo‘lib qolgan.

Sharq mutafakkirlari falsafani turli yo‘nalishlarda talqin qilganlar. Abu Nasr Forobiy falsafani «hikmatni qadrlash» deb izohlasa, boshqa mutafakkirlar uni «donishmandlikni sevish», «olam sirlarini bilish», «hayot mazmunini tushunish» deb talqin qilganlar. Shuningdek, Beruniy, Ibn Sino, Naqshband, Navoiy kabi donishmandlar falsafa orqali inson va jamiyat haqidagi fikrlarini bayon etganlar.

Falsafaning ijtimoiy ong tizimidagi o‘rni doimo muhim bo‘lib kelgan. Ayniqsa, tarixiy taraqqiyotning burilish davrlarida falsafa yangi g‘oyalar va yondashuvlarni ishlab chiqishda yetakchi rol o‘ynagan. Masalan, Uyg‘onish davrida falsafa san‘at va ilm-fan bilan uyg‘unlashib, insoniyat tafakkuriga ulkan ta’sir ko‘rsatgan.

Falsafa kishilarga olamni yaxlit tushunish imkonini beradi. Boshqa fanlar esa uning ayrim jihatlarini o‘rganadi. Masalan, biologiya tirik organizmlar tuzilishini, kimyo moddalar tarkibini, fizika esa tabiat qonuniyatlarini o‘rganadi. Falsafa esa «bu qonuniyatlarning mohiyati nima?», «Nima uchun ular mavjud?»

kabi chuqur savollarni qo‘yadi. Shu sababli, ilmiy muammolarni falsafiy asosda o‘rganish zarurati doimo dolzarb bo‘lib kelgan.

Falsafaning asosiy yo‘nalishlari quyidagilardir:

Ontologiya – borliqning mohiyati va tuzilishi haqida ta’limot.

Epistemologiya – bilimning kelib chiqishi, usullari va haqiqat mezonlarini o‘rganadi.

Aksiologiya – qadriyatlar, axloq va estetik qarashlarni o‘rganadi.

Logika – fikrlash qonuniyatlari va xatolardan qochish usullarini o‘rganadi.

Shuningdek, falsafa dunyoqarash shakllari bilan ham bog‘liq:

Mifologik dunyoqarash – odamlarning dunyo haqida afsonalar va rivoyatlar asosida qarashlari.

Diniy dunyoqarash – g‘ayritabiiy kuchlarga bo‘lgan ishonchga asoslangan tasavvurlar.

Falsafiy dunyoqarash – dunyoni aql va bilim asosida tushunishga intilgan yondashuv.

Falsafa orqali insoniyat o‘zining jamiyatdagi o‘rnini, maqsadini va hayot mazmunini chuqurroq anglaydi. U har bir tarixiy davrda dolzarb bo‘lgan muammolarga javob berishga harakat qiladi va yangi savollarni yuzaga chiqaradi.

Qadimgi Yunoniston va Rim davridan buyon o'tgan ikki ming yildan ziyodroq vaqt mobaynida «Falsafa endi yo'q bo'ldi, uni o'rganishning hech bir zarurati qolmadi» qabilidagi gaplar ko'p bo'lgan.

«Falsafa»atamasi «filosofiya» so'zining Sharq ijtimoiy tafakkuridagi shaklidir. Sharqning atoqli faylasufi, mashhur mutafakkiri Abu Nasr Forobiy filosofiya so'zini «Hikmatni qadrlash» deb talqin etgan. Falsafa Sharq xalqlari ijtimoiy tafakkurida «donishmandlikni sevish» degan mazmun bilan

birga, olam sirlarini bilish, hayot va insonni qadrlash, umr mazmuni haqidagi qarash va hikmatlarni e'zozlash ma'nosida ishlatilgan.

Falsafaning ijtimoiy ong tizimida tutgan o'rni, jamiyat va shaxs hayotidagi ahamiyati nimadan iborat, degan masala hamma davrlarda ham dolzarb bo'lgan.Ayniqsa, tarixiy taraq-qiyotning tub burilish davrlarida falsafaning asl mohiyatini bilish, uning usul va g'oyalari kuchidan foydalanish muhim ahamiyat kasb etgan.

Falsafa kishilarga olam to'g'risida yaxlit tasavvur beradi, boshqa fanlar esa, uning ayrim jihatlarini o'rganadi. Masalan, biologiya o'simlik va hayvonot dunyosini, turlarining kelib chiqishi, o'zgarishi va takomillashib borishi kabi masalalarni o'rganadi. Umuman, rivojlanish jarayonining o'zi nima, uning mohiyati qanday? Masalaning aynan shu taxlitda qo'yilishi ilmiy muammolarni falsafiy masalaga aylantiradi.

Endi Faylasuf kim, degan savolga javob beraylik. «**Filosof**» so'zini ham yuqorida aytganimizdek, ilk bor buyuk matematik va mutafakkir Pifagor qo'llagan. Bu tushunchaning ma'nosini u Olimpiya o'yinlari misolida quyidagicha tushuntirib bergan: anjumanga keladigan bir guruh kishilar bellashish, kuch sinashish, ya'ni o'zi va o'zligini namoyon etish uchun, ikkinchi bir guruh — savdo-sotiq qilish, boyligini ko'paytirish uchun, uchinchisi esa, o'yindan ma'naviy oziq olish, haqiqatni bilish va aniqlashni maqsad qilib oladi.Ana shu uchinchi guruhga mansub kishilar, Pifagor talqiniga ko'ra, faylasuflar edi. Bu, bir qarashda, oddiy va jo'n misolga o'xshaydi.Ammo uning ma'nosi nihoyatda teran. Chunki, inson umri ham shunday. «Dunyo teatrga o'xshaydi, unga kelgan har bir kishi sahnaga chiqadi va o'z rolini o'ynab dunyoni tark etadi», degan fikr bejiz aytilmagan. Kimdir bu dunyoga uning sir-asrorlari to'g'risida bosh ham qotirmasdan

kelib ketadi, umrini yeyish-ichish, uy-ro'zqor tashvishlari bilan o'tkazadi. Boshqasi — nafs balosiga berilib, mol-mulkka ruju qo'yadi. Uchinchisi esa, olam hikmatlarini o'rganadi, umrini xayrli va savob ishlarga sarflaydi, boshqalar uchun ibrat bo'larli hayot kechiradi.

Qadimgi davrlarda har tomonlama chuqur bilim va katta hayotiy tajribaga ega bo'lgan, inson ma'naviyatini boyitish va haqiqatni bilishga intiluvchi kishilarni faylasuf deb ataganlar. Fozil va komil insonlargina falsafa bilan shug'ullanganlar.Aslida, o'sha davrlarda falsafani o'rganish deyilganda, ilimning asoslarini egallash ko'zda tutilgan. Grek mutafakkiri Geraklit (eramizdan avvalgi 520—460 yillarda yashagan) shogirdlariga murojaat qilib, «Do'stim, sen hali yoshsan, umringni bekor o'tkazmay desang, falsafani o'rgan», deganda aynan ana shu haqiqatni nazarda tutgan. Boshqa bir buyuk grek faylasufi Epikur (eramizdan avvalgi 470—399-yillarda yashagan) bu haqiqatni quyidagicha ifoda etgan: «O'z-o'zingni yerga urish, tubanlashish, nodonlikdan boshqa narsa emas, o'zligingdan yuqori turish esa — faylasuflikdir». Xuddi shuningdek, Sharqda ham Konfutsiy va Moniy, Xorazmiy va Forobiy, Imom Buxoriy va Imom Termiziy, Beruniy va Ibn Sino, Naqshband va Navoiy kabi donishmand bobolarimiz o'z hayotiy kuzatishlari va tajribalarini umumlash-tirish, insonga xos xato va kamchiliklardan saboq chiqarish, bashariyat tomonidan to'plangan bilim va tajribalarni o'zlashtirish orqali faylasuf darajasiga ko'tarilganlar.

Umuman olganda, bilimdon kishilarning barchasini ham donishmand yoki mutafakkir deb bo'lmaydi. Haqiqiy faylasuflar hayotda nihoyatda kam bo'ladi. Ular o'z davri va millatining farzandi sifatida insoniyat tarixiga katta ta'sir ko'rsatadi. Xudoning o'zi aql-zakovat, iste'dod, kuch-quvvat ato etgan, yorqin tafakkurga ega bo'lgan bunday buyuk shaxslar

umumbashariy taraqqiyot miqyosida tanilgan, teran insoniy g'oyalar, ma'naviy boyliklarning qadr-qimmatini chuqur anglaydigan donishmand odamlar bo'lgan.

Falsafa umumbashariy fan ekani, uning bahs mavzulari va asosiy muammolarini belgilab beradi. Shu ma'noda odam va olam, ularning ibtidosi va intihosi, hayoti va o'zaro munosabatlari, inson tafakkuri, tabiat va jamiyat taraqqiyotining umumiy qonuniyatlari falsafa uchun azaliy muammolardir. Shu bilan birga, muayyan davrda tug'iladigan va hal etiladigan o'tkinchi muammolar ham bo'ladi. Ular abadiy muammolar darajasiga ko'tarilmasa-da, o'z davrining talab va ehtiyojlaridan kelib chiqqani uchun, muhim ahamiyat kasb etadi. Falsafa yangi g'oyalarning tug'ilishiga imkon beradi. Hayot, ijtimoiy tajriba bilan uzviy bog'liq holda rivojlanadi. U tarixiy davr bilan mustahkam aloqadorlikda taraqqiy etadi. Har bir tarixiy davr, uning oldiga yangi masala va muammolarni qo'yadi. Falsafiy muammolar bevosita hayot zaruratidan tug'iladi.aynan ular orqali falsafada davrning taraqqiyot tamoyillari va o'ziga xos xususiyatlari aks etadi. Masalan, hozirgi zamonda yurtimiz falsafasi uchun istiqlol davriga xos qonuniyatlar va xususiyatlarning falsafiy asoslarini izohlash zarurati shu bilan belgilanadi. Falsafiy ta'limotlarda jamiyat hayotining barcha sohalari tarixiy jarayonga xos tamoyilar, ijtimoiy guruhlarning manfaat va kayfiyatlari, tafakkur usullari o'z aksini topadi. Shuning uchun ham muayyan ijtimoiy kuch, sinf, guruh, partiya va oqimlar o'z maqsad-muddaolari va g'oyalarini ilmiy asoslashda falsafadan foydalanadi. Falsafadagi ustuvor qarash va qoidalar davr mahsuli bo'lgani uchun, zamonning taraqqiyot tamoyillari va muammolari unda o'z ifodasini topadi.

Falsafa fanining predmeti — borliq, ong, bilim, tafakkur va insoniyatning jamiyatdagi o'rni haqida fundamental savollarni

tadqiq etishdir. U inson va olam o'rtasidagi munosabatni tushunishga qaratilgan bo'lib, barcha fanlarning umumiy asoslarini izlaydi.

Falsafaning asosiy funksiyalari quyidagilardir:

Nazariy funksiya – dunyo, odam va jamiyat haqidagi umumiy bilimlarni shakllantirish.

Metodologik funksiya – bilim olish va ilmiy tadqiqot olib borish usullarini belgilash.

Dunyoqarash shakllantirish funksiyasi – insonning olamni tushunishi va unga munosabatini belgilash.

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish funksiyasi – har qanday ma'lumotga shubha bilan yondashish va mantiqiy xulosa chiqarish.

Amaliy funksiya – hayotiy muammolarni hal qilishda falsafiy yondashuvlardan foydalanish.

Xullas, falsafa haqiqat qanday bo'lsa, uni shunday ifodalab ko'rsatishdir, din esa –uning ramziy, timsoliy aks etishi. Falsafa asos va mohiyat bo'lsa, din timsol va shakl. Dialektik munozara usuli jamiyatning kam sonli ayonlari uchun kerak. Vahiy yo'lidagi ifoda – xalq ommasining idroki, tarbiya va ta'limi uchun kerak.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar:

1. Falsafaning ta'rifi va etimologiyasi. Falsafaning inson tafakkuri va jamiyatdagi o'rni:

- «Falsafa» atamasining etimologiyasini tushuntirib bering. Bu so'z qanday ma'nolarni anglatadi?
- Falsafaning inson tafakkuri uchun ahamiyati qanday?
- Falsafaning jamiyatdagi o'rni va uning ijtimoiy ongni shakllantirishdagi roli haqida nima deya olasiz?
- Falsafaning inson va jamiyat o'rtasidagi aloqani tushunishga bo'lgan yondashuvi qanday?

2. Falsafaning asosiy tushunchalari va yo'nalishlari (ontologiya, epistemologiya, aksiologiya va boshqalar):

- Ontologiya nima va u falsafaning qaysi sohasiga kiradi? Ontologiyaning asosiy muammolari nimalardan iborat?
- Epistemologiya haqida gapiring. Epistemologiyaning asosiy masalalari va bilimning manbai qanday tushuniladi?
- Aksiologiya nima va uning falsafadagi o'rni qanday?
- Logika va etikadagi asosiy falsafiy tushunchalarni izohlab bering.

3. Falsafaning jamiyat taraqqiyotidagi roli:

- Falsafa jamiyat taraqqiyotiga qanday ta'sir ko'rsatadi?
- Falsafaning tarixiy taraqqiyotdagi roli haqida qanday misollar keltirishingiz mumkin?
- Uyg'onish davrida falsafa qanday ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlarga sabab bo'ldi?
- Falsafa qanday qilib jamiyatdagi axloqiy va ma'naviy qadriyatlarni shakllantiradi?

4. Falsafaning funksiyalari. Falsafiy dunyoqarash shakllari:

- Falsafaning asosiy funksiyalarini izohlang.
- Nazariy, metodologik va amaliy funksiyalarni qanday ajratish mumkin?
- Falsafiy dunyoqarash shakllarini qisqacha tasvirlab bering. Ular qanday farqlanadi?
- Mifologik, diniy va falsafiy dunyoqarash o'rtasidagi farqlarni ko'rsating.

Nazorat savollari

1. Falsafa atamasining mohiyati va mazmunini tushuntirib bering?.
2. Falsafa ijtimoiy ong tizimida qanday o'rin tutadi?

3. Falsafaning eng asosiy yo'nalishlari deganda nimani tushunasiz?
4. Dunyoqarash tushunchasining qanday tarixiy shakllari mavjud?.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Шермухамедова Н.А. Фалсафа. 2-нашр. Тошкент: Ношир, 2020.
2. Abdulla Sher. Axloqshunoslik. – Toshkent, O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2020.
3. Nazarov Q.N. Falsafa asoslari -T.: Sharq, 2005.
4. Falsafa qomusiy lug'at. Q.Nazarov tahriri ostida. T., Sharq nashriyoti. 2004.
5. Nazarov N. Sport va sog'lom hayot falsafasi. Monografiya. Toshkent 2020.
6. Djalilova L.A. Jismoniy tarbiya va sport tarixi. O'quv-uslubiy qo'llanma. T: 2013.

Internet saytlari:

1. www.ziyonet.uz
2. www.faylasuf.uz
3. Sports.ru
4. www.ukathletics.net

SHARQ FALSAFASINING MOHIYATI VA IJTIMOIY TARAQQIYOTDAGI ROLI

Reja:

1. Sharq falsafasining mohiyati
2. Sharq falsafasining asosiy maktablari va yo'nalishlari.
3. Sharq falsafasining ijtimoiy taraqqiyotga ta'siri.
4. Sharq falsafasining zamonaviy ahamiyati
5. XIXasr oxiri va XXasr boshlarida Markaziy Osiyoda ilg'or falsafiy, ijtimoiy-siyosiy fikrlar. XX–XXIasr o'zbek falsafasi.

Tayanch so'zlar: *Sharq falsafasi, falsafiy dunyoqarash, shariat, tariqat, islom, tasavvuf.*

Sharq mamlakatlaridagi falsafiy tafakkur eramizdan avvalgi VI–IV mingyilliklarda Misr, Suriya, Iroq, Bobil, Eron, Hind, Xitoy, Markaziy Osiyo xalqlariga xos bo'lgan sivilizatsiyalarni qamrab oladi. Sharq sivilizatsiyasida hech qachon din va falsafa bir-biridan ajratilmagan. Falsafa diniy ta'limot mag'ziga joylashgan. Shuning uchun Sharq xalqlari falsafasi, uning qonuniyat va mezonlarini yunon falsafasiga qo'llangan yondashuvlar sistema-sidan kelib chiqib o'rganish noto'g'ri bo'ladi. Sharqliklarning qarashlari o'sha davrlar sharoitiga mos bo'lgan, ko'rinishidan soda asotir va rivoyatlardek tuyulsa-da, ramz va ishoratlarga boy, chuqur ma'noga ega edi.Albatta,asotirlar falsafa emas,ammo ularning sharhi falsafaga xos mantiqiy yondashuvlarga olib kelardi. Ular asosida Sharq xalqlarining bizga noma'lum olamlarni tushunish va talqin qilish harakati mujassamki, bu o'sha davrlarning falsafasi edi. Buni biz mistika yoki ilohiyot deb atashga odatlanganmiz. Bu ilmni o'sha tamaddun darajasi va

diniy-ilohiy qarashlar sistemasini shakllantirgan shart-sharoit-lardan kelib chiqib o'rganish juda muhimdir.

Sharq va G'arb falsafasi o'rtasidagi farqlar

Sharq falsafasi va G'arb falsafasi o'rtasida ko'plab asosiy farqlar mavjud. G'arb falsafasi, asosan, individualizmga asoslangan bo'lib, insonning o'z-o'zini anglashiga, mustaqil fikrlashga va ilmiy dalillarga asoslanadi. Bu, ayniqsa, qadimgi Yunoniston va Rim falsafasida sezilarli o'rin tutgan. Aristotel, Platon, Sokrat kabi faylasuflar dunyoqarashni ratsionalizmga asoslab, tafakkurda metodik yondashuvni ishlab chiqdilar. Ular insonning haqiqatni bilishdagi imkoniyatlarini izohlashda aql va mantiqni asos qilib oldilar. G'arb falsafasida dunyo, odam va tabiat o'rtasidagi munosabatlar ko'pincha analitik ravishda, ya'ni alohida qismlarga ajratib ko'rib chiqiladi.

Boshqa tomondan, Sharq falsafasi ko'proq holistik yondashuvni qamrab oladi, ya'ni odamni va dunyoni yagona bir butun sifatida ko'radi. Sharq falsafasida, xususan, Xitoy, Hindiston va Eron falsafasida insonning ichki dunyosini, uning ruhiy va ma'naviy holatini yaxshilashga katta e'tibor beriladi. Bu yondashuvda, masalan, Konfutsiylikda insonning jamiyat bilan hamohangligi va o'zini anglashdagi axloqiy masalalar, hind falsafasida esa moksha (ozodlik) va reinkarnatsiya kabi tushunchalar markaziy o'rin tutadi.

Falsafaning o'zgaruvchan tabiati

Falsafa, ayniqsa tarixiy taraqqiyotning burilish davrlarida, har doim yangi g'oyalar va tushunchalar bilan to'ldirilgan. Misol uchun, Uyg'onish davrida falsafa san'at va ilm-fan bilan uyg'un-lashib, inson tafakkurini yangi darajaga olib chiqdi. Renessans davrida insonning erkinligi, bilimga bo'lgan muhabbat, ilmiy eksperimentlar va ratsionalizm o'zining gullagan davrini bosh-dan kechirdi. Bu davrda falsafiy qarashlar yangi dunyoqarashlar

O'ZBEKISTON JISMONIY TARBIYA VA SPORT UNIVERSITETI AXBOROT RESURS MARKAZI № 8141 3022 15

ga, masalan, o'rta asrlarning diniy tafakkuridan ajralib chiqdi va ilmiy tahlilga, inson erkinligi va aqlga tayanadigan fikrlashga yo'naltirildi.

Sharq falsafasining ijtimoiy taraqqiyotga ta'siri

Sharq falsafasi tarixda nafaqat ilm-fan va diniy qarashlarni shakllantirishda, balki jamiyatlarning ijtimoiy hayotida ham katta rol o'ynagan. Misol uchun, Xitoy falsafasi, ayniqsa, Konfutsiylik va Daoizm jamiyatda axloqiy qadriyatlar va me'yorlarni belgilashda asosiy o'rin tutgan. Konfutsiylik, insonning jamiyatdagi o'rni, axloqiy mas'uliyati va jamiyatda tinchlikni saqlashga qaratilgan qarashlar bilan ajralib turadi. Bu falsafa jamiyatdagi ijtimoiy tartibni, oila va davlat munosabatlarini tartibga solishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Daoizm esa, tabiat qonunlariga moslashish va harakatlarni minimallashtirish, yaxlitlikni saqlash orqali jamiyatda tinchlik va barqarorlikni ta'minlashni maqsad qilgan.

Sharq mutafakkirlarining falsafiy qarashlari

Sharq mutafakkirlari, masalan, Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino va Al-Farobiy kabi faylasuflar o'z asarlarida falsafani jamiyatning ma'naviy va axloqiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlash vositasi sifatida ko'rishgan. Forobiy, «Fozil shahar» asarida ideal jamiyatni tavsiflab, insonning ongini rivojlantirishning ahamiyatini ta'kidlagan. Ibn Sino esa, «Shifo kitobi»da ilmiy bilimlarni falsafiy asosda tahlil qilib, odamlarning ruhiy va jismoniy salomatligini yaxshilashga qaratilgan fikrlarni ilgari surgan.

Bu kabi donishmandlar o'z asarlarida falsafaning ijtimoiy rolini, axloqiy va ma'naviy ahamiyatini ta'kidlab, jamiyatda tinchlik, barqarorlik va bilimni yuqori qadriyat sifatida qarashni targ'ib qilishgan.

Falsafaning jamiyat taraqqiyotidagi roli

Falsafa, insoniyat jamiyatlarining rivojlanishida, ayniqsa, ijtimoiy, siyosiy va ma'naviy sohalarda muhim o'rin tutadi. Falsafa orqali jamiyatlar yangi g'oyalar va yondashuvlarni rivojlantirib, hayotning turli jabhalarida yangi qadriyatlar tizimini shakllantiradilar. Masalan, jahon tarixida inson huquqlari, adolat va erkinlik kabi g'oyalar, asosan, falsafiy tafakkur orqali rivojlanib, amaliy hayotga tatbiq etilgan.

Falsafa, o'zining tanqidiy fikrlash imkoniyatlari orqali, mavjud tizimlarga qarshi kurashni boshlaydi va jamiyatda o'zgarishlarni amalga oshirishga yordam beradi. Shu boisdan, falsafa doimiy ravishda jamiyatda yangi savollarni yuzaga chiqarib, insoniyatni yanada rivojlantirishga qaratilgan o'zgartirishlarni qo'llab-quvvatlashda muhim vosita sifatida xizmat qiladi.

Qadimgi Sharqning deyarli barcha falsafiy ta'limotlarida ba'zi umumiy xususiyatlar ajralib turadi:

– insonni ham ijtimoiy, ham tabiiy dunyoga nihoyatda hurmatli va insonparvar munosabatlarga yo'naltiradi;

– insonni o'zining ichki dunyosini yaxshilashga chorlaydi;

– insonni ijtimoiy hayotni, tartibni,axloqni, boshqaruvni va boshqalarni yaxshilashga yo'naltiradi;

– tashqi dunyodagi va sharoitdagi o'zgarish bilan emas, balki birinchi navbatda shaxsning o'zgarishi va uning jamiyatga moslashishi bilan bog'liq.

Eramizdan oldingi to'rtinchi mingyillikning oxiri va uchinchi mingyillikning boshlarida Qadimgi Misr va Bobil hududida dastlabki falsafiy fikrlarning paydo bo'lishi, bir tomondan, dunyo haqidagi fanlar bo'lgan –astronomiya, kosmologiya, matematika birinchi odamlari bilan yaqindan bog'liq bo'lgan bo'lsa, ikkinchi


tomondan,afsonalar bilan bog'liq edi.[1] Bu davrda din, ilmiy bilim va mifologiya bir-biriga chambarchas bog'liq bo'lgan dastlabki mafkuraviy g'oyalar ham shakllandi. Bu – o'sha davrlardan qolgan yozma manbalarda, xususan, "Xo'jayinning o'z quli bilan hayotining mazmuni haqida suhbati", "Arfist qo'shig'i", "O'z hayotidan hafsalasi pir bo'lgan kishining o'z joni bilan suhbati" kabi bitiklarda yaqqol namoyon bo'lgan. Ularda hayotning, umrning mazmuni; o'sha davrdagi odamlarga xos tuyg'ular bayon qilingan.

Eramizdan avvalgi ikki minginchi yillar boshida Sharq xalqlaridan biri yahudiylarning— iudaviylik dini Falastinda vujudga kelgan. "Zabur" va "Tavrot" kabi muqaddas kitoblar bu dinning asosiy manbalaridan hisoblanadi.

Xitoy falsafasi keng va teran. Konfutsiylikning olamga ochiq va yaxshi munosabatni aks ettiruvchi insonsevarlik g'oyasiga sodiqlik – bu xitoy millatining eng qimmatbaho sifati, butun xalq qoniga singgan uning ko'tarinki ruhidir. Osmondek cheksiz va daryodek bitmas daocha donishmandlik xitoy millati mavjudligi va taraqqiyoti uchun tuganmas teran manba va doimiy rag'batlantiruvchi kuch bo'lib xizmat qiladi.[2]

Xitoy falsafasining manbalari – Bilim darajasining mumtoz kitoblarida yoritilganAshulalar kitobi (er. Oldingi XI–Viasrlar) xalq she'riyatining to'plamidir; Tarix kitobi (er.ol. 1-mingyillikning boshlari) – rasmiy hujjatlar to'plami bo'lib, tarixiy voqealar bayonidir; Tartib kitobi (er.ol. IV–Iasrlar) siyosiy va diniy rasm-rusumlarni, ijtimoiy va siyosiy faoliyat me'yorlarini tasvirlaydi. Bahor va Kuz kitobi (er.ol. VII–Ivasrlar)axloqiy va rasmiy-adabiy masalalarni hal etish uchun namuna sifatida xizmat qildi.[3]

[1] Фалсафа. М. Аҳмедова таҳрири остида. –Т.: ЎФМЖ. 2006. 30-бет.
[2] У Чун. Фалсафий ғоялар. –Т.: "Академнашр", 2019. 6-бет.
[3] Falsafa. M. Ahmedova tahriri ostida. –T.: O'FMJ, 2006.- 33-bet.




Falsafa taraqqiyoti nuqtayi nazaridan O'zgarishlar kitobi (er.ol. XII–Viasrlar) eng muhimdir. Uning matnlarida afsonalardan falsafaga o'tish boshlanganligini mushohada etish mumkin.

O'zgarishlar kitobining eng muhim qismlaridan biri – In va Yan unsurlari haqidagi ta'limotdir. Yan qandaydir faol, barcha narsalarning ichiga kirib boruvchi,ashyolarni bilish yo'lini yorituvchi narsa sifatida ifoda qilinadi; In uchun kutib turuvchi faoliyatsizlik o'rin ajratilgan, negaki, u qorong'ilik ibtidosidir. In va Yanning harakati – yagona narsada yuz beradigan o'zgarish-larning dialektik harakatidir. In va Yanning o'zaro bir-biriga kirishishidan ularning o'zaro ta'sirini aks ettiruvchi bir qator tushunchalar paydo bo'ladi. Xitoy falsafasining atoqli vakili

Konfutsiya (er. Ol. 551–479) bo'lib, uni adabiyotlarda ko'pincha Kun-tsu – Kun o'qituvchisi deb atashadi.[4]

Konfutsiy fikricha, olamni "osmon" boshqaradi. "Osmon" tushunchasi u uchun nafaqat tabiatning bir qismi, balki olam va inson taraqqiyotini belgilovchi yuqori ma'naviy kuchni anglatadigan boshlang'ich tushuncha hisoblanadi.Ammo uning falsafasining markaziy qismi osmon emas, umuman tabiiy dunyo emas, balki insonning yerdagi hayoti va uning borligi, ya'ni bu antroposentrik. Ya'ni, insonning hayotdagi ijtimoiy o'rni nihoyatda ulug', u o'ziga ravo ko'rmagan narsani boshqalarga ham ravo ko'rmasligi, o'ziga ravo ko'rgan narsani boshqalarga ham ravo ko'rishi lozim. Osmon irodasi — taqdirdir. Biz yashab turgan olam, undagi tartib osmon hukmdori tomonidan yuborilgan. Jamiyat hayotidagi tartibga qattiq amal qilish talab etiladi. Tartib, Konfutsiy nuqtayi nazariga ko'ra, ilohiy mazmunga ega va uning mohiyatini "Li" tushunchasi belgilaydi. U, ya'ni tartib dunyoning mohiyatini aks ettiradi.



[4] Karyagin K. Konfutsiy. Tarixiy-biografik ocherk. –T.: "DavrPress" NMU, 2019. 19-bet.

Binobarin, jamiyatdagi barcha harakatlar unga binoan amalga oshishi lozim. Tartib — insoniyat jamoasining eng oliy hayotiy qadriyatlaridan biridir. Konfutsiyning ta'kidlashicha, shaxs faqat o'zi uchun emas, balki jamiyat uchun ham yashashi kerak. Qadimgi Xitoy falsafasidagi yana bir yo'nalish – daosizmning asoschisi Lao Szi (era ol. VI–V) hisoblanadi. Daosizmning asosiy g'oyasi Dao ta'limoti (yo'l) – bu tabiat, jamiyat, shaxsning xulq-atvori va tafakkurining ko'rinmas, hamma joyda mavjud, tabiiy va o'z-o'zidan paydo bo'lgan qonunidir. Inson o'z hayotida Dao tamoyiliga amal qilishi shart, ya'ni, uning xulq-atvori inson va olam tabiatiga mos kelishi kerak.Agar siz Dao tamoyiliga rioya qilsangiz baribir to'la erkinlik, baxt va farovonlikka erishasiz.

Qadimgi Hind falsafasi yozma manba Vedalar asosida o'rganiladi, ular bir vaqtning o'zida mifologik, diniy va falsafiy dunyoqarashni aks ettiradi. Vedalar – samxitlar – to'rt xilda mavjud: Rigveda (xudolarga madhiya), Samaveda (kuylar, ashulalar, hamdu sano), Yadjurveda (qurbonlik qilish paytida-aytiladigan ifodalar va hikmatli so'zlar) Vaatxarveda (afsunlar). Vedalar oriy qabilalarining ibtidoiy dunyo- qarashlari, diniy-afsonaviy majmuasi. "Veda"larning falsafiy qismini "Upanishadalar" (ma'nosi – sirli bilim) tashkil etadi. "Upanishadalar"dagi falsafiy mavzular,asosan, insonni o'rab turgan borliq, uning hayotdagi o'rni va vazifasi, tashqi olam va inson tabiati, uning hayoti va ruhiyatining mohiyati, bilish imkoniyatining chegaralari,axloq me'yorlari haqidadir. Falsafiy muammolar asosan diniy-mifologik nuqtayi nazardan bayon etilgan. Qadimgi hind falsafiy maktablar ikki guruhga:astika va nastikaga bo'lingan. Vedanta, sankxya, yoga, vaysheshika, n'yaya va mimansa —astika guruhiga kiruvchi falsafiy maktablar. Ushbu maktablarning tarafdorlari "Veda"ning muqaddasligini tan olib,

birdan-bir haqiqat undagina ifodalangan, deyishadi. Chorvaka-lokayata, buddizm va jaynizm — nastika guruhiga kiradi. Hinduizm nomi bilan mashhur bo'lgan g'oyalar, ma'naviy, diniy va ijtimoiy fanlarni o'z ichiga olgan hind falsafiy fikr maktablari, shu bilan birga jaynizm va buddizm paydo bo'lgan,ammo ular bu qadimiy ta'limotni organik ravishda to'ldirgan.

Eramizdan avvalgi X asrdan eramizning VII asrlarigacha bo'lgan davr mahsuli bo'lgan diniy-falsafiy ta'limotlardan biri zardushtiylikdir. Bu ta'limotga Zardusht asos solgan. Zardushtiylikning bosh kitobi.

"Avesto". Unda qadimgi xalqlarning dunyo to'g'risidagi tasavvurlari, o'ziga xos qadriyat va urf-odatlariaks etgan. Unda olamningazaliy qarama-qarshi kuchlari – yaxshilik va yomonlik, yorug'lik va zulmat, issiqlik va sovuqlik, hayot va o'lim borasidagi qarashlar o'z ifodasini topgan. "Avesto"da, shuningdek, tabiat falsafasi, tarix, etika, tibbiyotga oid ma'lumotlar ham berilgan.

(Lao Szi. Dao fazilatlar kitobi.– T.: "Akademnashr", 2020. 3-bet.12 Nizomiddinov N. Qadimgi Hindiston tarixi, diniy e'tiqodi va madaniyati. –T: "Fan va texnologiya " nashriyoti.2014. 5-bet.)

Sharq falsafasida diniy-falsafiy ta'limot sifatida shuhrat qozongan buddaviylik qadimgi Hindistonda eramizdan avvalgi VI asrning oxiri va Vasr boshlarida vujudga kelgan. Buddaviylik islomga qadar O'rta Osiyoda tarqalgan qadimgi dinlar orasida mavqe jihatidan juda katta o'rin tutadi. Bu ta'limot O'rta Osiyoga eramizdan avvalgi II–Iasrlarda kirib kelgan. Kushonlar davrida buddaviylik dini hukmron dinga aylangan edi. Moniy ta'limoti yurtimizda buddaviylikdan keyin keng tarqalgan edi. U zardushtiylik va xristianlikning sintezlashuvi natijasida vujudga kelgan. Moni (216-276)lik ta'limoti asosida Mazdak ta'limoti yuzaga kelgan. U eramizning V–Viasrlarida keng tarqalgan edi. Uning asoschisi Mazdak (470–529-yillar) bo'lgan. Mazdak va uning maslakdoshlari o'z qarashlarida xalq ommasiga suyangan.

Mazdakiylar harakati, eramizning VI asrida bostirilganiga qaramay, turli mamlakatlarda muayyan darajada davom etgan. O'rta Osiyoda Muqanna, Ozarbayjonda Bobak boshliq dehqonlar va shahar kambag'allarining zulmga qarshi kurashlari bunga misol bo'ladi.

XIXasr va XXasr boshlarida Turkistonda jadidlar harakati vujudga keldi. Ular xalqni ma'rifatli qilish, bilim saviyasini ko'tarish, fikr doirasini o'stirish, milliy istiqlolga erishishning zarur shartlaridan biri deb tushundilar va ana shu oliyjanob niyatlarini amalga oshirish uchun tinmay harakat qildilar. Xalqimizning zukko farzandlari Maxmudxo'ja Bexbudiy, Munavvar Qori, Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy, Cho'lpon, Usmon Nosir, Abdulla Qodiriy shular jumlasiga kiradilar. Turkistonning kelajak taqdiri to'g'risida, millatning istiqboli haqida tinmay qayg'urdilar, izlandilar, milliy istiqlolimizga zamin yaratdilar. Jadidchilik harakatining yirik namoyondalari Turkistonda mustaqillik, milliy taraqqiyot uchun, xalqning manfaatlari uchun kurash olib bordilar. Jadidchilik harakatining muhim xususiyati uni milliy – ozodlik harakati bilan chambarchas bog'liqligi edi.

O'sha davrda jadidchilik harakatining qator vakillari yetishib chiqdi. Mahmudxo'ja Behbudiy (1875-1919) jadidchilik harakati-ning asoschilaridan biri bo'lib, yangi maktablar qurish, yosh avlodni mustaqillik ruhida tarbiyalash, ularni ilmli qilish, ma'rifat va taraqqiyot uchun kurashga katta hissa qo'shgan mutafak-kirdir. Behbudiy yangi maktablar uchun «Risolayi asbobi savod», «Amaliyoti islom» va boshqa darsliklarni yozadi. Uning asosiy asari «Padarkush» dramasidir. Bulardan tashqari, Behbudiy ko'plab publitsistik maqolalar yozdi, matbuotda xizmat qildi, nashr ishlari bilan mashg'ul bo'ldi. Uning maqolalarida millat va Vatan taqdiri, mustaqillik g'oyasi,axloq va ta'lim-tarbiya va boshqa masalalar o'rin olgan.

Jadidchilik harakatining yana bir yirik namoyondalaridan biri Abdulla Avloniydir (1878—1934). U pedagogik faoliyat va badiiy ijodni qo'shib olib bordi.Avloniy ochgan maktablarda dunyoviy fanlarni bolalarga o'qitish yo'lga qo'yildi. Mutafakkir «Ikkinchi muallim», «Birinchi muallim», «Alifbedan so'nggi o'quv kitobi» kabi darsliklarni yaratdi.Ayniqsa, olimning «Turkiy guliston yoxud axloq» darsligi bolalar dunyoqarashi, milliy ongi va mafkurasining shakllanishida muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Unda bolalarga ilm – fan sirlarini o'rgatish, yaxshi xulq – odob qoidalarini singdirish, Turkiston xalqini asriy qoloqlikdan qutqarish yo'llari, iqtisod, tadbirkorlikni rivojlantirish, ma'rifat va ma'naviyatni yuksaltirish masalalari yoritilgan.Avloniy «Advokatlik osonmi», «Biz va Siz», «Portugaliya inqilobi», «Ikki sevgi» va boshqa dramatic asarlar yozib, o'zbek teatri va dramaturgiyasi rivojiga munosib hissa qo'shdi.

Jadidchilik harakatining yana bir yorqin vakili Abdurauf Fitrat (1884—1939) bo'lib, ilmning ko'p sohalarida ijod qilgan mutafakkirdir. Olim «Hind sayyohining qissasi», «Uchqun» to'plami, «Chin sevish», «Hind ixtilochilari», «O'zbek tili grammatikasi», «Chig'atoy adabiyoti» va boshqa ko'plab asarlar yozdi. Fitratning asarlarida xalqni jaholat va nodonlikdan qutqazish, ilm-ma'rifatga chorlash, milliy mustaqillikka erishish, xalqning o'zligini tanishi, ongining o'sishi, kuchli va rivojlangan davlat tuzish, xalqning bilimdon bo'lib, tijorat va tadbirkorlik bilan shug'ullanishi, Yevropaning fan va texnika yutuqlarini o'rganish kabi g'oyalar ilgari suriladi. Uning yuqoridagi millatparvarlik va vatanparvarlik ruhi bilan sug'orilgan g'oyalari hozir ham tadbirkorlik, ma'naviyat va ma'rifatni ravnaq toptirishda, milliy g'oya va mafkurani shakllantirishda, xalqning o'zligini anglashida muhim ahamiyatga ega.

Xullas, O'zbekiston hududidagi ijtimoiy-falsafiy fikr tarixini qisqa yoritish shundan dalolat beradiki, u bizning davrimizgacha uzluksiz ravishda madaniyat, inson tafakkuri va aql-zakovatining yuksalishida muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Lekin mustabid tuzum davrida ijtimoiy-falsafiy fikr tarixiga bir tomonlama, sinfiy nuqtayi nazardan yondashildi, faqat kommunistik partiya mafkurasi talablariga to'g'ri keladigan g'oya va fikrlarga e'tibor berildi. 1917-yildagi Oktyabr to'ntarishidan so'ng asta-sekin o'tmish ma'naviyati, falsafiy fikri o'rnini markscha-lenincha mafkura egallay boshladi. Oliy o'quv yurtlari, keng xalq ommasi orasida dialektik va tarixiy materializm va ilmiy ateizm targ'ib qilindi, ularga to'g'ri kelmaydigan ta'limotlar qattiq tanqid ostiga olindi. Eng achinarlisi shuki, o'z milliy madaniyati, urf-odati va an'analariga sodiq bo'lgan, ularni saqlab qolishga intilgan ziyolilar, shoir va yozuvchilar quvg'inga uchrab, qatag'on qilindi. Lekin yuqoridan bo'lgan tazyiqlarga qaramay, madaniy-ma'naviy va ijtimoiy-falsafiy merosimizni o'rganish, tadqiq qilish tamoman to'xtab qolmadi. 60-70-yillarda I.M. Mo'minov, V.Zohidov, keyinroq esa, O.Fayzullayev, E.Yusupov, M.Xayrullayev, J.Tulenov, H.Po'latov kabi olimlarning ijtimoiy-falsafiy tadqiqotlari o'sha davr tafakkurini aks ettirishda ahamiyatga ega bo'ldi.

O'zbekistonning mustaqillikka erishuvi falsafiy merosimizni xolisona, haqqoniy va yangicha tafakkur asosida tadqiq qilish uchun keng imkoniyatlar yaratdi. Endigi vazifa sobiq mafkuraning asoratlarini bartaraf qilib, milliy mafkuramizga tayanib, boy ma'naviy va madaniy qadriyatlarni, ijtimoiy falsafiy tafakkur tarixini chuqur va har tomonlama o'rganishdan iboratdir.

Turkistonning Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi, Buxoro va Xivaning unga tobe, mintaqani markazning xomashyo

manbayiga aylantirilishi, vaziyatni yanada chuqurlashtirdi. Shu bilan birga, bir tomondan – bank sarmoyasi, ikkinchi tomondan – Yevropa va Osiyodan demokratik g'oyalarning kirib kelishi dunyo bilan iqtisodiy aloqa o'rnatish imkoniyatlarini namoyon etdi, mintaqada hurfikrlilikning rivojlanishiga imkon yaratdi. Bu asosiy maqsadlaridan biri ma'rifatparvarlik bo'lgan milliy ozodlik falsafasining shakllanishidagi ilk qadamlar edi. Taniqli olim Ahmad Donish islohotlar o'tkazishning eng faol tarafdorlaridan biri edi. Keyinchalik Muqimiy, Furqat, Hamza, Berdaq, Zavqiy,Avaz O'tar kabi shoirlar o'z she'rlarida xalqni ilm va ma'rifatga chaqirdilar. Abay, Cho'qon Valixonov kabi taniqli arboblar demokratik g'oyalar bilan qurollangan bo'lib, ular bu mushkul ahvoldan chiqishning yo'lini nafaqat ma'rifatda, balki turkiy xalqlarning birlashuvida ko'rar edilar. Xuddi shu zaminda ma'rifatparvarlikdan siyosiy talablarni ko'tarib chiqishga qadar yuksalgan jadidchilik o'sib chiqdi. XIXasr oxiri – XXasr boshlarida Markaziy Osiyoda milliy ma'rifatparvarlik harakati – jadidchilik paydo bo'ldi (arabcha "jadidiya" – ya'ni "yangilik" so'zi- dan) . Asosiy maqsadi - qoloqlik, turg'unlik, savodsizlik va jamiyatning boshqa mavjud kamchiliklariga qarshi kurash bo'lgan jadidchilik harakati Turkiston mintaqasida, Buxoro amirligi va Xiva xonligida turli sharoit va darajalarda rivojlandi. Jadidchilik tarafdorlari islohotlar orqali din va shariat asoslarini saqlab, islomni yangi sharoitlarga moslashtirishni, qarz olishni va milliy muammolarni hal qilish uchun Yevropa madaniyati mevalaridan foydalanishni xohlashdi. Jadidlar maktablar, xayriya jamiyatlari, nashriyot muassasalari, kutubxonalar va o'qish zallari, matbuot,adabiyot va teatr san'ati yordamida o'z oldilariga qo'ygan vazifalarni hal qilishga harakat qildilar. Jadidchilik qayg'uli tugashiga qaramay, Markaziy Osiyo mintaqasi xalqlarining milliy o'ziga xosligining o'sishiga hissa qo'shdi. Shuning uchun jadidlar tajribasi hayot va mavjudotning ko'plab sohalarida dolzarbdir.

Jadidchilikning bevosita asoschisi, qrim-tatar ziyolisi Ismoil Gasprinskiy hisoblanadi. Jadidchilik vakillari M.Behbudiy, A.Fitrat, U.Asadullaxo'jayev, Munavvar Qori, A.Avloniy, S.Ayniy, F.Xo'jayev, T.Norbo'tayev, Majid Qodiriy va boshqalar edi. Jadidlar musulmon dunyosining bir qismi bo'lgan,ayni paytda, jahon tarixida o'zini nodir mustaqil hodisa sifatida namoyon etadigan Turkistonning kelajagi to'g'risida, millatning istiqboli haqida tinmay qayg'urdilar, izlandilar, milliy istiqlolimizga zamin yaratdilar. O'zbekistonda jadidlar vakillarining asosiy qismi 1937–1938- yillardagi qatag'onlik davrida sovetlar hukumati tomonidan yo'q qilindi. O'zbekistonda sovet davri falsafasi barcha fanlar kabi asosan marksizm-leninizm metodologiyasi asosida rivojlandi, faqat mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan keyingina fanlar rivoji kommunistik mafkura zanjiridan xolos bo'ldi. Jamiyat kommunistik mafkura bosimi ostida bo'lishiga qaramay mamlakatimizda falsafa sohasida ko'p ilmiy tadqiqotlar olib borildi, milliy kadrlar tayyorlandi. 1922-yilda O'rta Osiyo davlat universiteti (hozirgi O'zMU) ijtimoiy-gumanitar fanlar fakultetida falsafa fanidan o'quv mashg'ulotlarining olib borilishi, bu boradagi dastlabki qadam bo'ldi. 1935-yilda birinchi "Dialektika va tarixiy materializm" kafedrasi tashkil qilindi. 1944-yilda Dialektika va tarixiy materializm kafedrasi tarkibidan "Falsafa" kafedrasi ajralib chiqqan. 1960-yillarda "Falsafa" kafedrasida 45 ta professor- o'qituvchi faoliyat olib borgan. Bu davrda falsafa mutaxassisligi bo'yicha universitetning o'zida milliy kadrlar tayyorlash imkoniyati paydo bo'lgan.

Toshkentda 1958-yili O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Prezidiumi huzuridagi Falsafa va huquq bo'limi asosida "Falsafa va huquq" instituti tashkil etilgan hamda falsafa va huquq sohasida ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Ushbu institutning asosiy vazifasi O'zbekistonda huquqiy davlatchilik va fuqarolik

jamiyati asoslarini shakllantirish, milliy istiqlol g'oyasi va uni kishilar ongiga singdirish muammolarini tadqiq etish, shu sohalarda yuqori malakali xodimlar tayyorlash bo'lgan. Akademik Ibrohim Mo'minov institutning tashkilotchisi va birinchi direktori bo'lgan, 1975-y.da institutga uning nomi berilgan. O'zbekiston Fanlar Akademiyasi haqiqiy a'zolari sifatida falsafa sohasi bo'yicha 10 kishi saylangan.

Nazorat uchun savol va topshiriqlar

1. Sharq falsafasining mohiyati:

- Sharq falsafasining asosiy xususiyatlari nimalardan iborat?
- Sharq falsafasida falsafa va diniy ta'limotlar o'rtasidagi bog'liqlikni qanday tushuntirasiz?
- Sharq falsafasida borliq va insonning ahamiyati qanday qaraladi?

2. Sharq falsafasining asosiy maktablari va yo'nalishlari:

- Sharq falsafasining asosiy maktablari va ularning xususiyatlarini qisqacha ta'riflab bering.
- Konfutsiylik va Daoizmning asosiy g'oyalari nimadan iborat va ular bir-biridan qanday farq qiladi?
- Hind falsafasining asosiy yo'nalishlari haqida ma'lumot bering. Ularning hayot, ma'naviyat va xotirjamlikka ta'siri qanday?

3. Sharq falsafasining ijtimoiy taraqqiyotga ta'siri:

- Sharq falsafasi qanday qilib ijtimoiy hayotga va jamiyatda axloqiy qadriyatlar tizimiga ta'sir ko'rsatdi?
- Sharq falsafasining jamiyatdagi ijtimoiy barqarorlikka bo'lgan ta'siri qanday aks etdi?
- Misol tariqasida, Konfutsiylikning ijtimoiy jamiyatdagi ahamiyatini tushuntirib bering.

4. Sharq falsafasining zamonaviy ahamiyati:

- Sharq falsafasining zamonaviy hayotdagi ahamiyati nimadan iborat?
- Sharq falsafasining bugungi kunda ilm-fan, siyosat va jamiyatda qanday tatbiqlari mavjud?
- Sharq falsafasining ekologik, axloqiy va ijtimoiy masalalar yuzasidan qanday ta'siri bo'ladi?

5. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Markaziy Osiyoda ilg'or falsafiy, ijtimoiy-siyosiy fikrlar. XX–XXI asr o'zbek falsafasi:

- XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Markaziy Osiyoda qanday ilg'or falsafiy fikrlar shakllangan?
- O'zbek falsafasining XX va XXI asrlarda rivojlanishidagi asosiy yo'nalishlar nimalardan iborat?
- XX asrda O'zbekistonda falsafiy, ijtimoiy-siyosiy fikrning rivojlanishi qanday jarayonlarga olib keldi?

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ayrapetyants L.R. Voleybol. O'quv qo'llanma. T.: 2006.

2. Arabboyev Q.T., Qalandarov M.O. Jismoniy tarbiya va sportga oid me'yoriy hujjatlar. "Namangan» 2012- y.

3. Bleyer A.N., Suslov F.P., Tishler D.A. Terminologiya sporta. Tolkoviy slovar – spravochnik. Moskva. "Akademiya» 2010.

4. Yunusova Yu.M. Sport faoliyatining nazariy asoslari. O'quv qo'llanma. Toshkent 1994 y.

5. Jo'raev E., Xoliqova M. Gandbol va uni o'qitish metodikasi. Uslubiy qo'llanma. NamMQI. 2018 y.

6. Normurodov A.N. Jismoniy tarbiya. O'quv qo'llanma. T.: 2011.

7.Salomov R.S. Sport mashg'ulotlarining nazariy asoslari. O'quv qo'llanma. Toshkent. 2005 y.

Internet saytlari:

1. Sports.ru
2. http://library.ziyonet.uz
3. www.ukathletics.net
4.www.figgymnastics.com

G‘ARB FALSAFASINING USTUVOR ʏO`NALISHLARI VA ULARNING FAN TARAQQIYOTIGA TA’SIRI

Reja:

1. G‘arb falsafasining rivojlanish tarixi va uning asosiy bosqichlari
2. G‘arb falsafasining asosiy yo‘nalishlari
3. G‘arb falsafasining fan taraqqiyotiga ta’siri
4. G‘arb falsafasining ijtimoiy va madaniy taraqqiyotga ta’siri
6. G‘arb falsafasining o‘rganilishi va rivoji uchun kelajak istiqbollari

Tayanch so‘zlar: *antik dunro, realizm, freydizm, realinizm, xristianlik, nemis klassik falsafasi.*

Antik falsafani eramizdan avvalgi VII–VI asrlardagi yaratilgan Yunoniston va Rimdagi falsafiy ta’limotlar jamlanmasi deyish mumkin. Ayniqsa uning paydo bo‘lishi va rivojlanishiga qadimgi Yunonistonda hukm surgan qulay ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy sharoit: siyosiy erkinlik, hunarmandchilik va savdo-sotiqning rivojlanishi, shahar-davlat (polis)lardagi faol siyosiy va fuqarolik hayoti va boshqa omillar yordam bergan. Antik falsafa qadimiy madaniyatning barcha jihatlari bilan chambarchas bog‘liqdir. Shu boisdan qadimgi Yunoniston va Rimdagi buyuk madaniy yuksalish natijasi sifatida baholash mumkin. Filosofiya – (“filo” – sevaman, “sofiya” – donolik)atamasi birinchi marta Pifagor tomonidan qo‘llanilgan. Qadimgi falsafa bu insoniyatning falsafiy ongi rivojlanishidagi yagona va noyob,ammo yakka hodisa emas. Qadimgi mifologiyaning san’at va she’riyatda qayta ishlanishi natijasida, shuningdek, falsafiy fikrni dunyo va inson haqidagi mifologik g‘oyalar asirligidan xalos qilish natijasida Sharq

mamlakatlaridan Yunoniston shaharlariga ko'chirilgan astronomik, matematik va boshqa bilimlarning asoslari tufayli shakllandi. Miloddan avvalgi asrlarda dastlabki falsafiy va kosmologik tizimlar vujudga keldi, unda afsona qarashlarning asosi emas, balki fikrni ifodalashning obrazli vositasi rolini o'ynadi.

Qadimgi falsafa
Milloddan avvalgi VI asrdan
milodiy VI asrgacha

O'rta asrlar falsafasi
Miloddan avvalgi II asrdan – milodiy XIV asrgacha
XIV asrgacha

Uyg'onish davri falsafasi
XV–XVI asrlar

Yangi davr falsafasi XVII–XIX asrlar

Eng yangi davr falsafasi
XX–XXI asrlar

Qadimgi Yunonistonda dastlabki falsafiy ta'limotlar Milet shahrida yuzaga kelgan va rivojlangan. Shu vaqtning o'zida (er.ol. VI asr) Ioniya naturfalsafasi deb atalgan maktabning vakillari bo'lgan **Fales, Anaksimandr va Anaksimenlar** dunyoga butunlay boshqacha qarashni rivojlantirdilar. Ular birinchi bo'lib Koinotni uyg'un ravishda tuzilgan, o'z-o'zidan rivojlanuvchi va o'zi tomonidan boshqariladigan tizim sifatida tasvirlashga urindilar. Olam hech qanday xudolar va hech qanday odamlar tomonidan yaratilgan emas. U doimo mavjud bo'lishi lozim. Uni boshqarayotgan qonunlarni inson tushunib yetishi mumkin. Ularda hech qanday tushunib bo'lmaydigan, sirli narsa yo'q. Shunday qilib, dunyoni diniy-afsonaviy tushunish yo'lidan uni inson aqli vositasida tushunishga hal qiluvchi qadam qo'yildi.

Fales (eramizdan avvalgi 624–547-yillarda yashagan) yunon fani va falsafasining asoschisi bo'lib, o'z davrining yetuk siyosiy arbobi, jo'g'rofi, faylasufi bo'lgan. Fales ta'limotiga ko'ra, tabiatdagi turli-tuman jism va hodisalar dastlabki ibtido — suvdan paydo bo'lgan va yana suvga aylanadi va bu moddiy birlik doimo o'zgarishda bo'ladi. Anaksimandr (Falesning shogirdi) eramizdan avvalgi VII asr oxiri va VI o'rtalarida yashab ijod etgan. U "Tabiat haqida"asarini yozgan, biroq asar bizgacha yetib kelmagan. Fales olamning asosiga suvni qo'ygan bo'lsa, Anaksimandr dunyo — cheksiz, gazsimon apeyrondan iborat, issiqlik va sovuqlik, quruqlik va namlik apeyrondan ajralib chiqib, moddaning bir holatdan ikkinchi holatga o'tishini ta'minlaydi, deb hisoblagan. Uning ta'limotini zamondoshi, shogirdi Anaksimen davom ettirdi. Anaksimen (eramizdan avvalgi 588–525-yillar) havo — olamning asosi, deb bilgan. Uningcha, havoning quyuqlashishidan suv, yer, tosh kabi moddalar tashkil topgan, siyraklashishidan esa olov paydo bo'lgan.

Efeslik Geraklit (eramizdan avvalgi 520–460-yillar) – qadimgi yunon faylasufi, Ioniya maktabi vakili. U olovni olamning va mavjudotning kelib chiqishi deb hisoblagan, u ham ruh va ongdir (logos); u "o'lchovlar bilan yonadi va o'lchovlar bilan o'chadi". Kondensatsiya natijasida hamma narsa olovdan paydo bo'ladi, kamdan-kam hollarda ular unga qaytadilar. U ("hamma narsa oqadi", "bitta daryoga ikki marta kira olmaysiz") bo'lib, doimiy o'zgarish g'oyasini bildirdi. Dunyoning birlamchi unsurini Geraklit olovda ko'rdi. Geraklitning falsafa tarixidagi ahamiyati shunda ediki, u nafaqat naturfalsafaga asos soldi, balki qadimgi

yunon qarama-qarshilik ta'limotining asoschisidir. Uning ijodida siyosiy qarashlar ham muhim o'rin olgan.[5]

Samoslik **Pifagor** (eramizdan avvalgi 580–500-yillar) Yunonistonning Samos orolida yashab o'tgan qadimgi yunon faylasufi, diniy va siyosiy arbob, pifagorizm asoschisi, matematik. U qadimgi Yunonistonda diniy-mafkuraviy falsafiy maktab, ya'ni pifagorchilikka asos solgan. Pifagor o'zining siyosiy qarashlari tufayli podsho Polikret bilan chiqisha olmagan va Samosni tark etib, janubiy Italiyaga ko'chib ketgan, o'sha yerda o'z uyushmasini tashkil etgan. Uningcha, dunyoni bilish jarayoni,avvalo, raqamlarni bilishdan boshlanishi kerak. Pifagorchilarning ta'limotiga ko'ra, olamning asosida modda ham, tabiat ham emas, balki ideallashgan raqamlar yotadi; narsa va hodisalar aynanana shu raqamlar mahsulidir. Pifagorchilar birinchi bo'lib, Yunonistonda tabiatdagi narsa va hodisalarni izohlashda miqdor kategoriyasini ilgari suradi. Pifagor izdoshlari matematik hisob-kitoblar bilan qiziqishar, sonlar va raqamlar birikmasini sirli ruhda talqin qilar edilar. Din va axloqni pifagorchilar jamiyatni tartibga solishning ajralmas qismi hisoblar edilar.

Eley falsafiy maktabi namoyandasi **Ksenofan** (eramizdan avvalgi VI–Vasr) shoir va faylasuf bo'lgan. U Kichik Osiyoda dunyoga kelgan. Ilm olish maqsadida Yunonistonga, janubiy Italiyaga sayohat qilib, umrining so'nggi yillarini Eley shahrida o'tkazgan. Uning falsafiy ta'limotiga ko'ra, tabiat – o'zgarmas va harakatsizdir, "Hamma narsa erdan unib chiqadi va pirovardida yana yerga qaytadi". Ksenofant ilgari surgan g'oyalar uning shogirdi Eley falsafiy maktabining ko'zga ko'ringan namoyandalaridan biri, eramizdan avvalgi 504-yili tug'ilgan

[5] Йўлдошев С., Усмонов М., Каримов Р. Қадимги ва ўрта аср Ғарбий Европа фалсафаси. .– Т.: "Шарқ",2003. – 10-бет. to'g'risidagi fan

Parmenid tomonidan rivojlantirilgan. Eley falsafiy maktabining namoyandalaridan biri Parmenidning shogirdi va do'sti Zenon (490–430-yillar) o'z ustozining ta'limotini himoya qildi va uni rivojlantirdi.

Qadimgi Yunon madaniyatida sofistlar falsafasi katta o'rin tutadi. Sofistlar antropologiya (inson haqidagi fan) va gnoseologiya muammolari bilan shug'ullangan. Ularning ta'limoti Suqrot falsafasiga ham ma'lum darajada ta'sir ko'rsatgan. Suqrot (Sokrat) (miloddan avvalgi 470–399-yy.) – qadimgi yunon faylasufi, dialektikaning yetakchi savollar berish orqali haqiqatni topish usuli asoschilaridan biri. Uning ta'limoti og'zaki tarzda tushuntirib berildi, asosiy manba uning shogirdlari Ksenofon va Platonning asarlari hisoblanadi. Keyingi davrlar uchun Suqrot donishmand idealining mujassamiga aylandi. U sofistlarga qarshi o'laroq, baribir haqiqat mavjud va u bahsda topilishi mumkin, degan fikrda edi.

Suqrotning kuchi bahs yuritish sohasida u ishlab chiqqan usulda ediki, unda bir qator savollar berish yo'li bilan raqibini o'z nuqtayi nazarini noto'g'ri ekanligini tan olishgacha olib borib, so'ngra shu usulning o'zi bilan o'z qarashlarining adolatliligini isbot qilar edi. Shu bilan birga Suqrotning ta'limoti oligarxlar (bir to'da puldorlarning siyosiy va iqtisodiy hukmronligi) uchun nazariy asos yaratdiki, pirovardida demos (xalq hokimiyati) bilan ixtilofga olib keldi. Bu narsa Suqrotni mahkum etilishi va o'limi bilan xotima topdi. U "yangi xudolarga sig'inish" va "yoshlarni buzish"da ayblanib, o'limga mahkum etildi.

Aflotun (Platon) (miloddan avvalgi 428 yoki 427 – miloddan avvalgi 348 yoki 347), qadimgi yunon faylasufi. Suqrotning shogirdi,Afinada "Akademiya" nomli maktabga asos solgan. G'oyalar (ular orasida eng yuqori narsa yaxshilik g'oyasi) – narsalarning abadiy va o'zgarmas tushunarli prototiplari, barcha

o'tkinchi va o'zgaruvchan mavjudot; narsalar g'oyalarning o'xshashligi va aksidir. Idrok – bu anamnez – bu tan bilan bog'lanishidan oldin u o'ylagan g'oyalar haqida qalbning xotirasi. G'oyaga bo'lgan muhabbat (Eros) ma'naviy yuksalishga turtki beradi. Ideal davlat bu uchta mulkning iyerarxiyasi: hukmdor-donishmandlar,askarlar va amaldorlar, dehqonlar va hunarmandlar. Aflotun dialektikani jadal rivojlantirdi va neoplatonizm tomonidan rivojlanishning asosiy bosqichlari sxemasini bayon qildi.

Aflotunning fikricha, demokratiyaning beboshligi tufayli polis halokat yoqasida turibdi, negaki, u tabiiy kelib chiqishi jihatidan boshqarishga qobiliyati yo'q odamlarni boshliq qilib, o'rnatilgan tartibni buzdi. Bundan chiqish yo'lini u polis xilidagi davlatlarga xos bo'lgan dastlabki asoslarni qayta tiklashda ko'rdi. Ular quyi mansabdorlarning yuqori mansabdorlarga bo'ysunish tartibidagi tizimni tashkil etadilarki, unda uchta davlat tabaqasining faoliyat doirasi aniq ajratilgan: hukmdor faylasuflar, harbiylar va yerga ishlov beruvchilar. Har kim o'z ishi bilan shug'ullanadi, davlat esa barcha ish tartibini belgilaydi va hammani nazorat qiladi. Aflotunning falsafiy-axloqiy qarashlari uning savol-javoblar tarzida yozilgan ko'p sonli asarlarida berilganki, ulardagi bosh ishtirok etuvchi shaxs uning ustozi Suqrotdir. Aflotun aqidasida, bizni o'rab turgan voqey dunyo- va tushunchalar tabiiy ravishda bizning ongimizga xos bo'lib, haqiqiy g'oyalar dunyosining faqat taxminiy in'ikosidir. G'oyalar ulardan ajralmasdir. G'oyalar, Aflotun fikricha, zamon va makondan tashqarida bo'lib, ularni idrok etib bo'lmaydi,ammo ularni aql mushohada qila oladi. Aql ikki dunyoni, ya'ni u dunyo va voqey dunyoni bir-biri bilan bog'laydi. Shuningdek, Aflotun o'z asarlarida aks ettirmagan bilim sohalarini topish juda qiyin. U

axloq, siyosat, bilim muammolari, san'at, din va boshqa sohalar bilan shug'ullandi.

Arastu (Aristotel) (miloddan avvalgi 384–322) – qadimgi yunon faylasufi. 335-yilda u litseyga yoki peripatetik maktabga asos solgan. Buyuk Aleksandrning o'qituvchisi Aristotelning asarlari o'sha paytdagi bilimlarning barcha sohalarini qamrab olgan. Mantiq fani asoschisi, sillogistikaning yaratuvchisi. "Birinchi falsafa" (keyinchalik metafizika deb nomlangan) borliqning asosiy tamoyillari: imkoniyat va amalga oshirish, shakl va materiya, samarali sabab va maqsad haqidagi ta'limotni o'z ichiga oladi. U materializm va idealizm o'rtasida tebrangan; g'oyalar – bu narsalarning ajralmas ichki harakatlantiruvchi kuchlari. Harakat va o'zgaruvchan mavjudot manbayi abadiy va ko'chmas "aql", nous (asosiy harakatlantiruvchi). Tabiatning bosqichlari: noorganik dunyo, o'simlik, hayvon, odam. Aql odamni hayvondan ajratib turadi. Axloqning asosiy prinsipi – oqilona xatti-harakatlar, me'yor (metropatiya). Inson ijtimoiy mavjudotdir. Davlatning eng yaxshi shakllari – monarxiya,aristokratiya, «siyosat» (mo'tadil demokratiya), eng yomonlari – zulm, oligarxiya, oxlokratiya. San'atning mohiyati taqlid (mimesis), fojianing maqsadi ruhni "tozalash" (katarsis). O'z ustozi Aflotundan farqli o'laroq, Arastu fikricha, moddiy olam birlamchi bo'lib, g'oyalar dunyosi ikkilamchidir. Bir hodisaning ikki tomoni sifatida shakl va mazmunni bir-biridan ajratib bo'lmaydi. Tabiat haqidagi ta'limot uning risolalarida avvalo harakat haqidagi ta'limot sifatida namoyon bo'ladiki, bu Arastu tizimining eng qiziq va kuchli tomonidir. U dialektikaning yirik vakili hisoblanadi. Dialektika uning uchun ehtimoliy va haqiqatga o'xshash bilimlardan haqiqiy va ishonchli bilimlar olish usuli edi. Polisning mavjud turlarini diqqat bilan ko'rib chiqqan faylasuf boshqarishning to'g'ri uch shakli (saltanat, monarxiya, aristokra-

tiya va politiya) va uch noto'g'ri (tiraniya, oligarxiya va demokratiya) shaklini topadi. Ularning har birining xususiyatlarini mufassal ko'rsatadi va baholash mezoni sifatida ularning farovonlikka qanchalik yaqin turgan yoki turmaganliklarini belgilaydi.Arastu shogirdlari orasida shuhrat topgan juda ko'p faylasuflar, fiziklar, matematiklar va biologlar bor edi.

Demokrit (miloddan avvalgi 470 yoki 460 yillarda – o'ta qariganda vafot etgan) qadimgi yunon faylasufi, qadimgi atomizm asoschilaridan biri bo'lgan. Abderlik (Frakiya).

Demokritning fikriga ko'ra, faqat atomlar va bo'shliq mavjud. Atomlar – ajralmas moddiy elementlar (geometrik jismlar, "figuralar"), abadiy, buzilmas, o'tib bo'lmaydigan, shakli, mavqei, bo'shlig'i, kattaligi bilan farq qiladi; turli yo'nalishlarda harakatlanish, ularning "girdobidan" ham individual tanalar, ham behisob olamlar shakllanadi; odamlar uchun ko'rinmas; ulardan chiqadigan oqimlar, hislar ta'sirida bo'lib, hissiyotlarni keltirib chiqaradi Aaxloqshunoslikda u ataraksiya haqidagi ta'limotni ishlab chiqdi.

Epikur (341–270-yillar) — qadimgi yunon mutafakkiri. Demokrit ilgari surgan atomchilik ta'limotini yanada takomillashtirib, uni yuqori pog'onaga ko'targan va tegishli qarashlar bilan boyitgan faylasuf. Epikur ta'limoticha, olam — moddiy, abadiy va cheksiz.Atomlar — bo'linmas, olam – jism va bo'shliqdan iborat, deb yozgan edi u. Epikur ichki harakat qonuniyatini kashf etib, Demokrit ilgari surgan atomchilik ta'limotiga ulkan hissa qo'shgan. Epikurning falsafiy-axloqiy ta'limoti o'z zamonasida ilg'or ahamiyatga ega bo'lgan. Rohat-farog'at, xursandchilik deganda, kayf-safo, maishat, shohona hayotni emas, balki jismoniy ezilish hamda ruhiy tashvishlardan xalos bo'lishni, ozodlikni tushunamiz, deydi Epikur. Uning fikricha, davlat kishilarning o'zaro kelishuvi asosida tuzilishi lozim.

Epikur ilgari surgan ijtimoiy kelishuv g'oyasi keyinchalik XVIII asr fransuz ma'rifatparvarlari hamda XXasr faylasuflari tomonidan davom ettirilgan. Epikur ta'limotini rimlik Lukretsiy Kar (eramizdan avvalgi 99–55 yillar) davom ettirgan. U "Narsalarning tabiati to'g'risida" nomli asari bilan mashhur bo'lgan. Yashashdan maqsad, deb yozgan Lukretsiy, baxtli hayot kechirishdan iboratdir. Jamiyat ham, xuddi tabiat singari, o'z qonunlariga ega hamda tabiat qonuniyatlariga tayangan holda rivoj topadi, deydi u. Uning falsafiy qarashlari o'z davri va o'rta asr falsafasiga o'z ta'sirini ko'rsatgan.

Yevropa tarixidagi o'rtaasrlar davri deyarli butun ming yillikni o'z ichiga oladi. Rim imperiyasining qulashi natijasida Evropa davlatlarining shakllanishi (5-asr, dastlabki o'rtaasrlar) xristian dogmalarining, o'rta asrlar (11-asrdan) – xristian dunyoqarashini o'zining mafkuraviy poydevori sifatida ishlatgan feodalizmning shakllanishi va o'rnatilishi bilan tavsiflanadi. O'rta asr falsafasining ahamiyati shundaki, u bilim nazariyasini yanada rivojlantirishga katta hissa qo'shgan, ratsional, empirik va apriori nisbati uchun turli xil variantlarni ishlab chiqqan va aniqlab bergan. Kelajakda bu nisbat nafaqat sxolastik nizolarning mavzusi, balki ilmiy bilim tamoyillarini shakllantirish uchun ham asos bo'ladi.

O'rta asrlarning falsafiy tizimlarining aksariyati xristian dinining asosiy tamoyillari tomonidan belgilab qo'yilgan ochiq-oydin idealistik yo'nalishga ega edi. Ushbu dogmalar orasida eng muhimi, qadimgi atomistik ta'limotlarni qat'iyan rad etgan yagona yaratuvchi xudoning shaxsiy shakli haqidagi dogma, shuningdek, Xudo tomonidan dunyoni "yo'qdan" yaratishi haqidagi dogma (kreatsionizm deb ataladi). Ushbu dogma nafaqat yaratuvchi xudoning ideal dunyosi va yer yuzidagi hayotning moddiy dunyosi, moddiy dunyoning mutlaqo oliy

shaxsiyatning ideal irodasiga bog'liqligi o'rtasidagi qat'iy va o'tib bo'lmaydigan chegarani o'rnatibgina qolmay, balki dunyoni o'z vaqtida cheklab qo'ydi (dunyoning boshi va oxiri deb ataladi). Ushbu davr falsafasining xususiyatlari nominalizm va realizm,apologetika, patristika va sxolastikada yaqqol ko'zga tashlanadi. Ideal va material o'rtasidagi eng keskin kelishmovchilik realistlar va nominalistlar o'rtasidagi keskin tortishuvda namoyon bo'ldi. Umuminsoniy deb ataladigan (lotincha umumiy) tabiati haqida, ya'ni umumiy yoki umumiy tushunchalarning tabiati haqida edi. Realistlar (Jon Skott Eriugena,Anselm Kenterberskiy, Foma Akvinskiy) Aristotelning pozitsiyasiga asoslanib, umumiylik uning shaxs bilan ajralmas aloqasida mavjud bo'lib, uning shakli bo'lib, mavjudlikning uchta (Nazarov Q. Falsafa. – T.: "Sharq", 2005. 62-bet.) usuli konsepsiyasini shakllantirgan universal. Nominalistlar (Ioann Rosselin, Perabelyar) universallarning faqat fikrlashda mavjudligiga amin bo'lib, umumiylikning obyektiv mavjudligini inkor etish g'oyasini mantiqiy xulosaga keltirdilar. Nominalistlar nafaqat ma'lum bir narsada umumiy bo'lgan narsaning mavjudligini, balki uning "narsadan oldin" mavjudligini ham inkor etdilar va bu materiyaning ustuvorligi tezisiga teng edi. Bu davr falsafasida gnostiklar o'z o'rniga ega bo'lgan eramizning 150-yillarida o'zining yuksak ravnaqiga erishadi. Ular shunday falsafiy ta'limot yaratdilarki, ularning fikricha Xudo ruh sifatida yovuzlikda mutlaqo sof, inson esa o'z tabiatinnig ruhiy jihati bilan xudoga moslashgan. Bu masalada gnostisizm faylasuflari xristianlikni yunon falsafasi bilan birlashtirishga harakat qildilar. Agar bu urinishda gnostisizm g'alaba qilsa, xristianlik qadimgi dunyoning navbatdagi falsafiy dini bo'lib qolar edi va shunday bo'ldi ham. 354-yilda Pompey sobori xristianlikni Rim imperiyasining asosiy dini deb e'lon qildi. Dualizm –

gnostisizmning asosiy yo'nalishi, bu oqim tarafdorlari moddiy va ruhiy dunyo o'rtasida mustahkam chegara mavjud deb ta'kidlaydilar. Ular ta'limotida materiya hamma vaqt yovuzlik timsolidir. Bundan ular xudo hech mahal moddiy dunyoni yaratishi mumkin emas, deb hisoblaydilar. Gnostiklar tomonidan e'lon qilingan darveshlik (asketizm) o'rta asrlarda monaxchilikning vujudga kelishiga sabab bo'ldi.

Apologetlar (yunoncha apologeomai – himoya qilish), 1) xristianlik tamoyillarini nasroniy bo'lmagan faylasuflarning tanqididan himoya qilgan,asosan, 2–3-asrlarda nasroniy yozuvchilarining umumiy nomi. Apologlar orasida Yustinian, Tatian, Klimentiy Aleksandriyskiy, Origen, Tertullian bor; 2) Majoziy ma'noda apology har qanday g'oya, yo'nalish, ijtimoiy tuzilmaning ashaddiy tarafdori. Apologetika orqasidan xristian mafkurachilarining asarlari bo'lgan patristika paydo bo'ldiki, uning mualliflari bid'atchilarga qarshi kurashga katta hissa qo'shganliklari uchun avliyolik darajasiga ko'tarildilar va cherkov otalari deb ataldilar. "Cherkov otalari"ning eng mashhuri Avreliy Avgustin (354–430) edi. Avgustin falsafasining markazida Xudo turadi. Xudo oliy mohiyat bo'lib, eng oliy ezgulikdir. Inson esa o'zida tabiatning moddiy jismlarini – o'simliklar va hayvonlarni birlashtiradi va aqliy ruh, hamda ozod irodaga egadir. Ruh xudoga yaqin bo'lib, moddiy emas, zavol topmaydi va o'z qarorlarida ozoddir. Ma'naviy hayotning asosi irodadir,ammo aql emas. Hayotning maqsadi va mazmuni baxt-saodatdadirki, unga Xudoni bilish bilan erishib bo'ladi.

Yangi zamon ratsionalizmining asoschisi bo'lgan Dekart barcha fanlar uchun umumiy bo'lgan usulni ishlab chiqish vazifasini qo'ydiki, u ko'p hollarda bilimlar natijasini belgilab beruvchi inson aqlida borligi taxmin qilingan "tug'ma g'oyalar" yoki aksiomalar deb atalgan narsalarni taqozo etar edi. Tug'ma

aksiomalar qatoriga u matematika va mantiqning ko'pchilik qoidalarini qo'ydi, masalan, "to'g'ri to'rt burchak to'rtdan ko'proq tomonlarga ega emas".

Dekart ratsionalizmi juda ko'plab o'z davomchilariga ega bo'ldiki, ular ichida eng yirigi niderlandiyalik faylasuf Benedikt Spinoza (1632-1667) edi. Alohida olingan maxsus javhar (substansiya) sifatidagi fikr haqidagi tasavvurni rad etib, Spinoza Xudoni yagona cheksiz javharga qo'shdi, ya'ni g'oyaviylik va moddiylikni birlashtirdi. Ushbu javhar o'z-o'zining sababi bo'lib, hech qanday boshqa sabablarga muhtoj emas. Shaxs sifatida mutlaq mahrum bo'lgan Spinoza talqinidagi Xudo tabiatga ayniyatdadir. Yagona gavhar bo'lgan Xudo tabiat ikki sifatga – uzunlik (masofa) va ongga ega.

Garchi turli darajada bo'lsa ham, fikrlash qoibiliyati eng oddiy ashyolardan tortib inson miyasigacha tarqalgandinr. Fikr Spinoza tomonidan tabiatni o'z-o'zini idrok etishi sifatida talqin qilinadi. Bundan muhim xulosa kelib chiqadi: g'oyalarning tartib va aloqasi, ashyolarning tartib va aloqasi kabidir. Fikrning yetukligi uning tabiat qonunlari bilan muvofiqligi me'yori bilan ifodalanadi va aynan shunga o'xshash bilib olingan bilimlarning shakllari va dunyoning qonunlari fikrning haqiqiy qoidalaridir. Narsani bilish uning yakkaligi vositasida umumiylik unsurini ko'ra bilish,ayrimlik ko'rinish – modusdan substansiya tomon borish demakdir.

Djon Lokk ingliz falsafasida hissiy bilish (empirizm)ning vakilidir. U "tug'ma g'oyalar" mavjudligini rad etib, bizning barcha bilimlarimizni biz tajriba va hissiy bilishdan olishligimizni ta'kidlaydi. Inson "sof lavha" sifatida tug'iladiki, unga hayot o'zining "yozuvlari"ni, ya'ni bilimlarni yozadi. Dekart ratsionalizmiga qarama-qarshi ravishda, Lokk bilishning birdan bir manbayi hisdir (sensuallizm) degan ta'limotni asosladiki, u

bilimlarning barcha mazmunini his-tuyg'u a'zolaridan keltirib chiqarib, uni hissiy bilishning unsurlarining jami hisoblar edi. "Ilgari his-tuyg'uda bo'lmagan hech narsa,aqlda ham bo'lmaydi", – deb ta'kidlagan edi Lokk. Lokk qarashlarining muhim jihati uning birlamchi va ikkilamchi sifatlar haqidagi nazariyasidir. Birlamchilar kabi, ikkilamchi sifatlar ham tashqi tajriba asosida qo'lga kiritilgan g'oyalarga taalluqlidir. Birlamchi sifatlar bu makon, miqdor (massa), harakat va hokazolardir. Ularni u obyektiv ravishda mavjud deb hisoblaydi. Ikkilamchi sifatlarning kelib chiqishi his-tuyg'u a'zolarining xususiyati bilan bog'liqdir. Ularga Lokk is, ta'm, rang va boshqalarni taalluqli deb biladi. Bu xususiyatlar faqat subyektiv ravishdagina mavjuddirlar. Lokk belgilarning umumiy nazariyasi sifatida semiotika tushunchasini ilmiy istilohga kiritdi.

Leybnis (1646–1716) falsafiy tizimining o'zagi yagonalik haqidagi ta'limot – monadologiyadir. Dunyo monadalardan yoki ruhiy unsurlarning zarrachalaridan tashkil topgandir. Monadalar faollikga ega bo'lib, mustaqildirlar, ular uzluksiz ravishda o'zgarishda bo'lib,azob-uqubat chekishga, idrok etishga va ongga qodirdirlar. Leybnis sezilarli darajada mantiq rivojiga o'z hissasini qo'shib, uning tuzilishi va daliliy qonunlarini ochib berib, uning ramzini ishlab chiqdi. U hozirgi zamon simvolik va matematik mantiqning asoschilaridan biridir.

Djordj Berkli (1658–1753) subyektiv idealizmning yirik vakillaridan biri edi. Berkliga Lokkning birlamchi va ikkilamchi sifatlar haqidagi g'oyalari ta'sir o'tkazgan edi.Ammo Berkli, Lokkdan farqli o'laroq, barcha sifatlarni ikkilamchi (ya'ni subyektiv) hisoblaydi. Og'irlik va barcha makoniy xususiyatlar va aloqalar bizning hissiy a'zolarimizning qobiliyatlari bilan ifoda qilinadilar.

Ingliz faylasufi, ruhshunosi, tarixchisi va iqtisodchisi David Yum (1711–1776) Berklining zamondoshi edi. Tashqi dunyo mavjudmi, degan savolga, Yum ikkilanibroq "bilmayman" deb javob berar edi Axir bizning aqlimiz, ular keltirib chiqargan narsalar bilan emas, balki bizning his-tuyg'ularimizning mazmuni bilangina ish yuritadi. Yumning nuqtayi nazaricha, to'g'ri bilim faqat mantiqiy bo'lishi mumkin,ammo o'rganilayotgan mavzular dalillarga tayanganligi tufayli va mantiqiy isbot qilish mumkin bo'lmaganligi sababli tajribadan keltirib chiqariladi. Tajribani o'zini Yum «taassurotlar» oqimi sifatida ifodalab, uning sabablari ma'lum emasligi va bilib bo'lmasligini qayd etadi. Tajribani mantiqiy asoslab bo'lmasligi omili shuning dalilidirki, tajribaviy bilim ishonchli bo'la olmaydi. Masalan, tajribada biz biror voqea haqida avval bir taassurotga, keyin esa boshqasiga ega bo'lamiz. Ammo ikki hodisaning birin-ketin kelishini mantiqiy jihatdan isbot qilib bo'lmaydi, negaki, birinchi hodisa ikkinchining sababi bo'lishi mumkin, ikkinchi esa – birinchining oqibati bo'la oladi. Ushbu dalildan kelib chiqib Yum sababiyatning obyektiv xususiyatini bilish mumkin emasligi haqida xulosa chiqaradi.

Empirizm (yunoncha empiria – tajriba) bilimlar nazariyasining tendensiyasi, sensorli tajribani ishonchli bilimlarning yagona manbayi sifatida tan oladi. Ratsionalizmga qarshi chiqadi. Empirizm tajribani absolutizatsiya qilish, hissiy bilish, ratsional idrok (tushunchalar, nazariya) rolini pasaytirish bilan tavsiflanadi. Ajralmas epistemologik tushuncha sifatida empirizm 17–18-asrlarda shakllandi (F. Bekon, T. Gobbs, J. Lokk, J. Berkli, D. Yum).

Sensualizm (lotincha sensus idrok etish, his qilish) bilimlar nazariyasidagi yo'nalish, unga ko'ra hislar, in'ikoslar ishonchli bilimlarning asosi va asosiy shakli hisoblanadi.

Ratsionalizmga qarshi chiqadi. Sensasionalizmning asosiy prinsipi – "ongda hissiyotlarda bo'lmaydigan hech narsa yo'q" – P. Gassendi, T. Gobbs, J. Lokk, C. Xelvetius, D. Didro, P. Golbax, shuningdek J. Berkli, D. Yum. Mexanisizm – bu 17–18asrlarda ilgari surilgan mafkuraviy prinsip, tabiat va jamiyat rivojini materiyaning harakat mexanik shakli qonunlari bilan izohlaydi. Mexanisizm manbayi – mexanika qonunlarini mutlaqlashtirish. Keng ma'noda – murakkab, sifat jihatidan noyob harakat shaklini soddalashtirilgan shaklga kamaytirish (masalan, ijtimoiy-biologik).

Deizm (lot. Deus – Xudo) dinni va falsafiy ta'limot bo'lib, Xudoni dunyo aqli deb tan oladi, u tabiatning maqsadga muvofiq "mashinasini" qurgan va unga qonunlar va harakatlarni bergan,ammo tabiatning o'z-o'zini harakatiga Xudoning keying aralashuvini rad etgan (ya'ni "provayderlik"). (Xudo, mo'jizalar va boshqalar) va Xudoni tanib olishning boshqa sabablariga yo'l qo'ymaydi, faqat aqldan tashqari. U ma'rifatparvarlik mutafakkirlari orasida keng tarqaldi, 17–18-asrlarda erkin fikrlashning rivojlanishida muhim rol o'ynadi. Bu davrning yirik faylasuflari **F. Bekon, T. Xobbs, R Dekart, B. Spinoza edi. D. Lok, G. Leybnis, D. Xyum, Volter, J-J. Russo, Didro, Lametriy, Gelvetius, Golbax, I. Kant, IG Fixte, F. Shellling, Gegel.**

XVIII asrda Fransiyada falsafiy taraqqiyot ma'rifatchilik panohida amalga oshirildi. Barcha ijodiy fikrlovchi fransuz faylasuflari amalda ma'rifatparvarlar edilar. Ularning mashhur vakillari orasida Volter, Russo, Didro, Lametri, Gelvetsiy va Golbax bor edi.

XVIIIasrning oxiri XIXasrning boshida fransuz inqilobi voqealarining kuchli ta'siri ostida bo'lgan, iqtisodiy va siyosiy jihatdan qoloq Germaniyada shunday falsafa vujudga keldiki, uning shakllanishida tabiatshunoslik va ijtimoiy fanlarning

yutuqlari katta o'rin tutdi. Fizika va kimyo katta muvafaqiyatlarga erishdi, jonli tabiatni o'rganish olg'a qadam bosdi, matematika sohasida shunday kashfiyotlar qilindiki, ular juda ko'p jarayonlarni miqdoriy jihatdan aniq ifodalashga imkon berdi. Bundan tashqari,atrof-muhit tomonidan tana a'zolari rivojining bir-biri bilan sababiy aloqadorligi haqidagi

Lamark ta'limoti katta qiziqish bilan kutib olindi. Eng yangi astronomik, geologik va embriologik nazariyalar ham katta qiziqish uyg'otdi. Bu barcha nazariyalar, hamda kishilik jamiyatining taraqqiyot nazariyasi muqarrar ravishda rivojlanish g'oyasini voqelikni bilishning nazariyasi va usuli sifatida ishlab chiqish zaruriyatini rag'batlantirar edi.

Nemis klassik falsafasi I.Kant, I. Fixte, F.Shelling, G.Xegel va L.Feyerbax kabi shaxslar nomi bilan bog'liqdir. Nemis mumtoz idealizmining asoschisi Immanuel Kant (1724– 1804) faqat buyuk faylasuf sifatidagina emas, balki keng qamrovli chuqur olim sifatida ham mashhurdir. Uning tomonidan ishlab chiqilgan quyosh sistemasining bahaybat gazsimon tumandan kelib chiqqanligi haqidagi ta'limot hozirgacha astronomiyada asosiy ilmiy g'oyalardan biri hisoblanadi. Kantning ilmiy tabiatshunoslik sohasidagi kashfiyoti uning zamondagi tabiatshunoslik qoidasini faqat Koinot tuzilishigagina emas, balki uning kelib chiqishi va rivojiga nisbatan ham qo'llashga birinchi urinish edi. Kantning xizmatlaridan yana biri uning hayvonlarni ehtimol tutilgan kelib chiqishining tartib bilan taqsimlanishi haqidagi g'oyasi va insonlarning irqiy jihatdan tabiiy kelib chiqishi to'g'risidagi nazariyasi edi.

Kantning nuqtayi nazaricha, eng muhim falsafiy muammolarni yechishga kirishishdan oldin inson bilimining chegarasi va imkoniyatini tadqiq qilish lozim. Kant fikricha, biz dunyoni qanday bo'lsa, o'shanchalikda emas, balki bizga qanday namoyon

bo'lishiga qarab bilamiz. Bizning bilimimizga faqat ashyolar ko'rinishi yoki fenomenlar yetib keladi. His-tuyg'u a'zolariga "narsa –o'zida" ta'siri natijasida hissiy tartibsizlik vujudga keladi. Bu tartibsizlik bizning aqlimiz quvvati orqali birlik va tartibga solinadi. Biz nimaniki tabiat qonunlari hisoblasak,aslida hodisalar dunyosiga aql orqali kiritiladigan aloqadir, yoki boshqacha aytganda, bizning aqlimiz qonunlarni tabiatga buyruq qiladi. Ammo hodisalar dunyosiga inson ongidan mustaqil bo'lgan ashyolar mohiyati bo'lgan "narsa o'zida" muvofiq keladi. Ularni mutlaq bilish mumkin emas. "Narsa o'zida" bizlar uchun noumenlar, ya'ni aql bilan bilinadigan,ammo tajribada berilmaydigan mohiyatdir. Kant inson aqlining kuchiga cheksiz ishonishni aqidaparastlik deb atab, uni shubha ostiga olib baholaydi.

Nemis falsafasi Kantdan keyin **I.G. Fixte** (1762–1814) va **F. Shelling** (1775–1854) tomonidan ishlab chiqildi. Ular hodisalar va ashyolarning kantchasiga qarama-qarshi qo'yilishini muayyan yagona qoida bo'lgan – Fixtedagi mutlaq "Men" va Shellingdagi borliq bilan fikrdagi Mutlaq ayniyat asosida dalillab, uni bartaraf qilishga harakat qildilar. Bundan tashqari, Shelling dialektika kategoriyalarini, jumladan ozodlik va zaruriyat, yagonalik va ko'plikning ayniyati va boshqalarni sinchkovlik bilan tahlil qilib, Gegel dialektikasining xabarchisi sifatida xizmat qildi.

Nemis falsafasi o'z rivojining cho'qqisiga **Vilgelm Fridrix Gegel** (1770–1831) ijodida erishdi. Gegel dialektikaning qonunlari va kategoriyalari haqidagi ta'limotni rivojlantirib, birinchi marta dialektik mantiqning asosiy qoidalarini ishlab chiqdi va o'sha davrdagi ta'limotlarda hukm surgan metafizik ong usulini tanqid ostiga oldi.

Taraqqiyot g'oyasi butun Gegel falsafasiga singdirilgan. Taraqqiyot oldinma-ketin, quyidan yuqoriga qarab boradi; bu

jarayonda miqdor o'zgarishlaridan sifat o'zgarishlariga o'tish yuz beradi, taraqqiyotning manbayi esa, har qanday o'z-o'zidan bo'ladigan harakat prinsipidan iborat bo'lgan qarama-qarshiliklardir. Gegel falsafasi ichki ziddiyatlarga ega. Bilish tizimi, bir qancha turdagi anglash bosqichlaridan o'tib, oxirgi bosqich bo'lgan o'z-o'zini anglashda tugallanadiki, uni amalga oshiruvchi narsa Gegel falsafasining o'zi bo'lib chiqadi. Shunday qilib, Gegel usuli va tizimi o'rtasida qarama-qarshilik kelib chiqadi.

Lyudvig Feyerbax (1804–1872) moddiy unchilik nuqtayi nazaridan Gegel falsafasini jiddiy va har tomonlama tanqid ostiga olgan birinchi faylasufdir. Falsafa mavzusini ifodalab, Feyerbax shunday qarorga keladiki, uning diqqat markazida inson turmog'i lozim.

Shundan ko'rinadiki, Feyerbax moddiy unchiligi antropologik xususiyat kasb etadi. Insonni vujudga keltiradigan yagona sabab yoki asos tabiatdir. Shuning uchun, falsafaning vazifasiga qayta to'xtab, Feyerbax yozadiki, uning ta'limotini "ikki og'iz so'zda ifodalash mumkin: tabiat va inson".

Umuman olganda, XIXasrdagi Yevropa falsafasi tafakkuri, aftidan murakkab mozaikaga qaramasdan, ma'lum va izchil yo'nalishlarga sodiq qolgan mutafakkirlarning g'oyalari va qarashlaridan tashkil topgan yagona rasmni anglatadi. Yigirmanchi asr falsafasini bir necha davrlarga bo'lish mumkin:

1. Genetik jihatdan 19-asrning ikkinchi yarmining rivojlanishidan kelib chiqadigan,ammo instrumental va amaliy yo'nalishga ega bo'lgan, ilmiy bilimlarning samarali metodologiyasini yaratishga, dunyoni estetik tushunishga va ijtimoiy adolatni o'rnatishga qaratilgan nazariyalar (10–40-yillar).

2. Ilgari antagonistik ta'limotlarning yaqinlashuvidan kelib chiqqan, bilim va ijtimoiy taraqqiyotning birlashishi uchun yangi asoslarni izlayotgan nazariyalar (40–60-yillar).

3. Nazariyalar asosan eklektik,ammo bilim va ijtimoiy amaliyotning yangi dunyoqarash asoslarini izlashga qaratilgan (70–90-yillar).

Ushbu davrning buyuk faylasuflari orasida Shopengauer, M.Xaydegger, E. Gusserl, K.Yaspers, J.P.Sartr, A.Kamyu, Z.Freyd, F.Nisshe va boshqalar bor edi. Asosiy falsafiy yo'nalishlar orasida ekzitensializm, freydizm, neotomizm, pragmatizm, germenevtika, empirio-tanqid, volyuntarizm, hayot falsafasi va boshqalar ajralib turadi. Keyinchalik pragmatizm g'oyalari keng tarqalib, o'z rivojini Uilyam Djems (1842–1910) va Djon Dyui (1859–1952)asarlarida topdi. U Djems Pirsning pragmatik qoidalarini rivojlantirib unga volyuntarizm nuqtayi nazaridan yondashganligi tufayli, uning oqibatida irodaga asoslangan haqiqat nazariyasi vujudga keldi. Ana shu iroda inson tajribasida markaziy o'rinni egallaydi. Bizdan tashqarida bo'lgan ashyolarni ham qo'shib hisoblaganda bizning tajribamizda bo'lgan barcha narsa irodaga bog'liqdir. Shunday qilib, dunyo to'g'risidagi bizning bilimlarimiz voqelikning in'ikosi emas, balki irodaviy qurilmaning o'zidir. "Haqiqiy" va "foydali" ifodalari Djems nazarida bir xil ma'noga egadirlar. O'z navbatida, foydali narsa iroda orqali ifodalanadi. Djems fikricha, voqelikni biz qanday tasavvur etsak, shundayligicha namoyon bo'ladi, ya'ni biz uni qanday ko'rishni xohlasak, o'shanday ko'rinadi. Djemsning diniy e'tiqodining asosida ham iroda yotadi. Garchi faylasuf hech qayerda Xudoning mavjudligi haqida yozmagan bo'lsa ham, uning fikricha, tarixiy tajriba shuni ko'rsatadiki, Xudoga ishonishning kishilar uchun ulkan ahamiyati bor. Xudoga ishonish – bu bizning irodamizning omilidir.

Pirs va Djems g'oyalarini rivojlantirib J.Dyui o'z e'tiborini muammoviy vaziyat deb atalmish narsaga qaratdiki, u o'zining taraqqiyot bosqichlarida shubhadan ishonchga (imon-e'tiqod) o'tishi xususiyatlari bilanajralib turadi. Dyui nazarida tushunchalar, g'oyalar va nazariyalar instrumentallik ("asbob va qurol") xususiyatiga, ya'ni ularning haqiqiyligi qay darajada muammoviy vaziyatni hal qilishga qodirligi bilan ifoda qilinadi.

Neopozitivizm Yangi pozitivizm yoki mantiqiy empirizm – XXasr falsafasida eng ko'zga ko'ringan oqimlardan biridir. U pozitivizm rivojida uchinchi bosqichdir. Falsafiy oqim sifatida yangi pozitivizm Vena to'garagi asosida 20–30-yillarda shakllandi. Yangi pozitivizmning asosiy vakillari – L.Vitgenshteyn (1889–1951), M. Shlik (1882–1936), R.Karnap (1891–1970), O.Neyrat (1882– 1945), G.Reyxenbax (1891–1953), B.Rassel (1872-1970), A.Ayer (1910–1989) va boshqalar edilar. Yangi pozitivistcha ta'limotning parchalanishi umumiy nomda birlashgan "postpozitivizm" deb atalgan bir qator fan falsafasining prinsiplarini vujudga kelishiga olib keldi. Bu yo'nalishning asoschisi "kritik ratsionalizm" ijodkori Karl Popper (1902–1988) edi. Postpozitivizmga I.Lakatos, T.Kun, S.Tulmin, D.Agassi, P.Feyerabend kabi yirik G'arb fan faylasuflarining qarashlari taalluqlidir. Bu faylasuflarning asosiy vazifasi fan falsafasida pozitivistcha uslubdagi tafakkurni bartaraf etish edi.

Neotomizm – katolik falsafasining yetakchi yo'nalishi bo'lib, Vatikanning rasmiy ta'limoti sifatida tan olingan va o'rta asr faylasufi akvinalik Foma ta'limoti – tomizmning hozirgi zamon-dagi turidir. Tomizm asoslarini tiklashga qaratilgan birinchi urinishlar XIXasrning o'rtalariga taalluqli bo'lsa, katolik cherkovining falsafiy ta'limoti sifatidagi rasmiy maqomni u 1879-yilda papa Lev XIII ning "Aeterni Patris" nomli ensiklikida (farmoyishida) oldi. Yangi tomizmning eng mashhur vakillari

Dezire Merse (1851–1978), Jak Marten (1882–1973), Eten Jilson (1884–1972) va boshqalar edi. Ruhiy tahlil asoschisi mashhur avstriyalik ruhshunos va psixiatr Zigmund Freyd (1856–1939)dir. Keyinchalik psixoanaliz Freyd g'oyalarini rivojlantirish bilan ham, uni qayta ko'rib chiqib, boshqa ruhiy tahlilga doir qoidalarni vujudga keltirish bilan ifodalanadi. Psixoanaliz falsafasining Xxasrdagi eng yirik vakillari Alfred Adler (1870–1937), Karl Gustav Yung (1875–1961), Erix Fromm (1900 1980) va boshqalar edilar.

Ekzistensializm yoki hayot falsafasi (lot. Exsistentia-hayot) Xxasrning birinchi yarmida paydo bo'ladi. Ekzistensializmning eng ko'zga ko'ringan vakillari Karl Yaspers (1883–1969), Martin Xaydegger (1889–1976), Jan-Pol Sartr (1905–1980),Alber Kamyu (1913-1960) edilar. Diniy (Yaspers) va ateistik (Xaydegger, Sartr, Kamyu) ekzistensializmni bir-biridan farq qiladilar. Ekzistensializmning asosiy mavzulari – inson, hozirgi dunyodagi uning taqdiri, tanglik yuz bergan vaziyatlardagi hatti-harakati, e'tiqod, ozodlik, hayotning ma'nosi kabi muammolar edi. Ekzistensializmning kelib chiqish shiori shunday edi: mavjudlik mohiyatdan oldin keladi. "Germenevtika" atamasi sharhlash, talqin qilish va tushuntirish san'ati sifatida qadimgi dunyo madaniyatiga borib taqaladi. Qadimgi Yunon afsonasida xudolardan xabar keltiruvchi Germes, kishilarga xudolarning buyruqlarini tushuntirib berar va odamlarning xohish, irodalari va iltijolarini Olimpga yetkazar edi. Germenevtikani nazariya sifatida shakllantirish F.Shleyermaxer (1768–1834) va V.Diltey (1833–1911)asarlarida o'z yakunini topdi.

Xxasrdagi falsafiy germenevtikaning eng yirik vakili va asoschisi Xans Georg Gadamerdir. M. Xaydegger izidan borib Gadamer tushunchani insonni bilish faoliyatining tomonlaridan

biri deb emas, balki uning borlig'ining vositasi deb biladiki, bu bilan germenevtika muammosini uslubiy va bilish nazariyasi sohasidan borliq haqidagi masalaga o'tkazadi.

Xxasrning 20-yillaridan boshlab, ijtimoiy-gumanitar fanlarda **strukturalizm** deb umumiy nom olgan harakat boshlanadi. Uning asosida yotgan strukturali uslub dastavval tilshunoslikda (lingvistikadagi Praga, Kopengagen va Yel strukturalistik maktablari) ishlab chiqilgan bo'lib, keyinchalik ijtimoiy-gumanitar bilimlarning boshqa sohalarida (adabiyotshunoslik, madaniyatshunoslik, ruhshunoslik, jamiyatshunoslik, og'zaki ijod (folkloristika), estetika, irqshunoslik (etnologiya) va boshqalarda) yoyildi. Strukturalizm Fransiyada eng ko'p darajada yorqin namoyon bo'ldi. Uning asosiy vakillari K.Levi Stross, M.Fuko, J.Lakan, R.Bart va boshqalar edilar. Ongsizlik holati ham strukturalarni aniqlash obyekti sifatida strukturachilar ijodida ahamiyatli o'rin tutadi. Levi-Stross asotir tafakkurni biz hayotda rioya etadigan ko'plab qoida va me'yorlarni tushunish kalitini beradigan jamoaviy ongsiz holat sifatida qarab chiqadi. Uni ongsizlik holati tahlilini hisobga olmagan, faqat ong tahlili uslubigagina qurilgan etnologiya qoniqtirmaydi. Ongsizlik holati J.Lakaning "strukturali ruhiy tahlili"da ham tadqiqot mavzusi bo'ldi. 60- yillarning oxirlaridan strukturalizm o'z joyini poststrukturalizmga bo'shatib beradi.

XX–XXIasrlar falsafasi turli davrlardagi falsafiy yo'nalishlarni o'zida birlashtirdi va o'tmish tajribasiga tayangan holda, olam va odam masalasiga juda murakkab ijtimoiy-siyosiy vaziyatda ziddiyatli, yangi falsafiy qarashlar shakllanishiga sabab bo'ldi. Hozirgi zamon falsafasining o'ziga xosligi metodologik jihatdan turli-tumanligi bilan belgilanadi.

Nazorat uchun savollar:

1. G'arb falsafasining rivojlanish tarixi va uning asosiy bosqichlari

- G'arb falsafasining boshlanishi qaysi davrda va qanday shakllandi?
- Qadimgi Yunon falsafasining o'ziga xos xususiyatlari qanday edi?
- O'rta asrlar falsafasida din va ilmning o'zaro bog'liqligi qanday aks etdi?
- Uyg'onish davri falsafasining ilmiy va madaniy taraqqiyotga ta'siri qanday bo'lgan?
- Zamonaviy falsafaning asosiy xususiyatlari va rivojlanish bosqichlari qanday?

2. G'arb falsafasining asosiy yo'nalishlari

- Ontologiya va epistemologiya o'rtasidagi farqlarni tushuntirib bering.
- Aksiologiya fani nima bilan shug'ullanadi va uning jamiyatdagi roli qanday?
- Logika fani fikrlash jarayonlarini qanday o'rganadi?
- Metafizika va pragmatizmning asosiy farqlari va ularning jamiyatga ta'siri qanday?
- Postmodernizm falsafasi qanday yangi yondashuvlarni taklif qiladi?

3. G'arb falsafasining fan taraqqiyotiga ta'siri

- G'arb falsafasining ilmiy metodologiyaning shakllanishidagi o'rni qanday?
- Nega ilmiy fanni rivojlantirishda falsafiy fikrlash muhim hisoblanadi?
- G'arb falsafasining tabiatshunoslik fanlari (masalan, fizika, biologiya)ga ta'siri qanday bo'lgan?

• Psixologiya va sotsiologiyaning falsafiy asoslari haqida nima deya olasiz?

• Falsafa va texnologiyaning o'zaro bog'liqligi qanday namoyon bo'lgan?

4. G'arb falsafasining ijtimoiy va madaniy taraqqiyotga ta'siri

• G'arb falsafasining inson huquqlari va demokratik g'oyalar bilan bog'liqligi qanday?

• Falsafaning axloqiy qadriyatlar va etika sohasidagi roli qanday?

• G'arb falsafasining ta'lim va tarbiya tizimiga ta'siri qanday bo'lgan?

• Jamiyatni shakllantirishda falsafiy qarashlarning roli haqida nimalarni ayta olasiz?

5. G'arb falsafasining o'rganilishi va rivoji uchun kelajak istiqbollari

• G'arb falsafasi zamonaviy dunyoda qanday muammolarni hal qilishga qaratilgan?

• G'arb falsafasining o'zgarishi va yangi tendentsiyalarni qanday tushunasiz?

• Falsafaning ilmiy va ijtimoiy sohalarda rivojlanishiga qanday ta'sir qilishi mumkin?

• G'arb falsafasi va globalizatsiyaning o'zaro bog'liqligi haqida qanday fikrdasiz?

• Kelajakda G'arb falsafasining asosiy yo'nalishlari qanday o'zgarishi mumkin?

Nazorat savollari

1. Sharq faylasuflaridan kim ilk bor har bir insonning jismoniy mashqlar bilan qachon va qaysi tartibda

shug'ullanishini belgilab beruvchi ta'limni, ya'ni jismoniy mashqlarning klassifikatsiyasini yaratib bergan?

2. Temuriylar davrida jismoniy yuksalishga bo'lgan e'tibor qaysi manbalarda keltirilgan?

3. Sharq faylasuflaridan Forobiy va Beruniyning ijtimoiy qarashlari qanday bo'lgan?

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qodirov M. Markaziy Osiyo, Yaqin va O'rta sharqning falsafiy tafakkuri (o'rta asrlar). -T.: ToshDShI nashriyoti, 2009.191 b.

2. Qadimgi va O'rta asr G'arbiy yYevropa falsafasi T.,2003, 201-bet

3. G'arb falsafasi T.,, 2-3-4-5-6-7- bo'limlar

4. Falsafa (o'quv qo'llanma). E.Yusupovning umumiy tahriri ostida.- T.: Sharq, 1999.

5. Sharq falsafasi. Mas'ul muharrirlar: Ibrohimov N.I., Ahmedova M.A.-T.: TDSHI, 2006.

6. Abu Rayhon Beruniy. Tanlangan asarlar. 1-jild, ~T.:Fan, - 1968.

7. Pulatova D.A.. Rozmatova G.M. Falsafa tarixi: G'arb falsafasi. -T.:TDSHI,2013.

8. G'arb falsafasi.Tuzuvchi va mas.muharrir: Q.Nazarov. — T.: Sharq, 2004.

BORLIQ FALSAFASI (ONTOLOGIYA)

Reja:

1. Borliq tushunchasi va uning turlari. Ontologiyaning rivojlanish tarixi
2. Ontologiyaning jamiyat va madaniyatdagi o'rni. Ontologiyaning zamonaviy muammolari va istiqbollari
3. Substansiya va materiya, ularning o'zaro aloqadorligi.
4. Harakat va rivojlanish tushunchasi. Harakatning asosiy shakllari.

Tayanch so'zlar: *Borliq, real va virtual borliq, tabiiy va ijtimoiy borliq, ma'naviy borliq, dualism, monism.*

Falsafa fanining borliq haqidagi masalalarini o'rganuvchi qismi **ontologiya** deb ataladi.**Ontologiya so'zi yunoncha -ontos (mavjudlik) va logos (ta'minot)** so'zlarining birikmasidan tashkil topgan bo'lib, "mavjudlik haqidagi ta'limot", ya'ni borliq haqidagi fan ma'nosini ifodalaydi. Bu atama fan tarixida birinchi bor 1613 yili nemis olimi R.Gokleniusining "Falsafa lug'ati", so'ngra, Xristian Volf (1679-1754) ning falsafaga oid darsligida ishlatilgan.

Falsafa o'rganadigan qaysi predmetni olmaylik, u borliq muammosi bilan bog'liq ekanligini ko'ramiz. Haqiqatdan ham, borliq, unga munosabat masalasi falsafiy qarashlarda markaziy o'rinni tashkil qiladi, chunki, borliq muammosi falsafasi har qanday dunyoqarash va metodologik muammolarning asosi hisoblanadi.

Borliq haqidagi falsafiy munozaralar falsafa tarixida muhim dunyoqarash muammosi sifatida qadimdan davom etib keladi. Kishilar qadimdan o'zlarini qurshab turgan narsalar va

hodislarni, o'zgarishlarni kuzatishgan. Ba'zi narslatr hozir mavjud, keyinchalik esa yo'qolib ketadi, kecha yo'q bo'lgan ba'zi narsalar esa bugun paydo bo'ladi. Shular asosida kishilarda mavjudlik va yo'qlik haqida tasavvurlar, qarashlar vujudga kelgan.

Kishilar o'zlarining ham dunyoga kelishi, yashashi va nihoyat vafot etishi, "yo'qlikka"aylanishi haqida o'ylay boshlashadi. Shu asosda kishilarning "bu dunyo" va "u dunyo", ya'ni odamning vafotidan so'ng uning ruhi ko'chib o'tadigan dunyolar haqidagi tasavvurlari paydo bo'lgan. Kishilar o'zlarining kundalik tajribalari asosida atrofdagi dunyoning hozir mavjudligi, o'zlari tug'ilmasdan ilgari ham mavjud bo'lganligiga va keyinchalik ham mavjud bo'lib qolishiga ishonishgan.Shu tarzda ularda "borliq" va "yo'qlik" haqida tasavvurlar shakllangan.

Inson aqlli jonzot sifatida shakllanish jarayonining ilk bosqichlaridayoq o'z dunyoqarashining negizini tashkil etadigan muhim savollarga javob topish zaruriyati bilan to'qnash keladi:

1. "Men kimman?"
2. "Meni qurshagan borliqning mohiyati nimada?"
3. "Borliq qanday va qaerdan paydo bo'lgan?"
4. "Dunyoni nima yoki kim harakatlantiradi?"
5. "Dunyoning rivojlanishida biron-bir maqsad, maqsadga muvofiqlik, mo'ljal bormi?"

Inson bunday savollarga javob berishga kirishar ekan, uning ongi,avvalo, o'zi nima bilan bevosita ish ko'rayotganini qayd etadi. Bunianiq anglamasdan, u o'zining dunyo haqidagi mulohazalarin ianiq- ravshan narsalarni qayd etishdan boshlaydi. Shu tariqa inson va uning ongi o'zini qurshagan barcha narsalar,avvalo, mavjud bo'lish qobiliyatiga ega ekanligiga ishonch hosil qiladi. Borliq kategoriyasi esa xuddi shunday eng umumiy tomonni; ya'ni hamma moddiy va ma'naviy predmet va

hodisalarni realligini ifodalaydi. Ikkinchi yo'nalish vakillari esa, borliq avvalo, mavjudlik orkali ifodalanar ekan borliq kategoriyasini ishlatishda ehtiyoj yo'q, chunki borliq tushunchasi mavjudlik tushunchasiga nisbatan hech bir yangilik bermaydi deyishadi. Gap shundaki, borliq falsafiy kategoriya sifatida faqat mavjudliknigina ifodalab qolmasdan, balki mavjudlikka nisbatan umumiyrok va kengroq mazmunga ega bo'lgan reallikni bildiradi. Shunday qilib, borliq masalasi insonning dunyoni oqilona anglash yo'lidagi ilk urinishlaridayoq duch kelgan barcha masalalarning negizi hisoblanadi. Muayyan narsalar mavjudligi yoki mavjud emasligi masalasi inson falsafiy mulohaza yurita boshlagani zahotiyoq uning diqqat markazidan o'rin oldi. Mifologiyaning bosh vazifasi – "borliqni kim yaratgani" haqida gapirib berishni falsafa "borliqning nimaligi, u qaerdan paydo bo'lgani va qaerga yo'qolishi"ni oqilona tushuntirish bilan almashtirgani tasodifiy emas. Bunday tushuntirishga urinish jarayonida faylasuflar barcha zamonlarda quyidagi savollarga javob topish zaruriyati bilan to'qnash kelganlar:

- falsafiy kategoriya sifatidagi "borliq" nima?
- bu atama nimaga nisbatan tatbiq etilishi mumkin?
- unga qanday falsafiy ma'no yuklanadi?

Bu savollarga keng javob berish falsafa tarixiga ham, mazkur tushunchaning etimologiyasiga ham murojaat etishni nazarda tutadi. Mazkur dastur bo'yicha ta'lim oluvchilar tarixiy-falsafiy kurs bilan tanish bo'lishlari lozimligini hisobga olib, bu erda faqat falsafiy tafakkur tarixiga qisqacha to'xtalamiz va mazkur muammoni anglab etish jarayonidagi muhim bosqichlarinigina qayd etamiz. **Borliq tushunchaning etimologiyasi.** "Borliq" falsafiy kategoriyasi nafaqat eng muhim, balki boshqa kategoriyalar orasida ayniqsa, ko'p ishlatiladigan kategoriya hisoblanadi. Bu holni shu bilan izohlash mumkinki, uning kelib

chiqishi dunyoning ayniqsa, keng tarqalgan tillarida ayni bir ma'no – "bo'lish","mavjud bo'lish", "hozirlik", "hozir bo'lish", "mavjudlik" ma'nolarini anglatadi. Jahonning aksariyat tillarida yuqorida sanab o'tilgan va ma'no jihatidan unga yaqin fe'llar negizini tashkil etadigan "bo'lmoq" fe'li, o'zining bevosita ma'nosidan tashqari, yordamchi fe'l sifatida ham faol ishlatiladi. Bu dalilga izohni inson tafakkuri tabiatidan izlash lozim bo'lib, uning mantig'i va qonunlari fikrni bayon etishning til shakliga bog'liq bo'lmaydi, lekin,albatta, fikrlash mumkin bo'lgan, universal va o'zgarmas sifatida amal qiladigan va shu sababli har qanday mulohazaning tayanch nuqtasi bo'lib xizmat qilishi mumkin bo'lgan nimagadir tayanishi lozim.

Fikr qaratilgan narsa mavjudligi (yoki mavjud emasligi)ning ayni shu dalili har qanday tilning ilk jumlalaridayoq tom ma'noda universal fe'l (yoki uning modifikatsiyalari) bilan aks ettiriladi: o'zbek tilida - «bo'lmoq», «bor», ingliz tilida - «is», nemis tilida - «ist» va hokazo. Shunday qilib, «borliq» va «yo'qlik» kategoriya-larining o'ziga xosligi, betakrorligi va universal ahamiyati shundan iboratki, ularning falsafiy ma'nosi tavsiflanadigan turli tillarda ular fe'ldan,aniqroq aytganda, «bo'lmoq» fe'lidan (yoki uning inkoridan) hosil bo'lgan tushunchalar hisoblanadi va narsaning o'zini emas, balki uning mavjudligi yoki yo'qligini ko'rsatadi. Masalan, stol bor, yomg'ir yo'q, oqlik bor,aks yo'q, miya bor, g'oyalar yo'q va hokazo. Borliq tabiiy tillarda otlar, ravishlar yoki ravishdoshlar bilan ifodalanadigan, ya'ni bilishda uning ob'ekti yoki sub'ekti sifatida amal qiladigan tushunchalar bilan tenglashtirilishi mumkin emas.Ayni zamonda bu ob'ektlar yoki sub'ektlarning birortasi ham uning borligi yoki yo'qligini qayd etmasdan fikrlanishi mumkin emas. Borliq va yo'qlik dialektikasi . «Borliq bor, yo'qlik esa - yo'q», deganida, Parmenid ayni shu holga e'tiborni qaratgan. Binobarin, yaxshi, yomon,

to'g'ri, noto'g'ri, quvnoq, sho'r, oq, qora, katta, kichkina kabi va shunga o'xshash sifatlar borliqqa nisbatan qo'llanilishi mumkin emas. Borliqni biron-bir koordinatalar tizimiga joylashtirib bo'lmaydi, uni faqat vaqtda fikrlash mumkin. Muxtasar qilib aytganda, borliqni har qanday voqelik ega bo'ladigan umumiy, universal va betakror mavjudlik qobiliyati, deb tavsiflash mumkin. Bu fikr esa amalda mavjud narsagina borliqqa ega bo'lishi mumkin, degan xulosa chiqarish imkonini beradi. «Yo'qlik» har qanday tilde amalda mavjud bo'lmagan narsa bilan tenglashtiriladi va boshqacha tushunilishi mumkin ham emas. Boshqacha aytganda, yo'qlik borliqni inkor etadi va narsa, jism, hodisa, ong... (ya'ni amalda mavjud bo'lishi mumkin bo'lgan narsalar) o'zligini yo'qotgan holda «yo'qlik»atamasi ayni shu ma'noda ishlatiladi va ular haqida ular «yo'qlikka chekindi», mavjud emas deyiladi. Lekin, sof falsafiy ma'noda bu fikrni to'g'ri deb bo'lmaydi. Borliq va yo'qlik o'rtasida dialektik o'zaro aloqa mavjud. Birinchidan, dunyo haqidagi hozirgi tasavvurlarga ko'ra, biz yashayotgan Olam bo'shliqdan bino bo'lgan. Bo'shliq materiyaning alohida holati. Bo'shliq fizik borliqning eng boy tipi, o'ziga xos potensial borliq sifatida namoyon bo'ladi, zero unda mumkin bo'lgan barcha zarralar va holatlar mavjud, biroq ayni vaqtda unda aktual tarzda hech narsa yo'q. Yana shuni ham e'tiborga olish lozimki, fiziklar (D.A.Landau va boshqalar) nuqtai nazaridan biz yashayotgan Olam ham dunyoda yagona emas, chunki u rivojlanishning turli sikllarini boshidan kechirayotgan turli Olamlarning cheksiz sonidan tashkil topadi. Shu ma'noda borliq va yo'qlikning o'zaro aloqasi ham nisbiy xususiyat kasb etadi. Ikkinchidan,amalda mavjud bo'lgan narsaning ob'ektiv borlig'i yo'qlikka chekinadi, lekin, shunga qaramay u haqda gapirilayotgan, ya'ni u muayyan narsa sifatida fikrlanayotgan bo'lsa, bu narsa ongda mavjud bo'ladi va o'zining «ikkinchi»

borlig'ini saqlaydi,ayni holda u dastlabki ob'ektning nusxasi, ideal obrazi bo'lib qoladi. Shunday qilib, o'tgan zamondagi borliq yo'qlikdir, deb aytish mumkin. Borliq doim hozirgi zamonda mavjud bo'ladi, u faqat hozirgi zamonda o'zini namoyon etadi, basharti u dolzarb va amalda namoyon bo'lish imkoniyatiga ega bo'lsa,agar u potensial, ya'ni axborot manbalarida mavjud yoki uning paydo bo'lishi ob'ektiv rivojlanish mantig'i bilan belgilangan bo'lsa,amalda yo'q bo'lgan narsa haqida ideal obraz sifatida fikrlash mumkin. Boshqacha aytganda, unga ideal obraz tarzidagi ideal borliq shakl-shamoyilini berish mumkin. O'tmishga tatbiqan biz borliq haqida faqat shu ma'noda so'z yuritishimiz mumkin.Ayni shu ma'noda biz g'oyalar, narsalar, voqealar, tarixiy shaxslar yoki o'zimizga yaqin odamlar to'g'risida so'z yuritamiz, bunda ular yo'qlikka aylanmagani, balki yangicha mavjudlik, xotira tarzidagi o'zgacha borliq kasb etganini nazarda tutamiz. Shunday qilib, borliq falsafiy kategoriya sifatida dunyoni butun rang-barangligi va turli-tuman namoyon bo'lish shakllari bilan yaxlit aks ettirish imkonini beradi. Bunda narsalar, predmetlar, hodisalar o'z xususiyatlari, xossalari bilan jamul jam holda aks etadi. Dunyoni va uning tarkibiy qismi bo'lmish insonni bilish yo'lidagi bu muhim qadam bilan dunyoning tabiati va mohiyati, uning rangbarangligi, turli darajalari, ko'rsatkichlari, ramz-alomatlari, shakllari va hokazolar haqidagi mulohazalarning asosiy koordinatalar tizimi belgilanadi. Buning uchun mohiyat, hodisa, substansiya, materiya, ong, makon, vaqt, qonun kabi yangi falsafiy kategoriyalar muomalaga kiritiladi. Inson o'zi va umuman dunyo haqida o'ylar ekan, odatda, muayyan narsalar va ayrim tabiiy hodisalar bilan ish ko'radi.Ayni vaqtda, u o'zini qurshagan dunyoni sinchiklab o'rganish va uning butun rangbarangligini tushunib etish uchun muayyan tayanch nuqtasi bo'lib xizmat qiladigan qandaydir

asosning shak-shubhasiz mavjudligini qayd etadi. Falsafa tarixidan biz bunday asos sifatida, masalan, Suqrotdan oldingi qadimgi yunon faylasuf-larida tabiat elementlari, o'rta asrlar falsafasida Xudo, Dekartda: «Men fikrlayapman, demak mavjudman», degan ongli inson amal qilganini ko'ramiz.Ammo inson bilishning bu birinchi bosqichida to'xtab qolmagan va o'zini qurshagan borliqning ko'p sonli turli-tuman holatlari orasida qolgan barcha narsalardan sezilarli darajada farq qiladigan narsalarni, borliqning ayni shu shakli voqelikning boshqa shakllari va holatlaridan nima bilan farq qilishini aniqlashga harakat qilgan.

Substansiya (lot. substantia — mohiyat) — narsa va hodisalarning mohiyatini,asosini ifodalovchi tushuncha. Odatda, materiya, modda so‘zining sinonimi sifatida qo‘llanadi. S. falsafada xilmaxil olamning, obyektiv reallikning, tabiat, jamiyat, inson va uning tafakkuri tarixini, inson bilimlarining natijalarini ham o‘ziga qamrab oluvchi konkretlikning nazariy in’ikosi, bilish nazariyasining asosiy tushunchasi sifatida talqin etiladi. Bunday universal mohiyat muayyan narsa, hodisalar va ularning o‘zaro aloqadorliklari orqali namoyon bo‘ladi. Yunon faylasuflari S. deb narsalarning doimiy, tub va o‘zgarmas xususiyatini,asl mohiyatini anglashgan, universal aksidensiya tushunchasini qarama qarshi qo‘yishgan. Keyinchalik sxolastlar butun mavjudotning asl mohiyatini tashkil etuvchi S. — xudodir degan g‘oyani ilgari surdilar (qarang Sxolastika). Olamning moddiy sababi va ilohiy S. haqidagi dualistik talqinni R. Dekart olg‘a surdi, u Spinoza falsafasida yanada rivojlantirildi. I. Kant Sni tafakkurning aprior shakli, ya’ni tajribadan olingan bilimlarni sintezlovchi shakli deb izohladi. Uning fikricha, S.ning doimiyligi barcha vaqt mobaynida o‘tkinchi bo‘lgan narsalarga nisbatangina namoyon bo‘ladi. Gegel Sni narsalardagi o‘zgaruvchan, o‘tkinchi tomonlarning yaxlitligi

sifatida ta’riflab, uni «har qanday haqiqiy rivojlanishning asosidir», deydi.

Sharq falsafasida Forobiy S.ni eng umumiylik sifatida tushuntirgan. Ibn Sino S.ni «substansional umumiylik va aksidental umumiylik»ning o‘zaro munosabati doirasida talqin etib, ularning bir biri bilan bog‘langanligiga, biri ikkinchisisiz mavjud bo‘la olmasligiga e’tiborni qaratdi. Sni tushunishda ham materialistik, ham idealistik qarash bor. Materialistlar S. deb obyektiv reallikni, materiyani, idealistlar esa, xudoni, mutlaq g‘oyani, ruhni, umuman moddiy bo‘lmagan asosni tushunadilar. Pozitivistlar Sni mavhum tushuncha sifatida ta’riflab, bu tushuncha tadqiqotchini chalg‘itib, uning fikrini yo‘q narsaga bog‘lab qo‘yadi, aslida odam xilma xilliklar va ularning birliklaridan iborat, bunga esa moddiylik ham, ma’naviylik ham kiradi deb hisoblashadi. Hozirgi zamon tabiatshunosligi uchun S. faqat rasmiy tushuncha bo‘lib, hodisalarni ifodalovchi degan ma’noni bildiradi.

Falsafa tarixida o`zining mavjudligi uchun o`zidan boshqa hech narsaga muhtoj bo`lmagan birinchi asosni ifodalash uchun «substantsiya» (lot. substantia – mohiyat,asos) kategoriyasi qo`llaniladi. Ilk falsafiy yo`nalishlarning vakillari barcha narsalar asosini tashkil etuvchi moddani birinchi asos sifatida tushunganlar. Odatda, bunday asos sifatida o`sha davrda umumiy e’tirof etilgan birinchi stixiyalar: yer, suv, havo, olov yoki fikriy konstruktsiyalar, «birinchi g`ishtlar» -apeyron,atomlar qaralgan. «Avesto»da birlamchi substantsiya olov deb atalgan. Keyinchalik substantsiya kategoriyasi o`zgarmas, nisbatan barqaror va hech narsa bilan bog`liq bo`lmagan holda mavjud o`ta keng asosga aylandi. Inson idrok etadigan dunyoning butun rang-barangligi va o`zgaruvchanligi substantsiya bilan bog`lana boshladi. Bunday

asoslar sifatida falsafada asosan materiya, Xudo, ong, g`oya, flogiston, efir va shu kabilar amal qilgan.

"Substantsiya" tushunchasi o`z-o`zini to`liq belgilovchi borliqni ifodalashga xizmat qiladi. Substantsiya kategoriyasida o`zini asoslash uchun boshqa hech narsani talab qilmaydigan negiz, birinchi asos g`oyasi mujassamlashgan. Niderland faylasufi Benedikt Spinoza (1632-1677) buni «causa sui» – «o`z-o`zining sababchisi» iborasida juda to`g`ri ifodalagan. Substantsiya deganda u o`z holicha mavjud bo`lgan va o`zi orqali zohir bo`lgan, ya'ni o`zining mavjudligi uchun boshqa narsaga muhtoj bo`lmagan narsani tushungan. Bunda bir tomondan, substantsiya materiya sifatida tushuniladi, boshqa tomondan – u o`zining barcha shakllari sababi va «sub'ekti» sifatida amal qiladi. Bu B.Spinozani substantsiyani bir vaqtning o`zida ham tabiat, ham Xudo sifatida ta'riflagani va bu ikki tushunchani tenglashtirishganidan dalolatdir. B.Spinoza Xudoni tabiatga butunlay singdirib yuborgan, uni tabiiylashtirishga va ilohiy mazmundan ajratishga harakat qilgan. Uning panteizmi shundan iborat bo`lgan. B.Spinoza ilgari surgan substantsiyani tabiiylashtirish g`oyasini Gol'bax izchil rivojlantirdi. U barcha substantsiyali narsalarni tabiatga va faqat tabiatga bog`ladi. «Tabiat hamma narsaning sababchisidir; u abadiy mavjuddir; tabiat o`z-o`zining sababchisidir...». «Tabiat qandaydir buyum emas; u doim o`z holicha mavjud bo`lgan; hamma narsa uning bag`rida vujudga keladi; u barcha narsalar bilan ta'minlangan ulkan ustaxonadir...»[3]. Shu ma'noda tabiat ham, substantsiya ham sirtdan hech qanday turtkiga muhtoj emas. Leybnits esa: «Har qanday haqiqiy substantsiya faqat va faqat ta'sir ko`rsatadi[4]», deganida haq bo`lgan.

Modomiki, substantsiya hamma narsani o`z ichiga oluvchi va o`zi uchun boshqa hech qanday asos yoki shartni nazarda

tutmaydigan birinchi sabab ekan, u o`ziga bog`liq bo`lmagan holda mavjud har qanday narsaning mavjud bo`lish imkoniyatini istisno etadi. U xoh Xudo, xoh g`oya, o`zlik, ruh yoki ekzistentsiya bo`lsin – substantsiya yagonadir!

"Substantsiya" tushunchasi ko`plikda qo`llanilishi mumkin emas. Uning ko`pligi g`oyasi mazkur tushunchaning ta'rifiga zid, chunki mazkur maqomga da'vogar ikki yoki bir necha narsa mavjud bo`lgan taqdirda, ularning birontasi ham substantsiya hisoblanmaydi. Substantsiyalilik paradoksi ana shundan iborat.

Alximiklar mazkur atamani ko`plikda qo`llab, «substantsiyali shakllar», «substantsiyaga xos sifatlar» to`g`risida so`z yuritganda, unga qo`pol fizik ma'no yuklaganlar. Ayni holda substantsiya moddaga tenglashtirilgan. Ular substantsiyaning xossa va shakllari o`zgarmas, lekin tegishli ta'sirlar natijasida bir-biriga aylanishi mumkin, degan noto`g`ri xulosaga kelganlar.

Substantsiyaning o`z-o`zidan amalga oshishi hodisalarning umumiy, uzviy xossalari – atributlarda va narsalarning muayyan,alohida xossalari – moduslarda sodir bo`ladi.

Substantsiya g`oyasidan turli falsafiy ta'limotlar dunyoning birligi va uning kelib chiqishi haqidagi masalaga o`zlari qanday javob berishiga qarab har xil foydalanadilar.

Plyuralizm *dunyoning* negizida ikkita emas, *balki undan ko`proq mohiyat borligini tan oluvchi ta'limotdir.* "Plyuralizm" (lot. – ko`plik, ko`p xillik, ko`p sonlik)atamasini ham X.Vol'f 1712 yilda taklif qilgan. Bu tushuncha ontologiyada ayniqsa, jiddiy qiyinchiliklar tug`dirgan. Chunki ayni shu ta'limotda borliqning ko`p sonli mustaqil va o`zaro bog`lanmaydigan asoslari ilgari surilgan.

Leybnitsning "monadologiyasi", ya'ni monadalar haqidagi ta'limoti plyuralizmning klassik ko`rinishi hisoblanadi. Ushbu ta'limotga ko`ra, dunyo son-sanoqsiz ruhiy substantsiyalardan

tashkil topadi.Ammo, plyuralistik

oldinroq ilgari surilgan ko`rinishlari

Empedokl yaratgan dunyoning

plyuralistik ontologiyaning

Ba'zan plyuralizmga mustaqil

dualizmning o`zgargan

plyuralistlar o`z

munozaralarda yechimini

qarama-qarshilik masalasidan

Elementar "hayot birliklari" sifatida amal qiluvchi nuklein kislotalar (DNK va RNK) va oqsil moddalarining molekulalari biologik jarayonlar substrati bo`lib xizmat qiladi. Barcha ijtimoiy o`zgarishlar zamirida maqsadga muvofiq faoliyati mavjud bo`lgan inson ijtimoiy hayot substrati hisoblanadi.

Hozirgi zamon falsafasida substantsiya kategoriyasining ontologik mazmuni o`zaro ta'sir sifatida tushuniladi. Chunki aynan o`zaro ta'sir dunyo yaralishining haqiqiy va pirovard sababchisi – narsalarning o`z-o`zini yakuni (causa finalis) hisoblanadi. Narsalarni substantsiyalilik nuqtai nazaridan o`rganish ularning mavjudligini ichki sabablar va o`zaro ta'sirlar nuqtai nazaridan yoritish, demakdir. Shu ma'noda, substantsiyani ichki
lik nuqtai nazaridan, uning cheksiz va rang-barang
arishlaridan qat'iy nazar, qaraladigan ob'ektiv borliq sifatida,
katning barcha shakllari, mazkur harakat jarayonida yuzaga
vchi va yo`q bo`luvchi tafovut va qarama-qarshiliklar nuqtai
ridan yondashiladigan materiya sifatida ta'riflash mumkin.
day qilib, **substantsiyaning asosiy xususiyatlari** qatoriga
lagilarni kiritish mumkin:
o`z-o`zini belgilash (o`z-o`zining sabab chisi hisoblanadi, uni
o`q qilib bo`lmaydi);
sallik (hech narsaga bog`liq bo`lmagan, barqaror
va mutlaq birinchi negizni ifodalaydi);
lik (barcha hodisalarning umumiy sababiy
o`z ichiga oladi);
lik (birinchi negizning yagonaligini nazarda tutadi);
k (mohiyat va mavjudlikning birligini ko`rsatadi).
a shu xususiyatlar nuqtai nazaridan hozirgi zamon
ubstantsiya kategoriyasi o`z o`rniga egami? Avvalo,
zimki, substantsiya kategoriyasi hozir ham ko`p
qatga sazovor. Birinchidan, bu barcha hodisa va

tashkil topadi.Ammo, plyuralistik yondashuvning bundan oldinroq ilgari surilgan ko`rinishlari ham mavjud. Masalan, Empedokl yaratgan dunyoning to`rt asosi haqidagi ta'limot plyuralistik ontologiyaning turlaridan biri sifatida amal qiladi. Ba'zan plyuralizmga mustaqil ta'limot sifatida emas, balki dualizmning o`zgargan ko`rinishi sifatida qaraladi. Lekin plyuralistlar o`z nazariyasining asosiy vazifasini dualistik munozaralarda yechimini topmagan ruh va tabiat o`rtasidagi qarama-qarshilik masalasidan farq qiladi, deb biladilar.

Substantsiyani barcha o`zgarishlar va o`z-o`zining sababchisi **-causa sui** sifatida tushunish I.Kant tomonidan qabul qilinib, yuksak baholangan. U substantsiyani «hodisalarning vaqtdagi barcha munosabatlarini aniqlashga yordam beruvchi o`zgarmas asos», deb ta'riflagan. Uningcha, substantsiya har qanday tajriba va har qanday idrok etishning asosiy shartidir. U barqaror holatda bo`ladi, har qanday mavjudlik va vaqtdagi o`zgarish uning modusi, ya'ni o`zgarmas narsaning mavjudlik usuli sifatida qaralishi mumkin.

Substrat *borliqning eng quyi va asosiy qatlami sifatida tushuniladi.* Falsafada "Substantsiya" kategoriyasi "substrat" (lot. – to`shama, negiz) tushunchasiga yaqin turadi, deb qaraladi. Qadimgi atomistik ta'limotlarda atomlar ana shunday asos hisoblangan. Har qanday substrat muayyan vujudga kelish jarayonining o`ziga xos xususiyatini ifodalaydi. Hozirgi talqinda, *muayyan fizik jarayonlarning substrati sifatida elementar zarralar va fundamental (kuchli, kuchsiz, elektromagnit va gravitatsion) o`zaro ta'sirlar amal qiladi.* Turli moddalarning hosil bo`lish va o`zgarish jarayonlarida o`zining barqaror holatini saqlab qoluvchi atomlar kimyoviy jarayonlarning substrati sifatida namoyon bo`ladi.

Elementar "hayot birliklari" sifatida amal qiluvchi nuklein kislotalar (DNK va RNK) va oqsil moddalarining molekulalari biologik jarayonlar substrati bo`lib xizmat qiladi. Barcha ijtimoiy o`zgarishlar zamirida maqsadga muvofiq faoliyati mavjud bo`lgan inson ijtimoiy hayot substrati hisoblanadi.

Hozirgi zamon falsafasida substantsiya kategoriyasining ontologik mazmuni o`zaro ta'sir sifatida tushuniladi. Chunki aynan o`zaro ta'sir dunyo yaralishining haqiqiy va pirovard sababchisi – narsalarning o`z-o`zini yakuni (causa finalis) hisoblanadi. Narsalarni substantsiyalilik nuqtai nazaridan o`rganish ularning mavjudligini ichki sabablar va o`zaro ta'sirlar nuqtai nazaridan yoritish, demakdir. Shu ma'noda, substantsiyani ichki birlik nuqtai nazaridan, uning cheksiz va rang-barang o`zgarishlaridan qat'iy nazar, qaraladigan ob'ektiv borliq sifatida, harakatning barcha shakllari, mazkur harakat jarayonida yuzaga keluvchi va yo`q bo`luvchi tafovut va qarama-qarshiliklar nuqtai nazaridan yondashiladigan materiya sifatida ta'riflash mumkin. Shunday qilib, **substantsiyaning asosiy xususiyatlari** qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

- o`z-o`zini belgilash (o`z-o`zining sababchisi hisoblanadi, uni yaratib va yo`q qilib bo`lmaydi);
- universallik (hech narsaga bog`liq bo`lmagan, barqaror, o`zgarmas va mutlaq birinchi negizni ifodalaydi);
- kauzallik (barcha hodisalarning umumiy sababiy bog`liqligini o`z ichiga oladi);
- yagonalik (birinchi negizning yagonaligini nazarda tutadi);
- yaxlitlik (mohiyat va mavjudlikning birligini ko`rsatadi).

Xo`sh, ana shu xususiyatlar nuqtai nazaridan hozirgi zamon falsafasida substantsiya kategoriyasi o`z o`rniga egami? Avvalo, ta'kidlash lozimki, substantsiya kategoriyasi hozir ham ko`p jihatdan diqqatga sazovor. Birinchidan, bu barcha hodisa va

jarayonlarning sababiy belgilanganligi g`oyasini namoyon qiladi. Substantsiya bunda barcha mavjud narsalarning birinchi sababi sifatida amal qiladi. Ikkinchidan, u universiumning ontologik mazmunini muayyanlashtirish talabidir. U barcha o`zgarishlarni belgilovchi o`zaro ta'sirning yangi turlarini izlash va maydonning yagona fizik nazariyasini tuzishga yo`naltiradi. Uchinchidan, substantsiya o`zining rang-barang ko`rinishlari darajasida uning rivojlanishi nuqtai nazaridan olingan hamda o`ziga xos bo`lgan butun evolyutsion imkoniyatlarni ishga solib, harakatlanayotgan materiya sifatida tushunilishi lozim. To`rtinchidan, substantsiya kategoriyasiga murojaat etish materiya va ongning mutlaqo qarama-qarshiligi to`g`risidagi masalani kun tartibidan chiqarish imkonini beradi. Substantsiya masalasi biron-bir faylasuf e'tiboridan chetda qolishi mumkin emas, chunki uning har qanday mulohazalari, ular qaysi mavzuga tegishli bo`lmasin, go`yoki "havoda muallaq osilib qoladi", zero har doim mulohaza qilinayotgan narsaning eng katta asoslari haqidagi masala yuzaga keladi. Masalan, bir qarashda dunyoning zamirida nima yotishini aniqlashdan uzoq bo`lib tuyuladigan axloq mavzusini olaylik.Axloq individual ong bilan ham, ijtimoiy ong bilan ham bevosita bog`liq bo`lib, faqat ularga bog`lab o`rganilishi mumkin.Ammo ongning kelib chiqishi haqidagi masala falsafa tarixida har xil hal qilinadi. Xususan, diniy falsafa vakili uchun axloqning ham, ongning ham manbai va birinchi asosi Xudo hisoblanadi, ayni vaqtda ateist uchun bu masala butunlay boshqacha yechimga ega bo`ladi.

Falsafa tarixida ob'ektiv dunyoning butun rang-barangligi qandaydir pirovard, eng katta asosga umuman olganda qanday bog`langaniga nazar tashlaydigan bo`lsak, tabiatan har xil bo`lgan va bir-biriga mutlaqo bog`lanmaydigan ikki shunday asos: materiya va ongga duch kelamiz. Ko`rsatilgan asoslar ham,

ularning o`zaro aloqasi masalasi ham doimo qizg`in bahslarga sabab bo`lgan, moddiy (tabiiy) va ideal (ma'naviy) narsalar va hodisalarning o`zaro nisbati muammosi esa deyarli har bir ta'limotda bevosita yoki bilvosita ilgari suriladi.

Falsafada harakat nafaqat turli jismlarning makonda mexanik siljishi sifatida, balki tabiiy jarayonlar va hodisalar holatlarining har qanday o`zgarishi sifatida ham tushuniladi. Kengayib borayotgan Metagalaktika ham, o`zaro ta'sirga kirishayotgan elementar, zarralar ham, ko`payayotgan, moddalar almashinuvini amalga oshirayotgan tirik hujayralar ham, ijtimoiy jarayonlar va hokazolar, shu jumladan fikrlash faoliyati jarayonlari ham harakatda bo`ladi.

Agar biz biron-bir tabiiy ob'ekt yoki hodisani ularning tabiiy holatida anglab yetmoqchi bo`lsak, «harakat» tushunchasini chetlab o`tishimiz mumkin emas. Bir qarashda, oddiy ong nuqtai nazaridan bu noto`g`ri, zero, Al'p tog`lari yoki Misr ehromlarini kuzatar ekanmiz, biz ular abadiy harakatsizlik holatida ekanligining guvohi bo`lamiz. Ammo bu harakatsizlik nisbiydir. Umuman olganda, butun Koinot ulkan aylanma harakat holatida bo`lib, bu yerda bizning sayyoramiz Quyosh atrofida, u bilan birga – bizning galaktikamiz markazi atrofida, u bilan birga esa – galaktik sistema markazi atrofida aylanadigan kichik bir zarradir. Harakatsizlik holatidagi narsalar strukturasi ham tinimsiz o`zgarish jarayonini boshdan kechiradi, chunki uzluksiz harakatda bo`lgan elementar zarralardan tashkil topadi. Temperatura o`zgarishlari, kimyoviy tarkib o`zgarishlari va shu kabilar bunday harakatning tashqi ko`rinishlari hisoblanadi. Shuningdek,atomlar va molekulalar ham Koinotda yuz bergan evolyutsiya jarayonlari mahsulidir. Ular bizning Metagalaktikamiz mavjudligiga zamin hozirlagan Katta portlashdan keyingina vujudga kelgan. Buning ustiga hozirgi zamon geografiyasi qit'alar

bir-biriga nisbatan siljishini isbotladi. Ular ajralgan muz bo`laklari kabi yerning qaynoq magmasi bo`ylab yiliga bir necha santimetr tezlikda harakatlanadi.

Shunday qilib, harakat abadiy va yo`q bo`lmas, materiyadan ajralmas va mutlaqdir. Harakatsizlik esa nisbiy bo`lib, o`tkinchi xususiyatga ega. Harakat shuning uchun ham mutlaqki, u umumiy ahamiyat kasb etadi va (harakatsizlikdan farqli o`laroq) biron-bir tashqi omilga bog`liq bo`lmaydi. Oqilonalik nuqtai nazardan u boqiydir, chunki dunyoda uning boshi ham, oxiri ham ko`rinmaydi va zamirida kamida ikki kuch – tortish va itarish yotuvchi har qanday borliqning o`z-o`zidan harakati sifatida amalga oshadi.

Harakatni dialektik tushunish kurtaklariga Geraklit asarlaridayoq duch kelamiz. U olovni barcha o`zgarishlar substantsiyasi sifatida tavsiflab, birinchi moddiy asos doimo o`zi bilan birga,ayni vaqtda, doimiy o`zgarish holatida bo`lishi haqidagi fikrni sodda obrazli shaklda ifodalagan. Geraklit harakatni miqdor jihatidan oddiy joydan-joyga ko`chish sifatida emas, balki uzlukli va uzluksiz, barqaror va o`zgaruvchan narsa va jarayonlarning o`zaro nisbati nuqtai nazaridan tushuntirishga harakat qilgan. Antik davrdayoq Geraklit, undan keyin Epikur har qanday harakat manbaini ichki jarayonlarning qarama-qarshiligidan topgan. Ayni shu antik davrda tushunchalar mantig`ida harakat jarayonini mantiqiy dalillar yordamida tushunib yetish bilan bog`liq qiyinchiliklar qadimgi faylasuf va matematik Zenonni mashhur aporiyalarni ta'riflashiga turtki berdi.

Aporiya – muhokamalardagi ziddiyat tufayli hal etib bo`lmaydigan yoki hal etilishi mushkul bo`lgan holat, mantiqiy qiyinchilik, muammo. Zenonning "Axill va toshbaqa", "Uchayotgan kamon o`qi" kabi aporiyalari, hissiy tasavvurlarga zid o`laroq,

harakat materiyaning atributi ekanligiga shubhalanishga majbur qilgan. "Axilles va toshbaqa"aporiyasi mazmuniga ko`ra, chopqir Axilles hayvonot olamining eng uquvsiz yuguruvchisi toshbaqani quvib boradi, deb faraz qilinadi. Bundan Zenon Axilles hech qachon toshbaqaga yeta olmaydi, degan mantiqiy xulosa chiqaradi. Zenon bu aporiyasida quyidagicha fikr yuritadi: "Biror odam A nuqtadan V nuqtaga borishi lozim bo`lsin. U V nuqtaga yeta oladimi?" Zenon bu savolga yo`q, deb javob qiladi. Chunkia nuqtadan V nuqtaga qarab yo`l olgan odam,avvalo, shu masofaning teng yarmidan o`tishi zarur. Bu masofaning teng yarmiga yetishi uchun esa, shu yarim masofaning yana yarmini o`tishi zarur. Yarim masofaning yarmiga yetishi uchun esa, qolgan masofaning yarmidan o`tishiga to`g`ri keladi. Xullas, oraliq masofa cheksiz miqdordagi yarim bo`laklarga bo`linib ketadi. Cheksiz yarim bo`laklarni bosib o`tish uchun esa cheksiz vaqt lozim. Hech kim cheksiz vaqt yashay olmaydi. Shunday ekan, hech qachon u A nuqtadan V nuqtaga yetib bora olmaydi. Bularning hammasi harakat jarayonini formal-mantiqiy tavsiflash mushkulligini ko`rsatadi.

Ayrim faylasuflar Zenon aporiyalarini rad etish uchun sezgi organlariga suyanganlarida, bunda ham ancha asosli e'tirozlar topilgan. Sezgi harakatni «ko`rishi» qadimgi falsafa vakillari-eleatlar tomonidan tan olingan, lekin aql uni «tushunish»ni xohlashi va tushuna olmasligi qayd etilgan.Aql mohiyatni, sezgilar esa hodisalar va ko`z ilg`aydigan narsalarni o`rganishini hisobga olsak, eleatlar mantig`iga ko`ra,aynan mohiyatda harakat mavjud emas. Zenon harakatni ziddiyatsiz tarzda tavsiflash mumkin emasligini ko`rsata olgani e'tirof etilgan. Binobarin, harakat qarama-qarshilik demakdir. Zenon aporiyalarining alohida qimmati shundaki, ular amalda mavjud qarama-qarshiliklarni ko`rsata olgan. Balki, shuning uchun bo`lsa kerak,

ko`plab qadimgi manbalarda Zenon dialektika asoschisi sifatida qayd etiladi. Zenonning o`zi asarlarini Parmenidning «Hamma narsa bir» degan shiorini "Hamma narsa ko`pdir" degan qarama-qarshi yondashuvdan himoya qilish uchun yozganini ta'kidlagan.

Harakatni o`rganishning muhimligini barcha faylasuflar teran anglagan. Aristotel' harakatni bilmaslik sabablarni bilmaslikka olib keladi, deb hisoblagan va borliqning turlari qancha bo`lsa, harakat va o`zgarishlarning turlari ham shuncha, deb qayd etgan. Uning fikricha, "Miqdor uchun ko`payish va kamayish, sifat uchun – o`zgarish, makon uchun – ko`chib yurish, mohiyat uchun – vujudga kelish va yo`q bo`lish mavjud"[5]. Harakatning vujudga kelish, yo`q bo`lish, o`zgarish, ko`payish, kamayish, ko`chib yurish kabi turlarini farqlash lozim. Ammo Aristotel jonsiz, passiv materiya kontseptsiyasini rivojlantirib, pirovard natijada, muayyan birinchi harakatlantirgich – har qanday faollikning negizi sifatidagi sof shakl harakat manbaidir, degan xulosaga keldi. Binobarin, harakat materiyaning atributi emas, balki uning modusi,ayrim xossasi va belgisidir; u faqat birinchi turtki vositasida beriladi. Shuning uchun bo`lsa kerak, falsafiy tafakkur rivojlanishining keying ancha uzoq davri mobaynida harakat materiyaning atributi sifatida qaralmadi, balki uning ayrim va qo`shimcha xossasi hisoblandi.

O`rta asr Sharq mutafakkiri Forobiy fikricha, harakat va sukunatning ibtidosi, biron-bir narsaga yoki irodaga borib taqalmasa, uni tabiat deb atash mumkin. Harakat vaqt bilan belgilangan. Harakat ibtido va intiho bilan chegaralanmagan.[6] Ibn Sino fikricha harakat vujudi mumkinning ichki mohiyatidan kelib chiqadi va osoyishtalik bilan mavjud bo`ladi. Harakat bu ashyolar, voqealarda sodir bo`ladigan o`zgarishdir[7].

Uyg`onish davri mutafakkirlari har qanday borliq – olamdan tortib mayda zarragacha – unga xos bo`lgan ruh tomonidan

harakatga keltiriladi, degan fikrni ilgari surdilar. Ular panpsixizm – butun olamni ilohiylashtirish ta'limotiga asoslandilar.

Yangi davr mexanikasi mazkur yondashuv mutlaqo asossizligini ko`rsatdi. Mexanika nuqtai nazaridan, biron-bir jismni harakatga keltirish uchun unga qandaydir tashqi kuch ta'sir ko`rsatishi lozim. XVII-XVIII asrlarda mexanikaning jadal rivojlanishi, u ayrim nomexanik hodisalarni (masalan, issiqlik hodisalari, hattoki, fiziologik hodisalarni) tushuntirishda erishgan yutuqlar shunga olib keldiki, harakatga ancha tor ma'noda mexanik harakat, ya'ni makonda oddiy ko`chib yurish sifatida qarala boshlandi. Umuman olganda, metafizik yondashuvlarning nomukammalligi so`zning o`z ma'nosidagi harakatni, uning alohida turi – ko`chib yurish bilan tenglashtirish; harakatga atribut emas, balki modus sifatida qarash; birinchi turtkining zarurligiga ishonch bilan bog`liq edi.

Bunday yondashuvlarning nomukammalligini ko`pgina mutafakkirlar tan olgan. Masalan, ingliz faylasufi Jon Toland (1670-1722) dinni tanqid qilar ekan, harakatni materiya atributi, deb hisoblaydi. U «Men harakatni materiyaning muhim xossasi, deb bilaman. Boshqacha aytganda, o`tkazmaslik va ko`lamlilik materiya tabiatiga qanday xos va u bilan uzviy bo`lsa, harakat ham materiya tabiatiga shunday xos va u bilan uzviydir. Binobarin, harakat materiya ta'rifidan uning tarkibiy qismi sifatida o`rin olishi lozim», deb yozgan. J.Toland harakatning barcha shakllarini mexanikaga bog`lamagan, balki uni umumiy ichki faollik sifatida tushungan. Harakatning atributliligini frantsuz faylasufi Deni Didro (1713-1784) ham isbotlashga harakat qilgan. Uning fikriga ko`ra, «Mutlaq harakatsizlik tabiatda mavjud bo`lmagan abstrakt tushunchadir», «Harakat materiyaning uzunlik, chuqurlik, kenglik kabi haqiqiy xossasidir». D.Didro mexanisizmni, ya'ni harakatni makonda

ko`plab qadimgi manbalarda Zenon dialektika asoschisi sifatida qayd etiladi. Zenonning o`zi asarlarini Parmenidning «Hamma narsa bir» degan shiorini "Hamma narsa ko`pdir" degan qarama-qarshi yondashuvdan himoya qilish uchun yozganini ta'kidlagan.

Harakatni o`rganishning muhimligini barcha faylasuflar teran anglagan. Aristotel' harakatni bilmaslik sabablarni bilmaslikka olib keladi, deb hisoblagan va borliqning turlari qancha bo`lsa, harakat va o`zgarishlarning turlari ham shuncha, deb qayd etgan. Uning fikricha, "Miqdor uchun ko`payish va kamayish, sifat uchun – o`zgarish, makon uchun – ko`chib yurish, mohiyat uchun – vujudga kelish va yo`q bo`lish mavjud"[5]. Harakatning vujudga kelish, yo`q bo`lish, o`zgarish, ko`payish, kamayish, ko`chib yurish kabi turlarini farqlash lozim. Ammo Aristotel jonsiz, passiv materiya kontseptsiyasini rivojlantirib, pirovard natijada, muayyan birinchi harakatlantirgich – har qanday faollikning negizi sifatidagi sof shakl harakat manbaidir, degan xulosaga keldi. Binobarin, harakat materiyaning atributi emas, balki uning modusi,ayrim xossasi va belgisidir; u faqat birinchi turtki vositasida beriladi. Shuning uchun bo`lsa kerak, falsafiy tafakkur rivojlanishining keying ancha uzoq davri mobaynida harakat materiyaning atributi sifatida qaralmadi, balki uning ayrim va qo`shimcha xossasi hisoblandi.

O`rta asr Sharq mutafakkiri Forobiy fikricha, harakat va sukunatning ibtidosi, biron-bir narsaga yoki irodaga borib taqalmasa, uni tabiat deb atash mumkin. Harakat vaqt bilan belgilangan. Harakat ibtido va intiho bilan chegaralanmagan.[6] Ibn Sino fikricha harakat vujudi mumkinning ichki mohiyatidan kelib chiqadi va osoyishtalik bilan mavjud bo`ladi. Harakat bu ashyolar, voqealarda sodir bo`ladigan o`zgarishdir[7].

Uyg`onish davri mutafakkirlari har qanday borliq – olamdan tortib mayda zarragacha – unga xos bo`lgan ruh tomonidan

harakatga keltiriladi, degan fikrni ilgari surdilar. Ular panpsixizm – butun olamni ilohiylashtirish ta'limotiga asoslandilar.

Yangi davr mexanikasi mazkur yondashuv mutlaqo asossizligini ko`rsatdi. Mexanika nuqtai nazaridan, biron-bir jismni harakatga keltirish uchun unga qandaydir tashqi kuch ta'sir ko`rsatishi lozim. XVII-XVIII asrlarda mexanikaning jadal rivojlanishi, u ayrim nomexanik hodisalarni (masalan, issiqlik hodisalari, hattoki, fiziologik hodisalarni) tushuntirishda erishgan yutuqlar shunga olib keldiki, harakatga ancha tor ma'noda mexanik harakat, ya'ni makonda oddiy ko`chib yurish sifatida qarala boshlandi. Umuman olganda, metafizik yondashuvlarning nomukammalligi so`zning o`z ma'nosidagi harakatni, uning alohida turi – ko`chib yurish bilan tenglashtirish; harakatga atribut emas, balki modus sifatida qarash; birinchi turtkining zarurligiga ishonch bilan bog`liq edi.

Bunday yondashuvlarning nomukammalligini ko`pgina mutafakkirlar tan olgan. Masalan, ingliz faylasufi Jon Toland (1670-1722) dinni tanqid qilar ekan, harakatni materiya atributi, deb hisoblaydi. U «Men harakatni materiyaning muhim xossasi, deb bilaman. Boshqacha aytganda, o`tkazmaslik va ko`lamlilik materiya tabiatiga qanday xos va u bilan uzviy bo`lsa, harakat ham materiya tabiatiga shunday xos va u bilan uzviydir. Binobarin, harakat materiya ta'rifidan uning tarkibiy qismi sifatida o`rin olishi lozim», deb yozgan. J.Toland harakatning barcha shakllarini mexanikaga bog`lamagan, balki uni umumiy ichki faollik sifatida tushungan. Harakatning atributliligini frantsuz faylasufi Deni Didro (1713-1784) ham isbotlashga harakat qilgan. Uning fikriga ko`ra, «Mutlaq harakatsizlik tabiatda mavjud bo`lmagan abstrakt tushunchadir», «Harakat materiyaning uzunlik, chuqurlik, kenglik kabi haqiqiy xossasidir». D.Didro mexanisizmni, ya'ni harakatni makonda

ko`chib yurishgagina bog`lashni rad qilishga harakat qildi. U tabiat abadiy harakat va rivojlanishda bo`ladi, deb hisoblagan. Uning fikricha, borliq bir shaklda halok bo`ladi va boshqa shaklda vujudga keladi, materiyaning faolligini o`z-o`zidan harakat g`oyasi bilan tushuntirish mumkin.

O`z-o`zidan harakat g`oyasi materiyaning ichki ziddiyatliligi, shuningdek, xilma-xilligi bilan belgilanadi. Materiya son-sanoqsiz har xil sifatli elementlardan tashkil topadi. Ularning to`qnashuvi va o`zaro ta'siri abadiy harakat, o`zgarish va rivojlanishni tushunishga yordam beradi.

Frantsuz materialistlari asosiy e'tiborni harakatning ichki manbaiga qaratib, "harakat" tushunchasining eng mazmunli ta'rifini topishga harakat qildilar. P.Gol'bax harakat mexanizmini yoritar ekan, uning ikki turini farqlashni taklif qildi. Birinchi – «jismlarning joydan-joyga ko`chishidan iborat bo`lgan massalar harakati»; bunday harakatni biz bevosita kuzatishimiz mumkin. Masalan, biz tosh qanday tushayotgani, sharning yumalayotgani, qo`l harakatlanayotgani yoki holatini o`zgartirayotganini ko`rishimiz mumkin. Ikkinchi – «muayyan jismga xos energi-yalarga, ya'ni mohiyatga, bu jism tashkil topgan materiyaning ko`rinmas molekulalari uyg`unligi, ta'siri va qarshi ta'siriga bog`liq bo`lgan ichki va yashirin harakat». Harakatni u «muayyan jism o`z o`rnini o`zgartirishi yoki o`zgartirishga urinishiga yordam beruvchi kuch»[8], deb ta'rifladi.

Harakat shakllarini tasniflashda qaysi tamoyillarga rioya qilinishiga qarab bunday shakllarning har xil miqdori farqlanadi. Masalan, *XIXasrda materiya tashkil topishining turli darajalariga asoslanib, materiya harakatining besh asosiy shakli: mexanik, fizik, kimyoviy, biologik va ijtimoiy harakat qayd etgan.*

Harakatning mazkur shakllari bir-biri bilan uzviy bog`liq bo`lib, bunda har bir keyingi harakat o`zidan oldingi harakatdan

kelib chiqadi, unga asoslanadi, biroq, shunga qaramay, quyi shakl bilan bog`lanmaydi. *Harakatning murakkab shakllarini soddaroq shakllarga bunday bog`lashga urinishlar falsafa tarixida «mexanisizm», «reduktsionizm» (lot. reductio – ortga surish) degan nom olgan, harakat ijtimoiy shakllarini biologik shakllar darajasigacha soddalashtirish biologizatorlik kontseptsiyalarida mavjud.*

Dunyoning kelib chiqishi va rivojlanishi haqidagi hozirgi tasavvurlar nuqtai nazaridan ko`rsatilgan shakllar harakatning mavjud va taxmin qilingan usullarining butun rang-barangligini aks ettirmaydi. Xususan, elementar zarralarning o`zgarish jarayonlari, XIXasrda noma'lum bo`lgan mikro- va makro dunyo darajasidagi boshqa o`zgarishlar materiya harakati mexanik, fizik va kimyoviy shakllarining o`zaro nisbatiga doir masalani endi yangidan qo`ymoqda. Bu yerda mexanik shakl endi barcha fizik jarayonlar negizi sifatida qaralmaydi. Endilikda biologik harakatning elementar zarralari, ilgari taxmin qilinganidek, oqsilli molekulalar emas, balki XXasrda kashf etilgan DNK va RNK hisoblanadi. Ayrim olimlar y er po`sti hamda yer ostida yuz berayotgan jarayonlar haqidagi hozirgi tasavvurlarga asoslanib harakatning geologik shaklini farqlamoqdalar.

XIXasr oxirlarida materiyaning harakat shakllari tasnifi ishlab chiqilayotganida, ilmiy davralarda fanlarni tasniflashga nisbatan Kontcha yondashuv shakllangan edi. Pozitivizm asoschisi O.Kont har bir fan predmetini materiya harakatining alohida shakli tashkil etishi, turli fanlarning ob'ektlari esa bir-biridan keskin farq qilishiga ishonchi komil edi (mexanika, fizika, kimyo, biologiya, sotsiologiya va hokazo). Mazkur muvofiqlik fanlarni muvofiqlashtirish tamoyili deb nomlandi. Bunda turli fanlar o`rganadigan ob'ektlar bir-biri bilan qanday bog`langanligi va bir-biriga o`tishiga e'tibor berildi. Quyidan oliyga, oddiydan

murakkabga sari yuksalib boradigan harakatlanuvchi materiyaning progressiv rivojlanish jarayonini aks ettirish g`oyasi tug`ildi. *Mexanika fizika bilan bog`lanishi va unga o`tishi, fizika kimyoga, kimyo biologiya va ijtimoiy fanlarga o`tishini nazarda tutuvchi yondashuv (mexanika → fizika → kimyo → biologiya → ijtimoiy fanlar) subordinatsiya tamoyili deb nomlanadi.* Darhaqiqat, qayerga nazar tashlamaylik, biz harakatning boshqa shakllariga mutlaqo bog`liq bo`lmagan biron-bir harakat shaklini topa olmaymiz, hamma joyda bir harakat shaklining boshqa harakat shakliga aylanish jarayonlarigina mavjud. Materiya harakat shakllarining o`zaro ta'siri va bir-biriga aylanishi uzluksiz-uzlukli jarayonida mavjud bo`ladi.

O`sha davrda noorganika sohasiga nisbatan tatbiq etilgan (mexanik, fizik, kimyoviy) «energiya» tushunchasi fandan mustahkam o`rin olgan edi. Ammo vaqt o`tishi bilan jonli va jonsiz tabiat o`rtasida aniq chegara bo`lishi mumkin emasligi ayon bo`ldi. O`tuvchi shakl va jonli ziddiyat - virus buning yorqin dalili bo`ldi. U organik muhitga tushgach, o`zini xuddi tirik jism sifatida tuta boshlaydi. Holbuki, noorganik muhitda virus o`zini bunday namoyon etmaydi. XIXasrda materiyaning bir harakat shakli boshqa harakat shakliga o`tishi olimlar tomonidan bashorat qilingan, deb aytish mumkin, chunki bu davrgacha mexanik va issiqlik shakllari o`rtasidagi o`tishlargina o`rganilgan edi. Tez orada buyuk kashfiyotlar aynan fanlar tutashgan joyda, chegaradosh sohalarda yuz berishi haqidagi taxmin ham diqqatga sazovor bo`ldi. Ba'zi faylasuflar tomonidan tabiat va jamiyatni bog`lovchi shunday chegaradosh sohalardan biri o`rganilib,antroposotsiogenezning mehnat bilan bog`liq nazariyasi taklif qilindi. O`z vaqtida Darvin inson va maymunni anatomik jihatdan qiyosiy o`rganish asosida insonning sof

hayvoniy nasl-nasabi haqidagi xulosaga kelgan edi. Boshqalar esa ijtimoiy omillar roliga, xususan, inson va kishilik jamiyatining shakllanishi – antroposotsiogenez jarayonida mehnatning alohida roliga baho berdilar. Bu asosda materiyaning harakat shakllarini tasniflashning quyidagi tamoyillari ishlab chiqilgan;

- materiya harakatining har bir shakli muayyan moddiy tashuvchi bilan bog`liq bo`lishi lozim;
- materiyaning harakat shakllari sifat jihatidan turlicha va o`zaro bog`lanmaydi;
- tegishli shart-sharoitlarda ular bir-biriga aylanadi;
- materiyaning harakat shakllari murakkablik darajasiga ko`ra farq qiladi, oliy shakl quyi shakllar sintezi sifatida tushuniladi. Bunda oliy shakllarning quyi shakllardan uzoqlashishiga ham, oliy shakllarning quyi shakllarga mexanik bog`lanishiga ham yo`l qo`ymaslik muhimdir;
- moddiy tizimlarning har bir turida bosh, oliy va ikkinchi darajali va quyi shakllar farqlanishi lozim;
- materiya harakat shakllarining tasnifi fanlar tasnifining negizi hisoblanadi.

Materiya harakat shakllarining tasnifi: materiya harakatining mexanik shaklini boshqa har qanday shaklga kiruvchi eng sodda shakl sifatida;

- fizika o`rganuvchi issiqlik, yorug`lik, elektr kuchini;
- kimyoviy jarayonlarni;
- organik hayotni qamrab oladi. Ular tabiatdagi asosiy shakllar hisoblanadi. Ulardan yuqorida ijtimoiy-tarixiy jarayon, materiya harakatining ijtimoiy shakli, shuningdek, fikrlash jarayonlari turadi.

Materiya harakati asosiy shakllarining keltirilgan tasnifi fan tabiat rivojlanishining teran aloqalarini endigina aniqlay boshlagan XIXasrning saksoninchi yillarida yaratilgan edi. O`sha

davrda hali ko`p narsa noma'lum, ko`p narsalarni aniqlash lozim edi.

Sobiq ittifoq davrida materiya harakati beshta shakldan iborat degan tasnifga jiddiy aniqliklar kiritishga harakat qilindi. Masalan, *B.Kedrov materiya harakatining oltita subatom-fizik harakat, kimyoviy harakat, molekulyar-fizik harakat, geologik harakat,* biologik harakat, *ijtimoiy harakat kabi shakllarini taklif qilgan.*

Nazorat uchun savollar:

1.Ontologiyaning ta'rifi va mohiyatini tushuntirib bering. Borliqning falsafadagi o'rni va ahamiyatini qanday izohlaysiz?

- Ontologiya qanday fan sifatida shakllangan va uning asosiy vazifalari nimalardan iborat?
- Borliqning mohiyati haqida qadimdan hozirgi kungacha qanday falsafiy qarashlar mavjud?

2.Substansiya va materiya tushunchalarini ta'riflab, ularning o'zaro aloqadorligini qanday tushunasiz?

- Substansiya va materiya o'rtasidagi farqlarni tushuntiring. Ularning bir-biriga ta'siri qanday?
- Materiyaning birinchi mohiyati haqida qanday falsafiy qarashlar mavjud?

3.Ontologiyaning tarixiy rivojlanishidagi asosiy bosqichlarni sanab o'ting va qadimgi falsafadagi borliq haqidagi qarashlarni tahlil qiling.

- Qadimgi yunon falsafasida borliq haqida qanday qarashlar mavjud edi? Ularning asosiy ta'riflarini keltiring.
- Sharq va G'arb falsafasidagi borliq tushunchasining rivojlanishini qiyoslang.

4.Harakat va rivojlanish tushunchalarini sharhlab bering. Harakatning asosiy shakllarini qanday tasniflash mumkin?

- Harakatning umumiy ta'rifi va uning falsafiy tahlili qanday?
- Rivojlanish va progress tushunchalari ontologiyada qanday aks etadi?

5.Ontologiya va borliqning asosiy tushunchalarini muhokama qiling.

- Borliqning birligi va ko'pligi haqida Platon, Aristotel va Hegeldan qanday qarashlarni keltirish mumkin?
- Borliq va mavjudlik tushunchalarining farqi nimalardan iborat?

6.Zamonaviy ontologiyaning dolzarb:

- Zamonaviy kvant fizikasining borliqni tushunishga ta'siri qanday bo'ladi?
- Sun'iy intellekt va ontologiya o'rtasidagi bog'liqlikni tushuntiring.

Nazorat savollari

1. Borliq tushunchasi haqida nimalarni bilasiz?
2. Borliq va substansiya muammosi nimani anglatadi?
3. Borliqning turlari.
4. Materiya borliqning moddiy shakli qanday?
5. Materiyaning tuzilish darajalari nimalardan iborat?
6. Materiyaning ko'rinishlari aytib bering.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Davronov Z., Shermuhamedova N., Qahharova M., Nurmatova M., Husanov B., Sultonova A. Falsafa. -Toshkent: TMU, 2019.

2. Shermuhamedova N.A. Falsafa -Toshkent: Noshir, 2012.

3. Shermuhamedova N.A. Falsafa. 2-nashr. Toshkent: Noshir, 2020.

4. Axmedova M. Falsafa. Tahriri ostida. - Toshkent.UFMJ, 2006.

5. Mamashokirov S. va boshqalar. Falsafa. O'quv qo'llanma. O'zbekiston, 2005.

Internet saytlari:

1. www.ziyonet.uz
2. www.faylasuf.uz
3. Sports.ru
4. www.ukathletics.net

RIVOJLANISH FALSAFASI

Reja:

1. Falsafa tarixida rivojlanish haqidagi qarashlar evolyusiyasi. Rivojlanish konsepsiyalari.
2. Qonun tushunchasi va uning turlari. Falsafaning asosiy qonunlari.
3. Kategoriya gushunchasi va ularning turlari. Fan va falsafa kategoriyalarining tasnifi.

Tayanch so'zlar: *dialektika, bahslashish, munozara, Geraklit, ob'ektiv va sub'ektiv dialektika, qonun, qonuniyat, rivojlanish, progress, regress, qarama-qarshilik, kurash, ziddiyat, ayniyat va tafovut, sifat, miqdor, me'yor, sakrash.*

«Dialektika» (Yunon. dialektike – suhbat qurish san'ati) so'zining **«dialog»** (Yunon. dialogos – ikki yoki bir nechta suhbatdoshlar so'zlashuvi) so'zi bilan umumiy jihatlari bisyor. Dastlab dialektika bahslashish, munozara qilish san'ati sifatida tushunilgan, bunda fikrlar, qarashlar qarama-qarshiligi vositasida haqiqatning tagiga etish maqsadida muammoni o'zaro manfaatdor muhokama qilishga qaratilgan munozara nazarda tutilgan. Dialektik – bu savol berish va javob qaytarishga usta odam, deb hisoblangan.

Geraklit dunyoni «jonli olov» yoki «ikki marta kirish» mumkin bo'lmagan daryo oqimi sifatida tasavvur qilgan. Harakatchan dunyoda vaqt o'tishi bilan hamma narsa o'zining dastlabki shakl-shamoyilini yo'qotadi va asta-sekin o'zining qarama-qarshiligiga o'tadi: ho'l narsa quriydi, quruq narsa esa nam tortadi; bir narsa boshqa narsaga: sovuq issiqqa, tirik o'likka o'tadi. Bu mulohazalarda hozirgi talqindagi dialektikaning

asoslari mujassamlashgan. Shu sababli dialektikaning tarixan birinchi shakli qadimgi faylasuflarning stixiyali dialektikasidir.

O'rta asrlarda metafizika falsafadan dialektikani siqib chiqargan. Natijada dialektika odamlar ongiga diniy dunyoqarashni singdirish va mustahkamlash uchun hukmron sinflar faol foydalangan sofistika va sxolastikaga aylangan. Metafizika unsurlarini o'z ichga olgan dialektikaga qaytish УAngi davr falsafasi (Rene Dekart, Benedikt Spinoza, Deni Didro va b.) da Yuz bergan. SHunga qaramay dialektikaning eng yaxlit konsepsiyasini klassik nemis falsafasida Georg Gegel ta'riflagan. Bu konsepsiya dialektikaning ikkinchi shakli deb ataladi. Gegel ilk bor dunyoni quyidan oliyga qarab boruvchi umumiy rivojlanish jarayoni sifatida tasvirlagan, rivojlanish manbai - qarama-qarshiliklar kurashini ko'rsatib bergan, dialektikaning asosiy qonunlari va kategoriyalarini ta'riflagan. Ammo Gegel dialektikasi idealistik xususiyat kasb etgan. Dialektikaning ikkinchi tarixiy shakli idealistik dialektikaning asosini ob'ektiv borliq emas, balki uni aks ettiruvchi tafakkur xizmat qilgan.

Gegel dialektikasi dialektikaning navbatdagi shakli vujudga kelishiga zamin hozirlagan. Nemis faylasuflari Karl Marks va Fridrix Engels bu zaminga tayangan holda yangi qadamni tashlash – materializmni dialektik mantiq bilan bog'lashga harakat qilganlar. Buning natijasi o'laroq dialektikaning uchinchi tarixiy shakli materialistik dialektika yaratilgan (XIX asrning ikkinchi yarmi). Unga amalda ilmiy bilishning rivojlanishi yo'l ochib bergan. XIX asrning 40-yillarigacha fanning turli sohalarida yangi kashfiyotlar paydo bo'lgan va ular tabiatni tushuntirishga nisbatan dialektik-materialistik yondashuvni tabiatshunoslik nuqtai nazaridan asoslagan. Ularning orasida uch kashfiyot: 1) fizikada – materiya harakati turli shakllarining o'zaro aloqasini asoslab bergan energiyaning saqlanish va o'zgarish qonunining

aniqlanishi; 2) biologiyada – butun jonli tabiatning (o'simliklar dunyosining ham, hayvonot dunyosining ham) tarkibiy jihatdan yagonaligini yoritib bergan hujayra nazariyasining yaratilishi; 3) rivojlanish g'oyasini jonli tabiatga tatbiqan ishlab chiqqan Darvinning evolYusiya nazariyasi alohida o'rin egallaydi.

Klassik dialektikaning o'ziga xos xususiyatlari: Birinchidan, klassik dialektika dunyoni tushunishning shunday bir usuli hisoblanadiki, bunda borliq narsalar va hodisalarning umumiy o'zaro aloqasi, ularning bir-birini taqozo etishi va muttasil o'zgarishi nuqtai nazaridan anglab etiladi. Dialektika rivojlanishning teran, to'laqonli va mazmunan boy nazariyasidir. U o'zgarish holatida bo'lmagan biron-bir narsa tabiatda ham, jamiyatda ham, tafakkurda ham mavjud emas, chunki barcha mavjud narsalar o'z ichki ziddiyatlariga ega va ular bu narsalarni o'zgarishga, yangi shakl-shamoyil kasb etishga, rivojlanishga majbur qiladi, deb o'rgatadi.

Ikkinchidan, dialektika ob'ektiv va sub'ektiv dialektikaning mavjudligini tan oladi. Ob'ektiv dialektika – bu tabiiy va ijtimoiy hodisalarning o'zaro aloqasi va rivojlanishi. U sub'ektdan, inson va insoniyatdan qat'iy nazar mavjuddir. Sub'ektiv dialektika – bu sub'ektning fikrlash dialektikasi va uning ob'ektiv dunyoni bilishi. Ob'ektiv va sub'ektiv dialektikaning o'zaro nisbati qanday? Materialistik davr nuqtai nazaridan sub'ektiv dialektika ob'ektiv dialektikani aks ettiradi. Ob'ektiv va sub'ektiv dialektika mazmunan bir-biriga mos keladi.

Uchinchidan, fan sifatida dialektika o'z tamoyillari, qonunlari va kategoriyalariga ega. Dialektika qonunlari rivojlanish jarayonidagi umumiy muhim aloqalarni aks ettiradi. Ular dialektikaning nazariyasini yaratishda muhim metodologik funksiyani bajaradi. Dialektikada umumiy qonunlar uchta: dialektik ziddiyatlilik qonuni, miqdor va sifat o'zgarishlarining bir-biriga o'tishi qonuni

va inkorni-inkor qonuni. Dialektika kategoriyalari – bu eng fundamental, asosiy tushunchalar bo'lib, ularda va ularning yordamida falsafiy fikrlash amalga oshiriladi.

To'rtinchidan, dialektikaning o'ziga xos xususiyati shundaki, u nazariya vazifasini ham, metodologiya vazifasini ham bajaradi. Dialektika qonunlari, kategoriyalarining mazmuniga va bilish jarayonining amal qilish va rivojlanish qonuniyatlariga muvofiq fikrlovchi sub'ektga qo'yiladigan tegishli talablar shakllantiriladi va shu tariqa unga bilish faoliyatida yo'l ko'rsatiladi.

SHunday qilib, hozirgi talqindagi dialektika - bu:

1) hodisalarning ularga xos bo'lgan ziddiyatlar vujudga kelishi, o'zaro ta'sirga kirishishi va echilishiga muvofiq rivojlanishidan iborat bo'lgan ob'ektiv jarayon;

2) tabiat, jamiyat va tafakkurning harakat va rivojlanish universal qonunlari haqidagi falsafiy konsepsiya;

3) dunyoni bilish va o'zgartirish metodi. Uning tizimiga kiruvchi rivojlanishning umumiy qonunlarini bilish o'tmishni anglab etish, hozirgi dunyoda Yuz berayotgan jarayonlarni to'g'ri tushunish va kelajakni bashorat qilish imkonini beradi.

2. Qonun deb, bir qancha zaruriy belgilarga ega bo'lgan o'zaro aloqaga aytiladi:

1) aloqaning ob'ektivligi. Energiya va moddaning saqlanish qonunlari yoki butun olam tortishish qonuni haqida gapiradigan bo'lsak, biz ularni bekor qilishimiz yoki ularning amal qilishini ongli ravishda to'xtatishimiz mumkin emas;

2) aloqaning muhimligi. Muhim aloqa – bu narsaning mavjudligini, uning harakati va rivojlanishini belgilovchi aloqa. Aytaylik, elementlarning davriy qonuni atom og'irligi, atom o'zagining zaryadi va elementlarning kimyoviy xossalari o'rtasidagi muhim aloqani aks ettiradi;

3) aloqaning zaruriyligi. Zaruriy aloqa – bu muayyan sharoitda zaruriy tarzda namoyon bo'luvchi aloqa. Masalan, fizikada ma'lum bo'lgan o'tkazgich qarshiligining o'tkazgich tarkibi, uning uzunligi va ko'ndalang kesimining Yuziga bog'liqligi qonuni o'tkazgichda elektr toki o'tgan har bir holda zaruriy tarzda namoyon bo'ladi, chunki u o'tkazgich qaysi moddadan yasalgan bo'lsa, shu moddaning tabiati, unga xos bo'lgan ob'ektiv xususiyatlar bilan belgilanadi;

4) aloqaning barqarorligi. Barqaror aloqa – bu ishonchli tarzda saqlanadigan aloqa. U materiya harakatining tegishli shakli (materiya rivojlanishining muayyan bosqichi) yoki tafakkur mavjud bo'lgan davr mobaynida, toki bu narsalar va hodisalar mavjud ekan, amalda mavjud bo'ladi;

5) aloqaning umumiyligi. Aloqaning umumiyligi shunda namoyon bo'ladiki, unga ob'ektiv dunyoning aksariyat yoki hatto barcha narsalari, hodisalari va jarayonlari bo'ysunadi.

Qonunning ko'rib chiqilgan belgilari unga mantiqiy ta'rif berish imkonini beradi. Qonun – bu moddiy va ma'naviy hodisalarning ularning harakat va rivojlanish xususiyati va yo'nalishini belgilovchi ob'ektiv, muhim, zaruriy, barqaror va umumiy aloqasi.

SHuningdek, «qonuniyat» tushunchasi ham ishlatiladi. Qonuniyat qonunga qaraganda kengroq tushunchadir. Qonun muayyan sharoitda o'zini qat'iy va muqarrar tarzda namoyon etsa, qonuniyat bir qancha qonunlarning o'zaro aloqasi, o'zaro ta'siri sifatida namoyon bo'ladi. Masalan, ijtimoiy hodisalarni tahlil qilish chog'ida qiymat qonuni yoki ishlab chiqarish munosabatlari rivojlanishining muayyan darajasiga ishlab chiqarish kuchlarining muvofiqligi qonunining aniq ko'rinish-lari haqida ham, ob'ektiv qonuniyat sifatidagi jamiyatning faol rivojlanishi haqida ham gapirish mumkin.

Qonunlar har xil bo'ladi. Xususan, asosiy va ikkinchi darajali, dinamik va statik qonunlar, tabiat va jamiyat qonunlari, maxsus va umumiy qonunlar farqlanadi. Borliq qonunlari haqidagi ta'limot sifatidagi dialektikani umumiy (universal) qonunlar qiziqtiradi, chunki ular, birinchidan, faoliyatning barcha sohalariga xos, ya'ni tabiat, jamiyat va bilishda amal qiladi; ikkinchidan, harakat va rivojlanishning teran asoslarini yoritib beradi, aniqroq aytganda, rivojlanish nima uchun, qay tarzda, qaysi yo'nalishda Yuz beradi, degan muhim savollarga izchil javob beradi.

Dialektika borliqning umumiy qonunlari haqidagi ta'limot sifatida ob'ektiv dunyo tinimsiz harakatda, o'zgarishda va rivojlanishda bo'lishidan kelib chiqadi. Dialektikaning bu qoidasi uning ikkinchi tamoyili – rivojlanish tamoyilida qayd etiladi. Ammo rivojlanishni ko'rish va uning mavjudligini tan olishning o'zi kifoya qilmaydi. «Rivojlanish» tushunchasining mohiyat va mazmuni haqida aniq tasavvur hosil qilish talab etiladi.

Rivojlanish nima? Bu tushuncha falsafada qanday talqin qilinadi?

«Rivojlanish» tushunchasiga u boshqa ma'lum tushunchalar – «o'zgarish» va «harakat» bilan o'zaro nisbatlash yo'li bilan ta'rif berish mumkin. O'zgarish – bu narsalar, hodisalarning bir holatdan boshqa holatga o'tishi. U «barqarorlik»ka zid va aniq yo'nalishli – progressiv yoki regressiv xususiyat kasb etadi. Progress yoki taraqqiyot – materiya tuzilishining quyi shakllaridan oliy shakllariga, soddadan murakkabga o'tish. Bunga teskari yo'nalishda Yuz beruvchi jarayon regress deb ataladi.

Rivojlanishni harakat fenomenidan quyidagi jihatlar yordamida farqlash mumkin:

1) vaqtda aniq yo'nalishga egalik – o'tmishdan hozirgi davr orqali kelajakka qaratilganlik;

2) jarayonning ortga qaytmasligi, ya'ni o'zgaruvchi real narsalar, hodisalar o'z individual jihatlarida betakrordir;

3) rivojlanish jarayonida yangi, ya'ni ilgari mavjud bo'lmagan narsaning paydo bo'lishi;

4) rivojlanishning qonuniy xususiyati, u muayyan qonunlarga bo'ysunishi.

Rivojlanishning dialektik konsepsiyasi quyidagi jihatlarga alohida e'tiborni qaratadi: Birinchidan, rivojlanishning manbai narsalar, hodisalar va jarayonlarning ichki ziddiyatlaridir. Bu borliqning barcha hodisalariga ichki qarama-qarshiliklar xos ekanligini anglatadi. Bu qarama-qarshiliklar o'rtasidagi muno-sabatlar ziddiyatlar deb ataladi. Har bir predmet, hodisa, jarayon doirasida qarama-qarshiliklarning birligi va qarshi harakati kuzatiladi. U hamma joyda: jonsiz tabiatda ham, jonli tabiatda ham, ijtimoiy hayotda ham, ong sohasida ham Yuz beradi. CHunki borliqning umumiy qonuni – dialektik ziddiyatlilik qonuni amal qiladi. Ikkinchidan, miqdor va sifat o'zgarishlarining bir-biriga o'tishi rivojlanishning shakli hisoblanadi. Tabiat, jamiyat va tafakkurda Yuz beruvchi jarayonlar tahlili har bir narsa, hodisa, jarayonga bir-biri bilan uzviy aloqa qiluvchi va muttasil o'zgaruvchi miqdor va sifat jihatlari xosdir, degan xulosaga kelish imkonini beradi. Bu o'zgarishlarning mohiyati shunda namoyon bo'ladiki, miqdor o'zgarishlari asta-sekin yig'ilib, predmetning me'yorini oshiradi va uning sifat holati o'zgarishiga sabab bo'ladi. Bu sakrash, rivojlanish jarayonida hujumkorlikni to'xtatish tarzida Yuz beradi. Bu erda borliqning umumiy qonuni – miqdor va sifat o'zgarishlarining bir-biriga o'tishi qonuni amal qiladi. Uchinchidan, rivojlanish jarayonida vorisiylik omili muqarrar tarzda mavjud bo'ladi. Buning natijasida rivojlanish oldingi darajalarining boyligi muttasil to'planishi unga hujumkor tus beradi. SHunga qaramay ayni shu hujumkorlik ziddiyatlidir,

chunki rivojlanish sikllilik bosqichlarini o'z ichiga oladi, «go'yoki» eskiga qaytish Yuz beradi va rivojlanish spiralsimon ko'rinish kasb etadi. Bunda borliqning umumiy qonuni – inkorni-inkor namoyon bo'ladi.

Rivojlanishning umumiy qonunlari. Dialektika qonunlari tizimida dialektik ziddiyatlilik qonuni markaziy o'rinni egallaydi. Qonunning muhim jihatlarini aniqlash uchun uning asosiy kategoriyalarini ko'rib chiqish kerak. Tahlilni qarama-qarshilik tushunchasidan boshlaymiz. Qarama-qarshiliklar – predmetning bir-birini istisno etuvchi va bir-birini nazarda tutuvchi tomonlaridir. Qarama-qarshiliklar – o'zaro bog'lanishli bo'lgan tushunchalar. Turli jihatlardan olingan taqdirda, ular o'zaro birlikni tashkil etmaydi va bir-biriga zid bo'lmasligi mumkin. Qarama-qarshilik – narsalar va hodisalardagi bir-birini taqozo qiluvchi va bir-birini istisno etuvchi tomonlar, hossalar, tendensiyalar, jarayonlarni aks ettiruvchi falsafiy kategoriya (assimilyasiya – dissimilyasiya, o'zgaruvchanlik – tug'malik, ishlab chiqarish – iste'mol qilish, yaxshilik – yomonlik va sh.k.).

Qarama-qarshiliklar o'rtasida ikki xil munosabat mavjud: yagonalik munosabati va qarşhi harakatga doir munosabat (qonunning klassik ta'rifida «kurash» atamasi ishlatiladiki, u qonunning mohiyatini soddalashtiradi, chunki mazkur atama ko'proq jamiyatga tegishlidir.)

Qarama-qarshilik birligi nima? Birinchidan, qarama-qarshiliklar birligi – bu ularning uzviyligi. Har bir qarama-qarshilik boshqa bir qarama-qarshilikning mavjudlik sharti hisoblanadi. Ular alohida-alohida mavjud bo'lishi mumkin emas (agar qarama-qarshiliklardan biri yo'q bo'lsa, ularning ikkinchisi ham yo'q bo'ladi). Ikkinchidan, qarama-qarshiliklar birligi ular bir-birini taqozo etgan va bir-biriga o'tgan holdagina muayyan mazmun kasb etadi. Har qanday qarama-qarshilik o'zida mavjud

bo'lmagan, lekin boshqa qarama-qarshilikda mavjud bo'lgan jihatga muhtoj bo'ladi. Ular bir-biri bilan o'zaro ta'sirga kirishadi. Qarama-qarshiliklar bir-biriga ta'sir ko'rsatish orqali bir-biriga o'tadi. Bu qarama-qarshiliklar makonda bir-biridan ajratilgan, turli jinsli hodisalar sifatida mavjud bo'lmasligini, ularning har biri o'zida boshqasining muayyan jihatini mujassamlashtirishini anglatadi (masalan, o'quv jarayoni o'qituvchi va talablar mavjudligini nazarda tutadi).

Qarama-qarshiliklarning qarshi harakat («kurash»)ga doir munosabati nima? Qarama-qarshiliklar bir-birini taqozo etar va rivojlanar ekan, biri boshqasiga «beparvo» bo'lmaydi, balki bir-biriga o'zaro ta'sir ko'rsatadi. Ularning o'rtasida qarshi harakat, kurash boradi. Uning mohiyati yagonalikka barham berishdan iborat. Qarama-qarshiliklarning har biri ikkinchisini o'zidan itarib chiqaradi, undan xalos bo'lishga harakat qiladi. SHunday qilib, qarama-qarshilikliklar kurashi qarama-qarshiliklar bir-birini inkor etgan, bir-birini istisno qilgan holda Yuz beradi.

Qarama-qarshiliklar birligi narsaning barqarorligini aks ettiradi va nisbiy, o'tkinchi hisoblanadi. qarama-qarshiliklarning kurashi mutlaq xususiyat kasb etadi, u hech qachon to'xtamaydi.

Qarama-qarshiliklarning birligi bilan tavsiflanadigan va ayni vaqtda ularning o'rtasidagi muttasil kurash hisoblanadigan munosabat ziddiyat deb ataladi. Ziddiyatlar borliqning barcha hodisalari va jarayonlariga xos bo'lib, o'zgarish va rivojlanishning manbai, harakatlantiruvchi kuchi sifatida amal qiladi. Ayni shu sababli ziddiyat dialektik ziddiyatlilik qonunining mohiyatini yoritib beruvchi bosh kategoriya hisoblanadi. Ziddiyat – bu qarama-qarshiliklar munosabatigina emas, balki ularning tarqalish jarayoni hamdir. SHu tufayli ham, Gegel g'oyalariga asoslanib, ziddiyat tarqalishining quyidagi bosqichlari (fazalari)

farqlanadi: ayniyat, tafovut, qarama-qarshilik, ziddiyat va asos (ya'ni ziddiyatning echilishi).

Ziddiyatlar – narsa yoki hodisa qarama-qarshi tomonlarining bir-birini istisno etish va bir-biriga o'tish munosabatlaridir. Dialektik ziddiyat – bir-birini istisno etuvchi qarama-qarshiliklarning bilvosita birligidir. Qarama-qarshiliklar – ziddiyatlarning negizi, bog'lovchi bo'g'inlar esa – ularni echish mexanizmidir. Quyidagi faktlar bog'lovchi bo'g'inlar roli va qarama-qarshiliklar tushunchasiga misol bo'lishi mumkin: Irsiyat va o'zgaruvchanlik qutblarida nafaqat organizmning avvalgi holati, balki o'zlashtirilgan yangi belgilari ham saqlanishini ta'minlovchi genetik kod bog'lovchi bo'g'in hisoblanadi. Ijtimoiy hayotda jamiyatning o'ta boy va o'ta qashshoq qatlamlari qarama-qarshiliklari o'rtasida bog'lovchi bo'g'in vazifasini o'rta sinf bajaradi. O'rta sinf mamlakat aholisining aksariyat qismini tashkil etishi lozimligi, aks holda jamiyat holati doimo beqaror bo'lishini Aristotel qadim zamonlardayoq qayd etgan edi. Zero, mayda mulkdorlar olgan daromadining bir qismini o'z ishini rivojlantirishga yo'naltiradi, bozor kon'Yunkturasini o'rganadi va unga juda tez moslashadi, bozorni zarur tovarlar va xizmatlar bilan boyitadi. УAna bir misol – shaxs va jamiyat munosabatlari. Ma'lumki, shaxs va jamiyat qarama-qarshiliklar hisoblanadi, shaxs a'zo bo'lgan ijtimoiy guruhlar ularning o'rtasida bog'lovchi bo'g'in sifatida amal qiladi.

Bu va boshqa dalillar bilishda ichki qarama-qarshiliklar mavjudlgini ham, bog'lovchi bo'g'inlarni ham hisobga olish muhim ekanligini ko'rsatadi. XX asr 30-yillarining boshida ingliz fizigi Pol Dirak pozitronlar, ya'ni elektronlarga o'xshash, lekin musbat zaryadga ega bo'lgan zarralar mavjudligini bashorat qildi. Garchi olim o'z nazariyasida biron-bir xato topmagan bo'lsa-da, aksilzarralar mavjudligiga uning ishonchi Yuq edi.

SHunday qilib, qarama-qarshiliklar aloqasi va ziddiyatlarni echishning bir-biri bilan bilvosita bog'liqligi umumiy xususiyat kasb etadi, aloqa usuli esa bog'lanish xususiyati bilan belgilanadi. Bog'lovchi bo'g'inlarning o'zi ziddiyat qarama-qarshi a'zolari xossalarining uyg'unligidan tashkil topadi.

Ayniyat va tafovut. Tafovut - avvalgi holatdan saqlanib qolgan xossalar ustunlik qilgani holda, ayni bir predmet xossalarining mos kelmasligidir. Tafovut kuchli yoki ahamiyatsiz bo'lishi mumkin. Kuchli tafovut – predmetning o'z-o'zi bilan ziddiyatga kirishish omili. Bu qarama-qarshilik bosqichi bo'lib, uning echilishi predmetning butunlay o'zgarishiga olib keladi. SHunday qilib, ziddiyatlarning kuchayishi va o'z echimini topishi rivojlanish manbai hisoblanadi.

«Ayniyat» tushunchasi ziddiyat tarqalishining dastlabki bosqichini anglatadi. Bu bir xillik, narsa, hodisa, jihatning o'z-o'ziga yoki boshqa narsalar, hodisalar, jihatlarga o'xshashlik munosabati. «Tafovut» - har xillik, o'z-o'ziga, boshqa narsalar, hodisalar, jihatlarga mos kelmaslik munosabati. Ziddiyatning vujudga kelishi yagonaning ikkilanishi sifatida, yagonaning o'z-o'zini qarama-qarshiliklarga differensiatsiya qilishi sifatida Yuz beradi.

Ziddiyatlarning rivojlanish jarayoniga yanada chuqurroq kirish uchun ularning tarqalish bosqichlari (fazalari)dan tashqari, ularning holatlarini ham farqlash zarur. Predmetli-moddiy, «etilgan» ziddiyatning holati deganda uning qarama-qarshiliklarining amal qilish usuli, «birligi va kurashi»ning namoyon bo'lish xususiyati tushuniladi. Ayni shu xususiyat bu qarama-qarshiliklarning rivojlanish xususiyati va faollik darajasini, mazkur ziddiyatni echish xususiyatini belgilaydi. Ziddiyatning rivojlanish jarayonida bosqichlarni yoki tarqalgan, «etilgan» ziddiyatni tavsiflovchi holatlarni ham farqlash mumkin.

Ijtimoiy tizimlarga tatbiqan ziddiyatlarning rivojlanish bosqichlariga nisbatan bunday yondashuv ularning quyidagi holatlarini aniqlash imkonini beradi: garmoniya, disgarmoniya, konflikt.

SHuni qayd etish muhimki, ziddiyatlar rivojlanayotgan har qanday tizimda mazkur tizim mavjudligining boshidan oxiriga qadar mavjud bo'ladi. Holatlar, miqdor ko'rsatkichlari, qarama-qarshiliklarning o'zaro aloqasi xususiyati, ularning tizimdagi roligina o'zgaradi.

Ziddiyatlarning turlari. Ziddiyatlarning butun rang-barangligi turli asoslarga ko'ra tasniflanadi. Xususan,

1) namoyon bo'lish shakliga ko'ra – ichki va tashqi ziddiyatlar;

2) rivojlanishdagi roliga ko'ra – asosiy va ikkinchi darajali ziddiyatlar;

3) vujudga kelish xususiyatiga ko'ra – zaruriy va tasodifiy ziddiyatlar;

4) jamiyatdagi tipiga ko'ra – antagonistik va noantagonistik ziddiyatlar farqlanadi. Asosiy ziddiyatlar strukturaning qarama-qarshi tomonlari o'rtasida, ikkinchi darajali ziddiyatlar esa – bog'lovchi bo'g'inlar o'rtasida yuzaga keladi. Asosiy ziddiyatlar sifatli, muhim va zarurdir. Asosiy ziddiyatlarsiz predmet, uning sifat jihatidan muayyanligi va yaxlitligi mavjud bo'lmaydi. Ikkinchi darajali ziddiyatlar tasodifiy xususiyat kasb etadi, ularning borligi yoki yo'qligi predmetning sifatini o'zgartirmaydi. Muhim ziddiyatlar – bir lahzalik ziddiyatlardir: ular ichki yoki tashqi, asosiy yoki ikkinchi darajali bo'lishi mumkin. Masalan, inson hayoti qil ustida turadigan avtomobil halokati yuz bergan paytda barcha ichki ziddiyatlar (psixologik konfliktlar, stresslar va fiziologik patologiyalar) ikkinchi darajali ahamiyat kasb etadi.

Borliqning ichdan ziddiyatliligi – ob'ektiv hodisa, tabiat va jamiyatning asosiy va umumiy xossasidir. Har bir inson hayotiga

kelsak, u ziddiyatlar bilan har kuni to'qnash keladi, qarorlar qabul qiladi, baholar beradi, o'z qilmishlaridan pushaymon bo'ladi, ko'pincha yo'l qo'ygan xatolaridan afsus chekadi. Har qanday voqea, vaziyat, taxminning ichki ziddiyatlarini ko'rib, o'zi qabul qilayotgan qarorlarning ijobiy va salbiy tomonlarini taroziga sola bilish tafakkurning etuklik belgisidir.

Dialektika tizimida bu qonunning markaziy o'rni nima bilan belgilanadi? Birinchidan, bu qonun har qanday harakat va rivojlanish manbaini yoritadi, ya'ni rivojlanish nazariyasining eng muhim savollariga javob beradi. Ikkinchidan, bu qonun dialektikaning qolgan barcha qonunlari va kategoriyalarining asosi hisoblanadi. Ko'rsatilgan qonunlar va kategoriyalarning har birida biz birlik va kurash munosabati bilan bog'liq bo'lgan qarama-qarshiliklarga duch kelamiz. Uchinchidan, dialektik ziddiyatlilik qonuni yagonani tafakkurda ikkilantirish va uning qarama-qarshiliklarini ularning tahlilini sintez bilan birlashtirish orqali o'rganishni talab qilib, bilish dialektik metodining bosh mazmunini belgilaydi.

Rivojlanish manbaini yorituvchi dialektik ziddiyatlilik qonunidan farqli o'laroq, miqdor va sifat o'zgarishlarining bir-biriga o'tishi qonuni rivojlanish jarayonining mexanizmini yoritadi, u qay tarzda va qanday shakllarda amalga oshirilishini ko'rsatadi. Bu qonunning xususiyatini, u qanday namoyon bo'lishi va amal qilishini aniqlash uchun uning asosiy tushunchalari: sifat, miqdor, me'yor, sakrashning mazmunini yoritish talab etiladi.

Sifat narsalarga xos va ularning borlig'i bilan ayniy bo'lgan hamda ularni muayyan aloqalar tizimidagi boshqa narsalardan farqlash imkonini beradigan o'ziga xos xususiyatni aks ettiradi. Narsalarning sifati ularning chekliligi bilan uyg'un bog'liq, zero mazkur sifat yo'q bo'lishi bilan narsaning o'zi ham yo'q bo'ladi, u

boshqa narsaga aylanadi. Barcha narsalar, jarayonlar, hodisalar sifat bilan bir qatorda muayyan miqdorga ham ega bo'ladi. Ular muqarrar tarzda muayyan o'lcham, hajm, massa va shu kabilar bilan tavsiflanadi.

Sifat – narsaning ichki xususiyati, predmetni mazkur jihatdan farqlash uchun zarur va etarli bo'lgan xossalar majmui. Sifat – xossalarning oddiy majmui emas, balki ularning muayyan yaxlitlikdan o'rin olgan va predmetning alohida mohiyat sifatida mavjudligini belgilovchi tizimidir. Predmetlarning munosabatlari va aloqalarining rang-barangligi ayni bir predmetda qarama-qarshi xossalar va sifatlar mavjudligini izohlaydi. Bir jihatdan engil narsa boshqa bir jihatdan og'ir bo'ladi, bir aloqada oq narsa boshqa bir aloqada qora bo'ladi va h.k. Masalan, suv va bug' bir-biridan sifat jihatidan farq qiladimi yoki miqdor jihatidanmi? Moddaning agregat holatini taqqoslaydigan bo'lsak, suv va bug' sifat jihatidan farq qiladi. Taqqoslash suv va bug'ning kimyoviy tarkibini aniqlashni nazarda tutsa, ularning o'rtasida miqdoriy farq mavjud bo'ladi. Ammo har qanday narsa bir jihatdan bitta sifatga va turli jihatlardan ko'plab sifatlarga ega bo'ladi

Xossa – predmetning jihati bo'lib, uning boshqa predmetlardan farqi yoki ular bilan o'xshashligini belgilaydi va ular bilan o'zaro aloqada namoyon bo'ladi. Xossalar muhim va ikkinchi darajali bo'lishi mumkin. Muhim xossalar predmetning sifatini belgilaydi. Ularning yo'qolishi mohiyatini mazkur xossalar tashkil etgan predmetning ham yo'qolishini anglatadi. Ikkinchi darajali xossalar o'zlashtirilishi yoki predmetning sifatini o'zgartirmasdan yo'qolishi mumkin. Har qanday xossa (temperatura, hajm, energiya va sh.k.) muayyan miqdor va sifatga ega bo'ladi. Har qanday predmet o'zining mavjudligini belgilovchi barcha xossalar majmuidir..

Miqdor – predmet muayyan xossasining namoyon bo'lishi, intensivligi darajasi. U sifat jihatidan o'xshash xossalar yoki butunning qismlarini taqqoslash yo'li bilan aniqlanadi. Miqdoriy munosabatlar sifatga bog'lanmasdan aniqlanishi mumkin. SHuningdek, miqdor turli predmetlarning ayrim umumiy xossasi sifatida, predmetlarni sifat jihatidan tenglashtiradi. SHu ma'noda miqdor sifatning ziddidir. Ammo predmetning sifat xususiyatini mavhumlashtirish sifat jihatidan har xil tuzilmalarni o'rganishga tadqiqotning miqdoriy metodlarini jalb qilish imkonini beradi. Masalan, o'lchash taqqoslashning o'rganilayotgan ob'ektning miqdor ko'rsatkichlarini aniqlovchi ayrim ko'rinishi sifatida, sifat haqida aniqroq xulosa chiqarish imkonini beradi. Matematikada miqdoriy munosabatlar son, qiymat, funksiya, to'plam tushunchalarida ifodalanadi. Hozirgi zamon fani aniq matematik apparatdan foydalanib, mikrodunyoning teran qatlamlariga kiradi, Olamning cheksiz makonlarini tadqiq etadi. Matematika tabiat va jamiyatni o'rganishning samarali vositalaridan biriga aylangan.

Har qanday predmet miqdor va sifat qarama-qarshiliklarining muayyan sintezidir. Uning borlig'i ob'ektga xos bo'lgan muhim xossalarni saqlashni nazarda tutadi. Olamning ko'p sifatliligi uning elementlari nisbatan barqarorligi va mustaqilligi bilan ta'minlanadi. Ammo olam, shu jumladan har qanday predmet muttasil o'zgarishda bo'ladi. Hech narsa boqiy emas. Butun borliq qachondir paydo bo'lgan va qachondir halok bo'ladi. Dunyo o'zgaradi va ayni vaqtda o'zligini saqlab qoladi, o'z-o'ziga nisbatan ayniy bo'ladi.

Me'yor – predmet borlig'ining chegarasi. U predmet xossalari miqdor va sifat o'zgarishlarining xususiyati bilan belgilanadi. Me'yor – bu shunday bir chegaraki, unda miqdor o'zgarishlari narsaning sifatiga putur etkazmaydi. Gegel fikricha, «Hamma

narsa o'z me'yoriga ega, ya'ni miqdor jihatidan aniqdir»1. Masalan, vodorod peroksidi va suv bir-biridan molekulalardagi kislorod atomlarining miqdoriga ko'ra farq qiladi. Huquqiy, axloqiy va estetik hodisalar tavsifida me'yor tushunchasi normativlik xususiyatini kasb etadi. «Aynan «ko'proq» va «kamroq» orqali engiltaklik me'yori buziladi va butunlay boshqa narsa – jinoyat namoyon bo'ladi, aynan «ko'proq» va «kamroq» orqali adolat haqsizlikka, fazilat nuqsonga o'tadi»2. Masalan, huquqda qilmishning ijtimoiy xavflilik darajasi va jazo chorasi o'rtasidagi muvofiqlikka rioya etiladi. Me'yor tushunchasida miqdor va sifat xossalarining o'zaro aloqasi aks etadi. Tabiatda kuzatiladigan narsalarning bir holatdan boshqa holatga o'tishi dunyo evolyusiyasining muhim va keng tarqalgan mexanizmlaridan birini aks ettiradi. Me'yor tushunchasi evolYusiya tendensiyalarini aniqlash, turli sistemalarning o'tmishi va kelajagi xususida gipotezalar tuzish imkonini beradi. Miqdor sifat jihatidan bir jinsli hodisalarning muayyan ob'ektiv ko'rsatkichi bo'lib, u mazkur hodisalarning kattaligini, mavjudlik muddatini va umuman hodisa yoki uning ayrim tomonlari rivojlanishining faollik darajasini tavsiflaydi.

Me'yor – bu miqdor va sifatning shunday bir birligiki, bunda muayyan sifat faqat muayyan miqdor bilan bog'liq. Me'yor – bu miqdor ko'rsatkichlari yoki o'zgarishlarining tegishli sifat mavjud bo'lishi mumkin bo'lgan muayyan oralig'i hamdir. Miqdorning me'yor doirasida o'zgarishi sifatning o'zgarishiga sabab bo'lmaydi, lekin me'yordan oshilganda narsa o'zining avvalgi mohiyatini yo'qotadi.

Miqdor va sifat o'zgarishlarining o'zaro bog'liqligi haqidagi qoida umumiy ahamiyat kasb etadi. U atrof borliqning barcha narsalari va hodisalariga nisbatan o'rinli, ya'ni dialektika qonuni kuchiga ega. U quyidagicha ta'riflanadi. Miqdor va sifat

o'zgarishlarining bir-biriga o'tishi qonuni narsaning miqdor va sifat tomonlarining shunday bir o'zaro aloqasini aks ettiradiki, uning ta'sirida miqdor o'zgarishlari me'yor chegarasidan chetga chiqib, albatta tub sifat o'zgarishlariga sabab bo'ladi, bu sifat o'zgarishlari esa, o'z navbatida, yangi miqdor ko'rsatkichlariga olib keladi.

Bu qonunga muvofiq rivojlanish bir-biridan farq qiladigan, lekin o'zaro bog'langan ikki bosqich – uzluksizlik va uzluklilikning birligi sifatida Yuz beradi. Rivojlanishda uzluksizlik – bu juda sust, ko'zga ko'rinmas miqdor o'zgarishlari bosqichi. Rivojlanishda uzluklilik sakrash deb ataladi. Sakrash – bu bir sifatning boshqa sifatga aylanish vaqti, shakli, usuli, miqdor o'zgarishlarining uzluksizligi, bosqichma-bosqichligidagi uzilish. Masalan, sakrash – bu Erda hayotning paydo bo'lishi, hayvonlar dunyosidan insonning ajralib chiqishi, bir ijtimoiy tuzum o'rniga boshqa ijtimoiy tuzum kelishi, buYuk ilmiy va texnikaviy kashfiyotlar. Har qanday sakrash rivojlanishda o'tish davrini tavsiflaydi. O'z tabiatiga ko'ra u doim ziddiyatlidir, chunki yangining tug'ilishidan ham, eskining qarshiligidan ham dalolat beradi.

SHunday qilib, miqdor va sifat o'zgarishlarining bir-biriga o'tish qonuni uning rivojlanishning umumiy qonuni sifatidagi mazmuni haqida yaxlit tasavvur hosil qilish imkonini beradigan «sifat», «miqdor», «me'yor», «sakrash» kategoriyalari yordamida muayyanlashtiriladi. Mazkur qonun butun borliqning rivojlanishi, harakati va o'zgarishi qanday, qay tarzda Yuz beradi, degan savolga javob berib, ob'ektiv voqelikning har qanday sohasida yangi sifatga o'tishning ichki mexanizmini yoritadi. Ko'rib chiqilgan qonunlar rivojlanish manbai va uning mexanizmini yoritib bersa, inkorni-inkor qonuni – rivojlanishning umumiy tendensiyasini, uning yo'nalishini aks ettiradi.

Inkorni-inkor. Inkorni-inkor qonuni nima, uning mohiyati nimadan iborat?

«Inkor» va «inkorni-inkor» kategoriyalari dialektikaga Gegel tomonidan kiritilgan bo'lib, ayni shu mutafakkirning sa'y-harakatlari bilan ular umumiy falsafiy kategoriyalar maqomini olgan. Inkor va inkorni-inkor kategoriyalaridan Gegel rivojlanishning o'ziga xos xususiyatlarini yoritish vositasi sifatida foydalangan.

Inkor rivojlanish yangi sifat paydo bo'lishiga olib keladigan aniq yo'naltirilgan, qaytmas o'zgarish sifatida tavsiflanadi. SHaklan rivojlanish bir chiziqli ham, aylanma ham emas, balki rang-barangroq va murakkabroq, chunonchi: bir chiziqli va ko'p chiziqli, to'g'ri chiziqli va zigzagsimon, umumiy va mahalliy, uyg'un va nouyg'undir. Yo'nalish jihatidan rivojlanish progressiv va regressiv bo'lishi mumkin. Rivojlanish tizim ayrim elementlarining tanazzuli bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Butun tizim tanazzulga uchrashi, uning ayrim elementlari esa taraqqiy etishi mumkin emas. Ob'ektga nisbatan tashqi kuchlar ta'sirida Yuz berishi mumkin bo'lgan harakatdan farqli o'laroq, rivojlanish o'z-o'zidan harakat, ichki jarayon bo'lib, ziddiyat, bir-birini istisno etuvchi tomonlar, tendensiyalar uning manbai hisoblanadi.

Dialektik inkor – bu narsani butunlay yo'q qilish emas, balki eski sifatning ba'zi bir jihatlarini saqlagan va o'zgartirgan holda uni yangi narsaga aylantirishdir. U yangi va eski sifat o'rtasida aloqa mavjudligidan dalolat beradi. Dialektik inkor uch muhim jihat bilan tavsiflanadi: 1) eskini vayron qilish, buzish; 2) eskining elementlarini saqlash (vorisiylik); 3) yangini yaratish, tuzish.

Biz inkor kategoriyasi metafizik va dialektik talqinining mohiyatini aniqladik. Endi qo'sh inkor nimadan iborat ekanligini ko'rib chiqamiz.

«Inkorni-inkor» shuni qayd etadiki, rivojlanish jarayoni eski sifatni inkor qilishdan boshlanadi, uni esa oradan ma'lum vaqt o'tgach yangi sifat inkor etadi. Ammo rivojlanish qanday Yuz beradi? To'g'ri (Yuksalib boruvchi) chiziq bo'ylabmi yoki egri chiziq bo'ylabmi? Bu masala quruq gap emas, balki muhim ahamiyatga ega. CHunki rivojlanish jarayonida eski va yangining aloqasi bo'lmaganda, vorisiylik ham bo'lmasdi, eski butunlay yo'q bo'lar, rivojlanishni grafik ko'rinishda yangi eskidan farq qiladigan, eski esa yangida takrorlanmaydigan to'g'ri (Yuksalib boruvchi) chiziq sifatida tasvirlash mumkin bo'lardi. Biroq amalda yangida eski saqlanadi, uning elementlari yangida takrorlanadi. Ammo bu takrorlanish Yuqoriroq darajada Yuz beradi. Eskining jihatlari, elementlari Yuqoriroq asosda takrorlanishi biz muhokama qilayotgan qonunning o'ziga xos xususiyati hisoblanadi. Bundan qonunning boshqa bir xususiyati kelib chiqadi. Hamonki eskining oliy asosda qaytarilishi mavjud ekan, rivojlanish to'g'ri chiziq bo'ylab emas, balki spiralsimon chiziq bo'ylab Yuz berishi, sikldan-siklga eskiga yaqinlashishi (chunki takrorlanib turishlik mavjud) va undan uzoqlashib borishi (chunki bu yangi) ayon bo'ladi.

Inkorni-inkor qonuni – bu shunday bir qonunki, unga muvofiq rivojlanish jarayoni yangining eskini dialektik inkor etishlari cheksiz zanjiridan iborat bo'ladi, bunda rivojlanish avvalgi bosqichlarining barcha muhim jihatlari yangida saqlanadi va umuman bu jarayon hujumkor, Yuksalib boruvchi yo'nalishga ega bo'ladi. Ayni vaqtda rivojlanish jarayonida uning oliy bosqichlarida avvalgi bosqichlarning ayrim jihatlari va tomonlari sifat jihatidan yangicha asosda takrorlanadi va ayni hol to'g'ri chiziq, tutash doira bo'ylab emas, balki spiralga yaqinlashuvchi egri chiziq bo'ylab Yuksalishni belgilaydi. Harakatning spiralsimonligi rivojlanishning siklliligini aks ettiradi.

Inkorni-inkor. Inkorni-inkor qonuni nima, uning mohiyati nimadan iborat?

«Inkor» va «inkorni-inkor» kategoriyalari dialektikaga Gegel tomonidan kiritilgan bo'lib, ayni shu mutafakkirning sa'y-harakatlari bilan ular umumiy falsafiy kategoriyalar maqomini olgan. Inkor va inkorni-inkor kategoriyalaridan Gegel rivojlanishning o'ziga xos xususiyatlarini yoritish vositasi sifatida foydalangan.

Inkor rivojlanish yangi sifat paydo bo'lishiga olib keladigan aniq yo'naltirilgan, qaytmas o'zgarish sifatida tavsiflanadi. SHaklan rivojlanish bir chiziqli ham, aylanma ham emas, balki rang-barangroq va murakkabroq, chunonchi: bir chiziqli va ko'p chiziqli, to'g'ri chiziqli va zigzagsimon, umumiy va mahalliy, uyg'un va nouyg'undir. Yo'nalish jihatidan rivojlanish progressiv va regressiv bo'lishi mumkin. Rivojlanish tizim ayrim elementlarining tanazzuli bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Butun tizim tanazzulga uchrashi, uning ayrim elementlari esa taraqqiy etishi mumkin emas. Ob'ektga nisbatan tashqi kuchlar ta'sirida Yuz berishi mumkin bo'lgan harakatdan farqli o'laroq, rivojlanish o'z-o'zidan harakat, ichki jarayon bo'lib, ziddiyat, bir-birini istisno etuvchi tomonlar, tendensiyalar uning manbai hisoblanadi.

Dialektik inkor – bu narsani butunlay yo'q qilish emas, balki eski sifatning ba'zi bir jihatlarini saqlagan va o'zgartirgan holda uni yangi narsaga aylantirishdir. U yangi va eski sifat o'rtasida aloqa mavjudligidan dalolat beradi. Dialektik inkor uch muhim jihat bilan tavsiflanadi: 1) eskini vayron qilish, buzish; 2) eskining elementlarini saqlash (vorisiylik); 3) yangini yaratish, tuzish.

Biz inkor kategoriyasi metafizik va dialektik talqinining mohiyatini aniqladik. Endi qo'sh inkor nimadan iborat ekanligini ko'rib chiqamiz.

«Inkorni-inkor» shuni qayd etadiki, rivojlanish jarayoni eski sifatni inkor qilishdan boshlanadi, uni esa oradan ma'lum vaqt o'tgach yangi sifat inkor etadi. Ammo rivojlanish qanday Yuz beradi? To'g'ri (Yuksalib boruvchi) chiziq bo'ylabmi yoki egri chiziq bo'ylabmi? Bu masala quruq gap emas, balki muhim ahamiyatga ega. CHunki rivojlanish jarayonida eski va yangining aloqasi bo'lmaganda, vorisiylik ham bo'lmasdi, eski butunlay yo'q bo'lar, rivojlanishni grafik ko'rinishda yangi eskidan farq qiladigan, eski esa yangida takrorlanmaydigan to'g'ri (Yuksalib boruvchi) chiziq sifatida tasvirlash mumkin bo'lardi. Biroq amalda yangida eski saqlanadi, uning elementlari yangida takrorlanadi. Ammo bu takrorlanish Yuqoriroq darajada Yuz beradi. Eskining jihatlari, elementlari Yuqoriroq asosda takrorlanishi biz muhokama qilayotgan qonunning o'ziga xos xususiyati hisoblanadi. Bundan qonunning boshqa bir xususiyati kelib chiqadi. Hamonki eskining oliy asosda qaytarilishi mavjud ekan, rivojlanish to'g'ri chiziq bo'ylab emas, balki spiralsimon chiziq bo'ylab Yuz berishi, sikldan-siklga eskiga yaqinlashishi (chunki takrorlanib turishlik mavjud) va undan uzoqlashib borishi (chunki bu yangi) ayon bo'ladi.

Inkorni-inkor qonuni – bu shunday bir qonunki, unga muvofiq rivojlanish jarayoni yangining eskini dialektik inkor etishlari cheksiz zanjiridan iborat bo'ladi, bunda rivojlanish avvalgi bosqichlarining barcha muhim jihatlari yangida saqlanadi va umuman bu jarayon hujumkor, Yuksalib boruvchi yo'nalishga ega bo'ladi. Ayni vaqtda rivojlanish jarayonida uning oliy bosqichlarida avvalgi bosqichlarning ayrim jihatlari va tomonlari sifat jihatidan yangicha asosda takrorlanadi va ayni hol to'g'ri chiziq, tutash doira bo'ylab emas, balki spiralga yaqinlashuvchi egri chiziq bo'ylab Yuksalishni belgilaydi. Harakatning spiralsimonligi rivojlanishning siklliligini aks ettiradi.

Dialektikaning asosiy qonunlari yagona rivojlanish jarayonining turli jihatlarini tavsiflab, alohida-alohida emas, balki uzviy dialektik birlikda amal qiladi. Masalan, miqdor o'zgarishlarining sifat o'zgarishlariga o'tishi va buning aksi ziddiyatni ham, dialektik inkorni ham o'z ichiga oladi. Qarama-qarshiliklar birligi va kurashi miqdor-sifat munosabatlarini va inkorni-inkorni o'z ichiga oladi. Xuddi shuningdek inkor jarayonida yagonaning eski va yangiga ikkilanishi, ularning o'rtasida qarama-qarshilik, shuningdek miqdor o'zgarishlarining sifat o'zgarishlariga o'tishi Yuz beradi. Boshqacha qilib aytganda, moddiy dunyoning yagonaligi qonunlar amal qilishining umumiyligini nazarda tutadi. Ammo shuni e'tiborga olish lozimki, dialektika qonunlari bir vaqtda amal qilganda, ularning har biri nisbatan mustaqil bo'ladi, zero rivojlanish mohiyatining muayyan jihatini (manba, mexanizm, yo'nalish) aks ettiradi. Rivojlanishning zaruriy sharti sifatida tavsiflanadi: o'z mavjudligining avvalgi shakllarini inkor etmaydigan rivojlanish bo'lishi mumkin emas. Inkor harakatida rivojlanishga monelik qiladigan narsalarning rad etilishi, yo'q qilinishi Yuz beradi. Umuman olganda inkor – ob'ektiv jarayon. Masalan, hozirgi zamon fani ma'lumotlariga ko'ra, kengayib borayotgan plazmani yo'q qilib tashlagan Katta portlashsiz biz yashayotgan Olam, uning galaktikalari, Yulduzlari va sayyoralari ham, inson ham bo'lmas edi. Ammo inkorni sof yo'q bo'lish sifatida jo'n talqin qilishdan ehtiyot bo'lish lozimligini Gegel ham, boshqa faylasuflar ham qayd etadi. Bunday inkor «behuda», metafizik inkor deb e'tirof etiladi. U tabiatda ham, jamiyatda ham mavjud. Lekin oddiy yo'q bo'lish jamiyatni ortga uloqtirib tashlaydi, xolos. Vaholanki, tarix kultepasida jo'yali bir narsa Yuzaga kelishi mushkul.

Dialektik inkor rivojlanish omili hisoblanadi, chunki u bartaraf etishni o'z ichiga oladi. Gegel fikricha, bartaraf etish «ikki

xil ma'no kasb etadi: u asrash, saqlab qolishni va ayni vaqtda to'xtatish, chek qo'yishni anglatadi»1. Gegel talqinida inkor rivojlanish omili sifatida yashash qobiliyatini yo'qotgan narsani yo'q qilish va erishilgan rivojlanishni saqlashni nazarda tutadi. Masalan, A.Eynshteyn yangi va eski nazariyalarning o'zaro nisbatini shunday tavsiflaydi: «YAngi nazariya... eski nazariya Yutuqlarini chetga chiqarib tashlaydi, deb hisoblash to'g'ri bo'lmaydi. YAngi nazariya eski nazariyaning afzalliklarini ham, kamchiliklarini ham namoyon etadi va bizga eski tushunchalarga teranroq nuqtai nazardan baho berish uchun imkoniyat yaratadi... Biz eski nazariya o'rinli bo'lgan sohada faktlar o'rganilayotganda har safar undan foydalanishimiz mumkin» . Ammo har qanday hodisa yaxlit bo'lgani bois, bartaraf etish haqidagi masalaning qo'yilishi abstrakt xususiyat kasb etadi. XIX asr falsafiy ta'limotlarida bartaraf etishning tabiat va tarixdagi ko'rinishlarini erishilgan rivojlanishni o'zgartirilgan holda saqlash sifatida yoritib, bu tushunchani to'ldiradi. YAngilik va eskilikning ichki ziddiyatlariga chek qo'yish sifatidagi o'z-o'zini inkor dialektik inkorning muhim xususiyati bo'lib, bu rivojlanishning hujumkorligini belgilaydi.

3. "Kategoriya" so'zi qadimga Yunon tilidan olingan bo'lib: «izohlash», «tushuntirish», «ko'rsatish», degan ma'nolarni anglatadi. Uning mazmunidagi bunday xilma-xillik qadimga davrlardanoq ilmiy tadqiqot yo'nalishiga aylangan. Falsafa tarixida ularni birinchi bo'lib, Arastu ta'riflab bergan. U o'zining «Kategoriyalar» degan asarida ularni ob'ektiv voqelikning umumlashgan in'kosi sifatida qarab, turg'umlashtirishga harakat qilin. Xususan, uningcha quyidagi kategoriyalar mavjud: «mohiyat» (substansiya), «miqdor», «sifat», «munosabat», «o'rin», «vaqt», «holat», «mavqe», «harakat», «azob-uqubat». Bu turg'umlashtirish, o'z vaqtida ilmiy bilishda juda katta

ahamiyatga ega bo'lgan. Keyinchalik Arastu «Metafizika» asarida «mohiyat», «holat» va «munosabat» kategoriyalarini ham izohlagan.

XVII-XIX asrlarga kelib, falsafiy kategoriyalar tahlilida yangi davr vujudga keldi. Xususan, I. Kant qarashlarida kategoriyalar «sifat» (reallik, inkor, chegaralash), «miqdor» (birlik, ko'plik, yaxlitlik), «munosabat» (substansiya va xususiyat, sabab va harakat, o'zaro ta'sir), «modallik» (imkoniyat va imkoniyatsizlik, voqelik va novoqelik, zaruriyat va tasodif) tarzida izohlangan. Kantdan farqli o'laroq, Xegel esa mantiqiy kategoriyalarni: «borliq» (sifat, miqdor, me'yor), «mohiyat» (asos, xodisa, mavjudlik), «tushuncha» (ob'ektiv, sub'ektiv, absolYut g'oya) tarzida izohlagan.

Lekin shuni unutmaslik kerakki, bugun falsafadan boshqa xususiy fanlar ajralib chiqqan davrda, fan kategoriyalari falsafiy kategoriyalardan tubdan farq qiladi. Har qanday fan borliqning muayyan tomonlarini o'rganar ekan, albatta o'z kategoriyalar apparatini shakllantiradi. Matematika «son», «differensial», «integral» kabi kategoriyalar bilan bog'liq. Biologiyada «tur», «irsiyat», «o'zgaruvchanlik» kabi kategoriyalar mavjud. Ammo, muayyan fanlarning kategoriyalari ma'lum darajada umumiy bo'lsa-da, borliqning ayrim sohalaridagina qo'llaniladi va mazkur sohalarga xos bo'lgan aloqalar va munosabatlarni aks ettiradi. Xususiy ilmiy kategoriyalar alohida olingan xususiy ilmiy fanlarda qo'llaniladigan, mohiyat nuqtai nazaridan boshqa fanlarda qo'llanilishi mumkin bo'lmagan kategoriyalardir. Masalan, fizika, kimyo geologiya, geografiya fanlari kategoriyalari xususiy xarakterga ega.

Falsafiy kategoriyalar fan kategoriyalaridan butunlay farq qiladi. Falsafiy kategoriyalarning muhim xususiyati, ular o'ta keng tushunchalar ekanligidir. Falsafiy kategoriyalar –

borliqning umumiy, muhim tomonlari, xossalari, aloqalari va munosabatlari haqida fikrlash uchun qo'llaniladigan o'ta keng tushunchalar majmuidir.

Falsafa fanining kategoriyalari haqidagi turli qarashlarni umumlashtirib aytganda, ularning mantiqiy tushunchalar sifatidagi quyidagi tavsiflari bor:

1) ob'ektiv voqelikning in'ikosi;

2) narsa va hodisalarning o'zaro bog'lanish va aloqadorligini mantiqiy umumlashtiruvchi bilish usuli;

3) narsa va hodisalarning rivojlanishi bilan o'zgarib turuvchi mantiqiy tushuncha;

4) borliqning mavjudligidan kelib chiqadigan tarixiy — mantiqiy bilish darajalaridan biri. Ko'pchilik mutaxassislar kategoriyalar olam, undagi narsa va voqealar, ularning asosiy va takrorlanib turuvchi aloqadorligini ifodalaydigan keng mazmundagi tushunchalardir, degan fikrga qo'shiladilar. Bu ma'noda borliq, voqelik, harakat, makon, zamon, miqdor, sifat va boshqalar falsafaning ana shunday kategoriyalaridir.

Falsafada o'z xususiyatlariga ko'ra, «juft kategoriyalar» deb ataladigan; umumiy bog'lanish va aloqadorlik munosabatlarini ifodalovchi tushunchalar ham bor. Ular narsa va hodisalarning muayyan yo'nalishdagi eng muhim, zaruriy, nisbatan barqaror, davriy takrorlanib turuvchi bog'lanish va aloqadorlik munosabatlarini ifodalaydi. Falsafa kategoriyalari mazmunidagi ichki birlik, bog'lanish, aloqadorlik va munosabatlarning yaxlitligi bilish jarayonining uzluksizligini ta'minlaydigan umumiy qonuniyat tarzida vujudga kelgan.

Alohidalik, xususiylik va umumiylik - narsa va hodisalar, ularning bir-biriga o'xshash va farq qiluvchi tomonlarini ifodalaydigan kategoriyalar; olamga xos munosabat va aloqadorlikni, olam taraqqiyotining xususiyati, uning makon va zamondagi

mavjudlik shakllariga, har bir narsa yoki hodisaning ayrim belgilari hamda o'zaro birlikni ifodalovchi umumiy tomonlarni ifodalaydigan tushunchalar.

Alohidalik kategoriyasi olamdagi narsa, voqea va jarayonlarga xos bo'lgan aniq, yagona takrorlanmaydigan belgilar hamda xususiyatlarni ifodalaydi. Mazkur kategoriya tabiat va ijtimoiy hayotdagi narsa, alohida hodisa, juz'iy fakt va yagona voqea haqidagi tushunchalarni ham bildiradi. Masalan, har bir millatga xos madaniyatning til, urf-odat, an'ana, milliy xarakter, psixologiya kabi belgilari ayni shu shakl va mazmunda boshqa xalqlarda takrorlanishi mumkin bo'lmagan ayrimlikdir.

SHuningdek, tibbiyotda infarkt miokardi – Yurak-tomir kasalliklari sistemasida o'ziga xos belgi va xususiyatlariga ko'ra ayrimlikni ifodalaydi. Alohidalik kategoriyasi moddiy olam mavjudligi va undagi munosabatlarning faqat bir tomonini ifodalaydi, xolos. Ayrim olingan voqea, hodisa, alohida predmet va jarayonlar, ularga xos belgilar bilan, ayni paytda materiyaning konkret ko'rinishlari, predmet, voqea va protsesslarni o'xshash, aynan tomonlarini bildiruvchi umumiy belgilari ham mavjud.

Umumiylik kategoriyasi narsa, hodisa, jarayonlarga xos asosiy, doimiy takrorlanadigan belgilar va xususiyatlar yig'indisini bildiradi. Bu kategoriya narsalarning kelib chiqish jihatidan umumiy ekanligini, ular taraqqiyot umumiy zanjirining uzviy bog'liq xalqalari ekanligini, bir xil qonuniyatlarga bo'ysunishi mumkinligini anglatadi.

Masalan, har qanday o'tish davri eski jamiyatdan yangisiga o'tish muammolarini hal etilish shakli bo'lib, uning mazmuni mavjud ijtimoiy, iqtisodiy munosabat, tartiblarni tubdan o'zgartirishdan iboratdir. Xususan, O'zbekistondagi hozirgi o'tish davrida ham ana shunday o'zgarish amalga oshmoqda, ammo bu jarayonda faqat bizning mamlakatimizga xos xususiyatlar ham

bor. Xullas, umumiylik ayrimlikka nisbatan keng mazmunga ega, u ayrim narsa, hodisa va jarayonlarga xos bo'lgan ichki qonuniyatni, umumiy asosni, o'xshashlikni anglatadi.

Xususiylik – narsa yoki hodisalarning shunday doirasiki, bunda ular ma'lum bir munosabatda umumiy, boshqasida esa alohidalikdir.

Falsafaning bu kategoriyasi bilan «butun», «qism» «struktura», «sistema», «element», kategoriyalari o'rtasida uzviy bog'liqlik va muayyan farqlar mavjud. Ya'ni «alohidalik», «xususiylik», «umumiylik» narsa va hodisalar rivojlanish jarayonidagi bog'lanish, aloqadorlik munosabatlarining yaxlitligini nisbatan mustaqil ifodalash bo'lsa, «butun», «qism», «struktura», «sistema», «element», kategoriyalari esa, ularning makon va zamondagi bog'lanish munosabatlarini jarayon tarzida ifodalashdir. SHu nuqtai nazardan, butunni umumiylik, qismni yoki elementni alohidalik tarzida olib qarash holatlari uchraydi.

SHuningdek, muayyan o'xshashlik bo'lishiga qaramasdan, sistemani umumiylik tarzida qabul qilish mumkin emas. Bunda sistema turli darajadagi umumiyliklarning majmui ham bo'lishi mumkin. Umuman, narsa va hodisalarni targ'ibiy jihatdan «butun», «qism», element» larga ajratish bilishga xos nisbiy hodisa bo'lib, uning samaradorligini ta'minlaydigan zaruriy shartdir. SHunga ko'ra, Yuqorida aytilgan har ikkala kategoriyalar tizimi bilishning bosqichi sifatida emas, balki uzili sifatida olib qaralishi kerak.

Sistema, struktura, element falsafaning muhim kategoriyalaridan bo'lib hisoblanadi. Sistema – grekcha so'z bo'lib, mantiqiy ma'nosi butunlik, yaxlitlik, elementlardan tashkil topgan birikma, degan ma'nolarni anglatadi. Sistema kategoriyasining mazmuni, uni tashkil qilin elementlarning strukturaviy munosabatlariga mos keladi. SHu nuqtai nazardan, bilish jarayonidagi sistema-

lashtirish, nazariy faoliyat sifatida, ularning tashkil qilingan targ'ibiy elementlarini tarixiy-mantiqiy izchil tartibga keltirish bilan izoxlanadi. Xususan, bu elementlarning funksional faoliyatini, ahamiyatiga ko'ra turg'umlashtirish, muhim metodologik ahamiyatga ega, chunki insonning borliqni bilish faoliyati sistema strukturasidagi elementlarning mavjudlik holati va rivojlanishi ob'ektiv qonuniyatlarini o'rganish asosida, ularni maqsadga muvofiq tashkil qilishga qaratilgan. YA'ni, insonning ob'ektiv reallikni nazariy bilishga asoslangan: tashkillashtirish, boshqarish, nazorat qilish faoliyatlari samaradorligi va maqsadga muvofiqligi turli kategoriyalardan unumli foydalanishi bilan xarakterlanadi.

Sistema — narsa va hodisalarning bog'lanishlari, aloqadorligi va munosabatining tartibli tadrijiy rivojlanishini ifodalaydi. Struktura esa, narsa xodisalar bog'lanishi, aloqadorligi va munosabatlari tizimining makon va zamondagi birligini ta'minlaydigan sistemaning mavjudlik holatidir. Umuman, struktura (lotin tilida tuzilish, tartib degan ma'noni anglatib), sistemani tashkil qilin elementlarning nisbatan turg'un bog'lanish, aloqadorligi va munosabatidir. Hozirgi mavjud falsafiy qarashlarda strukturani sistemaning aspekti sifatida qarash ustuvordir. Sistemani tashkil qilin elementlarning strukturaviy tuzilishi uning mavjudlik holatini hamda rivojlanish istiqbollarini belgilab turadi. Masalan, tabiatdagi atomlarning targ'ibiy tuzilishlari xususiyatlariga qarab, moddiy olamning xilma-xil ko'rinishlari, DNK yoki RNK larning o'zaro ichki munosabatlari, xromosomalar xilma-xilligi, tirik organizmlar turli-tumanligi aniqlangan. Ular umumlashgan holda, moddiy olamning ob'ektiv realligi tarzida mavjud bo'lsa ham, moddiylikning konkret strukturasiga ega bo'lgan sistemalardir. Borliqni tashkil qilgan elementlarning munosabatlariga,

makon va zamon xususiyatlariga qarab, ularni «ichki struktura» va «tashqi struktura» ga ajratish mumkin.

Element sistemani tashkil qilin strukturaning o'zaro bog'lanish, aloqadorlik, munosabat jihatlarini ta'minlaydigan nisbatan mustaqil targ'ibiy qismidir. Jamiyatda element ijtimoiy munosabatlarning konkret ko'rinishlari tarzida namoyon bo'ladi. Masalan, jamiyatni yaxlit sistema deb oladigan bo'lsak, undagi element alohida individlar, ijtimoiy qatlamlar, tabaqalarning ongli munosabatlari tarzida ko'zga tashlanadi. YA'ni, jamiyatning axloqiy, huquqiy, siyosiy, iqtisodiy va boshqa munosabatlari strukturaviy tuzilishni tashkil qilgan. O'z navbatida, sistemani to'laligicha bilish, uning stukturaviy tuzilishidagi har bir elementning funksional faoliyatini alohida tahlil qilishni taqozo etadi.

Shuni alohida ta'kidlash keraki, insonlarning narsa hamda hodisalarga muayyan manfaatlari va ehtiyojlariga ko'ra yondashishiga qarab, har bir elementni nisbatan mustaqil sistema sifatida olib qarash mumkin. Masalan, ma'naviyat jamiyat strukturasida, uni tashkil qiluvchi muhim elementlarning biri hisoblanadi, lekin ma'naviyatni, maxsus ijtimoiy hodisa sifatida alohida olib tahlil qiladigan bo'lsak, uning ichki elementlardan iborat mustaqil sistemaligini ko'ramiz. SHunga ko'ra, sistema, struktura va element nisbiy tushunchalar bo'lib, kategoriyalar sifatida, unga bo'lgan munosabat doirasida konkretlashadi.

Shuning uchun «sistema», «struktura», «element» kabi falsafiy kategoriyalar narsa va hodisalarni bilishga sistemali yondashish, strukturaviy tahlil uzillarining umummetodologik asosi bo'lib hisoblanadi. Umuman, falsafaning sistema, struktura, element kategoriyalari narsa va hodisalarning mazmunini, shaklini ochib berishda metodologik asos bo'ladi.

Butun va qism kategoriyalari. Butun narsa, hodisa va uni tashkil etgan qismlarning muayyan tartibda joylashgan va o'zaro bog'langan yagonalikning ifodasidir. Qism butun tarkibiga kiradigan, uning tarkibidagina o'z vazifasi (funksiyasi)ni bajara oladigan alohidalikdir. Ushbu tushunchalarning umumlashishi ob'ektiv olamdagi xilma – xillikning mohiyatan yaxlitligi bilan ifodalanadi. Biroq ular alohida-alohida holatda ham voqelikdagi biron-bir reallikni idrok etishga imkon tug'diradi. Ob'ektiv olam bepayon bo'lgani va u juda ko'p nisbiy butunliklardan tashkil topgani uchun butun boshqa butunlikning qismi bo'lishi, qismi esa boshqa elementlarga nisbatan butun vazifasini o'tashi ham mumkin. Masalan, Er shari o'zi butunlik bo'lib, bu makondagi boshqa barcha narsa, hodisa, jarayonlar uning qismlaridir. Quyosh sistemasiga nisbatan Er qism bo'lsa, Galaktikaning esa bir zarrasi – elementidir.

Zaruriyat va tasodif kategoriyalari. Zaruriyat – narsa, hodisa va jarayonlarning taraqqiyoti bilan aniqlanadigan, ichki muhim bog'lanishlar orqali qonuniy kelib chiqadigan va shuning uchun Yuz berishi muqarrar bo'lgan hodisadir.

Tasodif – mohiyatdan, mazkur jarayonning qonuniy rivojlanishidan kelib chiqmaydigan hodisadir.

Zaruriyat va tasodif - voqealar rivoji davomida sodir bo'ladigan hodisalarni tavsiflaydigan, ob'ektiv olamdagi aloqadorlikni ifoda etuvchi falsafiy kategoriyalar. Falsafaning boshqa kategoriyalari singari zaruriyat va tasodiflarning mazmuni hamda umumiy xususiyatlari haqidagi masala hozirga qadar o'tgan ko'plab faylasuflarning e'tiborini o'ziga jalb etgan edi. Ba'zi faylasuflar voqelikdagi narsa, hodisalar muayyan sabablar asosida sodir bo'lar ekan, demak, olamda tasodif bo'lmaydi, har qanday hodisa ma'lum sabablar tufayli Yuzaga keladigan zaruriyatdir deb qaraganlar. Dunyoda tasodifga o'rin yo'q,

mavjudlik va taraqqiyotni birgina zaruriyat belgilaydi, deb hisoblaganlar. Qadimgi dunyo falsafasining Levkipp va Demokrit kabi vakillari yangi zamon falsafasining Golbax, Spinoza kabi namoyandalari metafizik determinizm pozitsiyasida turganlari holda ana shunday qarashni ilgari surdilar. Levkipp biron – bir buYum sababsiz Yuzaga kelmaydi, ammo u ma'lum zamin, zaruriyat tufayli tug'iladi, degan edi. Demokrit va Golbax nazarida ham barcha hodisalar zaruriy bo'lib, kishilar tabiat qonunlaridagi sababiy bog'lanishlarning turini to'la bilmaganliklari uchun tasodiflarga o'rin beradigan, hodisalar sababi bilangina ham tasodifiylik barham topadi, binobarin u sub'ektiv mazmundagi kategoriyadir, deb hisoblaganlar. Olam, undagi o'zaro munosabat, aloqadorlikni, sababiyatni inkor etuvchi indeterministlar tabiiy va ijtimoiy olamdagi zaruriyat yo'q, - aqliy faoliyatning shakli (I.Kant), tafakkurga xos tushuncha (E.Max, K.Pirson), kishilar iroda va istagining namoyon bo'lish natijasidir, deb hisoblaydilar.

Demak, zaruriyat va tasodif, avvalo, voqelikdagi ayrim narsa, hodisalar dialektikasini xarakterlovchi va ayni paytda taraqqiyot jarayonidagi turli hodisa, jarayonlar nisbatini ifodalovchi o'zaro munosabat hamda aloqadorlik shakllaridir.

Imkoniyat va voqelik - olamdagi narsa, hodisa va x.k.lar taraqqiyotining davomiyligini, ularning bir-biriga o'tib turishini anglatadigan falsafiy kategoriyalar. O'zgarish, rivojlanish va hodisalarning vujudga kelishi, namoyon bo'lishi jarayonidagi o'zaro bog'liqlikni taraqqiyot va rivojlanish deganda biz asosiy va muhim xususiyati bo'lgan olamdagi o'zgarishni, yangilanishni, bir shakldagi narsalarning ikkinchisi bilan almashinishini, quyi organizmlarning, jism va oddiy hodisalarning murakkabroq shakl va mazmundagilarga aylanish jarayonini tushunamiz. Tabiiyki, bu jarayonlar o'z – o'zicha, mexanik tarzda sodir bo'la

bermaydi, balki muayyan zaruriyat, qonuniyat asosida ro'yobga chiqadi.

Imkoniyat yangi narsa, hodisa va tamoyillar kelib chiqishini ifodalovchi muayyan shart – sharoit va vaziyat majmuidir. Narsa hamda hodisaning ichki tabiatiga ko'ra zaruriy ravishda reallashishi lozim bo'lgan, biroq hali Yuzaga chiqmagan voqelikdir.

Voqelik esa imkoniyatning nisbatdoshi bo'lib, real holat va mavjud bo'lib turgan hodisalarni ifodalaydigan kategoriyadir. Voqelik tushunchasi o'z mazmuniga ko'ra, fan va falsafada ikki ma'noni anglatadi: birinchidan, olamdagi barcha mavjud narsalar reallikdan iborat, ikkinchidan esa ayrim narsa yoki hodisalarning ro'yobga chiqishini anglatuvchi imkoniyatning Yuzaga chiqmaganligi ma'nosini anglatadi. Ikkinchi ma'nodagi voqelik umumiy olamning bir bo'lagi sifatida konkret narsa va hodisalar tarzida namoyon bo'lishi bilan birga inson ongidagi ifodasi hamdir. Demak, voqelik olam qonunlarining zaruriyat asosida ro'yobga chiqqan imkoniyatni, mavjud bo'lib turgan narsa va hodisalarni bildiradi.

Mazmun va shakl - olamdagi turli narsa, hodisa va jarayonlarning dialektikasini o'rganishda, ular o'rtasidagi aloqa va munosabatlarni bilishda muhim o'rin tutadigan kategoriyalar.

Mazmun muayyan narsa, hodisa, jarayonlarning o'ziga xos sifati, xususiyatlari, muhim belgilari, elementlarning yig'indisini anglatsa, SHakl mazmunning mavjudlik usuli, narsa va hodisalarning ichki hamda tashqi tuzilishini ifoda etadi. Masalan, narsa va jismning mazmuni moddiyligida va harakatda ekanligidadir. Xuddi shunday, atomning mazmuni uning tarkibidagi 30dan ortiq manfiy, musbat va nol zaryadli elementar zarralar, ularning rezonanslari, elektron maydon kabilarning shunchaki mexanik birligidangina iborat emas. Ayni paytda, ularning harakati

muayyan maydonlar orqali bir – biriga ta'sir va aks ta'sir ko'rsatishini ham bildiradi. Atomning shakl uning tarkibiga kiruvchi elementar zarralarning joylanish tartibi, zarralar va maydon orasidagi munosabat asosida yuzaga keluvchi aloqalar, bog'lanishning xususiyati bilan belgilanadi. SHuningdek, har qanday badiiy asarning mazmuni unda aks ettirilgan voqea orqali g'oya va obrazlar tizimini bildirsa, shakli shu asarning tuzilishi, tili, hamda hikoya, roman va shu kabilar tarzida ifodalanadi.

Faylasuflardan ayrimlari shakl va mazmunning mavjudligini inkor etsalar, boshqalari shakl va mazmunning o'zaro birligini anglamaganlar. Jumladan, Aristotel marmardan xaykal yo'nayotgan haykaltaroshni kuzatar ekan, shakl mazmundan bo'lak va mustaqil mavjud bo'ladi, unga mazmun tashqaridan kiritiladi, shu tufayli marmar jonlanadi, degan xulosaga keldi. I.Kant esa mazmun va shaklni faqat inson aqli, tafakkurining mahsuli, natijasi deb tushundi. Gegel mazmun va shakl dialektikasini tan olgan bo'lsa ham, lekin mazmun ham, shakl ham mutlaq g'oya rivojlanishining bosqichlari, turli ko'rinishlardagi ifodasidir, degan fikr Yuritgan. Hozirgi zamon falsafasi vakillaridan biri, fizik olim E. SHredingerning fikricha, voqelikda narsalardan mustaqil shakllargina mavjud, jumladan, «elementar» zarralarning moddiylikka aloqasi yo'q, ular har qachongiday, sof shakl olamda shakldan bo'lak hech nima bo'lishi mumkin emas.

Mohiyat va hodisa – olamdagi narsa, hodisa jarayonlarning ichki, muhim jihatlari hamda yuzaki, tashqi tomonlarini ifodalaydigan falsafiy kategoriyalar. Mohiyat, narsa, buYum, jarayonlarning ichki, muhim, asosiy, zaruriy, barqaror aloqalari, tomonlari munosabatlarning yig'indisini anglatadi. Hodisa esa mohiyatning tashqi ifodasi, namoyon bo'lishi, narsa va jarayonlarning yuzaki, nisbatan o'zgaruvchan tomonlarini bildiradi. Zero, olamda yakka hujayrali tirik organizmlardan

tortib, insongacha bo'lgan qanchadan-qancha shakllari (hodisalar) borki, ularning bir qarashda payqash mumkin bo'lmagan ichki umumiy tomoni, barchasiga xos modda almashinuvi (mohiyati) mavjud. Ma'lum mohiyatga ega bo'lmagan jism, jarayon bo'lmaganidek, muayyan hodisada ifodalanmagan mohiyat ham bo'lishi mumkin emas. Binobarin, mohiyat va hodisa olamdagi narsa, jarayonlarga xos tashqi va ichki tomonlarning birligidan iborat. Falsafada mohiyat va hodisa masalasiga turlicha, idealistik, materialistik va metafizik qarashlar mavjud. Jumladan, olam, uning hodisalari turli g'oyalar yoki sezgilar yig'indisidan iborat deb talqin etuvchilar nazdida mohiyat va hodisa ob'ektiv xarakterga ega emas, deyiladi. Boshqalar esa, butun voqelik ruhiy boshlang'ichga asoslanadi, hodisalar mohiyati absolYut ideyadan kelib chiqadi (Gegel), mohiyat alohida ideal zamindir, u hodisalardan ayrim holda mavjud bo'ladi, deb qaraydilar. Agnostitsizm mohiyat bilan hodisani ajratib tashlaydi, mohiyatga bilib bo'lmas «narsa o'zida» tartibida qaraydi. Ikkinchi tomondan ayrim faylsuflar narsalar mohiyatiga ruhiy mazmun beradilar va bu mazmunni moddiy jismlarga nisbatan birlamchi, deb hisoblaydilar (Aflotunning umumiy mohiyatlar g'oyaviy olami, Gegelning tabiat mohiyatning ifodasi sifatidagi mutlaq g'oyasi). Faylasuflarning ba'zi vakillari predmetlarda mohiyat bilan hodisani ajratib ko'rsatishni sof sub'ektiv jarayon, deb hisoblaydilar (DYui, LYuis), mohiyatning ob'ektivligini inkor etadilar, hodisani esa sezgilar bilan bir qilib qo'yadilar (Max fenomalizmi). Sub'ektiv idealizmning vakillaridan J.Berkli, D.YUm va I.Kant singarilar reallik sezgilar kompleksidan iborat ekan, demak, mohiyat va hodisa ham inson aqliy faoliyatining natijasi, deb qaraydilar. I.Kant nazarida mohiyat va hodisa o'zaro bir-biriga aloqasi bo'lmagan, ikki mustaqil substansiya bo'lib, inson bilish jarayonida «narsa

o'zida» ni hech qachon bilishi mumkin emas. Kant hodisalarni bilishning hissiy va ratsional momentlari o'rtasidagi birlik, bog'lanishning hosilasidir, deb e'tirof etadi. Bunday qarashlarni, hozirgi zamon falsafasidagi nepozitivizm, pragmatizm oqimlari ham targ'ib qilmoqda. Bu oqimlarning namoyandalari Uaytxed, Karnap, rassel kabilar Kant qarashlarini davom ettirmoqdalar. Tabiyot va tarixiy taraqqiyot shuni ko'rsatadiki, mohiyat va hodisa olamning mavjudlik holatlari sifatida bir narsaning o'zaro uzviy bog'liq ikki tomonidir. Bir-biridan mustasno va aloqasiz hodisalar ham, mohiyatlar ham bo'lmaydi. Hodisalar mazmunga ko'ra mazmunan keng bo'lib, har bir narsa va jarayonga xos individuallikni ifodalaydi. Mohiyat esa chuqur aloqalarni, hodisalarning o'zaro munosabati va bog'liqligidan kelib chiquvchi umumiylikni anglatadi. Mohiyat va hodisa tushunchalari hamisha o'zaro chambarchas bog'liqdir. Olamda hech qanday mohiyat yo'qki, u zohirda namoyon bo'lmasin va bilib olinmasin. SHuningdek, hech qanday hodisa yo'qki, u mohiyat haqida biror – bir to'la axborotni o'z ichiga olmasin. Lekin mohiyat bilan hodisaning birligi ularning bir-biriga to'la va mutlaq mos kelishini bildirmaydi. Mohiyat, hodisa zamirida yashiringan bo'ladi, u naqadar chuqur bo'lsa, uni nazariyada bilish shu qadar og'ir kechadi.

Sabab va oqibat - olamdagi narsa va hodisalarning bir-biri bilan aloqadorligi, ta'siri va aks ta'sirini, voqelikka xos ana shunday munosabatlar jarayonidagi sabab va oqibat bog'lanishini ifodalaydigan kategoriyalardir.

Sabab olamning harakati va biron-bir vaqt doirasida bo'lgan o'zgarishdan so'ng ikkinchi boshqa bir natijaning zaruran kelib chiqishini ta'minlovchi asosiy hodisani anglatadi. Oqibat esa hodisalar zanjirida sababning ta'siridan vujudga keladigan yangi hodisadir, sababning natijasidir. Sabab va oqibat bog'lanishi

ob'ektiv xarakterga ega bo'lib, u narsa, hodisalar orasidagi aloqalarda amal qiladi. Masalan, ming yillar davomida Er kurrasidagi iqlimiy sharoitning o'zgarib borishi o'simlik va hayvonot dunyosining o'zagarishiga sabab bo'ldi. yoki qadim zamonlardan boshlab mehnat qurollarining takomillashtiriluvi mehnat unumdorligining oshishiga ham, ishlab chiqarishning rivojiga ham, pirovardida esa insoniyat taraqqiyotiga ham sabab bo'ldi.

Narsa va hodisalararo sababiy aloqalarning yana bir muhim xususiyati shundaki, ular umumiy xarakterga ega. Tabiat va ijtimoiy hayotda sababsiz birorta hodisa yoki voqea sodir bo'lishi mumkin emas. Erning quyoshga nisbatan hozirgi holatda joylanishi hamda Er sharining sirt tuzilishi va uning ham quyosh, ham o'z o'qi atrofida aylanishi sayyoramizda iqlim sharoitini o'zgarib turishiga sababdir. Binobarin, sababiyat yoki sababiy bog'lanishlar voqelikdagi barcha narsa va hodisalarda umumiy, qonuniy, istisnosiz amal qiluvchi munosabatlardir. Sababiy bog'lanishlarni «bahona» va «shart-sharoit» singari tushunchalar bilan almashtirish mumkin emas. Masalan, sabab doim voqea, hodisalarga xos hamda ular o'rtasidagi bevosita, ichki munosabatlarni bildiradi. Bahona esa sababga nisbatan tashqi turtki, xolos. Sababni voqelikka aylanishi, biron-bir oqibatni kelib chiqishi uchun ikkinchi darajali ta'sir ko'rsatuvchi bo'ladi. Masalan, birinchi jahon urushi boshlanib ketishiga gersog Ferdinandning o'ldirilishi bahona bo'lgan. Urushning kelib chiqishiga haqiqiy sabab aslida muayyan davlatlar o'rtasidagi raqobatning keskinlashganligi hamda bo'lingan dunyoni qaytadan bo'lib olishga qaratilgan siyosatning Yuritilishi edi. Har bir sabab muayyan oqibatni keltirib chiqarishi uchun, albatta, ma'lum shart – sharoit zarur bo'ladi. Lekin, shart – sharoit oqibatning sababini anglatmaydi. SHart – sharoit – muayyan

oqibat tug'ilishiga ta'sir ko'rsatuvchi holat bo'lib, sababni oqibatga aylanishida o'ziga xos rol o'ynaydi. Sababsiz yolg'iz shart – sharoitning o'zi oqibatni keltirib chiqarmaydi.

Olamdagi moslik, o'simlik va organizmlarning muhit, shart – sharoitga moslashganligi ba'zi organizmlarni muhitga ko'ra hatto o'z rangi, tashqi qiyofasini o'zgartira olishi, ayrim gullarning faqat erta tongda ochilishi, ba'zi kasalliklar fasllar, quyosh fa olligini oshishi hollari bilan bog'liq ravishda kuchayishi kabi hodisalar sabab va qonunlar ifodasidir. Xususan, CH. Darvin o'zining evolyutsion ta'limotini, turlarning kelib chiqishi va tabiiy tanlanish jarayonini xuddi shu maqsadga muvofiqlik hodisasi ilmiy o'rganish asosida yaratgan edi.

Kategoriyalar fikrlashning universal shakllari bo'lib, ularda ob'ektiv voqelikda mavjud bo'lgan umumiy aloqalar, xossalar va munosabatlar aks etadi. Kategoriyalarda kishilik jamiyati ko'plab avlodlarining tajribasi va faoliyati mujassamlashadi. Bilish natijalari o'z aksini topuvchi tushunchalar va kategoriyalar bo'lmasa, bugungi kunda bilishning o'zi ham bo'lmas edi. Kategoriyalar quyidagi ob'ektivlik, muayyanlik, amaliyot bilan bog'liqlik, tarixiylik, o'zgaruvchanlik va sh.k. xususiyatlar bilan tavsiflanadi.

Nazorat savolari

1. Falsafa tarixida rivojlanish haqidagi qarashlarning evolyusiyasi qanday?

• Falsafa tarixida rivojlanish haqidagi qarashlar qanday o'zgargan va bu o'zgarishlar qaysi falsafiy maktablar orqali shakllangan?

2. Rivojlanish konsepsiyalari qanday tushuniladi? Rivojlanishning asosiy kontseptsiyalari va ularning falsafadagi o'rni haqida ma'lumot bering.

• Rivojlanishning falsafiy nuqtai nazardan tahlili. Qaysi yondashuvlar rivojlanishning mohiyatini tushuntiradi?

3. Qonun tushunchasi va uning turlari haqida nima bilasiz?

• Qonun tushunchasining umumiy ta'rifi va uning falsafadagi turli turlari (tabiiy, ijtimoiy va boshqalar) haqida ma'lumot bering.

4. Falsafaning asosiy qonunlari qanday? Ular qanday ishlaydi va falsafaning rivojlanishiga qanday ta'sir ko'rsatadi?

• Falsafaning asosiy qonunlari va ularning jamiyatdagi o'rni. Bu qonunlar qanday ishlaydi va ulardan qanday amaliy foydalanish mumkin?

5. Kategoriya tushunchasi va uning turlari haqida ma'lumot bering.

• Kategoriya tushunchasining falsafadagi o'rni va uning turli xil turlari (masalan, moddalik, o'zgarish, hodisa va h.k.) haqida tushuntirish bering.

6. Fan va falsafa kategoriyalarining tasnifi haqida nimalarni bilasiz?

• Fan va falsafa kategoriyalarining farqlari va ularning tasnifi haqida ma'lumot bering. Qaysi kategoriyalar umumiy va qaysilari maxsus sifatida ajratiladi?

Nazorat savollari

1. Falsafa tarixida rivojlanish haqidagi qarashlarni izohlab bering.
2. Rivojlanish konsepsiyalari nimalardan iborat?
3. Qonun tushunchasi va uning turlari.
4. Falsafaning asosiy qonunlari qaysilar?
5. Kategoriya tushunchasi va ularning turlari.
6. Fan va falsafaning kategoriyalari nimalardan iborat?

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Davronov Z., Shermuhamedova N., Qahhorova M., Nurmatova M., Husanov B., Sultonova A. Falsafa. -Toshkent: TMU, 2019.
2. Axmedova M. Falsafa. Tahriri ostida. - Toshkent.UFMJ, 2006.
3. Mamashokirov S. va boshqalar. Falsafa. O'quv qo'llanma. O'zbekiston, 2005.
4. Tulenov J.,Tulenova G.,Tulenova K.Falsafa. Darslik. - Toshkent. Fan va texnologiya, 2016.

Internet saytlari:

1. www.ziyo net.uz
2. www.faylasuf.uz
3. Sports.ru
4. https://en.wikipedia.org/wiki/Handball
5. www.ukathletics.net

BILISH FALSAFASI

Reja:

1. Bilim va bilish — falsafiy tahlil mavzui sifatida.
2. Inson bilishining asosiy bosqichlari: Hissiy va aqliy bilish.
3. Haqiqat tushunchasi. Haqiqatning turli shakllari.
4. Ilmiy bilishning mohiyati va usullari.

Tayanch so'zlar: *Ong, sezgi, idrok, gnoseologiya, hissiy va aqliy bilish, tasavvur, tafakkur.*

Bilish va bilim. Bilishning mohiyati, shakllanish va rivojlanish qonuniyatlari, xususiyatlarini o'rganish falsafa tarixida muhim o'rin egallab kelmoqda. Inson o'z bilimi tufayli borliq, tabiat, jamiyatni va nihoyat, o'z-o'zini o'zgartiradi. Bilishga qaratilgan inson faoliyatini va uni amalga oshirishning eng samarali usullarini tadqiq etish falsafa tarixida muhim ahamiyatga ega. Shu bois ham falsafaning bilish masalalari va muammolari bilan asosan, bilishning shug'ullanuvchi maxsus sohasi — **Gnoseologiya** vujudga keldi. **Gnoseologiya (yunon.gnosis - logos - ta'limot**) falsafiy muammolarini hal etish bilan shug'ullanadi.

Inson bilishi nihoyatda ko'p qirrali, murakkkab va ziddiyatli jarayondir. Gnoseologiya asosan, bilishning falsafiy muammolarini hal etish bilan shug'ullanadi. Har bir tarixiy davr jamiyatning rivojlanish extiyojlaridan kelib chiqib, Gnoseologiya oldiga yangi vazifalar qo'yadi. Xususan, XVIIasr O'rtalarida yevropalik faylasuflar ilmiy bilishning ahamiyati, haqiqiy ilmiy bilishlar hosil qilishning usullarini o'rganish, ilmiy haqiqat mezonini aniqlash bilan shug'ullandilar. Tajribaga asoslangan bilimgina haqiqiy bilimdir, degan g'oyani olga surdilar.

XVIIIasr mutafakkirlari ilmiy bilishda inson aqli imkoniyatlariga, rasional bilishning xissiy bilishga nisbatan ustunligiga alohida urg'u berdilar. Buyuk nemis faylasufi I. Kant bilish natijalarining haqiqiyligi xususida emas, balki insonning bilish qobiliyatlari haqida baxs yuritdi. Gnoseologiya oldida inson olamni bila oladimi, degan masala keskin qo'yildi. Insonning bilish imkoniyatlariga shubha bilan qaraydigan faylasuflar **aknostiklar** deb ataldilar.

Bilish nima? Bilish insonning tabiat, jamiyat va o'zi tug'risida bilimlar hosil qilishga qaratilgan aqliy, ma'naviy faoliyat turidir. Inson o'zini qurshab turgan atrof-muhit to'g'risida bilim va tasavvurga ega bo'lmay turib, faoliyatning biron-bir turi bilan muvaffaqiyatli shug'ullana olmaydi. Bilishning mahsuli, natijasi ilm bo'lib, har qanday kasb-korni egallash faqat ilm orqali ro'y beradi. Shuningdek, bilish insongagina xos bo'lgan ma'naviy ehtiyoj, hayotiy zaruriyatdir.

Insoniyat ko'p asrlar davomida orttirgan bilimlarini umumlashtirib va keying avlodlarga berib kelganligi tufayli ham o'zi uchun qator qulayliklarni yaratgan. Inson faoliyatining har qanday turi muayyan ilmga tayanadi va faoliyat jarayonida yangi bilimlar hosil qilinadi.

Falsafada idrok etishni **persepsiya** (lotincha «perception» - idrok etish) deb atash odat tusini olgan. Persepsiya o'zini qurshagan dunyodagi narsalar va hodisalarni sezgilar orqali idrok etishga aytiladi, borliqni aql bilan anglash, bilish, ularni g'oyalarda ifodalash esa appersepsiya deb ataladi. Gnoseologiya inson bilimining chegaralari to'g'risidagi masalani yechishni ham o'z ichiga oladi. Ko'pgina empiriklar (masalan, David yUm, Dyubua Raymond,agnostiklar) va ratsionalistlar (masalan, Kant va uning hamfikrlari) inson nafaqat umumiy narsa va hodisalarni, balki muayyan, konkret narsalarni ham bilishi mumkin emas,

degan fikrga qo'shiladilar. Ayrim narsalar, hodisalar va konsepsiyalar borki, ular persepsiyamizning chegaralariga ham, tafakkurimiz, refleksiyamiz (lotincha «reflexes» - orqaga qaytish) doirasiga ham sig'maydi. Masalan, Kant Koinot ibtidosi yoki ibtidosizligi, Xudoning borligi yoki yo'qligi, jonning boqiyligi yoki foniyligi,axloqning sababiyligi yoki sababsizligi aqlning bilish chegaralariga sig'maydigan, oqilona o'rganib bo'lmaydigan **transsendental** (lotincha «transcendentalism» - chegaraga sig'maydigan) masalalardir, deb hisoblagan. XXasr pozitivistlari, empirizm g'oyalarini himoya qilgan yirik olimlar (Moris SHlik, Rudol'f Karnap, A.J.Ayer) Katnning transsendental muammolarini mantiqsiz deb e'lon qildilar. Gnoseologiya inson bilimi va bilishga doir juda ko'p muammolar bilan shug'ullanadi. U bizning bilimlarimiz qay darajada e'tiqod, qay darajada ko'r-ko'rona ishonch va qay darajada real borliqning haqiqiy in'ikosi ekanligini aniqlashga harakat qiladi. So'nggi o'n yilliklarda gnoseologiyada bilimlar o'rtasidagi farq, «nimani bilaman «, «qanday bilaman «, «shaxsiy tajribamdan bilaman «, «dalilga ko'ra bilaman «kabi iboralar mazmunining o'zaro nisbati masalalari muhokama qilinmoqda. Bir so'z bilan aytganda, gnoseologiya borliqni to'liq qamrab olib, unda biron-bir tafsilotni nazardan qochirmaslikka harakat qiladi. Demak gnoseologiya falsafaning eng muhim omilidir. Gnoseologiyaning mohiyati va mazmuni . Optimizm. Skeptitsizm.agnostitsizm. Bilish jarayoni rivojlanish qonuniyatlarining shakllari, haqiqatning tagiga yetish imkoniyatlari nuqtai nazaridan o'rganiladi. Uning har xil modellari, yondashuvlari mavjud. Materialistik modellar zamirida dunyoning inson ongida aks etish tamoyillari: Demokritda - obrazlar (eydoslar), yAngi davr faylasuflarida - sensor signallari, Berklida - su b'yek tning sezgilari yotadi. Leybnits bilishni ilohiylashtirilgan g'oyaning inson tug'ma

tushunchalariga ta'siri deb hisoblagan. Gegel taklif qilgan modelning zamirida mutlaq g'oyani anglash yotadi. Max, Avenarius va boshqa su b'yek tiv idealistlarda (XIXasr oxiri - XXasr boshlari) bilish jarayoni - bu sezgilarning bo'sh va tejamli aloqasini amalga oshirishdir. Inson aqli bilish pillapoyasidan yuqoriga ko'tarilar ekan, har bir yangi pog'onada qayta- qayta quyidagi savolga javob topishga harakat qiladi: dunyoni bilish mumkinmi?, bilishning chegaralari bormi? Falsafada bu savollarga javob beruvchi uch asosiy yo'nalishni farqlash mumkin: **optimizm, skeptitsizm va agnostitsizm** (Kant va boshqalar). Optimistlar dunyoni bilish mumkinligini ta'kidlaydilar, agnostiklar, aksincha, buni rad etadilar (I.Kant - « narsa o'zida «). Skeptiklar esa, dunyoni bilish mumkinligini inkor etmaydilar (XVIIIasrda D.YUm), biroq bilimning haqiqiyligiga shubha bildiradilar. Odatda, skeptitsizm paradigmalar, qadriyatlar, ijtimoiy tizimlar va hokazolar o'zgarayotgan davrda (yoki uning arafasida), ilgari haqiqiy deb hisoblangan xulosalar fan va amaliyot olgan yangi ma'lumotlar nuqtai nazaridan soxta,asossiz bo'lib chiqqan holda ravnaq topadi. Skeptitsizm psixologiyasiga xos xususiyat shundan iboratki, u darhol nafaqat eskirgan, balki yangi, shakllanayotgan fikrlar, g'oyalarni ham toptay boshlaydi. Bu psixologiya zamirida tadqiqotchining yangilikka tashnaligi va inson tafakkurining kuchiga bo'lgan ishonch emas, balki qachondir qabul qilingan « qulay « tamoyillarga tayanish yotadi.

Skeptitsizm ta'limot sifatida, hech shubhasiz, zararlidir, chunki u insonning bilish borasidagi deyarli barcha imkoniyatlarini kamsitadi. Bilimga chanqoq bo'lgan, bilishga harakat qilayotgan odam optimist: «Men buning nimaligini bilmayman, biroq bilishga umid qilaman», deydi.agnostik esa , «Men buning nimaligini bilmayman va hech qachon bila olmayman», deb ta'kidlaydi. Yuzaki skeptitsizm, ko'r-ko'rona fanatizm kabi,

dunyoqarashi tor odamlarda ko'p uchraydi. F.Laroshfuko ta'biri bilan aytganda, kaltabin odamlar odatda o'z dunyoqarashi doirasidan chetga chiqadigan hamma narsani qoralaydi. Biroq oqilona darajadagi skeptitsizm foydali va hatto zarur. Bilish usuli sifatida skeptitsizm shubha shaklida amal qiladi, bu esa haqiqatning tagiga yetish sari tashlangan qadamdir. SHubha eskirgan, qotib qolgan aqidalarning tagiga suv quyadi, ularga putur yetkazadi. U - rivojlanayotgan fanning muhim unsuri. Bilimsizlik qayd etadi va inkor qiladi, bilim - shubhalanadi. Biroq bu uch yo'nalishni farqlash, bizningcha, masalani soddalash-tirishdan boshqa narsa emas. To'g'ri, agnostiklar dunyoni bilish mumkinligini inkor etadilar,ammo bu ko'r-ko'rona, hech narsaga asoslanmagan inkor etish emas. Ular ko'rsatayotgan ko'pgina savollarga chindan ham hali javob topilmagan. Agnostitsizmga olib keluvchi asosiy muammo shundan iboratki, narsa yoki hodisani bilish jarayonida bu narsa yoki hodisa albatta bizning tafakkur va sezgi a'zolarimizda aks etadi. Bu narsa yoki hodisa bizning tafakkur va sezgi a'zolarimizda aks etish natijasida qanday ko'rinish kasb etgan bo'lsa, biz ular haqida shunday ma'lumotga ega bo'lamiz. Narsalar va hodisalar aslida qanday ekanligini biz bilmaymiz va bilishimiz mumkin ham emas. Qarshimizda bosh-a'dogi yo'q dunyo yastanib yotadi, biz esa unga o'z formulalarimiz modellarimiz va tushunchalarimiz bilan yaqinlashib, cheksizlikni o'z tasavvurlarimiz bilan ilg'ab olishga harakat qilamiz. Tushunchalar, kategoriyalar va nazariyalar «tugunlari»ni qay darajada qattiq qilib tugmaylik, dunyoni tushunib yetishga shu yo'sinda da'vogar bo'lishimiz to'g'rimi? Bundan chiqdi, biz o'z bilish usullarimiz bilan chegaralangan dunyoda yashaymiz va olam haqida haqqoniy bir gap aytishga qodir emasmiz. Biroq bilish fanining rivojlanishi agnostitsizm-ning bu amaliy xulosasini har qadamda rad etadi. Masalan,

pozitivizm asoschisi O.Kont insoniyat Quyoshning kimyoviy tarkibini aniqlashga qodir emas, deb ta'kidlagan edi. Biroq keyinchalik spectral analiz yordamida Quyosh tarkibi aniqlandi. XIXasr fanining ba'zi bir namoyandalari atomlar amalda mavjud emas, ular faqat tafakkur mahsuli, deb hisoblar edi. Biroq E.Rezerford atomlar amalda mavjud ekanligini isbotlab berdi, oradan yarim asr o'tgach, genlarning keng kimyoviy tarkibi aniqlandi. Shunga qaramay, bugungi kunda ham agnostik xulosalarni **neopozitivizm, fenomenologiya, ekzistensializm, pragmatizm** va hokazolarda kuzatish mumkin. Ularning agnostitsizmi nafaqat gnoseologik xususiyatga ega bo'lgan sabablar, ichki mantiq bilan, balki ma'lum darajada D.Yum va O.Kont falsafasi boshlab bergan an'ana bilan ham belgilanadi. Agnostsizm haqida so'z borar ekan biz beixtiyor I. Kantga murojaat qilamiz Kant agnostitsizmining qisqacha mazmuni quyidagicha: biz biladigan narsa (fenomen) va o'z holicha mavjud bo'lgan narsa (noumen) mutlaqo har xildir. Biz hodisalar mohiyatini qay darajada teran anglamaylik, bizning bilimimiz baribir o'zicha mavjud bo'lgan narsalardan farq qiladi. SHunday qilib, I. Kant fikricha, bizning ongimiz, hissiyotimiz, tafakkuri-mizga bog'liq bo'lmagan narsalar olami mavjud. Uni faylasuf «narsa o'zida» sifatida ta'riflaydi. I.Kantning fikricha, bilish jarayoni «narsa o'zida»ning sezgi a'zolarimizga bevosita ta'siri ostida his-tuyg'uning uyg'onishidan boshlanadi. Vaholanki, his-tuyg'ular, tushuncha va hukmlar o'z holicha «narsa o'zida «haqida muayyan nazariy bilim berishga qodir emas. Lekin bundan ishonchli bilim yo'q ekan, degan xulosaga kelmaslik kerak. Matematika va tabiatshunoslik aynan shunday ishonchli bilim manbaidir. Ammo ular qay darajada ishonchli bo'lmasin, «narsa o'zida» haqidagi haqiqiy bilim bo'la olmaydi. Kant bizning tafakkurimizda shakllangan tushunchalar «narsa o'zida»ni qay

darajada to'g'ri yoki noto'g'ri aks ettira oladi, degan savolga aniq javob mavjud emas, deb ta'kidlaydi. **Gnoseologik relyativizm** - borliq hodisalari va voqealarini bilish o'zgaruvchanligi, o'tkinchiligini mutlaqlashtiruvchi agnostitsizmning yo'nalishlaridan biridir. Relyativizm tarafdorlari dunyoda hamma narsa o'tkinchi, haqiqiy dunyoviy darajada ham, hattoki ilmiy darajada ham bizning olam hodisalari haqida olgan faqat shu paytdagi bilimlarimizni ifodalaydi, kecha haqiqat deb hisoblangan narsa bugun ishtiboh, xato sifatida tan olinadi: xuddi dori kabi, haqiqatning ham saqlanish muddati bor. Nisbiy mushohadalar bundan ham omonatroq. Bu ijtimoiy hayotda,axloq normalari va estetik didlarda ayniqsa yaqqol seziladi. УAqindagina shak-shubhasiz deb e ' tirof etilgan narsa endi do'zaxdan chiqqan balo sifatida inkor etiladi. Baholar kaleydoskopdagi rangli dog'lar kabi o'zgaradi. Bundan go'yo bilish jarayoni - muvaffaqiyatsizlikka uchrashi tayin bo'lgan haqiqat ketidan « quvish «, degan umumiy xulosa chiqariladi. Bizning barcha bilimlarimiz go'yo noaniqlik va noahiqiqiylik dengizida suzadi, u faqat - va faqat! - nisbiy, **shartli konvensial (lotincha «conventional» - shartnomaga muvofiq**) va sub'yek tivdir. Skeptiklarga xos bo'lgan bu yondashuv antik davrdayoq yuzaga kelgan. Dunyoda hamma narsa shu qadar tez o'zgaradiki, unda mutlaqo o'zgarmas bo'lgan hech narsa mavjud emas, deb hisoblagan Kratil ta'limoti ashaddiy relyativizmga misol bo'lishi mumkin. Barcha bilimlarimizni faqat nisbiy deb hisoblash, mohiyat e'tibori bilan, bilishda o'zboshimchalik hukm surishini tan olish bilan barobardir. Bu holda bilish nisbatan o'zgarmas, ishonchli narsalar mavjud bo'lmagan, haqiqat bilan ishtiboh o'rtasida farq qolmaydigan, har qanday qoida va tamoyilga ishonch yo'qoladigan, binobarin, hayotda hech narsaga amal qilib bo'lmaydigan uzluksiz oqimga aylanadi. Bilish nazariyasida mutlaq relyativizm - bu tafakkur «boyligi»-

ning namoyon bo'lish shakllaridan biri. Unga quyidagi mushohada xos: haqiqat albatta mutlaq bo'lishi kerak,agar haqiqat mutlaq bo'lmasa, u haqiqat emas. Bu fikr zamirida nafaqat nisbiy, balki mutlaq haqiqatga ham ishonchsizlik yotadi. Relyativizm namoyandalari odatda haqiqiy deb hisoblangan qoidalar keyinchalik soxta deb inkor etilgan va aksincha, soxta deb hisoblangan qoidalar fan rivojlanishi jarayonida haqiqiy deb e'tirof etilgan hollar fan tarixida ko'p ekanligiga ishora qiladilar. Ilmiy bilishning harakat yo'li -amalda to'g'ri chiziq emas, balki kesimlarida yanglishish hollari yuz berishi mumkin bo'lgan egri chiziqdan iborat. Biroq bu bizning barcha bilimlarimiz safsata ekanligini isbotlamaydi. Relyativist «bilimda nisbiylik unsuri mavjud» degan to'g'ri qoidani «bilim doimo nisbiydir», binobarin, bilim kerak emas, degan yanglish qoidaga almashtiradi . «Bu eng yomon fikr:agar men hamma narsani bila olmasam, men hech ish qilmayman»

Bilimning asosiy turlari. Bilim nima? Bilim tushunchasiga aniq ta'rif berish qiyin, balki hatto mumkin ham emas. Gap shundaki, birinchidan, bu tushuncha eng umumiy tushunchalardan biri hisoblanadi, umumiy tushunchalarga esa doim aniq ta'rif berish qiyin. Ikkinchidan, bilimning juda ko'p turlari mavjud va ularning hammasini yonma-yon qo'yib bo'lmaydi. Shuni e'tiborga olib, bilim nima ekanligini aniqlashga harakat qilib ko'ramiz. Odatda, biz nimanidir bilishimiz haqida gapirganimizda, o'zimiz bu «nimadir» haqida ancha to'g'ri tasavvurga egamiz, deb hisoblaymiz. Shuningdek, bizning tasavvurimiz xom xayol yoki faqat o'z shaxsiy fikrimiz emasligiga ham ishonchimiz komil bo'ladi. Nihoyat, biz bu ishonchni mustahkamlovchi qandaydir dalillar keltirishimiz mumkin. Shunday qilib, o'z shaxsiy hayotimizda biz amaldagi holatga mos keladigan va ma'lum asoslarga ega bo'lgan ishonch, e'tiqodni bilim deb hisoblaymiz.

Teran ma'no bilan sug'orilgan bu bilim talqinining umumiy ruhi gnoseologiyada ham saqlanib qolgan. Ayni vaqtda, gnoseologiya bu talqin zamirida mujassam ba'zi bir holatlarni aniqlaydi va ularga oydinlik kiritadi . «S sub'yekt qandaydir P predmetni biladi» degan standart gnoseolgik talqin quyidagi uch shartni o'z ichiga oladi: ohaqiqiylik (muvofiqlik) sharti - «agar P haqiqiy bo'lsa, u holda S P ni biladi». Biz Chimyon Toshkentdan shimolroqda joylashganligini bilaman, basharti CHimyon chindan ham Toshkentdan shimolroqda joylashgan bo'lsa. Agar biz Amudaryo Tinch okeaniga quyiladi, deb aytsak, bizning bu fikrimiz bilim emas, balki yanglish fikr, xato bo'ladi.

Bilish-voqelikning in'ikosi. Bilish muammosining falsafada qo'yilishi va hal qilinishi. Bilishning obekti va subekti. Bilish ziddiyatli, murakkab, dialektik bilishning asosiy bosqichlari. Hissiy bilish va uning shakllari: sezgi, idrok, tasavvur. Mantiqiy bilish va uning shakllari:

- tushuncha, xukm, xulosa. Hissiy va mantiqiy bilishning birligi.

- Sensualizm va ratsionalizm. Bilish jarayonida ijod, intuitsiyaning roli va hozirgi zamon falsafasida bularning ifodalanishi.

- Haqiqat tushunchasi. Haqiqatning obektivligi. Nisbiy va mutloq, harakat, ularning dialektikasi. Haqiqatni bilishda amaliyotning roli.

- Ilmiy bilish, uning kundalik bilishdan farqi va o'ziga xos xususiyatlari. Fanda «Empirik» va «Nazariy» bilish, ularning xususiyatlari.

Kundalik bilish usullari nihoyatda xilma-xil va o'ziga xos bo'lib, bunday bilimlarni sistemalashtirish va umumlashgan holda keying avlodlarga berish ancha mushkuldir. Hozirgi zamon garb sosiologiyasida xalqlarning kundalik bilim hosil qilish

usullarini o'rganuvchi maxsus soha — **etnometodologiya fani** vujudga keldi. Gnoseologiya asosan nazariy bilish va uning rivojlanish xususiyatlarini o'rganish bilan shug'ullanadi. Nazariy bilishning obyekti, subyekti va predmetini bir-biridan farqlash muhim.

Bilish obyekti. Tadqiqotchi-olim, faylasuf, san'atkor va boshqalarning, umuman insonning bilimlar hosil qilish uchun ilmiy faoliyati qaratilgan narsa, xodisa, jarayon, munosabatlar bilish obyektlari hisoblanadi. Bilish obyektlari moddiy, ma'naviy, konkret, mavhum, tabiiy va ijtimoiy bo'lishi mumkin. Bilish obyektlari eng kichik zarralardan tortib ulkan galaktikagacha bo'lgan borliqni qamrab oladi. Bilish obyektlariga asoslanib, bilim sohalari tabiiy, ijtimoiy-gumanitar va texnik fanlarga ajratiladi.

Bilish subyekti. Bilish bilan shug'ullanuvchi kishilar va butun insoniyat bilish subyekti hisoblanadi. Ayrim olingan tadqiqotchi-olimlar, ilmiy jamoalar, ilmiy tadqiqot institutlari ham alohida bilish subyektlaridir. Ilmiy faoliyat tabiat va jamiyat mohiyatini bilishgagina emas, balki insonning o'ziga ham qaratilishi mumkin. Inson va butun insoniyat ayni bir vaqtda ham bilish obyekti, ham bilish subyekti sifatida namoyon bo'ladi.

Bilishning maqsadi ilmiy bilimlar hosil qilishdangina iborat emas, balki bilish jarayonida hosil qilingan bilimlar vositasida insonning barkamolligiga intilish, tabiat va jamiyatni insoniy-lashtirish, tabiiy va ijtimoiy garmoniyaga erishishdir. Fan — fan uchun emas, balki inson manfaatlari uchun xizmat qilishi lozim. Inson ilmiy bilimlar vositasida ma'naviy barkamollikka erisha borgani sari ilm-fan qadriyat sifatida e'zozlana boshlaydi. Fanning har tomonlama rivojlanishi bilan turli ilm sohalarining hamkorligi kuchayadi, butun ilmiy jamoalar bilish subyekti, yangi ilmiy kashfiyotlar ijodkoriga aylanadilar.

Bilish predmeti subyektning bilish faoliyati qamrab olgan bilish obyektining ayrim sohalari va tomonlaridir. Fanning o'rganish sohasi tobora konkretlashib boradi. Tabiatshunoslik fanlarini bilish predmetiga qarab botanika, zoologiya, geografiya, ixtiologiya va boshqa sohalari vujudga kelgandir. Tadqiqot predmeti fanlarni bir-biridan farqlashka imkon beradigan muhim belgidir.

Bilish darajalarini shartli ravishda: quyi, yo'qori va oliy darajaga ajratish mumkin. Bilishning quyi darajasi barcha tirik mavjudotlarga xos bo'lib, xissiy bilish deyiladi. Xissiy bilish sezgilar vositasida bilishdir.

Insonning sezgi a'zolari (ko'rish, eshitish, hid bilish, ta'm bilish, teri sezgisi) boshqa mavjudotlarda bo'lgani singari uning narsalarga xos xususiyat, belgilarini farqlash, tabiiy muhitga moslashish va himoyalanishi uchun yordam beradi. Bilishning quyi bosqichida sezgi, idrok, tasavvur, diqqat, xayol tashqi olam to'g'risida muayyan bilimlar hosil qilishga yordam beradi.

Bilishning yo'qori bosqichi faqat insonlargagina xos bo'lib, aqliy bilish (rasional bilish) deyiladi. Agar inson o'z sezgilari yordamida narsa va xodisalarning faqat tashqi xossa va xususiyatlarini bilsa, tafakkur vositasida narsa va xodisalarning ichki mohiyatini bilib oladi. Mohiyat hamisha yashirindir, u doimo xodisa sifatida namoyon bo'ladi. Har bir xodisada mohiyatning faqat bir tomonigina namoyon bo'ladi. Shu boisdan ham xodisa aldamchi va chalg'ituvchidir. Binobarin, inson sezgilarining biron bir narsa yoki xodisa to'g'risida bergan ma'lumotlari xech qachon uning butun mohiyatini ochib bera olmaydi.

Tushuncha. Aqliy bilish yoki tafakkur vositasida bilish xissiy bilishni inkor etmaydi, balki sezgilar vositasida olingan bilimlarni

umumlashtirish, taxlil qilish, sintezlash, mavxumlashtirish orqali yangi hosil qilingan bilimlardan tushunchalar yaratiladi.

Tushunchada insonning xissiy bilish jarayonida orttirgan barcha bilimlari mujassamlashadi. Tushuncha aqliy faoliyat maxsuli sifatida vujudga keladi. Narsa va xodisalar mohiyatiga chuqurroq kirib borishda tushuncha muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Aqliy bilish xissiy bilishga nisbatan ancha murakkab va ziddiyatli jarayondir. Aqliy bilishda narsa va xodisalarning tub mohiyatini bilish uchun ulardan fikran o'zoqlashish talab etiladi. Masalan, insonning mohiyati uning sezgi a'zolarimiz qayd etadigan kelishgan qaddi-qomati, chiroyli qoshu ko'zi, ijodkor quli, oyoqlari bilan belgilanmaydi. Insonning mohiyati avvalo, uning aql va tafakkurga, yaratish qudratiga, mehr-shafqat hissiga, mehnat qilish, so'zlash qobiliyatiga ega ekaniligida namoyon bo'ladi.

Inson tushunchasi o'zida insoniyatning ko'p asrlar davomida orttirgan bilimlarining maxsuli sifatida shakllandi.

Har bir fan o'ziga xos tushunchalar apparatini yaratadi va ular vositasida mohiyatni bilishga intiladi. I. Kantning fikricha, narsalarning mohiyati so'z va tushunchalarda mujassamlashadi. Ya'ni biz so'z va tushunchalarni o'zlashtirish jarayonida biron bir bilimga ega bo'lamiz. Har bir inson dunyoga kelar ekani, tayyor narsalar, munosabatlar bilan bir qatorda tayyor bilimlar olamiga ham kirib boradi.

Gnoseologiyada **haqiqat** tushunchasi muhim urin tutadi. Haqiqat inson bilimlarining voqelikka muvofiq kelishidir. haqiqatni ochish yoki ilmiy haqiqatga erishish har qanday ilmiy bilishning asosiy vazifasi hisoblanadi. Haqiqat o'zining mazmuniga g'o'ra mutlag'va nisbiy bo'lishi mumkin. Fan haqiqati

hamisha nisbiy harakterga ega bo'lib, ularning majmuasidan mutlag'haqiqat vujudga keladi.

Haqiqat o'z mazmuniga ko'ra hamisha **obyektivdir.** Ya'ni uning mavjudligi ayrim kishilarning xoxish-irodasiga bog'liq emasdir. Masalan, O'zbekistonning milliy mustaqilligi obyektiv haqiqatdir. Ayrim kishilarning bu mustaqillikni tan olish yoki olmasligidan qat'i nazar, bu haqiqat o'z mazmunini saqlab qolaveradi. Haqiqatni atayin bo'zish yoki soxtalashtirish oxir-oqibatda fosh bo'ladi va o'z kadrini yo'qotadi. Shuningdek, haqiqat xech qachon mavxum emasdir. U hamisha konkretdir. Gegel so'zlari bilan aytganda, nimaiki voqe bo'lsa, u haqiqatdir, **haqiqat — vokelikdir**. Haqiqat mazmunining konkret xarakteri joy, vaqt va sharoitni e'tiborga olishni talab etadi.

Gnoseologiyada tabiiy-ilmiy va ijtimoiy bilishning o'ziga xos xususiyatlarini anglash muhim ahamiyatga egadir. O'zoq yillar davomida tabiatshunoslik fanlariga xos bo'lgan obyektivlik, xolislik ilmiylikning muhim mezoni deb hisoblab kelindi. Biroq XXasr O'rtalarida fan-texnika inqilobi insoniyat oldida paydo bo'lgan muammolar tabiatshunoslik fanlari oldiga qadriyatli yondashuv vazifasini qila boshladi. Aqlli mavjudot bo'lgan inson har qachon tabiatni o'rganishda hamisha o'z manfaatlarini ko'zlaydi. Tabiat resurslari cheksiz va bitmas-tuganmasdir, degani bir yog'lama qarash oxir-oqibatda inson tomonidan tabiatga nisbatan shafqatsiz munosabatni vujudga keltirdi. XXasr oxirlariga kelib tabiatga nisbatan insonlarcha, qadriyatli munosabatda bo'lish zaruriyati chuqurroq anglana boshladi.

Ijtimoiy fanlar hamisha mavjud siyosiy tizim, davrning talab va extiyojlari bilan uzviy bog'liq ravishda rivojlanadi. Ijtimoiy bilishda jamiyat ham bilish obyekti, ham bilish subyekti sifatida namoyon bo'ladi: "Insoniyat o'z tarixini yaratuvchi va o'z-o'zini biluvchidir".

Tabiatshunoslikda nisbatan barqaror sistemalar bilish obyekti hisoblanadi. Tabiatdagi narsa va xodisalar tadqiqotchiga xech qanday qarshilik ko'rsatmaydilar. Ijtimoiy bilishda esa, nisbatan tez o'zgaruvchi sistemalar bilish obyekti hisoblanadi. Ijtimoiy bilishga xos bo'lgan muhim xususiyat shundagi, u moddiy ishlab chiqarish soxalarinig'ina emas, balki jamiyatning ancha muraqqab ma'naviy xayotini, ijtimoiy-siyosiy munosabatlarni, qarashlar va g'oyalarni ham o'rganadi. Ijtimoiy fanlar milliy g'oya va milliy istiqlol mafkurasini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

Gnoseologiyaning maqsad va vazifalari, bilishning mohiyati va mazmuni to'g'risida zarur bilimlarga ega bo'lish mamlakatimizda bilimdon, har jixatdan yetuk barkamol inson shaxsini shakllantirishda aloxida o'rin tutadi. Bilish nazariyasi bo'lajak mutaxassis-kadrlarda muayyan ilmiy layoqat va qobiliyatlarni shakllantirishga ko'maklashadi. Milliy mustaqillik yillarida gnoseologiya oldiga quyilayotgan eng muhim vazifalardan biri, ilmiy bilimlarning jamiyatimiz taraqqiyoti, tinchligi va farovonliki uchun xizmat qilishini ta'minlaydigan omil va mexanizmlarni o'rganish, ulug ajdodlarimizning ilmiy bilimlarni rivojlantirish borasida orttirgan tajribalarini keng ommalashtirishdir.

Bilishning oliy darajasi intuitiv bilish, qalban bilish, g'oyibona bilishdir. O'zining butun borligini fan, din, siyosat va san'at soxasiga bag'ishlagan buyuk kishilar ana shunday bilish qobiliyatiga ega bo'ladilar. Intuitiv bilish xissiy va aqliy bilishga tayanadi. Buyuk shaxslarning g'oyibona bilishi ularning doimiy ravishda fikrini band etgan, yechimini g'utayotgan umumbashariy muammolar bilan bog'liqdir. Ilmiy bilishning eng samarali usullarini aniqlash gnoseologiyada muhim o'rin egallab keldi. Har bir fan o'ziga xos bilish usullaridan foydalanadi.

Ilmiy bilish faqat va dalillarga, ularni qayta ishlash, umumlashtirishga asoslanadi. Ilmiy faqat va dalillar to'plashning o'ziga xos usullari mavjud bo'lib, ularni ilmiy bilish metodlari deyiladi.

Ilmiy bilish metodlarini o'rganadigan maxsus soha — **metodologiya** deb ataladi. Ilmiy bilish metodlari o'z harakteriga ko'ra:

1) eng umumiy ilmiy metodlar;
2) umumiy ilmiy metodlar;
3) xususiy ilmiy metodlarga bo'linadi.

Eng umumiy ilmiy bilish metodlari barcha fanlar uchun xos bo'lgan metodlardir. Bunga analiz va sintez, umumlashtirish va mavhumlashtirish, induksiya va deduksiya, qiyoslash va modellashtirish kabilarni ko'rsatish mumkin. Masalan, tabiatshunoslik fanlarida ko'zatish, eksperement, taqqoslash umumilmiy metodlar bo'lsa, ijtimoiy fanlarda tarixiylik va mantiqiylik umumilmiy metodlar hisoblanadi.

Xususiy ilmiy metodlar har bir fanning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqadi. Masalan, suxbatlashish,anketa surovi, xujjatlarni o'rganish sosiolog'iya faniqa xos bo'lgan xususiy ilmiy metodlardir. Bir fanda yaxshi samara beradigan ilmiy bilish metodi boshqa fanda shunday samara bermasliki mumkin. Ilmiy bilishda to'g'ri metodni tanlash bilishda muvaffag'iyat garovi hisoblanadi. Boshqacha qilib aytganda, ilmiy tadqiqotda nimani o'rganish kerak, degani masala fan predmetini aniqlashga imkon bersa, qanday o'rganish kerak, degani masala esa ilmiy bilish metodini to'g'ri belgilashga yordam beradi.

Ilmiy bilish metodlari va ilmiy nazariya bir-biri bilan uzviy bog'liqdir. Ilg'or ilmiy nazariya fanning butun taraqqiyoti davomida erishilgan muhim yutuq bo'lib, u ilgarigi ilmiy qarashlarni ijodiy rivojlantirish, o'sha yutuqlarga tang'idiy nuqtai nazardan qarash orqali vujudga keladi. Fan mohiyatan o'zi erishgan yutuqlarga shubxa bilan qarashni taqozo qiladi.

Fan, falsafa soxasida erishilgan yutuqlarni mutlaqlashtirish, ularga ko'r-ko'rona siginish muqarrar ravishda dogmatizmni keltirib chiqaradi. Fan erishgan yutuqlar hamisha nisbiydir. Lekin bunday nisbiylikni mutlaqlashtirish relyativizmni, fan yutuqlariga ishonchsizlik bilan qarash esa, skeptisizmni vujudga keltiradi. Fan taraqqiyoti uchun dogmatizm, relyativizm va skeptisizm jiddiy xalaqit beradi.

Ilg'or ilmiy nazariyalar ma'lum bir davrda ilmiy va falsafiy qarashlar yunalishini o'zgartirishi, ilmiylikning o'ziga xos mezoni bo'lishi ham mumkin. Masalan, Charlz Darvinning evolyusion nazariyasi,A. Eynshteynning nisbiylik nazariyasi falsafiy va ilmiy dunyoqarashlarda muhim o'zgarishlarni vujudga keltirdi.

Nazorat uchun savollar.

1. Falsafa tarixida bilish masalasi qanday hal qilingan?
2. Bilish nima? Bilishning asosiy bosqichlari nimalardan iborat?
3. Hissiy va mantiqiy bilishning xususiyatlari, shakllari haqida so'zlab bering.
4. Haqiqat nima?
5. Nisbiy hamda mutloq haqiqatlarni o'zaro munosabatlari qanday?
6. Haqiqatning mezonlari haqida nimalar deya olasiz?
7. Amaliyotning bilish jarayonidagi ahamiyati nimalardan iborat?
8. Ilmiy bilishning o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
9. Ilmiy bilishning empirik darajasini tavsiflab bering?
10. Bilishning empirik darajasi qaysi usullardan foydalaniladi?
11. Ilmiy bilishning nazariy darajasining xususiyatlari haqida so'zlang?

Nazorat savollari:

1. Gnoseologiyaning mazmuni va mohiyati nimalardan iborat?.
2. Bilishning qanday asosiy turlari va shakllari mavjud?
3. Bilishning darajalari nimalardan iborat?
4. Bilishning o'ziga xosligi va aloqadorligi nimalar bilan izohlanadi?.
5. Haqiqat tushunchasi va uning qanday shakllari ajratib ko'rsatilgan?
6. Ilmiy bilish va uning qanday metodlari mavjud?.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Davronov Z., Shermuhamedova N., Qahharova M., Nurmatova M., Husanov B., Sultonova A. Falsafa. -Toshkent: TMU, 2019.
2. Shermuhamedova N.A. Falsafa -Toshkent: Noshir, 2012.
3. Shermuhamedova N.A. Falsafa. 2-nashr. Toshkent: Noshir, 2020.
4. Axmedova M. Falsafa. Tahriri ostida. - Toshkent.UFMJ, 2006.
5. Mamashokirov S. va boshqalar. Falsafa. O'quv qo'llanma. O'zbekiston, 2005.
6. J.,Tulenova G.,Tulenova K.Falsafa. Darslik. - Toshkent. Fan va texnologiya, 2016.

Internet saytlari:

1. www.ziyo net.uz
2. www.faylasuf.uz
3. Sports.ru
4. https://en.wikipedia.org/wiki/Handball

MANTIQ

Reja:

1. Mantiq fani predmeti, vazifalari va rivojlanish bosqichlari.
2. Tushuncha turlari, munosabatlari va mantiqiy amallari.
3. Hukm va xulosa – tafakkur shakli sifatida.
4. Dallilashning mantiqiy asoslari. Muammo, faraz, nazariya.

Tayanch so'zlar: *Fikr, so'z,aql, qonuniyat, ta'limot, tushuncha, mulohaza, xulosa, tushuncha turlari, tafakkur shakli, muammo, faraz, nazariya.*

Kelib chiqishiga ko'ra arabcha bo'lgan **"mantiq" (grekcha logos)**atamasi **"fikr", "so'z", "aql", "qonuniyat","ta'limot"** kabi ma'nolarga ega.Biz ko'rib chiqatyotgan munosabatda u tafakkur shakllari va qonunlari to'g'risidagi ta'limotni ifodalaydi hamda falsafaning gneseologiya, metodologiya bo'limlari bilan uzviy bo'lgan qismini tashkil etadi. "Mantiq" so'zi ilk bor Demokritning "Mantiq haqida yoki Kanon"asarida ishlatilgan.Lekin bu terminning doimiy qo'llanilishi ellin faylasuflari, platonchilar, peripatetiklar va ayniqsa, stoiklar ijodi bilan bog`liq so'z bo'lib, **Mantiq ilmining o'rganish obyektini tafakkur tashkil etadi. «Tafakkur»arabcha o'zbek tilidagi «fikrlash», «aqliy bilish»** so'zlarining sinonimi sifatida qo'llaniladi. Tafakkur bilishning yuqori bosqichidir. Uning mohiyatini yaxshiroq tushunish uchun bilish jarayonida tutgan o'rni, bilishning boshqa shakllari bilan bo'lgan munosabatini aniqlab olish zarur.

Bilish voqelikning, shu jumladan, ong hodisalarining inson miyasida subyektiv, ideal obrazlar shaklida aks etishidan iborat. Bilish jarayonining asosini va oxirgi maqsadini amaliyot tashkil etadi. Barcha hollarda bilish insonning hayotiy faoliyati bilan u

yoki bu darajada bog'liq bo'lgan, uning ma'lum bir ehtiyojini qondirishi mumkin bo'lgan narsalarni tushunib yetishga bo'ysundirilgan bo'ladi. Bilish jarayonini amalga oshirar ekan, kishilar o'z oldilariga ma'lum bir maqsadlarni qo'yadilar. Ular o'rganilishi lozim bo'lgan predmetlar doirasi, tadqiqot yo'nalishi, shakllari va metodlarini belgilab beradi.

Bilish murakkab, ziddiyatli, turli xil darajalarda va shakllarda amalga oshadigan jarayondir. Uning dastlabki bosqichini hissiy bilish - insonning sezgi organlari yordamida bilish tashkil etadi. Bu bosqichda predmet va hodisalarning tashqi xususiyatlari va munosabatlari, ya'ni ularning tashqi tomonida bevosita namoyon bo'ladigan va shuning uchun ham inson bevosita seza oladigan belgilari haqida ma'lumotlar olinadi.

Hissiy bilish 3 ta shaklda: sezgi, idrok va tasavvur shaklida amalga oshadi. Sezgi predmetning birorta tashqi xususiyatini (masalan, rangini, shaklini, ta'mini)aks ettiruvchi yaqqol obrazdir. Idrok predmetning yaxlit yaqqol obrazi bo'lib, u mazkur predmet haqidagi turli xil sezgilarni sintez qilish natijasida hosil bo'ladi. Alohida olingan sezgilardan farqli o'laroq, idrok berilgan predmetni boshqa predmetlardan (masalan olmani behidan, nokdan va shu kabilardan) farq qilish imkonini beradi. Tasavvur esa avval idrok etilgan predmetning obrazini ma'lum bir signallar (berilgan predmet bilan ma'lum bir umumiylikka ega bo'lgan) ta'sirida miyada qayta hosil qilishdan, yoki shu va boshqa obrazlar negizida yangi obraz yaratishdan iborat hissiy bilish shaklidir. Masalan, tanishingizga o'xshagan kishini uchratganda tanishingizni eslaysiz, yoki qurmoqchi bo'lgan imoratingizni mavjud imoratlar obrazlari yordamida yaqqol his qilasiz.

Hissiy bilishning barcha shakllariga xos bo'lgan xususiyatlari qatoriga quyidagilar kiradi:

Birinchidan, hissiy bilish obyektning (predmetning yoki uning birorta xususiyatining) subyektga (individga, to'g'rirog'i, uning sezgi organlariga) bevosita ta'sir etishini taqozo etadi. Tasavvur ham bundan istisno emas. Unda obrazi qayta hosil etilayotgan (yoki yaratilayotgan) predmet emas, u bilan bog'liq bo'lgan boshqa predmet-signal ta'sir etadi.

Ikkinchidan, hissiy bilish shakllari predmetning tashqi xususiyatlari va munosabatlarini aks ettiradi.

Uchinchidan, hissiy obraz predmetning yaqqol obrazidan iborat.

To'rtinchidan, hissiy bilish, konkret individlar tomonidan amalga oshirilganligi uchun ham, har bir alohida holda konkret insonning sezish qobiliyati bilan bog'liq tarzda o'ziga xos xususiyatga ega bo'ladi.

Beshinchidan, hissiy bilish bilishining dastlabki va zaruriy bosqichi hisoblanadi. Usiz bilish mavjud bo'la olmaydi. Chunki inson tashqi olam bilan o'zining sezgi organlari orqali bog'langan. Bilishning keyingi bosqichi, boshqa barcha shakllari sezgilarimiz bergan ma'lumotlarga tayanadi.

Bundan kelib chiqadigan xulosa shuki, hissiy bilish tafakkur bilan uzviy bog'liq. Xususan, nazariy bilimlarning chinligi oxir-oqibatda empirik talqin qilish yo'li bilan, ya'ni tajribada bunday bilimlarning obyektini qayd etish orqali asoslanadi. O'z navbatida, hissiy bilish, umuman olganda,aql tomonidan boshqa-rilib turadi, bilish oldida turgan vazifalarni bajarishga yo'nalti-riladi, ijodiy fantaziya elementlari bilan boyitiladi. Masalan, guvohlarning bergan ko'rsatmalari asosida jinoyatchining port-reti yaratiladi, yaqqol his qilinadi va qidiriladi.

Lekin, shunga qaramasdan hissiy bilish o'z imkoniyatlari, chegarasiga ega. U bizga alohida olingan predmetlar (yoki predmetlar to'plami), ularning tashqi belgilari haqida ma'lumot

yoki bu darajada bog'liq bo'lgan, uning ma'lum bir ehtiyojini qondirishi mumkin bo'lgan narsalarni tushunib yetishga bo'ysundirilgan bo'ladi. Bilish jarayonini amalga oshirar ekan, kishilar o'z oldilariga ma'lum bir maqsadlarni qo'yadilar. Ular o'rganilishi lozim bo'lgan predmetlar doirasi, tadqiqot yo'nalishi, shakllari va metodlarini belgilab beradi.

Bilish murakkab, ziddiyatli, turli xil darajalarda va shakllarda amalga oshadigan jarayondir. Uning dastlabki bosqichini hissiy bilish - insonning sezgi organlari yordamida bilish tashkil etadi. Bu bosqichda predmet va hodisalarning tashqi xususiyatlari va munosabatlari, ya'ni ularning tashqi tomonida bevosita namoyon bo'ladigan va shuning uchun ham inson bevosita seza oladigan belgilari haqida ma'lumotlar olinadi.

Hissiy bilish 3 ta shaklda: sezgi, idrok va tasavvur shaklida amalga oshadi. Sezgi predmetning birorta tashqi xususiyatini (masalan, rangini, shaklini, ta'mini)aks ettiruvchi yaqqol obrazdir. Idrok predmetning yaxlit yaqqol obrazi bo'lib, u mazkur predmet haqidagi turli xil sezgilarni sintez qilish natijasida hosil bo'ladi. Alohida olingan sezgilardan farqli o'laroq, idrok berilgan predmetni boshqa predmetlardan (masalan olmani behidan, nokdan va shu kabilardan) farq qilish imkonini beradi. Tasavvur esa avval idrok etilgan predmetning obrazini ma'lum bir signallar (berilgan predmet bilan ma'lum bir umumiylikka ega bo'lgan) ta'sirida miyada qayta hosil qilishdan, yoki shu va boshqa obrazlar negizida yangi obraz yaratishdan iborat hissiy bilish shaklidir. Masalan, tanishingizga o'xshagan kishini uchratganda tanishingizni eslaysiz, yoki qurmoqchi bo'lgan imoratingizni mavjud imoratlar obrazlari yordamida yaqqol his qilasiz.

Hissiy bilishning barcha shakllariga xos bo'lgan xususiyatlari qatoriga quyidagilar kiradi:

Birinchidan, hissiy bilish obyektning (predmetning yoki uning birorta xususiyatining) subyektga (individga, to'g'rirog'i, uning sezgi organlariga) bevosita ta'sir etishini taqozo etadi. Tasavvur ham bundan istisno emas. Unda obrazi qayta hosil etilayotgan (yoki yaratilayotgan) predmet emas, u bilan bog'liq bo'lgan boshqa predmet-signal ta'sir etadi.

Ikkinchidan, hissiy bilish shakllari predmetning tashqi xususiyatlari va munosabatlarini aks ettiradi.

Uchinchidan, hissiy obraz predmetning yaqqol obrazidan iborat.

To'rtinchidan, hissiy bilish, konkret individlar tomonidan amalga oshirilganligi uchun ham, har bir alohida holda konkret insonning sezish qobiliyati bilan bog'liq tarzda o'ziga xos xususiyatga ega bo'ladi.

Beshinchidan, hissiy bilish bilishining dastlabki va zaruriy bosqichi hisoblanadi. Usiz bilish mavjud bo'la olmaydi. Chunki inson tashqi olam bilan o'zining sezgi organlari orqali bog'langan. Bilishning keyingi bosqichi, boshqa barcha shakllari sezgilarimiz bergan ma'lumotlarga tayanadi.

Bundan kelib chiqadigan xulosa shuki, hissiy bilish tafakkur bilan uzviy bog'liq. Xususan, nazariy bilimlarning chinligi oxir-oqibatda empirik talqin qilish yo'li bilan, ya'ni tajribada bunday bilimlarning obyektini qayd etish orqali asoslanadi. O'z navbatida, hissiy bilish, umuman olganda,aql tomonidan boshqa-rilib turadi, bilish oldida turgan vazifalarni bajarishga yo'nalti-riladi, ijodiy fantaziya elementlari bilan boyitiladi. Masalan, guvohlarning bergan ko'rsatmalari asosida jinoyatchining port-reti yaratiladi, yaqqol his qilinadi va qidiriladi.

Lekin, shunga qaramasdan hissiy bilish o'z imkoniyatlari, chegarasiga ega. U bizga alohida olingan predmetlar (yoki predmetlar to'plami), ularning tashqi belgilari haqida ma'lumot

beradi. Unda mavjud predmetlar o'rtasidagi aloqadorlik (masalan muz bilan havoning harorati o'rtasidagi bog'lanish) o'rganilmaydi, predmetlarning umumiy va individual, muhim va nomuhim, zaruriy va tasodifiy xususiyatlari farq qilinmaydi.

Bundan tashqari, ba'zi hollarda hissiyotimiz bizni aldab qo'yadi. Masalan, uzoqdan sizga qarab yurib kelayotgan kishini tanishingizga o'xshatasiz, lekin yaqinroq kelganda uning boshqa kishi eganiligi ma'lum bo'ladi. Boshqa bir misol. Endi tanishgan kishingiz haqidagi dastlabki taassurot (bu asosan uning tashqi tamonidan ko'rinishiga qarab hosil qilinadi), u bilan muloqatda bo'lgandan keyin o'zgaradi. Mana shu o'rinda «Kiyimiga qarab kutib olishadi,aqliga qarab ko'zatishadi» degan maqolning hissiy bilish bilan aql o'rtasidagi o'zaro munosabatni, farqni yaxshi ifoda qilishini ta'kidlash lozim. Yuqorida qayd etib o'tilgan holatlar bilishda tafakkurga bo'lgan ehtiyojni, uning mohiyatini, bilishda tutgan o'rnini chuqur anglashga yordam beradi.

Predmet va hodisalarning mohiyatini tushunishga tafakkur yordamida erishiladi. Tafakkur bilishning **yuqori-rasional (lotincha ratio-aql)** bilish bosqichi bo'lib, unda predmet va hodisalarning umumiy, muhim xususiyatlari aniqlanadi, ular o'rtasidagi ichki, zaruriy aloqalar, ya'ni qonuniy bog'lanishlar aks ettiriladi. Tafakkur quyidagi asosiy xususiyatlarga ega:

1) Unda voqelik abstraktlashgan va umumlashgan holda in'ikos qilinadi. Hissiy bilishdan farqli o'laroq, tafakkur bizga predmetning nomuhim, ikkinchi darajali (bu odatda bilish oldida turgan vazifa bilan belgilanadi) belgilaridan abstraklashgan (fikran chetlashgan, mavhumlashgan) holda, e'tiborimizni uning umumiy, muhim, takrorlanib turuvchi xususiyatlariga va munosabatlariga qaratishimizga imkon beradi. Xususan, turli kishilarga xos individual belgilarni (xulq-atvor, temperament, qiziqish va shu kabilardagi) e'tibordan chetda qoldirgan holda,

ular uchun umumiy, muhim belgilarni, masalan, maqsadga muvofiq holda mehnat qilish, ongga ega bo'lish, ijtimoiy munosabatlarga kirishish kabi xislatlarni ajratib olib, «inson»tushunchasini hosil qilish mumkin. Umumiy belgilarni aniqlash predmetlar o'rtasidagi munosabatlarni, bog'lanish usullarini o'rnatishni taqoza etadi. Turli xil predmetlar fikrlash jarayonida o'xshash va muhim belgilariga ko'ra sinflarga birlashtiriladi va shu tariqa ularning mohiyatini tushunish, ularni xarakterlaydigan qonuniyatlarni bilish imkoniyati tug'iladi. Masalan, yuqorida keltirilgan «inson» tushunchasida barcha kishilar bitta mantiqiy sinfga birlashtirilib, ular o'rtasidagi muhim bog'lanishlar (masalan, ijtimoiy munosabatlar) bilib olinadi.

2) Tafakkur borliqni bilvosita aks ettiradi. Unda yangi bilimlar tajribaga har safar bevosita murojaat etmasdan, mavjud bilimlarga tayangan holda hosil qilinadi. Fikrlash bunda predmet va hodisalar o'rtasidagi aloqadorlikka asoslanadi. Masalan, bolaning xulq-atvoriga qarab, uning qanday muhitda tarbiya olganligi haqida fikr yuritish mumkin. Tafakkurning mazkur xususiyati,ayniqsa, xulosaviy fikr hosil qilishda aniq namoyon bo'ladi.

3) Tafakkur insonning ijodiy faoliyatidan iborat. Unda bilish jarayoni borliqda real analogiga ega bo'lmagan narsalar-yuqori darajada ideallashgan obyektlarni (masalan absolyut qattiq jism, ideal gaz kabi tushunchalar) ni yaratish, turli xil formal sistema-larni qurish bilan kechadi. Ular yordamida predmet va hodisalar-ning eng murakkab xususiyatlarini o'rganish, hodisalarni oldindan ko'rish, bashoratlar qilish imkoniyati vujudga keladi.

4) Tafakkur til bilan uzviy aloqada mavjud. Fikr ideal hodisadir. U faqat tilda-moddiy hodisada (tovush to'lqinlarida, grafik chiziqlarda) reallashadi, boshqa kishilar bevosita qabul

qila oladigan, his etadigan shaklga kiradi va odamlarning o'zaro fikr almashish vositasiga aylanadi. Boshqacha aytganda, til fikrning bevosita voqe bo'lish shaklidir.

2. Tafakkur uch xil shaklda: tushuncha, hukm (mulohaza) va xulosa chiqarish shaklida mavjud.

6.2. Tushuncha turlari, munosabatlari va mantiqiy amallari.

Tushuncha-narsa va hodisalarning muhim xususiyatlari, aloqalari va munosabatlarin iaks ettiruvchi tafakkur shakli, tushunchaning bilish mahsulidir, bu bilish oddiydan murakkabga ko'tarila borib, eski tushunchalarni mukammmalshtiradi, aniqlashtiradi va yangilarini shakllantiradi. Tushunchaning asosiy mantiqiy vazifasi biron narsani boshqa narsadan fikran ajratishdan iborat. Predmetlarning turkumlarini ajratish va predmetlarni tushunchada umumlashtirish tabiat qonuniyatlarini bilishning zarur shartidir. Har bir fan muayyan tushunchalar bilan ish ko'radi, ularda bilim jamlanadi. Tushuncha hissiy bilish shakllaridan farq qilib, inson miyasida to'g'ridan to'g'ri aks etmaydi. U taqqoslash, analiz, sintez, abstraksiyalash umumlashtirish kabi mantiqiy usullardan foydalangan holda hozil qilinadi. Tushunchaning shakllanishi so'z bilan bog'liq.

Tushuncha predmet va hodisalarning umumiy, muhim belgilarini aks ettiruvchi tafakkur shaklidir.

Belgilar deb, predmetlarni bir-biridan farq qiluvchi hamda ularning bir-biriga o'xshashligini ifoda qiluvchi tomonlarga, xususiyatlarga aytiladi. Har bir predmet olamdagi boshqa predmetlar bilan (bevosita yoki bilvosita)aloqada bo'lganligi uchun ko'p belgilarga ega. Ularning ba'zilari faqat bitta predmetga xos bo'lgan, uning individual, yakkalik belgilarini tashkil qilsa, boshqalari predmetning ma"lum bir guruhiga

tegishli bo'lib, umumiy belgilar hisoblanadi. Masalan, har bir kishi faqat o'zigagina xos bo'lgan ruhiy kechinmalar va shu kabi individual belgilarga ega. Shuning bilan birga kishilarning ma'lum bir guruhiga (mehnat jamoasi, millat va shu kabilarga tegishli) yoki barcha kishilarga (mehnat qilish, fikr yuritish qobiliyatlari, ijtimoiy munosabatlarda ishtirok qilishi va shu kabilar) xos bo'lgan umumiy belgilarga ega.

Individual va umumiy belgilarning ba'zilari predmetning mavjud bo'lishi uchun zarur bo'lib, uning tabiatini, mohiyatini ifodalaydi. Bunday belgilar predmetning muhim belgilari deyiladi. Masalan, davlatning mavjud bo'lishi uning o'z maydoni, aholisi, hokimiyat organlariga ega bo'lishini taqozo etadi.

Nomuhim belgilar predmetning mohiyatini tashkil qilmaydi. Ularning yo'qolishi bilan predmetning tabiati o'zgarmaydi. Masalan, qaysi irqqa, millatga, jinsga taalluqli bo'lishi individning inson sifatida mavjud bo'lishi uchun muhim emas. Shuni ham aytish lozimki, predmet belgisining muhim yoki nomuhim bo'lishi, bizning predmetga amalda qanday munosabatda bo'lishimizga qarab ham belgilanadi. Xususan, bir munosabatda muhim bo'lmagan belgilar boshqa munosabatda muhim bo'lishi mumkin. Masalan, kishining layoqati uning qanday kasbni tanlashi uchun muhim bo'lsa, inson sifatida mavjud bo'lishi uchun muhim emas. Predmet to'xtovsiz harakatda, taraqqiyotda bo'lganligi uchun, vaqt o'tishi bilan uning muhim bo'lgan belgisi nomuhim bo'lgan belgiga yoki,aksincha, nomuhim belgisi muhim belgiga aylanishi mumkin.

Demak, tushunchada predmet o'zining muhim belgilari orqali fikr qilinib, bu belgilar predmetning umumiy va individual belgilari bo'lishi mumkin. Masalan, "Abdulla Qodiriy" tushunchasida predmetning umumiy belgilari (inson, yozuvchi) bilan bir

qatorda, individual muhim belgilari (xususan, "O'tgan kunlar" romanining muallifi) ham fikr qilinadi.

Tushunchaning hissiy bilish shakllaridan tubdan farq qilishiga alohida e'tibor berish zarur. Sezgi, idrok va tasavvur predmetning yaqqol obrazlaridir. Biz faqat birorta konkret predmetni, masalan, o'zimiz yozib o'tirgan qalamni idrok qilishimiz yoki u to'g'risida tasavvurga ega bo'lishimiz mumkin, "umuman qalam"ni idrok qilib bo'lmaydi. Chunki tushuncha predmetning yaqqol obrazi emas, balki abstrakt obrazidir. Qalam tushunchasi o'zida konkret qalamlarning barchasini qamrab olgani holda, ularning har biriga xos bo'lgan individual belgilarni tashlab yuborib, umumiy, muhim belgilarini ifoda qiladi. Tushuncha predmetning nomuhim belgilaridan chetlashar ekan, demak uni to'laligicha aks ettira olmaydi. Bu ma'noda u hissiy bilish shakllariga nisbatan borliqdan uzoqroqda turadi. Lekin, tushuncha predmetning muhim belgilarini in'ikos qilishi, mohiyatini aks ettirishi bilan hissiy bilish shakllariga nisbatan borliqni chuqurroq, to'laroq ifoda etadi.

Tushuncha, hissiy bilish shakllaridan farqli o'laroq, inson miyasida to'g'ridan-to'g'ri aks etmaydi. U ma'lum bir mantiqiy usullardan foydalanilgan holda hosil qilinadi. Bu usullar taqqoslash,analiz, sintez,abstraksiyalash, umumlashtirishlardan iborat.

Tushunchalarni chegaralash va umumlashtirish tushunchalar ustida olib boriladigani amallar hisoblanadi. Ular tushunchaning mazmuni va hajmi o'rtasidagi teskari miqdoriy nisbat qonuniga muvofiq holda amalga oshiriladi. Tushunchani chegaralash hajmi keng tushunchadan hajmiga tor tushunchaga fikran o'tishdan iborat. Masalan, "harakat" tushunchasidan "mexanik harakat" tushunchasiga o'tsak, uning hajmini chegaralagan bo'lamiz.

Tushunchalarni bo'lish. Tushunchaning hajmini unda aks etgan predmetlarni ayrim guruhlarga (ayrim predmetlarga) ajratish yo'li bilan aniqlashga tushunchani bo'lish deyiladi. Bo'lish amalini bo'linuvchi tushuncha (hajmi aniqlanishi lozim bo'lgan tushuncha), bo'lish asosi (predmetning tushunchada fikr qilanadigan birorta umumiy belgisi) va bo'lish a'zolari (bo'lish natijasida hosil qilinadigan tor tushunchalar) tashkil etadi. Masalan "Inson" tushunchasini (bo'linuvchi tushuncha) ijtimoiy kelib chiqishiga ko'ra (bo'lish asosi) "ishchi", "dehqon", "ziyoli" (bo'lish a'zolari) tushunchalariga ajratish yo'li bilan uning hajmi aniqlanadi. Bo'linuvchi tushuncha jins tushuncha, bo'lish a'zolari tor tushunchalar bo'lib, ular o'zaro birga bo'ysunish munosabatidadirlar.

Tushunchalarni bo'lish amalini predmetlarni qismlarga ajratishdan farq qilish lozim. Masalan,avtomobilni kuzov, shassi, dvigatel va shu kabilarga ajratsak, uni qismlarga bo'lgan bo'lamiz. Predmetning qismi predmetning umumiy belgilariga ega bo'lmasligi mumkin. Shuning uchun ham "Kuzov avtomashinadir", degan hukm hosil qilsak, u xato bo'ladi. Agar "avtomobil" tushunchasini "yengil avtomobil", "yuk tashuvchi avtomobil" tushunchalariga ajratsak, uni bo'lgan bo'lamiz.

Bo'lishning ikkita turi mavjud: asos bo'lgan belgining o'zgarishiga qarab bo'lish va dixotomik bo'lish. Birinchi turida predmetning birorta umumiy belgisi bo'lish uchun asos qilib olinib, uning o'zgarishiga muvofiq holda predmetlarning ayrim guruhlari aniqlanadi. Masalan: burchakning o'zgarishiga qarab "uchburchak" tushunchasi uchta tur tushunchaga: "to'g'ri burchakli uchburchak", "o'tmas burchakli uchburchak", "o'tkir burchakli uchburchak"larga ajratiladi. Bo'lish asosi qilib bo'linuvchi tushunchaning mazmunida fikr qilinadigan har qanday umumiy belgini olish mumkin. Masalan "uchburchak"

tushunchasini tomonlariga qarab "teng tomonli uchburchak", "teng yonli uchburchak", "turli tomonli uchburchak" tushunchalariga ajratish mumkin.

Dixotomik bo'lish bo'linuvchi tushunchani o'zaro zid bo'lgan ikkita tur tushunchaga ajratishdan iborat. Masalan, barcha kishilarni "dindorlar" va "dindor emaslarga"ajratsak, dixotomik tarzda bo'lgan bo'lamiz. Dixotomik bo'lish bir qator qulayliklarga ega. Xususan, bunda biz bo'linuvchi tushunchaning barcha turlarini ko'rsatib o'tirmasdan, o'zimizga kerakligini ajratamiz, qolganlarini unga zid bo'lgan tushunchaga birlashtiramiz. Shu bilan birga dixotomik bo'lish ma'lum bir kamchiliklarga ham ega. Masalan, inkor tushunchaning hajmi noaniq bo'ladi. Undan tashqari dixotomik bo'lishdan faqat bir marta foydalangandagina kutilgan maqsadga erishish mumkin. Bo'lish amali to'g'ri borishi uchun ma'lum bir qoidalarga rioya qilish kerak. Ular **bo'lish qoidalari** deb ataladi.

a) Bo'lish teng hajmli bo'lishi, ya'ni bo'lish a'zolari hajmlarining yig'indisi bo'linuvchi tushuncha hajmiga teng bo'lishi kerak. Masalan, "fe'l zamonlari" tushunchasini "o'tgan zamon fe'li" va "hozirgi zamon fe'li" tushunchalariga ajratsak, xato ro'y beradi. Chunki "kelasi zamon fe'li" tushunchasi qolib ketgan. Ikkinchi xil xatoda esa ortiqcha bo'lish a'zosi ko'rsatilgan bo'ladi.

b) Bo'lish bir asos bo'yicha amalga oshirilishi lozim. Boshqacha aytganda,asos qilib olingan belgi bo'lish davomida boshqa belgi bilan almashtirilmasligi zarur.

d) Bo'lish a'zolari hajmi bo'yicha bir-birini istisno qilishi kerak. Buning uchun ular birga bo'ysunish munosabatidagi tushunchalar bo'lishi kerak.Agar "bino" tushunchasini "bir qavatli bino", "ko'p qavatli bino", "osmono'par bino" tushunchalariga bo'lsak, xatoga yo'l qo'ygan bo'lamiz. Chunki

"ko'p qavatli bino" tushunchasi bilan "osmono'par bino" tushunchasi bir-birini hajmi bo'yicha istisno qilmaydi.

e) Bo'lish uzluksiz holda amalga oshirilishi, unda "sakrash" bo'lmasligi kerak. Masalan, "gap" tushunchasini "oddiy gap", "ergashgan qo'shma gap", "bog'langan qo'shma gap" tushunchalariga ajratsak, bo'lishdagi izchillik yo'qoladi. Bunda oxirgi ikkita bo'lish a'zosi "qo'shma gap" tushunchasining turlaridir. Demak, "sakrash" hodisasi ro'y bergan.

Klassifikatsiya (turkumlash) tushunchalarni bo'lishning alohida turidir. Klassifikatsiya predmetlarni ma'lum bir turlarga (kichik sinflarga yoki ayrim predmetlarga)ajratishdan iborat bo'lib, bunda har bir tur boshqalariga nisbatan o'zining aniq va qat'iy o'rniga ega. Klassifikatsiya natijalari har xil jadvallar, sxemalar, grafiklar, kodekslar va shu kabilarda o'z aksini topadi.

Mantiqda sun'iy va tabiiy klassifikatsiyalar farq qilinadi. Sun'iy klassifikatsiya predmetlarning birorta umumiy belgisiga ko'ra amalga oshiriladi. Unga misol qilib kutubxonadagi kitoblar katalogini ko'rsatish mumkin. Tabiiy klassifikatsiyani amalga oshirish uchun bo'lish asosi qilib predmetlarning birorta muhim belgisini olish kerak.ana shuning uchun ham u predmetlarning ayrim muhim xossalari haqida fikr yuritish, qonuniy bog'lanishlarni aniqlash imkonini beradi. Bunga Mendeleyevning kimyoviy elementlar davriy sistemasi, Darvinning jonli tabiat predmetlari klassifikatsiyasi misol bo'la oladi.

6.3. Hukm va xulosa – tafakkur shakli sifatida.

Tafakkur shakllariga xukm, tushuncha va xulosa chikarish kiradi. Narsa va xodisalarning belgi va xususiyatlari haqida tasdiqlab yoki inkor qilib aytilgan fikr xukm deb aytiladi. Masalan, baxorda daraxtlar barg yozadi.

Borliqdagi narsalar, xodisalar va voqelikning miqdoriga, ularning biror xukmda aks etishi va aloqa hamda munosabatlariga qarab ular quyidagi turlarga bo`linadi:

1. Tasdiqlovchi yoki inkor qiluvchi xukm.
2. Yakka, juz'iy va umumiy xukm.
3. Shartli,ayiruvchi va qat'iy xukm.
4. Taxminiy xukm.

Narsa bilan belgining aloqasi aks etgan xukm tasdiqlovchi xukm deyiladi. Masalan,Alisher Navoiy buyuk o`zbek shoiri, mutafakkiri. Narsa bilan belgi o`rtasidagi boglanish yukligini ifodalovchi xukm inkor xukm debataladi. Masalan, O`zbekistonda paxta eqilmaydi. Samarkandda oliy maktablar yuk kabi.

Yakka narsa xaqidagi xukm yakka xukm deyiladi. Masalan, Toshkent – O`zbekistonning poytaxti. Agar xukmimiz bir gurux narsalarning ba'zilariga taalukli bo`lsa uni juz'iy xukm deyiladi. Masalan, bugun ba'zi talabalar darsga kech koldilar. Bordiyu bizning xukmimiz bir gurux narsalarning barchasiga ta`luqli bo`lsa umumiy xukm deyiladi. Masalan, O`zbekiston fuqarolari tinchlik uchun kurashmoqdalar.

Xulosa chiqarish deb bir necha xukmlardan aloxida xukm keltirib chikarishga aytiladi. Masalan, barcha sayyoralar xarakat qiladi. Er – sayyora. Demak, Er ham xarakat qiladi.

**Xulosa chiqarish uch turda bo`ladi: induktiv, deduktiv va analogik**. Induktiv xulosa chikarish deb bir necha yakka xukmlardan umumiy xukm keltirib chiqarishga aytiladi. Masalan, Temir elektr tokini o`tkazadi. Mis elektr tokini o`tkazadi. Qo`rg`oshin elektr tokini o`tkazadi. Bular metallardir. Demak, metallar elektr tokini o'tkazadi.

Deduktiv xulosa chikarish deb umumiy xukmdan yakka yoki jo`z'iy xukm keltirib chikarishga aytiladi. Masalan, Daraxtlar baxorda gullaydi. O`rik – daraxt. Demak, o`rik baxorda gullaydi.

Analogik xulosa chiqarish deb predmetning o`xshash belgilariga qarab xulosa chiqarishga aytiladi.

Tushuncha narsa va xodisalarning umumiy va muxim belgilarini aks ettiruvchi fikrdir. Uy, ko`prik, koinot, daraxt kabilar tushunchalardir. Tushunchalar odatda konkret va abstrakt bo`ladi. Konkret tushunchalarga parta, doska, shkaf, deraza kabilar kirsa,abstrakt tushunchalarga esa muxabbat, baxt, go`zallik, uzunlik, balandlik, kenglik, xarakat kabilar kiradi.

Tushunchalar ko`lami jixatdan uch turga bo`linadi: yakka tushunchalar, umumiy tushunchalar va to`planma tushunchalar.

Yakka tushuncha deb yakka predmet yoki xodisa xaqidagi tushunchaga aytiladi. Masalan, Alisher Navoiy, Qo`qon, Sirdaryo, Sobir Raximov kabilar. umumiy tushuncha deb bir jinsda bo`lgan narsa va xodisalar to`plami xaqida yaxlit fikr yuritishga aytiladi. Masalan, kitob, maktab, student, o`spirin, yulduz va boshqalar.

To`planma tushuncha deb bir xil narsalarning to`plamiga aytiladi. Masalan, kutubxona, paxtazor, yig`ilish kabilar.

Fikr yuritishda tushuncha bilan so`z o`zaro bog`langan xolda namoyon bo`ladi. Bir tomondan, so`z yordamisiz tushuncha vujudga kelmaydi, ikinchi tomondan so`z tushunchaning moddiy asosiy va funksiyasini bajaradi. Tushunchalar bir yoki undan ortiq so`zlardan xosil bo`lishi mumkin.

Tafakkur jarayonining o'zi ham, bilish jarayonining o'zi ham muttasil har xil savollar tug'ilishiga sabab bo'ladi. Odam qanchalik ko'p bilaversa, uning oldida nomaium narsalar shu qadar ko'p paydo bo`laveradi, unda shu qadar ko'p savollar tug'ilaveradi va uning o'zi shu qadar ko'p savol beraveradi. Bilishga qiziqish savollar qo'yishda katta rol o'ynaydi.

6.4. Dallilashning mantiqiy asoslari. Muammo, faraz, nazariya.

Bahs, munozara yuritishning, chin fikrlarni isbotlay bilishning, xato fikrlarni rad etishning o'ziga xos qonun qoidalari mavjud. Bu qoidalarni bilish har bir insonga, shu jumladan

talabalarga chin fikrni xato fikrdan ajrata bilish, to‘g‘ri tafakkurlash madaniyatini shakllantirish imkonini beradi.

Argumetlash (dalillash) va ishonch-e’tiqodning shakllanishi

Mantiq ilmida isbotlash va dalillash tushunchalari o‘zaro farqlanadi. Dalillash deb, biror fikr, mulohazani yoki mulohazalar tizimini voqelikka bevosita murojaat qilish yo‘li bilan (kuzatish, tajriba-eksperiment va hokazo asosida) yoki chinligi avvaldan tasdiqlangan boshqa mulohazalar yordamida asoslab berishga aytiladi. Dalillash bevosita yoki vositali bo‘ladi. Bevosita dalillash hissiy bilishga, ya’ni ko‘rish, tajriba-eksperiment orqali amalga oshiriladi. Vositali dalillash esa, chinligi avvaldan tasdiqlangan boshqa mulohazalarga asoslanadi va xulosa chiqarish ko‘rinishida namoyon bo‘ladi. Dalillashning birinchi usuli empirik, ikkinchi usuli nazariy bilimlarga asoslanadi. Nazariy va empirik bilimlarning chegarasi nisbiy bo‘lganligi kabi, dalillashning yuqoridagi ikki usulga ajratilishi ham nisbiydir.

Dalillashning xususiy ko‘rinishi mantiqiy isbotlashdir. Mantiqiy isbotlash deb, biror fikr, mulohazaning chinligini, chinligi avvaldan tasdiqlangan boshqa mulohazalar orqali asoslashga aytiladi. Isbotlashdan maqsad-biror fikrning chinligini aniqlash bo‘lsa, dalillashdan maqsad ham fikrning chinligini aniqlash, uning ahamiyatini va muayyan faoliyat uchun qo‘llash mumkinligini asoslashdir. Isbotlash jarayonida qo‘llaniladigan chin mulohazalar (asoslar) berilgan fikrning chinligini tasdiqlash uchun xizmat qilsa, dalillash, bundan tashqari, dalillanayotgan fikrning boshqa shu kabi fikrlardan afzalroq ekanligini asoslash uchun ham xizmat qiladi. Dalillash uchun keltirilgan argumentlar (asoslar) isbotlash uchun keltirilgan argumentlarga nisbatan rang-barang bo‘ladi. Dalillash shakllari bilan isbotlash shakllari bir-biriga aynan mos tushmaydi.

Isbotlash xulosa chiqarish ko‘rinishida amalga oshadi. Dalillash ko‘proq suhbat (dialog) ko‘rinishida bo‘lib, uning ishtirokchilaridan har biri o‘z fikrining chinligini isbotlashga, raqibining fikrini rad etishga va tinglovchilarning o‘zini ham fikr qilishga, o‘z fikrlariga ishontirishga harakat qiladi.

Dalililash jarayonida retsipiyentlarga (lot. — qabul qiluvchi) – tinglovchilarga biror fikrning to‘g‘ri yoki xatoligi asoslab beriladi va ularda shu fikrga nisbatan ishonch tuyg‘usi shakllantiriladi. Dalillovchi shaxsning so‘z san’atini qay darajada egallaganligi, ya’ni notiqlik mahorati tinglovchilarda ishonch-e’tiqodning shakllanishida muhim rol o‘ynaydi.

Faktlar va boshqa dalillarga tayanib yuritiladigan fikr yuksak ishontirish kuchiga ega bo‘ladi, kishilarda ishonch-e’tiqodni shakllantiradi. Bilishning maqsadi ilmiy asosga ega bo‘lgan e’tiqodni yaratishdan iborat. Dalillash va isbotlash ishonch-e’tiqodni shakllantirish vositasidir.

Ishonch-e’tiqod bu kishilarning xulq-atvori va hatti-harakatlarini belgilab beradigan qarashlari va tasavvurlaridir.

Isbotlash va uning strukturasi, isbotlash turlari

Kishilarning amaliy faoliyatdagi muvaffaqiyatlari ular qo‘llayotgan bilimlarning qay darajada chin bo‘lishiga, ya’ni bu bilimlarning voqelikni qanchalik to‘g‘ri aks ettirishiga bog‘liq. Xato fikrlar predmetlarning real aloqalari va munosabatlarini buzib ko‘rsatadi, bilishda ko‘p chalkashliklarga olib keladi. Shuning uchun ham bilish jarayonida har bir fikrni to‘g‘ri qurishga erishish, uning chinligini dalillar bilan ko‘rsata olish, xato fikrlarni esa rad qila bilish muhim ahamiyatga ega.

Fikrning chinligini tasdiqlash uchun uni hodisaning (faktning) o‘zi bilan solishtirish mumkin. Lekin ko‘p hollarda bilish jarayonida natijalarining chinligi ularni ilgari vujudga

kelgan bilimlar bilan bog‘lash orqali aniqlanadi. Buni amalga oshirishning mantiqiy usuli isbotlashdir.

Isbotlash bir hukmning chinligini u bilan bog‘langan boshqa chin hukmlar yordamida asoslashdan iborat bo‘lgan mantiqiy amaldir. Uning tarkibi uch elementdan tashkil topgan: **tezis, argumentlar (asoslar), isbotlash usuli-demonstratsiya.**

Tezis-chinligi asoslanishi lozim bo‘lgan hukm, u isbotlashning markaziy figurasi hisoblanadi; butun diqqat-e’tibor uning chinligini ko‘rsatishga qaratiladi. Tezis bir mulohazaning o‘zidan, yoki mulohazalar tizimidan, yoki teoremalardan, yoki aniq faktlarni umumlashtirish natijalaridan yoki hodisalarning sababini ko‘rsatuvchi mulohazalardan va shu kabilardan iborat bo‘ladi.

Argumentlar-tezisning chinliginiasoslash uchun keltirilgan hukmlar. argumentlar bo‘lib faktlarni qayd qiluvchi hukmlar, ta’riflar, aksiomalar, teoremalar, qonunlar hamda boshqa empirik va nazariy umumlashmalar xizmat qiladi. Argument sifatida keltirilgan faktlar, albatta, o‘zaro bog‘langan va tezisning mohiyatiga aloqador bo‘lishi lozim.

Ta’riflar ham chin hukmlar bo‘lib, ulardan argument sifatida foydalanish mumkin. Masalan, «Harakat — bu har qanday o‘zgarishdan iborat» degan ta’rif-chin hukmdir.

Aksiomalar chinligi o‘z-o‘zidan ravshan bo‘lgan, isbotlashni talab qilmaydigan fikrlardir. Inson tajribasida ko‘p martalab takrorlanganligi uchun ham ularni isbotlash zarur emas.

Teoremalar va qonunlarning chinligi isbotlangan bo‘ladi, ularni hech ikkilanmasdan argument qilib olish mumkin.

Isbotlash usuli-demonstratsiya tezis bilan argumentlar o‘rtasidagi mantiqiy aloqadan iborat. U xulosa chiqarish shaklida bo‘ladi, ya’ni tezis argumentlardan xulosa sifatida mantiqan keltirib chiqariladi.

Isbotlashning ikki turi mavjud: bevosita isbotlash, bavosita isbotlash. Bevosita isbotlashda tezisning chinligi to‘g‘ridan-to‘g‘ri argumentlar bilan asoslanadi, unda tezisga zid bo‘lgan hukmlardan foydalanilmaydi. Tezis ko‘p hollarda yakka hodisani ifoda qilib keladi va ma’lum bir umumiy bilimdan, masalan qonundan, argument sifatida foydalanilib, uning chinligi asoslanadi. Masalan «O‘zbekiston — mustaqil davlatdir» degan hukm (tezis) ning chinligi «O‘zbekistonning mustaqil davlat deb e’lon qilinishi, uning xalqaro miqyosda e’tirof etilishi» kabi asoslar yordamida isbotlanadi.

Bavosita isbotlashda esa tezisning chinligi unga zid bo‘lgan hukmning (antitezisning) xatoligini ko‘rsatish orqali asoslanadi. Antitezis qanday shaklda ifodalangan bo‘lishiga qarab apalogik isbotlash va ayiruvchi isbotlash farq qilinadi. Apologik isbotlashda tezis (a) va antitezis ( ) o‘rtasidagi munosabatga asoslaniladi. Masalan «Materiya harakatsiz mavjud emas» degan hukmning chinligini asoslash uchun unga zid bo‘lgan «Materiya harakatsiz mavjud» degan hukm olinadi.

Apologik isbotlashda antitezis topilib (1-bosqich), vaqtincha chin deb qabul qilinadi va undan ma’lum bir natijalar keltirib chiqariladi (2-bosqich), so‘ngra bu natijalarning xatoligi ko‘rsatiladi (3-bosqich) va demak tezisning chinligi isbotlanadi. Masalan, «Materiya harakatsiz mavjud» degan hukm chin bo‘lsa «Modiy predmetlar strukturasiz mavjud» degan fikr (antitezisdan kelib chiqqan natija) ham chin bo‘ladi. Bizga ma’lumki, moddiy predmetlar strukturasiz (uni tashkil qiluvchi elementlar va ularning o‘zaro aloqasisiz) mavjud emas. Demak «Materiya harakatsiz mavjud» degan fikr xato, shu tariqa «Materiya harakatsiz mavjud emas» degan fikrning chinligi asoslanadi.

Ayiruvchi isbotlashda tezis sof ayiruvchi hukmning (kuchli diz’yunksiyaning) bir a’zosi bo‘lib, uning chinligi boshqa

a'zolarining (antitezisning) xatoligini ko'rsatish orqali asoslanadi. Masalan «jinoyatni yo A, yo V, yo S shaxslar sodir etgan» degan fikr tekshirilib, «Jinoyatni V shaxs ham, S shaxs ham sodir etmaganligi aniqlanadi va shu tariqa «Jinoyatnia A shaxs sodir qilgan» degan hukmning chinligi asoslanadi. Bu misolda ayiruvchi isbotlash ayiruvchi-qat'iy sillogizmning inkor etib-tasdiqlovchi modusi bo'yicha qurilgan:

Barcha muqobil variantlar to'liq olingandagina xulosa chin bo'ladi, ya'ni tezis isbotlanadi.

2. Raddiya, rad etish usullari

Raddiya-isbotni buzishga qaratilgan mantiqiy amaldir.

Birorta fikrning chinligini rad etish unga zid bo'lgan fikrning xatoligini ko'rsatishdan iborat bo'lganligi uchun, raddiyani isbotlashning xususiy ko'rinishi, deb hisoblash mumkin. Raddiya ham isbotlash kabi tezis (rad qilinishi lozim bo'lgan hukm), argumentlar (tezisni rad qiluvchi hukmlar) va demonstratsiyadan (rad etish usuli) dan tashkil topgan bo'ladi. Raddiya birorta masalani muhokama qilish ya'ni bahs, munozara jarayonida uchraydi. Bahs qatnashchilaridan biri ma'lum bir tezisni ilgari surib, uni himoya qilsa **(proponent)**, boshqasi unga qarshi chiqadi **(opponent).** Hal qilinmagan, munozarali masalalar bo'yicha olib boriladigan bahslar **polemika** hisoblanib, unda qarama-qarshi tezislar asoslanibgina qolmay, balki tanqidiy analiz ham qilinadi.

Raddiya uch xil usul bilan amalga oshiriladi:

1) tezisni rad etish;

2) argumentlarni rad etish;

3) demonstratsiyani rad etish.

I. Tezisni rad etish

Tezisni rad etishning quyidagi usullari mavjud:

1. Faktlar orqali rad etish. Bu eng ishonchli va samarali usuldir. Bunda bo'lib o'tgan voqealarga, statistik ma'lumotlarga asoslanib tezis rad etiladi. Masalan: «Sovet davrida O'zbekiston mustaqil respublika bo'lgan» degan tezisni rad etish, ya'ni uning noto'g'ri ekanligini isbotlash uchun tarixiy faktlarga asoslanamiz. O'sha davrda Respublika rahbariyati birorta muhim masalani Moskvaning ruxsatsiz hal qila olmaganligiga dalillar keltirib, tezisni rad etamiz.

2. Tezisdan kelib chiqadigan natijalarning xatoligini (yoki ziddiyatli ekanligini) ko'rsatish orqali rad etish. Bunda tezisdan kelib chiqadigan natijalarning chin emasligi asoslab beriladi. Bu usul «bema'nilikka olib kelish», deb ataladi. Rad etilayotgan tezis vaqtincha chin deb tan olinadi, undan kelib chiqadigan natijalar aniqlanib, bu natijalarning xaqiqatga zid, noto'g'ri ekanligi isbotlanadi. Chin asosdan xato natija kelib chiqmaydi,aks xolda bu bema'nilik bo'ladi. «Bema'nilikka olib kelish» usulining formulasi quyidagicha:

3. Tezisni antitezisni isbotlash orqali rad etish. Rad etilayotgan tezisga zid bo'lgan yangi tezis (antitezis) olinadi va isbotlanadi. Uchinchisi istisno qonuniga muvofiq,antitezisning chinligidan tezisning xatoligi keltirib chiqariladi. Masalan, Prezidentimiz I.A. Karimov «Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q» nomli maqolasida «Amir Temur buyuk sarkarda bo'lgan va yozuvliklar qilgan» degan tezisni shunday rad etadi: «Inson bir paytning o'zida ham bunyodkor, ham yovuz bo'lishi mumkin emas. Ne-ne madrasayu-masjidlar, oliy koshonalarni qurgan, ne-ne olimu fuzalolarning boshini silagan, qur'oni karimni yod bilgan inson yovuz bo'lmaydi. Qonxo'r odam «Kuch-adolatda» deyishi mumkinmi?»

Darhaqiqat, Sohibqiron Amir Temur homiyligida, uning ko'rsatmasiga binoan yaratilgan bog'lar, qurilgan imoratlar uning bunyodkor shaxs ekanligini yaqqol isbotlaydi.

I.Argumentlarni rad etish.

Tezisni isbotlash uchun opponent tomonidan keltirilgan argumentlar tanqid qilinib, ularning xatoligi yoki tezisni isbotlash uchun yetarli emasligi aniqlanadi.

Argumentlarning xatoligi tezisning ham xato ekanligini isbotlamaydi, bunda tezis chin bo'lishi ham mumkin:

Argumentlarni rad etish orqali tezisning isbotlanmag aniq'ligi asoslab beriladi.

I. Isbotlash usulini tanqid qilish orqali rad etish.

Rad etishning bu usulida isbotlashda yo'l qo'yilgan xatolar aniqlanadi. Bunda rad etilayotgan tezis chinligining, uning asoslash uchun keltirilgan argumentlardan bevosita kelib chiqmasligi asoslab beriladi. Isbotlash usulida yo'l qo'yilgan xató aniqlanganda tezis rad etilmaydi, uni qayta isbotlash talab qilinadi.

Rad etishning yuqorida ko'rsatilgan usullari ko'pincha birgalikda, bir-birini to'ldirgan holda qo'llaniladi.

2. Isbotlash va rad etish qoidalari, ularni buzganda kelib chiqadigan mantiqiy xatolar.

Tezisga aloqador qoidalar;

1. Tezis mantiqan aniq va ravshan bo'lishi kerak. Bu qoida buzilsa, isbotlash yoki rad etish o'zining aniq predmetiga ega bo'lmay qoladi, uni amalga oshirishga urinish behuda ish hisoblanadi.

2. Tezis isbotlash yoki rad etishning boshidan oxirigacha o'zgartirilmasligi kerak. Bu qoida buzilsa «tezisni almashtirish» degan xato kelib chiqadi.

Argumentlarga nisbatan qoidalar;

1. Tezisni asoslash uchun keltirilgan argumentlar chin hukmlar bo'lishi va bir-biriga zid bo'lmasligi lozim.

2. Argumentlar tezisni asoslash uchun yetarli bo'lishi kerak.

3. Argumentlar tezisdan mustaqil holda chinligi isbotlangan hukmlar bo'lishi lozim.

Isbotlash usulining qoidasi:

1. Tezis argumentlardan mantiqiy tarzda kelib chiqadigan xulosa bo'lishi lozim. Buning uchun isbotlash yoki rad etishda xulosa chiqarish qoidalariga rioya qilish zarur.

Isbotlash va rad etish qoidalarining buzilishi mantiqiy xatolarga olib keladi. Bu xatoliklar uch turga bo'linadi:

Isbotlanayotgan tezisga aloqador xatoliklar

2. Tezisni almashtirish. Tezis isbotlash yoki rad etish davomida o'zgarmasligi shart, degan qoidaning buzilishi tezisning almashtirilishiga sabab bo'ladi. Tezisataylab yoki bilmasdan boshqa tezis bilanalmashtiriladi va bu yangi tezis isbotlanadi yoki rad etiladi. Tezis mazmunining toraytirilishi yoki kengaytirilishi ham bahs jarayonida tezisning o'zgarishiga olib keladi. Masalan, respublikamiz taraqqiyoti uchun milliy mafkura, milliy g'oyaningahamiyati to'g'risidagi tezisni isbotlash davomi-da umuman jamiyatga mafkura kerakmi yoki yo'qmi, degan masalani isbot etishga harakat qilinsa, unda tezisning mazmuni kengayib ketadi va tezisalmashinadi.

3. Insoning shaxsiy sifatini bahona qilib tezisnialmashtirish. Bahs jarayonida mavzudan chetga chiqib, opponetning shaxsiy, ijtimoiy hayoti, yaxshi fazilatlari yoki kamchiliklari xususida fikr yuritib, shuasosda tezisni isbotlangan yoki rad etilgan deb ta'kidlash tezisningalmashinishiga sabab bo'ladi. Bunday xatogaataylab yo'l qo'yiladi. Tinglovchilarning his-tuyg'ulariga ta'sir qilish orqali isbotlanmagan tezisning chin deb qabul qilinishiga urinish ham tezisnialmashtirish hisoblanadi.

4. Ortiqcha yoki kam isbotlashga urinish natijasida tezisning almashinishi. Fikr ortiqcha isbotlansa, berilgan tezis o'rniga undan kuchliroq tezisni isbotlashga harakat qilinadi.agara

hodisadan V kelib chiqsa, lekin V hodisadana kelib chiqmasa, undaa hodisani ifodolovchi tezis V hodisani ifodolovchi tezisdan kuchliroq bo'ladi. Masalan, «A shaxs birinchi bo'lib janjalni boshlamagan» tezis (V) o'rniga, «A shaxs umuman janjal bo'lgan yerda yo'q edi» degan tezisni (A) isbotlashga harakat qilinadi. Ikkinchi tezisni isbotlab bo'lmaydi, chunkia shaxsning janjalda qatnashganligini ko'rgan guvoxlar bor.

IIArgument (asos) larga taalluqli xatolar.

1. Asoslarning xatoligi. Tezis isbotlanganda yoki rad etilganda xató argumentlarga chin deb asoslanish natijasida ataylab yoki bilmasdan mantiqiy xatoga yo'l qo'yiladi. Masalan, Qadimgi grek faylasufi Fales o'z ta'limotini xamma narsa suvdan paydo bo'lgan, degan fikrga asoslanib yaratgan.

2. Asoslarni avvaldan taxminlash shaklidagi xato. Tezis isbotlan-magan argumentlarga asoslansa, bunday argumentlar tezisning chinligini isbotlamaydi, balki tezisning chinligi taxminlanadi, xolos.

3. «Aylanma isbot etish» deb nomlanuvchi xato. Tezisning chinligi argumentlar orqali,argumentlarning chinligi tezis orqali isbotlansa mantiqiy xatoga yo'l qo'yiladi. Masalan, «So'zning qudrati fikr bilan o'lchanadi» degan tezisni «Fikrning qudrati so'z bilan o'lchanadi» deb isbotlasak, yuqorida aytilgan xatoga yo'l qo'yiladi.

III. Isbotlash usuli (demonstratsiya) bilan bog'liq xatolar.

1. «Yolg'on (soxta) isbotlash». Agar tezis uni isbotlash uchun kelti-rilgan argumentlardan bevosita kelib chiqmasa, mantiqiy xatoga yo'l qo'yiladi. Bunda tezisga aloqador bo'lmagan argumentlarga asoslaniladi. Masalan, «A shaxs yomon odam» degan tezis «Tunda yomon odamlargina ko'chada yuradi», «A shaxs ko'chada tunda yuribdi» degan argumentlar bilan asoslansa, fikr yuzaki (soxta) isbotlangan bo'ladi.

2. Shartlangan fikrdan, shartlanmagan fikrga o'tish. Muayyan vaqt, munosabat doirasida chin bo'lgan (shartlangan) fikrni, doimiy, o'zgarmas chin fikr deb qabul qilish natijasida mantiqiy xatoga yo'l qo'yiladi.

3. Xulosa chiqarish qoidalarining buzilishi bilan bog'liq bo'lgan xatolar:

a) Deduktiv xulosa chiqarishda uchrashi mumkin bo'lgan mantiqiy xatolar. Bu haqida deduktiv xulosa chiqarish mavzusida batafsil ma'lumot berilgan.

b) Induktiv xulosa chiqarishda uchrashi mumkin bo'lgan mantiqiy xatolar. Bular «shoshib umumlashtirish» va «undan keyin, demak shuning uchun» deb ataluvchi xatoliklardir. Masalan, bir-ikki talabaning darsga masuliyatsizlik bilan munosabatda bo'lishini umumlashtirib, «hamma talabalar mas'uliyatsiz», deb ta'kidlash xatodir.

v) Analogiyada uchrashi mumkin bo'lgan mantiqiy xatolar. Bular «yolg'on analogiya» bilan bog'liq xatolardir. Unda tasodifiy belgi zaruriy deb olinishi, faqat birgina o'xshash belgiga asoslanishi yoki mutlaqo taqqoslab bo'lmaydigan hodisalar o'zaro taqqoslanishi natijasida fikrda chalkashliklar yuzaga keladi.

Mantiqiy xatolar tafakkur qonunlarini buzish, xulosa chiqarish qoidalariga amal qilmaslik natijasida yuzaga keladi. Mantiq tarixida isbotlash jarayonida ataylab (qasddan) xatoga yo'l qo'yuvchilar sofistlar deb, ularning ta'limoti esa **sofizm (grek.-ayyorlik)** deb ataladi. Fikr yuritish jarayonida bilmasdan mantiqiy xatoga yo'l qo'yilsa, **paralogizm** deyiladi. Chinligini ham, xatoligini ham birday isbotlash mumkin bo'lgan fikrlar esa, **paradoks** deb ataladi.

Bahs yuritish san'ati (eristika) o'ziga xos qonun-qoidalarga amal qilishni talab etadi.

Bularga asosan quyidagilar kiradi:

— zaruriyatsiz bahslashmaslik;

— mavzusiz bahs yuritmaslik va bahs davomida mavzudan chetga chiqmaslik yoki mavzuni o'zgartirmaslik;

— bahs mavzusi yuzasidan o'zaro zid yoki qarama-qarshi fikrlar bo'lmasa, bahsni to'xtatish;

— mavzuni yaxshi biladigan,aqlli odamlar bilangina bahslashish;

— bahs yuritishda mantiqiy qonun-qoidalarga amal qilish, o'zining va muxolifining fikrlaridan xulosa chiqara olish, mantiqiy ziddiyatlarni aniqlash va bartaraf etish,asoslar to'g'ri bo'lsa, isbotlashning ham to'g'riligini e'tirof etish va x.k.

— bir bahs doirasida bahslashish usullarini aralashtirib yubormaslik.

Argumentlashning mantiqiy asoslarini bilish va bahs yuritish qoidalariga amal qilish tafakkur madaniyatini yuqori darajaga ko'tarish imkonini beradi.

4. Bilishning maqsadi qayd qilingan hodisalarning mohiyatini tushuntirishdan iborat. Buni hamma vaqt ham mavjud tasavvurlar, prinsiplar yordamida amalga oshirib bo'lmaydi. Bilish jarayonida ma'lum bir ziddiyatlar, birinchi navbatda, mavjud bilimlarimizning erishgan darajasi bilan yangi bilish vazifalarini hal qilish zaruriyati o'rtasida ziddiyat kelib chiqadi, muammoli vaziyat paydo bo'ladi. Bunday ziddiyatlar,ayniqsa, kundalik hayotimizda murakkab vazifalarni hal qilishda, fanda esa, tub burilishlar davrida yaqqol namoyon bo'ladi. Mana shunday vaziyat, masalan, tabiyotshunoslikda XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida radioaktivlik hodisasining qayd qilinishi, elektronning kashf etilishi, nurlanishning kvant xarakterga egaligining asoslanishi va shu kabi kashfiyotlar natijasida vujudga kelgan. Uning mohiyatini tabiyotshunos-

likning, birinchi navbatda, fizikaning mavjud qonunlari va prinsiplarining yangi qayd qilingan hodisalarni tushuntirish uchun yetarli emasligida, deb bilmoq zarur.

Shuni ham aytish kerakki, ilmiy bilishda muammoli vaziyatni fan taraqqiyotining ichki ehtiyojlari ham keltirib chiqarishi mumkin. Masalan, hozirgi paytda fanda sinergetika g'oyalari va metodlarini tushuntirish, matematikada aksiomatikaning imkoniyatlari va qo'llanish sohalarini aniqlash bilan bog'liq bo'lgan vazifalarni hal qilish zaruriyati yangi vaziyatni yaratadi.

Demak, muammoli vaziyat mavjud ilmiy tasavvurlar bilan qayd qilingan yangi faktlar o'rtasidagi ziddiyatning paydo bo'lishi yoki ana shu ilmiy tasavvurlarning o'zining yetarli darajada sistemaga solinmaganligi, yaxlit bir ta'limot sifatida asoslanmaganligi natijasidir.

Mana shundan kelib chiqib, muammoli vaziyat bilish taraqqiyotning turli bosqichlari va bo'g'inlarida olam va uni bilish haqidagi mavjud tasavvurlarni, bilish metodi va vositalarini o'zgartirishning obyektiv zaruriyatidan iborat, deyish mumkin.

Ilmiy muammoni qo'yish va hal qilish.

Muammoli vaziyatni tahlil qilish yangi muammoni qo'yishga olib keladi.

Muammo — javobi bevosita mavjud bilimda bo'lmagan va yechish usuli noma'lum bo'lgan savoldir.

Shuning uchun ham muammoni qo'yish va hal qilish mavjud bilimlar doirasidan chetga chiqishni, yangicha yechish usuli, metodlarini qidirishni taqozo etadi. Qanday muammolarni ilgari surishni, uni muhokama qilishning xarakterini amaliy faoliyatimiz va bilishimiz ehtiyojlari belgilab beradi.

Muammoni muvaffaqiyatli hal qilishning zarur shartlaridan biri uni to'g'ri qo'yish va aniq bayon qilishdan iborat. To'g'ri

qo'yilgan savol, V. Geyzenberg aytganidek, muammoni yechishning yarmidan ko'prog'ini tashkil etadi.

Muammoni to'g'ri qo'yish uchun muammoli vaziyatni aniq tasavvur qilishning o'zi yetarli emas. Buning uchun muammoni hal qilishning turli xil usullari va vositalarini ham oldindan ko'ra bilish kerak.

Muammolarni qo'yishda kishilarning hayotiy tajribasi, bilimlari va talanti muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Shuning uchun ham, odatda ko'p hollarda yangi muammolar ilmiy bilishning u yoki bu sohasining yirik mutaxassislari, boy tajribaga ega va chuqur bilimli olimlari tomonidan ilgari suriladi hamda ular ba'zan uzoq yillar davomida tadqiq qilinadi. Buni masalan, milliy g'oya va milliy mafkurani yaratish muammosining qo'yilishi va tadqiq etilishi misolida ko'rish mumkin. Jahon tajribasiga murojaat qilsak, «millatning mafkurasi bir emas, balki bir necha avlodning umri davomida ishlab chiqilishi va takomilga erishuviga guvoh bo'lishimiz mumkin» .

Uni shakllantirish uchun kuchli ist'edod va «yorqin tafakkur»ga ega bo'lgan Konfutsiy, Maxatma Gandi, Forobiy, Baxouddin Naqshband kabi buyuk zotlar zaxmat chekkanlar.

Hozirgi paytda esa, Birinchi Prezident I.A. Karimov ta'kidlanganidek, «Milliy g'oya, milliy mafkurani ishlab chiqish, uni shakllantirish uchun har qaysi millatning eng ilg'or vakillari, kerak bo'lsa, mutafakkirlari, ziyolilari mehnat qilishi lozim» .

Muammoli vaziyatni analiz qilishga turli xil munosabatda yondashish mumkin bo'lganligi uchun ham, hal qilinishi lozim bo'lgan vazifa turli xil muammolar tarzida bayon qilinishi mumkin. Bunda ba'zi muammolar asosiy vazifani ifoda qilsa, ba'zilari bu vazifaning ayrim tomonlarini aks ettiradi va shuning uchun ham juz'iy xarakterga ega bo'ladi. Ko'p hollarda bir-biri bilan bog'lanib ketgan mana shunday juz'iy muammolar hal

qilingandan keyingina asosiy muammoni aniqroq bayon qilish va yechish imkoniyati vujudga keladi.

Muammolarni to'g'ri qo'yish va bayon qilish ularni yechishdan kam ahamiyatga ega emas. Muammoni to'g'ri qo'yish uchun uning ilmiy bilish taraqqiyotida tutgan o'rni va ahamiyatini to'g'ri baholash, uni hal qilishning metodlarini topish zarur. Bu amalda qo'yilishi mumkin bo'lgan turli xil muammolar ichidan eng muhimi va to'g'risini tanlab olishni bildiradi. Muammoni tanlash ma'lum bir darajada tadqiqotning umumiy yo'nalishini va xususiyatlarini belgilab beradi.

Oxir-oqibatda qaysi muammoni qo'yish amaliy faoliyatimiz ehtiyojlariga bog'liq. Chunki faqat amaliy faoliyatdagina kishilarning ehtiyojlari va maqsadlari bilan ularni hal qilish vositalari o'rtasidagi ziddiyat yaqqol namoyon bo'ladi, ilmiy izlanish predmeti aniqlanadi va shu asosda bilish oldiga konkret vazifalar qo'yiladi.

Ilmiy muammo, odatda, ma'lum bir nazariya doirasida vujudga keladi (Nazariya haqida ma'ruzaning oxirida kengroq ma'lumot beriladi).

Nazariya keyinchalik ilgari surilishi mumkin bo'lgan muammoni umumiy holda belgilashga va uni to'g'ri tanlashga yordam beradi. Shuningdek, har bir muammo ma'lum bir nazariya yordamida hal qilinadi. Ba'zi hollarda esa, muammo mavjud nazariyani modifikatsiya qilishni, muammoni yechishga moslashtirishni talab qiladi.

Muammoni yechish uchun dastlabki tayyorgarlik ishlari qilinadi. Ular quyidagilardan iborat:

a) mavjud nazariyalar doirasida tushuntirib bo'lmaydigan fakt va hodisalarni aniqlash;

b) muammoni hal qilish g'oyalari va metodlarini tahlil qilish va ularga baho berish;

v) muammoni hal qilish tipini, maqsadini, olingan natijani tekshirish yo'llarini belgilash;

g) muammoning negizi bilan uni yechish uchun ilgari surilgan g'oyalar o'rtasidagi aloqaning xususiyatlarini ko'rsatish.

Bu dastlabki ishlar amalga oshirilib bo'lgandan keyin muammoni yechishga bevosita kirishiladi.

Shuni alohida qayd qilib o'tish kerakki, muammoning yechilishi nisbiy xarakterga ega. Boshqacha aytganda, muammoning mutlaq to'la yechimini topish qiyin, chunki o'rganilayotgan hodisaning barcha tomonlarini qamrab olib bo'lmaydi. Shuning uchun ham ilmiy izlanish davomida yangi muammolar vujudga kelishi mumkin bo'lib, u mavjud muammoni boshqacha talqin qilishni taqozo etadi. Bunga misol qilib I. Nyuton tomonidan jismlarning o'zaro tortishishi muammosining qo'yilishini ko'rsatish mumkin. Butun olam tortishish qonunini kashf qilib, u faqat tortishuvchi jismlar o'rtasidagi miqdoriy aloqalarnigina topganligini, uqtirib o'tgan edi.

A. Eynshteynning nisbiylik nazariyasi jismlarning o'zaro tortishishi muammosini boshqacha talqin qiladi va bu muammo haqidagi tasavvurlarimizni ma'lum bir darajada kengaytiradi.

Jismlarning o'zaro tortishishining tabiati,amalga oshish mexanizmi hozirgacha to'la ochib berilmagan. Boshqacha aytganda, muammo uzil-kesil hal bo'lmagan.

Ba'zi hollarda muammolarning yechimini uzoq vaqtgacha topib bo'lmaydi. Masalan, rak kasalining sababini o'rganish bilan bog'liq muammo hozirgacha to'la hal bo'lmagan.

Bu,albatta,ayrim muammolar butunlay yechimiga ega emas, degan fikrni bildirmaydi, balki ularni mavjud metodlar, vositalar yordamida yechib bo'lmaslikni ko'rsatadi, xolos va shu tariqa yechishning yangi vositalarini qidirib topishga undaydi. Demak, muammo hal qilinmaguncha ilmiy izlanish davom etadi.

5. Muammoni hal etish jarayonida ma'lum bir **gipotezalar** ilgari suriladi vaasoslanadi.

Gipoteza-o'rganilayotgan hodisaning sabablari va xususiyatlarini tushuntiradigan asosli taxmin tarzidagi bilim shaklidir.

Gipotezani,avvalambor, bilimlarning mavjud bo'lim shakli sifatida olib qarash zarur. Chin, ishonchli bilimlar hosil bo'lgunga qadar qo'yilgan muammolar, masalalar haqidagi fikr-mulohazalar kuzatish, eksperiment natijalarini tahlil qilish va umumlashtirishga asoslangan bo'lib, ular turli xil taxminlar, farazlar shaklida quriladi va mavjud bo'ladi.

Masalan, Levkipp va Demokritning jismlarning atomlardan tashkil topganligi xaqidagi bildirgan fikrlari dastlab gipotetik shaklda bo'lib, eng oddiy, kundalik tajribada minglab marta kuzatiladigan hodisalar: qattiq jismning suyuqlikka aylanishi, hidning tarqalishi va shu kabilarni tahlil qilishga asoslangan, ularning sababini tushuntirishga qaratilgan. «Jismlar mayda, bo'linmas zarrachalardan tashkil topmaganda bunday hodisalar bo'lmas edi», degan fikr o'zining ma'lum bir mantiqiy kuchiga ega.

Hodisaning sababi haqidagi fikr dastlab, odatda, gipoteza shaklida vujudga keladi va shu ma'noda u bilimlarning mavjud bo'lishining umumiy mantiqiy shakllaridan biri hisoblanadi.

Gipotezani qurish, o'rganilayotgan hodisani tushuntiradigan taxminiy fikrlarni ilgari surishdan iborat bo'ladi. U qayd etilgan faktlar, ular uchun xarakterli bo'lgan qonuniyatlar haqidagi hukmlar (mulohazalar) yoki hukmlar sistemasi tarzida bo'ladi. Uni ifoda qiluvchi asosiy gap mulohazalar sistemasini hosil qiluvchi element, deb hisoblanadi. Ana shu gap (mulohaza) da, odatda, gipotezaning bosh g'oyasi aks etadi. Muhokama jarayoni uning negizida,atrofida quriladi va ma'lum bir ishchi gipotezalar-

vaqtincha quriladigan, mo'ljalni to'g'ri olishga yordam beradigan taxminlarning ilgari surilishiga, ular yordamida hodisaning yanada chuqurroq tadqiq qilinishiga olib keladi.

Gipotezalarni ilgari surishning asosiy mantiqiy vositasi ehtimoliy xulosa chiqarish:analogiya, to'liqsiz induksiya, turli ko'rinishdagi ehtimoliy sillogizmlar-eng kamida bitta qoidasi buzilgan,asoslaridan biri ehtimoliy hukm bo'lgan **sillogizmlar (shartli,ayiruvchi-qat'iy, shartli ayiruvchi sillogizmlar shakllarida)** hisoblanadi.

Shuningdek, gipoteza ba'zi hollarda qat'iy xulosa chiqarish shakllarida hamda turli xil xulosa chiqarish usullarining ko'p qavatli mantiqiy qurilmasi tarzida ham shakllantirilishi mumkin.

Gipotezada ilgari suriladigan mulohaza empirik materiallarni tahlil qilish, qayta ishlash, tartibga keltirish, umumlashtirish, talqin etish natijasida paydo bo'ladi. Ana shuning uchun ham gipoteza-bu har qanday taxmin emas, balki ma'lum bir darajada asoslangan, o'zining muayyan mantiqiy kuchiga ega mulohaza, farazdir.

Gipoteza qurishning murakkab mantiqiy jarayon ekanligini quyidagi misol tasdiqlaydi. Issiqlik dvigatellari nazariyasi asoschilaridan biri fransuz injeneri Sadi Karno birinchi bo'lib, faqat issiqlikning qattiqroq qizigan jismdan sovuqroq jismga o'tishidagina foydali ish vujudga kelishi, va,aksincha, issiqlikni sovuq jismdan qizdirilgan jismga berish uchun ish sarflanishi zarur, degan fikrni ilgari surgan. Ayni paytda Karno shu davrda keng tarqalgan, issiqlikning namoyon bo'lish sababi uning tarkibida alohida vaznsiz suyuqlik-**teplorodning** bo'lishidir, degan fikrga tayanuvchi teplorod konsepsiyasini ham to'g'ri, deb hisoblagan. Teplorodni suvga, haroratlar (temperaturalar) o'rtasidagi farqni – suv darajasiga qiyos qilib, Karno, xuddi suv darajasining pastga tushishida ish suv og'irligining uning darajalari

o'rtasidagi farqga bo'linishi bilan o'lchangani kabi, bug' mashinasida ish, ishchi moddaning (suv, spirt va boshqalar) tabiatidan qat'iy nazar, teplorod miqdorining xaroratlar (temperaturalar) farqiga bo'linishi bilan o'lchanadi, degan xulosaga keladi. Bu issiqlik mashinasining ish hajmining (miqdorining) isitgich va sovutgich xaroratlarining qiymatlariga bog'liqligini anglatardi. «Karno prinsipi» keyinchalik termodinamikaning ikkinchi qonunining yaratilishiga asos bo'lgan.

Keltirilgan misolda Sadi Karnoning gipotezani ilgari surishda analogiyaga asoslanganligini payqab olish qiyin emas.

Ilgari surilgan gipoteza,albatta,asoslanishi zarur. Bu bosqichda gipotezadan ma'lum bir natijalar keltirib chiqariladi va ular verifikatsiya qilinadi, ya'ni ularning mavjud faktlarga (yoki boshqa ishonchli bilimlarga) muvofiqligi aniqlanadi.

Bu yerda shuni unutmaslik lozimki, gipotezani ishonchli, chin bilimga aylantirish uchun unda ilgari surilgan fikrlarga yetarli asos bo'la oladigan miqdordagi natijalar (gipotezaning asosiy g'oyasidan kelib chiqadigan) yig'indisi verifikatsiya qilinishi kerak.

Gipotezaning chinligini asoslashning boshqa usullari ham mavjud:

1) gipotezani deduktiv yo'l bilan chinligi avval isbotlangan bilimlardan mantiqan keltirib chiqarish;

2) asosi ishonchli bilim bo'lmasa, uni tasdiqlash (bu ko'proq asoslari ehtimoliy hukm bo'lgan sillogizmlar vositasida qurilgan gipotezalarga tegishli);

3) gipotezaning asoslarini ishonchli bilim olish uchun yetarli bo'lgan miqdorga yetkazish (bu gipoteza to'liqsiz induksiya vositasida qurilgan hollarga tegishli).

Gipotezani tasdiqlashning qanday kechishini tasavvur qilish uchun quyidagi misolga murojaat qilamiz.

Termodinamika asoschilaridan biri nemis fizigi R. Klauzius yuqorida biz qayd etib o'tgan «Karno prinsipi»ni unga qilingan ko'p hujumlardan ximoya qilgan. Bu prinsipni tasdiqlash maqsadida, uni chinligi intuitiv ravishda muqarrar deb hisoblangan postulatdan deduktiv yo'l bilan keltirib chiqaradi. Bu postulatga muvofiq, issiqlik o'z holicha sovuqroq jismdan issiqroq jismga o'ta olmaydi. Bu yerda urg'u aynan ana shu «o'z holicha o'ta olmaslikka» beriladi, chunki amalda «majburan» o'tish ham (sovutish qurilmalarida,aralashmalarda va boshqalarda) mavjud bo'lib, u muayyan kompensatsiya qiluvchi (o'rnini qoplovchi) holatning yuzaga kelishi bilan birgalikda kechadi.

Gipoteza rad qilinishi ham mumkin. U gipotezadan kelib chiqadigan natijalarni falsifikatsiya qilish, ya'ni ularning borliqdagi hodisalarning mavjud holatiga, faktlar haqidagi ma'lumotlarga nomuvofiqligini ko'rsatish yo'li bilan aniqlanadi. Mazkur mantiqiy jarayon shartli-qat'iy sillogizmning inkor modusi tarzida kechadi, ya'ni natijaning xatoligini aniqlashdan asosning xatoligini ko'rsatishga o'tiladi.

Gipotezaning natijalarini topa olmaslik, garchi bu gipotezaning mavqeni ancha pasaytirsa-da, lekin uni rad eta olmaydi. Gipotezaning chinligi undan kelib chiqadigan natijalarga zid bo'lgan holatlar aniqlangandagina uzil-kesil rad etiladi. Masalan, Ptolomeyning Yerning harakatlanmaydigan markaz ekanligi haqidagi gipotezasi Kopernikning geliotsentrik nazariyasi asoslanadigan faktlarga zid kelganidan keyin rad etildi.

Shuni alohida ta'kidlash zarurki, o'rganilayotgan hodisa haqida bir vaqtning o'zida bir qancha gipotezalar ilgari surilishi mumkin. Masalan, hozirgi paytgacha qushlar uchayotganda to'g'ri yo'lni qanday topa olishini mavjud gipotezalardan hech

biri to'liq tushuntira bera olmagan. Ularda turli xil fikrlar bildirilgan: qushlarni ba'zilar magnit maydoniga, boshqalar Quyoshga, yulduzlarga qarab mo'ljal olishadi, deb hisoblashgan. Ukraina olimlari esa 1980-yillarning ikkinchi yarmida qushlar o'z harakati marshrutlarini Yerning gravitatsiya maydoniga asoslanib, shu marshrut davomida og'irlik kuchining o'zgarishini «hisoblab» belgilashadi, degan fikrni bildirganlar. Lekin hozirgacha ularning birortasi uzil-kesil tasdiqlanmagan ham, rad etilmagan ham.

Gipoteza tasdiqlanmaguncha o'zining bilishdagi ahmityatini yo'qotmaydi. Rad etilsa, o'rniga boshqa gipoteza quriladi va bu hol to gipotezalardan birortasi tasdiqlanmaguncha davom etadi.

Ilgari surilayotgan gipotezalar turli hil darajada umumlashgan bo'lishi mumkin. Ana shunga muvofiq holda umumiy va juz'iy gipotezalarni ajratish mumkin.

Umumiy gipoteza deb tabiat, jamiyat, bilish hodisalarining qonuniyatlari haqida bildirilgan asosli taxminga aytiladi. Bunga misol qilib neftning kelib chiqishining organik va noorganik tabiati haqidagi gipotezalarni, Yerda hayotning paydo bo'lishi, ongning kelib chiqishi, ijtimoiy progress haqidagi farazlarni ko'rsatish mumkin. Umumiy gipotezalar borliqning muhim qonuniyatlarini ochishga imkon bergani uchun, ilmiy nazariyani «qurish materiallari», deb hisoblanadi. Isbotlangach, bunday gipotezalar nazariyalarga aylanadilar va ilmiy tadqiqotlarning strategik yo'nalishlarini belgilab beradilar.

Juz'iy (xususiy) gipoteza ayrim faktlar, konkret predmet va hodisalarning kelib chiqishi, xususiyatlari haqidagi bildirilgan asosli taxminiy fikrdan iborat. Konkret jinoyatning motivi haqidagi sud versiyasi,arxeologik qazishlarda topilgan predmetlarning tabiati, qaysi davrlarga oid ekanligi haqidagi taxminlar juz'iy gipotezaga misol bo'ladi.

Mantiqda, yuqorida zikr etilib o'tilganidek, ishchi gipotezalar ham farq qilinadi.

Ishchi gipoteza – tadqiqotning dastlabki bosqichida ilgari suriladigan taxmin bo'lib, o'z oldiga o'rganilayotgan hodisaning sababini aniqlashni maqsad qilib qo'ymaydi; u faqat kuzatish va eksperiment natijalarini tasvirlashga, tartibga solishga yordam beradi.

Shunday qilib, gipoteza fikrlarimizning qurilishi, bilimlarimizning mavjud bo'lish va rivojlanish shaklidir.

6. «Nazariya» termini keng ma'noda aqliy bilish, tafakkurni anglatadi, uni amaliyotdan farq qiluvchi faoliyat turi sifatida ifodalaydi. Tor ma'noda esa, nazariya ma'lum bir sohaga oid tasavvurlar, tushunchalar, g'oyalar, gipotezalarni sistemaga soladigan, predmetni ratsional tarzda anglashga imkon beradigan bilim shaklini bildiradi.

Nazariyaning bunday talqini ilmiy bilishda empirik va nazariy bosqichlarning farq qilinishi bilan bog'liq.

Empirik bosqichda ilmiy faktlar to'planadi, o'rganiladi, sistemaga solinib, turli xil jadvallar, sxemalar, garfiklar tuziladi; muayyan bir umumlashmalar, xususan, empirik tushunchalar, farazlar, empirik qonunlar shakllanadi.

Ilmiy bilishning keyingi taraqqiyoti empirik bilish bosqichida hosil qilingan, lekin bir-biri bilan bo'lgan aloqasi hali aniqlanmagan bilimlar o'rtasida munosabatlarni o'rnatish, ularni umumlashtirish, shu asosda yangi fundamental tushunchalar, umumiy qonunlarni yaratish, ilmiy bashoratlar qilish bilan uzviy bog'liq.

Bilishning bu ikki bosqichi o'rtasida zaruriy aloqadorlik mavjud. Xususan, nazariyani yaratish empirik bilish jarayonida hosil qilingan predmetning ayrim tomonlari, hususiyatlarini aks ettiruvchi tushunchalar, qonunlar, farazlar o'rtasida mantiqiy

aloqalarni o'rnatishga, predmet haqida yaxlit tasavvur hosil qilishga, uning mohiyatini tushuntirishga bo'lgan ehtiyoj bilan belgilanadi.

Nazariya-ma'lum bir predmet sohasiga oid tushunchalar, qonunlar, gipotezalar, g'oyalarni sistemaga solib, u haqida yaxlit tasavvur hosil qiladigan, yangi fundamental umumlashmalar yaratishga olib keladigan, shu sohadagi hodisalarni tushuntirish, oldindan ko'rish imkonini beradigan ishonchli bilimdan iborat.

Ilmiy nazariya quyidagi tarkibiy qismlardan tashkil topadi:

1) empiric asos: nazariyaga aloqador faktlar, ularga mantiqiy ishlov berish natijalari;

2) boshlang'ich nazariy asos: nazariyaning asosiy tushunchalari, postulatlari (aksiomalari), fundamental qonunlar (prinsiplar);

3) nazariyaning mantiqiy apparati: tushunchalarni hosil qilish va ta'riflash qoidalari, xulosa chiqarish (isbotlash) qoidalari;

4) olingan natijalar (xulosalar).

Ilmiy nazariya oxir-oqibatda real sistemani, obektni aks ettiradi, uning tabiatini tushuntiradi va shu ma'noda o'zining empiric asosiga ega. Lekin empiric asosining mavjudligi nazariyaning barcha tushunchalari ifoda etadigan predmet va belgilarning hissiy idrok qilinishi yoki nazariyaning barcha hollarda mavjud hodisalarni, ularning real xususityalari va munosabatlarini aks ettrishini anglatmaydi.

Nazariyada borliq,asosan, modellar yordamida ideallashgan holda in'ikos qilinadi. Ideallashtirish jarayonida mavjud obektlar haqidagi empirik bilimga tayangan holda, haqiqatda mavjud bo'lmagan va ba'zan mavjud bo'lishi mumkin ham bo'lmagan, lekin real mavjud predmetlarga ma'lum bir munosabatda o'xshash obektlar haqidagi tushunchalar hosil qilinadi. Masalan,

mexanika yechimini qidiradigan ko'p masalalarda jismning shakli va o'lchamlari (eni, bo'yi, hajmi va shu kabilar) unchalik muhim ahamiyatga ega emas. Ayni bir paytda massa muhim ahamiyatga ega va shuning uchun ham massasi bir nuqtaga jamlangan xayoliy jism-moddiy nuqta hosil qilinadi.

Barcha real mavjud jismlar shaklga va o'lchamlarga ega, moddiy nuqta esa ideal obekt bo'lib, ba'zi masalalarni yechishda real jismlarning o'rnini bosadi, ularning nazariy bilishdagi ekvivalenti bo'lib xizmat qiladi. Fizikadagi mutlaq qattiq jism, geometriyadagi nuqta, tekislik, to'g'ri chiziq va boshqa fanlardagi shu kabi ko'p tushunchalar ideal obektlarni ifoda qiladilar.

Ideal obektlar yordamida predmetning hissiy idrok etilmaydigan muhim xususiyatlari, munosabatlari o'rganiladi. Ularsiz nazariy bilish o'z oldiga qo'yadigan maqsadiga erisha olmaydi. Nazariy bilishning zaruriy vositasi bo'lganligi uchun ularni ba'zan nazariy obyektlar deb ham atashadi.

Nazariya ideal xarakterga ega bo'lgan tushunchalar, mulohazalar sistemasidan-konseptual sistemadan iborat bo'lib, u real obektning nazariy modelini ifoda qiladi. Masalan, mexanikadagi boshqa sistemalar ta'siridan ajratib qo'yilib, yopiq sistema tarzida fikr qilinadigan mexanik sistema tushunchasi real obektning nazariy modeli hisoblanadi. Uning yordamida real mavjud bo'lgan mexanik sistemaning harakat qonunlari o'rganiladi.

Nazariy modelning ideal xarakterga ega bo'lgan obektlari, ularni aks ettiruvchi tushunchalar o'rtasidagi aloqadorlik nazariyaning fundamental qonunlari, prinsiplarida o'z ifodasini topadi.

Mazkur qonunlar, prinsiplar boshlang'ich tushunchalar va mulohazalar bilan birgalikda nazariyaning konseptual o'zagini tashkil etadi. Masalan, klassik mexanikaning negizini harakatning

uchta qonuni hamda ular bilan bog'liq bo'lgan fazo, massa, vaqt, kuch, tezlik, tezlanish tushunchalari tashkil eatdi. Klassik termodinamikaning asosini esa uning uchta muhim qonuni hosil qiladi. Matematik nazariyalarning konseptual o'zagi ularning asosiy tushunchalari va aksiomalarida o'z ifodasini topgan.

Har bir nazariya o'zining tushunchalarini hosil qilish, ta'riflash qoidalariga ega. Bunga misol qilib formallashgan tilni yaratish qoidalari (3-mavzuga qarang), mulohazalr mantig'ini natural xulosa chiqarishi sistemasi sifatida qurish qoidalarini (7-mavzuga qarang) ko'rsatish mumkin. Xuddi shuningdek, har qanday nazariya xulosalar tarzidagi o'z natijalariga ega.

Demak, ilmiy nazariyaning strukurasida uning har bir elementi o'z o'rniga ega.

Ilmiy nazariya bilishda bir qancha muhim vazifalarni bajaradi.

Birinchidan, nazariyada birorta sohaga oid barcha bilimlar yaxlit bir sistemaga birlashtiriladi. Bunday sistemada, odatda, bilimlarning katta qismini nazariyaning nisbatan kamroq bo'lgan boshlang'ich tushunchalaridan keltirib chiqarishga harakat qilishadi. Ular matematikada aksiomalar, tabiyotshunoslikda-gipotezlar, deb yuritiladi. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad-qayd etilgan faktlarni ayrim boshlang'ich prinsiplar, ginotezalarning natijasi sifatida talqin etish. Nazariy sistemada har bir fakt, har bir tushuncha, har bir qonun yoki faraz boshqalariga nisbatan o'z o'rniga ega bo'lishi,ana shundan kelib chiqib interpretatsiya qilinishi, ya'ni talqin qilinishi (yoki qayta talqin qilinishi) zarur.

Talqin etish jarayonida mavjud nazariyalar, yangidan qurilayotgan nazariyaning elementlariga murojaat qilinadi. Bu esa, bir tomondan, mavjud faktlarning tabiatini to'g'ri tushunishga yordam bersa, ikkinchi tomondan, bevosita empirik usul

yordamida qayd etib bo'lmaydigan yangi faktlarni topishga imkon beradi.

Ikkinchidan, nazariyani qurish berilgan sohaga oid bilimlarni aniqlashtirish, kengaytirish va chuqurlashtirishga yordam beradi. Buning sababi shundaki, nazariyaning boshlang'ich asoslari- aksiomalar, postulatlar, qonunlar, prinsiplar, gipotezlar nazariyadagi boshqa ilmiy bilimlarga nisbatan mantiqan kuchliroq hisoblanadi. Ana shuning uchun ham nazariyani qurish mavjud biliimlarni tartibga solishdan, ya'ni koordinatsiya qilishdangina iborat bo'lib qolmaydi. Bunda mantiqan kuchli bilimlardan mantiqan kuchsiz bilimlar keltirib chiqariladi, ya'ni subordinatsiya qilinadi. U esa, mazmunan chuqurroq bo'lgan tushunchalar, qonunlar, prinsiplarga murojaat qilishga, ular yordamida mavjud tushunchalarni talqin etishga, yangi fundamental umumlashmalar hosil qilishga olib keladi. Masalan, Nyutonning harakatning uchta qonuni hamda butun olam tortishish qonuniga tayanadigan klassik mexanikasi Galileyning jismlarning erkin tushushi qonuni va Keplarning planetalar harakati qonunini tushuntirish va aniqlashtirish imkonini berdi. Xususan, Galiley qonunining jismning gravitatsiya kuchi ta'sirida harakat qilishining juz'iy holini ifoda etishi ma'lum bo'ldi. Gravitatsiya ta'siridan tashqarida, ya'ni yer radiusi uzunligidan ortiq bo'lgan masofada Galiley kashf etgan qonunamal qilmaydi. Xuddi shuningdek, Keplerning Quyoshatrofida harakat qiluvchi planetaning elliptik orbita bo'yicha harakat qilishi qonunining boshqa planetalarning ta'sirini hisobga olmasligi vaana shuning uchun ham unchalikaniq emasligi ma'lum bo'ldi.

Uchinchidan, nazariya o'rganilayotgan hodisani ilmiy asosda tushuntira oladi. To'g'ri, birorta hodisani tushuntirish uchun, odatda, uni xarakterlaydigan qonunga murojaat qilishadi. Lekin shuni yoddan chiqarmaslik zarurki, fanda qonunlar o'z holicha

emas, balki ma'lum bir nazariya tarkibida mavjud bo'ladi. Bunda empirik qonunlar ma'lum bir nazariy qonunlardan keltirib chiqariladi. Hatto alohida olingan nazariy qonun ham hodisani tushuntirish uchun yetarli bo'lmasligi mumkin. Ilmiy tajriba shuni ko'rsatadiki, hodisaning mohiyatini tushuntirish uchun nazariyaning barcha g'oyalari yig'indisi, shu jumladan, qonunlar ham jalb etiladi.

Nazariyaning ilmiy bilishdagi alohida ahamiyati yana uning yangi, ilgari kuzatilmagan hodisalarning mavjudligini oldindan ko'rish imkonini berishidadir. Masalan, Maksvellning elektromagnit nazariyasi radio to'lqinlarining mavjudligini oldindan aytib bergan. Bu to'lqinlarni ancha vaqt o'tgandan keyin G. Gers eksperimental yo'l bilan qayd etgan. Xuddi shuningdek, Eynshteynning umumiy nisbiylik nazariyasi gravitatsiya maydonida yorug'lik nurining og'ishini bashorat qilgan.

To'rtinchidan, ilmiy nazariya o'zida o'rganilayotgan predmet sohasiga oid barcha bilimlar o'rtasida mantiqiy aloqalarni o'rnatgani, yaxlit bir sistemada mujassamlantirgani va umumlashtirgani uchun uning obyektiv haqiqatlik darajasi va, demak, ishonchlilik darajasi, ortadi.

Beshinchidan, nazariya muammoni qo'yish, gipotezalarni yaratish, qonunlarni shakllantirish, g'oyalarni ilgari surish va asoslashdan iborat bilishning uzoq va mashaqqatli yo'lini bosib o'tishning natijasi bo'lganligi uchun, u bilishga xos qonunlarni aniqlash, ularni o'rganish imkonini beradi.

Nazariyani qurish murakkab jarayon bo'lib, ko'p hollarda bir qancha olimlarning hamkorlik qilishini taqozo etadi.

Dastlabki bosqichda nazariyaning predmet sohasi va tadqiqot yo'nalishi aniqlanadi. Amaliy hayotimiz ehtiyojlari, u bilan uzviy bog'liq bo'lgan tadqiqot maqsadi va vazifalari bunda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, predmet sohasi va

tadqiqot aspektini aniqlashda berilgan sohaga oid bilimlarning ko'lami, chuqurligi katta rol o'ynaydi.

Nazariyani qurishning keyingi zaruriy bosqichi boshlang'ich asosni aniqlashdir. U o'rganilayotgan sohaga oid eng asosiy tushunchalar,aksiomalar, gipotezalar yig'indisidan iborat bo'ladi. Nazariyaning boshqa barcha tushunchalari, gipotezalari va qonunlari ana shu boshlang'ich asosdan deduktiv yo'l bilan keltirib chiqariladi. Bunda,albatta, nazariyaning barcha tushunchalari-asosiylari va keltirib chiqariladiganlari, yangidan hosil qilinadiganlari muhim g'oya (yoki g'oyalar sistemasi) negizida birlashtirilishi kerak.

Tabiiyki, nazariya ma'lum bir metod yordamida, ya'ni metodologik prinsiplar, usullarni qo'llash asosida quriladi.

Qurilgan nazariya bilishning keyingi bosqichlarida aniqlashtiriladi, yangi faktik materiallar asosida mazmunan boyitiladi, qayta talqin qilinadi.

Ilmiy nazariyaning juda ko'p turlari mavjud. Ularni turli xulasoslarga ko'ra klassifikatsiya qilish (turkumlash) mumkin. Xususan, qurilish metodiga ko'ra nazariyalarni to'rtta turga ajratish mumkin:

1) tajriba bilan ish ko'radigan fanlarning mazmundor nazariyalari;

2) gipotetik-deduktiv (yoki yarim aksiomatik) nazariyalar;

3)aksiomatik nazariyalar;

4) formallashgan nazariyalar.

«Mazmundor» nazariyalarda ma'lum bir sohaga oid faktlar sistemaga solinadi, umumlashtiriladi va tushuntiriladi. Ular asosan tajriba natijalari, empirik materiallarga tayanadi, ularni tahlil qiladi, tartibga soladi va umumlashtiradi. Ana shuning uchun ham ularni «tajribaga tayanuvchi nazariyalar», deb atashadi. «Mazmundor» deb atalishiga sabab, ularni matematika

va mantiqdagi formallashgan nazariyalardan farq qilishdir. Mazmundor nazariyalarni sof empirik nazariyalar deb bo'lmaydi. Ular faqat empirik materiallargagina emas, balki nazariy qonunlarga ham tayanadi. Masalan, mazmundor deb hisoblanadigan Ch. Darvinning evolyutsiya nazariyasi, I.P. Pavlovning oliy asab faoliyatining shartli reflektorlik nazariyasi va shu kabilar chuqur nazariy g'oyalarga suyanadi, ular yordamida to'plangan materiallarni ratsional usul bilan anglaydi, qayta ishlaydi va tushuntiradi.

Gipotetik-deduktiv nazariyalar tabiyotshunoslikda uchraydi. U turli xil mantiqiy kuchga ega gipotezalar sistemasidan iborat bo'lib, unda mantiqan kuchlilaridan mantiqan kuchsizroqlari deduksiya qilinadi. Gipotetik-deduktiv sistemani gipotezalar zanjiri (iyerarxiyasi) tarzida olib qarash mumkin. Bunda empiric asosdan uzoqlashgan sari gipotezaning kuchi ortib boradi.

Gipotetik-deduktiv nazariyalarning o'ziga xos jihatlaridan biri undagi gipotezalarning darajalari bo'yicha qat'iy izchil joylashishidir. Gipotezaning darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, xulosalarni mantiqiy yo'l bilan keltirib chiqarishda uning ishtiroki shunchalik ko'p bo'ladi.

Nazariyaning gipotetik-deduktiv modeli empirik materiallarni ishlashda ko'p qulayliklarga ega bo'lishi bilan bir qatorda ayrim kamchiliklardan ham xoli emas. Xususan, boshlang'ich gipotezalar qanday tanlab olinishi kerak, degan savolga haligacha aniq, qat'iy holdagi javob yo'q.

Aksiomatik sistemalarda nazariya elementlarining katta qismi kichkina boshlang'ich asosdan –asosiy aksiomalardan deduktiv yo'l bilan keltirilib chiqariladi. Aksiomatik nazariyalar matematikada quriladi.

Aksiomatik metod birinchi marta Yevklid tomonidan elementar geometriyani qurishda muvaffaqiyatli ishlatilgan. Mazkur

geometriy aning asosiy aksiomatik tushunchalari «nuqta», «to'g'ri chiziq», «tekislik» bo'lib, ular ideal fazoviy obyektlar sifatida olib qaralgan; geometriyaning o'zi esa fizikaviy fazoning xususiyatlarini o'rganuvchi ta'limot sifatida talqin qilingan. Yevklid geometriyasining qolgan barcha tushunchalari ular yordamida hosil qilingan. Quyidagi misolga murojaat qilaylik: «Tekislikdagi bitta nuqtadan baravar uzoqlikda yotadigan nuqtalar to'plamiga aylana deyiladi», unda «aylana» tushunchasi «nuqta va tekislik» tushunchalari yordamida hosil qilingan, ya'ni ulardan deduksiya qilingan.

Matematikaning taraqqiyoti davomida aksiomatik metod takomillashib borgan, uni qo'llash mumkin bo'lgan sohalar doirasi kengaygan. Xususan, asta-sekin Yevklid aksiomalarining faqat geometrik obyektlarnigina emas, balki boshqa matematik va, hatto, fizik obyektlarni ham tasvirlash uchun yaroqli ekanligi ma'lum bo'ldi. Masalan, nuqtani haqiqiy sonlarning uchtasining to'plami, to'g'ri chiziq va tekislikni chiziqli tenglamalarni bildiradi, deb qabul qilinganda, mazkur nogeometrik obyektlar xossalarining Yevklid geometriyasi aksiomalari talablariga javob berishi aniqlangan.

Shuni aytish kerakki,aksiomatikaga bunday abstrakt tarzda yondashishga ma'lum bir darajada N.I. Lobachevskiy, B. Riman va boshqalar noyevklid geometriyalarining yaratilishi yaxshi imkoniyat yaratdi.

Hozirgi zamon matematikasida abstrakt aksiomatik sistemalar keng qo'llaniladi. Bunday sistemalarning muhim xususiyatlari ularning yopiq sistemadan iborat bo'lishi, ya'ni miqdor jihatidan cheklangan aksiomalar, tushunchalar, prinsiplardan tashkil topishi, ular qatoriga ixtiyoriy ravishda,asossiz yang iaksiomalar, tushunchalarni qo'shib bo'lmaslik; sistemalarning mantiqan ziddiyatsiz va ma'lum bir darajada to'la bo'lishi va shu kabilardan

iborat. Ana shuning uchun ham ular uzoq vaqt davomida o'zining barqarorligini saqlaydi, yangi bilim olishning ishonchli vositasi bo'lib qoladi.

Aksiomatika tabiyotshunoslikda ham qo'llaniladi. Tajriba bilan bog'liq bo'lganligi va shuning uchun ham zaruriy ravishda empirik talqinga muhtoj ekanligi sababli tabiyotshunoslikning faqat o'zagini tashkil etadigan tushunchalarnigina aksiomalashtirish mumkin.

Abstrakt matematik strukturalar faqat aksiomatik sistemalardagina emas, balki formallashgan nazariy sistemalarda ham tasvirlanishi va tushuntirilishi mumkin.

Formallashgan nazariyalar mantiqda keng qo'llaniladi. Bunga misol qilib mulohazalar mantig'i, predikatlar mantig'ini ko'rsatish mumkin. Shuningdek, u matematikada ham uchraydi.

Nazariyaning yuqorida biz ko'rib chiqqan tiplari va boshqalari nazariy bilishning muhim vositalari sifatida fanda nihoyatda qadrlanadi. Ular tafakkurning strukturasi va qonuniyatlarini yaxshi bilib olishga imkon beradi.

Tayanch tushunchalar

1. Tezis — chinligi asoslanishi lozim bo'lgan hukm, u isbotlanishining markaziy figurasi hisoblanadi.

2. Argumentlar — tezisning chinligini asoslash uchun keltirilgan hukmlar.

3. Isbotlash usuli — demonstratsiya tezis bilan argumentlar o'rtasidagi mantiqiy aloqadan iborat.

4. Raddiya — isbotni buzishga qaratilgan mantiqiy amaldir.

5. Muammo — javobi bevosita mavjud bilimda bo'lmagan va yechish usuli noma'lum bo'lgan savoldir.

6. Gipoteza — o'rganilayotgan hodisaning sabablari va xususiyatlarini tushuntiradigan asosli taxmin tarzidagi bilim shaklidir.

7. Nazariya — ma'lum bir predmet sohasiga oid tushunchalar, qonunlar, gipotezalar, g'oyalarni sistemaga solib, u haqda yaxlit tasavvur hosil qiladigan, Yangi fundamental umumlashmalar yaratishga olib keladigan, shu sohasidagi hodisalarni tushuntirish, oldindan ko'rish imkonini beradigan ishonchli bilimdan iborat.

Nazorat uchun savollar:

1. Mantiq fani qanday fan sifatida o'rganiladi?

• Mantiq fani nima va uning asosiy vazifalari, funksiyalari qanday?

2. Mantiq fanining rivojlanish tarixi qanday?

• Mantiq fani qanday rivojlanib, o'zining tarixiy bosqichlarini qanday o'tagan?

3. Tafakkur shakllari qanday turlarga bo'linadi va ular qanday ishlaydi?

• Tafakkur shakllari va ular orasidagi farqlar haqida tushuntiring.

4. Mantiq qonunlari va ularning ahamiyati nimada?

• Mantiq fanidagi asosiy qonunlar qanday va ularning jamiyatdagi ahamiyati haqida izoh bering.

5. Formali mantiq va dialektik mantiq o'rtasidagi farqlar nima?

• Formal mantiq bilan dialektik mantiqni solishtirib, ularning farqlarini tushuntiring.

6. Tushuncha qanday mantiqiy usullar yordamida hosil qilinadi?

• Tushunchalar hosil qilishda foydalaniladigan mantiqiy usullar haqida batafsil ma'lumot bering.

7. Tushuncha mazmuni va hajmi o'rtasidagi munosabatni qanday tushunasiz?

• Tushuncha mazmuni va hajmi nima va ular o'rtasidagi munosabatni izohlang.

8. Tushunchalar bilan qanday mantiqiy amallar bajariladi?

• Tushunchalar bilan ishlashda qanday mantiqiy amallar qo'llaniladi?

Nazorat savollari

1. Tafakkur, mantiq ilmining o'rganish obyekti nima?
2. Tafakkur shakllari va qonunlari xaqida gapirib bering.
3. Formal mantiqning predmeti va vazifalari nimalardan iborat?
4. Mantiqni o'rganishning qanday ahamiyati mavjud?.

Adabiyotlar:

1. M.Xayrullaev, M. Haqberdiyev. Mantiq. T., «O'qituvchi», 1993, 1-bob.

Internet saytlari:

1. www.ziyo net.uz
2. www.faylasuf.uz
3. Sports.ru

JAMIYAT FALSAFASI

Reja:

1. Jamiyat tushunchasi, uning mohiyati, mavjudligi va taraqqiyoti omillari.
2. Taraqqiyotning o'zbek modeli-jamiyat rivojining tadrijiy rivojlanish konsepsiyasi, uning asosiy tamoyillari.
3. Jamiyat va oila. Sog'lom avlod tarbiyasi-jamiyat kelajaki uchun harakat.
4. Jamiyatning ijtimoiy tizimdagi o'rni va roli:

Tayanch so'zlar: *Jamiyat, tarix falsafasi, barqarorlik, madaniyat, siyosat, jamiyat va oila, qadriyat.*

Insoniyat azal-azaldan jamoa bo'lib yashaydi. Yer sayyorasi uning abadiy makoni, umumiy Vatanidir. Quyosh tizimidagi ana shu mitti sayyorada yashayotgan odamlar oilasini jamiyat deb atash odat tusiqa kirgan. Demak, umumbashariy ma'noda jamiyat odamzodning umri, xayoti o'tgan hamma davri, joy va hududi bilan bog'liq barcha o'zgarish va jarayonlarni ifoda etadi.

Shu bilan birga, biror davlat hududidagi odamlar xayoti, sivilizasiyaning muayyan davrlaridagi turmushga nisbatan ham ushbu tushuncha qo'llanadi. Har qanday xolda ham, u umumiy tushuncha bo'lib,ayrim odam va aloxida shaxs jamiyat a'zosi deb ataladi.

Jamiyat — tabiatning bir qismi, ya'ni ijtimoiy borlik bo'lib, odamlar uyushmasining maxsus shakli, kishilar o'rtasida amal qiladigan juda ko'plab munosabatlar yigindisi, degani turlicha ta'riflar ham bor. Jamiyat muttasil ravishda rivojlanuvchi, takomillashib boruvchi muraqqab tizimdir. Har bir yangi davrda jamiyat mohiyatini bilish zarurati vujudga keladi. Milliy

mustaqillik tufayli jamiyat mohiyatini yangicha idrok etish ehtiyoji paydo bo'ldi. Prezident Shavkat Mirzieev kator chik'ishlarida jamiyat mohiyatini yangicha tushunishning uslubiy asoslarini yaratichni ta'kidlab o'tdi.

Jamiyat moddiy va ma'naviy omillar birlikidan iborat. Hozirga qadar adabiyotlarda moddiy va ma'naviy hayot bir-biridan keskin farqlanar edi. Moddiy xayot tadqiqiga ko'proq e'tibor berilar. Xolbuki, jamiyatning tub mohiyati uni tashkil etuvchi inson mohiyati bilan uzviy bog'liq. Xuddi inson tanasini uning ruhidan ajratib bo'lmagani singari, jamiyatning moddiy va ma'naviy jixatlarini ham bir-biridan ajratish va ularning birini iqqinchisidan ustun qo'yish mantiqqa ziddir. Prezident Shavkat Mirzieev asarlari va k'ator nutk'larida jamiyatning moddiy va ma'naviy manfaatlarini uyg'unlashtirish ijtimoiy taraqqiyot asosi ekani ta'kidlangan. Inson ma'naviyatini yo'qsaltirish orqaligina iqtisodiy rivojlanishga erishish mumkin. Shuning uchun ham hozirgi davrda aholi ma'naviyatini yo'qsaltirishga, milliy g'oya va mafkura asoslarini shakllantirishga katta e'tibor berilyapti. Zero, kishilar iqtisodiy jixatdan qashshoq bo'lgani uchun ilmsiz bo'lmaydi, balki,aksincha — ilmsiz bo'lgani uchun qashshoq bo'ladi. Shuning uchun yurtimizda xalq ma'naviyatini yo'ksaltirish orqali iqtisodiy farovonlikni ta'minlashga katta e'tibor berilyapti.

Jamiyatning vujudga kelishi. Kishilarni oila bo'lib, jamoa bo'lib uyushishga nima majbur qilgan, degani masala qadim zamonlardanoq ulug mutafakkirlar e'tiborini jalb etgan. Bu masalani diniy tushunish — uni ilohiy kuch, xudo bilan bog'lab izohlashdir.

Dunyoviy qarashlarga ko'ra, odamlar o'zlarining moddiy va ma'naviy extiyojlarini qondirish uchun birgalikda yashashga, jamoa bo'lib birlashishga kunikkan. Kishilar hayotiy tajriba,aql va

tafaqqur tufayli jamiyat bo'lib yashashning qulay,afzal va zarurligini tushungan. Bu jarayonda o'zaro munosabatlarga qirishgan kishilar ana shu munosabatlarni takomillashtirish, yanada rivojlantirish orqali ma'naviy kamolotga erishgan. Bu kishilarni bir-biri bilan yaqinlashtirgan, moddiy va ma'naviy extiyojlarini qondirish imkonini bergan.

Ijtimoiy munosabatlarning amal qilish jarayonida odamlarni uyushtirishning tarixiy shakllari — oila, davlat, jamoa (qishloq, shahar) vujudga kelgan. Odamlar o'rtasida amal qiladigan axloqiy, diniy, ilmiy, falsafiy, huquqiy, iqtisodiy, mafkuraviy kabi munosabatlarning barchasi bir so'z bilan ijtimoiy munosabatlar deyiladi. Ijtimoiy uyushmalar kishilarning moddiy va ma'naviy extiyojlarini qondirishga yordam beradi. Ular mohiyatan inson va jamiyat mavjudligining zarur sharti hisoblanadi. Masalan, oila, davlat, ta'lim-tarbiya, maxalla, Vatan kabi qadriyatlarsiz inson va jamiyat o'z mohiyatini yo'qotadi.

Insonning moddiy extiyojlari oziq-ovqatlar, kiyim-kechak, uy-joy, transport vositalari, o'zini himoyalash, zurriyot qoldirish kabilardan iboratdir. Ma'naviy extiyojlarga olamni bilish, o'zlikni anglash, dunyoqarash, donishmandlikka intilish, bilim, san'at, g'oya, mafkura go'zallik bilan, ma'naviy kamolot yo'lidagi intilishlar kiradi. Insonning asl mohiyati moddiy extiyojlarni madaniy shakllarda qondirilishida yaqqol namoyon bo'ladi. Inson aqlli mavjudot sifatida moddiy extiyojlarini madaniy shakllarda qondirish uchun tabiat va jamiyat mohiyatini bilishga, moddiy va ma'naviy olamni uygunlashtirishga, tabiat va jamiyatni o'z maqsadlariga mos ravishda o'zgartirishga harakat qiladi. Ilm-fan va texnika insonning ma'naviy va moddiy extiyojlarini qondirish quroli, muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Inson yuksak ma'naviyat tufayligina o'z ehtiyojlarini madaniy shakllarda oqilona va tularoq qondirish imkoniga ega bo'ladi.

Mamlakatimizda ma'naviyat masalalariga alohida e'tibor berilayotganining sababi ham ana shunda. Jamiyatning moddiy va ma'naviy xayoti kishilarning moddiy va ma'naviy extiyojlari bilan uzviy bog'liq xolda vujudga keldi.

Jamiyatning moddiy xayotiga quyidagilar kiradi:

- kishilarning yashashi, shaxs sifatida kamol topishi uchun zarur bo'lgan iqtisodiy shart-sharoitlar;
- oziq-ovqat, kiyim-kechak, turar-joy, yoqilg'I, kommunikasiya vositalari;
- moddiy ne'matlar ishlab chiqarish, taqsimlash,ayirboshlash va iste'mol qilish;
- ishlab chiqarish jarayonida kishilar o'rtasida amal qiladigan iqtisodiy munosabatlar majmui;
- moddiy boyliklar, tabiiy zaxiralar.

Jamiyatning ma'naviy xayotiga olamni tushunish, jamiyat va inson tug'risidagi qarashlar, nazariyalar, ta'limotlar, g'oyalar, mafkura, ijtimoiy ong shakllari, ta'lim-tarbiya,axborot vositalari, madaniyat, ilm-fan muassasalari va boshqalar g'iradi.

Jamiyatning moddiy va ma'naviy xayotini boshqarish, kishilar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solishda turli siyosiy institutlar (davlat, siyosiy partiyalar, tashkilotlar, turli uyushmalar) muhim urin tutadi. Jamiyatni boshqarishning siyosiy-huquqiy jixatlari ham muhimdir. Kishilar tamonidan siyosiy va huquqiy bilimlarning chuqur o'zlashtirilishi jamiyatning barqaror yashashi va rivojlanishida muhimah amiyat kasb etadi.

Jamiyat rivoji, kishilarning moddiy va ma'naviy extiyojlari qondirilishida mexnat, mulk va mexnatning ijtimoiy taksimlanishi beqiyos ahamiyatga ega. Mexnatning kishilarning qobiliyatiga qarab ijtimoiy taqsimlanishi natijasida muayyan kasb-kor

bilan shugullanadigan toifalar, guruh, qatlam va sinflar vujudga keladi va ular jamiyat strukturasida o'ziga xos urin egallaydi, jamiyat taraqqiyotiga muayyan xissa qo'shadi.

Jamiyat taraqqiyoti to'g'risidagi nazariyalar. Falsafiy tafakur tarixida jamiyatning mohiyati va rivojlanishiga oid turli nazariyalar mavjud. Xususan, nemis faylasufi Gegel jamiyatning shakllanishi va rivojlanish sabablarini mutlaq ruhning rivojlanishi bilan, L. Feyerbax din bilan bog'lagan, ijtimoiy taraqqiyot sabablarini diniy ong taraqqiyotidan izlagan. Fransuz mutafakkiri O. Kont jamiyatning rivojlanish sabablarini insoniyat ma'naviy taraqqiyotining uch bosqichi (teologik, metafizik, pozitiv bosqichlar) bilan izoxlagan. K.Marks jamiyatning rivojlanish sabablarini sinfiy kurash va inqilobiy o'zgarishlar bilan bog'lagan, barcha ijtimoiy xodisa va jarayonlarni sinfiy nuqtai nazardan tushuntirgan. Ijtimoiy ziddiyatlarni sun'iy ravishda mutlaqlashtirgan va ziddiyatlarni xal etishning asosiy usuli sifatida ijtimoiy inqilobni amalga oshirishni, mulkdorlar sinfini tugatishni taqlif etgan. Ijtimoiy amaliyot bunday nazariyaning bir yog'lama va xato ekanini ko'rsatdi.

Jamiyat taraqqiyoti ko'p bosqichli jarayon ekani tug'risidagi qarashlar AQSh faylasufi O. Toffler tomonidan ilgari surilgan. Bunday qarashga ko'ra jamiyatlar taraqqiyotiga binoan,agrar jamiyat, industrial jamiyat, postindustrial jamiyatga ajratilgan. Adabiyotlarda jamiyat taraqqiyoti borasida sivilizasiyali yondashuv g'oyasi ilgari surilmoqda. Bunday yondashuvga ko'ra har bir xalq o'zining betakror, noyob, o'ziga xos va o'ziga mos turmush tarzini saqlab qolgan xolda, boshqa xalqlar tajribalaridan ijodiy foydalanish orqali ijtimoiy taraqqiyotning o'ziga xos modelini yaratadi.

Jamiyat xayotiga barqarorlik va beqarorlik ham xos. Har bir inson o'z oldiga quygan maqsadlariga erishish uchun osoyishtalik

va tinchlikka muxtoj bo'lgani kabi, jamiyat ham o'z oldiga g'uygan vazifalarni ado etishi uchun ijtimoiy-siyosiy barqarorliqqa extiyoj sezadi.

Barqarorlik – jamiyat taraqqiyotining tadrijiy rivojlanishi, ijtimoiy tizimning muayyan darajadagi bir teg'is faoliyat ko'rsatish imkoniyatidir. U turg'inlik tushunchasidan keskin farqlanadi. Ijtimoiy-siyosiy turginlik tushunchasi jamiyatdagi mavjud siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy tizimning tanazzuli alomatidir.

Jamiyatda barqarorlik begarorlik bilan, ing'iroz gullab-yashnash bilan almashib turishi ham mumkin. Jamiyatning ma'naviy, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy soxalarida muayyan yutuqlarga erishilgach, ijtimoiy imkoniyatlar ruyobga chiqarilib bo'lgach, uning bundan keyingi taraqqiyoti yo'lida yangi muammolar tugiladi va ularni xal etish vazifasi paydo bo'ladi. Jamiyat a'zolarining ma'naviy saloxiyati, milliy psixologiyasi, tabiiy ravishda mavjud siyosiy to'zum kishilarni boshqarishning o'ziga xos usullarini xayotga tadbiq etadi. Insoniyat xayoti tarixida jamiyat barqarorligini ta'minlashning monarxiyaga asoslangan,aristokratik, totalitar va demokratik usullari tajribadan o'tgan.

Beqarorlik ichg'I va tashqi jarayon va taxdidlar natijasida vujudga keladi. Beqarorlik bir ijtimoiy-siyosiy tizimdan boshqa bir ijtimoiy-siyosiy tizimga utish davrida keskinlashishi mumkin. Jamiyat barqarorligining izdan chikishi kishilar psixologiyasidagi salbiy o'zgarishlarda, qonunlarning ishlamasligida, ijtimoiy burchning ado etilmasligida, ijtimoiy ideallarning yo'qolishida, g'oya va mafkuraga loqaydlikning kuchayishida, turli jinoiy guruhlarning paydo bo'lishida, ijtimoiy adolat mezonlarining bo'zilishida, davlat idoralarining aholini boshqarish qobiliyati

kuchsizlanishida, turli ziddiyatlarning keskinlashuvida o'z ifodasini topadi.

Jaxon tajribasi har bir mamlakat va xalqning o'z taraqqiyot yo'lini tanlash huquqiga ega bo'lishi umumiy xavfsizlik va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash garovi eganini ko'rsatdi. O'zbekiston milliy mustaqillikka erishganidan keyin o'z milliy davlatchilik asoslarini mustahkamlash, o'ziga xos va mos taraqqiyot yo'lini tanlash, rivojlanishning o'zbek modelini yaratish imkoniga ega bo'ldi.

Taraqqiyotning o'zbek modeli – jamiyatning tadrijiy rivojlanish konsepsiyasi sifatida. Ijtimoiy rivojlanishning o'zbek modeli insoniyatning rivojlanish borasidagi ilg'or tajribasiga, milliy davlatchilik tajribalarimizga va xalqimiz mentalitetiga tayanadi.

Ijtimoiy rivojlanish borasida xalqlar odatda ikki yo'ldan — inqilobiy va tadrijiy yo'ldan borgan. Insoniyat tajribasi ijtimoiy rivojlanishning keskin inqilobiy o'zgarishlar yo'li nomaqbo'l va yaroqsiz ekanini, jamiyatning tadrijiy (evalyusion) taraqqiyoti barqaror — tabiiy rivojlanish yo'li eganini ko'rsatdi. O'zbekiston Birinchi Prezidenti Islom Karimov ijtimoiy taraqqiyotning tadrijiy yo'li mohiyatini shunday izoxlaydi: «Soxta inqilobiy sakrashlarsiz, evalyusion yo'l bilan normal, madaniyatli taraqqiyotga o'tish tanlab olingan yo'lning asosiy mazmuni va mohiyatidir. Bozor iqtisodi sari buyuk sakrashlar, inqilobiy o'zgarishlar yo'li bilan emas, balki sobitqadamlik va izchilik bilan — bosqichma-bosqich harakat qilish kerak. Har bir bosqichning qancha davom etishi xal qilishi lozim bo'lgan muammolar doirasiga, tashqi omillar ganchalik g'ulay bo'lishiga,aholining mexnat faoliyatiga bog'liqdir»1.

O'zbek modelning asosiy tamoyillari quydagilardir:

- iqtisodning siyosatdan ustuvorligi;

- davlatning bosh islohotchi ekanligi;
- qonun ustuvorligi;
- kuchli ijtimoiy ximoyalash;
- bozor munosabatlariga bosqichma-bosqich, tadrijiy yo'l bilan utish.

O'zbek modelining o'ziga xos xususiyatlari davlatchilik asoslarining, milliy qadriyatlarning qayta tig'lanishi, o'zlikni anglash, umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligi, milliy mentalitetimizga xos xususiyatlarining tiklanishi va rivojlanishi, demokratik qadriyatlarning rivojlantirilishi va inson huquq-larining kafolatlanishi va boshqalarda o'z ifodasini topmoqda.

O'zbek modelining hayotiyligi jaxon jamoatchiligi tamonidan e'tirof qilindi. O'zbekiston tajribasi qator mamlakatlar uchun namuna bo'lib xizmat qilmog'da va uni o'rganishga bo'lgan qiziqish ortib bormog'da. O'zbekona taraqqiyot yo'li ma'naviy xayot va iqtisodiy rivojlanishi bir-biri bilan uzviy bog'liqlikda amalga oshirishda, ma'naviyat, ma'rifat, madaniyatga bo'lgan e'tiborning kuchayishida yaqqol ko'zga tashlanadi. Ma'naviy saloxiyatning kuchayishi, inson intelektual va axloqiy qobiliyatlarining rivojlanishi iqtisodiy rivojlanish uchun puxta zamin yaratadi. Kishilarda yangicha iqtisodiy tafaqqur, tadbirkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishda zamonaviy ilm-fan, texnika va texnologiya asoslarini egallash muhim ahamiyat kasb etadi.

Jamiyat va oila. Jamiyat va oila mohiyatan bir-biri bilan uzviy bog'liq. Oilada jamiyatning tub mohiyati o'z aksini topadi. Shu ma'noda, oilani kichig jamiyat deyish mumkin. Har bir jamiyat a'zosi oila bagrida voyaga yetadi, ijtimoiy munosabat-larni o'zlashtiradi va insoniy fazilatlarni namoyon etadi.

Barkamol insonni shakllantirish, uni xayotga, mexnatga tayyorlash oilaning muqaddas vazifasidir. Oilani mustahkamlash

jamiyat barqarorligi va qudratining muhim shartidir. Shu boisdan ham davlat oilani o'z ximoyasiga oladi.

Jamiyatdagi ma'naviy-axloqiy muxitning soglomligi ko'p jixatdan oilaviy madaniyatga bog'liq. Oila ganday bo'lsa, jamiyat ham shunday bo'ladi. Oilada er va xotining mavqeyi, oilaviy munosabatlar xarakteri turli xalqlarda turlichadir.

Mamlakatimizda milliy mustaqillik yillarida ma'naviyat soxasida amalga oshirilayotgan isloxotlar,avvalo, oila qadriyatlarini, eng ilg'or an'analarni tig'lashga qaratilgandir. Ona va ayol muqaddasliki o'zbekona qadriyatdir. Hadisi sharifda ona va ayolning muqaddasligi to'g'risidagi g'oyalar oilaviy munosabatlarni takomillashtirishda muhim ahamiyatga ega.

Ulug mutafakkirlar jamiyatning madaniy darajasi ayolning jamiyat va oiladagi axvoli, mavqeyi bilan belgilanishini aloxida ta'kidlaganlar. Soglom, barkamol avlod tarbiyasi ko'p jixatdan ayolning ma'naviy saloxiyati, bilimi, uddaburonligi va erkinlikiga bog'liqdir. Mamlakatimizda keyingi yillarda amalga oshirilayotgan qator tadbirlar ayolning oila va jamiyatdagi mavqeyi va rolini kuchaytirishga qaratilgandir.

Oila muammolarini ilmiy asosda o'rganilganligi va ularni oqilona xal etishni o'z oldiga maqsad qilib quygan respublika «Oila» ilmiy-amaliy markazining tashkil etilganligi ham davlatimizning oilaviy munosabatlarini takomillashtirishga alohida e'tibor berayotganidan dalolat beradi.

O'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi, Mustaqillik yillarida tilimiz xususiyatlariga mos bo'lgan yangi alifboga o'tish uning mavqeyiini oshirish va yanada rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etdi. Bu esa, o'z navbatida, ijtimoiy rivojlanishga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Fuqarolik jamiyati umuminsoniy tamoyillar, milliy davlatchilik xususiyatlari, o'ziga xos turmush tarzi va xayot

falsafasi neg'izida garor topadi. O'zbekiston milliy mustaqilligining dastlabki yillaridanoq yurtimizda fuqarolik jamiyati asoslarini barpo etishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi.

Fuqarolik jamiyatida davlatning qator vazifalari fuqarolarning o'z-o'zini boshqarish organlari qo'liga o'ta boshlaydi, maxalliy xokimiyat organlarining vakolati kengayadi. Fuqarolik jamiyati asoslarini barpo etish kishilarning yuksak siyosiy va huquqiy madaniyati, ijtimoiy-siyosiy faollikiga tayanadi.

Mamlakatimizda maxalliy xokimiyat organlarining tashkil etilishi, ular vakolatining kuchaytirilishi xalqimizning o'z-o'zini boshqarish, idora etish madaniyatini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Maxalla kishilarda yaxshi insoniy fazilatlarini kamol toptirish, o'z-o'zini boshqarish, demokratik qadriyatlarni ruyobga chiqarish maktabidir.

Yurtimizda fuqarolik jamiyatini barpo etish barkamol inson shaxsini shakllantirishni talab etadi. O'z navbatida, ma'naviy yetug'avlod jamiyat taraqqiyotiga salmog'li xissa g'o'shadi. Shunday yetuk kishilarni tarbiyalashda jamiyat to'g'risidagi falsafiy bilim va qarashlarni o'zlashtirish va xayotga tatbiq etish aloxida ahamiyatga egadir.

Jamiyat muttasil ravishda rivojlanuvchi, takomillashib boruvchi murakkab tizimdir. Har bir yangi davrda jamiyat mohiyatini bilish zarurati vujudga keladi. Milliy mustakdllik tufayli jamiyat mohiyatini yangicha idrok etish ehtiyoji paydo bo'ldi. Prezident Islom Karimovning qatorasarlarida jamiyat mohiyatini yangicha tushunishning uslubiyasoslari yaratildi. Jamiyat moddiy va ma'naviy omillar birligidan iborat. Hozirga qadaradabiyotlarda moddiy va ma'naviy hayot bir-biridan keskin farklanar edi. Holbuki, jamiyatning tub mohiyati uni tashkil etuvchi inson moxdyati bilan uzviy bog'liq. Xuddi inson tanasini uning ruhidanajratib bo'lmagani singari, jamiyatning moddiy va

ma'naviy jihatlarini ham bir-biridanajratish va ularning birini ikkinchisidan ustun qo'yish mantiqqa ziddir. Prezident Islom Karimovasarlarida jamiyatning moddiy va ma'naviy manfaatlarini uyg'unlashtirish ijtimoiy taraqqiyotasosi ekani ta'kidlangan. Inson ma'naviyatini yuksaltirish orqaligina iqtisodiy rivojlanishga erishish mumkin. Shuning uchun ham hozirgi davrdaaholi ma'naviyatini yuksaltirishga, milliy g'oya va mafkura asoslarini shakllantirishga katga e'tibor berilyapti. Zero, kishilar iqtisodiy jihatdan qashshoq bo'lgani uchun ilmsiz bo'lmaydi, balki,aksincha — ilmsiz bo'lgani uchun qashshoqbo'ladi. Shuning uchun yurtimizda xalq ma'naviyatini yuksaltirish orqali iqtisodiy farovonlikni ta'minlashga katta e'tibor berilyapti. Kishilarni oila bo'lib, jamoa bo'lib Jamiyat genezisi uyushishga nima majbur qilgan, degan masala qadim zamonlardanoq ulug'mutafakkirlar e'tiborini jalb etgan. Bu masalani diniy tushunish uni ilohiy kuch, Xudo bilan bog'lab izoxdashdir. Dunyoviy qarashlarga ko'ra, odamlar o'zlarining moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirish uchun birgalikda yashashga, jamoa bo'lib birlashishga ko'nikkan.

Kishilar hayotiy tajriba,aql va tafakkur tufayli jamiyat bo'lib yashashning qulay,afzal va zarurli- gini tushungan. Bu jarayonda o'zaro munosabatlarga kirishgan kishilarana shu munosabatlarni takomillashtirish, yanada rivojlantirish orqali ma'naviy kamolotga erishgan. Bu kishilarni bir-biri bilan yaqinlashtirgan, moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirish imkonini bergan. Kishilik jamiyatining paydo bo'lishi to'g'risida turlicha ilmiy farazlar ilgari surilgan. Markaziy Osiyodan yetishib chiqqanabu Rayhon Beruniy, abuali ibn Sino kabi mutafakkirlar kishilik jamiyatipaydo bulishi sabablarini insonning boshqa mavjudotlarga nisbatan ojizligi, birdamlik hissining rivojlachganligi bilan izox^aganlar. I. Kant jamiyatning vujudga kelishiniaxloqning shakllanishi bilan izoxlagan. Keyinchalik 3. Freyd bu g'oyani

rivojlantirib, kishilik jamiyatining paydo bo'lishidaaxloqiy tabu muhim rol o'ynaganliginiasoslashga harakat qilgan. Gegel esa insoniyat jaiyatini vujudga kelishi mutlaqruhtaraqqiyotining mahsuli, deb hisoblaydi. Sobiq mehnatkash xalq tarixning haqiqiy ijodkoridir. Marksizm ta'limotida kishilik jamiyatining paydo bo'lishida mehnat hal qiluvchi rol` o'ynagan, insoniyat tarixi ma'lum ma'noda meh- nat qurollarining takomillashuvi tarixidan boshqa narsa emas, degan qarashlar mavjud. Tarixiy tajriba. Ijtimoiyamaliyot bunday qarashlar bir yoqlama va xato ekanligini ko'rsatdi.aslida ma'naviyat (ruhiy olam, ong, tafakkur, axloq, imon, fan va h.k.) tufayli insoniyatning eng qadimgi ajdodlariani qo'z xatti-harakatlari, xulq-atvorini tartibga solgan, oila kishilik jamiyati paydo bo'lishiga birlamchiasoslaridan biri bo'lgan. Ong va tafakkurning rivojlanishi bilan inson meqnat kurollari yaratish, moddiy ne'matlar ishlab chiqish va tabiatga qaramlikdan qutilish imkoniyatiga ega bo'lgan.

Yuksak ma'naviyat tufayli insonning mehnat faoliyati ijtimoiy faolligi bunyodkorlik va yaxshilik uchun xizmat qilgan.aksincha, ma'naviy qashshoqlik, ilmsizlik, mutaassiblik chuqurlashgan davrda ijtimoiyadolatsizlik kuchaygan. Shu tufayli demokratik taraqqiyot yo'lini tanlagan mamlakat va xalkdar iqtisodiy va siyosiy erkinligi sharoitida yuksak ma'naviyatning yuksalishiga, ilm-fan, san'at, axloq, din va huquqni rivojlantirishga katta e'tibor berganlar. Manfaat va maqsadlar to'qnashuvi, iqtisodiy, siyosiy, g'oyaviy maqsadlardagi tafovutlar har qanday jamiyat taraqqiyoti uchun xos bo'lgan xususiyatlardandir. Biroq, ijtimoiy ziddiyatlarni sun'iy ravishda kuchaytirish qan- chalik zararli bo'lgani singari, ularni zo'ravonlik bilan yo'q qilish, jamiyatda soxta ziddiyatsizlik holatini yaratishga urinish ham shunchalik xavflidir. Ijtimoiy munosabatlarningamal qilish jarayonida odamlarni uyushtirishning tarixiy shakllari — oila, davlat, jamoa

(qishloq, shahar) vujudga kelgan. Odamlar o'rtasidaamal qiladiganaxloqiy, diniy, ilmiy, falsafiy, huquqiy, iqti- sodiy, mafkuraviy kabi munosabatlarning barchasi bir so'z bilan ijtimoiy munosabatlar deyiladi. Ijtimoiy uyushmalar kishilarning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirishga yordam beradi. Ular mohiyatan inson va jamiyat mavjudligining zarur sharti hisob- lanadi. Masalan, oila, davlat, ta'lim-tarbiya, mahalla, Vatan kabi qadriyatlarsiz inson va jamiyat o'z mohiyatini yo'qotadi.

Jamiyatning modtsiy Insonning moddiy ehtiyojlari oziq-ov- va ma'naviy hayoti qatlar' kiyim-kechak, ui-joi, transport vositalari, o'zini himoyalash, zurriyot qoldi rish kabilardan iboratdir. Ma'naviy ehtiyojlarga olamni bilish, o'zlikni anglash, dunyoqarash, donishmandlikka intilish, bilim, san'at, g'oya, mafkura, go'zallik bilan, ma'naviy kamolot yo'lidagi intilishlar kiradi.

Insonningasl mohiyati moddiy ehtiyojlarni madaniy shakllarda qondirishida yaqqol namoyon bo'ladi. Insonakdli mavjudot sifatida moddiy ehtiyojlarini madaniy shakllarda qondirish uchun tabiat va jamiyat mohiyatini bilishga, moddiy va ma'naviy olamni uyg'unlashtirishga, tabiat va jamiyatni o'z maq- sadlariga mos ravishda o'zgartirishga harakat qiladi. Ilm-fan va texnika insonning ma'naviy va moddiy ehtiyojlarini qondirish quroli, muhim vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Inson yuksak ma'naviyat tufayligina o'z ehtiyojlarini madaniy shakllarda oqilona va to'laroq qondirish imkoniga ega bo'ladi. Mamlakatimizda ma'naviyat masalalarigaalohida e'tibor berilayotganining sababi hamana shunda. Jamiyatning moddiy va ma'naviy hayoti kishilarning moddiy va ma'naviy ehtiyojlari bilan uzviy bog'liq holda vujudga keldi.

Jamiyatning moddiy hayotiga quyidagilar kiradi:

— kishilarning yashashi, shaxs sifatida kamol topishi uchun zarur bo'lgan iqtisodiy shart-sharoitlar;

— oziq-ovqat, kiyim-kechak, turarjoy, yoqilg'I, kommunikat- siya vositalari;

— moddiy ne'matlar ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirbosh- lash va iste'mol qilish;

— ishlab chiqarish jarayonida kishilar o'rtasidaamal qiladi- gan iqtisodiy munosabatlar majmui;

— moddiy boyliklar, tabiiy zaxiralar.

Jamiyatning ma'naviy hayotiga olamni tushunish, jamiyat va inson to'g'risidagi qarashlar,

nazariyalar, ta'limotlar, g'oyalar, mafkura, ijtimoiy ong shakl- lari, ta'lim-tarbiya,axborot vositalari, madaniyat, ilm-fan muassa- salari va boshqalar kiradi. 'Jamiyatning moddiy va ma'naviy hayotini boshqarish, kishilar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solishda turli siyosiy institutlar (davlat, siyosiy partiyalar, tashkilotlar, turli uyushmalar) muhim o'rin tutadi. Jamiyatni boshqarishning siyosiy-huquqiy jihatlari ham muhimdir. Kishilar tomonidan siyosiy va huquqiy bilimlarning chuqur o'zlash- tirilishi jamiyatning barqaror yashashi va rivojlanishida muhima- hamiyat kasb etadi. Jamiyat rivoji, kishilarning moddiy va ma'naviy ehtiyojlari qondirilishida mehnat, mulk va mehnatning ijtimoiy aqsimlanishi beqiyosahamiyatga ega. Mehnatni kishilar- ning qobiliyatiga qarab ijtimoiy taqsimlanishi natijasida muayyan kasb-kor bilan shug'ullanadigan toifalar, guruh, qatlam va sinflar vujudga keladi va ular jamiyat strukturasida o'ziga xos o'rin egallaydi, jamiyat taraqqiyotiga muayyan yicca qo'shadi. Jamiyat taraqqiyoti Falsafiy tafakkur tarixida jamiyatning mohiyati va rivojlanishiga oid turli nazariyalar mavjud. Xususan, nemis failasufi G. Gegel` jamiyatning shakllanishi va rivojlanish

sabablarini mutlaq ruhning rivojlanishi bilan, J1. Feyerbax din bilan bog'lagan, ijtimoiy taraqqiyot sabablarini diniy ong taraqqiyotidan izlagan. Frantsuz mutafakkiri O. Kont jamiyatning rivojlanish sabablarini insoniyat ma'naviy taraqqiyotining uch bosqichi (teologik, metafizik, pozitiv bosqichlar) bilan izohlagan. K. Marks jamiyatning rivojlanish sabablarini sinfiy kurash va inqilobiy o'zgarishlar bilan bog'lagan, barcha ijtimoiy hodisa va jarayonlarni sinfiy nuqtai nazardan tushuntirgan. Ijtimoiy ziddiyatlarni sun'iy ravishda mutlanutashtirgan va ziddiyatlarni h'al etishning asosiy usuli sifatida ijtimoiy inqilobni amalga oshirishni, mulkdorlar sinfini tugatishni taklif etgan.

Ijtimoiy amaliyot bunday nazariyaning bir yoklama ekanini ko'rsatdi. Jamiyat taraqqiyoti ko'p bosqichli jarayon ekani to'g'risidagi qarashlar AQSH faylasufi O. Toffler tomonidan ilgari surilgan. Bunday qarashga ko'ra, jamiyatlar taraqqiyotiga binoan agrar jamiyat, industrial jamiyat, postindustrial jamiyatga ajratilgan. Adabiyotlarda jamiyat taraqqiyoti borasida sivilizatsiyali yondashuv g'oyasi ilgari surilmoqda. Bunday yondashuvga ko'ra, har bir xalq o'zining betakror, noyob, o'ziga xos va o'ziga mos turmush tarzini sakdab qolgan holda, boshqa xalkdar tajribalaridan ijodiy foydalanish orqali ijtimoiy taraqqiyotning o'ziga xos modelini yaratadi. Turli tarixiy davrlarda jamiyat taraqqiyotining mezoni masalasi falsafa fanida muhim muammolardan biri bo'lgan. Hozirgi zamon Yevropa falsafasining ilg'or namoyandalari shaxs erkinligi darajasining o'sib borishi jamiyat rivojlanishining muhim ko'rsatkichi, o'lchovi deb hisoblamoqdalar. Jamiyatdagi har qanday o'zga rishlar inson ehtiyojlari doirasining kengayib borishi bilan bog'liqdir. Maqsadsiz odam bo'lmagani sababli har qanday jamiyat ham o'z imkoniyatlaridan kelib chiqib, istiqbolda erishishi lozim bo'lgan maqsad va vazifalarni belgilaydi. Uning

maqsad va muddaolari davlatlarning Konstitutsiyasida, qonunlarida, ichki va tashki siyosatida o'z ifodasini topadi. Har qanday jamiyat muayyan bosqichda o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga erishish imkoniyatlaridan to'liq foydalanib bo'lgach, muqarrar ravishda umumiy inqirozga duch keladi. Shu paytgacha ijtimoiy taraqqiyotni ta'minlagan g'oyalar tizimi keyingi rivojlanish yo'lida tusiq bo'ladi. Bu g'oyaviy-ma'naviy inqiroz jamiyatning boshqa yo'nalishlarida ham tanazzulni vujudga keltiradi. Shuning uchun g'oyaviy tizimlarning dogmaga aylanishiga yo'l qo'ymaslik ijtimoiy taraqqiyotning asosiy omillaridan biridir. Birinshi Prezident I.A. Karimov ta'kidlaganidek, xalqimiz ma'naviyatini yuksaltirish, uning siyosiy va huquqiy madaniyatini rivojlantirish mamlakatimizda ochiq va erkin demokratik jamiyat barpo etishning muhim shartidir. Zero, ma'naviy qashshoq kishilar o'z kuchi va qobiliyatiga ishonchsizlik bilan qaraydilar, mutelik va qaramlikka moyil bo'ladilar. Jamiyat hayotiga barqarorlik va beqarorlik ham xos. Har bir inson o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga erishish uchun osoyishtalik va tinchlikka muhtoj bo'lgani kabi jamiyat ham o'z oldiga qo'ygan vazifalarni ado etishi uchun ijtimoiy-siyosiy barqarorlikka ehtiyoj sezadi. Demokratik jamiyatni barpo etish – O'zbekiston taraqqiyotining bosh maqsadi. Bu jamiyat kishilarning yuksak axloqiy-siyosiy va huquqiy madaniyatiga asoslanadigan demokratik taraqqiyotning yuqori bosqichidir. Bunday jamiyat erkin uyushmalarning ko'p qirrali aloqasi bo'lib, davlat qonunlarini hurmat qilib bajaruvchi jamiyat tarkibiga kiruvchi elementlarning nisbiy mustaqilligiga asoslanuvchi. Turli ziddiyat va ixtiloflarni qonun doirasida o'zaro kelishuv, sabr-toqat va muzokaralar orqali hal etishga asoslanuvchi jamiyatdir. Demokratik jamiyat umuminsoniy tamoyillar, milliy davlatchilik xususiyatlari, o'ziga xos turmush

tarzi va hayot falsafasi negizida qaror topadi. O'zbekiston milliy mustaqilligining dastlabki yillaridanoq shunday jamiyat asoslarini barpo etishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi.

Demokratik jamiyatda davlatning qator vazifalari fuqarolarning o'z-o'zini boshqarish organlari qo'liga o'ta boshlaydi, mahalliy hokimiyat organlarining vakolati kengayadi. Bunday jamiyat asoslarini barpo etish kishilarning yuksak siyosiy va huquqiy madaniyati, ijtimoiy-siyosiy faolligiga tayanadi. Mamlakatimizda mahalla hokimiyat organlarining tashkil etilishi, ular vakolatining kuchaytirilishi xalqimizning o'z-o'zini boshqarish, idora etish madaniyatini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mahalla kishilarda yaxshi insoniy fazilatlarni kamol toptirish, o'z-o'zini boshqarish, demokratik qadriyatlarni ro'yobga chiqarish maktabidir.

Yurtimizda bunday jamiyatni barpo etish barkamol inson shaxsini shakllantirishni talab etadi. O'z navbatida, ma'naviy yetuk avlod jamiyat taraqqiyotiga salmoqli hissa qo'shadi. Shunday yetuk kishilarni tarbiyalashda jamiyat to'g'risidagi falsafiy bilim va qarashlarni o'zlashtirish va hayotga tatbiq etish alohida ahamiyatga egadir.

Nazorat uchun savollar:

1. Jamiyat tushunchasi va uning mohiyati haqida nima bilasiz?

• Jamiyatning mavjudligi va taraqqiyot omillarini qanday tushunasiz?

2. **Taraqqiyotning o'zbek modeli va uning asosiy tamoyillari haqida qanday tushunchangiz bor?**

• Jamiyat rivojlanishining tadrijiy rivojlanish konsepsiyasini qanday izohlar edingiz?

3. Jamiyat va oila o'rtasidagi bog'liqlikni tushuntirib bering.

• Sog'lom avlod tarbiyasining jamiyat kelajagidagi roli haqida nima deya olasiz?

4. Jamiyatning ijtimoiy tizimdagi o'rni va roli qanday?

• Jamiyatning iqtisodiy, siyosiy va madaniy tizimlar bilan aloqasi qanday tahlil qilinadi?

TARIX FALSAFASI, SIVILIZATSIYA VA MADANIYAT

Reja:

1.Tarix falsafasining maqsadi va vazifasi.

2. Jamiyat rivojlanuvchi tizim sifatida.

3. Sivilizatsiya tushunchasining tahlili va turli yondashuvlar tasnifi.

4. "Madaniyat" tushunchasi, uning mohiyati, strukturasi va funksiyalari Sharq va G'arb madaniyatlarining o'zaro bir-biriga ta'siri.

5. Qadriyat tushunchasining tavsifi va mohiyati.

Tayanch so'zlar: *Tarix falsafasi, Jamiyat rivojlanuvchi tizim, Sivilizatsiya tushunchasi, Madaniyat tushunchasi, Qadriyat tushunchasi.*

Tarix falsafasi - tarixni falsafiy sharlash va baholash. «Tarix falsafasi» atamasi antik davr falsafasi va tarixnavisligida namoyon bo'lsada, uni fanga M.F.Volter kiritgan deb hisoblanadi. Tarix falsafasining quyidagi yo'nalishlari bor: teologik (ilohiyot) Tarix falsafasi — xudoning irodasini tarixni harakatga keltiruvchi kuch deb hisoblaydi; metafizik Tarix falsafasi — hech qanday chegaralar va doiralar bilan cheklanmaydigan, turli shakl va ko'rinishga kiradigan tushunchalar tizimini Tarix falsafasi deb biladi; idealistik Tarix falsafasi — unda g'oyalar, insonning axloqiy tushunchalari, ma'naviy-ruhiy kechinmalari asosida tarixga munosabat bildiriladi; naturalistik Tarix falsafasi uchun inson hissiyoti va tuyg'usi orqali olamni anglash, o'tmishga nazar solish va uni baholash asosiy mezondir; materialistik Tarix falsafasi — unda iqtisodiy omillarga katta e'tibor beriladi; tarixni yo'naltiruvchi kuch sifatida moddiy ehtiyoj va iqtisodiy zaruriyat

asos qilib olinadi. Tarixda shaxsning roliga qanday baho berilishiga qarab, alohida shaxsni ustun qo'yib yoki jamoani birinchi qo'yib fikr yuritadigan Tarix falsafasi ham mavjud. Tarix falsafasida, shuningdek, tarix fani tushunchasi, qonuniyatlari, tarixiy jarayon va inson, inson mohiyati, fe'latvori, xatti-harakati, manfaati talqin etiladi.

Tarix falsafasi ildizlari antik davr allomalari Gerodot va Fukididning tarixiy harakatga doir qarashlariga borib taqaladi. U Polibiy, Posidoniy, Plutarx qarashlarida nisbatan shakllandi. Avgustin esa ilohiy davlat tarixi falsafasini yaratdi va keyingi ming yillarda tarixiy tafakkurning shakllanishiga kuchli ta'sir ko'rsatdi.

XVIII asrga kelib Tarix falsafasining yo'nalishlari tubdan o'zgardi. Tarixiy taraqqiyotda insonning ta'siri, o'rni va roli, tarixga inson qalbi, ichki dunyosi, ma'naviy-ruhiy olami mahsuli sifatida qarash tamoyillari shakllandi. Biroq, bunda ham turlicha yondashishlar mavjud edi. Chunonchi, Leybnis tarixda metafizik kuchlar va g'oyalar ustuvor deb tushunsa, Gegel butun voqelikni tarix deb hisoblab, unda dunyoviy aqlni ustun qo'yadi. XIX-XX asrlarda tarixni anglashda mavhum mantiq va tarixni bilish nazariyasi bilan bir katorda A. Shopengauer, Ya. Burkxardt, O.Shpengler tarixni tushkunlik orqali anglash, A.Toynbi optimizm, marksizm asoschilari esa tarixiy materializm g'oyalarini ilgari surdi.

Sharqda «Tarix falsafasi» tushunchasi o'ziga xos jihatlarga ega. Forobiy qarashlariga ko'ra, jamiyat taraqqiyotini ilohiy qonunlar boshqaradi. U Aristotelning jamiyat rivojlanishi xaqidagi ta'limotini o'z xulosalari bilan boyitdi. Beruniy esa tarixiy taraqqiyot bosqichlarini tabiat, astrologiya, astronomiya, kecha va kunduz, fasllar almashinuvi orqali o'rgandi. U «Hindiston», «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar»

asarlarida insoniyat tarixiga falsafiy nuqtai nazardan yondashadi, tarixni anglash, idrok etishda butunlay yangicha qarashlarni o'rtaga tashlaydi. Beruniy dunyo tarixshunosligida asotirlar, afsonalar va rivoyatlardan ilmiy bilish hamda dunyoviy ta'limotga o'tishda muhim hissa qo'shdi.

Sharq Tarix falsafasi bir necha yo'nalishda ko'zga tashlanib, voqealar tahlili ibratli hikoyalar, pand-nasihatlar, yuksak axloqiy me'yorlar bilan mushtarak holda olib boriladi. Ayrim hollarda tarixga geografik-hududiy jihatdan yondashiladi.

Sayohatnomalar orqali jamiyat tarixi yaratiladi, podshohlarning boshqaruv usuli, siyosati, uning mohiyati ochib beriladi.

Jamiyat tushunchasi. Jamiyat fanga ma'lum tizimlar orasida eng murakkabi bo'lib, uni o'rganish jiddiy qiyinchiliklar tug'diradi. Jamiyat hayoti juda faol bo'lib, har bir xalq o'zining alohida, betakror tarixiga ega. Jamiyat hayotining barcha jarayonlari bir-biri bilan shu darajada uzviy bog'liqki, ba'zan turli vaziyatlarda belgilovchi va belgilanuvchi jarayonlar o'rin almashadi. Tarixiy jarayonda tasodiflar va sub'ektiv omil ayniqsa, muhim rol o'ynaydi. Muayyan fanlardan farqli o'laroq, falsafaning vazifasi tarixiy jarayonning umumiy jihatlarini o'rganishdan iborat. Falsafa, muayyan hodisalarning sabablari nimada, degan savolga javob topish vazifasini o'z oldiga qo'ymasa-da, tarix fanining metodologik asoslarini yaratadi, mazkur sabablarni aniqlashga nisbatan qanday yondashish kerak, degan savolga javob beradi. U dunyoqarashga doir o'z mo'ljallariga tayanadi, ijtimoiy va gumanitar fanlarning kategoriyalar apparatini ishlab chiqishda ishtirok etadi. O'z kategoriyalarining ijtimoiy mazmunini yoritar ekan, falsafa shunga asoslanib, muayyan-tarixiy jarayonlarni tahlil qilishni amalga oshiradi. Tarix falsafasining muammolaridan biri bu tarixiy jarayonning birligi

muammosi va tarixni davriylashtirish tamoyillarini belgilashdir. Falsafaning vazifasi jamiyat hayotining asosiy negizlarini, uning tizim tashkil etadigan omillarini aniqlashdan iborat. Tarix falsafasida dunyoqarashga doir mo'ljallarining rang-barangligi bilan ajralib turadigan ko'plab oqimlar va yo'nalishlar mavjud bo'lgan. Shu sababli har bir faylasuf, odatda, o'z mo'ljallariga amal qiladi, nafaqat dunyoni, balki jamiyatni ham o'ziga xos tarzda tushuntiradi.

Madaniy-tarixiy tiplar g'oyasi. XIX asrda madaniy-tarixiy tiplar nazariyasi vujudga kelgan bo'lsa-da, aslida bu haqdagi dastlabki qarashlar Forobiy ijodiga mansub. Forobiy insonlar jamiyatini ikki madaniy-tarixiy tiplarga ajratadi. Birinchisi to'liq jamiyat bo'lib, u o'zida a) Yer yuzidagi jami insonlarni qamrab oluvchi yirik jamiyat, b) Yerning muayyan qismida yashovchi bir millat yoki bir dinga mansub kishilarning o'rta jamiyati v) muayyan qavm yoki dinga mansub bir shahar jamiyatini qamrab oladi. Ikkinchisi bir qishloq, ovul, yoki bir oiladan iborat bo'lgan to'liqsiz jamiyat25. Forobiy fikricha, «Eng yaxshi fazilat va oliy darajadagi komillikni kichik birligi shahar hisoblanadigan madaniy jamiyat ichidagina qo'lga kiritish mumkin. To'liqsiz jamiyatlar insonni takomillashtirishga qobil emaslar»2 . Forobiyning bu fikrlari Platon va Aristotelning jamiyatga oid qarashlaridan farq qiladi, chunki u jamiyatdagi o'zgarishlarni inobatga olgan. Jamiyatni to'liq va to'liqsizga ajratar ekan, Forobiy shahar to'liq jamiyatning birinchi bosqichidir deb e'tirof etadi. Platon va Aristotel esa to'liq jamiyatni shahar bilan chegaralaganlar va shahar insoniyat jamiyati takomilining oxirgi darajasi, jamoaviy baxt saodatning bosh markazi deb ta'kidlaganlar. Forobiy esa, butun dunyodagi jamiyat haqida fikr yuritib, uning xukmdori qandaydir alohida olingan xalq, qavm

yoki jamoa boshlig'i emas, balki butun madaniy dunyodir deb ta'kidlaydi va bu fikri bilan yunon faylasuflaridan ilgarilab ketadi.

Fuqarolik jamiyati, davlat, demokratiya. Hozirgi zamon jamiyati o'ta murakkab va faol ijtimoiy tizimdir. Umuman olganda, uni quyidagi xususiyatlarga ega bo'lgan jamiyat sifatida tavsiflash mumkin:

• u spontan tarzda vujudga keladi va biron-bir boshlang'ich g'oyani o'zida mujassamlashtirmaydi, jamiyatning barcha a'zolari uchun muqarrar bo'lgan olamshumul maqsadga ega bo'lmaydi;

• u o'z hayotining barcha tomonlarini yagona markazdan nazorat qilmaydi;

• unda muvofiqlashtirishga muayyan umumiy maqsad va yagona markazga bo'ysunish hisobiga emas, balki xulq-atvor umumiy qoidalariga rioya etish hisobiga erishiladi;

• mazkur jamiyatning iqtisodiy asosi xususiy mulk va xususiy tadbirkorlik, markazlashtirishdan chiqarilgan bozor tizimi va raqobatdir;

• uning individlari erkin va mustaqil bo'lib, qonun bilan muhofaza etiladigan shaxsiy hayot sohasiga egadirlar, bu hayot doirasida ular o'zlari istagan har qanday qarorlarni mustaqil ravishda qabul qilishga haqlidirlar;

• individlar shak-shubhasiz va uzviy fundamental huquqlar va erkinliklarga, shu jumladan fikrlash va so'z erkinligi, uyushmalar va tashkilotlar tuzish erkinligi, vijdon erkinligi, bir joydan boshqa joyga ko'chib yurish erkinligi, o'zi istiqomat qiladigan mamlakatni tanlash erkinligiga egadirlar;

• bu ko'ppartiyaviy jamiyat bo'lib, unda siyosiy partiyalar hech qanday bevosita ommaviyhokimiyat vakolatlariga ega emaslar;

• davlat hokimiyati va mahalliy o'zini o'zi boshqarishning vakillik organlari aholi tomonidan saylanadi;

• hokimiyatning qonunchilik, ijro va sud tarmoqlari bir-biridan ajratilgan. Zamonaviy jamiyatning umumiy tavsifida quyidagi tushunchalar markaziy o'rinni egallaydi: fuqarolik jamiyati, huquqiy davlat, ko'ppartiyaviylik, demokratiya, hokimiyatning bo'linishi, xususiy mulk, bozor, shaxs erkinligi va suvereniteti.

Fuqarolik jamiyati – davlat hokimiyati organlarining to'g'ridan-to'g'ri aralashuvidan qonunlar bilan muhofaza etilgan ixtiyoriy uyushmalar va tashkilotlar majmui. Zamonaviy jamiyatda davlat odamlarning shaxsiy hayotiga aralashmaydi, ularni yagona mafkura va qadriyatlar yagona tizimini qabul qilishga majburlamaydi.Kishilarning rang-barang manfaatlari, ularning hamkorlikdagi harakatlari orqali ro'yobga chiqariladi, bunga erishish uchun ular davlat oldida hisobdor bo'lmagan ixtiyoriy birlashmalar va uyushmalarga birlashadilar. Odamlarning manfaatlarini aks ettiradigan nodavlat, nohukumat tashkilotlari fuqarolik jamiyatini tashkil etadi. Ular rasmiy statistikaga kirmaydi va ularning hisobini yuritish ancha qiyin ish. Chunonchi, ayrim ma'lumotlarga ko'ra, AQSHda yuz minglab bunday tashkilotlar faoliyati 25 mingdan ortiq xayriya fondlaridan mablag' bilan ta'minlanadi. Norvegiyada bu mamlakat fuqarosi hisoblangan har olti kishidan biriga bitta nohukumat tashkiloti to'g'ri keladi. XIX asr fransuz sotsiologi A.de Tokvil Amerikada demokratiyani qo'llab- quvvatlovchi ijtimoiy sharoitlar to'g'risida mulohaza yuritar ekan, amerikaliklarning fuqarolik va siyosiy tashkilotlar tuzishga bo'lgan moyilligiga alohida e'tiborni qaratgan: «Turli yosh, mavqe va qiziqishlarga ega bo'lgan amerikaliklar turli xil uyushmalarga ixtiyoriy ravishda birlashadilar. Bular tijorat yoki

ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo'lgan, amerikaliklarning barchasi ishtirok etadigan birlashmalargina emas, balki boshqa xil turdagi minglab birlashmalar: diniy-ma'naviy uyushmalar, jiddiy va ahamiyatsiz, ochiq va berk, ko'p kishilik va atigi bir nechta a'zodan iborat birlashmalardir... Shunday qilib, odamlar o'zlarining umumiy xohish-istaklariga muvofiq bo'lgan maqsadga bahamjihat erishish san'atida oliy barkamollikka erishdilar va jamoa harakatining mazkur usulini boshqalarga qaraganda ko'proq qo'llay boshladilar»26

Fuqarolik jamiyatiga O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.Karimov quyidagicha ta'rif beradi: "Fuqarolik jamiyati - ijtimoiy makon. Bu makonda qonun ustuvor bo'lib, u insonning o'zo'zini kamol toptirishiga monelik qilmaydi, aksincha, yordam beradi. SHaxs manfaatlari, uning huquq va erkinliklari to'la darajada ro'yobga chiqishiga ko'maklashadi. Ayni vaqtda boshqa odamlarning huquq va erkinliklari kamsitilishiga yo'l qo'yilmaydi. Ya'ni erkinlik va qonunga bo'ysunish bir vaqtning o'zida amal qiladi, bir-birini to'ldiradi va birbirini taqozo etadi. Boshqacha aytganda, davlatning qonunlari inson va fuqaro huquqlarini kamsitmasligi lozim. Shuning barobarida barcha odamlar qonunlarga so'zsiz rioya qilishlari shart".

«Sivilizatsiya» (lot. «civilis» – «fuqarolik», «davlatga doir») atamasi har xil ma'noda ishlatiladi. Birinchidan, sivilizatsiya – insoniyat rivojlanishida varvarlikdan keyin boshlangan va sinflar, davlat vujudga kelishi, urbanizatsiya va yozuv paydo bo'lishi bilan tavsiflanadigan tarixiy bosqich.

Ibn Xaldun (1332–1406) o'z davrida birinchi bo'lib, sivilizatsiyalarning yuzaga kelishi, rivojlanishi va tanazzuli haqida ilmiy asosslangan g'oyalarni ilgari suradi. Jumladan madaniyatlar va davlatlarning paydo bo'lishi, yashashi va

inqirozi muayyan tarixiy qonuniyat ekanligini, unga tabiiy geografik va iqtisodiy omillar, turmush tarzi va dunyoqarashlar jiddiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligini aytadi.

I.A.Karimov, «Har qanday sivilizatsiya ko'pdan ko'p xalqlar, millatlar, elatlar faoliyatining va samarali tar'sirining mahsulidir. Bir so'z bilan aytganda, ko'chmanchilar, bosqinchilar kelib ketaveradi, lekin xalq boqiy qoladi, uning madaniyati abadiy yashaydi», deb ta'kidlaydi. Sivilizatsiyalarning tiplari. Noevropacha sivilizatsiyalar ancha kata guruhni tashkil etadi (A.Toynbi tasnifiga ko'ra, bunday sivilizatsiyalar 21 ta). Bu sivilizatsiyalarning aksariyati betakror tarzda o'ziga xos va ayni vaqtda, umumiy tipologik jihatlarga ega. Bular evropacha sivilizatsiyadan ancha oldin vujudga kelgan an'anaviy sivilizatsiyalardir. An'anaviy jamiyat juda sust rivojlanadi va mavjud hayot tarzini asrlar va hatto ming yilliklar osha saqlashga qodir. Noevropacha sivilizatsiyalarning xo'jalik faoliyati qishloq xo'jalikhunarmandchilik ishlab chiqarishi va texnologiyasining hukmronligiga asoslanadi. An'anaviy sivilizatsiyaning ma'naviy sohasida diniy-mifologik tasavvurlar hukm suradi, ilmiy bilimlarning dastlabki shakllari asosan mavjud faoliyat turlari uchun retseptura vazifasini bajaradi. Noevropacha sivilizatsiyalar evolyusiyasi sikllliligi va o'ziga xos institutlar va normalarga ega bo'lgan davlat vaqti-vaqti bilan dam kuchayib, dam zaiflashib turishi bilan tavsiflanadi. Bunday jamiyat halokati sivilizatsiya tipini o'zgartirmaydi, u ijtimoiy vorisiylik mexanizmlari yordamida avloddan-avlodga o'tadi. Evropacha sivilizatsiya ijtimoiy va madaniy rivojlanishning alohida tipii bo'lib, u Evropada taxminan XV–XVII asrlarda shakllangan. Uning o'tmishdoshlari antik dunyo madaniyatlari va Evropa xristiancha an'anasidir. Uyg'onish davrida bu ikki an'ana sintezi texnogen sivilizatsiyaning teran o'ziga xosligini va uning texnika va

texnologiya jadal sur'atlarda rivojlanishini, odamlar o'rtasidagi ijtimoiy aloqalar tubdan o'zgarishini ta'minlagan madaniyatini shakllantirdi. Uning zamirida huquqiy davlatning vujudga kelishi, shaxs o'z tashabbuskorligi, faolligi va mustaqilligi bilan oliy qadriyat sifatida ijtimoiy hayot markazidan o'rin olishi yotadi. Odamlar o'rtasida muloqotning faollashuvi va samarali kommunikatsiya vositalari paydo bo'lishi texnogen sivilizatsiyaning o'ziga xos xususiyatlaridan biridir. Madaniyatda ilmiy oqilonalikalohida o'ziga xos qadriyat sifatida hukm suradi. Inson tabiatni faol va oqilona tarzda o'zgartirishiga imkoniyat yaratgan qonunlarning kashf etilishi fanning ustunligini tasdiqlaydi. Unda yangilik va unumdorlik, biluvchi sub'ektning bilimi, erkinligi va mustaqilligini tinimsiz oshirish talablari shakllanadi.

O.Toffler, D.Bell, K.Pekka ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanish darajasini tasniflash uchun asos qilib olib, quyidagi sivilizatsiyalarni farqlaydilar: – ilk sivilizatsiya (arxaik, an'anaviy yoki ibtidoiy jamoa); – qishloq xo'jalik-hunarmandchilik sivilizatsiyasi; – industrial (sanoatlashgan) sivilizatsiya; – hozirgi postindustrial yoki informatsion sivilizatsiya.

Madaniyat, uning tuzilishi va ijtimoiy funksiyalari. «Madaniyat» atamasi arabcha – «madina» so'zidan kelib chiqqan bo'lib, «shahar», degan ma'noni anglatadi. Arablar kishilar hayotini ikki turga ajratib, birini – badaviy yoki sahroyi turmush, ikkinchisini – madaniy turmush, deb ataganlar. Tugab borayotgan Rim imperiyasida, keyinchalik esa, O'rta asrlarda ham madaniyat tushunchasi shahardagi turmush tarzi va sivilizatsiya ne'matlari bilan bog'langan. Markaziy Osiyoda madaniyat axloq ko'rinishida shakllangan. SHu bois, eng qadimgi davrlardan hozirgi kungacha ham yurtimizda ma'naviy madaniyat, go'zallikka intilish, san'atni qadrlash kabilar

ustuvorlik qiladi. Uyg'onish davrida madaniyat shaxsiy barkamollik belgisi sifatida qaralgan. Shu davrda madaniyatni ma'naviy faoliyatning turli sohalari: vujudga kelayotgan fan, axloq, san'at, falsafa, din bilan bog'lash odati paydo bo'lgan. Madaniyat xulq-atvor andozalari majmui sifatida, ma'naviy faoliyat antik an'anasining davomi sifatida e'tirof etilgan. Shu ma'noda madaniyat tushunchasi ijtimoiy-ilmiy muomaladan o'rin olgan XVIII asrgacha amal qilgan. Ma'rifat davri faylasuflari madaniyatga inson faoliyatining alohida mustaqil va o'ziga xos jabhasi sifatida qaraydilar. Ularning talqinida, jamiyat va shaxs hayotining barcha sohalarida aql, oqilonalik tamoyillarining qaror topishi madaniyatning eng muhim jihatidir. Aqlning vazifasi insoniyat oldiga umumiy ahamiyatga ega bo'lgan maqsadlarni qo'yish va ijtimoiy o'zgarishlarni o'ziga bo'ysundirishdan iborat. Ma'rifat davrida madaniyat deb hisoblash mumkin bo'lgan narsalarni saralash mezonlari yaratildi. Madaniy faoliyat intellektual, ijodiy, samarali, novatorlik ruhi bilan sug'orilgan bo'lishi, ya'ni nafaqat yaratishi, balki inson imkoniyatlari sohasini tinimsiz kengaytirishi lozim edi. Ammo, madaniyatning asl mohiyati, uning o'ziga xosligi inson aqlining mutlaq erkinligi sifatidagi ma'naviy faoliyat doirasi bilangina cheklanardi.

Madaniy faoliyat. Madaniyat – inson dunyosi, faqat unga xos faoliyat usuli bo'lib, uni amalga oshirish jarayonida odamzod o'zi yaratayotgan narsalarga ruh baxsh etadi, tabiatni, o'zi yashaydigan muhitni insoniylashtiradi. Madaniy faoliyat ongli va qadriyatlarga qaratilgandir. Unda me'yorlarga rioya qilish va ularda nisbatan mustaqillik, maqsadga muvofiqlik va noutilitarlik o'zining uyg'un ifodasini topadi. Madaniy faoliyat umuminsoniy ideallar va qadriyatlarni etnik yoki mintaqaviy shaklda aks ettiradi. Madaniyat jabhasida inson faoliyati uning

ehtiyojlari bilan belgilanadi, lekin faqat ularga bog'liq bo'lmaydi. Unda maqsadga erishish uchun zarur bo'lgan elementlar ham, ortiqcha unsurlar ham mavjud. Ortiqchalik tushunchasi, madaniyat hodisalarida, ularning ma'naviy mazmunini amalda gavdalantirish uchun talab etiladigan vositalarning zarur darajasidan ortiqroq elementlar mavjudligini anglatadi. Madaniyatda utilitar maqsadga muvofiqlik mezoni bilan o'lchash mumkin bo'lmagan muhim qadriyatlar yaratiladi. Garchi madaniyat biologik, fizik, ijtimoiy, texnik-iqtisodiy va boshqa shunga o'xshash omillarga ta'sirchan bo'lsa-da, ular madaniyatda o'zining variativ – ko'p ma'noli ifodasini topadi. Bu madaniyatda erkinlik hamda butunlay yangi predmetlilikni yaratish imkoniyatlari mavjudligidan dalolat beradi.

Madaniyat funksiyalari. Ijtimoiy hodisa sifatida madaniyat ko'p sonli funksiyalarni bajaradi. U insonning bilish faoliyatini o'z ichiga oladi, ijtimoiy tajribani avlodlarga qoldirish va boshqa xalqlar madaniyatini o'zlashtirish vositasi sifatida informativ funksiyani bajaradi. Madaniyatning rivojlanishi u boshqa madaniyatlar bilan aloqa qilishini taqozo etadi.

Madaniyat normativ funksiyani ham bajaradi: u muayyan sivilizatsiyada shakllangan me'yorlarni amalga joriy etadi, shuningdek, o'z me'yorlari va qadriyatlarini yaratib, ularni inson hayoti va faoliyatining barcha jabhalariga tatbiq etadi.

Ijtimoiy-madaniy jarayonda davlat hayoti qadriyatlari muhim ahamiyat kasb etadi: ideokratik, teokratik yoki siyosiy davlat boshqa-boshqa madaniy mo'ljallarga tayanadi. Davlat o'z negizini mustahkamlaydigan me'yorlarning ustunligini ta'minlaydi va o'ziga tahdid solishi mumkin bo'lgan me'yorlarni siqib chiqaradi. O'z navbatida, madaniyat ham ijtimoiy tajribani saralash, uni ramziy tizimlarda mustahkamlashni amalga oshiradi.

Madaniyatning yana bir muhim funksiyasi insonni kamol toptirish hisoblanadi: individ madaniyatni o'zlashtirish jarayonida shaxsga aylanadi. Madaniyat normativ tartibga solinadigan faoliyat sanalgani bois, u qadriyatlarni yaratish sohasi sifatida namoyon bo'ladi. Madaniyat hodisalari ijtimoiy o'zgarishlarni boshqaradi, ularni ijtimoiy muhim maqsadlarni amalga oshirishga yo'naltiradi. Madaniyat qadriyatlari mazkur hamjamiyatda ijtimoiy mo'ljal berish va tartibga solish funksiyasini bajaradi. Madaniyat ijtimoiy munosabatlar tizimiga xizmatlar ko'rsatadi, bu erda yuz beruvchi o'zgarishlar va siljishlarni belgilaydi va tayyorlaydi, inson xulqatvorini tartibga solishni ta'minlovchi maxsus mexanizmlarni yaratadi. Bu, to'g'ridan-to'g'ri, bevosita tartibga solish bo'lishi mumkin (huquq, axloq, taqiq). Bu, jamiyatning, u yoki bu qadriyatlari va talablarini aks ettiruvchi ba'zi bir harakatlarni bajarishni buyurish orqali amalga oshiriladigan bilvosita tartibga solish bo'lishi ham mumkin.

Tarixning mazmunini aniqlash borasidagi izlanishlar. Ma'lumki, har qanday ijtimoiy hodisaning mohiyatini va uning, jamiyatning rivojlanish jarayonidagi o'rnini, faqat u butun jamiyatning rivojlanish jarayoniga bog'lab, ya'ni umumiy tarixiy jarayon doirasida o'rganilgan taqdirdagina tushunish mumkin. Bundan muqarrar tarzda butun insoniyat tarixiga tegishli bo'lgan savollar kelib chiqadi: tarixiy rivojlanishning biron-bir maqsadi mavjudmi; jahon tarixi qaysi yo'nalishda harakatlanadi; tarix biron-bir muayyan mazmunga egami? Bu savollarning barchasiga falsafaning «Tarix falsafasi» degan nom olgan bo'limi javob beradi.

I.A.Karimov (1938-2016) tarix falsafasini tarixiy xotira bilan uyg'un holda ko'radi. Uning fikricha, «Inson uchun tarxidan judo bo'lish – hayotdan judo bo'lish demakdir»28. Fikrining davomida

ehtiyojlari bilan belgilanadi, lekin faqat ularga bog'liq bo'lmaydi. Unda maqsadga erishish uchun zarur bo'lgan elementlar ham, ortiqcha unsurlar ham mavjud. Ortiqchalik tushunchasi, madaniyat hodisalarida, ularning ma'naviy mazmunini amalda gavdalantirish uchun talab etiladigan vositalarning zarur darajasidan ortiqroq elementlar mavjudligini anglatadi. Madaniyatda utilitar maqsadga muvofiqlik mezoni bilan o'lchash mumkin bo'lmagan muhim qadriyatlar yaratiladi. Garchi madaniyat biologik, fizik, ijtimoiy, texnik-iqtisodiy va boshqa shunga o'xshash omillarga ta'sirchan bo'lsa-da, ular madaniyatda o'zining variativ – ko'p ma'noli ifodasini topadi. Bu madaniyatda erkinlik hamda butunlay yangi predmetlilikni yaratish imkoniyatlari mavjudligidan dalolat beradi.

Madaniyat funksiyalari. Ijtimoiy hodisa sifatida madaniyat ko'p sonli funksiyalarni bajaradi. U insonning bilish faoliyatini o'z ichiga oladi, ijtimoiy tajribani avlodlarga qoldirish va boshqa xalqlar madaniyatini o'zlashtirish vositasi sifatida informativ funksiyani bajaradi. Madaniyatning rivojlanishi u boshqa madaniyatlar bilan aloqa qilishini taqozo etadi.

Madaniyat normativ funksiyani ham bajaradi: u muayyan sivilizatsiyada shakllangan me'yorlarni amalga joriy etadi, shuningdek, o'z me'yorlari va qadriyatlarini yaratib, ularni inson hayoti va faoliyatining barcha jabhalariga tatbiq etadi.

Ijtimoiy-madaniy jarayonda davlat hayoti qadriyatlari muhim ahamiyat kasb etadi: ideokratik, teokratik yoki siyosiy davlat boshqa-boshqa madaniy mo'ljallarga tayanadi. Davlat o'z negizini mustahkamlaydigan me'yorlarning ustunligini ta'minlaydi va o'ziga tahdid solishi mumkin bo'lgan me'yorlarni siqib chiqaradi. O'z navbatida, madaniyat ham ijtimoiy tajribani saralash, uni ramziy tizimlarda mustahkamlashni amalga oshiradi.

Madaniyatning yana bir muhim funksiyasi insonni kamol toptirish hisoblanadi: individ madaniyatni o'zlashtirish jarayonida shaxsga aylanadi. Madaniyat normativ tartibga solinadigan faoliyat sanalgani bois, u qadriyatlarni yaratish sohasi sifatida namoyon bo'ladi. Madaniyat hodisalari ijtimoiy o'zgarishlarni boshqaradi, ularni ijtimoiy muhim maqsadlarni amalga oshirishga yo'naltiradi. Madaniyat qadriyatlari mazkur hamjamiyatda ijtimoiy mo'ljal berish va tartibga solish funksiyasini bajaradi. Madaniyat ijtimoiy munosabatlar tizimiga xizmatlar ko'rsatadi, bu erda yuz beruvchi o'zgarishlar va siljishlarni belgilaydi va tayyorlaydi, inson xulqatvorini tartibga solishni ta'minlovchi maxsus mexanizmlarni yaratadi. Bu, to'g'ridan-to'g'ri, bevosita tartibga solish bo'lishi mumkin (huquq, axloq, taqiq). Bu, jamiyatning, u yoki bu qadriyatlari va talablarini aks ettiruvchi ba'zi bir harakatlarni bajarishni buyurish orqali amalga oshiriladigan bilvosita tartibga solish bo'lishi ham mumkin.

Tarixning mazmunini aniqlash borasidagi izlanishlar. Ma'lumki, har qanday ijtimoiy hodisaning mohiyatini va uning, jamiyatning rivojlanish jarayonidagi o'rnini, faqat u butun jamiyatning rivojlanish jarayoniga bog'lab, ya'ni umumiy tarixiy jarayon doirasida o'rganilgan taqdirdagina tushunish mumkin. Bundan muqarrar tarzda butun insoniyat tarixiga tegishli bo'lgan savollar kelib chiqadi: tarixiy rivojlanishning biron-bir maqsadi mavjudmi; jahon tarixi qaysi yo'nalishda harakatlanadi; tarix biron-bir muayyan mazmunga egami? Bu savollarning barchasiga falsafaning «Tarix falsafasi» degan nom olgan bo'limi javob beradi.

I.A.Karimov (1938-2016) tarix falsafasini tarixiy xotira bilan uyg'un holda ko'radi. Uning fikricha, «Inson uchun tarxidan judo bo'lish – hayotdan judo bo'lish demakdir»28. Fikrining davomida

u tarixiy xotirasi bor inson irodali inson, jamiyatning har bir a'zosi o'z o'tmishini yaxshi bilsa, bunday odamlarni yo'ldan urish, har xil aqidalar ta'siriga olish mumkin emas. tarix saboqlari insonni hushyorlikka o'rgatadi, irodasini mustahkamlaydi, o'zlikni anglash tarixni bilishdan boshlanadi, deb ta'kidlaydi. Buning uchun har bir millat o'zining tarixiy ildizlariga nazar solishi, u yoki bu mafkura ta'sirida xash-po'shlangan tarixiy xotirani o'z holicha, qayta tiklashga harakat qilishi lozim. «O'z tarixini bilmaydigan, kechagi kunini unutgan millatning kelajagi yo'q»29 . Shundagina millat, xalq o'z-o'zini anglaydi. Tarixchilar millatga uning haqqoniy tarixini ko'rsatib, isbotlab berishlari kerak. Zotan, tarix xalq ma'naviyatining asosidir.

Hozirgi zamon tarix falsafasida, tarixiy jarayon mantig'i va yo'nalishini tushuntirishga nisbatan ikki asosiy yondashuv: formatsion va sivilizatsion yondashuvlar mavjud. Formatsion yondashuv tarixni monistik, universalistik tushunishga asoslanadi. U jahon tarixini ijtimoiyiqtisodiy formatsiyalar olinma-ketin almashuvidan iborat yagona, chiziqli-hujumkor tabiiytarixiy jarayon sifatida talqin qiladi.

Ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalar haqidagi ta'limotni Karl Marks o'zining «Kapital», «Siyosiy iqtisod tanqidiga doir» kabi asarlarida ilgari surgan. Marks nazariyasining mohiyatini, uning bir qancha qoidalari orqali ifodalash mumkin:

1) ijtimoiy-iqtisodiy formatsiya – sifat jihatidan aniq, yaxlit ijtimoiy tizim bo'lib, uning muhim elementi odamlarning hayot faoliyati jarayonida ular o'rtasida o'rnatiladigan moddiy (iqtisodiy), ma'naviy (mafkuraviy) va boshqa aloqalar va munosabatlardir. Moddiy va ma'naviy munosabatlarning o'zaro aloqasida moddiy munosabatlar etakchi rol o'ynaydi. Ularning o'zagini ishlab chiqarish munosabatlari tashkil qiladi. Aynan ishlab chiqarish munosabatlari, ijtimoiy tizim faoliyatini belgilovchi asos hisoblanadi;

2) ijtimoiy-iqtisodiy formatsiya turli mamlakatlarda ular rivojlanishining muayyan bosqichida ijtimoiy hayotga xos bo'lgan umumiy jihatlarni aks ettiradi. Kapitalizmni o'rganish va turli mamlakatlardagi moddiy va ma'naviy munosabatlarni taqqoslash jarayonida bu munosabatlarning ko'pgina tomonlari takrorlanishining va mazkur mamlakatlar ijtimoiy rivojlanishning bir bosqichi – kapitalistik bosqichda, degan xulosaga kelingan;

3) ijtimoiy-iqtisodiy formatsiya jamiyat rivojlanishining muayyan bosqichidir. Ko'p sonli ijtimoiy aloqalar orasida ishlab chiqarish munosabatlarini farqlash, ularning bir necha turlari mavjudligini aniqlash imkonini ham bergan; turli ijtimoiy organizmlar bir xil ijtimoiy-iqtisodiy tuzilishga ega bo'lishi ham, har xil ijtimoiy-iqtisodiy tuzilishga ega bo'lishi ham mumkinligi (ya'ni, har xil tipdagi ishlab chiqarish munosabatlari) aniqlangan.

Shunday qilib, ishlab chiqarish munosabatlarining har bir tipi rivojlanish bosqichi, tarixiy davrni, bu ishlab chiqarish munosabatlarining rivojlanishi va o'zgarishi esa jamiyat rivojlanishining mohiyatini belgilaydi, degan xulosaga kelingan.

Bu qoidalardan kelib chiqib, ijtimoiy-iqtisodiy formatsiya – bu jamiyatning muayyan tarixiy tipi, ishlab chiqarishning muayyan usuliga asoslangan va ijtimoiy taraqqiyot bosqichi sifatida amal qiladigan yaxlit ijtimoiy tizim, degan to'xtamga kelish mumkin.

«Ijtimoiy-iqtisodiy formatsiya» kategoriyasini asoslash tarixiy jarayonni davriylashtirish imkonini bergan. U jami formatsiyalarning besh tipini farqlagan: ibtidoiy jamoa, quldorlik, feodalizm, kapitalizm, kommunizm. Jahon tarixiy

jarayoni bir formatsiyadan boshqa formatsiyaga yuksalishdan iborat bo'lgan chiziqli jarayon sifatida tavsiflagan.

XIX asrda ishlab chiqilgan formatsion yondashuv o'zini oqlamadi. Bunda tarixiy ri vojlanish jarayonini tushuntirishga nisbatan Marksning yondashuvi emas, balki uni dogmaga aylantirish va mutlaqlashtirish shakllandi. Ayrim tadqiqotchilar formatsion yondashuvni tahlil qilar ekanlar, uning quyidagi zaif jihatlarini qayd etadilar. Birinchidan, tarixning har qanday bosqichida jamiyat hayotini ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlargina belgilaydi, deb aytish o'rinli bo'lmaydi. Ikkinchidan, bir formatsiyadan boshqa formatsiyaga tabiiy yuksalish haqidagi monistik tasavvur inson erkinligiga, insoniyat rivojlanishining muqobil yo'llarini tanlashga o'rin qoldirmaydi. Uchinchidan, xalqlar, jamiyatlar, davlatlarning haqiqiy tarixi yuksalib boruvchi chiziq bo'ylab formatsion rivojlanishning tor doirasiga sig'maydi. Mazkur yondashuv amalga tatbiq etilganda har bir xalq va sivilizatsiyaning o'ziga xosligi va betakrorligi yo'qoladi, ular ayni holda kelajak barkamol jamiyatining sharti sifatidagina amal qiladi.

SHunday qilib, hozirgi davr sharoitida tarixiy jarayonni besh ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyadan iborat bo'lgan chiziqli sxema sifatida talqin qilishning bir yoqlamaligi, ayniqsa, bo'rtib namoyon bo'ladi. Jahon tarixiy jarayoni mazkur nazariy modeldan boyroq. SHu sababli ushbu talqinni tarixni tushunishga nisbatan o'zgacha, nochiziq yondashuv bilan to'ldirish talab etiladi. Sivilizatsionyondashuv tarixiy jarayonni tushunishga nisbatan aynan shunday yondashuvdir. Falsafani tushunishga nisbatan sivilizatsion yondashuv XIX–XX asrlarda vujudga kelgan. U, asosan, ko'p sonli madaniyatlar va sivilizatsiyalar mavjudligi, ularning lokalligi va har xilligi haqidagi g'oyani ilgari surishi bilan tavsiflanadi. Bu yerda ijtimoiy taraqqiyotning qat'iy bir chiziqli sxemasi rad etiladi.

Mazkur yondashuv asoschilaridan biri, tabiatshunos olim Nikolay Danilevskiy (1822–1885) bo'lgan. U har biri alohida-alohida mavjud bo'lgan, faoliyatning to'rt muhim shakli yoki sivilizatsiyalar «asosi» – diniy, madaniy, siyosiy,ijtimoiy-iqtisodiy asoslar orqali namoyon bo'luvchi madaniy-tarixiy tiplar (sivilizatsiyalar) haqidagi konsepsiyani ilgari surgan. Madaniytarixiy tiplar, biologik organizmlar kabi, tashqi muhit va bir-biri bilan uzluksiz kurash jarayonida bo'ladi va vujudga kelish, voyaga etish, qarish va halok bo'lish bosqichlaridan o'tadi. Jahon tarixining mazmunini, Danilevskiy o'zining alohida qonunlariga binoan rivojlanuvchi xalqlar madaniy-tarixiy tiplarining o'z-o'zini namoyon etish xususiyatlarini aniqlashdan iborat, deb bilgan.Danilevskiy madaniy-tarixiy tiplar rivojlanishining ayrim qonunlarini ta'riflagan: 1) bir tilda yoki o'xshash tillarda so'zlashuvchi xalqlar bir madaniy-tarixiy tipni tashkil etadi; 2) madaniy-tarixiy tip vujudga kelishi va rivojlanishi uchun muayyan siyosiy mustaqillik talab etiladi; 3) sivilizatsiyaning muvaffaqiyatlari madaniy-tarixiy tipning turli elementlariga bog'liq bo'ladi; 4) sivilizatsiyaning shakllanish jarayoni uzoq davom etadi, ularning ravnaq topish davri esa, qisqadir; 5) sivilizatsiyalar alohida va berk sharoitda rivojlanadi, lekin bu ular bir-biriga ta'sir ko'rsatmaydi, degan ma'noni anglatmaydi.

Danilevskiyning qarashlarini nemis mutafakkiri Osvald SHpengler (1880–1936) rivojlantirgan. U ham ijtimoiy taraqqiyotning bir chiziqli evropotsentristik sxemasiga tanqidiy yondashgan. SHpengler falsafasida madaniyat asosiy kategoriya hisoblanadi. Faylasuf madaniyat deganda o'ziga o'xshash boshqa «organizmlar»dan ajralib turadigan alohida «organizm»ni

tushungan. Bundan yagona umuminsoniy madaniyat yo'q va bo'lishi mumkin emas degan xulosa kelib chiqqan. Shu sababli Shpengler jahon tarixining yaxlitligi va yagonaligini, unda «o'zgarmas va umumiy» jihatlar mavjudligini rad etgan. U insoniyat tarixida sakkiz madaniyat: Misr, Hind, Bobil, Xitoy, Yunon-rim, Sharq, G'arbiy Yevropa va Mayya madaniyatlarini farqlagan. Shpengler fikriga ko'ra, har bir madaniy organizm ma'lum hayot muddati (taxminan ming yil) mobaynida mavjud bo'ladi, shundan so'ng u sivilizatsiyaga aylanadi va halok bo'ladi. Har bir madaniyat o'z teran mazmuniga ega bo'ladi va tarixiy jarayonda bir xil ahamiyat kasb etadi. Shpengler tarixning mazmuni madaniyatlar taqdiri, ruhi va tilini anglab etishdan iborat, deb hisoblaydi.

Lokal sivilizatsiyalar nazariyasining yana bir tarafdori, ingliz tarixchisi va sotsiologi Arnold Toynbi (1889–1975)dir. U Danilevskiy va Shpenglerning tarixning sikllliligi haqidagi fikrmulohazalarini rivojlantirib, uni ayrim, o'ziga xos va nisbatan berk sivilizatsiyalar tarixlarining yig'indisi sifatida tushungan (dastlab, u, 23 sivilizatsiyani farqlagan, keyinchalik esa, ularni 13 tagacha qisqartirgan). Toynbi sivilizatsiyalarga «evolyusion tipdagi faol tuzilmalar» sifatida yondashib, har bir sivilizatsiyada tarixiy mavjudlikning asosiy bosqichlari: vujudga kelish, rivojlanish, tanazzulga uchrash va zavol topishni farqlagan. Bu asosiy bosqichlardan o'tgach, sivilizatsiya, odatda, halok bo'ladi va uning o'rnini boshqa sivilizatsiya egallaydi.

Toynbi, bu sivilizatsiyalarda oldinma-ketin yuz beruvchi ijtimoiy jarayonlarni o'xshash, deb hisoblab, shunga asoslangan holda, yaqin kelajakda, dunyo miqyosida yuz beradigan voqealarni bashorat qilish imkonini beruvchi, ijtimoiy rivojlanish takroriyligining ayrim formal empirik qonunlarini keltirib chiqarishga harakat qilgan. U jahon tarixining mazmuni diniy evolyusiya hamda insoniyatning ma'naviy jihatdan kamol topishi bilan belgilanadi, deb hisoblagan. SHunday qilib, sivilizatsion yondashuv nuqtai nazaridan tarixiy jarayon hujumkor xususiyati «yuqori – quyi» ko'rsatkichlari bilan emas, balki har bir sivilizatsiya o'z rivojlanish va o'z taqdirini o'zi belgilash jarayonida insoniyat filogenetik yo'lining barcha asosiy bosqichlaridan o'tishi va o'z tarixi va betakror individualligiga ega bo'lgan noyob ijtimoiy tuzilma sifatida qaralishi bilan belgilanadigan izchil nochiziq jarayon sifatida namoyon bo'ladi.

Formatsion va sivilizatsion yondashuvlarni taqqoslash quyidagi xulosalarga kelish imkonini beradi: 1) formatsion yondashuv tahlil jarayonida butun jamiyatni qamrab olishga harakat qiladi va asosiy e'tiborni uning dinamikasiga qaratadi; sivilizatsion yondashuv esa, jamiyatning bir qismini (ayrim sivilizatsiyani) o'rganadi, jamiyatni esa, statik, deb e'tirof etadi; 2) formatsion yondashuv jamiyat hayotining iqtisodiy omillariga alohida e'tibor beradi; sivilizatsion yondashuv asosiy e'tiborni ma'naviy omillarga qaratadi.

Tarix falsafasi rivojlanishining hozirgi bosqichida tarixning shunday bir talqini vujudga keladiki, unda mualliflar bu muqobil yondashuvlarning ijobiy g'oyalaridan foydalanishga va ularning kamchiliklari o'rnini to'ldirishga harakat qiladilar. Mazkur yondashuv «monadaga doir yondashuv», degan nom olgan. Monadaga doir yondashuvning o'ziga xos jihati shundan iboratki, u jahon tarixiy jarayoniga ko'p sonli tarixiy individlar (sotsiumlar)dan iborat bo'lgan yaxlitlik sifatida qaraydi. Bunda monadaga doir yondashuvning formatsion elementi tarixiy rivojlanishning ayni bir bosqichini boshdan kechirayotgan turli mamlakatlar uchun umumiy bo'lgan jihatlarga, sivilizatsion element esa, ijtimoiy organizmlarning xususiyatlariga, ularning betakrorligiga e'tiborni qaratadi. Shunday qilib, monadaga doir

yondashuv doirasida formatsion yondashuvning umumlashtiruvchi imkoniyatlari va sivilizatsion yondashuvning individuallashtiruvchi imkoniyatlari ularni qarama-qarshi qo'yish asosida emas, balki ularning yagonaligi va bir-birini to'ldirishini tan olish asosida hisobga olinadi va ro'yobga chiqariladi. Yuqorida qayd etib o'tilganidek, tarixning mazmuni muammosi tarix falsafasining aksariyat yo'nalishlarida ko'zga ko'rinadigan o'rinni egallaydi. Ayni vaqtda shunday konsepsiyalar ham paydo bo'lganki, ularda tarixning mazmuni muammosi markaziy muammo hisoblanadi.

Falsafa tarixida ildizlari ilk falsafiy tizimlarga borib taqaluvchi ancha kuchli qadriyatlarga doir an'anaga duch kelish mumkin. Qadimgi davrdayoq faylasuflarni qadriyatlar muammosi qiziqtirgan. Ammo o'sha davrda qadriyat borliq bilan ayniylashtirilgan, qadriyatga xos bo'lgan xususiyatlar esa uning mazmuniga kiritilgan. Masalan, Zardusht, Moniy, Suqrot va Platon uchun yaxshilik va adolat kabi qadriyatlar haqiqiy borliqning bosh mezonlari hisoblangan. Bundan tashqari, qadimgi faylasuflar qadriyatlarni tasniflashga harakat qilganlar. Xususan, Moniy zulmat va ziyo dunyosi mavjud, birinchi dunyoda adolatsizlik, zulm, zo'ravonlik, ikkinchisida esa abadiy, engilmas doimiy qadriyatlar hukm suradi, deb hisoblaydi. Aristotel o'ziga to'q qadriyatlarni (ular jumlasiga faylasuf inson, baxt, adolatni kiritgan) va anglab etish imkoniyati insonning oqilligiga bog'liq bo'lgan nisbiy qadriyatlarni farqlaydi.

Turli falsafiy davrlar va ularda mavjud bo'lgan falsafiy maktablar qadriyatlar tushunchasining shakllanishiga o'z hissasini qo'shgan. Masalan, O'rta asrlarda G'arbda ham, Sharqda ham qadriyatlar diniy xususiyat kasb etgan va ilohiy mohiyat bilan bog'langan. Uyg'onish davrida A.Navoiy, A.Jomiy, Rumiy, Leonardo da Vinchi ijodida insonparvarlik va hurfikrlilik

qadriyatlari birinchi o'ringa chiqqan. Jumladan A.Navoiyning odil jamiyat qurish haqidagi g'oyasida umuminsoniy qadriyatlar tizimi, komil inson ta'limotida esa, eng etuk inson qiyofasiga xos shaxsiy qadriyatlar tizimi ifodalangan.

YAngi davrda qadriyatlar haqidagi ta'limotga nisbatan yondashuvlar ratsionalizm nuqtai nazaridan tavsiflana boshlanganki, bu hol fanning rivojlanishi va yangi ijtimoiy munosabatlarning shakllanishi bilan izohlanadi. Bu davrda qadriyatlar va ularning mezonlari muammosi Rene Dekart, Benedikt (Barux) Spinoza, Klod Adrian Gelvetsiy, Pol Anri Golbax, A.Avloniy, A.Donish, Furqat, Muqimiy va boshqa mutafakkirlarning asarlarida o'z aksini topgan. Jumladan, A.Avloniy «Turkiy guliston yoxud axloq» asarida, «yaxshi xulqlar» – muhabbat, yaxshilik, adolat, haqiqat, shijoat, ibrat kabi ijobiy qadriyatlarni va razolat, g'iybat, jaholat, adovat kabi «yomon xulqlar»ni farqlaydi. Keyinroq, XX asrda, o'zbek faylasufi S.SHermuxamedov Avloniy g'oyasini davom ettirib, insonga tabiat 36 ta ijobiy fazilat va 36 ta salbiy illat ato etganligini, ularning qay darajada namoyon bo'lishini, inson o'z hayotining qadriga etishida ko'rinishini e'tirof etadi.

XX asrning boshida fransuz faylasufi P.Lapi qadriyatlar nazariyasini ifodalash uchun «aksiologiya» (yunon. «axios» – «qadriyat», «logos» – «fan», «ta'limot») atamasini muomalaga kiritdi. Keyinchalik, aksiologiya muammolari fenomenologiya, germenevtika, ekzistensializm va boshqa falsafiy yo'nalishlarning vakillari tomonidan tadqiq etildi.

Aksiologiya nimani o'rganadi? Aksiologiya – falsafaning qadriyatlarni o'rganish bilan shug'ullanuvchi alohida bo'limi (yunon. «axios» – «qadriyatlar», «logos» – «bilim»: qadriyatlar haqidagi fan). Qadriyatlar ulkan falsafiy ahamiyatga ega. Qadriyatlar tushunchasi insonning dunyoga bo'lgan

yondashuv doirasida formatsion yondashuvning umumlashtiruvchi imkoniyatlari va sivilizatsion yondashuvning individuallashtiruvchi imkoniyatlari ularni qarama-qarshi qo'yish asosida emas, balki ularning yagonaligi va bir-birini to'ldirishini tan olish asosida hisobga olinadi va ro'yobga chiqariladi. Yuqorida qayd etib o'tilganidek, tarixning mazmuni muammosi tarix falsafasining aksariyat yo'nalishlarida ko'zga ko'rinadigan o'rinni egallaydi. Ayni vaqtda shunday konsepsiyalar ham paydo bo'lganki, ularda tarixning mazmuni muammosi markaziy muammo hisoblanadi.

Falsafa tarixida ildizlari ilk falsafiy tizimlarga borib taqaluvchi ancha kuchli qadriyatlarga doir an'anaga duch kelish mumkin. Qadimgi davrdayoq faylasuflarni qadriyatlar muammosi qiziqtirgan. Ammo o'sha davrda qadriyat borliq bilan ayniylashtirilgan, qadriyatga xos bo'lgan xususiyatlar esa uning mazmuniga kiritilgan. Masalan, Zardusht, Moniy, Suqrot va Platon uchun yaxshilik va adolat kabi qadriyatlar haqiqiy borliqning bosh mezonlari hisoblangan. Bundan tashqari, qadimgi faylasuflar qadriyatlarni tasniflashga harakat qilganlar. Xususan, Moniy zulmat va ziyo dunyosi mavjud, birinchi dunyoda adolatsizlik, zulm, zo'ravonlik, ikkinchisida esa abadiy, engilmas doimiy qadriyatlar hukm suradi, deb hisoblaydi. Aristotel o'ziga to'q qadriyatlarni (ular jumlasiga faylasuf inson, baxt, adolatni kiritgan) va anglab etish imkoniyati insonning oqilligiga bog'liq bo'lgan nisbiy qadriyatlarni farqlaydi.

Turli falsafiy davrlar va ularda mavjud bo'lgan falsafiy maktablar qadriyatlar tushunchasining shakllanishiga o'z hissasini qo'shgan. Masalan, O'rta asrlarda G'arbda ham, Sharqda ham qadriyatlar diniy xususiyat kasb etgan va ilohiy mohiyat bilan bog'langan. Uyg'onish davrida A.Navoiy, A.Jomiy, Rumiy, Leonardo da Vinchi ijodida insonparvarlik va hurfikrlilik

qadriyatlari birinchi o'ringa chiqqan. Jumladan A.Navoiyning odil jamiyat qurish haqidagi g'oyasida umuminsoniy qadriyatlar tizimi, komil inson ta'limotida esa, eng etuk inson qiyofasiga xos shaxsiy qadriyatlar tizimi ifodalangan.

YAngi davrda qadriyatlar haqidagi ta'limotga nisbatan yondashuvlar ratsionalizm nuqtai nazaridan tavsiflana boshlanganki, bu hol fanning rivojlanishi va yangi ijtimoiy munosabatlarning shakllanishi bilan izohlanadi. Bu davrda qadriyatlar va ularning mezonlari muammosi Rene Dekart, Benedikt (Barux) Spinoza, Klod Adrian Gelvetsiy, Pol Anri Golbax, A.Avloniy, A.Donish, Furqat, Muqimiy va boshqa mutafakkirlarning asarlarida o'z aksini topgan. Jumladan, A.Avloniy «Turkiy guliston yoxud axloq» asarida, «yaxshi xulqlar» – muhabbat, yaxshilik, adolat, haqiqat, shijoat, ibrat kabi ijobiy qadriyatlarni va razolat, g'iybat, jaholat, adovat kabi «yomon xulqlar»ni farqlaydi. Keyinroq, XX asrda, o'zbek faylasufi S.SHermuxamedov Avloniy g'oyasini davom ettirib, insonga tabiat 36 ta ijobiy fazilat va 36 ta salbiy illat ato etganligini, ularning qay darajada namoyon bo'lishini, inson o'z hayotining qadriga etishida ko'rinishini e'tirof etadi.

XX asrning boshida fransuz faylasufi P.Lapi qadriyatlar nazariyasini ifodalash uchun «aksiologiya» (yunon. «axios» – «qadriyat», «logos» – «fan», «ta'limot») atamasini muomalaga kiritdi. Keyinchalik, aksiologiya muammolari fenomenologiya, germenevtika, ekzistensializm va boshqa falsafiy yo'nalishlarning vakillari tomonidan tadqiq etildi.

Aksiologiya nimani o'rganadi? Aksiologiya – falsafaning qadriyatlarni o'rganish bilan shug'ullanuvchi alohida bo'limi (yunon. «axios» – «qadriyatlar», «logos» – «bilim»: qadriyatlar haqidagi fan). Qadriyatlar ulkan falsafiy ahamiyatga ega. Qadriyatlar tushunchasi insonning dunyoga bo'lgan

munosabatining alohida jihatini namoyon etadi. Ular inson faoliyati, jamiyat va madaniyatning o'ziga xos xususiyatlarini yanada teranroq anglab etish imkonini beradi. Qadriyatlar inson va jamiyat hayotida muhim o'rin egallaydi, chunki insonning hayot tarzini, uning hayvonot dunyosidan ajralish darajasini aynan qadriyatlar tavsiflaydi. Qadriyatlar shaxsning hayot faoliyatida fundamental ahamiyat kasb etadi. Qadriyatlar odamlarni jipslashtirish, ularni hamjamiyatlarga birlashtirishning muhim omili hisoblanadi. Umumiy qadriyatlarning mavjudligi fuqarolar, ijtimoiy birliklar va guruhlarning tinch-totuvligini ta'minlaydi. Qadriyatlar muammosi jamiyat rivojlanishining o'tish davrlarida, tub ijtimoiy o'zgarishlar jamiyatda mavjud bo'lgan qadriyatlar tizimlarida o'zgarishlar yasab, odamlarni yo o'zlari ko'nikkan eski qadriyatlarni saqlash, yo turli partiyalar, jamoat birlashmalari, diniy tashkilotlar, harakatlarning vakillari tomonidan taklif qilinayotgan, hatto majburiy tarqatilayotgan yangi qadriyatlarga moslashishga majbur etuvchi davrlarda alohida ahamiyat kasb etadi. Qadriyatlar va mo'ljallarni yo'qotish yoki vujudga kelgan qadriyatlar tizimi-dan voz kechish esa muqarrar tarzda jamiyatning tanazzulga yuz tutishi va parchalanishiga olib keladi. Qadriyatlar – madaniyatning tizim yaratuvchi muhim omili. Qadriyatlar mazmuniga qarab butun jamiyat haqida hukm chiqarish mumkin. SHu sababli, qadriyatlar nima, qadriyat va bahoning o'zaro munosabati qanday,qaysi qadriyatlar inson uchun eng muhim va qaysilari ikkinchi darajali, degan savollar bugungi kunda olamshumul ahamiyat kasb etadi. Aksiologiyaning predmetini barcha turdagi qadriyatlar, ularning tabiati, turli qadriyatlarning bir-biri, ijtimoiy va madaniy omillar hamda shaxs strukturasi bilan aloqasi tashkil etadi. Aksiologiya ta'limotiga ko'ra, qadriyatlar muayyan normativ kategoriya

bo'lib, ular maqsad, ideal, mayl, intilish, qiziqish predmeti sanalgan hamma narsani qamrab oladi. Quyidagilar bu nazariyaning asosiy tushunchalari va kategoriyalari hisoblanadi: yaxshilik, qadr-qimmat, foyda, ahamiyat, baho, g'alaba,hayotning mazmuni, baht, hurmat va hokazo. «qadriyat» tushunchasining falsafiy mazmuni nimada? Qadriyat mohiyati va tabiatining asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

1. Qadriyat o'z mohiyatiga ko'ra ijtimoiydir va ob'ekt-sub'ektli xususiyat kasb etadi. Ma'lumki, jamiyat bo'lmagan joyda qadriyatlar mavjudligi haqida gapirishning o'zi behudadir. Zero, narsalar, voqealar, ularning inson Bilan, sotsium hayoti bilan aloqasisiz, o'z holicha qadriyatlar bilan bog'lanmaydi. Xullas, qadriyatlar doim insoniy qadriyatlar hisoblanadi va ijtimoiy xususiyat kasb etadi. Bu insoniylashgan tabiatga, ya'ni butun sivilizatsiyagagina emas, balki, hatto ko'p sonli tabiat ob'ektlariga ham taalluqli. Masalan, kisloroddan iborat bo'lgan atmosfera Erda inson paydo bo'lishidan ancha oldin mavjud bo'lgan, lekin kishilik jamiyati vujudga kelganidan keyingina atmosferaning odamlar hayoti uchun ulkan ahamiyati haqida so'z yuritish imkoniyati tug'ilgan.

2. Qadriyat insonning amaliy faoliyati jarayonida vujudga keladi. Insonning har qanday faoliyati muayyan maqsadni belgilashdan boshlanadi va mazkur faoliyat ayni shu maqsadga erishishga bag'ishlanadi. Maqsad – individga o'zining muayyan ehtiyojlarini qondirish imkonini berishi mumkin bo'lgan faoliyatning pirovard natijasi haqidagi insonning tasavvuri. SHunday qilib, individ o'z faoliyatining mo'ljallangan natijasiga avval-boshdanoq qadriyat sifatida qaraydi. SHu sababli, inson natijaga erishishga qaratilgan faoliyat jarayonining o'ziga ham o'zi uchun muhim, qadrli bo'lgan jarayon sifatida yondashadi.

Albatta, insonning har qanday faoliyati va uning har qanday natijalari emas, balki ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan, ijtimoiy ehtiyojlarga va odamlarning manfaatlariga mos keladigan faoliyat va natijalargina qadriyatlarga aylanadi. Qadriyatlar qatoriga narsalargina emas, balki g'oyalar, munosabatlar, faoliyat usullari ham kiradi. Biz moddiy ne'matlarni ham, insoniy xattiharakatlar ezguligini ham, davlat qonunlarining odilonaligini ham, olamning go'zalligini ham, aqlning ulug'vorligini ham qadrlaymiz.

3. «Qadriyat» tushunchasini «muhimlik» tushunchasidan farqlash lozim. qadriyat «muhimlik» tushunchasi bilan nisbatlashadi, lekin u bilan ayniy emas. Muhimlik qadriyatga bo'lgan munosabatning faollik, qizg'inlik darajasini tavsiflaydi. Nimadir bizni ko'proq, nimadir kamroq ta'sirlantiradi, nimadir bizni o'ziga nisbatan butunlay befarq qoldiradi. SHuningdek, muhimlik qadriyat xususiyatigagina emas, balki «aksilqadriyat», ya'ni ziyon xususiyatiga ega bo'lishi ham mumkin. YOmonlik, ijtimoiy adolatsizlik, urushlar, jinoyatlar va kasallik lar jamiyat va shaxs uchun ulkan ahamiyatga ega, lekin bu hodisalarni qadriyatlar deb nomlash odat tusini olmagan. Qadriyat tushunchasining yuqorida keltirilgan umumiy tavsifidan kelib chiqib, unga quyidagi ta'rifni berish mumkin: «Qadriyat – bu borliq rang-barang elementlarining ob'ektiv ahamiyati bo'lib, ularning mazmuni jamiyat sub'ektlarining ehtiyojlari va manfaatlari bilan belgilanadi».

Baholash. Aksiologiyaning asosiy kategoriyalari qatoriga qadriyat bilan bir qatorda hajman juda keng tushuncha – «baholash» ham kiradi. Baholash – buyumning inson faoliyati, uning ehtiyojlarini qondirish uchun ahamiyatini anglab etish vositasi. Baholash sub'ektning o'z hayoti va faoliyati uchun hodisalarning ijtimoiy ahamiyatini aniqlashidir. U insonga

hodisalar dunyosida mo'ljal olish imkonini beradi, uning faoliyatini yo'lga soladi. Baholash universaldir: u sezgilar va aql-idrok darajasida, emotsiyalar va tuyg'ular, tasavvurlar, idroklar, mulohazalar, mayllar, istaklar, intilishlar, afzalliklar va albatta, faoliyat ko'rinishida ro'yobga chiqib, inson hayot faoliyatining barcha turlariga ta'sir ko'rsatadi.

Baholashning mohiyatini teranroq anglab etish uchun uni «qadriyat» bilan solishtirish o'rinli bo'ladi. Baholash va qadriyat – bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan tushunchalar, lekin ularning o'rtasida jiddiy farq ham mavjud. Xo'sh, bu farq nimalarda ko'rinadi? Birinchidan, qadriyat biz baho berayotgan narsa, ya'ni baholash predmeti bo'lsa, baholash – bu baho berish jarayoni, ya'ni aqliy faoliyat bo'lib, uning natijasi o'laroq borliqning muayyan predmeti biz uchun qanday qimmatga ega ekanligi aniqlanadi. Predmetni yoki uning xossasini foydali, yoqimli, yaxshi, chiroyli deb topib, biz baholashni amalga oshiramiz. Ikkinchidan, faqat ijobiy ahamiyat kasb etuvchi qadriyatlardan farqli o'laroq («salbiy qadriyatlar» bo'lishi mumkin emas), berilgan baho ijobiy bo'lishi ham, salbiy bo'lishi ham mumkin. Biz muayyan predmetni yoki uning xossasini foydali emas, balki zararli deb, topishimiz, muayyan xatti-harakatni yomon, axloqqa zid deb, baholashimiz, ko'rilgan filmni mantiqsiz deb, qoralashimiz mumkin. Bunday fikrlarning barchasi baholash hisoblanadi. Uchinchidan, qadriyat amaliy munosabat mahsuli sifatida ob'ektiv hisoblanadi. Baholash esa, sub'ektivdir: U ob'ektiv qadriyatning sifatigagina emas, balki baholovchi sub'ektning ijtimoiy va individual fazilatlariga ham bog'liqdir. Ayni shu sababli, ayni bir hodisa ayni bir davrda yashayotgan odamlar tomonidan turlicha baholanishi mumkin.

Ehtiyojlar va qadriyatlar. Insonga nima muhim? Muhimliklar dunyosi qadriyatlar dunyosi bilan ayniymi? Inson

faoliyatining birinchi manbai va harakatlantiruvchi kuchi ehtiyojlardir. Inson ehtiyojlari uning hayotini,xususan jismoniy, aqliy, ma'naviy, ishlab chiqarishga doir, oilaviy hayotni saqlash yoki o'zgartirish zaruriyatining ifodasi sifatida vujudga keladi. Ijobiy yoki salbiy aloqalar va munosabatlarning butun rang-barangligi tegishli ehtiyojlarni u yoki bu tarzda vujudga keltiradi. Inson bu ehtiyojlarni anglashi yoki anglamasligi yoinki noto'g'ri anglashi mumkin. Ammo, har qanday sharoitda ehtiyojlar insonni faoliyatga da'vat etadi. Bu faoliyat samarali yoki samarasiz, puxta o'ylangan yoki spontan va tartibsiz bo'lishi mumkin. Ehtiyojlar tashqi muhit predmetlari va sharoitlariga yoki ichki, ma'naviy uyg'unlikka erishishga muhtojlik sifatida anglanadi. Ular tashqi dunyo bilan muayyan munosabatlarda namoyon bo'lib, ob'ektlarni, o'zlari yo'naltirilgan mavjud borliqni ham, o'z manbai sanalgan sub'ektning muhim xususiyatlarini ham tavsiflaydi. SHaxs faolligining teran asosi sanalgan ehtiyojlar inson faoliyatini ularni ro'yobga chiqarishga yo'naltiruvchi mo'ljallar, mayllar va manfaatlarda o'z rivojini topadi. Aynan ehtiyojlar inson ongining nisbiy mezoni, uning mayllari, manfaatlari, didlari va ideallarining poydevori hisoblanadi. Inson ehtiyojlari o'zgaruvchan, harakatchan, o'zaro bog'langan va birbirining o'rnini bosishga qodir. Ularning ayrimlari vujudga keladi, ba'zilari yo'q bo'ladi, ayrimlari aktuallashadi, ba'zilari ikkinchi darajali ahamiyat kasb etadi. Inson ehtiyojlari sifat jihatidan cheksiz va kengayishga qodir, zero, ularning shakllanishi individlarning bir-biri va jamiyat bilan ijtimoiy aloqalarining ko'p sonliligi va intensivligini aks ettiradi. Ijtimoiy hayotning, ijtimoiy munosabatlar majmuining murakkablashuvi va differensiatsiyalanishi, moddiy va ma'naviy hayotning o'z me'yorlari va qadriyatlari bilan rivojlanishi, inson ma'naviy hayotining jo'shqinligi – bularning barchasi uning ehtiyojlari

o'zgarishi va rivojlanishini belgilaydi. Garchi, qadriyatlar ehtiyojlar bilan bevosita bog'liq bo'lsa-da, lekin ular bilan uzviy emas. Ehtiyojlar harakatchan, qadriyatlar nisbatan barqarordir; ehtiyojlar ierarxiyaviy bo'lib, ularning ierarxiyasi muntazam ravishda o'zgaradi, qadriyatlar esa nisbatan o'zgarmas va individ tomonidan uning ijtimoiylashuvi jarayonida o'zlashtiriladi. Bu hayotning har qanday sohasida yuz bergan yangiliklarga nisbatan ancha keng tarqalgan muxolifatni izohlaydi. Masalan, rim imperatorlari xristian dinining qimmatini tan olgunlariga qadar xristianlar asrlar mobaynida quvg'in qilinganlar. Belorusiyalik mashhur rassom Mark Shagalning o'ziga xos ijodi, garchi butun dunyoda yuksak baholangan bo'lsa-da, o'z vatanida hanuzgacha tan olinmagan va uncha ma'lum emas. Sezann ijodi rassomning o'limidan keyingina tan olingan, uning tiriklik paytida esa mazkur buyuk musavvirning asarlari Parijdagi zamonaviy san'at ko'rgazmalarida biror marta ham namoyish etilmagan, chunki nufuzli hay'at uning asarlarini diqqatga sazovor deb hisoblamagan va shu kabilar. Ayni hol shu bilan izohlanadiki, ehtiyojlar anglanishi yoki anglanmasligi yoinki noto'g'ri anglanishi mumkin. SHu sababli amalda muhim hodisalar qadriyatlar sifatida idrok etilmasligi, amalda qimmatga ega bo'lmagan narsa esa, yanglish tarzda qadriyat sifatida tasavvur qilinishi mumkin.

Jamiyat va inson hayotida qadriyatlarning roli. Ularni quyidagi uch guruhga ajratish mumkin:

1. Inson va jamiyat uchun ikkinchi darajali ahamiyatga ega bo'lgan qadriyatlar. Bu shunday qadriyatlarki, ularsiz jamiyat va insonning normal faoliyati izdan chiqmaydi.

2. Kundalik hayot va ehtiyojlar bilan bog'liq bo'lgan qadriyatlar. Bu guruhga aksariyat moddiy va ma'naviy qadriyatlar kiradi. Bular insonning moddiy va ma'naviy

faoliyatining birinchi manbai va harakatlantiruvchi kuchi ehtiyojlardir. Inson ehtiyojlari uning hayotini,xususan jismoniy, aqliy, ma'naviy, ishlab chiqarishga doir, oilaviy hayotni saqlash yoki o'zgartirish zaruriyatining ifodasi sifatida vujudga keladi. Ijobiy yoki salbiy aloqalar va munosabatlarning butun rang-barangligi tegishli ehtiyojlarni u yoki bu tarzda vujudga keltiradi. Inson bu ehtiyojlarni anglashi yoki anglamasligi yoinki noto'g'ri anglashi mumkin. Ammo, har qanday sharoitda ehtiyojlar insonni faoliyatga da'vat etadi. Bu faoliyat samarali yoki samarasiz, puxta o'ylangan yoki spontan va tartibsiz bo'lishi mumkin. Ehtiyojlar tashqi muhit predmetlari va sharoitlariga yoki ichki, ma'naviy uyg'unlikka erishishga muhtojlik sifatida anglanadi. Ular tashqi dunyo bilan muayyan munosabatlarda namoyon bo'lib, ob'ektlarni, o'zlari yo'naltirilgan mavjud borliqni ham, o'z manbai sanalgan sub'ektning muhim xususiyatlarini ham tavsiflaydi. SHaxs faolligining teran asosi sanalgan ehtiyojlar inson faoliyatini ularni ro'yobga chiqarishga yo'naltiruvchi mo'ljallar, mayllar va manfaatlarda o'z rivojini topadi. Aynan ehtiyojlar inson ongining nisbiy mezoni, uning mayllari, manfaatlari, didlari va ideallarining poydevori hisoblanadi. Inson ehtiyojlari o'zgaruvchan, harakatchan, o'zaro bog'langan va birbirining o'rnini bosishga qodir. Ularning ayrimlari vujudga keladi, ba'zilari yo'q bo'ladi, ayrimlari aktuallashadi, ba'zilari ikkinchi darajali ahamiyat kasb etadi. Inson ehtiyojlari sifat jihatidan cheksiz va kengayishga qodir, zero, ularning shakllanishi individlarning bir-biri va jamiyat bilan ijtimoiy aloqalarining ko'p sonliligi va intensivligini aks ettiradi. Ijtimoiy hayotning, ijtimoiy munosabatlar majmuining murakkablashuvi va differensiatsiyalanishi, moddiy va ma'naviy hayotning o'z me'yorlari va qadriyatlari bilan rivojlanishi, inson ma'naviy hayotining jo'shqinligi – bularning barchasi uning ehtiyojlari

o'zgarishi va rivojlanishini belgilaydi. Garchi, qadriyatlar ehtiyojlar bilan bevosita bog'liq bo'lsa-da, lekin ular bilan uzviy emas. Ehtiyojlar harakatchan, qadriyatlar nisbatan barqarordir; ehtiyojlar ierarxiyaviy bo'lib, ularning ierarxiyasi muntazam ravishda o'zgaradi, qadriyatlar esa nisbatan o'zgarmas va individ tomonidan uning ijtimoiylashuvi jarayonida o'zlashtiriladi. Bu hayotning har qanday sohasida yuz bergan yangiliklarga nisbatan ancha keng tarqalgan muxolifatni izohlaydi. Masalan, rim imperatorlari xristian dinining qimmatini tan olgunlariga qadar xristianlar asrlar mobaynida quvg'in qilinganlar. Belorusiyalik mashhur rassom Mark Shagalning o'ziga xos ijodi, garchi butun dunyoda yuksak baholangan bo'lsa-da, o'z vatanida hanuzgacha tan olinmagan va uncha ma'lum emas. Sezann ijodi rassomning o'limidan keyingina tan olingan, uning tiriklik paytida esa mazkur buyuk musavvirning asarlari Parijdagi zamonaviy san'at ko'rgazmalarida biror marta ham namoyish etilmagan, chunki nufuzli hay'at uning asarlarini diqqatga sazovor deb hisoblamagan va shu kabilar. Ayni hol shu bilan izohlanadiki, ehtiyojlar anglanishi yoki anglanmasligi yoinki noto'g'ri anglanishi mumkin. SHu sababli amalda muhim hodisalar qadriyatlar sifatida idrok etilmasligi, amalda qimmatga ega bo'lmagan narsa esa, yanglish tarzda qadriyat sifatida tasavvur qilinishi mumkin.

Jamiyat va inson hayotida qadriyatlarning roli. Ularni quyidagi uch guruhga ajratish mumkin:

1. Inson va jamiyat uchun ikkinchi darajali ahamiyatga ega bo'lgan qadriyatlar. Bu shunday qadriyatlarki, ularsiz jamiyat va insonning normal faoliyati izdan chiqmaydi.

2. Kundalik hayot va ehtiyojlar bilan bog'liq bo'lgan qadriyatlar. Bu guruhga aksariyat moddiy va ma'naviy qadriyatlar kiradi. Bular insonning moddiy va ma'naviy

ehtiyojlarini qondirish, jamiyatning normal faoliyat ko'rsatishi va rivojlanishini ta'minlash uchun zarur bo'lgan qadriyatlardir.

3. Oliy qadriyatlar – bu o'z ahamiyatiga ko'ra eng yuksak darajada turuvchi, odamlarning fundamental munosabatlari va ehtiyojlarini aks ettiruvchi qadriyatlardir. Oliy qadriyatlarsiz nafaqat inson shaxs sifatida kamol topa olmaydi, balki jamiyat ham normal hayot kechira olmaydi. Oliy qadriyatlarning mavjudligi doimo individning shaxsiy hayoti chegarasidan chetga chiqish bilan bog'liq. Ular individni uning o'zidan yuksak bo'lgan, uning hayotini belgilaydigan, uning taqdiri uzviy bog'liq bo'lgan narsalar bilan oshno etadi. Ayni shu sababli oliy qadriyatlar odatda umuminsoniy xususiyat kasb etadi.

Insonning o'zi qadriyat hisoblanadimi, degan savolning ikki tomoni bor 1) inson uchun boshqa odamning va umuman insonning qimmati nimada? 2) uning o'z hayotining qimmati nima bilan o'lchanadi? Tafsilotlarga berilmay shuni qayd etamizki, bu savollarga javoblar aniq va uzil-kesil bo'lishi mumkin emas. Gap shundaki, individning boshqa odamlarga qiziqishi odamlar qandayligigagina emas, balki uning o'zi qandayligiga ham bog'liq bo'ladi. Bunga yana shuni qo'shimcha qilish joizki, inson hayotining va insonning qimmati to'g'risidagi masalaning qo'yilishi tarixiy sharoitlar bilan bevosita bog'liq. Masalan, O'rta asrlarda feodal o'z krepostnoyini o'ldirishi jinoyat hisoblanmagan va jazoga tortilmagan. Hozirgi vaqtda har bir kishining yashash huquqi tan olingan va odam o'ldirish u yoki bu tarzda jazolanmaydigan mamlakat mavjud emas. Xullas,inson – alohida, mutlaq qadriyat. Qolgan barcha qadriyatlar inson manfaatlari nuqtai nazaridan baholanadi. Har bir shaxs hayotda ma'lum bir maqsadni ko'zlab harakat qiladi. Biroq uning maqsadi ma'no va mazmuni jihatdan har xil bo'lishi mumkin.

Qadriyatlar ierarxiyasi. Qadriyatlar shaxs va jamiyat ehtiyojlari, manfaatlari bilan belgilangani bois, ular murakkab tuzilishga va alohida ierarxiyaga ega bo'ladi. Qadriyatlar ierarxiyasi zamirida tirik mavjudot sifatidagi inson hayoti uchun zarur bo'lgan fundamental qadriyatlar (tabiiy boyliklar, moddiy yashash sharoitlari – turar joy, oziq-ovqat mahsulotlari, sog'liqni saqlash va sh.k.) va insonning ijtimoiy mohiyatiga, uning ma'naviy tabiatiga bog'liq bo'lgan oliy qadriyatlar yotadi. Birinchi guruhga moddiy (utilitar) qadriyatlar, ikkinchi guruhga esa ma'naviy qadriyatlar kiradi. qadriyatlarning birinchi guruhi insondan tashqarida yotuvchi maqsad bilan belgilanadi, ikkinchi guruh ichki asosga ega.Moddiy, utilitar qadriyat vositaning qimmatidir, zero, narsaning foydaliligi u nimaga xizmat qilishga mo'ljallangan bo'lsa, shu vazifa bilan belgilanadi. O'z vazifasini bajargach, bu narsa qadriyat sifatida o'z ahamiyatini yo'qotadi.Moddiy, utilitar qadriyatdan farqli o'laroq, ma'naviy qadriyat o'ziga to'q xusu- siyat kasb etadi va o'zidan tashqarida yotuvchi motivlarga muhtoj bo'lmaydi. Utilitar pragmatik qadriyatlar faoliyat maqsadini belgilasa, ma'naviy qadriyatlar inson faoliyatining mazmunini belgilaydi.

SHunga mos ravishda shaxsning ma'naviy dunyosi ham o'z ierarxiyasiga ega bo'ladi. Inson ma'naviyati uchta: ma'rifiy, axloqiy va estetik asoslarni o'z ichiga oladi. Ularga ma'naviy ijodkorlarning uch tipi: donishmand (biluvchi), taqvodor (avliyo) va san'atkor mos keladi. Bu asoslarning o'zagi ma'naviyatdir. Bilim bizga haqiqatning tagiga etish uchun imkoniyat yaratib, to'g'ri yo'l ko'rsatsa, axloqiy va estetik asos insonning o'z egoistik «Meni» chegarasidan chetga chiqib,ezgulik urug'ini sochish qobiliyati va ehtiyojini nazarda tutadi.Ma'naviy qadriyatlarning o'ziga xos xususiyati shundaki, ular noutilitar va noinstrumental xususiyat kasb etadi: ular boshqa biror narsaga xizmat qilmaydi,

aksincha, boshqa barcha narsalar ularga bo'ysunadi va oliy qadriyatlar bilan bog'liq holdagina muayyan mazmun kasb etadi. Oliy qadriyatlarning yana bir xususiyati shundan iboratki, ular muayyan xalq madaniyatining o'zagi hisoblanadi. Madaniyatda odamlarning fundamental umuminsoniy qadriyatlari: tinchlik, salomatlik va insoniyat hayoti mujassamlashadi. Madaniyatda muloqot qadriyatlari (do'stlik, mehribonlik, ishonch, oila), turmush tarzi qadriyatlari (ijtimoiy adolat, erkinlik, inson huquqlari va shu kabilar haqidagi tasavvurlar) o'z ifodasini topadi. Oliy qadriyatlar yo'l tanlash vaziyatlarining cheksiz to'plamida ro'yobga chiqadi

SHunday qilib, qadriyatlar tushunchasi shaxsning ma'naviy dunyosi bilan uzviy bog'liq. Aqlidrok, oqilonalik, bilimlar insonning maqsadga muvofiq faoliyatini belgilovchi ongning eng muhim elementlari hisoblansa, ular negizida shakllanuvchi ma'naviyat o'z hayot yo'lini, o'z faoliyatining maqsadlari va mazmuni hamda ularga erishish vositalarini tanlash to'g'risidagi masalani u yoki bu tarzda echayotgan inson hayotining mazmuni bilan bog'liq bo'lgan qadriyatlar qatoriga kiradi.

Xulosalar. Qadriyatlar inson va jamiyat hayotida o'z holicha emas, balki vujudga kelgan qadriyatlarga munosabatlar tizimi zaminida muhim o'rin egallaydi. Qadriyatlarning butun rangbarangligini uch asos: ijtimoiy hayot sohalariga, sub'ektlarga, qadriyatlarning jamiyat hayotidagi roliga ko'ra tasniflash mumkin. Quyidagilar inson uchun eng oliy qadriyat hisoblanadi: qadriyat sifatidagi hayot, qadriyat sifatidagi sog'liq va qadriyat sifatidagi erkinlik.

Nazorat savollari:

1. Tarix falsafasining maqsadi va vazifasini qanday tushunasiz?

• Tarix falsafasining jamiyat rivojiga qanday ta'sir ko'rsatishini izohlab bering.

2. Jamiyat rivojlanuvchi tizim sifatida qanday shakllanadi?

• Jamiyatning rivojlanish jarayonlarini qanday tushunasiz?

3. Sivilizatsiya tushunchasi va turli yondashuvlarning tasnifini tushuntirib bering.

• Sivilizatsiyaning tarixiy, madaniy va ijtimoiy jihatlari qanday tahlil qilinadi?

4. «Madaniyat» tushunchasining mohiyati, strukturasi va funksiyalarini sharhlang.

• Sharq va G'arb madaniyatlarining o'zaro ta'siri haqida qanday fikrda siz?

5. Qadriyat tushunchasining tavsifi va mohiyatini tushuntirib bering.

• Qadriyatlarning jamiyatdagi o'rni va ularning taraqqiyotga ta'siri qanday?

INSON FALSAFASI (FALSAFIY ANTROPOLOGIYA)

Reja:

1. Inson borlig'ining o'ziga xos xususiyatlari:
2. Ong tushunchasi va uning mohiyati:
3. Ongning kelib chiqishi va rivojlanishi:
4. Sharq va G'arb falsafasida inson muammosi:
5. Falsafiy antropologiyaning zamonaviy yondashuvlari:

Tayanch so'zlar: *Falsafiy antropologiya, inson, hayot, tasodif, insonning mohiyati, insonning vazifasi, hayotni tark etish.*

Inson ko'plab fanlar o'rganadigan predmetdir. Biologiya uni Homo sapiens turi sifatida qaraydi. Pedagogika uchun u tarbiya ob'ekti, sotsiologiya uchun – turli munosabatlar sub'ekti, kulturologiya uchun – madaniyatning ob'ekti va sub'ekti, iqtisodiy nazariya uchun -asosiy ishlab chiqarish kuchi va hokazo.

Tabiiy fanlar orasida an'anaviy (biologiya,antropologiya, meditsina va boshqalar) bilan bir qatorda nisbatan yangi fanlar (oliy nerv tizimi faoliyati fiziologiyasi, somatologiya, seksologiya va hoka-zo) paydo bo'ldi. Ijtimoiy bilim sohasida ham «eski» fanlar (psixologiya, sotsiologiya, tilshunoslik, etika) qatorida «yangi» fanlar (aksiologiya, germenevtika) kabilar faoliyat ko'rsatishadi.

Xxasrda ilmiy bilimning shiddatli rivoji, parallel tarzda boruvchi fanlarning faol differensiatsiyasi va integratsiyasi tabiiy-ilmiy va ijtimoiy fanlar chegarasida bir qator yangi fanlarning: bioetika va tibbiyot etikasi, sotsiobiologiya, psixofiziologiya va boshqalarning yuzaga kelishiga sabab bo'ldi.

Bu hol falsafaning inson muammolarini ko'rib chiqishdagi metodologik roli haqidagi masalani yanada dolzarb etib qo'yadi.

Biz yuqorida aytib o'tganimizdek, inson ko'p fanlar tomonidan predmet sifatida qaraladi, shu sababli bizning oldimizda muhim bir vazifa – inson muammosining aynan falsafiy aspektlarini ochib berish turadi.

Inson muammosining falsafaga oid masalalari deb quyidagilarni hisoblash mumkin:a) inson mohiyati; b) insonda ijtimoiylik va biologik (tabiiylik)ning nisbati; v) shaxsning erkinligi; g) insonning mavjud bo'lishi (borlig'i) va mohiyatining dialektikasi; d) inson hayotining maqsad va ma'nosi.

Aslida falsafa inson muammosini o'rganar ekan, u eng avvalo, insonni borliqning o'ziga xos bir shakli sifatida olib, uni eng murakkab borliq sifatida, uning o'ziga xos eng muhim tomonlari, xususiyatlarini, uni borliqning boshqa shakllari va ko'rinishlari bilan o'zaro bog'lanishlarini,aloqadorlik tomonlarini hamda ulardan tub farqlarini qarab chiqishi lozim. Shu sababli faylasuflar qadimdan boshlab insonning o'ziga xos muhim, boshqa barcha tirik mavjudotlardan farq qildiruvchi xususiyati deb, uning aqlini tushunganlar. Shu tufayli ular insonni dastlab o'z asarlarida «aqlli mavjudot», «aqlli hayvon» deb ta'riflaganlar. Keyinchalik jamiyatning taraqqiyoti asosida ular insonni «siyosiy hayvon», «ijodkor hayvon», «tarixning ijodkori», «gapiradigan, tilga va nutqqa ega hayvon», "dunyoga diniy munosabatda bo'luvchi mavjudot», deb izohlay boshlagan. Ma'lum davrlardan keyin esa ba'zi faylasuflar insonni «ma'lum maqsadga yo'naltirilgan, xulq-atvorga ega bo'lgan mavjudot», deb tushuntira boshlaydilar.

Falsafa inson borlig'ini olamning tarkibiy qismi sifatida o'rganadi. Inson — o'zida biologik, ijtimoiy va psixik xususiyatlarni mujassamlashtirgan ongli mavjudot. Inson

shunday murakkab va ko'p qirrali mavjudotki, uning mohiyati yaxlit bir butunlik sifatida inson, shaxs, individ, individuallik tushunchalari orqali ifodalanadi. Bu tushunchalar bir-biriga yaqin va ma'nodosh bo'lsa ham, bir-biridan farqlanadi.

Qadimdan boshlab faylasuflar insonni hayvonlardan ajratib turadigan asosiy tafovutlardan biri deb, inson xulqini qayd qilganlar. Insonning xulqi uning ongi yordamida boshqariladi, u insonda ijtimoiy muhit ta'sirida, jamiyatning ta'limi, tarbiyasi va madaniyati orqali shakllanadi.

Lekin ko'pchilik mutafakkirlar inson bilan hayvonlarni ajratib turadigan muhim farq bu – insonning ongi, insonda ongning mavjudligi, deb tushuntiradilar. Bunday yondashuv ma'lum darajada to'g'ri. Biroq inson bilan hayvonlar o'rtasidagi bu farq ulardagi asosiy va muhim farqlardan faqat bittasidir, xolos. Bunda boshqa muhim farqlarni ham hisobga olish zarur. Masalan, ko'pchilik mutafakkirlar va faylasuflar insonni hayvonlardan farq qildiruvchi muhim belgi – bu insonga xos til, nutq tili, degan fikrni ham bildirishgan.

Ong – falsafaning sub'ektiv reallikni ifodalovchi g'oyat keng kategoriyasidir; odamning, uning miyasi va psixikasining tashqi dunyoni ideal aks ettirishidir; insonning ma'naviy dunyosidir, o'zining dunyoda borligini anglab etishidir; uning tashqi dunyoga munosabatidir.

Odam – fikr yurituvchi, ongga ega mavjudotdir. Ong yordamida odam tashqi dunyoda faol harakat qiladi, uni biladi, u bilan sub'ekt-ob'ekt munosabatda bo'ladi. Ong tufayli shaxsning ma'naviy dunyosi, uning emotsiyalari, kechinmalari, tashvish va istaklari, orzu-umidlari, fantaziyalari mavjud. Xuddi shu ongi tufayli inson hayvonot dunyosidan farq qiladigan aqlli mavjudot sifatida mavjuddir. Insonning barcha hayvonlardan farqlantiruvchi xususiyati bo'lgan ong to'g'risida gapirar ekan,

O'rta Osiyolik atoqli faylasuf Al-Farobiy bunday deb yozgan edi: «Inson o'zining alohida xususiyatlari bilan barcha hayvonlardan farq qiladi, chunki unda jon bor, undan tana a'zolari vositasida ta'sir etuvchi kuchlar paydo bo'ladi, bundan tashqari, unda tana a'zolarining vositasisiz ta'sir etuvchi kuch ham bor; bu kuch aqldir»1.

Fan va falsafada ong muammosi – bu, pirovardida, psixologik, fiziologik va sotsial holatlarning o'zaro nisbati, munosabati masalasidir:agar inson aqli materiya evolyusiyasining natijasi bo'lsa, fikr fikrlovchi materiyaning, inson bosh miyasining, miya katta yarim sharining oliy xossasidir.

Inson ongi til bilan uzviy bog'liqdir. Til fikrning moddiy ko'rinishidir, shaklidir. Odam fikrning mazmunini turli lisoniy tizimlar: og'zaki nutqlar va yozma matnlar, hozirgi zamon informatikasining sun'iy tillari yoki turli simvollar, kodlar, shifrlar, formulalar va hokazolar orqali bilib oladi.

Ong fenomenini falsafiy tahlil qilishga materializm, idealizm, dualizm, gilozoizm, panteizm kabi falsafiy oqimlarda turlicha yondashuvlar mavjud.

Materializm namoyandalarining ko'pchiligi ongni in'ikosning alohida shakli deb biladi. Materialistik nuqtai nazardan in'ikos harakatlanuvchi, rivojlanuvchi, o'zgaruvchi materiyaning atributlaridan biridir, ong – tashqi dunyoning inson miyasidagi in'ikosining oliy shaklidir, jonli tabiat evolyusiyasining yakunidir, bu – bugungacha ma'lum bo'lgan moddiy tuzilmalardan eng murakkabining – inson miyasining – qurshab turgan dunyoni ideal obrazlar shaklida aks ettirish layoqatidir.

Idealistik falsafa ongni, ruhiy, ideal hodisani, moddiylikka bog'liq bo'lmagan, undan oldingi va hatto uni tug'diradigan omil deb biladi. Idealizm ideal, ruhiy hodisalarni moddiylik sababli kelib chiqqan va ular o'zaro bog'liqdir deb bilmaydi, balki hatto

buni to‘g‘ridan-to‘g‘ri inkor etadi, uni sub’ektiv kechinmalar, assotsiatsiyalar, fikrlar va g‘oyalarga to‘liq bo‘lgan biqiq, o‘ziga mustaqil dunyodir deb biladi, uningcha bu g‘oyalar yo moddiy dunyo bilan birga yashaydi, yoki tashqi dunyoning demiurgi, yaratuvchisidir.

Ob’ektiv idealizm vakillarining fikricha, go‘yo nomukammal, illyuzor moddiylikdan farqli o‘laroq, ideal narsa haqiqiy,abadiy, mukammal borliqdir. Ruh,aql, ideal narsa materiyadan avval bo‘lgan yoki u bilan birga yashaydi. Aflotunning «g‘oyalar dunyosi», Xegelning «absolyut g‘oya»si ana shunday. «G‘oyalar dunyosi», «absolyut ideya» faoldir; materiya, tabiat – passiv, turg‘undir. Aristotelning fikricha, faol ruh inert,amorf, turg‘un, o‘z mavjudligiga loqayd materiyani shakllantiradi, ruhlantiradi, unga tegishli tus beradi, ichki shakl, demak mohiyat va ma’no ato etadi.

Boshqa bir falsafiy yo‘nalish – **sub’ektiv idealizm** tarafdorlari ong muammosini birmuncha boshqacha hal qiladilar. Ularning fikricha, sub’ektning irodasi, ongi va aqliga bog‘liq bo‘lmagan holda ob’ektiv reallik mavjuddir degan tezis to‘g‘ri emas,aksincha, odam yashab turgan dunyo fikrlovchi sub’ektning sezgilari, tasavvurlari, kechinmalari, kayfiyatlari, ta’surotlari kompleksidir, yig‘indisidir. Sub’ektiv idealizmning eng yirik namoyondalari – D.Berkli, I.G.Fixte, D.Yum. Hozirgi vaqtda neopozitivizm, tanqidiy ratsionalizm, eksistensializmning ayrim tarafdorlari mazkur oqimga yaqinroq pozitsiyada turadilar.

Sub’ektiv idealizmning eng uchiga chiqqan shakli **solipsizm** nomini olgan falsafiy oqim bo‘lib, u faqat odamning, uning sub’ektiv dunyosining, ongining mavjudligiga asoslanadi, ob’ektiv dunyo, barcha predmetlar, odamlar, individni qurshab turgan hodisalar esa, uningcha, faqat odamning ongida mavjuddir. XIX-XXasr chegaralarida solipsizmning sub’ektiv-

idealistik g‘oyalari immanent falsafa maktabining Germaniyadagi (E.Max, R.Avenarius), Rossiyadagi (N.O.Losskiy) va Evropaning boshqa mamlakatlaridagi vakillari tomonidan rivojlantirildi.

Eng yirik vakili R.Dekart bo‘lgan **dualizm** kabi falsafiy yo‘nalish ong masalasida o‘ziga xos o‘rin tutadi. Dualistlar borliq asosida ikkita mustaqil, tenghuquqli boshlang‘ich nuqta – modda va ruh mavjud deb da’vo qiladilar. Ong fenomenini **gilozoizm** deb atalgan falsafiy oqim o‘ziga xos tarzda talqin qiladi. U jonli tabiat bilan jonsiz tabiat o‘rtasidagi chegarani inkor etadi, butun materiya biron-bir darajada jonlidir, jonlantirilgandir, unga sezgi, psixika, ruh ato etilgandir, deb biladi.

Panteizm falsafasining vakillari gilozoizmga yaqin pozitsiyada turadilar. Ular «Xudo», «tabiat», «ruh» tushunchalarini maksimal darajada bir-biriga yaqinlashtiradilar. Panteizm g‘oyalari ilk sufizm oqimiga yaqin turadi. O‘rtaasr Sharqining atoqli mutafakkiri Al-G‘azzoliy shu oqimning yorqin vakili edi. Panteizm g‘oyalarini Jordano Bruno va Benedikt Spinoza yangi zamonning Evropadagi falsafiy an’anasi asosida rivojlantirdilar. Hozirgi, postklassik falsafaning ko‘pdan-ko‘p oqimlari ongni tahlil qilishga zo‘r e’tibor bermoqdalar. Masalan, Z.Freyd, K.Yung, E.Fromm nomlari bilan bog‘liq bo‘lgan **psixoanaliz** falsafasi ongsizni, uning sub’ektning ma’naviy borlig‘idagi rolini, shaxsning ongi va xulq-atvoriga ta’sirini o‘rganishga katta e’tibor beradi.

Inson ongining kelib chiqishini tushunib olish kaliti, bu – uning biologik tuzilishi (eng avvalo, miyaning g‘oyat murakkab tuzilishi va funksiyasi) hamda shakllanayotgan odamning tabiatni va o‘zini o‘zgartirib borgan faoliyatidir. Insonning amaliy faoliyati mohiyatini tushunmay turib ongning kelib chiqishini tushunish mumkin emas. Hayvondagi in’ikos shakllari bilan odamdagi in’ikos shakllari o‘rtasidagi tub farqning sababi ular

faoliyatining xarakteridadir. Hayvonlarning instinktiv-biologik,adaptatsion-moslashuvchanlik faoliyati odamning mehnatidan qanchalik farq qilsa hayvonlarning psixik faoliyati ham odamning ongidan shunchalik farq qiladi.

Fikrlash faoliyati asosida paydo bo'lgan va shakllangan inson ongi o'z shakli bo'yicha individual, lekin mohiyati bo'yicha ijtimoiy, sotsial hodisadir. Inson ongining fiziologik asosi miyadir. Lekin bu erda miya o'z-o'zicha fikrlamasligini, balki miya yordamida odam fikrlashini tushunib olish muhimdir. Ongning paydo bo'lishida asosiy ijtimoiy rolni mehnat o'ynaydi, chunki mehnat odamni shaxs sifatida shakllantiradi, uning ijodiy potensiali, imkoniyati va qiziqishlarini, qurshab turgan dunyoni tushunishga, uning tarkibida o'z o'rnini tanlashga, uni o'z maqsad va vazifalariga bo'ysindirishga, inson uchun foydali qilishga intilishlarini rivojlantiradi.

Ong paydo bo'lishining yana bir eng muhim omili **tildir**. Til odamlarning ijtimoiy tajribalarini ifodalab beradi, insoniyatning tarixiy taraqqiyotida tafakko'rning uzluksizligini ta'minlaydi. Inson fikri, g'oyalari, tasavvurlari so'zlarda ifodalanadi, shakllanadi, shuning uchun til, bu – fikrni, ongni ifodalashning universal vositasidir, kishilarning aloqa qilish,axborot almashish vositasidir.

Mehnat va til – ong rivojining asosiy ijtimoiy omillaridir,ammo birdan-bir omili emas. Inson hayotining, demak tafakkurining ham ijtimoiy asosi ko'pgina boshqa komponentlarni, masalan, siyosiy, huquqiy,axloqiy, tashkiliy, gnoseologik va hokazo komponentlarni o'z ichiga oladi.

Inson ongi boshqa kishilar ongining, butun sotsium ijtimoiy ongining, ijtimoiy guruhlar (milliy, diniy, kasbiy, yosh bo'yicha va hokazo guruhlar) ongining, madaniyat, fan, mavkura, ommaviy axborot vositalari va kommunikatsiyaning ta'siri ostida bo'ladi va

ular bilan faol o'zaro ta'sirda bo'ladi. Xuddi shular orqali odam o'zining kundalik hayotida shaxsga, ijtimoiy mavjudotga, insoniy madaniyat sohibiga aylanadi.

Shaxsning asosiy tuzilmaviy elementi **ruhiyat (psixika)dir**. Ongning o'zi esa psixikaning oliy ko'rinishidir, chunki oliy hayvonlarda materiya tuzilishining biologik darajasida vujudga kelgan psixikaning o'zi murakkab tuzilishga egadir va tadrijiy evolyusiya natijasida borliq tuzilishining sifat jihatidan boshqacha, ijtimoiy darajasida ongni keltirib chiqaradi.

Odamning psixikasi shaxsning psixik tuzilishini, uning xarakterini, temperamentini, qobiliyatlarini, qadriyat mo'ljallarini, o'zini-o'zi tahlil qilish va baholashini, individual fikrlash uslubi va turmush tarzini belgilab beradi. Inson psixikasi ongni ham, inson ichki dunyosining ong nazoratidan tashqarida bo'lgan qatlamini, ya'ni ongsizlik va ong ostini ham o'z ichiga oladi.

Ongga, bir butun bog'langan tizim sifatida, uning sezgi, idrok, emotsiya, iroda, fikr va xotira kabi ajralmas elementlari kiradi. Bir butunlik ongning tizimiy sifati bo'lib, ong fenomeni mohiyatining o'ziga xosligi uning tarkibiy qismlarining har qandayiga nisbatan mutlaqo zarurligini bildiradi.

Sezgi. Inson sezgilari tashqi dunyo haqidagi axborotlarni asosiy etkazib beruvchilardir. **Ko'rib, ushlab, hidlab, eshitib va ta'mga** qarab sezishlar sub'ektga dunyoni bilishga, o'zini qiziqtirgan ob'ektni topishga, u turgan joyni aniqlashga, uning rangi, hidi, ta'mi, qattiq yo yumshoqligi, xarorati va boshqa sifatlari haqida axborot olishga imkon beradi.

Idrok. Ibn Sino idrok haqida bunday deb yozgan: «Odamning xususiyati shundayki, u kamyob narsalarni idrok qilganida unda ajablanish degan refleks paydo bo'ladi, shundan keyin kulgi keladi. Zararli narsalarni idrok qilish esa qo'rquv deb atalgan

refleksni keltirib chiqaradi, shundan keyin yig'i keladi... Demak, odam umumiy qarash qobiliyatiga egadir hamda ayrim narsalar haqida: u foydali yoki zararli narsani qilishi lozimmi yoki lozim emasligi, bu xavflimi yoki xavfsiz, yaxshimi yoki yomon ekanligi haqida o'ylab ko'rish qobiliyatiga egadir»2.

Idrok – sub'ektning axborotni qayta ishlashida sezgidan keyingi bosqichdir. Bu bosqich davomida ob'ekt, uning zamon va makoniy tavsifi yaxlit holda anglab olinadi va ideal obraz unga taalluqli moddiy ob'ektning o'zi bilan, ya'ni idrok ob'ektining o'zi bilan taqqoslanadi. Tafakkur tufayli sezgi va idrok natijalariga ma'no va mazmun beriladi, munosib va tushunish qulay shakl izlab topiladi.

Emotsiya. Ong tuzilishining emotsional komponenti hodisalar va voqealarga ijobiy yoki salbiy munosabat (umid, quvonch, qo'rquv, umidsizlik va sh.k.) yoki loqaydlikni keltirib chiqaradi. Shaxsni baxslashish, tashvishlanish, emotsional shok,affekt holatida bo'lishga (rashq qilish, nafratlanish, yomon ko'rishga) undaydi, uning stress yoki frustratsiya (gangirab qolish, ruhiy ezilish) holatida bo'lishiga, quvonishi yoki g'azablanishiga sabab bo'ladi. Kechinmalar va emotsiyalarning axborot jihatidan muhim tomoni sub'ektning ob'ektga bergan bahosidan iborat (yaxshi – yomon, yaxshiroq – yomonroq va hokazo).

Iroda. Emotsiyalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish sub'ektning irodasi bilan uzviy bog'liqdir. Sub'ekt faoliyat ko'rsatayotgan ob'ektiv sharoit bilan uni amalga oshirishning sub'ektiv imkoniyatlari tafovut qilib qolganda sub'ekt faoliyatini iroda yordamida tiklash, tartibga solish zarur bo'ladi. Shaxs avval echim tanlab, qaror qabul qilib, so'ngra uni amalga oshirishi zarur bo'lib qolgan hayotiy vaziyatda iroda ishga solinadi. Irodaning ishtirokisiz ong hech bir ish qilolmaydi, iroda

odamning xatti-harakatini tartibga solib turadi, uni istalgan maqsadga erishishga yo'naltiradi. Bu erda sub'ektning ishning ko'zini bilib qaror qabul qila olishi alohida rol o'ynaydi, bu esa iroda erkinligini bildiradi.

Xotira. Ong tizimida xotira tajribaning integral yig'uvchisi va ifodachisi bo'lib xizmat qiladi. Xotira – kishining yoki kishilik jamiyatining o'zining yoki o'zganing o'tgan zamondagi faoliyatini hozirgi zamonda saqlab qolish va tiklash layoqatidir. Xotira shunday bir yo'naltiruvchiki, u tufayli sub'ekt vaqtda ham, makonda ham muvaffaqiyatli yo'nalish oladi, bu esa uning faoliyat rejalari, sxemalari va dasturlarini tuzishida ifodalanadi. Xotiraning boshqa bir funksiyasi – o'tmishdagi voqelikni tafakkuriy qayta tiklashdir. Xotira insonga tarixiy o'tmishni va istiqbolni ko'rishga, kelajakni oldindan ko'rishga imkon beradi.

Tafakkur. Tafakko'rning o'zi emas, balki odam fikrlaydi. Odamning tafakkuri hamisha g'oyat shaxsiy va individualdir va sub'ektning qurshab turgan dunyodagi ob'ektiv aloqalar va munosabatlarni muayyan maqsadni ko'zlab, umumiy va vositali tarzda bilishini, sub'ektning ijodiy, bunyodkorlik faoliyatini, sodir bo'layotgan hodisalar va voqealarni aks ettirishdan oldin prognoz qilishni, yangi g'oyalar, qarashlar, farazlar va nazariyalar yaratishni o'z ichiga oladi. Tafakkur odamning dunyoqarashini, uning dunyoni his qilishi va idrok etishini, odamning o'z borlig'iga, o'z qilmishlariga, orzu-umidlariga o'zi bergan bahoni doimo kengaytirib boradi. Odamning tafakkuri murakkab va faol jarayondir, u abstraktlashtirish va umumlashtirish,analiz, sintez, taqqoslash, o'xshatishni, o'zining murakkabligi, xarakteri va mazmuni jihatidan g'oyat xilma-xil bo'lgan vazifalarni oqilona o'rtaga qo'yish va hal etishni o'z ichiga oladi. Fikrlovchi odam mantiqiy natija va xulosalar chiqarishga, hayotiy tajribaga, mehnat va kasb malakasi va mahoratiga ega bo'la oladi, u biron-

bir masala bo'yicha o'z nuqtai nazarini isbotlashga, dalillar bilan asoslab berishga va himoya qilishga layoqatli bo'ladi.

Ongdan tashqari, odamning xatti-harakatiga, uning butun ruhiy olamiga g'ayri shuuriy jihatlar, **ongsizlik** va ongosti katta ta'sir qiladi. Shu ikki komponent – ong va ongosti (ongsizlik) – bir-biriga kuchli ta'sir o'tkazadi, ular ajralmasdir va, ifodali qilib aytganda, qattiq o'zaro nazorat va ta'sir ostida bo'ladi. Ongsizlik – inson aqliy sohasidan tashqarida, ong tomonidan nazoratga olinmaydigan turli ruhiy hodisa va holatlar majmuidir. Hozirgi ilmiy tasavvurlarga ko'ra, odamning ongi borib etmagan,anglab olinmagan psixik faoliyati shunday sezgilar, idroklar va tasavvurlarni o'z ichiga oladiki, ba'zan ularga odamning aqli etmaydi, odam ob'ektga qaraydi-yu, uni ko'rmaydi, payqamaydi, eshitadi-yu, eshitganini idrok etmaydi. **Ongosti (ongsizlik)** sohasi ruhiy borliqning tush, gipnoz holati,anglab olinmagan istak, sub'ektning hayotidagi noxush voqea arafasida oldindan his qilingan qo'rquv kabi shakllarini qamrab oladi. Ongsizlik sohasiga insonning biologik mavjudot sifatidan holi bo'lmagan instinktlari kiradi. **Instinktlar** insonda ongosti istak-mayllari, tuyg'ulari, hohish impulslarini paydo qiladi, keyin ular ong sohasiga aylanadi.

Avtomatizm deb ataladigan hodisa va intuitsiya ong yordamida tug'ilishi, keyin esa ongsizlik sohasiga o'tishi mumkin.avtomatizm insonning murakkab harakatlari bo'lib, dastlab ong nazorati ostida sodir bo'ladi, uzoq mashq qilishlar, ko'plab takrorlashlar oqibatida nazoratdan chiqadi va ongsizlikka aylanadi. Masalan, musiqa asboblarini chalish, suzish, velosiped yoki avtomobil haydash, ba'zi oddiy mehnat qilish usullari va hokazo. Bunday avtomatizmlar hayotimizga chuqur kirib borgan. Ongsizlik tizimida odamning muayyan vaziyatda ma'lum faollikka intilishi, tayyorligi muhim o'rin tutadi.

Ong ostida shaxsning hayotidagi juda ko'p hajmdagi axborotlar, uning individual turmush tajribasi o'rnashib, yig'ilib qoladi. Inson tomonidan avtomatik, instinktiv tarzda sodir etiladigan, himoya mexanizmi rolini bajaradigan va miyani doimiy zo'riqishdan himoya qiladigan ko'pgina harakatlar ongosti tomonidan nazorat qilinadi va boshqariladi. G'ayri shuuriylik, bu – ham hayotiy yo'l-yo'riq, ham odamning odatidir, nihoyat, bu intuitsiyadir – miyaning o'rtada turgan vazifalarni ilgari olingan va xotirada saqlanayotgan ma'lumotlar asosida hal qilish bo'yicha anglanmagan, g'ayri mantiqiy ishining natijasidir.

Shu ma'noda, ongsizlik inson hatti-harakatlarini boshqarishi ham, ongga muayyan tarzda tasir ko'rsatishi ham mumkin ekan. Ongostini falsafiy va psixik analiz qilishga Zigmund Freyd, Karl Yung, Erix Fromm katta e'tibor berdilar.

Xulosa qilib aytganda, ongsizlik va onglilik inson yagona ruhiy faoliyatining nisbatan mustaqil bo'lgan ikki tomonidir. Ongsizlikda inson faoliyatini kuchaytirish,ayniqsa, sub'ekt ijodiy faoliyatining boy imkoniyatlari bor. Ong ongsizlikni vujudga keltirib, inson hatti-harakatlarining umumiy strategiyasini nazorat qilib borishga qodir. Garchi inson hatti-harakatlari, xususan, uning sotsial hatti-harakati ong bilan belgilansa-da,anglangan hatti-harakat faqat axloqiy, xulq-atvor aktlari bilangina chegaralanib qolmaydi, unda ongsizlikka ham,albatta, o'rin qoladi.

Ongning asosiy, muhim funksiyalaridan biri odamning o'z-o'zini anglashidir, ya'ni o'z borlig'ini refleksiv tarzda anglashidir. Agar ong insonni o'rab turgan dunyoni anglashga yo'naltirilgan bo'lsa, o'z-o'zini anglashda esa sub'ekt o'zini ob'ekt sifatida qabul qiladi. Bunda tahlil ob'ekti bo'lib shaxsiy tasavvur va fikrlar, xis-tuyg'ular, kechinma hamda qiziqishlar, maqsadlar, hatti-harakat, jamoa, oila va jamiyatdagi ahvol kabilar hisoblanadi. O'z-o'zini

bir masala bo'yicha o'z nuqtai nazarini isbotlashga, dalillar bilan asoslab berishga va himoya qilishga layoqatli bo'ladi.

Ongdan tashqari, odamning xatti-harakatiga, uning butun ruhiy olamiga g'ayri shuuriy jihatlar, **ongsizlik** va ongosti katta ta'sir qiladi. Shu ikki komponent – ong va ongosti (ongsizlik) - bir-biriga kuchli ta'sir o'tkazadi, ular ajralmasdir va, ifodali qilib aytganda, qattiq o'zaro nazorat va ta'sir ostida bo'ladi. Ongsizlik – inson aqliy sohasidan tashqarida, ong tomonidan nazoratga olinmaydigan turli ruhiy hodisa va holatlar majmuidir. Hozirgi ilmiy tasavvurlarga ko'ra, odamning ongi borib etmagan,anglab olinmagan psixik faoliyati shunday sezgilar, idroklar va tasavvurlarni o'z ichiga oladiki, ba'zan ularga odamning aqli etmaydi, odam ob'ektga qaraydi-yu, uni ko'rmaydi, payqamaydi, eshitadi-yu, eshitganini idrok etmaydi. **Ongosti (ongsizlik)** sohasi ruhiy borliqning tush, gipnoz holati,anglab olinmagan istak, sub'ektning hayotidagi noxush voqea arafasida oldindan his qilingan qo'rquv kabi shakllarini qamrab oladi. Ongsizlik sohasiga insonning biologik mavjudot sifatidan holi bo'lmagan instinktlari kiradi. **Instinktlar** insonda ongosti istak-mayllari, tuyg'ulari, hohish impulslarini paydo qiladi, keyin ular ong sohasiga aylanadi.

Avtomatizm deb ataladigan hodisa va intuitsiya ong yordamida tug'ilishi, keyin esa ongsizlik sohasiga o'tishi mumkin.avtomatizm insonning murakkab harakatlari bo'lib, dastlab ong nazorati ostida sodir bo'ladi, uzoq mashq qilishlar, ko'plab takrorlashlar oqibatida nazoratdan chiqadi va ongsizlikka aylanadi. Masalan, musiqa asboblarini chalish, suzish, velosiped yoki avtomobil haydash, ba'zi oddiy mehnat qilish usullari va hokazo. Bunday avtomatizmlar hayotimizga chuqur kirib borgan. Ongsizlik tizimida odamning muayyan vaziyatda ma'lum faollikka intilishi, tayyorligi muhim o'rin tutadi.

Ong ostida shaxsning hayotidagi juda ko'p hajmdagi axborotlar, uning individual turmush tajribasi o'rnashib, yig'ilib qoladi. Inson tomonidan avtomatik, instinktiv tarzda sodir etiladigan, himoya mexanizmi rolini bajaradigan va miyani doimiy zo'riqishdan himoya qiladigan ko'pgina harakatlar ongosti tomonidan nazorat qilinadi va boshqariladi. G'ayri shuuriylik, bu – ham hayotiy yo'l-yo'riq, ham odamning odatidir, nihoyat, bu intuitsiyadir – miyaning o'rtada turgan vazifalarni ilgari olingan va xotirada saqlanayotgan ma'lumotlar asosida hal qilish bo'yicha anglanmagan, g'ayri mantiqiy ishining natijasidir.

Shu ma'noda, ongsizlik inson hatti-harakatlarini boshqarishi ham, ongga muayyan tarzda tasir ko'rsatishi ham mumkin ekan. Ongostini falsafiy va psixik analiz qilishga Zigmund Freyd, Karl Yung, Erix Fromm katta e'tibor berdilar.

Xulosa qilib aytganda, ongsizlik va onglilik inson yagona ruhiy faoliyatining nisbatan mustaqil bo'lgan ikki tomonidir. Ongsizlikda inson faoliyatini kuchaytirish,ayniqsa, sub'ekt ijodiy faoliyatining boy imkoniyatlari bor. Ong ongsizlikni vujudga keltirib, inson hatti-harakatlarining umumiy strategiyasini nazorat qilib borishga qodir. Garchi inson hatti-harakatlari, xususan, uning sotsial hatti-harakati ong bilan belgilansa-da,anglangan hatti-harakat faqat axloqiy, xulq-atvor aktlari bilangina chegaralanib qolmaydi, unda ongsizlikka ham,albatta, o'rin qoladi.

Ongning asosiy, muhim funksiyalaridan biri odamning o'z-o'zini anglashidir, ya'ni o'z borlig'ini refleksiv tarzda anglashidir. Agar ong insonni o'rab turgan dunyoni anglashga yo'naltirilgan bo'lsa, o'z-o'zini anglashda esa sub'ekt o'zini ob'ekt sifatida qabul qiladi. Bunda tahlil ob'ekti bo'lib shaxsiy tasavvur va fikrlar, xis-tuyg'ular, kechinma hamda qiziqishlar, maqsadlar, hatti-harakat, jamoa, oila va jamiyatdagi ahvol kabilar hisoblanadi. O'z-o'zini

anglash faqat o'zni bilish emas, balki o'ziga nisbatan muayyan munosabat hamdir. Faylasuflar orasida birinchilardan bo'lib Suqrot inson borlig'i uni o'rab turgan dunyoni anglash bilan parallel ravishda o'z-o'zini anglash, o'zining ruhiy dunyosini anglash jarayonisiz kemtik bo'lib qolishini payqab etgan edi. Inson o'zini sub'ekt sifatida ajratib, o'z bilishini o'ziga qaratishi, o'z talab va ehtiyojlaridan kelib chiqib ish yuritishi, faoliyat va ishlarini nazorat qila olishi hamda boshqarishi, o'z-o'ziga o'z faoliyatining borishi va natijasi haqida hisob berishi, xullas, o'zi bilishning ham sub'ekti, ham ob'ekti bo'lgan jarayonni falsafada o'z-o'zini anglash deyiladi.

O'z-o'zini anglashning eng muhim ko'rinishi bu ma'lum ijtimoiy guruh, jamoa, xalq, millatning o'z-o'zini anglashidir. Ma'lum millatning o'z-o'zini anglashi – milliy o'zlikni anglash deyiladi. Milliy o'z-o'zini anglash – milliy jarayonlarning harakatlantiruvchi kuchi sifatida milliy madaniyat va madaniy meros, milliy qadriyatlar bilan bog'liq holda o'ta murakkab va ziddiyatli aloqadorlikda vujudga keladi. Bunda milliy manfaatlar milliy o'z-o'zini anglashning asosiy manbaini tashkil qiladi. Milliy madaniy qadriyatlarni o'zlashtirish va egallash, ularni qayta idrok qilish va yaratish milliy o'zlikni anglash rivojlanishining asosiy shart-sharoitlaridir. Shu bilan birga, milliy o'z-o'zini anglash o'z o'rnida milliy madaniyat, ma'naviyat va manfaatlar yanada rivojlanishini ta'minlovchi asosiy omildir. Xususan, O'zbekiston mustaqilligini mustahkamlash, demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning hozirgi sharoitida milliy o'z-o'zini anglash mamlakatimiz ijtimoiy va ma'naviy taraqqiyotining muhim omiliga aylanib bormoqda.

Falsafiyantropologiyaning vujudga kelishi va rivojlanishi. Yunoncha sophia – donishmandlik,anthropos – inson va logos –

ta'limot so'zlaridan kelib chiqqan «falsafiyantropologiya» atamasi etimologik jihatdan inson haqidagi falsafiy ta'limotni-anglatadi. Falsafiyantropologiya insonningalohida borliq manbai sifatida kelib chiqishi, tadrijiy rivojlanishi va mavjudligining o'ziga xos xususiyatlari, inson hayotining mazmuni, odam zotining jamiyatdagi o'rni, ijtimsoiyaloqalari, shaxs kamoloti, ma'naviyatiga doir falsafiy qarashlarniaks ettiradi.

Yuqorida qayd etilganidek, inson haqidagi falsafiy ta'limotlar qadimda vujudga kelgan va butun falsafa tarixi orqali o'tadi. Konfutsiy, Suqrot, Geraklit, stoiklar, kiniklar,avgustin, Foma, Forobiy, Ibn Sino,a.Navoiy,a.Jomiy, Dekart, Russo, Kant, Feyerbax, Nitsshe va boshqalar insonning falsafiy, nazariy obrazini yaratib, falsafiyantropologiya falsafiy bilimning mustaqil bo'limi sifatida vujudga kelishi uchun zamin hozirladi.

Shu ma'noda falsafiyantropologiyaning ilk ildizlariga XVIIIasr fransuz materialistlariningasarlarida duch kelish mumkin.ammo Kant, shuningdek, insonning mohiyati muammosini falsafaning «birdan-bir, universal va oliy» predmeti darajasiga ko'taruvchiantropologik tamoyillarni falsafaga kiritgan vaasoslab bergan Feyerbax sa'y-harakatlari bilan falsafiyantropologiya mustaqil falsafiy fan sifatida shakllana boshladi.

Falsafiyantropologiya XX asrning 20-yillaridaasosan M.Sheler, A.Gelen, X.Plesnerasarlari ta'sirida uzil-kesil vujudga keldi. Xususan, M.Shelerning «Insonning kosmosdagi o'rni» asarida inson haqida fundamental fan yaratish lozimligi qayd etiladi va uni falsafiy bilish dasturi taklif qilinadi. Muallif fikriga ko'ra, insonni yaxlit falsafiy bilish inson borlig'ining turli jabhalariga nisbatan olingan muayyan ilmiy natijalar bilan birikishi lozim.

M.Sheler falsafiyantropologiya insonning yaxlit konsepsiyasini yaratib, uni muayyan ilmiy, falsafiy va diniy jihatdananglab etishda birlashtiruvchi rol o'ynashi lozim, deb hisoblaydi. U «Falsafiyantropologiyaning vazifasi insonning barcha o'ziga xos monopoliyalari, ishlari vaamallari: til, vijdon,asboblar, qurol... davlat, rahbarlik, mif, din, fan... inson borlig'iningasosiy strukturasidan qanday kelib chiqishinianiq ko'rsatib berishdan iboratdir»(Sheler M. Izbrannie proizvedeniya.- M.: 1994, 187-str.), deb qayd etadi.

Falsafiy bilimning tarkibiy qismi sifatida falsafiyantropologiya ijtimoiy falsafa,axloq, sotsiologiya va psixologiya bilan uzviy bog'liq bo'lib, ular bilan birgalikda inson haqidagi fanlar majmuini tashkil etadi.

Inson to'g'risidagi turli yondashuvlardan kelib chiqib unga quyidagicha ta'rif berish mumkin: Inson – ijtimoiy-tarixiy jarayonning, moddiy va ma'naviy madaniyat taraqqiyotining sub'ekti bo'lib, hayotning boshqa sohalari bilan genetik bog'langan,ammo o'zining mehnat qurollari yaratish va ishlab chiqarish qobiliyati, til va ongga egaligi tufayliajralib turadigan bioijtimoiy mavjudotdir.

Insonnning bioijtimoiy mohiyati. Falsafiyantropologiya echadigan muhim muammolar orasida inson biologik va ijtimoiy mohiyatining o'zaro nisbati to'g'risidagi masalaalohida o'rin egallaydi. Inson jonli tabiatning bir qismi, shuningdek biologik evolyusiya mahsuli ekanligi hozirgi zamon tabiatshunosligi fanida nafaqat olimlar va mutaxassislar, balki ma'rifatli odamlarning keng doirasi uchun hamaniq-ravshan va deyarli shak-shubhasiz dalilgaaylandi. Har bir inson o'z biologik xususiyatlari: genetik kodi, vazni, bo'yi, mijozi, terisi va sochining rangi, yashash muddati va shu kabilarga ko'ra betakrordir. Biroqayni vaqtda inson ijtimoiy mavjudot ekanligi, uning o'ziga

xosligi va betakrorligi odamzotning ijtimoiy tabiati, u kamol topgan, ta'lim-tarbiya olgan, madaniy vaaxloqiy qadriyatlar va mo'ljallarni o'zlashtirgan ijtimoiy muhit bilan belgilanishi ham shak-shubhasizdir.

Ayni shu sababli inson individi nafaqat biologik, balki ijtimoiy mavjudot sifatida ham o'ziga xos xususiyat kasb etadi. Boshqachaaytganda, insonning kamol topishi jamiyatda va faqat jamiyatda yuz beradi.

Insonni tushunishda dualizm va monizm. Odamlar o'rtasidagi biologik va ijtimoiy farqlarni va ularni betakrorligini tan olishdan inson tabiatining yaxlitligini tushunishga nisbatan ikki muhim yondashuv: dualistik va monistik yondashuvlar kelib chiqadi.

Qadim zamonlarda vujudga kelgan insonga nisbatan dualistik yondashuv shundan iboratki, odamzot, bir tomondan, moddiy organizmdan, boshqa tomondan esa – mustaqil mohiyat sanaladigan va bu organizmni boshqaradigan nomoddiy jondan tashkil topgan mavjudot sifatida qaraladi. Bu yondashuv, masalan, boqiy g'oyalar dunyosida yashaydigan o'lmas jon inson tug'ilayotgan paytda uning tanasiga xuddi zindonga tushgandek kirib o'rnashadi, uning o'limidan keyin esa vujudni tark etib, yana g'oyalar dunyosiga qayta, deb hisoblagan Platon falsafasidaayniqsa bo'rtib namoyon bo'ladi. Jonlarning o'lmasligi g'oyasi Sharq falsafiyan'anasiga ham xosdir.

Hozirgi olimlarningaksariyati qo'llab-quvvatlaydigan inson talqinining monistik konsepsiyasi inson ruhiyati, uning tuyg'ulari, fikrlari, emotsiyalari va kayfiyati inson organizmining tarkibiy qismi sanalgan bosh miya nerv hujayralari hayot faoliyatining mahsulidan o'zga narsa emas, degan tushunchadan kelib chiqadi. Bu yondashuv tarafdorlarining fikriga ko'ra, ruhiy hodisalar qandaydir nomoddiyasosga ega, deb hisoblash uchun etarli dalillar mavjud emas, shu sababli ruhiyat tabiatini

M.Sheler falsafiyantropologiya insonning yaxlit konsepsiyasini yaratib, uni muayyan ilmiy, falsafiy va diniy jihatdananglab etishda birlashtiruvchi rol o'ynashi lozim, deb hisoblaydi. U «Falsafiyantropologiyaning vazifasi insonning barcha o'ziga xos monopoliyalari, ishlari vaamallari: til, vijdon,asboblar, qurol... davlat, rahbarlik, mif, din, fan... inson borlig'iningasosiy strukturasidan qanday kelib chiqishinianiq ko'rsatib berishdan iboratdir»(Sheler M. Izbrannie proizvedeniya.- M.: 1994, 187-str.), deb qayd etadi.

Falsafiy bilimning tarkibiy qismi sifatida falsafiyantropologiya ijtimoiy falsafa,axloq, sotsiologiya va psixologiya bilan uzviy bog'liq bo'lib, ular bilan birgalikda inson haqidagi fanlar majmuini tashkil etadi.

Inson to'g'risidagi turli yondashuvlardan kelib chiqib unga quyidagicha ta'rif berish mumkin: Inson – ijtimoiy-tarixiy jarayonning, moddiy va ma'naviy madaniyat taraqqiyotining sub'ekti bo'lib, hayotning boshqa sohalari bilan genetik bog'langan,ammo o'zining mehnat qurollari yaratish va ishlab chiqarish qobiliyati, til va ongga egaligi tufayliajralib turadigan bioijtimoiy mavjudotdir.

Insonnning bioijtimoiy mohiyati. Falsafiyantropologiya echadigan muhim muammolar orasida inson biologik va ijtimoiy mohiyatining o'zaro nisbati to'g'risidagi masalaalohida o'rin egallaydi. Inson jonli tabiatning bir qismi, shuningdek biologik evolyusiya mahsuli ekanligi hozirgi zamon tabiatshunosligi fanida nafaqat olimlar va mutaxassislar, balki ma'rifatli odamlarning keng doirasi uchun hamaniq-ravshan va deyarli shak-shubhasiz dalilgaaylandi. Har bir inson o'z biologik xususiyatlari: genetik kodi, vazni, bo'yi, mijozi, terisi va sochining rangi, yashash muddati va shu kabilarga ko'ra betakrordir. Biroqayni vaqtda inson ijtimoiy mavjudot ekanligi, uning o'ziga

xosligi va betakrorligi odamzotning ijtimoiy tabiati, u kamol topgan, ta'lim-tarbiya olgan, madaniy vaaxloqiy qadriyatlar va mo'ljallarni o'zlashtirgan ijtimoiy muhit bilan belgilanishi ham shak-shubhasizdir.

Ayni shu sababli inson individi nafaqat biologik, balki ijtimoiy mavjudot sifatida ham o'ziga xos xususiyat kasb etadi. Boshqachaaytganda, insonning kamol topishi jamiyatda va faqat jamiyatda yuz beradi.

Insonni tushunishda dualizm va monizm. Odamlar o'rtasidagi biologik va ijtimoiy farqlarni va ularni betakrorligini tan olishdan inson tabiatining yaxlitligini tushunishga nisbatan ikki muhim yondashuv: dualistik va monistik yondashuvlar kelib chiqadi.

Qadim zamonlarda vujudga kelgan insonga nisbatan dualistik yondashuv shundan iboratki, odamzot, bir tomondan, moddiy organizmdan, boshqa tomondan esa – mustaqil mohiyat sanaladigan va bu organizmni boshqaradigan nomoddiy jondan tashkil topgan mavjudot sifatida qaraladi. Bu yondashuv, masalan, boqiy g'oyalar dunyosida yashaydigan o'lmas jon inson tug'ilayotgan paytda uning tanasiga xuddi zindonga tushgandek kirib o'rnashadi, uning o'limidan keyin esa vujudni tark etib, yana g'oyalar dunyosiga qayta, deb hisoblagan Platon falsafasidaayniqsa bo'rtib namoyon bo'ladi. Jonlarning o'lmasligi g'oyasi Sharq falsafiyan'anasiga ham xosdir.

Hozirgi olimlarningaksariyati qo'llab-quvvatlaydigan inson talqinining monistik konsepsiyasi inson ruhiyati, uning tuyg'ulari, fikrlari, emotsiyalari va kayfiyati inson organizmining tarkibiy qismi sanalgan bosh miya nerv hujayralari hayot faoliyatining mahsulidan o'zga narsa emas, degan tushunchadan kelib chiqadi. Bu yondashuv tarafdorlarining fikriga ko'ra, ruhiy hodisalar qandaydir nomoddiyasosga ega, deb hisoblash uchun etarli dalillar mavjud emas, shu sababli ruhiyat tabiatini

M.Sheler falsafiyantropologiya insonning yaxlit konsepsiyasini yaratib, uni muayyan ilmiy, falsafiy va diniy jihatdananglab etishda birlashtiruvchi rol o'ynashi lozim, deb hisoblaydi. U «Falsafiyantropologiyaning vazifasi insonning barcha o'ziga xos monopoliyalari, ishlari vaamallari: til, vijdon,asboblar, qurol... davlat, rahbarlik, mif, din, fan... inson borlig'iningasosiy strukturasidan qanday kelib chiqishinianiq ko'rsatib berishdan iboratdir»(Sheler M. Izbrannie proizvedeniya.- M.: 1994, 187-str.), deb qayd etadi.

Falsafiy bilimning tarkibiy qismi sifatida falsafiyantropologiya ijtimoiy falsafa,axloq, sotsiologiya va psixologiya bilan uzviy bog'liq bo'lib, ular bilan birgalikda inson haqidagi fanlar majmuini tashkil etadi.

Inson to'g'risidagi turli yondashuvlardan kelib chiqib unga quyidagicha ta'rif berish mumkin: Inson – ijtimoiy-tarixiy jarayonning, moddiy va ma'naviy madaniyat taraqqiyotining sub'ekti bo'lib, hayotning boshqa sohalari bilan genetik bog'langan,ammo o'zining mehnat qurollari yaratish va ishlab chiqarish qobiliyati, til va ongga egaligi tufayliajralib turadigan bioijtimoiy mavjudotdir.

Insonnning bioijtimoiy mohiyati. Falsafiyantropologiya echadigan muhim muammolar orasida inson biologik va ijtimoiy mohiyatining o'zaro nisbati to'g'risidagi masalaalohida o'rin egallaydi. Inson jonli tabiatning bir qismi, shuningdek biologik evolyusiya mahsuli ekanligi hozirgi zamon tabiatshunosligi fanida nafaqat olimlar va mutaxassislar, balki ma'rifatli odamlarning keng doirasi uchun hamaniq-ravshan va deyarli shak-shubhasiz dalilgaaylandi. Har bir inson o'z biologik xususiyatlari: genetik kodi, vazni, bo'yi, mijozi, terisi va sochining rangi, yashash muddati va shu kabilarga ko'ra betakrordir. Biroqayni vaqtda inson ijtimoiy mavjudot ekanligi, uning o'ziga

xosligi va betakrorligi odamzotning ijtimoiy tabiati, u kamol topgan, ta'lim-tarbiya olgan, madaniy vaaxloqiy qadriyatlar va mo'ljallarni o'zlashtirgan ijtimoiy muhit bilan belgilanishi ham shak-shubhasizdir.

Ayni shu sababli inson individi nafaqat biologik, balki ijtimoiy mavjudot sifatida ham o'ziga xos xususiyat kasb etadi. Boshqachaaytganda, insonning kamol topishi jamiyatda va faqat jamiyatda yuz beradi.

Insonni tushunishda dualizm va monizm. Odamlar o'rtasidagi biologik va ijtimoiy farqlarni va ularni betakrorligini tan olishdan inson tabiatining yaxlitligini tushunishga nisbatan ikki muhim yondashuv: dualistik va monistik yondashuvlar kelib chiqadi.

Qadim zamonlarda vujudga kelgan insonga nisbatan dualistik yondashuv shundan iboratki, odamzot, bir tomondan, moddiy organizmdan, boshqa tomondan esa – mustaqil mohiyat sanaladigan va bu organizmni boshqaradigan nomoddiy jondan tashkil topgan mavjudot sifatida qaraladi. Bu yondashuv, masalan, boqiy g'oyalar dunyosida yashaydigan o'lmas jon inson tug'ilayotgan paytda uning tanasiga xuddi zindonga tushgandek kirib o'rnashadi, uning o'limidan keyin esa vujudni tark etib, yana g'oyalar dunyosiga qayta, deb hisoblagan Platon falsafasidaayniqsa bo'rtib namoyon bo'ladi. Jonlarning o'lmasligi g'oyasi Sharq falsafiyan'anasiga ham xosdir.

Hozirgi olimlarningaksariyati qo'llab-quvvatlaydigan inson talqinining monistik konsepsiyasi inson ruhiyati, uning tuyg'ulari, fikrlari, emotsiyalari va kayfiyati inson organizmining tarkibiy qismi sanalgan bosh miya nerv hujayralari hayot faoliyatining mahsulidan o'zga narsa emas, degan tushunchadan kelib chiqadi. Bu yondashuv tarafdorlarining fikriga ko'ra, ruhiy hodisalar qandaydir nomoddiyasosga ega, deb hisoblash uchun etarli dalillar mavjud emas, shu sababli ruhiyat tabiatini

tushuntirishda inson organizmida yuz beradigan moddiy jarayonlar chegarasidan chetga chiqishning hojati yo'q.

Shunday qilib, tavsiflangan muammo inson o'z tabiatiga ko'ra faqat biologik mavjudotmi yoki faqat ijtimoiy mavjudotmi, degan masala bilan bog'lanmaydi. U, hech shubhasiz, ham biologik, ham ijtimoiy mavjudotdir.ammo bu ikkiasosning o'zaro nisbati qanday, ularning biri ikkinchisidan ustunroqmi va inson mohiyatini nima belgilaydi – bu endi qizg'in bahs-munozaralar predmetidir. Mazkur masalalar hanuzgacha o'zining uzil-kesil echimini topgani yo'q, hozirda mavjud turli biologik, psixologik va falsafiy maktablar bu savollarga har xil javoblar beradi.

Yuqorida zikr etilgan muammoning echimiga nisbatan mavjud yondashuvlar orasida insonning bioijtimoiy tabiatini tushunishga nisbatan qarama-qarshi nuqtai nazarlar ifodasi sanalgan biologizatorlik va sotsiologizatorlik konsepsiya-larialohida o'rin egallaydi. Bunda ularning har biri boshqasini butunlay rad etmaydi,ammo insonning muayyan bir (biologik yoki ijtimoiy) tabiatini ustunroq qo'yadi yoki hatto mutlaqlashtiradi.

Biologizatorlik konsepsiyalarining tarafdorlari insonni uning tabiiy, biologikasosidan kelib chiqib tushuntirishga harakat qiladi. XVIIIasr oxirida jamiyat hayotigaayrim odamlarning o'z mavjudligi uchun kurash maydoni sifatida qarashni taklif qilgan T.Maltus nazariyasini bunday tushuntirishga bo'lgan birinchi jiddiy urinish deb hisoblash mumkin. Maltus fikricha, bu kurashda kuchlilar g'olib chiqadi, kuchsizlar esa halok bo'lishga mahkumdir. Mazkur kurashga tabiiy omillar turtki beradi. Xususan,aholi soni geometrik progressiya bo'yicha ko'payib boradi, tirikchilik vositalari taklifi esa faqatarifmetik progressiya bo'yicha o'sadi, bu esa muqarrar tarzda ocharchilik, epidemi-yalar, urushlar va boshqa ijtimoiy tangliklarga olib keladi.

Mazkur omillarga Maltus kuchlilarning yashab qolishini ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlarning «tabiiy», muqarrar va hatto zarur tartibga solish vositalari sifatida qaraydi.

Demografik muammolarning echilmagani, shuningdek ular Xxasrda yanada keskinroq tus olishi shunga sabab bo'ldiki, Maltus g'oyalari neomaltuzchilar deb nomlangan o'z davomchilarini topdi va topishda davom etmoqda.

Biologizatorlik yondashuvlari XIX va Xxasrlar chegarasida Darvinning tabiiy tanlanish haqidagi ta'limotini mutlaqlashtirib, nafaqat insonning kelib chiqishi, balki uning mohiyatini, pirovard natijada esa – butun ijtimoiy munosabatlar tabiatini tushuntirishga harakat qilgan sotsial-darvinistlarga ham xosdir. Hozirgi vaqtda bu yo'nalishni odamlarga ham, hayvonlarga ham teng darajada xos bo'lgan irsiyatga urg'u beruvchi sotsiobiologiya davom ettirmoqda.

Sotsiobiologlar fikriga ko'ra, inson xulq-atvori ham, hayvon xulq-atvori ham irsiy omillar bilan belgilanadi va hech kim o'z irsiyati ta'sirini – u xoh yaxshi bo'lsin, xoh yomon – engishga qodir emas.

Inson tabiati xususida shunga o'xshash qarashlargaayrim odamlarning boshqa odamlardan ustunligini faqat ularning «oliy» yoki «past» irqqa mansublik belgisiga ko'ra e'lon qiluvchi irqchilik konsepsiyalarida ham duch kelish mumkin.

Bu, xususan, «irqiy tozalik» uchun kurash olib borgan va «irqiy tanlanish»niamalga oshirish g'oyasini faol ilgari surgan fashistik mafkuradaayniqsa bo'rtib namoyon bo'ladi. Mazkur g'oyalar zamiridaasosan XIXasr oxiri – XXasr boshlarida keng tarqalgan «inson irsiyatining oliy sifati»ga qanday vositalar bilan va qay tarzda erishish mumkinligi haqidagi ta'limot – evgenika yotadi.

XXasr boshlarida bu ta'limot shu darajada keng tarqaldiki,ayrim mamlakatlarda davlat siyosati bilan uzviy bog'landi. Xususan, 1920-1930-yillarda Daniya, Shvetsiya va Norvegiyada jamiyatda tabiiy tanlanishni ijtimoiy mustahkamlovchi irqiy qonunlar qabul qilindi.

Biologizatorlik yondashuviga zid o'laroq, sotsiologizatorlik yondashuvi inson tabiatini ijtimoiy munosabatlarda ko'rishga harakat qiladilar. Bunda ular ba'zan nafaqat insonning ijtimoiyasosini uning biologikasosiga qarama-qarshi qo'yadilar, balki so'nggi zikr etilganasosni hayvoniy va hattoki tuban, shu bois jiddiy e'tiborga loyiq emas, deb hisoblaydilar.asosiy e'tibor ijtimoiy munosabatlar tahliliga va individ, shaxsning shakllanishida jamiyat qanday rol o'ynashinianiqlashga qaratiladi.

Pirovardida ijtimoiyasos individualasosga qaraganda ustunroqahamiyat kasb etadi, uni o'ziga bo'ysundiradi va qamrab oladi. Mazkur yondashuv total ijtimoiy tizimlarga va ularniasoslashga harakat qiluvchi falsafiy ta'limotlarga, xususan, Platon falsafasiayniqsa xosdir. Umuman olganda, bu individualizm va kollektivizm muammosidir.

Shu bilan bir qatorda insonni o'rganishga nisbatan boshqa ko'p sonli yondashuvlarni ham qayd etish mumkin bo'lib, ularning orasida «introvertiv» va «ekstrovertiv» yondashuvlarayniqsaajralib turadi.

Introvertiv yondashuv insonning ong, jon, ruhiyat, instinktlar, nuqsonlar, fazilatlar kabi muhim xususiyatlarini tahlil etib, uni «ichdan» tushunish,anglab etishni nazarda tutadi. Bunda insonning jismoniy va ma'naviy mohiyati haqidagi falsafiy mulohazalaraksariyat hollarda tabiiy fanlarning empirik ma'lumotlariga,avvalambor biologiya va psixologiya yutuqlariga tayanadi, lekin ba'zan mistika, ezoterika, okkultizm bilan

belgilanadi. Bunday yondashuvlarayniqsa nemisantropologlari M.SHeler (1874-1928) vaa.Gelen (1904-1976),avstriyalik faylasuf K.Lorens (1903-1989) ijodiga xosdir.

Ekstravertiv yondashuv insonga nazar tashlash, uning mohiyatini tahlil qilish go'yoki «sirtdan»amalga oshiriladiki, buning natijasida diqqat markazidan uning ijtimoiy va tabiiy mohiyati o'rin oladi; tegishli mo'ljallarga muvofiq insonning Xudo, kosmos, universum va shu kabilar bilanaloqasi tahlil qilinadi. Bu erda falsafa ko'pincha tarix, sotsiologiya, ekologiya, teologiya bilan ittifoq tuzadiki, bu hol diniy falsafa vakillari N.A.Berdyaev, S.N.Bulgakov, S.L.Frank, N.O.Losskiy kabi vakillariga ko'proq xosdir.

Shunday qilib, insonni falsafiy tushunish uchun yagonaasos mavjud emas, xuddi shuningdek bundayasos yaqin kelajakda paydo bo'lishiga umid qilish uchun hamasoslar yo'q. Hozircha faqat shuni qayd etish mumkinki, diqqat markazidan yuqorida sanab o'tilganlardan qaysi biri, chunonchi: kosmos, tabiat, Xudo, jamiyat yoki bevosita inson o'rin olganiga qarab, falsafa tarixida insonni tushunish bilan bog'liq masalalarni hal qilishdaasos bo'ladigan turli falsafiy nuqtai nazarlar farqlanadi. Ularning orasida kosmotsentrizm, teotsentrizm, sotsiotsentrizm vaantropotsentrizmayniqsa keng tarqalgan bo'lib, turli davrlarda ularning har biri har xil ko'rinishda namoyon bo'lgan, lekin inson muammolarini o'rganuvchi falsafiy konsepsiyalarda doim u yoki bu tarzda mavjud bo'lgan.

Hayotning mazmuni va insonning vazifasi. Inson hayotning tezoqarligini yodda tutishi, uning shomini kuzatishi, odamzot hayotining bebaholigi haqida o'ylashi, o'lim haq ekanligini unutmasligi lozimligi haqidagi fikrlarga biz falsafa fani shakllanish jarayonining ilk bosqichidayoq, G'arb falsafi-yan'anasida ham, Sharq falsafasida ham duch kelishimiz mumkin.

XXasr boshlarida bu ta'limot shu darajada keng tarqaldiki,ayrim mamlakatlarda davlat siyosati bilan uzviy bog'landi. Xususan, 1920-1930-yillarda Daniya, Shvetsiya va Norvegiyada jamiyatda tabiiy tanlanishni ijtimoiy mustahkamlovchi irqiy qonunlar qabul qilindi.

Biologizatorlik yondashuviga zid o'laroq, sotsiologizatorlik yondashuvi inson tabiatini ijtimoiy munosabatlarda ko'rishga harakat qiladilar. Bunda ular ba'zan nafaqat insonning ijtimoiyasosini uning biologikasosiga qarama-qarshi qo'yadilar, balki so'nggi zikr etilganasosni hayvoniy va hattoki tuban, shu bois jiddiy e'tiborga loyiq emas, deb hisoblaydilar.asosiy e'tibor ijtimoiy munosabatlar tahliliga va individ, shaxsning shakllanishida jamiyat qanday rol o'ynashinianiqlashga qaratiladi.

Pirovardida ijtimoiyasos individualasosga qaraganda ustunroqahamiyat kasb etadi, uni o'ziga bo'ysundiradi va qamrab oladi. Mazkur yondashuv total ijtimoiy tizimlarga va ularniasoslashga harakat qiluvchi falsafiy ta'limotlarga, xususan, Platon falsafasiayniqsa xosdir. Umuman olganda, bu individualizm va kollektivizm muammosidir.

Shu bilan bir qatorda insonni o'rganishga nisbatan boshqa ko'p sonli yondashuvlarni ham qayd etish mumkin bo'lib, ularning orasida «introvertiv» va «ekstrovertiv» yondashuvlarayniqsaajralib turadi.

Introvertiv yondashuv insonning ong, jon, ruhiyat, instinktlar, nuqsonlar, fazilatlar kabi muhim xususiyatlarini tahlil etib, uni «ichdan» tushunish,anglab etishni nazarda tutadi. Bunda insonning jismoniy va ma'naviy mohiyati haqidagi falsafiy mulohazalaraksariyat hollarda tabiiy fanlarning empirik ma'lumotlariga,avvalambor biologiya va psixologiya yutuqlariga tayanadi, lekin ba'zan mistika, ezoterika, okkultizm bilan

belgilanadi. Bunday yondashuvlarayniqsa nemisantropologlari M.SHeler (1874-1928) vaa.Gelen (1904-1976),avstriyalik faylasuf K.Lorens (1903-1989) ijodiga xosdir.

Ekstravertiv yondashuv insonga nazar tashlash, uning mohiyatini tahlil qilish go'yoki «sirtdan»amalga oshiriladiki, buning natijasida diqqat markazidan uning ijtimoiy va tabiiy mohiyati o'rin oladi; tegishli mo'ljallarga muvofiq insonning Xudo, kosmos, universum va shu kabilar bilanaloqasi tahlil qilinadi. Bu erda falsafa ko'pincha tarix, sotsiologiya, ekologiya, teologiya bilan ittifoq tuzadiki, bu hol diniy falsafa vakillari N.A.Berdyaev, S.N.Bulgakov, S.L.Frank, N.O.Losskiy kabi vakillariga ko'proq xosdir.

Shunday qilib, insonni falsafiy tushunish uchun yagonaasos mavjud emas, xuddi shuningdek bundayasos yaqin kelajakda paydo bo'lishiga umid qilish uchun hamasoslar yo'q. Hozircha faqat shuni qayd etish mumkinki, diqqat markazidan yuqorida sanab o'tilganlardan qaysi biri, chunonchi: kosmos, tabiat, Xudo, jamiyat yoki bevosita inson o'rin olganiga qarab, falsafa tarixida insonni tushunish bilan bog'liq masalalarni hal qilishdaasos bo'ladigan turli falsafiy nuqtai nazarlar farqlanadi. Ularning orasida kosmotsentrizm, teotsentrizm, sotsiotsentrizm vaantropotsentrizmayniqsa keng tarqalgan bo'lib, turli davrlarda ularning har biri har xil ko'rinishda namoyon bo'lgan, lekin inson muammolarini o'rganuvchi falsafiy konsepsiyalarda doim u yoki bu tarzda mavjud bo'lgan.

Hayotning mazmuni va insonning vazifasi. Inson hayotning tezoqarligini yodda tutishi, uning shomini kuzatishi, odamzot hayotining bebaholigi haqida o'ylashi, o'lim haq ekanligini unutmasligi lozimligi haqidagi fikrlarga biz falsafa fani shakllanish jarayonining ilk bosqichidayoq, G'arb falsafiyan'anasida ham, Sharq falsafasida ham duch kelishimiz mumkin.

Shundan beri o'tgan ikki yarim ming yildan ko'proq vaqt mobaynida bu borada deyarli hech qanday o'zgarish yuz bergani yo'q, zero,avvalgidek, odamzotning hayot yo'li tug'ilish va o'lish sanalari bilan chegaralanadi. Shuningdek, birinchi sana doim muayyan,aniq bo'lsa, ikkinchi sana inson umrining oxirgi soniyalarigacha mavhum bo'lib qoladi.

Ayni shu sababli hayotning mazmuni muammosi har bir inson qarshisida ertami-kechmi ko'ndalang bo'ladi va u o'zigaaniq va uzil-kesil javob topish mumkin bo'lmagan savollarni beradi. «Bu dunyoda nima uchun yashayapman?», deb so'raydi o'zidan inson vaagar bu savolga o'zi javob bermasa, o'z hayotiga muayyan mazmun baxsh etmasa, bu ishni uning o'rniga hech kim va hech qachon bajarmasligini vaqt o'tishi bilananglay boshlaydi.abadiyat qarshisida, o'lim qarshisida har kim oxir-oqibatda o'zi bilan o'zi tanho qoladi.

Hayotni tark etish bosqichlari. Biologik mavjudot sifatida har bir inson o'limga mahkumdir. Buni qadimgi mutafakkirlar ham yaxshi tushungan. Xususan, o'z muxoliflaridan birining: «O'ttiz tiran seni o'limga hukm etdi», degan gapiga Suqrot: «Ularni esa o'limga tabiat hukm etgan», deb javob bergan.ammo odamzot ijtimoiy mavjudot sifatida ham o'limga mahkumdir.

Hozirgi zamon fanida o'lish jarayonining to'rt bosqichi farqlanadi. Bu bosqichlarga organizmda yuz beradigan va uning qarishini tavsiflaydigan orqaga qaytarib bo'lmaydigan biologik o'zgarishlar sabab bo'ladi. Xususan, 25 yoshdan boshlab vaayniqsa 45 yoshdan keyin insonda har kuni u tug'ilgan paytga qadar «jamlangan» va boshqa hech qachon yangilanmaydigan o'n minglab nerv hujayralari (neyronlar) halok bo'ladi.ammo bosh miya qobig'ida bunday hujayralar soni 40 milliardga etadi va shu sababli «qariyotgan normal miya uchun bu jiddiy oqibatlarga sabab bo'lmaydi, chunki unda yana o'n milliardlab neyronlar

normal faoliyat ko'rsatishda davom etadi»(Godfrua J. Chto takoe psixologiya. T.2.- M.:1996, 11-str.).

Amalda insonning hayotni tark etishi u odamlardan o'zini olib qochib, jamiyatdan uzoqlashishi bilan tavsiflanadigan ijtimoiy o'lim yuz berganida boshlanadi.Surunkali giyohvand moddalarini iste'mol qilish, kashandalik, ichkilikbozlik, o'z hayotidan doimiy norozilik ijtimoiy o'limni bildiradi. So'ngra ruhiy o'lim yuz beradi, bunda inson hayot tugagani va o'limning muqarrar ekanligini va o'z hayoti davomida hech narsaga erisha olmaganinianglaydi. Miya o'lishi bilan bosh miya faoliyati butunlay to'xtaydi, organizmning turli funksiyalarini boshqarish barham topadi. Bu jarayon fiziologik o'lim bilan yakunlanadi. Bunda insonning uni tirik organizm sifatida tavsiflovchi barcha funksiyalari uzil-kesil to'xtaydi.

Insonning vazifasi. Muayyan inson o'z hayoti so'nishining yuqorida sanab o'tilgan bosqichlarinianglamasligi ham mumkin (aksariyat hollarda shunday bo'ladi),ammo u o'z hayot yo'lidan ilgarilar ekan, bu dunyoda nima uchun yashayapman, degan savolga o'z harakatlari, qilmishlari bilan javob beradi.agar inson ularni hali to'laanglab etmagan bo'lsa, mazkur vazifani echish o'z hayot yo'lini endigina tanlayotgan odam uchun ham, umrining shomida ortga nazar tashlab, o'z hayotini sarhisob qilayotgan odam uchun ham teng darajada mushkul ish bo'lib qoladi. To'g'ri, inson o'z tabiatiga ko'ra o'limga mahkum,ammo, buni tushungan holda, u o'zi bilan bog'liq hamma narsa o'zining tug'ilish va o'lish sanalari bilan chegaralangan qisqa vaqt oralig'ida jamlanganini tan olishni istamaydi. U o'z taqdirini ijtimoiy muhim maqsadlar, ma'naviy uyg'onish bilan bog'lashga harakat qilishiayni shu hol bilan izohlanadi.

Yana bir yo'lni din taklif qiladi. Bu erda u yoki bu e'tiqodlarga qarab, hayotning mazmuni va shaxsiy

umrboqiylikka erishish haqidagi savolga shaklan har xil, lekin mazmunan juda o'xshash javoblar beriladi. Ulardaasosan u dunyo chin dunyo ekanligi, bu dunyoda bajarilgan ishlarga haqiqiy baho u dunyoda berilishi va shu kabilar to'g'risida so'z yuritiladi.

Yana bir imkoniyat – bu dunyoda o'z hayotini odamlarga, ezgulik, haqiqat vaadolatga xizmat qilishga bag'ishlashdan iborat. Shu tariqa inson o'z ishlari, g'oyalari va qilmishlari bilan kelgusiavlodlar xotirasida qolish imkoniyatini qo'lga kiritadi.

Inson bu yo'llarning qaysi birini tanlashi faqat uning o'ziga bog'liq. U o'z hayotida bu erda ko'rsatilganidan butunlay boshqa yo'lni tanlashi ham mumkin. Lekin ertami-kechmi har bir inson hayotda o'zi tanlagan yo'lning to'g'ri yoki noto'g'riligi haqida mulohaza yuritishi muqarrardir.

Erkinlik va zaruriyat falsafiy kategoriyalar sifatida kishilarning faoliyati bilan tabiat va jamiyatning ob'ektiv qonunlari o'rtasidagi o'zaro munosabatni ifodalaydi. Bu kategoriyalarning ilmiy izohi birinchi marta gollandiyalik mutafakkir B.Spinoza tomonidan tahlil qilingan. Spinoza fikricha, erkinlik –anglab olingan zaruriyatdir. Zaruriyat esa tabiat va jamiyatdagi ob'ektiv qonuniyatlardir. Shunga ko'ra, tarixiy zaruriyat tushunchasi tarixiy jarayonning ichki ob'ektiv qonuniyatini, jamiyatga xos ob'ektiv real tabiiy shart-sharoitlarni, ijtimoiy va iqtisodiy munosabatlarni, moddiy-texnikaviy vositalarnianglatadi. Erkinlik esaana shu tarixiy zaruriyatning kishilar, shaxs tomonidananglab olinishi va o'z faoliyatlarining maqsad va yo'nalishini belgilab olish jarayonianglatadi.

Nazorat uchun savollar:

1.Inson borlig'ining o'ziga xos xususiyatlari:

- Insonning tabiatdan farqini qanday tushunasiz? Unga xos bo'lgan xususiyatlar nimalardan iborat?
- Insonning fiziologik va psixologik jihatlarini tushuntirib bering. Ularning o'zaro aloqasi qanday?

2.Ong tushunchasi va uning mohiyati:

- Ong tushunchasining falsafiy ta'rifini qanday berasiz?
- Ong va be-ongning farqlarini tushuntirib bering.

3.Ongning kelib chiqishi va rivojlanishi:

- Inson ongining rivojlanish bosqichlari haqida qanday nazariyalar mavjud?
- Tabiiy va ijtimoiy omillar inson ongiga qanday ta'sir ko'rsatadi?

4.Sharq va G'arb falsafasida inson muammosi:

- Sharq falsafasida insonning diniy va ma'naviy o'lchovlari qanday tushuniladi?
- G'arb falsafasida insonning individualligi va erkinlik tushunchasining o'rni nima?

5.Falsafiy antropologiyaning zamonaviy yondashuvlari:

- Zamonaviy falsafiy antropologiyaning asosiy yo'nalishlari qanday?
- Insonning mavjudlik mohiyati, maqsadi va hayotning ma'nosi haqidagi zamonaviy qarashlar qanday?

QADRIYATLAR FALSAFASI

Reja:

1. Qadriyatlar tushunchasi va uning mohiyati. Qadriyatlar va axloq.
2. Qadriyatlar va madaniyat: Madaniyat va qadriyatlar o'rtasidagi bog'lanish. Qadriyatlar madaniyati va uning jamiyat rivojiga ta'siri.
3. Qadriyatlar falsafasi va zamonaviy ijtimoiy masalalar.
4. Qadriyatlarning falsafiy yondashuvlari.

Tayanch so'zlar: Qadriyat, baholash, moddiy qadriyat, ma'naviy qadriyat, umuminsoniy qadriyat.

Uzoq yillar davomida falsafiyadabiyotlarda, falsafa darsliklarida qadriyat tushunchasiga umuman e'tibor beriladi. Hozirgi davrda kundalik hayotimizda kirib kelayotgan, inson ma'naviy kamoloti uchun muhimahamiyatga ega bo'lgan, hamda yangi ma'no, mazmun kasb etayotgan falsafiy tushunchalardan biri, qadriyatlar muammosidir.

Qadriyatarabcha so'z bo'lib, qadr-andozi, o'lchov, me'yor degan ma'nonianglatadi. Falsafiy ma'noda qadriyat – tabiiy va ijtimoiy hayotda namoyon bo'ladigan, odamlar tomonidan qadrlanadigan, ular uchun foydali,ahamiyatli, moddiy iqtisodiy, madaniy, ma'naviy, mavkuraviy, siyosiy, huquqiy, diniy, milliy, ijtimoiy omillar yig'indisi bo'lib hisoblanadi. Qadriyatlar tushunchasi qadr-qimmat degan ma'nonianglatadi. Oddiy qilib shuniaytish kerraki, «qadriyat» iborasining mazmuni juda sodda bo'lib, uning etimologik mazmuniga vobastadir. Qadriyatlar – odamlar qadrlaydigan narsalardir. Bularatrofimizdagi predmetlar, narsa va hodisalar, voqyealar bo'lib, odamlarning

kundalik hayotiy ehtiyojlari va talablarini qondira oladigan yoki qondirishi mumkin bo'lgan narsalardir.

Umuman olganda qadriyatlar deyilganda faqat o'tmish davr uchun muhiyahamiyat kasb etib qolmasdan, hozirgi kun va kelajakdagi taraqqiyotga ham ijobiy ta'sir etadigan, kishilar ongiga singib ijtimoiyahamiyat kasb etadigan moddiy, ma'naviy, tabiiy, diniy,axloqiy, falsafiy va boshqa boyliklar majmuasi tushuniladi.

Har qanday qadriyat inson faoliyatining mahsuli, uning obyektiv olamga bo'lgan munosabatining ifodasidir. Qadriyatlar jamiyat ijtimoiy va ma'naviy taraqqiyotining mahsulidir. Har bir qadriyat muayan bir davr, sharoit va ehtiyojning mahsulidir.

Qadriyatlar falsafiy nazariyasining ba'zi masalalari, o'tgan 19-chiasrning ikkinchi yarmida Yevropada yangi kantchilik maktabiga mansub V. Vindelband, G. Rikart va boshqalar tomonidan ishlab chiqildi. Qadriyat nazariyasini o'rganish yunoncha – qimmatbaho ma'nosinianglatuvchiaksiologiya degan ilm sohasini vujudga keltiradi. 19-chiasrning 20-50 yillarida M. Sheler, N. Gartman, R.B. Perri, S.P. Popper kabi nemis vaamerika faylasuflariningasarlarida bu fanningasoslari shakllantirildi.

Sharqdaavlod vaajdodlarimiz tomonidan yaratgan qadrlash mezonlarining tarixi eng qadimgi naqllar, rivoyatlar,afsona, hikoyat dostonlarga, ya'ni xalq og'zaki ijodi namunalariga borib taqaladi. Spitamen, Mukanna va Jaloliddin Manguberdi to'g'risidagiasarlarda, alpomish, To'maris va Shiroq to'g'risidagi afsona va dostonlarda vatanparvarlik, xalq va yurt ozodligi uchun fidoyillik kabi ko'plab umuminsoniy qadriyatlar tasvirlangan. Ma'naviy merosimizning yorqin namunasi – «Avesto» zardushtiylikning muqaddas kitobi bo'lganligidan unda bu dinning qadriyatlar tizimi, qadrlash mezonlari, o'sha davrdagi milliy g'oyalar yorqin ifodalangan.

Qadrlash to'g'risidagi qarashlar VIII-XIIasrlarda Qur'on va xadislarda ta'riflab berilgan ilohiy qadriyat va qadrlash masalalari xalqimiz tarixi va madaniyatiga ta'sir ko'rsatgan.

Sivilizasiyamiz qadriyatlari va xalqimizga xos qadrlash me'yorlari musulmon sharqi vaarablar dunyosi madaniyatining rivojiga ham katta ta'sir ko'rsatgan. Tarixda nomlari saqlanganallomalarimiz o'z navbatida butun jahon, sharq madaniyatiga hissa qo'shganlarabu Hanifa,al Buxoriy,at Termiziy, kubro,ahmad Yassaviy, Naqshband kabi ilohiyot ilmining zabardastallomalari to'g'risida hamaytish joiz. Bundan tashqariatoqli qomumiy olimlar – Xorazmiy, Farobiy, Beruniy, Ibn Sino,al Farg'oniy kabi sivilizasiyamizning zabardast namoyondalari ijodi va merosi ko'zgusida yanada yaqqolroq namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, umuinsoniy madaniyatning durdonalarini yaratgan Ulug'bek, Lutfiy, Navoiy, Bobur kabi zotlarning jahon sivilizasiyasiga qo'shgan xizmatlari muhimdir.

afsuski, sivilizasiyamizga xos bo'lgan Temuriylar saltanati parchalanib, uning o'rniga Xiva xonligi va Buxoroamirlini, so'ngra Qo'qon xonligi vujudga keldi. XIXasrning o'rtalariga kelib, Turkiston chor Rossiyasi tomonidan bosib olindi. Mustamlakachilarning qadriyatlari va qadrlash mezonlari xalqimiz orasiga zo'rlik bilan singdirila boshlandi. XIXasrning oxirlarida «jadidchi»lar M. Behbudiy, So'fizoda,avloniy, Cho'lpon, Fitrat va boshqalar vujudga keldi. Ularningasarlarida qadriyatlarga boy g'oyalarga duch kelamiz. Lekin, bolsheviklar boshlagan siyosiy jarayonlar buavlodning boy merosini o'z domiga tortdi, ularning taqdiriayanchli kechdi.

Sobiq SSSR davrida qadriyat nazariyasi uzoq davr mobaynida umuman ishlanmadi. Rasmiy mafkura va siyosat sovet xalqining yaxlitligi, birligi, xalqlarning bir-biriga yaqinlashishi va qo'shilib ketishi g'oyasini ilgari surganligidan

keyin, xalqlarning o'ziga xosligi, tarixiy merosi, o'tmishi, urf-odat, rasm-rusumlarini, dinini, umuman xalq uchun qadr bo'lgan barcha narsalarni ifodalash mumkin bo'lgan falsafiy tushuncha muomilaga kiritilmadi. Qatag'on yillaridaavj olgan dinga, tarixiy merosga eskilik sarqiti sifatida mahalliy urf-odatlar va marosimlarga qarshi kurash edi.

Xalq va millatlarniasoratda saqlashlarining eng oson yo'li, ularni qadriyatlaridanajratiш edi. Imperiya yemirilib, xalqlarning mustaqillikka bo'lgan harakatlari kuchaygan sari odamlar qadriyatlar masalasiga tez-tez murojaat qila boshladilar.

Har qanday jamoat, ijtimoiy-tarixiy birliklar (urug', qabila, elat, halq, millat) ijtimoiy subyektlar va boshqalar o'ziga xos qadriyatlar tizimiga ega bo'ladi. Bu qadriyatlar tizimidaasosiy bo'lmagan qadriyatlar muayyan qatorni tashkil qiladi, turli holatlarda namoyon bo'ladi. Jamiyat rivojining muayyan davri yoki biror davlatda hamana shunday qadriyatlar tizimi mavjud bo'ladiki, u o'sha davr, jamiyat va davlat kishilari, ularning faoliyati uchun umumiy mezon vazifasini o'taydi. Har bir ijtimoiy tarixiy birlik, sinf va partiyalar hamana shunday qadriyatlar tizimiasosida faoliyat ko'rsatadilar, ulardan foydalanadilar yoki ularga erishishning turli usullarini qo'llaydilar.

Mohiyat va mazmuniga ko'ra qadriyatlarni qo'yidagi shakl va gurug'larga bo'lish mumkin.

1. Tabiiy qadriyatlar. Tabiiy qadriyatlar insonni o'rab turgan, insonning paydo bo'lishi, rivojlanishi va yashashi uchun zarur bo'lgan tabiiy muhit va sharoitlar majmuasidan iborat. Bularga yer, suv, havo, foydali qazilmalar, quyosh, koinotdagi sayyora va yulduzlar, o'simliklar, hayvonot va parrandalar, qisqacha jonli va jonsiz tabiat kiradi.

2. Ijtimoiy qadriyatlar. Jamiyatning hayotiy faoliyati uchun zarur bo'lgan va insoniyatning taraqqiyot jarayonida yuzaga

kelgan ijtimoiy soha va tuzilmalarning majmui (ishlab-chiqarish, korxona, tashkilot, muassasalar, oila, mullat, sinf va h.k.).

3. Qadriyatlar sistemasi ichida engahamiyatlisi va oiliysi bu insondir. Inson o'z hayot faoliyati jarayonida jamiyatda yashaydi, tabiyat orqali esa o'z ehtiyojlarini qondiradi.

Qadriyat tushunchasining o'zi narsa va hodisalarning insongaaloqadorligi, inson uchunahamiyatliligi, inson uchun qadrliligi tufayli kelib chiqqan va inson tomonidan ishlab chiqilgan. Chunki, inson tabiat va jamiyatdagi hamma narsalarning mezoni, tabiat va jamiyatning oliy darajadagi mahsuli bo'lgan biologik, psixologik va ijtimoiy sistemadir. Inson ongga, tafakkurga ega bo'lgan oliy mavjudotdir.

Shuning uchun inson o'zining har bir harakati, faoliyatini ma'lum normalar, me'yorlar yordamida nazorat qilib turadi. Narsa va hodisadar mavjudligining o'zi qadriyat bo'la olmaydi. Ular insonning faoliyatini jamiyat taraqqiyoti uchun zarur bo'lgan taqdirdagina qadriyatgaaylanadi. Narsa va hodisalardan tashqari insoniy munosabatlar ham shaxs va jamiyat hayoti uchun zaruriyatgaaylanib qadriyat bo'lishi mumkin. Shu nuqtai nazardan qaraganda tinchlik, farovonlik, tenglik,adolat, insonparvarlik, olijanoblik singari insoniy fazilatlar va hodisalarham qadriyat hisoblanadi.

Shu bilan birgalikda qadriyatlar ikki turga bo'linadi.

1. Moddiy qadriyatlar ikki turga bo'linadi.

1) Moddiy qadriyatlar.

2) Ma'naviy qadriyatlar.

1. Moddiy qadriyatlarga insooni o'rab turgan moddiy dunyo, insoniyatning mavjudligi uchun zarur bo'lgan tabiiy imkoniyatlar, uning mehnat faoliyati mobaynida yaratilgan barcha moddiy narsalar kiradi.

2. Ma'naviy qadriyatlar. Insoniyatning ma'naviy ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladigan ilmiy bilimlarning falsafiy,axloqiy, huquqiy, siyosiy, estetik, badiiy, diniy g'oya va ideallar yig'indisi ma'naviy hayot qadriyatlari debataladi.

Insoniyatning madaniy taraqqiyoti darajasini o'zidaaks ettirib, inson faoliyati qadriyatlari qo'yidagi guruhlarga bo'linadi.

1. Umuminsoniy qadriyatlar. Butun insoniyat tomonidan yaratilgyan moddiy va ma'naviy madaniyat, ilmiy, falsafiy, axloqiy, etetik, huquqiy, siyosiy, badiiy, ekologik qarashlar butun insoniyatning mulki bo'lgan boshqa qadriyatlardan iboratdir. Insoniyatning kelajagi masalasi umuminsoniy qadriyatlardagi dolzarb masaladir.

2. Milliy qadriyatlar – milliy qadriyatlaralohida olingan xalq, millat va elatlarning o'z tarixiy taraqqiyoti davomida yaratadigan barcha moddiy va ma'naviy boyliklari, urf-odatalri, merosimlari, bayramlari va millatning o'zligini belgilaydigan boshqa o'ziga xos tomonlari yig'indisidan iboratdir. Bu o'ziga xoslik moddiy, ma'naviy, ijtimoiy, oilaviy hayot, turmush tarzida namoyon bo'ladi. Bundan tashqari millatga taalluqli xalqamaliy san'ati, xalqo'yinlari, rasm-rusumlari, urf-odatlari, marosimlari milliy qadriyatga kiradi. Milliy qadriyatlarning shakllannishiga kuchli ta'sir ko'rsatadigan omillardan biri, bu diniy qadriyatlardir.

Diniy qadriyatlar milliy qadriyatlar doirasidanancha keng bo'lib, u ko'plab millatlar elatlar xalqlariga taaluqli bo'lgan, ularni, ularni g'oyaviy jihatdan birlashtiradigan diniy talablar, g'oyalar, rivoyatlar,amaliy marosimchilik, bayramlar majmuasidan iboratdir. Islom dini misolida ko'rib o'tadigan bo'lsak, yer yuzida bir milliarddan ortiq kishining islom diniga e'tiqod qilishini, islom yer yuzidagi 120 davlatda tarqalganligini 30-dan ortiq davlatda islom davlat dini deb e'lon qilinganligini va

bu kishilarning hammasini dinasoslari (arkon iddin) deb hisoblangan.

Imon, islom va ehson talablariasosidagi birligini ko'rishimiz mumkin. Imon talablari 7-taaqidani, islom talablari 5-taamaliy marosimchilik talablarini, ehson-sidqidildanaqidalarga ishonish va marosimlarniado etishni tashkil qiladi.

4. Oilaviy qadriyatlar. Oilaviy qadriyatlar oila sharoitidagi moddiy va ma'naviy,axloqiy tarbiyaviy munosabatlarga asoslanadi. Oilaviy qadriyatlarga oilaa'zolari o'rtasidagi o'zaro hurmat, g'amxo'rlik, bir-birini tushunish, har qanday sharoitda oila sha'nini himoya qilish kabi fazilatlar kiradi.

Oilaviy qadriyatlarning shakllanishida oilaa'zolarining shaxsiy xususiyatlari, xush muomalalik, rostgo'ylik, mordlik, insoniylik, chevorlik, pazandalik, sodiqlik singarilar qadrlanadi. Oilaviy qadriyatlar ijtimoiy qadriyatlarning bir elementi bo'lib, qadriyatlar sistemasida muhim o'rin tutadi.

5. Shaxsiy qadriyatlar. Har bir subyektning umuminsoniy v milliy qadriyatlarasosida shakllangan o'ziga xosligi, fazilatlari majmuasidan iboratdir.

Shaxsiy qadriyatlarga insonning rostgo'yligi, kamtaligi, insoniligi, mehribonligi, odobligigi, qobiliyatliligi va boshqa sifatlari kiradi.

Yuqoridaaytilganlardan ma'lum bo'ladiki, qadriyatlar insonning kundalik hayot faoliyati, shaxsiy sifatlari va ehtiyojlari borliqqa munosabati bilan belgilanganligi uchun ham u insoniyatning ilk davrida paydo bo'ldi va jamiyat taraqqiyoti davomida shakllanib bordi. Shuning uchun bugungi kunda O'zbekiston o'z rivojlanish va taraqqiyot yo'lini belgilayotgan davrda o'zbek xalq o'z milliy o'zligini anglayotgan o'adriyatlar masalasi eng dolzarb masala bo'lib kun tartibi chiqdi va xalqimiz

ongida shakllangan mutelik psixologiyasidan qutilishdaasosiy rol o'ynaydi.

Har bir fanning o'rganish obyekti uningasosiy maqsadi – asosiy masalasini keltirib chiqaradi. Demak, fanningasosiy masalasini belgilashaslo subyektiv intilishlardan emas, balki uning obyektini o'rganishdan kelib chiqadi. Madaniyat tarixiningasosiy masalasi esa madaniy qadriyatlarnianiqlashdan iborat.

«Qadriyat»aksiologik tushuncha bo'lib, inson, insonlar guruhi va umuan insoniyat uchunahamiyatli bo'lgan narsa, hodisa, norma jarayon va munosabatlarni ifoda etadi. «Ahamiyatlilik» va «foydalilik» qadriyatlarning darajasini belgilovchi nisbiy tomonlaridir. Narsa va hodisalar, shu jumladan sosial hodisalarning qadriyatli yoki qadriyatsizliginianiqlash muayyan davrga inson va insonlar guruhi manfaatlari doirasidaamalga oshadi. Demak, o'z-o'zidan ko'rinib turibdiki, qadriyatlar inson va biron-bir ijtimoiy tuzum, kshilarning muayyan birligi uchun nisbiy xarakterga egadir. Qadriyatlar ontologik xarakteriga ko'a tabiiy va sosial qadriyatlarga ham bo'linadi. Suv yoki toza havo inson uchun tabiiy qadriyatdir. Ular inson tomonidan ishlov berilib yaratilmagan. Sosial qadriyatlarning jamiyat ichida uning taraqqiyoti davomida yuzaga keladi vaamal qiladi. Madaniy qadriyatlar sosial qadriyatlarning tarkibiy qismi sifatida faqatgina inson tomonidan ishlov berilgan sosial buyum, hodisa va munosabatlarni o'z ichiga oladi. Biron o'simlik yoki qo'y biologik hodisa sifatida tabiatniki. Lekin ular inson tomonidan ishlov berilgandan so'ng madaniy hodisalarga – madaniy o'simlik va uy hayvoniga, shu jumladan madaniy qadriyatlargaaylanadi. Bu jarayon saqlash voqyelikka xosdir. Demak, insonning o'zi ham ishlov berish mahsuli sifatida madaniy qadriyatdir. Sosial qadriyatlar ichida

bu kishilarning hammasini dinasoslari (arkon iddin) deb hisoblangan.

Imon, islom va ehson talablariasosidagi birligini ko'rishimiz mumkin. Imon talablari 7-taaqidani, islom talablari 5-taamaliy marosimchilik talablarini, ehson-sidqidildanaqidalarga ishonish va marosimlarniado etishni tashkil qiladi.

4. Oilaviy qadriyatlar. Oilaviy qadriyatlar oila sharoitidagi moddiy va ma'naviy,axloqiy tarbiyaviy munosabatlarga asoslanadi. Oilaviy qadriyatlarga oilaa'zolari o'rtasidagi o'zaro hurmat, g'amxo'rlik, bir-birini tushunish, har qanday sharoitda oila sha'nini himoya qilish kabi fazilatlar kiradi.

Oilaviy qadriyatlarning shakllanishida oilaa'zolarining shaxsiy xususiyatlari, xush muomalalik, rostgo'ylik, mordlik, insoniylik, chevorlik, pazandalik, sodiqlik singarilar qadrlanadi. Oilaviy qadriyatlar ijtimoiy qadriyatlarning bir elementi bo'lib, qadriyatlar sistemasida muhim o'rin tutadi.

5. Shaxsiy qadriyatlar. Har bir subyektning umuminsoniy v milliy qadriyatlarasosida shakllangan o'ziga xosligi, fazilatlari majmuasidan iboratdir.

Shaxsiy qadriyatlarga insonning rostgo'yligi, kamtaligi, insoniligi, mehribonligi, odobligigi, qobiliyatliligi va boshqa sifatlari kiradi.

Yuqoridaaytilganlardan ma'lum bo'ladiki, qadriyatlar insonning kundalik hayot faoliyati, shaxsiy sifatlari va ehtiyojlari borliqqa munosabati bilan belgilanganligi uchun ham u insoniyatning ilk davrida paydo bo'ldi va jamiyat taraqqiyoti davomida shakllanib bordi. Shuning uchun bugungi kunda O'zbekiston o'z rivojlanish va taraqqiyot yo'lini belgilayotgan davrda o'zbek xalq o'z milliy o'zligini anglayotgan o'adriyatlar masalasi eng dolzarb masala bo'lib kun tartibi chiqdi va xalqimiz

ongida shakllangan mutelik psixologiyasidan qutilishdaasosiy rol o'ynaydi.

Har bir fanning o'rganish obyekti uningasosiy maqsadi – asosiy masalasini keltirib chiqaradi. Demak, fanningasosiy masalasini belgilashaslo subyektiv intilishlardan emas, balki uning obyektini o'rganishdan kelib chiqadi. Madaniyat tarixiningasosiy masalasi esa madaniy qadriyatlarnianiqlashdan iborat.

«Qadriyat»aksiologik tushuncha bo'lib, inson, insonlar guruhi va umuan insoniyat uchunahamiyatli bo'lgan narsa, hodisa, norma jarayon va munosabatlarni ifoda etadi. «Ahamiyatlilik» va «foydalilik» qadriyatlarning darajasini belgilovchi nisbiy tomonlaridir. Narsa va hodisalar, shu jumladan sosial hodisalarning qadriyatli yoki qadriyatsizliginianiqlash muayyan davrga inson va insonlar guruhi manfaatlari doirasidaamalga oshadi. Demak, o'z-o'zidan ko'rinib turibdiki, qadriyatlar inson va biron-bir ijtimoiy tuzum, kshilarning muayyan birligi uchun nisbiy xarakterga egadir. Qadriyatlar ontologik xarakteriga ko'a tabiiy va sosial qadriyatlarga ham bo'linadi. Suv yoki toza havo inson uchun tabiiy qadriyatdir. Ular inson tomonidan ishlov berilib yaratilmagan. Sosial qadriyatlarning jamiyat ichida uning taraqqiyoti davomida yuzaga keladi vaamal qiladi. Madaniy qadriyatlar sosial qadriyatlarning tarkibiy qismi sifatida faqatgina inson tomonidan ishlov berilgan sosial buyum, hodisa va munosabatlarni o'z ichiga oladi. Biron o'simlik yoki qo'y biologik hodisa sifatida tabiatniki. Lekin ular inson tomonidan ishlov berilgandan so'ng madaniy hodisalarga – madaniy o'simlik va uy hayvoniga, shu jumladan madaniy qadriyatlargaaylanadi. Bu jarayon saqlash voqyelikka xosdir. Demak, insonning o'zi ham ishlov berish mahsuli sifatida madaniy qadriyatdir. Sosial qadriyatlar ichida

shunday tamon, element iva munosabatlar ham borki, ular inson tamonidan bevosita ishlov berish natijalari emas.

Ularning yuzaga kelishi insonga nisbatan olsak, bevosita shartlangandir. O'z-o'zidan ravshanki sosial qadriyatlar madaniy va madaniy bo'lmagan qadriyatlarga ham bo'linadi. Yuqorida qadriyatlarni belgilash nisbiy xarakterga ega, degan fikr madaniy qadriyatlarga ham tegishlidir. Chunkiayni vaqtda biron-bir xalq uchun qadriyatli bo'lgan urf-odat boshqa xalqlar uchun ahamiyatsiz bo'lishi mumkin. Yoki har bir xalqning uzoq o'tmishda qadrli bo'lgan sosial norma hozirgi davrga kelib shunchaki madaniy yodgorlik, hatto konservativ xarakterda bo'lishi mumkin. Shuningdek uzoq o'tmishda yuzaga kelib, hozirda ham nafaqat doimiy milliy, balki doimiy umuminsoniy qadriyatlar ham mavjuddir. Har qanday qadriyatlar singari madaniy qadriyatlarni bilishning yo'li-ularning sifatini aniqlashdir.

Marksistikadabiyotlarda narsa va hodisalari yig'indisi orqali bilinadi, deb tavsif berilgan. Bunda gap shunchaki mexanik tarzdagi xossalar yig'indisi ustida emas, balki bir-biri bilan dialektik tarzda bog'langan xossalar haqida bormoqda. Xossalar sifatning muayyan tamonlari tariqasida obyektning boshqa obyektga o'zaro munosabatida namoyon bo'ladi. Ushbu masalada M.Xasanovning fikrlari qimmatlidir. Strukturaning murakkablashishi uning funksiyalarining murakkablashishiga olib keladi. Demak, madaniy voqyelikni funksiyanalaspektda o'rganish, ularning xossalariga oid jarayonlarni bilishgaasoslanadi. Madaniy borliqning xossalarinianiqlash esa uning tarkibiy qismi madaniy qadriyatlarnianiqlash-madaniyat nazariyasi va tarixiningasosiy masalasidir. Bu siz ushbu fanamaliyotdan ajralgan, quruq nazariyagaaylanib qoladi.

O'zbekistonning mustaqil rivojlanish yo'liga o'tganligi, unda umumiy qadriyatlar tizimining shakllanishi va barqarorligini ta'minlaydiganasosiy omillardan biridir. Mustaqillik tufayli respublikamizda yangi demakratik qadriyatlar tizimini shakllantirish imkoni ochildi. Mustaqillik bugungi O'zbekistonda ideal qadriyatdan amaliyotga aylanib bormoqda. Bunda siyosiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy sohalarda tub o'zgarishlarniamalga oshirish, xalq tinchligi, erkinligi va faravonligini ta'minlash, demakratik qonunlargaasoslangan hayot tarzini vujudga keltirish, har bir shaxsning kamolati, qobiliyati va iste'dodini namoyon qilish uchun to'liq imkoniyatlarni yaratish borasida bajarilishi lozim bo'lgan ma'suliyatli vazifalar paydo bo'ldi.

Yangi qadriyatlar tizimining vujudga kelishi, jamiyatdagi asosiy ijtimoiy subyektlarning o'zaro hamjihatligi, kelishuvi, hamkorligiasosidagi faoliyatining mezonigaaylanishi bir qancha vaqtni talab qiladigan o'zgarishlarniamalga oshirish davrini qamrab oladi. Istiqlol yillarida O'zbekistonda bu mavzuga umuminsoniy tamoyillarasosida yondashish shakllandi. Bunday qarashning vujudga kelishi, qadriyatlarning ijtimoiy va ma'naviy yangilanishi, jamiyata'zolarining kamolati hamda yoshlar tarbiyasidagiahamiyati masalalariga davlat miqyosida yuksak e'tibor ko'rsatilayotganligi mazkur soha rivojining bosh yo'nalishidir. Qadriyatlar mustaqillikni mustahkamlashning biri sifatida qadirlanishi borasidagi ijobiy jarayonlar tadqiqotlarni ko'paytirish, ularga nisbatan mas'uliyatini yanada oshirishni taqoza qilmoqda. Istiqlolasrlar davomida shakllangan o'ziga xos sharqona va o'zbekona qadrlash masalalari va me'yorlarini qayta tiklash hamda zamonaviy talablar darajasida takomillashtirishni kun tartibiga qo'ydi.

Zero, mustaqil bo'lmagan mamlakatning qadriyatlari tizimi hyech qachon to'kis bo'lmaydi. Mustamlaka mamlakatning

ma'naviy hayotida mustamlakachilarning qadriyatlari ustuvor bo'lishianiq. Faqat mustaqillikkina ushbu xolatni tubdan o'zgartiradi, mamlakatning qadriyatlar majmuasini jahon tizimining teng huquqli va haqiqiy qismigaaylantiradi. Shu sababdan ham istiqlol yangi qadriyatlar tizimini shakllantirishni taqoza qildi. Bu zaruriyat esa qadriyatlarni qayta baholash, yurtimizda sharqona, azaliy va umuminsoniy qadrlash mezonlari ustuvor bo'lgan hayot tarzini shakllantirish jarayoni bilan uyg'unlashib ketdi. Qadriyatlar sohasidagi o'zgarishlarga e'tibor va bu borada yangi tamoyillardan ta'lim-tarbiyada foydalanish ehtiyoji oshayotganligining sababi hamana shunda. Shu bilan birgalikda har bir millat o'z qadriyatlarining emas, balki uniasrab-avaylovchi va kelajakka yetkazuvchisi hamdir. Milliy qadriyatlarning saqlanishi uchun har bir millatning o'zi mas'uldir. Bu esa mas'ullikning faqatalohida shaxslarga emas, balki butun millatga ham xos namoyon bo'lishinianglatadi. Millat ozod bo'lmasligi, siyosiy jarayonlar natijasida biror imperiya yoki davlatga qaram bo'lishi mumkin,ammo unda o'z milliy qadriyatlarini saqlash yo'qolib ketmaydi. Har bir millatning o'zi qadirlaydigan madaniyati, tili,an'nalari, urf-odatlari, marosimlari va odob normalari bor. Milliy qadriyatlar millatning tabiiy tarixiy rivoji, ijtimoiy turmushi, yashash tarzi, o'tmishi, kelajagi, madaniyati, ma'naviyati, urf-odatlari,an'analari, tili, u vujudga kelgan hudud va boshqalar bilan o'zviy bog'langan. Ular xilma-xil shakllarda, bir-biri bilan uzviyaloqada namoyon bo'ladi, o'ziga xos milliy qadriyatlar tizimini tashkil qiladi.

Milliy qadriyatlar va ularningaloqadorligini ifodasi bo'lgan qadriyatlar tizimi, millatning o'zi bilan birga tarix silsilalari zamona zayllari, turli ijtimoiy va siyosiy jarayonlar orasidan o'tmishdan kelajakka qarab o'tib turadi. Bu qadriyatlar ko'proq lillatning etnik xususiyatlari va etnik makoni bilan bog'liq.

Xalqlarning ijtimoiy taraqqiyoti esa ularning milliy-etnik qadriyatlari ravnaqi bilan uzviyaloqadorlikda davom etadi. Har bir xalq yoki millat, o'ziga xos rang-barang qadriyatlarni shakllantirib borishi natijasida, umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirib, uning turli qirralarini rivojlantirib boradi.

Umuminsoniy qadriyatlar kategoriyasining mazmunini o'rganish uchun, avvalo, «umuminsoniylik» tushunchasining ma'nosini tahlil qilmoq lozim. Bu tushuncha jamiyatningasosiy jihatlari, turli ijtimoiy sifatlar, xususiyatlar va boshqalarning umuminsoniy xarakterga ega ekanliginianglatadi. «umuminsoniylik» tushunchasida qadriyatlarni tirik tabiatning bir qismi bo'lgan odam zotining hayoti va kamolati hamdatarixiy, siyosiy va boshqa birliklar (ijtimoiy subyektlar) uchunahamiyati ham o'zaksini topadi. Shu bilan birga umuminsoniylikda umumijtimoiy munosabatlar, ta'lim-tarbiya va ma'naviy-axloqiy jihatlar, ijtimoiy muhitning eng umumiy tamonlari bog'liq sifatlar hamaks etadi. Bir so'z bilanaytganda umuminsoniylik odamlar uchun umumiy bo'lgan mezonlar, obyektiv, subyektiv holatlar, xususiyatlar, shart-sharoitlar va boshqalarni o'zidaaks ettiradigan tushuncha sifatida ishlatiladi.

Ijtimoiy taraqqiyot jarayonida umuminsoniylikning ustuvorligi talablari har bir tarixiy birlikning tarixiy rivojlanish mahsuli, ekanligini, bunda tirik insonlarning taqdiri, orzu umidlari borligini hisobga olish taqoza qiladi. Bu talablarga ko'ra har bir kishi sog'-omon yashash, umr kechirish, o'z vujudini omon saqlash kabi huquqlari bilan birga dunyoga keladi, bu huquqlarni unga tabiatato etgan, biror maqsadlardan kelib chiqib insonni bu huquqlaridan mahrum qilish mumkin emas. Qanday sinf, tabaqa, qatlam vakili bo'lmasin, uning boshqalar kabi yashash huquqi borligi, mutloq haqiqat, odam zoti esa bu huquq nuqtai nazaridan tengdir.

Umuminsoniylikning bu boradagi talablari, ya'ni insonning tabiiy –tarixi. Haq-huquqlari, uning yashash va umr kechirish huquqining tabiiyligi va hatto muqaddasligini to'la-to'kis e'tirof qilishdir. Xalq og'zaki ijodida ham, qadimgi va zamonaviy dinlarda ham, davlatlarning kanstitutsiyalarida va boshqa hujjatlarda ham buni yaqqol kuzatish mumkin. Buyuk Fransuz revolyusiyasi (1789 yilda) qabul qilgan «Inson va grajdan huquqlari Deklaratsiyasi»da ham, 1948 yilning 10-dekabrida BMT Boshassambleyasi tasdiqlagan «Inson huquqlarining eng umumiy Deklarasiyasi»da ham kishilarning tabiiy-tarixiy haq-huquqlari jamiyatdagiasosiy umuminsoniy qadriyatlar ekanligi alohida ta'kidlanganligi bejiz emas. Olamdagi insonlarning yashash joylari, o'tmishavlodlarining xoki yashiringan zamin, o'zi to'g'ilgan yurti bilan bog'liq umuminsoniyatga xos bokira tuyg'ulari bor. Bu tuyg'ular tug'ilgan uydan, mahalla, qishloq, shahar ko'chasidan tarbiyalana boshlaydi, kishi mansub bo'lgan tarixiy birlik,uning o'tmishi bilan bog'langan ijtimoiy xududga nisbatan munosabatda namoyon bo'ladi. Kishi yer sayyorasining farzandi ekanini, o'zi uchun suyukli xudud sayyoraning tarkibiy qismi bo'lgan Vatan ekanliginianglaganida, undagi bu tuyg'u umuminsoniylik talabiga mos keladigan darajaga ko'tariladi. Sayyoramiz kishilari uchun undagi tiriklikning vujudga kelishi, rivojlanishi, odam zotining ongli faoliyati, mehnati, madaniy va ma'naviy kamolati erishish bosqichlari, tabiat va jamiyatda amalga oshirgan ishlari bilan bog'liq jarayonlarni ifodalaydigan tarix ham o'zahamiyati va qadriga ega. Tarix-odam zotining ilk vujudga kelgan davridan, bizning kunlarimizgacha yaratgan moddiy boyliklarini, insoniyat hayotida ro'y bergan o'zgarishlarni kelajakka yetkazib beradigan «Qadriyatlar sondig'i»dir.

Tarix-zamin vujudlarini yashirib turganavlodlar ruhi oiladagi qarizdorlik tuyg'usini qo'zg'agan, o'tmishdagi voqyea-larni o'rganish zaruriyati tug'ilgan va kelajakning rejalarini tuzish jarayonida rivojlanishninganiq yo'l va usullari tanlab olinayotgan davrlarda qadriyatga umuminsoniy qadriyatlar va ularning asosiy shakllari xilma-xil tarzda, rang-barang holat va turli darajalarda namoyon bo'ladigan g'oyat murakkab, mazmunan nihoyatda boy va serqirra ijtimoiy tushuncha sifatida bu boradagi masalalarning hammasini bu ma'ruzada qamrab olish qiyin hisoblanadi. Biz bu ma'ruzada qadriyatlar muammosining eng muhim, ayrim jihatlarini yoritdik.

Nazorat uchun savollar:

1. Qadriyatlar nima va ularning insoniyat hayotidagi o'rni qanday?
2. Qadriyatlar va axloq o'rtasidagi aloqalar qanday shakllanadi?
3. Madaniyat va qadriyatlar o'rtasidagi bog'lanish haqida nimalarni bilasiz?
4. Zamonamizda qadriyatlarning o'zgarishi va bu o'zgarish-larning ijtimoiy tizimlarga ta'siri qanday namoyon bo'ladi?
5. Qadriyatlar falsafasining asosiy yondashuvlari va tamoyil-lari nimalardan iborat?
6. Modernizatsiya jarayonida qadriyatlarning o'zgarishi qanday oqibatlarga olib keladi?

Nazorat savollari

1. «Qadriyat» tushunchasining mazmun-mohiyati.
2. O'zbekistonda qadriyatlar mavzuiga munosabat qanday?
3. Qadriyatlar tizimi qanday tizim?
4. Qadriyatlarning qaysi shakllarini bilasiz?

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdulla Sher. Axloqshunoslik. – Toshkent, O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2020.
2. Nazarov Q. Aksiologiya – qadriyatlar falsafasi. –T.: O'FMJ, 2004.
3. Nazarov Q.N. Bilish falsafasi. – T.: Universitet, 2005.
4. Nazarov Q. G'oyalar falsafasi . – T.: Akademiya, 2011.
5. Nazarov Q.N. Falsafa asoslari -T.: Sharq, 2005. 9- bet
6. Falsafa qomusiy lug'at. Q.Nazarov tahriri ostida. T., Sharq nashriyoti. 2004y.
7. Falsafa. Mamashokirov S. Tahriri ostida. -T.: Sharq, 2005.
8. Nazarov N. Sport va sog'lom hayot falsafasi. Monografiya. Toshkent 2020yil
9. Kun L. Vseobshaya istoriya fizicheskoy kulturi i sporta. M.: 1982.
10. Eshnazarov J. Jismoniy madaniyat tarixi va boshqarish. T.: 2008.
11. Djalilova L.A. Jismoniy tarbiya va sport tarixi. O'quv-uslubiy qo'llanma. T: 2013.
12. Xayitov Sh., Xayitova K., Ziyautdinova X. Falsafa asoslari. Albom

Internet saytlari:

1. www.ziyo net.uz
2. www.faylasuf.uz
3. Sports.ru

ETIKA

Reja:

1. Etikaning ta'rifi va uning asosiy vazifalari.
2. Etikaning asosiy tamoyillari va me'yorlari.
3. Etika va axloqning o'zaro aloqasi.
4. Etikaning ijtimoiy hayotdagi roli va ahamiyati.
5. Etik tizimlarning zamonaviy muammolari va ular bilan bog'liq falsafiy qarashlar.

Tayanch so'zlar: *axloqshunoslik, etika,axloq, xulq, odob, falsafa, milliy g'oya.*

Axloqshunoslik bir necha ming yillik tarixga ega bo'lgan qadimiy fan. U bizda "Ilmi ravish", "Ilmi axloq", "Odobnoma" singari nomlar bilan atab kelingan. Yevropada esa "Etika" nomi bilan mashhur, biz ham yaqin-yaqingacha shu atamani qo'llar edik. U dastlab manzildoshlik, yashash joyi, keyinchalik esa odat, fe'l, fikrlash tarzi singari ma'nolarni anglatgan;**yunoncha "ethos" so'zidan olingan**. Uni birinchi bo'lib yunon faylasufi Arastu ilmiy muomalaga kiritgan. Arastu fanlarni tasnif qilarkan, **ularni uch guruhga bo'ladi**: **nazariy,amaliy va ijodiy.** Birinchi guruhga falsafa, matematika va fizikani;ikkinchi guruhga etika va siyosatni; uchinchi guruhga esa san'at, hunarmandchilik va amaliy fanlarni kiritadi. Shunday qilib, qadimgi yunonlar axloq haqidagi ta'limotni fan darajasiga ko'targanlar va "Etika" deb ataganlar. Biroq bizda milliy-mintaqaviy,axloqiy qadriyatlarimizning, dastlabki axloqiy g'oyalarning vujudga kelishi qadimgi yunonlar yashagan davrdan o'nlab asrlar avval ro'y bergan. Ajdodlarimizning eng ko'hna e'tiqodiy-axloqiy kitobi- **"Avesto"** buning yorqin namunasidir.Shu sababli

endilikda bu fanni ham ilmiy-tarixiy, ham zamonaviy-hayotiy talablar nuqtayi nazaridan "**Axloqshunoslik**" deb atashni maqsadga muvofiq deb bildik.

Axloq lotincha «moralis», «mores» so'zlaridan olingan bo'lib, ma'nosi xulq, odat demakdir. Axloq so'zi arabcha bo'lib, xulq so'zining ko'pligidir.

Axloq – ijtimoiy ong shakllaridan biri bo'lib, kishilarning tarixan tarkib topgan xulq-atvori, yurish-turishi, ijtimoiy va shaxsiy hayotdagi o'zaro, shuningdek, jamiyatga bo'lgan munosabatlarini tartibga solib turuvchi, barqaror, muayyan norma va qoidalar yig'indisi. Axloq normalari kishilarning xatti-harakatlarida o'z ifodasini topadi. Bunda ba'zi xatti-harakatlar, xulq-atvorlar,axloqiy, ba'zilari axloqsizlik deb baholanadi.

Axloq ijtimoiy ongning qadimgi shakllaridan biridir. Davr o'zgara borgan sari har qanday hodisa kabi axloq ham o'zgaradi, rivojlanib, takomillashib, ma'naviy madaniyatning ko'rinishlaridan biriga aylanib boradi. Axloq ijtimoiy munosabatlar zaminida alohida shaxs sifatida mavjud bo'lgan insonlarning o'z-o'zini idora qilish shakllari va me'yori, o'zaro muloqot va munosabatlarda ularga xos bo'lgan ma'naviy kamolot darajasining namoyon bo'lishidir. Axloq, darhaqiqat, ma'naviyat negizidir,asosidir, deyilsa xato bo'lmaydi.

Axloqni alohida falsafiy fan – «etika» o'rganadi.

Etika qadimda fizika va mantiq bilan birgalikda falsafaning uzviy – uchinchi qismi hisoblanar edi. Keyinchalik Arastu birinchi bo'lib, «Etika» («Nikomax etikasi» va «Siyosat»)asarini, darsligini yozgach, u alohida falsafiy yo'nalishdagi fan maqomini oladi. Etikaning boshqa falsafiy fanlardan farqi, o'ziga xosligi shundaki, unda nazariya bilan amaliyotning, faoliyatning omuxtaligi va uyg'unligidir ya'ni bir-birini taqozo etishidir. Qadimgi antik davr donishmandlaridan birining fikricha, falsafani azim daraxt -

chinorga qiyos qilsak, uning ildizi tabiat haqidagi ta'limotlar, poyasi – mantiq, mevasi esa – etikadir.

Xulq (odob) deganda, rasm-taomul, xulq-atvorlarning butunligi, odamlar o'rtasida iqtisodiy tuzum taqozosi bilan, turmush sharoitining alohida tarzidan,an'analaridan paydo bo'lgan va lekin muntazam qarashlar, qoidalar, yo'l-yo'riqlar sistemasiga kirmagan munosabatlarning xususiyati tushuniladi.

Axloq esa mazkur rasm-taomul va xulq-odatlarning umumlashganidir. Bu axloqiy yo'l-yo'riqlar, normalar,axloq to'g'risidagi pand-nasihatlar, qonun-qoidalar to'plami bo'lib, u yoki bu tarixiy davrda muayyan ijtimoiy guruhlarning manfaatlariga mos keladi. Masalan, ritsarlik axloqining qonun-qoidalari, islom, xristianlik axloqining qoidalari va boshqalar.

Xulq (odob) – odamlarning amaliy xatti-harakati, odamlar o'rtasidagi amaliy munosabatlardir;axloq esa mazkur xatti-harakat normalari va qoidalarning axloq talablari shaklida ifodalab berilganidir; etika bo'lsa,axloq normalari qoidalarining izohlab va asoslab berish demakdir, ya'ni aslida axloq haqidagi nazariyadir. Agar bunday farq qilinadigan bo'lsa, demak, tarixan ayni bir vaqtda jamiyat paydo bo'lishi bilan odamlarning axloqiy munosabatlari, xatti-harakat usullari ham paydo bo'lgan va bu munosabatlar axloqiy qoidalar, normalar tarzida, so'ngra esa yozilmagan axloq qonun-qoidalari tarzi ularning ongiga singib qolgan bo'lib chiqadi; nihoyat,axloqni nazariy jihatdan asoslab va izohlab beradigan fan sifatida etika shakllanadi.

Etika sohasida ham xilma-xil nazariyalar, bir-biriga zid oqimlar, yo'nalishlar bo'lib kelgan. Axloqning vujudga kelishi to'g'risida turli nazariyalar mavjud bo'lib, bu nazariyalarga ko'ra,axloq mavhum aql, mutlaq ruh ta'sirida vujudga kelgan, u tarixiy shart-sharoitga bog'liq va u abadiy, o'zgarmasdir. SHuni aytish kerakki,axloqning burch, vijdon, or-nomus kabi o'ziga xos

asosiy kategoriyalari bor. Bunday tushunchalar bir necha ming yillardan buyon mavjud. Kishilar turli davrlarda bularga amal qilib kelganlar. Tarix tajribasi shuni ko'rsatadiki, bu tushunchalar o'zgarib, turli xalqlar, millatlar orasida har xil mazmunga ega bo'lganini ko'rsatadi. Demak,axloqiy hodisalarga milliylik, umuminsoniylik, tarixiylik nuqtai nazardan qaramoq lozim.

Binobarin,axloq kishining jamiyatda tutgan o'rnini belgilab berar ekan, bu bilan kishi axloqiy harakat qilish lozim bo'lgan maqsadni ham asoslab beradi. Bu o'rinda **axloqiy ta'limotlar tipologiyasi, tasnifi muammosiga ahamiyat berib, naturalizm etikasida keng tarqalgan gedonizm, evdemonizm, utilitarizm haqida to'xtalamiz.**

Evdemonizm – yunoncha so'z bo'lib, rohat-farog'at, baxt-saodat ma'nosini anglatadi. Bu ta'limot baxt-saodatga intilish – axloqning asosi deb talqin etiladi. Evdemonizm mantik etik ta'limotlarda Demokrit, Arastu, Suqrot va Aflotun qarashlarida keng namoyon bo'lgan.

Utilitarizm – yunoncha so'z bo'lib, foyda, manfaat ma'nosini bildiradi. Bu ta'limot ham etikada bir yo'nalish bo'lib, u xatti-harakatning foydaliligi, uning axloq-odob mezoni deb biladi, baxt-saodat, yaxshilikni foyda, manfaat bilan bog'laydi.

Bundan tashqari etika ta'limoti sohasida materializm bilan idealizm o'rtasida o'ziga xos qarashlar bo'lgan. Marksizm etikaga sinfiylik, partiyaviylik nuqtai nazaridan yondoshadi va ularning «kommunistik axloqning asosida kommunizm jamiyatini qurish va mustahkamlash yotadi» – degan fikrlar bo'lib, u puchga chiqdi, tarix sinoviga bardosh bera olmadi.

XXasr etikasida ham turli yo'nalishlar mavjud: ruhiyat tahlili, ekzistensializm, pragmatizm, neotomizm, g'ayrizo'ravonlik, hayotga ehtirom, tasavvufiy yo'nalish va boshqalar.

Jamiyatimizdagi hozirgi yangilanish jarayonida etikaning o'z o'rni bor. Uning oldida yangi demokratik va huquqiy davlat barpo etishga kirishgan mamlakatimiz fuqarolarining,ayniqsa, yoshlarning axloqiy darajasiga mas'ullik va har tomonlama kamol topgan zamon kishisi tarbiyasini nazariy asoslashdek ulkan vazifalar turibdi. Ularni faqat qadimiy va har doim zamonaviy bo'lib kelgan axloqqa yangicha yondashuvlar asosidagina amalga oshirsa bo'ladi.

YAngicha yondashuvlardan biri – etikada milliy g'oya va mustaqillik mafkurasiga e'tiborni kuchaytirish bilan bog'liq. CHunki zamonaviy komil inson an'anaviy axloqiy qadriyatlar bilan yo'g'rilgan yangicha mafkuramizni o'zida mujassam etgan, milliy g'oyani o'z ruhiy olamiga singdirgan etuk shaxs bo'lmog'i lozim. Uning qalbida axloq yuksak g'oyani va yuksak g'oya axloqiylikni uyg'unlashtirgan ma'naviy hodisaga aylanmog'i kerak.

Axloq inson va jamiyat o'rtasidagi ob'ektiv aloqadorlik tufayli kelib chiqadigan, har bir shaxsning hayoti va faoliyatini boshqaradigan, tartibga soladigan prinsip va normalar majmuidir.

Axloq ijtimoiy xodisa sifatida insoniyat jamiyati vujudga kelishi bilan bir vaqtda jamoalar bilan shaxslar o'rtasidagi ehtiyoj va manfaatlarga xizmat qiluvchi aloqa tarzida vujudga kelib, o'zining tarixiy taraqqiyotida:

- insonning tabiiy xislatlarini o'zgartiruvchi, yaratuvchi faoliyati shaklida umuminsoniy madaniyatning tarkibiy qismi;
- jamiyatda yashovchi har bir shaxsni har tomonlama kamol toptiruvchi ma'naviy-ijtimoiy omil asoslaridan biri;
- kishilarning ichki tuyg'ularini, hissiyotlarini o'stirib, umuminsoniy moddiy va ma'naviy qadriyatlarini anglab etish,

ularni asrash va kelgusi avlodlarga etkazib berish yo'llaridan eng afzali;

- oila va kundalik turmushda mavjud bo'lgan oilaviy burch, o'zaro hurmat, sadoqat, or-nomus kabi an'analarni nasldan-naslga,avloddan-avlodga o'tkazish asosida davom ettirish vositasi;

- adolatli jamiyat qurish va unda boy-badavlat, tinch-totuv, baxtli yashash g'oyasi sifatida muntazam ravishda rivojlanib kelgan va rivojlanadi.

Axloqning negizini jamiyatning tarkibiy tuzilishi, xususan, undagi mulkiy munosabatlar, mehnat taqsimoti,aholining yoshi va ularning ehtiyoj va manfaatlari belgilaydi. Binobarin, O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining asosini xilma-xil shakllardagi mulklar tashkil etayotgan bir vaqtda, uni rivojlantirishning ma'naviy-axloqiy negizlarini:

- umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik;

- xalqimizning ma'naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish;

- insonning o'z imkoniyatlarini erkin namoyon qilishi;

- vatanparvarlik tashkil qiladi.

Shubhasizki,ana shu negizlar asosida O'zbekiston xalqlarining yangicha mazmundagi ma'naviy-axloqiy dunyosi shakllanadi va qaror topadi. Bu esa, o'z navbatida xalqimiz axloqining negizini belgilab beradigan asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Axloq va huquq - inson munosabatining o'zaro aloqadorlikda bo'lgan muhim elementlaridir. Ularning tabiati jamiyatdagi konkret tarixiy sharoit, sotsial-sinfiy strukturaga bog'liq bo'ladi. Demokratik fuqarolik jamiyatida axloq va huquqning o'zaro aloqadorligi quyidagi qonuniyat tufayli ob'ektivlashadi – umumxalq huquqining axloqiy potensiali, qonunchilikning axloqiy asoslari o'sib boradi.

Yiqorida ta'kidlaganimizdek,axloq - inson va jamiyat o'rtasidagi ob'ektiv aloqadorlik tufayli kelib chiqadigan, har bir shaxsning hayoti va faoliyatini boshqaradigan, tartibga soladigan prinsip va normalar majmuidir.

Shunday qilib, huquq – nafaqat siyosiy-yuridik, balki ijtimoiy-axloqiy xodisa. Jamiyatning huquqiy hayoti insonparvarlik, adolat, vijdon va burch, or-nomus, erkinlik va mas'uliyat kabi axloqiy xodisalarsiz rivojlana olmaydi.

Axloq va huquq munosabatlariga qadim davrlardan mutafakkirlar o'z e'tiborini qaratganlar. Suqrot, Aflotun, Arastu huquqiy mafkurani ishlab chiqar ekan, Etikani qonunchilik bilan bog'lashga harakat qilganlar. Rim yuristlari: «huquq urf-odatlar ma'qullagan narsalarni tavsiya qiladi» degan postulatni ilgari surganlar.

Yangi davrda axloq va huquq uzviy bog'liqlikda olib qaralgan, hatto Gelvetsiy: ««Etika» va «Qonunshunoslik»ni men bitta fan deb tushunaman»2,-deb yozadi.

Nemis klassik falsafasi namoyandalari ham axloq va huquq munosabatlariga o'z e'tiborlarini qaratishgan. Kant huquq axloqqa bo'ysunadi deb hisoblagan. Gegel fikricha,axloq va huquq bir-birini taqozo qiladi, farqi shundaki,axloq tashqaridan bo'ladigan majburiylikka yo'l qo'ymaydi.

Aslida, huquq inson xatti-harakatini boshqarish shakli sifatida tarixiy taraqqiyotning muayyan bosqichida,axloq normalaridan kelib chiqadi. Huquq o'z taraqqiyotining turli bosqichlarida axloq bilan deyarli uyg'un bo'lgan. Faqat vaqt o'tishi bilan yozma va shakllangan qonunchilikka aylangan. Boshqacha qilib aytganda, huquq o'z ichiga axloqiylikni qamrab oladi.

Axloq va huquqning munosabati quyidagilarga namoyon bo'ladi:

- birligi va o'xshashligida;
- farqli tomonlarida;
- o'zaro ta'sirida.

Axloq va huquq ijtimoiy ong shakllari sifatida umumiy ijtimoiy funksiyani bajaradi; insonning jamiyatdagi faoliyatini boshqaradi, normativ xususiyatga ega va fuqarolar bu norma va prinsiplarga amal qiladilar. Bu norma va prinsiplar umumiy xarakterga ega va jamiyatning barcha a'zolariga taalluqlidir.

Ko'p asrlar davomida,antik davrlardan boshlaboq mutafakkirlar axloq haqida juda ko'p asarlar yozdilar. Ular axloqning mohiyatini tushunishga, tushuntirishga harakat qildilar. O'tgan uzoq tarixiy taraqqiyot davrida axloq quyidagicha talqin qilib kelindi:

- kundalik hayot aqliy tajribasi;
- individning o'z xulq-atvoridan qoniqishi;
- burchga sadoqat ramzi;
- ijtimoiy stabillik va tartibni saqlash vositasi;
- ijtimoiy foydani talab qiluvchi ijtimoiy hodisa;
- jamiyatda adolatni qaror toptiruvchi vosita;
- insonlarning o'zaro hamjixatligini ta'minlovchi vosita;
- vijdon ovoziga bo'ysundiruvchi vosita;
- inson hayotining oliy ma'nosini anglash yo'li.

Har bir inson o'zining butun umri davomida o'zining qadriyatlar tizimini, o'zining hulq-atvor, yomonlik va yaxshilik, baxt, adolat va boshqa axloqiy kategoriyalar xaqidagi tasavvurlarini takomillashtirib boradi.

Insoniyat tarixida axloqiy taraqqiyot bo'lgan va u davom etib kelmoqda. Bu davom etish qat'iy tadrijiylikka ega emas. U goxo susayish, ba'zan esa biroz ortga chekinish, ba'zan bir qancha muddat turg'un turish xususiyatlariga egadir. Lekin katta davrlar va tarixiy oraliqlarni olib qaraydigan bo'lsak,axloqiy taraqqiyot-

ning mavjud ekaniga ishonch hosil qilish qiyin emas. Mustabid tuzumlar va shaxslar keltirib chiqargan axloqiy tanazzullar xammasi qisqa muddatli hamda o'tkinchi hodisalardir. Zero insonning asosiy mohiyati o'zini va o'z jamiyatini taraqqiy ettirib borish bilan belgilanadi. Axloq esa ana shu taraqqiyotdan xech qachon chetda turmaydi.

Insondagi ixtiyor erkinligi zaruriyat talabi bilan oqilona,aqlga bo'ysundirilgan ravishda cheklanadi, ya'ni nisbiylashadi. Aks holda, muayyan bir, bir necha inson yoki guruhning beti yiq, erkin ixtiyori na faqat boshqa insonlar va guruhlar,balki nabotot, hayvonot olami, butun dunyo uchun fojeaga aylanishi mumkin. Ixtiyor erkinligini bunday cheklashning,aqlga bo'ysundirishning asosiy vositasi axloqdir.

Ixtiyor erkinligi tufayli inson har qadamda axloqiy tanlov muammosiga duch keladi. Bu muammo kishida mas'uliyat hissi mavjudligidan dalolat beradi. Mas'uliyatni, o'zgalar va o'z vijdoni oldida javobgarlikni sezmagan kishi xoxlagan ishga qo'l urishi mumkin – uni o'z qilmishining oqibati qiziqtirmaydi, u faqat manfaat ustivorligini tan oladi, xolos. Unday odamni axloqsiz deb ataydilar. Zero inson yo ezgulikni, yo yovuzlikni tanlashi tufayli nimanidir ixtiyor etadi:axloqiy tanlov – har bir xatti-harakat, har bir qilmishning ibtido nuqtasi. Umuman inson va jamiyat axloqiy hayotida tanlovning ahamiyati beqiyos.

Dastlabki axloqiy qonun-koidalar ana shu tanlovni ro'yobga chiqarishga, yana ham aniqroq aytganda, uni osonroq amalga oshirishga xizmat qilgan. Ilk axloqiy qoida «o'zingga ravo ko'rmagan narsani boshqaga ham ravo ko'rma" mazmunida dunyoga kelgan. Uning hozirgi zamondagi o'zbekchasi «pichoqni avval o'zingga ur, og'rimasa o'zgaga ur", "o'zingni er bilsang, o'zgani sher bil" kabi maqollarda aks etgan. "Axloqning oltin qoidasi" debatalgan ushbu qoida, bizningcha, eng qadimiy

axloqiy talablardandir. Zero xun olish talabi keyinroq paydo bo'lgan va insonning asl mohiyatiga to'g'ri kelmaydigan qoidalardan. Dastlabki axloqiy qonun-qoidalar muqaddas kitoblarda o'z aksini topgan zo'ravonlikka zo'ravonlik bilan javob bermaslik tamoyili asosida yaratilgan.

Ana shu, inson axloqiy hayotining asosi bo'lgan qonun-qoidalar hozir ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Odamlar ularni og'ir majburiyat deb bilmasdan, dil-dildan bajaradigan zamonning tezroq kelishi uchun tinmay harakat qilishlari ahlokiy taraqqiyotdan dalolatdir.

Axloqning tarkibiy tuzilishi murakkab bo'lib, quyidagi elementlardan iborat:

- axloqiy amaliyot-axloqning muhim va belgilovchi komponenti bo'lib, insonning xatti-harakatlari orqali namoyon bo'ladi. Faqat inson xulq-atvorining xatti-harakatlarda namoyon bo'lish orqaligina uning axloqiyligi haqida tasavvurga ega bo'lish mumkin.

Insonning faoliyati, inson tomonidan axloq normalari va prinsiplarining amaliyotga tatbiq qilishi uning axloqiy tarbiyasi,axloqiy madaniyatining ko'rsatkichi hisoblanadi.

Ma'lumki, har bir faoliyatda aniq bir maqsadni ko'zlab, tegishli vositalar, usullar orqali harakat qilinadi va ma'lum natijalarga erishiladi. Har qanday maqsad albatta axloqiy mazmunga ega bo'ladi. Bu maqsadlar ma'lum vositalar axloqiy mazmuniga ko'ra, qo'llanilishi mumkin bo'lgan yoki mumkin bo'lmagan vositalarga ajratilishi mumkin.

Maqsad va vosita muvofiqligi muammosi – yuridik etikaning muhim masalasidir. Hozirgi zamon jinoyat jarayonida maqsad va vosita muvofiqligi muammosi muayyan huquqiy va axloqiy asosda hal etiladi. Etikada «maqsad vositani oqlaydi prinsipi, ezgu maqsad yo'lida har qanday vositalarni

qo'llash mumkin» – degan fikr inkor etiladi. Maqsad qanchalik ezgu bo'lmasin, vositalar ham axloqiy chegarada bo'lishi darkor.

Axloqiy munosabatlar - ijtimoiy munosabatlarning ko'rinishi sifatida insonlar tomonidan axloqiy (axloqsiz) xatti-harakatlarni sodir etish jarayonida vujudga keladi. Axloqiy munosabatlarning ob'ektiv va sub'ektiv tomoni mavjud. Sub'ektiv tomoni - bu insonning qiziqishlari, hissiyotlari. Ob'ektiv tomoni esa - inson uchun imperativ xarakterga ega bo'lgan normalar, ideallar, urf-odatlar,an'analar va boshqa ijtimoiy faktorlar hisoblanadi.

Kishilar axloqiy munosabatga kirishar ekanlar, o'z zimmalariga muayyan axloqiy majburiyatlarni oladilar va muayyan axloqiy huquqlarga ega bo'ladilar.

Axloqiy ong - o'z ichiga axloqiy amaliyot va axloqiy munosabatlarga ta'sir ko'rsatuvchi bilimlar, qarashlar, hissiyotlar, norma, prinsiplarni qamrab oladi. SHu bilan birga uyat, vijdon azobi, o'z xatti-harakatidan achinish yoki qoniqish, haqligini anglash kabi axloqiy hissiyotlarni uyg'otuvchi axloqiy o'z-o'zini anglash va axloqiy o'z-o'zini baholashni qamrab oladi.

Axloqiy ong aksikologik xususiyatga ega, chunki har bir hodisaga muayyan axloqiy norma, prinsip,an'ana, qadriyat, ideallar nuqtai nazaridan yondashadi.

Axloqiy ong ijtimoiy taraqqiyot jarayonida kishilarning ijtimoiy hayotlari va ijtimoiy munosabatlarini boshqarish ehtiyoji tufayli kelib chiqadi.

Axloqiy ong voqelikni in'ikos ettirar ekan, boshqa ijtimoiy ong shakllari singari haqiqiy yoki aksincha bo'lishi mumkin. Uning ham haqiqatligi mezoni ijtimoiy praktika hisoblanadi. SHu bilan birga axloqiy ongning o'ziga xos xususiyatlari ham mavjud.

Axloqiy ong boshqa ijtimoiy ong shakllariga nisbatan kishilarning kundalik hayotidagi xulq-atvoriga faolroq ta'sir

ko'rsatadi. Axloqiy qarashlar, prinsiplar, ideallar inson faoliyatiga bevosita singib ketgan bo'lib, xatti-harakatga undovchi motivlar hisoblanadi.

Fandan farqli ravishda,axloqiy ong insonga kundalik ong, ijtimoiy ruhiyat darajasida ta'sir ko'rsatadi. Faqat yuqori darajada axloqiy ong ilmiy bilim xususiyatlariga ega bo'ladi,axloqiy qarashlar va ideallar nazariy bilimlarga aylanadi.

Axloqiy ong,axloqiy bilimlar majburiy xarakterga ega (imperativ xarakterga ega).

Axloqiy ong ikki ajralmas qismdan iborat: individual axloqiy ong, ijtimoiy axloqiy ong.

Individual axloqiy ong tarkibiga shaxsning his-tuyg'usi, fikr-mulohazasi kiradi, **ijtimoiy axloqiy ong** tarkibiga jamiyat tomonidan ishlab chiqilib, hayotga tadbiq etiladigan axloqiy kodekslar, kategoriyalar, normalar, prinsiplar, g'oyalar va hokazolar kiradi.

Axloq ijtimoiy ong shakllaridan biri sifatida jamiyat hayotida muhim o'rin egallaydi va boshqa ijtimoiy ong shakllari bilan uzviy aloqadorlikda rivojlanib boradi.

Masalan,axloq bilan din aloqadorligi masalasida shuni aytish mumkinki, mohiyatan din inson hayotining axloqiyligini taqozo qiladi. SHu bois diniy – shar'iy tamoyillar va me'yorlar, hadisi sharifdagi o'gitlar axloq-odob qoidalari bilan chambarchas bog'liq.CHunonchi,inson eng oliy qadriyat sifatida qat'iy muhofaza etiladi. Din insonni axloqiylashtirishning vositasi sifatida ish ko'radi. Demak, diniy taqvo bilan axloqiy talabning ildizi bir xil.

Muayyan jamiyatdagi huquqiy qonun-qoidalar o'sha mintaqa xalqi tomonidan asrlar mobaynida ishlab chiqilgan axloqiy qoidalar, tamoyillar, me'yorlar, shuningdek, nisbatan umumiy xususiyatga ega bo'lgan urf-odatlar zamirida vujudga keladi.

Huquqiy qonunlar mavjud tuzumga, muayyan shaxs va yosh doirasidagi kishilarga tadbiq etilsa,axloqiy qoidalar, hikmatlar, pand-o'gitlar barcha tuzumlar hamda turli yoshdagi kishilarga taalluqli bo'ladi.

Axloq bilan san'atning o'zaro aloqalari ham juda qadimiy. Har bir haqiqiy san'at asarida asosiy ziddiyat ezgulik bilan yovuzlikning kurashi in'ikos etadi, insonparvarlik, haqiqatgo'ylik, to'g'rilik,adolat, muhabbat, sadoqat singari fazilatlar tarannum etiladi, taqdir, o'lim va o'lmaslik, hayotning mazmuni, baxtga erishish singari muammolar o'rtaga tashlanadi. Axloqiy ideal muammosi har bir badiiy asarda ilgari suriladi.

Umuman olganda,axloqsiz badiiy asarning bo'lishi mumkin emas, barcha san'at asarlari uchun axloqiylik umumiy zamin ahamiyatiga ega.

Har bir fanning o'z kategoriyalari bo'lgani kabi "Etika" fanining ham kategoriyalari mavjud. "Etika" fani kategoriyalari deb jamiyat axloqiy hayotidagi umumiy muhim tomonlarni, xususiyatlar va munosabatlarni inson tomonidan o'zlashtirish usullarini aks ettiruvchi tushunchalarga aytiladi.

"Etika" kategoriyalari o'ziga xos xususiyatlarga ega: ular faqat axloqshunoslik sohasida emas, balki boshqa sohalarda ham qo'llaniladi. Amaliyotda axloqiy faoliyatdan tashqari bo'lgan narsaning o'zi yo'q. «Etika" kategoriyalari bir vaqtning o'zida boshqa fanlar:siyosiy, iqtisodiy va huquqiy fanlarning ham kategoriyalari hisoblanadi. "Etika" kategoriyalari - shuningdek; kishilar xatti-xarakatlari, hulq-atvorlarini jamiyat talablari nuqtai-nazaridan ma'qullash yoki qoralash, ya'ni axloqiy baholash xususiyatiga egadir.

Yaxshilik, yomonlik, vijdon, burch,adolat, sha'n, or-nomus, iymon, muhabbat, nafrat, hayotning ma'nosi, baxt kategoriyalari "Etika"ning asosiy kategoriyalari hisoblanadi. SHuningdek,

kishilar xatti-harakatlari, hulq-atvorlarini jamiyat talablari nuqtai nazaridan ma'qullash yoki qoralash, ya'ni axloqiy baholash xususiyatiga egadir.

Yaxshilik, yomonlik, vijdon, burch,adolat, sha'n va or-nomus, iymon, muhabbat va nafrat, ezgulik va yovuzlik, hayotning ma'nosi, baxt kategoriyalari etikaning kategoriyalari hisoblanadi.

«Yaxshilik» va «yomonlik» kategoriyalari ijtimoiy taraqqiyot davomida mazmunan o'zgarib va takomillashib boradi. SHu ma'noda «yaxshilik» va «yomonlik»ni ilk ibtidoiy tushunish bilan hozirgi ijtimoiy taraqqiyot bosqichlaridagi tushunish bir-biridan farq qiladi.

Yaxshilik deb tevarak-atrofda sodir bo'layotgan hamma voqea, hodisa va vujudga kelayotgan narsalarning insonni e'zozlaydigan, uning manfaat va ehtiyojlarini qondiradigan, axloqiy ideallariga mos keladigan, odamgarchilikning o'sishini har tomonlama ta'minlaydigan, pirovardida baxtli hayot kechirishga xizmat qiladigan barcha ijobiy tomonlarning yig'indisiga aytiladi.

Yaxshilik boshqa etika kategoriyalaridan o'zining quyidagi jihatlari bilan ajralib turadi:

- yaxshilik – inson faoliyatining sababi va natijasiga ko'ra tekshiriladigan hamma muayyan axloqiy normalar tizimi nuqtai nazaridan ijobiy baholashga imkon beradigan ijobiy axloqiy mazmundir,
- yaxshilik –axloqiy idealga muvofiq keladigan real mavjud axloqiy munosabatlarning ijobiy mazmunidir,
- yaxshilik – muayyan,aniq tarixiy axloq shaklining barcha ijobiy norma va prinsiplari yig'indisini o'zida jamlagan umumiy idealdir,
- xatti-harakatning sababiga aylanuvchi axloqiy maqsaddir,
- yaxshilik – insoniy xususiyat, fazilatdir va h.k.

Yaxshilik kategoriyasi o'zining ko'pqirraligi, keng qamrovligi, axloqiy munosabatlarning universalligi, ya'ni kishilar hayotining barcha jabhalarini qamrab olganligi bilan xarakterlanadi. SHuning uchun ham u mehnat sohasida – jamiyat manfaatlari yo'lida qilingan ham ijodiy mehnat, siyosat va huquq sohasida – insonparvarlik,adolatparvarlik va boshqa shakllarda namoyon bo'ladi.

Yomonlik deb jamiyatning rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi, kishilarning axloqiy ideallariga, ular e'zozlaydigan qadriyatlarga zid keladigan, baxtga erishishga, odamlar orasidagi munosabatlarda axloqiy taraqqiyotning qaror topishiga va insoniylikning o'sishiga zid keladigan xatti-harakatlarni o'zida mujassamlashtirgan tushunchalar yig'indisiga aytiladi.

«Yaxshilik» va «yomonlik» o'zaro aloqador va ayni vaqtda bir-birini inkor etuvchi kategoriyalardir. Yaxshilik va yomonlik to'g'risida hadislarda shunday deyilgan:

«Yaxshilaringiz hushxulq bo'lib, kishilarga yon beruvchi, ya'ni atrofida yaxshi hayot kechirishga imkon beruvchi kishilardir. Yomonlaringiz mahmadona, dilozor, kishilar rohatini buzuvchi kishilardir».

«Yaxshilaringiz qarzni ado etuvchi kishilardir. Yaxshilaringiz o'z ahliga, oila a'zolariga yaxshi bo'lganlaringizdir. Odamlarning yaxshisi odamlarga manfaatlirog'idir».

«Kimga yaxshilik qilay, - deb so'ragan odamga uch marta onangga deb, to'rtinchisida otangga deb aytganlar, ya'ni yaxshilikni onangga, onangga, onangga, so'ngra otangga qil dedilar».

«Adolat» kategoriyasi faqat etika kategoriyasigina bo'lib qolmay, bir vaqtning o'zida huquqiy kategoriya hamdir.

«Adolat» kategoriyasining ichki mazmunini, uning asosiy ijtimoiy mezonlariga e'tibor berish bo'lg'usi huquqshunoslar uchun benihoyat muhimdir.

«Adolat» kategoriyasining boshqa axloqiy kategoriyalardan farqi shundaki, u ayniqsa huqushunoslik bilan chambarchas bog'liqdir, ma'lum darajada u axloqshunoslik va huquqshunoslikni bog'lovchi ko'prik, asos rolini o'taydi. Biroq u avvalambor axloqiy kategoriyadir. Huquqshunoslik fani mazkur axloqiy kategoriyani qonunlar asosida oladi, uni kishilar munosabatida qaror topshini ta'minlashga xizmat qiladi. Huquq fanining adolatni qaror topishi uchun sa'i-harakati u huquqiy kategoriya degan xulosaga ham olib keladi. Aslida esa adolat avvalambor axloqiy kategoriyadir. Mazkur kategoriya misolida etika va huquq fanlarining bir-biri bilan uzviy bog'liq ekanligini ko'rish mumkin.

«Adolat» o'z mazmuniga ko'ra shaxs erkinliklari va majburiyatlari o'rtasidagi mutanosiblikni (uyg'unlikni) o'ektiv xolis baholashning ijtimoiy mezonidir. **«Or-nomus»va «sha'n» kategoriyalari** ham o'z ijtimoiy ahamiyatiga ko'ra yuksak axloqiy fazilatlarni aks ettiradi. Or-nomus va sha'n kategoriyalari ham o'z ijtimoiy ahamiyatiga ko'ra yuksak axloqiy fazilatlarni aks ettiradi. «Or-nomus» va «sha'n» haqidagi dastlabki tasavvurlar ibtidoiy-jamoa tuzumining oxirlarida shakllangan bo'lib, inson axloqiy kamolotining oliy bir ko'rinishi sifatida jamoa a'zolari oldidagi shaxsiy qadr-qimmat, ijtimoiy obro'yini baholash, anglash orqali namoyon bo'ladi. Etika fani tarixida «or-nomus» va «sha'n» kategoriyalariga birinchi bor Qadimgi Rim stoitsizm falsafasida katta e'tibor berildi. Rim stoitsizm falsafasi vakillaridan,ayniqsa, Lutsiy Anney Seneka, Mark Avreliy va Epiktet «or-nomus» va «sha'n» kategoriyalarini muntazam

tadqiq qilishdi. Ular hatto kishi o'limini or-nomusdan va sha'nning oyoq-osti qilinishidan afzal ko'rishgan.

Masalan, Epiktet: «Inson tug'ilsa yoki o'lsa, o'z pullaridan, uy-joyidan mahrum bo'lsa – bu ayanchli emas, chunki bularning hammasi insonga xos emasdir. Agar inson o'zining haqiqiy mulkini – o'z insoniy qadr-qimmatingi yo'qotsa, bu achinarli va ayanchlidir», - degan edi.

Or-nomus va sha'n kategoriyalari Markaziy Osiyo mutafakkirlari axloqiy ta'limotlarida ham uchraydi. Inson qadr-qimmati, or-nomusi va sha'ni at-Termiziy,Abu Nasr Forobiy, Beruniy, Bahovuddin Naqshband,Ahmad yAssaviy, Xo'ja Axror, Amir Temur, Alisher Navoiy va boshqa o'rta asr SHarq mutafakkirlarining ijodiy merosida alohida o'rin tutadi. Garbda esa «or-nomus» va «sha'n» kategoriyasi Uyg'onish davri mutafakkirlari N.Kopernik, Jordano Bruno, Lorenso Valla, Erazm Rotterdamskiy, Galileo Galiley va boshqa mutafakkirlar ijodidan keng o'rin olgan. Ayniqsa, O'rta asrlarda ritsarlik or-nomus va sha'ni, u yoki bu unvonga mansublik (lord, graf va hokazolar)alohida ma'naviy fazilatlar bo'lishligini, shaxsiy va oilaviy qadr-qimmatini, or-nomus va sha'nni cheksiz hurmat qilish va qadrlashni axloqiy qoida va prinsip darajasiga ko'tardi. Or-nomus va sha'n kategoriyalarining inson hayotida ustivorligi Pushkin, Lermontov, Dantes, Bayron ijodi va hayotida duel – yakkama-yakka olishuv qiyofasida ham bo'ladi.

Navbatdagi axloqiy kategoriya – **vijdon kategoriyasidir.** Vijdon or-nomus kabi oliy axloqiy fazilatdir. Vijdon o'z tabiatiga ko'ra ijtimoiy-tarixiy fazilat bo'lib, kishining fuqarolik etukligi va ijtimoiy mas'uliyati asosida shakllanadi. «Vijdon amri», «vijdon azobi», «vijdon ovozi» kabi tushunchalar kishining turli xatti-harakatlari va hulqini ijtimoiy foyda yoki zarar nuqtai-nazaridan baholashni ifodalaydi.

Vijdon kishida tug'ma xususiyat bo'lmasdan, uni individual-shaxsiy kamoloti, shaxsiy hayotiy taqdiri asosida shakllanadi. Vijdon shu sababli turli kishilarda turli darajada shakllangan bo'ladi.

Vijdon o'z tabiatiga ko'ra ikki tomondan-aqliy va hissiy tomonlardan iborat bo'ladi. Vijdon ijtimoiy aql, ijtimoiy qoidalariga rioya qilish darajasini ifoda etar ekan, u insonda turlicha his-tuyg'ularni uyg'otadi.

Bu tuyg'ular gohida qoniqish, taskin topish yoki aksincha uyalish, qiynalish,azoblanish shaklida namoyon bo'ladi.

Qadimgi Rimda vijdon ijtimoiy mohiyatini nazarda tutib «vijdon – bu mingta guvohdir», - deb ham ta'kidlashgan. Vijdon shu ma'noda kishining ijtimoiy mas'uliyatini individual-shaxsiy ifoda etilishidir. Vijdon aynan shu tomonlari bilan o'zining normativ tomonlarini yaqqolroq ko'rsatadi.

Vijdonlilik – bu ijtiomiy burchni anglash va shunga mos xatti-harakatlar qilishdir. Vijdonlilik – bu mas'uliyat hissining shaxs faoliyatida ustivorligidir. Vijdonlilik – inson qarorlarida, harakat yo'nalishlarini tanlashida odamiylikning, insonparvarlikning, mehr-oqibatning ustivorligidir.

Burch kategoriyasi ham vijdon kategoriyasi kabi kishilarda turli darajada kamol topgan bo'ladi. Burch ko'proq shaxsning individual xususiyatlariga bog'liqdir. U kishida qay darajada mas'uliyat, uyat, or-nomus va sha'n hissi taraqqiy ekanligi bilan bog'liqdir.

Burch inson taraqqiyotining yuksak ijtimoiy pog'onalarida tarixan kamol topgandir. Burch – ijtimoiy va shaxsiy ma'naviy qarzdorlikni, ijtimoiy hayotga individual tarzda mansublik va qaramlikning ifodasidir. Burch asosan ikki ko'rinish yoki pog'onada namoyon bo'ladi. Birinchisi – ijtimoiy-tarixiy burch. U

milliy ravnaq, milliy madaniyat, vatan oldidagi mas'uliyat shaklida ko'rinadi.

SHaxsiy individual burch – ikkinchisi bir ko'rinish bo'lib, u ota-ona oldidagi burch, qarindosh-urug' oldidagi burch,aka-uka, opa-singil oldidagi burch, do'stlar oldidagi burch, shuningdek shaxsning umr yo'ldoshi oldidagi burch shaklida namoyon bo'ladi.

Burchning u yoki bu ko'rinishi shaxsning umumiy madaniyati saviyasi,axloqi, vijdonligi va tarbiyasiga bog'liq. Burchning oliy ko'rinishi – ijtimoiy burchga shaxsiy-individual burch rivoji orqali erishiladi. Burchning kasbkor bilan bog'liq ko'rinishini ham alohida ko'rsatish maqsadga muvofiqdir.

Baxt kategoriyasi ham asosiy axloqiy kategoriyalardan biri hisoblanadi. Baxt haqidagi ilk tushuncha va tasavvurlar ijtimoiy taraqqiyotning birmuncha keyingi davrlarida (quldorlik tuzumi) shakllangan.

Baxtni diniy-mistik va dunyoviy tushunishlar mavjud. Diniy tushunishga binoan haqiqiy baxt – bu xudo marhamatiga ega bo'lish, jamiyatga tushish, deb tushunilgan.

Baxtni dunyoviy tushunish kishilarning real turmushlarida farovonlikka, osoyishtalikka, saodatga, ro'shnolikga erishishga qaratilgan individual-shaxsiy tasavvurlariga asoslangandir.

Baxt tushunchasi abstrakt axloqiy tushuncha bo'lsa-da, u konkret hodisalarda ifoda bo'lishlikni taqozo etadi. Baxt deganda,ayrimlar cheksiz mol-mulkga, moddiy boyliklarga ega bo'lishni tushunishsa,ayrimlar esa biron-bir katta lavozimga ega bo'lishni tushunishi mumkin. Baxt tushunchasi shuning uchun shaxsiy-konkretlikni talab qiladi. УA'ni u yoki bu shaxsning ma'naviy va madaniy saviyasiga funksional ravishda bog'liqdir. SHu ma'noda kim uchundir baxt – bu sihat-salomatlik bo'lsa, kim

uchundir baxt – bu sadoqatli do'stlarga, sevimli kasbga ega bo'lishdir.

Insof kategoriyasi metodologik jihatidan falsafiy «me'yor» kategoriyasi bilan bog'liqdir. Insof kategoriyasi ijtimoiy baho asosida shakllanib kishini qator ma'naviy xislatlari – halollik, ezgulik, vijdon, rostgo'ylik, mehr-oqibat, odamgarchilikni o'zida mujassam etadi.

Insof kategoriyasi har qanday axloqiy sistema va madaniyatda bo'lavermaydi. Insof kategoriyasi o'zbek milliy axloqiga xos bo'lgan kategoriyadir.

Mustaqillik mafkurasining o'zagini boshqa yuksak axloqiy kategoriyalar bilan bir qatorda **iymon kategoriyasi** ham tashkil etadi. Amaliy mashg'ulotda mazkur kategoriya misolida konkret hayotiy faktlarga sharhlar tavsiya etiladi.

Sevgi kategoriyasi inson axloqiy kamolotining eng oliy va ezgu ko'rinishidir. Sevgi o'z mazmuniga ko'ra hissiy va aqliy tomonlarning o'zaro dialektik birligidan iboratdir. Sevgi haqidagi tasavvur insonning tabiatdan tarixiy ajralib chiqishi va ijtimoiy maxluqot qiyofasiga kirishi bilan bog'liqdir. Kishilik jamiyati uchun xos bo'lgan yuksak tuyg'u – sevgi ijtimoiy taraqqiyotning mahsulidir. U ikki – biologik va ma'naviy birlashish ehtiyoji o'zaro birligining ma'naviy ifodasidir.

Sevgi, sevish va sevilish hissi insonning ma'naviy quvvatidir. Sevgi ezgulik, muruvvat, saxiylik, jasurlik, botirlik, sadoqat, burch, ishonch va baxt kategoriyalari bilan bog'liqdir. Sevgi axloqiy-ma'naviy hodisa sifatida individual-betakror bo'ladi. Sevish va seva olish qobiliyati har bir kishida o'ziga xos, qaytarilmas xarakterga ega. Biroq ijtimoiy-ma'naviy taraqqiyot sevgi haqida oliy andoza - sevgining obrazli qiyofasini yaratadi.

Bu «ideal» tushunchasi orqali ifodalanadi. Ma'naviy taraqqiyot o'z davrining ideali tarzida Farhod va SHirin, Layli va

Majnun, Romeo va Jul'etta, Tohir va Zuhra, Otabek va Kumush obrazlarini keying avlodlar uchun yaratdi. Ular chin sevgining namunasi hisoblanadi.

«Sevgi» kategoriyasini «ishq» va «muhabbat» kategoriyalaridan farq qilmoq lozim. «Sevgi « va «ishq» kategoriyalari mohiyatan bir-biriga yaqin kategoriyalardir. Biroq ular umumiyroq bo'lgan axloqiy kategoriya «muhabbat» kategoriyasining tarkibiy qismlari hisoblanadi. Masalan, sevgi, ishq konkret bir shaxsga nisbatan yaqinlikni, ehtiyojni ifodalasa, «muhabbat» kategoriyasi kengroq bo'lgan hodisalarni ham ifoda etadi. Masalan, «ona Vatanga muhabbat», «sevimli kasbga nisbatan muhabbat», «onaga va otaga muhabbat, mehr-oqibat, saxovat, hamdardlik, hamnafaslik, manfaatdorlik, bog'liqlik» kabi tushunchalarni ham o'z ichiga oladi.

Axloqiy kategoriyalar tizimida «halol» va «harom» kategoriyalari alohida o'rin tutadi. O'zbek milliy axloqida mazkur axloqiy kategoriyalar ma'naviyatimizning ustuni hisoblanadi. O'tmish ajdodlarimizning ma'naviy hayotida mazkur kategoriyalar ustivorlik qilgan. «Halol» va «harom» kategoriyalari diniy – mistik tabiatga ega, musulmon axloqininggina tushunchalari deganaqida uydirma ekanligi bugungi ma'naviy poklanish,axloqiy uyg'onish davrida tobora sezilib qolmoqda.

Nazorat uchun savollar:

1. Etika nima va uning asosiy vazifalari nimalardan iborat?
2. Etikaning asosiy tamoyillari va me'yorlari qanday?
3. Etika va axloq o'rtasidagi farqlarni tushuntirib bering.
4. Etikaning ijtimoiy hayotdagi roli va ahamiyati qanday?
5. Zamonaviy etika tizimlaridagi asosiy muammolarni ko'rib chiqing.

6. Etikaning inson hayoti va jamiyat taraqqiyotiga ta'sirini izohlab bering.

Nazorat savollari

1. Etikaning boshqa fanlar bilan qanday bog'liqligi bor?
2. Sport etikasiga ta'rif bering?
3. Etikaning jamiyat ijtimoiy-ma'naviy hayotidagi o'rnini qanday izohlaysiz?
4. Etikaning qanday kategoriyalarini bilasiz?
5. Axloq va san'atning bog'liqligi haqida ma'lumot bering?

Adabiyotlar

1. Abdulla Sher. Axloqshunoslik. – Toshkent, O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2020.
2. Falsafa qomusiy lug'at. Q.Nazarov tahriri ostida. T., Sharq nashriyoti. 2004y.
3. Nazarov N. Sport va sog'lom hayot falsafasi. Monografiya. Toshkent 2020yil
4. Djalilova L. A. Jismoniy tarbiya va sport tarixi. O'quv-uslubiy qo'llanma .-T: 2013 yil 7-bet
5. Yuldasheva. M.N. Jismoniy tarbiyani rivojlantirishda axborot texnologiyalari. O'quv-uslubiy qo'llanma. Toshkent. O'zDJTI nashriyoti. 2019.-9 b.

Internet saytlari:

1. www.ziyo net.uz
2. www.faylasuf.uz
3. Sports.ru

ESTETIKA

Reja:

1. Estetikaning ta'rifi va mohiyati
2. Estetik qarashlar va go'zallik tushunchasi
3. Estetika va san'at
4. Estetik tafakkur va go'zallikni qabul qilish
5. Zamonaviy estetik qarashlar va ularning jamiyatga ta'siri

Tayanch so'zlar: *nafosat falsafasi, estetika, badiiylik, san'at, estetik mezon, nazariya, konsepsiya, go'zallik, uyg'unlik, tabiat, ijod, estetik hissiyot, estetik tarbiya.*

Estetika qadimgi fanlardan biri bo'lib, u ikki yarim-uch ming yillik vaqtni o'z ichiga oladi. Hozirgi nomini, **«estetika» atamasini XVIII asrda** birinchi bo'lib buyuk olmon faylasufi **Aleksandr Baumgarten (1714—1762)** "Poetika" asarida ilmiy muomalaga kiritgan.

Baumgarten estetikani hissiy idrok etish nazariyasi sifatida olib qaradi. Lekin, ko'p o'tmay, u goh «go'zallik falsafasi», goh «san'at falsafasi» sifatida talqin etila boshlandi, chunki **estetika go'zallikni, san'atni, badiiy ijodni boshqalarni o'rganadi.**

Estetika yunoncha "oyestetikos" olmoncha "eshtetik" so'zidan olingan bo'lib, "his qilish", "sezish", "his etiladigan" ma'noni bildiradi.

Estetika goh "go'zallik falsafasi", goh "san'at falsafasi" deb talqin etilgan. Hozirda "nafosatshunoslik" atamasi ham ilmiy muomalaga kiritildi. **"Nafis" so'zi o'zbek tilining izohli lug'atida – go'zal, nozik, latif, yoqimli, badiiy jihatdan juda yuksak degan ma'nolarda izohlanadi.**

Estetika insonning voqelikka estetik munosabatlari va insoniyat badiiy rivojining umumiy qonun-qoidalari haqidagi fandir.

Estetika – ilm sifatida, shakllarda ifodalangan, mavjudlikning strukturaviy va semantik qonunlarini, ularni tushunish usullarini, hissiy anglashning xususiyatlari va uning inson, uning qobiliyati va maqsadlari bilan o'zaro munosabatini o'rganadi.

Estetik gnesologiyaga: hissiy bilish dunyoni anglashning birinchi bosqichi ekanligi, hissiy tajribasining o'ziga xos xususiyatlariga esa, ma'noni estetik intuitsiya va shaklni mohiyat orqali anglash kiradi.

Estetik aksiologiyaga: dunyoni qadriyatlar ko'rinishida o'zlashtirish kiradi. Estetika bilan etikaning farqli tomonlari madaniyatdagi bilish usullari va funktsiyalarida ifodalanadi.

Estetika va din xususiga to'xtalsak, ular; estetik va mistik tajriba; qadriyatlar ierarxiyasi; ramzlar va belgilar; hamda, diniy badiiy asarlarni yaratilishida ifodalanadi.

Estetik bilimlar o'ziga xos va universaldir. Estetika san'atning paydo bo'lishi shartlarini, uning strukturaviy va farmal xususiyatlarini o'rganadi. Estetika go'zallikni va boshqa estetik kategoriyalar va ularning go'zallikka nisbatini, estetik hissiyot va uning o'ziga xos xususiyatlarini, san'at, dizayn, badiiy asar tuzilishi, janrlari, usullari, ifoda vositalari, badiiy ijod va idrok jarayonlarini, nosan'at ob'ektlar estetikasini (sport, moda, tabiat va b.), estetik tarbiya masalalarini, estetik madaniyat va uning o'rnini tadqiq etadi. Shuningdek, ushbu atamani kundalik hayotimizni barcha jabhalarida juda keng ma'noda ishlatilishini kuzatishimiz mumkin(masalan: interer estetikasi, spektakl estetikasi), ushbu tushuncha san'at asarlarining ham, kundalik buyumlarning ham, tabiat hodisalarining ham hissiy ifodali sifatini umumlashtiruvchi yagona printsipni bildiradi.

«Estetika» fanining maqsadi tabiat va san'atdagi go'zallikning o'ziga xos xususiyatlarini ochib berish va go'zallikni idrok etish xususiyatlarini tavsiflashdan iborat. Estetika atamasiga uning tarixi mobaynida qarashlar turlicha bo'lgan. Uni goh,»go'zallik falsafasi» goh, «san'at falsafasi» deb atashgan. Estetikani bir necha marta mustaqil fanlarga ajratmoqchi bo'lishgan. Masalan; estetik qadriyatlar nazariyasi, estetik idrok nazariyasi, san'at nazariyasi, lekin tajriba shuni ko'rsatdiki, ushbu nazariyalar o'zaro shunchalik chambarchas bog'liq ekanki, ularni ajratib tashlash, deyarli mumkin emas ekan.

Nafosat falsafasi fanining inson va jamiyat hayotida o'ziga xos amaliy ahamiyati shundaki u kundalik hayotimizda nafosat tarbiyasini to'g'ri yo'lga qo'yish orqali, jamiyatimizning har bir a'zosi go'zallikni chuqur his etadigan, uni asraydigan nafis did egalari bo'lishlarni ta'minlaydi. Ya'ni insonni ma'naviy jihatdan kamolotga etaklaydi, estetik his-tuyg'uni taraqqiy ettiradi. Haqiqiy go'zallikdan soxtasini ajratish qobilyatini shakllantiradi.

Estetikaning asosiy tushunchasi – go'zallik bo'lib u zohiriy va botiniy ma'noga ega, voqea-hodisa, buyum zohiran go'zal, botinan xunuk bo'lsa, bu erda tom ma'nodagi go'zallik deb bo'lmaydi.

Bugun estetika fani oldida ulkan vazifalar turibdi. Ya'ni biz qurayotgan fuqarolik jamiyatining a'zosi har jihatdan kamol topgan, yuksak nafis did egasi bo'lmog'i lozim. hozirda ishlab chiqarishni, qurulishni umuman, sanoatning barcha sohalarini zamonaviy dizaynsiz tasavvur etib bo'lmaydi. SHu bois yoshlarning nafosat tarbiyasiga alohida e'tibor berish – zamonning dolzarb talabi bo'lib qolmoqda.

Estetik ong - ongning yuksak shakli (bosqichi) bo'lib, unda borliqdagi narsa, hodisalar, umuminsoniy g'oyalar ichki

Estetika insonning voqelikka estetik munosabatlari va insoniyat badiiy rivojining umumiy qonun-qoidalari haqidagi fandir.

Estetika – ilm sifatida, shakllarda ifodalangan, mavjudlikning strukturaviy va semantik qonunlarini, ularni tushunish usullarini, hissiy anglashning xususiyatlari va uning inson, uning qobiliyati va maqsadlari bilan o'zaro munosabatini o'rganadi.

Estetik gnesologiyaga: hissiy bilish dunyoni anglashning birinchi bosqichi ekanligi, hissiy tajribasining o'ziga xos xususiyatlariga esa, ma'noni estetik intuitsiya va shaklni mohiyat orqali anglash kiradi.

Estetik aksiologiyaga: dunyoni qadriyatlar ko'rinishida o'zlashtirish kiradi. Estetika bilan etikaning farqli tomonlari madaniyatdagi bilish usullari va funktsiyalarida ifodalanadi.

Estetika va din xususiga to'xtalsak, ular; estetik va mistik tajriba; qadriyatlar ierarxiyasi; ramzlar va belgilar; hamda, diniy badiiy asarlarni yaratilishida ifodalanadi.

Estetik bilimlar o'ziga xos va universaldir. Estetika san'atning paydo bo'lishi shartlarini, uning strukturaviy va farmal xususiyatlarini o'rganadi. Estetika go'zallikni va boshqa estetik kategoriyalar va ularning go'zallikka nisbatini, estetik hissiyot va uning o'ziga xos xususiyatlarini, san'at, dizayn, badiiy asar tuzilishi, janrlari, usullari, ifoda vositalari, badiiy ijod va idrok jarayonlarini, nosan'at ob'ektlar estetikasini (sport, moda, tabiat va b.), estetik tarbiya masalalarini, estetik madaniyat va uning o'rnini tadqiq etadi. Shuningdek, ushbu atamani kundalik hayotimizni barcha jabhalarida juda keng ma'noda ishlatilishini kuzatishimiz mumkin(masalan: interer estetikasi, spektakl estetikasi), ushbu tushuncha san'at asarlarining ham, kundalik buyumlarning ham, tabiat hodisalarining ham hissiy ifodali sifatini umumlashtiruvchi yagona printsipni bildiradi.

«Estetika» fanining maqsadi tabiat va san'atdagi go'zallikning o'ziga xos xususiyatlarini ochib berish va go'zallikni idrok etish xususiyatlarini tavsiflashdan iborat. Estetika atamasiga uning tarixi mobaynida qarashlar turlicha bo'lgan. Uni goh,»go'zallik falsafasi» goh, «san'at falsafasi» deb atashgan. Estetikani bir necha marta mustaqil fanlarga ajratmoqchi bo'lishgan. Masalan; estetik qadriyatlar nazariyasi, estetik idrok nazariyasi, san'at nazariyasi, lekin tajriba shuni ko'rsatdiki, ushbu nazariyalar o'zaro shunchalik chambarchas bog'liq ekanki, ularni ajratib tashlash, deyarli mumkin emas ekan.

Nafosat falsafasi fanining inson va jamiyat hayotida o'ziga xos amaliy ahamiyati shundaki u kundalik hayotimizda nafosat tarbiyasini to'g'ri yo'lga qo'yish orqali, jamiyatimizning har bir a'zosi go'zallikni chuqur his etadigan, uni asraydigan nafis did egalari bo'lishlarni ta'minlaydi. Ya'ni insonni ma'naviy jihatdan kamolotga etaklaydi, estetik his-tuyg'uni taraqqiy ettiradi. Haqiqiy go'zallikdan soxtasini ajratish qobilyatini shakllantiradi.

Estetikaning asosiy tushunchasi – go'zallik bo'lib u zohiriy va botiniy ma'noga ega, voqea-hodisa, buyum zohiran go'zal, botinan xunuk bo'lsa, bu erda tom ma'nodagi go'zallik deb bo'lmaydi.

Bugun estetika fani oldida ulkan vazifalar turibdi. Ya'ni biz qurayotgan fuqarolik jamiyatining a'zosi har jihatdan kamol topgan, yuksak nafis did egasi bo'lmog'i lozim. hozirda ishlab chiqarishni, qurulishni umuman, sanoatning barcha sohalarini zamonaviy dizaynsiz tasavvur etib bo'lmaydi. SHu bois yoshlarning nafosat tarbiyasiga alohida e'tibor berish – zamonning dolzarb talabi bo'lib qolmoqda.

Estetik ong - ongning yuksak shakli (bosqichi) bo'lib, unda borliqdagi narsa, hodisalar, umuminsoniy g'oyalar ichki

his-tuyg'uli tarzda idrok etiladi va ma'naviy qadriyatliligi nuqtai nazaridan turib baholaniladi.

Shaxs estetik ongi — estetik ehtiyoj, estetik his-tuyg'u, estetik did, estetik ideal, estetik baxo, va estetik qarash, nazariya kabi tarkibiy qismlarning o'zaro birligidan tashkil topgan murakkab tizim hisoblanadi.

Estetik ong va estetik faoliyat o‘zaro bog‘liq bo‘lib, estetik faoliyat estetik ong asosida vujudga keladi, shakllanadi, ya'ni estetik faoliyat ongning amalga oshirilishi va moddiylashtirishdir. Agar muayyan talab-ehtiyojlar bo'lmasa, inson faoliyatining muayyan shakli ham vujudga kelmaydi. Estetik talab-ehtiyojlar insonni faoliyatga undaydi. Faoliyat esa yangi talab va ehtiyojlarni keltirib chiqaradi. Estetik faoliyat moddiy ishlab chiqarishning barcha sohalarini — mehnat sharoitlarini ham, mehnat samaralarini ham qamrab oladi. Estetik faoliyat san'atda eng sof holda ko‘rinadi. Chunki mehnat va san’at go‘zallik qonunlariga rioya qilgan holda yaratiladi. Olimling salohiyati, ijodiy mehnati natijalari va samaralari ularning estetik madaniyati darajasiga bevosita bog'liq bo‘ladi.

Faraz — estetik his-tuyg‘u bilan birgalikda kechadigan jarayondir.

Fahm-farosat — bu haqiqatni bevosita mushohada etishdir. Fahm-farosatsiz ijodiy faoliyat bo‘lishi mumkin emas. Ilmiy ijodning estetik mazmuni quvonch, shodlik hissini qondirishdagina emas, balki ilmiy izlanishlar natijalari va ularga erishish usullarida ham ifodalanadi. Bular estetik his-tuyg'u bilan bevosita aloqada va bog‘liqlikda amalga oshadi. Insonning har qanday faoliyatida estetik manba manbai mavjud bo'lib, u o‘z faoliyati davomida moddiyat bilan birga ma'naviyatga, ya'ni shodlik, sevinch, orzu-umid, erk-ozodlik tuyg‘ulariga suyanib yashaydi. Voqea-hodisalarni ijtimoiy kutubxonasi baholashga

harakat qiladi. Inson o‘zining huxususiyatini yo‘qotib qo‘ysa, uning faoliyati mohiyat tabiatidan mahrum bo‘lib qoladi. Inson amaliy faoliyati jarayonida voqelikka bo‘lgan munosabatining amaliy-nazariy,axloqiy va estetik shakllari vujudga keladi. Insonning voqelikka bolgan munosabati xilma-xil, ko‘p qiyofali va rang-barangdir. Ular, bir tomondan, voqea-hodisalarning o‘zi ko‘p qiyofaliligi, serqirraliligi, ko‘p sifatliligidan, ikkinchi tomondan esa faoliyat jarayonida tug‘iladigan inson ehtiyojlari va manfaatlaridan kelib chiqadi. Estetik ong (go‘zallik, xunuklik haqidagi tasavvurlar) hamda san’atning voqelikka munosabati to‘g‘risidagi masala estetika va san'atshunoslikning tub masalalaridan biri bo‘lib qoldi. Bu masalani faylasuflar, san'at nazariyotchilari, rassomlar turlicha hal qilib kelganlar. Estetik ong kishining tabiat va jamiyat bilan o‘zaro aloqasi jarayonida, mehnat jarayonida paydo bo'ladi va rivojlanadi. Masalan, dastlabki davrda stixiyali, keyin ongli ravishda ehtiyojni qondirish uchun san'atkorona ish bajarish orqali rivojlangan. Hayotning o‘zi go‘zallik manbayidir. Ong esa uni aks ett11iradi. Estetik ong hayotning hamma sohalarini ~ tabiatni ham, kishining olamni o‘zlashtirishga qaratilgan faoliyatini ham qamrab oladi.

Estetik ong bir necha turlarga bo‘linadi:

1. Estetik his-tuyg‘u.
2. Estetik did.
3. Estetik baho.
4. Estetik ideal yoki estetik orzu.
5. Estetik nazariya (konsepsiyalar va boshqalar).

Insonning olamni estetik o‘zlashtirishi bir-biriga chambarchas bog'liq bo'lgan uch jihatdan iboratdir:

1. Obyektiv voqelikdagi estetiklik.
2. Subyektiv estetiklik (estetik ong).

3. San'at (subyektiv va obyektiv estetiklikning o'ziga xos birligi).

Estetika bu jihatlarning mohiyatini, qonuniyatlarini va muayyan ko'rinishlarini ularning dialektik birligida o'rganadi.

Estetik his-tuyg'u —insonning voqelikka, kishilarga, o'z faoliyatiga nisbatan munosabatidir. Bu tuyg'u bizni o'rab turgan voqelikni estetik jihatdan his etish qobiliyatidir, uning go'zalligini, uyg'unligini sezishdir. Estetik tuyg'u ijtimoiy va tabiat hodisalarining go'zalligidan, inson go'zalligidan, inson mehnati, ijtimoiy faoliyat va san'at go'zalligidan zavq olishda namoyon bo'ladi.

Estetik his-tuyg'u — bu chuqur ma'naviy tuyg'udir. O'z ishini vijdonan bajaradigan kishida mehnatdan faxrlanish, hayotidan mamnunlik tuyg'usi kuchli bo'ladi, shunday tuyg'u bilan yashash insonga estetik zavq beradi.

Estetik his-tuyg'u haqida Belinskiy shunday deydi: «Ularda (bolalarda) estetik tuyg'uni ham tarbiyalang. Bu barcha go'zallik va oliyjanoblik manbaidir». Umar Xayyom estetik tuyg'u haqida shunday deydi: «Asosiy tuyg'ular beshta: eshitish, ko'rish, hid bilish, ta'm bilish, his etish va bu badandagi jonga o'xshagan barcha besh tuyg'uning o'rni boshdadir. Shuning uchun ular toj yasadilar va uni boshga kiygizdilar, sirg'a yasab quloqqa taqdilar, bilakuzuk yasab qo'lga taqdilar, uzuk yasadilar va barmoqqa taqdilar va dedilarki, qilich qo'lning fazilati va kuchi bilan harakat qiladi. Qalam bo'lsa, barmoqning kuchi va iste'dodi bilan harakat qiladi».

Estetik his-tuyg'ular murakkab ijtimoiy hodisa sifatida nafosat, hamohanglik, ohang, shakllar, uyg'unlik, moslik kabi tushunchalar bilan birga shodlik, hayratlanish,ajablanish, rohatlanish, lazzatlanish, ehtirom, zavq-shavq, nafrat kabi tushunchalarni ham qamrab oladi. Kaykovusning «Qobusnoma»asarida his-

tuyg'u a'zolarining ahamiyati to'g'risida: «Qachonki, sezgilaring ishdan chiqib eshitmoq, ko'rmoq, mazani bilmoq, qattiq va yumshoqni ushlab bilish lazzatidan mahrum bo'lsang, bunday yashashdan o'zing ham shod bo'la olmaysan, boshqalarni ham shod qila olmaysan, boshqalarni bo'yniga tushgan og'ir yuk bo'lasan. bu xolda yashashdan o'lim yaxshiroqdir», deyilgan. Ulug' sharq mutafakkirlaridan biri Abu Rayhon Beruniy tuyg'u a'zolari haqida shunday deydi: «Ko'z ko'rishiga kelsak, mahluqotdagi hikmat izlarini kuzatib, undan xulosa chiqarish va yaratilgan narsalarning yaratuvchisi haqida fikrga kelish uchun xizmat qiladi. Eshitishga kelsak, quloq —Tangri so'zi va uning «qilgin» va «qilmagin» degan amr va qaytariqlarini eshitish uchundir. So'ngra quloq bunga qattiq bo'ysunib, Xudoga yaqinlashish va chinakam eminlikka yetishish uchun yaratilgan. Bu narsa donolardan ham,avomlardan ham yashirin emas». Kaykovus «Qobusnoma»asarida: «Bilgilkim, hamma hunardan so'z hunari yaxshi, chunki boshqa jonivorlardan odam o'n daraja ortiqdir va bu afzallik odamning badanida bordir: beshi odam tanasining tashqi tomonida zohir bo'ladi va beshi ichida yashiringandir».

1. Bir narsani yod qilmoq.
2. Hamisha esda saqlamoq.
3. Xayol qilish.
4. Farq qila bilish.
5. Nutq.

Beshtasi odam tanasining sezgi a'zolari bilan bog'liq:

1. Eshituv.
2. Ko'ruv.
3. Hid bilish.
4. Ta'm bilish.
5. Sezish.

«Bular boshqa jonivorlarda ham bor,ammo odamdagidek emas. Shunga ko'ra odamzod boshqa jonivorlar ustidan hukmronlik qiluvchi podshodir», deb ta'kidlanadi. Estetik his-tuyg'ular bilan axloqiy va aqliy bilish his-tuyg'ularini tarbiyalash jarayoni yaxlit bo'lib, yakka insonning,ayniqsa, bolalarning axloqiy tarbiyasi va aqliy ravnaqi ularning estetik his-tuyg'ularini rivojlantirish bilan qo'shib olib boriladi. Shu asosda estetik did tarbiyalanadi.Estetik did murakkab va ko'p qirralidir. Estetik did insonning fikr-mulohazalari, xulq-atvori, xatti-harakatlari, moddiy va ma'naviy ijodkorligi orqali namoyon bo'ladi. Estetik did voqea-hodisalarning estetik sifatlarini inson tomonidan idrok etmoq va baholamoq jarayonida olinadigan qoniqish yoki qoniqmaslik tuyg'usi orqali ifoda topadi. Estetik did zaminida go'zallikni xunuklikdan ajrata bilish va undan beg'araz shodlanish, lazzatlanish qobiliyati yotadi. Estetik did his-tuyg'ular bilan ish ko'radi, ya'ni hayot go'zalliklari va voqealarni his eta bilish, voqeali to'qnashuvlarda farqlay olish qobiliyati orqali namoyon bo'ladi. Estetik did odamlarning dunyoqarashi,ayniqsa, estetik qarashlari orqali yorqinroq ko'rinadi. Lekin estetik qarashlar va bilimlar hamma vaqt ham estetik didni ifodalamaydi. Ba'zan inson muayyan estetik qarashlar va estetik bilimlarga ega bo'la turib ham past yoki rivojlanmagan estetik did egasi bo'lib qolishi mumkin. Musiqa eshita olish qobiliyati va bu jihatdan estetik didni tarbiyalash masalasi sharq allomalaridan Forobiyning mulohazalaridan chetda qolmaydi.

Estetik did go'zallik yoki xunuklik to'g'risida hukm chiqarish qobiliyatimizdir. U bir o'rinda estetik baholash hamdir, masalan, biron tomoshadan so'ng kishilar «yoqdi», «yoqmadi», «maroqli», «zerikarli» deb hukm chiqaradilar. Bu hukm didning sof bahosi hisoblanadi. Insonning ibtidosida,awalo, «oziqlantiruvchi quvvat» paydo bo'lib, uning yordamida inson oziqlanadi. Shundan so'ng «tashqi va ichki quvvatlar» yuzaga keladi. Tashqi «quvvat», ya'ni bevosita tashqi ta'sir natijasida sezgi a'zolari orqali vujudga keladi.Tashqi quvvatlar 5 turlidir:

1. Teri-badan sezgisi.
2. Ta'm bilish sezgisi.
3. Hid bilish sezgisi.
4. Eshitish sezgisi.
5. Ko'rish sezgisi.

Estetik baho predmet yoki hodisaning qiymati va kamchilik nuqsoni haqida hukm chiqara olishdir. Biz voqelikka estetik baho berar ekanmiz, emotsional jihatdan o'sha narsa bizda uyg'otgan tuyg'uni ifodalaymiz. Masalan, nurafshon ko'cha, sershovqin shahar,ajoyib inson va hokazo. Estetik baho umuman voqelikka, jumladan, istagan bir aniq buyumga bo'lgan nuqtai nazarimizning ajralmas bir qismidir.

Estetik baho — bu go'zallikning hodisa va faktlarning estetik qimmatini bevosita emas, balki ma'nosiga to'la tushun-gan holda bilishdir. Estetik baho — bu oddiy sevgi, kechinma (ba'zan chuqur, lekin stixiyali kechinma) emas, balki ma'lum estetik tamoyillarga, estetika sohasining mohiyatini chuqur tushunishga asoslangan baho berishdir. Bunday baho berish — tahlil etish, isbotlash,asoslash mumkinligini nazarda tutadi. Estetik did bilan estetik baholash o'rtasida farqli va umumiy tomonlar mavjud. Estetik baholash —didning aynan o'zi emas, balki uning fikr-mulohazalari og'zaki ifodasidir. Uning fikr mulohazalarida aqliy tomon ko'proq o'rin egallaydi. Did fikr mulohazalari (aqliy) doimo baholanayotgan narsaning, voqea hodisaning anglab o'zlashtirilishi bilan bog'liq bo'lib, boshqa-larga mo'ljallangan holda dalillarning mantiqiy isbotlanishini taqozo etadi.

Go'zallik - sub'ektdagi yoqimli taassurot, xush kayfiyat va quvonch o'yg'otadigan ob'ektdagi estetik xususiyatni tavsiflashga yo'naltirilgan ilmiy atama. Estetik xususiyat sifatida esa go'zallik muayyan komillik va yuksak qadriyatlar, insonni «erkinlikka olib boradigan yo'ldir».

Go'zallik eng avvalo me'yor bilan bog'liq. Lekin bu bog'liqlik bilvosita – uyg'unlik orqali ro'y beradi. Ya'ni, nimaiki me'yorida bo'lsa, unda uyg'unlik xususiyat mavjud bo'ladi; uyg'unlik esa go'zallikning poydevoridir. Uyg'unlikda moslik va mutanosiblik bilan bir qatorda ba'zan nomoslik va nomutanosiblik katta ahamiyatga ega.

Go'zallik, uni tashkil etuvchi yaxlitlik, chiroylilik, noziklik, latofatlik, malohatlilik, inja singari unsurlarga ega.Go'zallikning asosida muhabbat yotadi, nimagaki muhabbat bilan qarasangiz, siz uchun o'sha-go'zaldir. Muhabbat esa, erkinlik, beg'arazlilik, xususiylik tabiatiga ega.

Shaxs haqidagi dastlabki ma'lumot uning tashqi ko'rinishi orqali beriladi.

Insonning tashqi chiroyi nafaqat shaxsning o'ziga, balki boshqalar faoliyatiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Insonning ichki go'zalligi uning odob, xulqi va axloqiy fazilatlari bilan belgilanadi. nafosat ilmida "Xulq go'zalligi" deb nomlanadi.

Mukammal shaxs - o'z haq-huquqlarini taniydigan, o'z kuchi va imkoniyatlariga tayanadigan, tevarak atrofda sodir bo'layotgan voqea-hodisalarga mustaqil munosabat bilan yondashadigan, o'z shaxsiy manfaatlarini xalq manfaatlari bilan uyg'un xolda ko'radigan, o'zini jamiyatning ajralmas qismi deb xis etadigan, **ma'naviy jihatdan yuksak, jismonan baquvvat shaxs tushuniladi.**

Xunuklik - go'zallikning ziddi; qadimgi donishmandlar go'zallikni komillik bilan, xunuklikni nuqs bilan bog'liqligini ta'kidlaydilar. Xunuklik kayfiyatni buzadi, kishida ob'ekt haqida yoqimsiz tassurot qoldiradi, muhabbat tuyg'usini emas, aksincha hazar, ba'zan esa jirkanish hissini uyg'otadi.

Go'zallikning dialektik ziddiyati uni yanada takomillashib borishidagi zaruriy shartidir. Bu estetikada umumiy nom bilan xunuklik deb ataladi.

Xunuklik go'zallikning aksi emas, balki uning dilemmasidir. Hunuklikning aksi chiroylilik hisoblanadi. CHunki, o'xshash, bir-biriga yaqin tushunchalarning unsur (element)lari u yoki bu ko'rinishda har ikkala tushunchada ham namoyon bo'lish ehtimoli mavjud.

San'at bizga xunuklikning barcha ikir-chikirlarini ochiq-oydin tasvirla beradi.

Ulug'vorlik- insonning voqelikdagi narsa-hodislarga axloqiy mezonlar bilan yondoshishi va ulardan yuksak estetik hayrat tuyg'usini hosil qiluvchi tushunchalar majmuidir.

Nazorat uchun savollar:

1. Estetika fanining ta'rifi va mohiyatini izohlang.
2. Go'zallik tushunchasi va uning estetik qarashlardagi o'rni qanday?
3. Estetikaning san'at bilan aloqasi haqida gapirib bering.
4. Estetik tafakkur va go'zallikni qabul qilish jarayoni qanday rivojlanadi?
5. Zamonaviy estetik qarashlar va ular jamiyatda qanday ta'sir ko'rsatadi?
6. Estetik hissiyotlar va ularning tasnifini izohlang.
7. Estetik tafakkurda postmodernizmning roli va ahamiyatini tahlil qilish?

Nazorat savollari

1. Estetika tushunchasi qanday ma'no anglatadi?
2. Sport estetikasiga ta'rif bering?
3. Estetika va dizayn o'zaro bog'liqligini qanday izohlaysiz?
4. Tabiat estetikasi va lanshaft dizayz tushunchalarga ta'rif bering?
5. Falsafa tarixida estetik qarashlar evolutsiyasi haqida ma'lumot bering?
6. Mehnat jarayonida estetik hissiyotlar qanday shakllanadi?
7. Estetikaning qanday kategoriyalarini bilasiz?

Adabiyotlar

1. Nazarov Q.N. Falsafa asoslari -T.: Sharq, 2005. 9- bet
2. Falsafa qomusiy lug'at. Q.Nazarov tahriri ostida. T., Sharq nashriyoti. 2004y.
3. Nazarov N. Sport va sog'lom hayot falsafasi. Monografiya. Toshkent 2020yil
4. Плотон. Государство т.3. ч.1.2017,-375 с. Ru.bookmate. com
5. Muhammad Amin. Qalbda muhrlangan kun. Xalq so'zi 2002 y 22 oktabr.
6. Xalqaro Olimpiya qo'mitasining 100 yilligiga bag'ishlangan anjuman, Ma'ruzalar to'plami, T., O'zdjti nashriyoti, 1994, 209-bet./ Sog'lom avlod tarbiyasi – buyuk davlat qurish zaminidir, ilmiy-amaliy anjuman materiallari, T., O'zdjti nashriyoti, 2016.
7. Djalilova L.A. Jismoniy tarbiya va sport tarixi. O'quv-uslubiy qo'llanma .-T: 2013 yil 7-bet
8. Yuldasheva. M.N. Jismoniy tarbiyani rivojlantirishda axborot texnologiyalari. O'quv-uslubiy qo'llanma. Toshkent. O'zDJTI nashriyoti. 2019.-9 b.
9. Maxmudov T. Komillik asrorlari. – T.: Adolat, 2006. – 82b.

10. Avloniy A. "Turkiy guliston ëhud axloq». Toshkent. "O'qituvchi» 2018.-27 b.
11. Muxtorova T. Muxtorova Ch. Bolalarning ayrim xalq o'yinlari tarixi xususida. "Mustaqillik yillarida xotin-qizlar sportining rivoji: ютuq va muammolar» nomli konferenцiya –T: O'zDJTI. 2014 yil 18 dekabr

Internet saytlari:

1. www.ziyo net.uz
2. www.faylasuf.uz
3. Sports.ru

GLOBAL JARAYONLAR VA BARQAROR TARAQQIYOT FALSAFASI

Reja:

1. Global jarayonlar va ularning barqaror taraqqiyotga ta'siri.
2. Barqaror taraqqiyot tushunchasi va uning falsafiy asoslari.
3. Globalizatsiya va barqaror taraqqiyot o'rtasidagi munosabatlar.
4. Barqaror taraqqiyotning iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik jihatlari.
5. Global muammolar va barqaror taraqqiyot yo'llarining hal etilishidagi falsafiy yondashuvlar.

Tayanch so'zlar: *Globallashuv, global, strategiya, global muammolar, bashorat.*

Globallashuv – yangifalsafiymavzusifatida Hozirgi davr haqidaaniqroq tasavvur hosil qilish uchun XXasr boshigacha jahon tarixiasosan mustaqil rivojlangan va bir-biriga jiddiy ta'sir ko'rsatmagan sivilizatsiyalardan iborat bo'lganini nazarda tutish muhimdir. Hozirgi zamonda dunyo so'nggi yuz yillik ichida yuz bergan jamiyat hayoti barcha jabhalarining faol integratsiyalashuvi natijasida sezilarli darajada o'zgardi va yaxlit bir butun organizmgaaylandi. Buning oqibati o'laroq,ayrim xalqlar va butun insoniyatning ijtimoiy ongida global jarayonlar va ularning ta'sirida yuzaga kelgan umumiy (dunyo miqyosidagi) muammolar bilan belgilangan jiddiy o'zgarishlar yuz bera boshladi. Jahon hamjamiyati o'z rivojlanishining yangi bosqichiga qadam qo'ygani, uavvalgi bosqichlardan nafaqat o'zgarishlar miqyosi, balki faollik darajasi va universal xususiyati bilan ham farq qilishiayon bo'ldi.

Bu o'zgarishlarning butun majmui, shuningdek ularning sabablari 1990-yillarda globallashuv (lot. Globus – er kurrasi) deb nomlandi. Globallashuv jamiyat hayotining turli jabhalarida butun Er sayyorasi uchun yagona bo'lgan tuzilmalar,aloqalar va munosabatlarning shakllanishi, universallashuv jarayonidir. Shuningdek globallashuv global makonning tutashligi, yagona jahon xo'jaligi, umumiy ekologik o'zaroaloqadorlik, global kommunikatsiyalar va shu kabilar bilan tavsiflanadi.

Globalistika. Jahon rivojlanishining eng yangi tendentsiyalarini anglab yetish borasidagi ko'p sonli sa'y-harakatlar globallashuv jarayonlarining mohiyati, tendentsiyalari va sabablarini, ular ta'sirida yuzaga kelayotgan global muammolarni aniqlash va bu jarayonlarning oqibatlarinianglab yetishga qaratilgan fanlararo ilmiy tadqiqotlar sohasi – globalistika paydo bo'lishiga olib keldi. Kengroq ma'noda «globalistika»atamasi globallashuvning turli jihatlari va global muammolarga oid ilmiy, falsafiy, madaniy vaamaliy tadqiqotlarni, jumladan ularning natijalarini, shuningdek ularniayrim davlatlar darajasida ham, xalqaro miqyosda ham iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy jabhalarda amalga joriy yetish borasidagiamaliy faoliyatni ifodalash uchun qo'llaniladi.

Globalistika mustaqil ilmiy yo'nalish va ijtimoiyamaliyot sohasi sifatida 1960-yillarning oxirlarida shakllana boshladi, lekin uning paydo bo'lishi uchun ob'ektivasoslarancha oldin yuzaga kelgan edi.

Global jarayonlarning shakllanish tarixi. Hozirgi globallashuv jarayonlarining ilk nishonalariga XVasr oxirlaridan boshlab duch kelish mumkin, XIXasr boshiga kelib esa uamalda real shakl-shamoyil kasb etdi. Bu pirovardida yagona geografik, ma'lum darajada iqtisodiy va siyosiy jahon maydoni shakllanishiga olib kelgan Buyuk geografik kashfiyotlar yuz bergan davr edi.ayni shu

davrda dunyoni tushunishga nisbatan geotsentrik yondashuvlar geliotsentrik yondashuvlarga o'rin bo'shatdi, insoniyat esa, nihoyat, kun va tunningalmashishini to'g'ri talqin qilishga muvaffaq bo'ldi. Fan falsafadanajralib chiqib, bilimlar to'planishi va texnikaning rivojlanishiga kuchli turtki berdi, fan-texnika taraqqiyoti va sanoat inqilobi yuz berishiga sabab bo'ldi. So'nggi zikr etilgan voqealar pirovard natijada insonning tabiatni o'zgartiruvchi imkoniyatlari va uningatrof muhit bilan munosabatini butunlay o'zgartirdi.

Yer kurrasi shar (globus) ko'rinishida ekanligini nazariy vaamaliy jihatdan isbotlab insoniyat o'z tarixida birinchi bo'lib savdo-sotiq sohasida dunyo darajasiga chiqdi va dunyo miqyosida xalqaro munosabatlargaasos soldi.ayni shu davrda ilk transmilliy savdo kompaniyalari vujudga keldi. Tez orada ularning faoliyati sof savdo chegarasidan tashqariga chiqdi va ular qullarni qo'lga kiritish va ularni ekspluatatsiya qilish, bosib olingan hududlarda plantatsiyalar va manzilgohlar barpo yetish jarayonida ishtirok eta boshladi, nihoyat, o'z davlatlariamalga oshirayotgan mustamlakachilik siyosatiningasosiy ijrochisiga aylandi.

Fundamental globallashuv dunyo miqyosidagialoqalar, tuzilmalar va munosabatlar yuzaga kelishi bilan bog'liq. Mazkur jarayonlar natijasida dunyo o'zining deyarli barcha jihatlarida yaxlit bir butun organizm sifatida uzil-kesil shakllandi. Fundamental deb nomlanuvchi bunday globallashuvning ilkalomatlari XIXasrning ikkinchi yarmida paydo bo'ldi, XXasr o'rtalariga kelib esa u to'la darajada borliqqaaylandi.

Ayni shu davrda dunyoni iqtisodiy bo'lib olish yakunlandi va buning natijasida turli mamlakatlar va xalqlarning kuchayib borayotgan o'zaro bog'liqligidan kelib chiqadigan mutlaqo Yangicha tusdagi keskin xalqaro muammolar yuzaga keldi. Bu

jarayonlar nafaqat iqtisodiyot, siyosat va ijtimoiy hayotni, balkialoqa va kommunikatsiya vositalarini, shuningdek ma'naviy jabha – madaniyat, fan va falsafani ham qamrab oldi. Turli-tuman xalqaro tashkilotlar, forumlar, s'ezdlar, kongresslar vujudga kela boshladiki, bunga o'sha davrdaaloqa va ommaviy kommunikatsiya vositalarining faol rivojlanishi ham imkoniyat yaratdi.

1918 yilda Birinchi jahon urushining tugashi xalqaro maydonda kuchlarning Yangicha nisbati yuzaga kelishiga sabab bo'ldi va turli davlatlarning urushdan keyingi munosabatlari, manfaatlari va qarama-qarshiliklarini yanada tarangroq tugunga bog'lagan oqibatlarga olib keldi, shu tariqa butun dunyoni barchaasosiy ko'rsatkichlar bo'yicha jahon hamjamiyatiga aylantirdi. Pirovardda Birinchi va Ikkinchi jahon urushlari oralig'idagi davrda globallashuv jarayonlari yanada bo'rtibroq namoyon bo'ldi. Bu davrda, globallashuvningasosiy beligilari:

a) biosferagaantropogen ta'sirning kuchayishi va insonning real «geologik kuch»gaaylanishi;

b) ommaviy madaniyat,avvalo kino, musiqa,adabiyot, keng iste'mol mollari ishlab chiqarish sohasida faol rivojlana boshlashi;

v) televizorning ixtiro etilishi, vaqt o'tishi bilan u ommaviy madaniyatning asosiy targ'ibotchisiga va globallashuv ramziga aylanishi;

g) makon va vaqtni ilk bor insonning kundalik hayoti ko'rsatkichlariga qadar uzil-kesil «qisqartirgan» havo kemalarida qit'alararo qo'nmay, to'g'ri uchib o'tishlarlarda namoyon bo'ldi.

Ammo echilmagan ziddiyatlar va umumiy bog'liqlikning kuchayishi insoniyat tarixidagi eng katta va davomli urush – Ikkinchi jahon urushi boshlanishiga olib keldi. Bu safar dunyo miqyosidagi urushda Eraholisining to'rtdan uch qismi ishtirok

etdi, Birinchi jahon urushiga qaraganda bir necha baravar ko'proq qurbonlar berildi.

Dunyo miqyosidagi jarayonlarning globallashuvi nuqtayi nazaridan bu urushlarning ikkalasi hamamaldaayni bir global urushning turli bosqichlari edi. Ularning o'rtasidagi farq faqat miqdor ko'rsatkichlarida ko'rinadi. Mohiyat e'tibori bilan, ikkala urush hamayni bir masalalarni yechish – XXasr boshida bo'lib olingan, yaxlit va o'zaro bog'langan dunyoni qayta bo'lib olishga qaratilgan edi. Urush olib borish usullari ham deyarli bir edi, farqi esa, texnik jihozlanish darajasi va miqyosi Ikkinchi jahon urushida bir necha baravar yuqori, mafkuraviy ta'sir esaavvalgi urushda yo mavjud bo'lmagan radio, telefon, yo hali yaxshi rivojlanmagan aviatsiya, dengiz, temir yo'l,avtomobil transporti aloqa va kommunikatsiya vositalaridan keng foydalanish bilan ko'p karra kuchaytirilishida namoyon bo'ldi.

Ikkinchi jahon urushi ham, xuddiavvalgi jahon urushidek, urushdan keyingi dunyoviy tartibning o'ziga xos xususiyatiga aylangan bir qator olamshumul oqibatlarga olib keldi. Ularning orasida eng muhimi shu bo'ldiki, urush mutlaqo Yangi qurol turi (atom va reaktiv qurol) yaratish borasidagi tadqiqotlar vaamaliy ishlarni rag'batlantirdi. Mazkur davrda ularning ilk namunalari jangovar sinovdan o'tkazildi va insoniyatga butun dunyoni xarobazorgaaylantirish va barcha tirik mavjudotlarni qirib tashlash uchun cheksiz imkoniyatlar yaratdi. Fan-texnika taraqqiyotiningayni shu yutuqlari keyinchalik «sovuq urush» davridaavj olgan qurollanish poygasining mohiyati va mazmunini belgilab berdi va sayyoramizning nozikligi va makonda tutashliginiamalda namoyish etdi.

Ikkinchi jahon urushining boshqa bir oqibati jamiyat hayotining ijtimoiy-siyosiy sohasida yuzaga keldi va u turli-tuman xalqaro tashkilotlarning mislsiz darajada o'sishida

namoyon bo'ldi. Ularning orasida Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT), hech shubhasiz,ajralib turadi. Yevropadagi integratsiya jarayonlari ham urushning tugashi bilan bog'liq bo'lib, Buyuk Britaniya bosh vaziri U.Ch

Erchill Yevropa qo'shma Shtatlarini tuzishga chaqirgan 1946 yilni ularning sanoq boshi deb hisoblash mumkin.

Bosh harbiy jinoyatchilar guruhi va natsistlarningasosiy tashkilotlari ustidan o'tkazilgan Nyurnberg sud jarayoni yana bir muhim tadbir vaayni vaqtda xalqaro munosabatlarni huquqiy tartibga solish sohasida dunyo miqyosidagi hamkorlikning ilk tajribasi bo'ldi. Bu jarayon 1945 yil 8avgustda g'olib mamlakatlar – SSSR,aQSH, Buyuk Britaniya va Fransiya tomonidan tashkil etilgan tarixdagi birinchi Xalqaro harbiy tribunal tomonidan amalga oshirildi va hozirgi xalqaro sud tizimini tashkil qilish yo'lidagi muhim qadam bo'ldi.ayni shu davrda liberalizm va demokratiya g'oyalari dunyo miqyosida keng tarqala boshladi, ijtimoiy borliqasoslarini, jamiyatningaxloqiy negizlari va ijtimoiy rivojlanishningasosiy tamoyillarini qaytaanglab yetishga qaratilgan jiddiy tadqiqotlar va nazariy ishlovlar majmui paydo bo'ldi.

Globallashuvning serqirraligi. Dunyo miqyosidagi tahdidlar va globallashuv jarayonlariniaholining keng qatlamlarianglab yetishi, shuningdek jahon hamjamiyati va unga mos keluvchi qadriyatlarga munosabat, madaniyat, turmush tarzining shakllanishi gldoballashuv serqirraligi bosqichiga xos xususiyat hisoblanadi. 1970-yillardan globallashuv o'z rivojlanishining Yangi bosqichiga ko'tarildi va serqirra tus oldi.ayni shu davrdaaxborot-texnologiya inqilobining rivojlanishi jadallashdi, mif, din, falsafa, fan, ekologiya bilan bir qatorda global ong ijtimoiy ongning yana bir shakli sifatida paydo bo'ldi.

etdi, Birinchi jahon urushiga qaraganda bir necha baravar ko'proq qurbonlar berildi.

Dunyo miqyosidagi jarayonlarning globallashuvi nuqtayi nazaridan bu urushlarning ikkalasi hamamaldaayni bir global urushning turli bosqichlari edi. Ularning o'rtasidagi farq faqat miqdor ko'rsatkichlarida ko'rinadi. Mohiyat e'tibori bilan, ikkala urush hamayni bir masalalarni yechish – XXasr boshida bo'lib olingan, yaxlit va o'zaro bog'langan dunyoni qayta bo'lib olishga qaratilgan edi. Urush olib borish usullari ham deyarli bir edi, farqi esa, texnik jihozlanish darajasi va miqyosi Ikkinchi jahon urushida bir necha baravar yuqori, mafkuraviy ta'sir esaavvalgi urushda yo mavjud bo'lmagan radio, telefon, yo hali yaxshi rivojlanmagan aviatsiya, dengiz, temir yo'l,avtomobil transporti aloqa va kommunikatsiya vositalaridan keng foydalanish bilan ko'p karra kuchaytirilishida namoyon bo'ldi.

Ikkinchi jahon urushi ham, xuddiavvalgi jahon urushidek, urushdan keyingi dunyoviy tartibning o'ziga xos xususiyatiga aylangan bir qator olamshumul oqibatlarga olib keldi. Ularning orasida eng muhimi shu bo'ldiki, urush mutlaqo Yangi qurol turi (atom va reaktiv qurol) yaratish borasidagi tadqiqotlar vaamaliy ishlarni rag'batlantirdi. Mazkur davrda ularning ilk namunalari jangovar sinovdan o'tkazildi va insoniyatga butun dunyoni xarobazorgaaylantirish va barcha tirik mavjudotlarni qirib tashlash uchun cheksiz imkoniyatlar yaratdi. Fan-texnika taraqqiyotiningayni shu yutuqlari keyinchalik «sovuq urush» davridaavj olgan qurollanish poygasining mohiyati va mazmunini belgilab berdi va sayyoramizning nozikligi va makonda tutashliginiamalda namoyish etdi.

Ikkinchi jahon urushining boshqa bir oqibati jamiyat hayotining ijtimoiy-siyosiy sohasida yuzaga keldi va u turli-tuman xalqaro tashkilotlarning mislsiz darajada o'sishida

namoyon bo'ldi. Ularning orasida Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT), hech shubhasiz,ajralib turadi. Yevropadagi integratsiya jarayonlari ham urushning tugashi bilan bog'liq bo'lib, Buyuk Britaniya bosh vaziri U.Ch

Erchill Yevropa qo'shma Shtatlarini tuzishga chaqirgan 1946 yilni ularning sanoq boshi deb hisoblash mumkin.

Bosh harbiy jinoyatchilar guruhi va natsistlarningasosiy tashkilotlari ustidan o'tkazilgan Nyurnberg sud jarayoni yana bir muhim tadbir vaayni vaqtda xalqaro munosabatlarni huquqiy tartibga solish sohasida dunyo miqyosidagi hamkorlikning ilk tajribasi bo'ldi. Bu jarayon 1945 yil 8avgustda g'olib mamlakatlar – SSSR,aQSH, Buyuk Britaniya va Fransiya tomonidan tashkil etilgan tarixdagi birinchi Xalqaro harbiy tribunal tomonidan amalga oshirildi va hozirgi xalqaro sud tizimini tashkil qilish yo'lidagi muhim qadam bo'ldi.ayni shu davrda liberalizm va demokratiya g'oyalari dunyo miqyosida keng tarqala boshladi, ijtimoiy borliqasoslarini, jamiyatningaxloqiy negizlari va ijtimoiy rivojlanishningasosiy tamoyillarini qaytaanglab yetishga qaratilgan jiddiy tadqiqotlar va nazariy ishlovlar majmui paydo bo'ldi.

Globallashuvning serqirraligi. Dunyo miqyosidagi tahdidlar va globallashuv jarayonlariniaholining keng qatlamlarianglab yetishi, shuningdek jahon hamjamiyati va unga mos keluvchi qadriyatlarga munosabat, madaniyat, turmush tarzining shakllanishi gldoballashuv serqirraligi bosqichiga xos xususiyat hisoblanadi. 1970-yillardan globallashuv o'z rivojlanishining Yangi bosqichiga ko'tarildi va serqirra tus oldi.ayni shu davrdaaxborot-texnologiya inqilobining rivojlanishi jadallashdi, mif, din, falsafa, fan, ekologiya bilan bir qatorda global ong ijtimoiy ongning yana bir shakli sifatida paydo bo'ldi.

Globallashuvning serqirragi jahon bozorini sezilarli darajada o'zgartirdi, jahon xo'jaligi o'ziga xos xususiyatlarini namoyon etib, milliy xo'jaliklardan kuchliroq va muhimroq tus olishiga imkoniyat yaratdi. Quyidagilar globallashuv serqirraligining muhim xususiyatlari hisoblanadi:

a) «rezonans effekti»ning paydo bo'lishi, bunda iqtisodiy yuksalishlar yoki tangliklar bir mamlakatdan u bilan uzviy bog'liq bo'lgan boshqa mamlakatlar va mintaqalarga o'tadi;

b) turli tovarlar va xizmatlar jahon bozorlarining yaratilishi;

v) ko'rsatilgan tovarlar va xizmatlarga jahon narxlarining shakllanishi, ular mazkur tovarlar va xizmatlar milliy ishlab chiqaruvchilarining siyosatini ko'p jihatdan belgilashi.

Iqtisodiyotning internatsionallashuvi va pul rolining unifikatsiyalashuvi bilan bir qatorda ommaviy jamiyat va unga mos keluvchi ommaviy madaniyatning shakllanishi serqirra globallashuvning o'ziga xos xususiyatiga va muayyan darajada uning qonuniy mahsuligaaylandi.

Zamonaviy transport vaaloqa vositalari sharofati bilan makon va vaqt omillariamalda muhimahamiyatga ega bo'lmay qolgan globallashuv sharoitida, til turli xalqlarning iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, maishiy va hokazoaloqalari va muloqoti yo'lidagi oxirgi jiddiy to'siq bo'lib qoldi. Umumiy qabul qilingan tilga ob'ektiv ehtiyoj doimo mavjud bo'lgan, lekin jahon savdosi va kapitallarni bir joydan boshqa joyga o'tkazish hajmlari ko'p karra o'sgan; siyosiy munosabatlar global darajagacha kengaygan, xalqaro jamoat tashkilotlari, sport musobaqalari, turistik industriya va shu kabilar paydo bo'lgan serqirra globallashuv davrida uayniqsa kuchaydi. Bugungi kunda ingliz tili bir qator ob'ektiv sabablarga ko'ra madaniyatlararo muloqot tiligaaylandi.

1991 yilda Internet paydo bo'lganidan so'ng dunyo informatsion jihatdan ham uzil-kesil tutashdi. Kompyuter

inqilobi va Internet tarmog'ining rivojlanishi chegaralardan boshqa hamma narsa mavjud bo'lgan Yangiaxborot maydonini vujudga keltirdi.

Global muammolar butun dunyogagina tegishli bo'lmay, uning mintaqalari va hattoayrim mamlakatlar darajasida namoyon bo'lgani bois, ilmiyadabiyotlarda ularning umuminsoniy ahamiyatini tan olish bilan bir qatorda, ularni mohiyati o'zgacha, ta'sir doirasi esa torroq bo'lganayrim, mahalliy, mintaqaviy muammolardan farqlash hamamalga oshiriladi. Turli darajadagi muammolarni «umumiylik», «xususiylik» va «yakkalik» falsafiy kategoriyalarining muayyan ifodasi sifatida o'rganar ekanlar, ularni odatda shunday talqin qiladilarki, xususiy muammolarayrim muammolar sifatida, mahalliy va mintaqaviy muammolar – xususiy muammolar sifatida, global muammolar esa – umumiy muammolar sifatidaamal qiladi. Zikr etilgan muammolarni farqlash zamirida yotuvchiasosiy mezon hamayni shu yondashuvni belgilaydi. U geografik debataladi, chunki makon omilini yoki, boshqachaaytganda, muayyan muammolar mavjud hududniaks ettiradi.

Xususiy muammolardavlat faoliyatining muayyan jabhasiga, ayrimaholi yashaydigan punktlarga yoki kichik tabiiy ob'ektlarga tegishli bo'lgan muammolardir. Bular, odatda, turliavariyalar, nosozliklar natijasida yuzaga keladigan har xil muammolar, mahalliy ijtimoiy konfliktlar va sh.k.

Mahalliy muammolar tushunchasi yuqoriroq darajadagi muammolarga, aniqroqaytganda, ayrim mamlakatlarga yoki yirik mamlakatlarning ancha katta hududlariga tegishli bo'lgan muammolarga nisbatan tatbiq etiladi. Bu erda odatda kuchli zilzilalar, yirik suv toshqinlari yoki, masalan, kichik davlatdagi fuqarolar urushi nazarda tutiladi.

Milliy muammolartushunchasi ijtimoiy-siyosiy va ilmiy muomalada ba'zan muayyan davlat yoki milliy hamjamiyatning ma'lum qiyinchiliklari, g'am-tashvishlariniaks ettiradi. Miqyos darajasiga qarab ular mintaqaviy yoki mahalliy muammolar sifatida talqin qilinishi mumkin.

Mintaqaviy muammolarayrim qit'alar, dunyoning yirik ijtimoiy-iqtisodiy hududlari yokiancha yirik davlatlarda yuzaga keladigan muhim masalalar doirasini qamrab oladi. Bunday muammolarga Sharqiy Yevropaning bir necha mamlakatlari hududi radioaktiv zaharlanishiga olib kelgan Chernobil fojiasi yoki bir qator davlatlarni qamrab oluvchiancha katta hududlarda yuz bergan iqlim o'zgarishlari misol bo'lishi mumkin. Masalan, 1968 yilda Saxel mintaqasida yuz bergan qurg'oqchilik «asr falokati» degan nom oldi. Uafrika qit'asining 18 davlatini qamrab oldi, bunda ocharchilik natijasida 250 mingdan ko'proq odam halok bo'ldi, taxminan 18 million bosh qoramol nobud bo'ldi, xavfli kasalliklarning epidemiyalari yuzaga keldi, bu ulkan mintaqa hududi esa deyarli to'la sahrogaaylandi.

Global muammolar butun er kurrasini, uning nafaqat odamlar bevosita yashaydigan qismini, balki Erning qolgan yuzasi, er osti bo'shliqlari,atmosfera, gidrosfera va hatto inson faoliyati doirasiga kiruvchi kosmik fazoni qamrab olishi bilan izohlanadi.

Hozirgi zamondaglobal muammolarni tasniflashga nisbatan har xil yondashuvlar orasidaayniqsa keng e'tirof etilgan tasnifga muvofiq global muammolarning barchasi ularning keskinlik darajasi va echiminingahamiyatiga, shuningdek real hayotda ularning o'rtasida qanday sababiy bog'lanishlar mavjudligiga qarab uch katta guruhgaajratiladi.

Yettinchidan, falsafa inson hayotining mazmuni, o'lim va umrboqiylik masalalarini kun tartibiga qo'yadiki, bu insoniyatga

global muammolar tahdid solayotgan sharoitdaayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi.

Nihoyat, falsafaning yana bir muhim metodologik funksiyasi shundan iboratki, u insoniyatning hozirgi muhim muammolari bilan bevosita bog'liq bo'lgan va bashariyat rivojlanishining ob'ektiv tendentsiyalarini tushunish vaanglab yetishda ulkan rol o'ynaydigan «tabiat», «jamiyat», «sivilizatsiya», «ijtimoiy taraqqiyot», «fan-texnika inqilobi» kabi boshqa kategoriyalarni ishlab chiqadi.

Hozirgi davrning global muammolarini o'rganishga nisbatan falsafiy yondashuv haqida muayyan tasavvur hosil qilgach, endi globallashuv jarayonlari kuchayishiga qarabahamiyati oshib borayotgan muammolarning o'zini shu nuqtayi nazardan ko'rib chiqamiz.

«Hozirgi davrning global muammolari» tushunchasi 1960-yillar oxiri – 1970-yillarning boshlarida keng tarqaldi va shundan beri ilmiy va siyosiy muomala(leksikon) hamda ommaviy ongdan mustahkam o'rin oldi.aksariyat hollarda u global sanalmagan voqealar va hodisalarga nisbatan qo'llaniladiganatama sifatida ishlatiladi. Bunday holga milliy va umumbashariyahamiyatga molik voqealar tenglashtirilganida, masalan, muayyan bir mamlakatning ijtimoiy muammolarini nazarda tutib, ular «global» deb nomlangan holda duch kelish mumkin.

Falsafada bu vazifani yechish uchun tegishli mezonlar belgilangan bo'lib, ularga muvofiq u yoki bu muammo global deb belgilanadi va shu tariqa bunday xususiyatga ega bo'lmagan boshqa ko'p sonli muammolardan farqlanadi.

Etimologik jihatdan «global» atamasi, «globallashuv» atamasi kabi, er kurrasi bilan bog'liq.ayni shu sababli butun insoniyat manfaatlariga daxldor muammolarni ham, dunyoning turli nuqtalaridagi har birayrim insonga tegishli bo'lgan, ya'ni

Milliy muammolartushunchasi ijtimoiy-siyosiy va ilmiy muomalada ba'zan muayyan davlat yoki milliy hamjamiyatning ma'lum qiyinchiliklari, g'am-tashvishlariniaks ettiradi. Miqyos darajasiga qarab ular mintaqaviy yoki mahalliy muammolar sifatida talqin qilinishi mumkin.

Mintaqaviy muammolarayrim qit'alar, dunyoning yirik ijtimoiy-iqtisodiy hududlari yokiancha yirik davlatlarda yuzaga keladigan muhim masalalar doirasini qamrab oladi. Bunday muammolarga Sharqiy Yevropaning bir necha mamlakatlari hududi radioaktiv zaharlanishiga olib kelgan Chernobil fojiasi yoki bir qator davlatlarni qamrab oluvchiancha katta hududlarda yuz bergan iqlim o'zgarishlari misol bo'lishi mumkin. Masalan, 1968 yilda Saxel mintaqasida yuz bergan qurg'oqchilik «asr falokati» degan nom oldi. Uafrika qit'asining 18 davlatini qamrab oldi, bunda ocharchilik natijasida 250 mingdan ko'proq odam halok bo'ldi, taxminan 18 million bosh qoramol nobud bo'ldi, xavfli kasalliklarning epidemiyalari yuzaga keldi, bu ulkan mintaqa hududi esa deyarli to'la sahrogaaylandi.

Global muammolar butun er kurrasini, uning nafaqat odamlar bevosita yashaydigan qismini, balki Erning qolgan yuzasi, er osti bo'shliqlari,atmosfera, gidrosfera va hatto inson faoliyati doirasiga kiruvchi kosmik fazoni qamrab olishi bilan izohlanadi.

Hozirgi zamondaglobal muammolarni tasniflashga nisbatan har xil yondashuvlar orasidaayniqsa keng e'tirof etilgan tasnifga muvofiq global muammolarning barchasi ularning keskinlik darajasi va echiminingahamiyatiga, shuningdek real hayotda ularning o'rtasida qanday sababiy bog'lanishlar mavjudligiga qarab uch katta guruhgaajratiladi.

Yettinchidan, falsafa inson hayotining mazmuni, o'lim va umrboqiylik masalalarini kun tartibiga qo'yadiki, bu insoniyatga

global muammolar tahdid solayotgan sharoitdaayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi.

Nihoyat, falsafaning yana bir muhim metodologik funksiyasi shundan iboratki, u insoniyatning hozirgi muhim muammolari bilan bevosita bog'liq bo'lgan va bashariyat rivojlanishining ob'ektiv tendentsiyalarini tushunish vaanglab yetishda ulkan rol o'ynaydigan «tabiat», «jamiyat», «sivilizatsiya», «ijtimoiy taraqqiyot», «fan-texnika inqilobi» kabi boshqa kategoriyalarni ishlab chiqadi.

Hozirgi davrning global muammolarini o'rganishga nisbatan falsafiy yondashuv haqida muayyan tasavvur hosil qilgach, endi globallashuv jarayonlari kuchayishiga qarabahamiyati oshib borayotgan muammolarning o'zini shu nuqtayi nazardan ko'rib chiqamiz.

«Hozirgi davrning global muammolari» tushunchasi 1960-yillar oxiri – 1970-yillarning boshlarida keng tarqaldi va shundan beri ilmiy va siyosiy muomala(leksikon) hamda ommaviy ongdan mustahkam o'rin oldi.aksariyat hollarda u global sanalmagan voqealar va hodisalarga nisbatan qo'llaniladiganatama sifatida ishlatiladi. Bunday holga milliy va umumbashariyahamiyatga molik voqealar tenglashtirilganida, masalan, muayyan bir mamlakatning ijtimoiy muammolarini nazarda tutib, ular «global» deb nomlangan holda duch kelish mumkin.

Falsafada bu vazifani yechish uchun tegishli mezonlar belgilangan bo'lib, ularga muvofiq u yoki bu muammo global deb belgilanadi va shu tariqa bunday xususiyatga ega bo'lmagan boshqa ko'p sonli muammolardan farqlanadi.

Etimologik jihatdan «global» atamasi, «globallashuv» atamasi kabi, er kurrasi bilan bog'liq.ayni shu sababli butun insoniyat manfaatlariga daxldor muammolarni ham, dunyoning turli nuqtalaridagi har birayrim insonga tegishli bo'lgan, ya'ni

umuminsoniy xususiyat kasb etadigan muammolarni ham «global» deb nomlash odat tusini olgan. Ular jahon iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishining muhim ob'ektiv omili sifatidaayrim mamlakatlar va mintaqalarning rivojlanishiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi. Ularni yechishaksariyat davlatlar va tashkilotlarning kuch-g'ayratini xalqaro darajada birlashtirishni nazarda tutadi.ayni vaqtda global muammolarning echilmay qolishi butun insoniyat kelajagi uchun halokatli oqibatlarga olib kelishi mumkin.

13.2. Global jarayonlarni bashorot qilishningahamiyati

Hozirgi davrning global muammolari o'z holatini zamonda tinimsiz o'zgartiradigan yagona, faol va ochiq tizim hisoblanadi, chunki unga umuminsoniyahamiyatga molik bo'lgan Yangi muammolar kirishi, avvalgi muammolar esa, ularning echilishiga qarab, yo'qolishi mumkin. Rim klubiningasoschisi va birinchi prezidentia. Pechchei bu holatga e'tiborni qaratib, insoniyat qarshisida ko'ndalang bo'lganaksariyat muammolar «bir-biri bilan mahkam chirmashib oldi, ulkan sprut changali yangli butun sayyorani o'z iskanjasiga olmoqda... echilmagan muammolar soni o'sib bormoqda, ular yanada murakkabroq tus olmoqda, ularning chirmashuvi yanada chigallashmoqda, ularning «iskanjasi» esa sayyoramizni o'z changalida tobora qattiqroq siqmoqda», 1 deb yozgan edi.

Ammo global ziddiyatlar tuguni qanchalik chigal bo'lmasin, uni fan va falsafa yordamida yechish, ya'ni sababni oqibatdan, muhim tafsilotlarni ikkinchi darajali tafsilotlardan, ob'ektivni sub'ektivdan farqlash uchun nazariy jihatdananglab yetish lozim. Dunyo miqyosidagi jarayonlarga ta'sir ko'rsatish uchun odamlarning imkoniyatlari va resurslari cheklanganini hisobga

olib, muammolarning qaysi biri darhol yechishni talab qilishi va qaysi biri ikkinchi darajaliahamiyat kasb yetishini ham farqlash muhimdir.

G'arb mamlakatlarida ijtimoiy prognoz qilish ilmiy bashoratning turii sifatida «futurologiya» (lot. Futurum – kelajak va yunon. Logos – ta'limot) degan nom bilan vujudga kelgan. Buatamani ilk bor G'arbiy Berlin universiteti huzuridagi Otto Zur nomidagi institut professori O.Flextgaym ishlatgan. Shuni qayd yetish lozimki, «futurologiya»atamasi umumiy e'tirof etilgani yo'q. Misol uchun, bashorat muammolari bo'yicha frantsuz mutaxassislariningaksariyati futurologiya insonning kelajakni ishonch bilan bashorat qilish qobiliyati haqida xom xayol qilish uchunasos bo'ladi, deb hisoblaydi. Futurologiya o'rniga «fyutyuribli» atamasi taklif qilingan bo'lib, u «ehtimol tutilgan kelajak» degan ma'nonianglatadi. Bunda kelajakning shartliligi, ko'p variantliligiga urg'u beradi.

Hozirgi davrda ijtimoiy bashorat bilan bog'liq tadqiqotlar «prognostika» degan nom olgan. Prognostika prognoz qilish qonunlari, tamoyillari va metodlarini o'rganadi, mantiq muammolarini va har xil tipdagi prognostik tadqiqotlarning tasniflarini ishlab chiqadi. U endigina shakllanish davrini boshdan kechirmoqda, lekin hozirning o'zidayoq kelajakning ilmiy muqobillarini yaratishning muhim vositasi hisoblanadi. O'zbekistonda prognozdashtirish masalasi bilan K Tulenova shug'ullanadi.

13.3. Texnika va texnologiya tushunchalarining falsafiy mohiyati.

Qayd etilgan qarashlar 60-yillarning boshlariga kelib texnokratik kayfiyatlarning Yangi to'lqini bilan chetga surib qo'yildi va qariyb ikki o'n yillik mobaynida ommaviy ongga o'z

ta'sirini yo'qotdi. Bunga urushdan keyingi davrda jahonning deyarli barcha iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarini qamrab olgan sanoat yuksalishi sabab bo'ldi. 50-60-yillarda ijtimoiy taraqqiyot istiqbollari G'arbda ham, Sharqda hamaksariyat mamlakatlar uchun porloq bo'lib tuyular edi.. Ijtimoiy ongda har qanday dunyoviy va hatto koinot muammolarini fan va texnika yordamida hal qilish mumkin degan illyuziyani yaratgan texnooptimistik kayfiyatlar kuchaydi Bunday qarashlar «iste'mol jamiyati»ni ijtimoiy rivojlanish maqsadi deb e'lon qilgan ko'p sonli nazariyalarda o'zaksini topdi.ayni shu davrda «industrial», «postindustrial», «texnotron», «informatsion» jamiyatlarning turli kontseptsiyalarini yaratish ustida faol ish olib borildi.

1957 yilda taniqli iqtisodchi va sotsiolog J.Gelbreyt «Serobgarchilik jamiyati» kitobini e'lon qildi va uningasosiy g'oyalarini keyinchalik o'zining «Yangi industrial jamiyat» deb nomlangan boshqaasarida rivojlantirdi. Uningasarlarida inson fan va texnika sohasida erishayotgan yutuqlarga yuksak va faqat ijobiy baho beriladi, mazkur yutuqlar ta'sirida jamiyat iqtisodiy va ijtimoiy tuzilmalarida chuqur o'zgarishlar yuz berayotganiga e'tibor qaratiladi.

Taniqli frantsuz faylasufi R.Aronasarlarida, shuningdek, uning 1956-1959 yillarda Sorbonna universitetida o'qilgan ma'ruzalarida, amerikalik siyosatshunos U.Rostouning 1960 yilda chop etilgan va o'z davrida shov-shuvga sabab bo'lgan «Iqtisodiy o'sish bosqichlari. Nokommunistik manifest» kitobida «industrial jamiyat» nazariyasi yanada to'laroqasoslab berildi.

Bu olimlar fikriga ko'ra, fan-texnika inqilobi ta'sirida «odatdagi» agrar jamiyat o'rnini sanoat jihatidan taraqqiy etgan «industrial» jamiyat egallaydi va bu erda bozor sharoitida ommaviy ishlab chiqarish birinchi o'ringa chiqadi. Sanoatning

rivojlanish va texnika yutuqlaridan foydalanish darajasi bunday jamiyat progressivligining bosh mezonlarigaaylanadi.

Jamiyat hayotining barcha sohalariga kompyuterlarning keng joriy etilishi yangi nazariyalar, chunonchi: «postindustrial», «informatsion» (D.Bell, G.Kan, J.Furaste,a.Turen), «texnotron» (Z.Bjezinskiy, J.J.Servan-Shrayber), «o'ta industrial», «kompyuter» (A.Toffler) jamiyati nazariyalari yuzaga kelishiga sabab bo'ldi. Ularda ijtimoiy taraqqiyotningasosiy mezoni sifatida texnika yutuqlari, aniqrog'i faqatgina ular emas, balki fan va ta'limning rivojlanishiamal qiladi. Kompyuter texnikasi negizida yaratilgan yangi texnologiyalarningamalga joriy etilishi taraqqiyotning muhim mezoni hisoblanadi.

Amerikalik taniqli faylasuf va sotsiolog D.Bell bo'lg'usi ijtimoiy qurilish shakl-shamoyillarini belgilar ekan, hali Internet paydo bo'lishidanancha oldin shunday degan edi: «Shunga ishonchim komilki,axborot va nazariy bilim postindustrial jamiyatning strategik resurslaridir. Bundan tashqari, o'zining Yangi rolida ular hozirgi tarixning tub burilish nuqtalaridir».

D.Bell birinchi burilish nuqtasi sifatida hozirgi jamiyatda «umumiy bilim» sifatidaasosiy ishlab chiqaruvchi kuchgaay-langan fan xususiyatining o'zgarishini qayd etadi. Ikkinchi burilish nuqtasi Yangi texnologiyalar paydo bo'lishi bilan bog'liq bo'lib, ular, sanoat inqilobi davri texnologiyalaridan farqli o'laroq, o'ta moslashuvchan va osongina qayta ixtisoslashtirilishi mumkin. U «Hozirgi texnologiya betakror vaayni vaqtda rang-barang natijalarga erishish uchun ko'p sonli muqobil yo'llar ochadi, bunda moddiy ne'matlar ishlab chiqarish mislsiz darajada o'sadi. Bular – imkoniyatlar, hamma gap ularni ro'yobga chiqarishda», deb qayd etgan edi.

Texnopessimizm fan texnika yutuqlari insoniyatni boshi berk ko'chaga olib kiradiva pirovardda u halok bo'ladi deb hisoblaydi.

Ko'rib chiqilayotgan nazariyalarningayrim tarafdorlari fan-texnika inqilobining salbiy oqibatlariga, xususanatrof muhitning ifloslanishi muammolariga ma'lum darajada e'tibor bergan bo'lsalarda, lekin, umuman olganda, ularning hech biri bundan 1980-yillarning o'rtalarigacha jiddiy tashvishga tushmadi. Chunki, fan-texnika taraqqiyoti hamma narsaga qodir ekanligiga ishonch haddan tashqari katta edi.

Ayni zamonda 1960-yillarning oxirlaridan ekologik qiyinchiliklardan tashqariaksariyat davlatlar va hatto qit'alarga tahdid solgan boshqa muammolar:aholining nazoratsiz o'sishi, turli mamlakatlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasining notekisligi, xomashyo resurslari va oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash va boshqalar tobora bo'rtibroq namoyon bo'la boshladi. Tez orada ular fan va falsafa diqqat markazidan o'rin olib, qizg'in bahs va munozaralar predmetigaaylandi.

Ko'rsatilgan muammolarni falsafiy tahlil qilish borasidagi dastlabki urinishlarning o'ziyoq texnokratik tendentsiyalarga zid bo'lgan, keyinchalik «texnologik pessimizm» deb nomlangan qarashlarni namoyon etdi. «ekopessimizm»,asosiy e'tibor inson faoliyatining salbiy oqibatlari vaatrof muhit muammolariga qaratilgan, ularni yechish imkoniyatlari salbiy tusda ko'rilgan holdir.

Ko'pgina taniqli olimlar va faylasuflar, xususan G.Markuze, T.Rozzak, P.Gudmen va boshqalar o'z o'tmishdoshlarini shafqatsiz stsientizmda, insonni fan va texnika quliga aylantirishga urinishdaayblab, fan-texnika taraqqiyotiga qarshi chiqdilar. Fan-texnika taraqqiyotiga va umuman ijtimoiy taraqqiyotga qarshi norozilikning yangi to'lqini yuzaga kela boshladi. Bu to'lqin ta'sirida paydo bo'lgan g'oyalar «aksiliste'mol» jamiyatini asoslashga harakat qilar va «o'rtacha odam»ni ozginaga qanoat qilish lozimligiga ishontirishga qaratilgan edi. Global muammolar

paydo bo'lishiningaybdorini topishga urinish jarayonida asosiyayb «zamonaviy texnologiya»ga qo'yildi. Nafaqat fan yutuqlari, balki taraqqiyot g'oyasi ham shubha ostiga olindi. O'z davrida J.J.Russo ilgari surgan «tabiat bag'riga qaytish»ga chorlovlar paydo bo'ldi, iqtisodiy rivojlanishni erishilgan darajada «to'xtatish» taklif qilindi.

Yuqorida qayd etilgan qarashlardagi tub burilishasosan Rim klubi faoliyati ta'sirida yuz berdi. 1968 yil Rimda o'zining birinchi majlisiga yig'ilgan olimlar, faylasuflar va jamoatarboblarining bu nufuzli xalqaro tashkiloti hozirgi davrning eng muhim umuminsoniy muammolari bo'yicha ma'ruzalar tayyorlash va e'lon qilishni o'z oldiga vazifa qilib qo'ydi. Bu tashkilotning 1972 yilda e'lon qilingan «O'sish chegaralari» deb nomlangan birinchi ma'ruzasiyoq juda katta shov-shuvga sabab bo'ldi, chunki insoniyat o'zianglamagan holda «poroxli bochka ustida o'tirib, gugurt o'ynayotgani»ni ko'rsatib berdi. Rim klubiningasoschisi va birinchi prezidentiaurelli Pechchei mazkur tadqiqotga yozgan so'zboshisida shunday deb qayd etgan edi: «Endilikda ona-Erimiz har qanday o'sish sur'atlariga dosh berishga, insonning har qanday erkaliklarini ko'tarishga qodir ekanligiga sog'lom fikrlaydigan odamlarning birortasi ham ishonmaydi. O'sish chegaralari borligi ravshan, lekin ularning qandayligi va qaerdaligini halianiqlash lozim».

Mazkur ma'ruza mualliflari shundayaniqlash bilan shug'ullandilar. Olingan natijalarning muxtasar mazmuni shundan iborat ediki, sayyoramiz hajmining chegaralari muqarrar tarzda inson imkoniyatining chegaralarini ham nazarda tutadi; moddiy o'sish cheksiz darajada davom yetishi mumkin emas; ijtimoiy rivojlanishning haqiqiy chegaralari moddiy omillar bilan emas, balki ekologik, biologik va hatto madaniy omillar bilan belgilanadi. Ular jahon rivojlanishiasosiy tendentsiyalarining kompyuter modelini tuzib, mazkur tendentsiyalar saqlangan

holda uchinchi ming yillik boshidayoq insoniyat voqealar ustidan nazoratni butunlay yo'qotishi va natijada halokatga yuz tutishi mumkin, degan to'xtamga keldilar. Bundan ishlab chiqarishning o'sishini to'xtatish, tobora ko'payib borayotganaholi sonini esa tegishli ijtimoiy siyosat yordamida barqarorlashtirish lozim, degan xulosaga kelindi.

Ma'ruza jahonning ko'plab tillariga o'girildi va dunyo bo'ylab keng tarqaldi, ishlab chiqarishning o'sishini to'xtatish g'oyasi tarafdorlari va muxoliflari o'rtasida qizg'in bahs-munozaralarga sabab bo'ldi. So'ngra navbatdagi ma'ruzalar majmui (bugungi kunda ular yigirmatadan oshib ketdi) paydo bo'ldi. Bu ma'ruzalar umuminsoniy muammolarning ko'pgina jihatlarini yoritib berdi va ularga nafaqat olimlar va faylasuflar, balki siyosatchilar, jamoatarboblari, umuman jahon hamjamiyati e'tiborini qaratdi.

Nazorat uchun savollar:

1. Global jarayonlar deganda nimalar tushuniladi va ular barqaror taraqqiyotga qanday ta'sir ko'rsatadi?
2. Barqaror taraqqiyot tushunchasining mohiyati va uning falsafiy asoslari haqida nimalarni bilasiz?
3. Globalizatsiya va barqaror taraqqiyot o'rtasidagi munosabatlarni tushuntiring.
4. Barqaror taraqqiyotning iqtisodiy jihatlari qanday ifodalanadi?
5. Barqaror taraqqiyotning ijtimoiy jihatlari va uning jamiyat rivojiga ta'siri qanday?
6. Barqaror taraqqiyotning ekologik jihatlari haqida so'zlab bering.
7. Global muammolarni hal etishda barqaror taraqqiyot yo'llari qanday yondashuvlarni taklif etadi?
8. Falsafiy nuqtai nazardan, global jarayonlar va barqaror taraqqiyot o'rtasidagi o'zaro ta'sir qanday tahlil qilinadi?

KORRUPSIYANING MOHIYATI, OQIBATLARI VA UNGA QARSHI KURASH MEXANIZMLARI

Reja:

1. Korrupsiyaning mohiyati: Korrupsiya tushunchasi, uning xilma-xilligi va asosiy shakllari.
2. Korrupsiyaning oqibatlari: Korrupsiyaning jamiyatga, iqtisodiyotga, siyosatga va ijtimoiy adolatga ta'siri.
3. Korrupsiyaning ijtimoiy va iqtisodiy zararlarini tahlil qilish: Korrupsiyaning davlat tizimlari va fuqarolar o'rtasidagi ishonchga bo'lgan ta'siri.
4. Korrupsiyaga qarshi kurashish usullari: Korrupsiyani oldini olish va unga qarshi samarali kurashish uchun zarur bo'lgan mexanizmlar.
5. Xalqaro va milliy ta'limotlar: Korrupsiyaga qarshi kurashishda xalqaro tashkilotlarning roli va milliy qonunlar hamda normativ hujjatlar.

Tayanch so'zlar: *Korrupsiya, Finlandiya tajribasi, Singapur tajribasi, Latviya tajribasi, korrupsiyaviy jinoyatlar, poraxo'rlik, korrupsiyaga qarshi kurash.*

Hozirgi globallashuv va integratsiya jarayonlariavj olib borayotgan zamonda korrupsiya deyarli hamma davlatlar uchun bir qancha muammolarga sabab bo'lmoqda. Shu o'rindaaytish joizki, Xalqaro valyuta jamg'armasi tomonidananiqlangann ma'lumotlarga tayanadigan bo'lsak, ushbu illat yiliga jahon iqtisodiyotiga o'rtacha 2,6 trillion dollar miqdorida zarar yetkazadi. Shu bilan bir qatorda inson huquq va erkinliklarining poymol bo'lishiga ham sabab bo'ladi. Shu boisdan, mazkur illat bilan kurashishga butun dunyo miqyosida siyosat darajasiga

ko'tarilib, hal qilinishi lozim bo'lgan global muammo sifatida qaralmoqda.

Xalqaro Transparency International tashkilotining 2021-yil bo'yicha bergan ma'lumotlariga tayanadigan bo'lsak, korrupsiya darajasi eng past davlatlar reytingida birinchilardan bo'lib, Daniya, Finlandiya, Yangi Zellandiya, Norvegiya, Singapur va Shvitsiya kabi davlatlar o'rin olganligini ko'rishimiz mumkin.

Korrupsiyaga qarshi kurashda xalqaro institutlar ichida Birlashgan Millatlar tashkiloti muhim rol o'ynaydi. BMT tomonidan qabul qilingan korrupsiyaga qarshi kurashga yo'naltirilgan hujjatlar ichida 2003-yil dekabr oyida qabul qilingan. Korrupsiyaga qarshi Konvensiyasi kattaahamiyat kasb etadi [7]. O'zbekiston Respublikasi 2008-yil 7-iyuldagi qonun bilan mazkur Konvensiyaga qo'shilgan. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha nafaqat BMT, balki Yevropa Ittifoqi, Jahon banki, Transperensy International xalqaro nohukumat tashkiloti, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti, Butunjahon bojxona tashkiloti ham korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha o'zlarining faoliyatidaalohida e'tibor berib kelmoqda. Ushbu tashkilotlar tomonidan korrupsiyaning oldini olish, unga qarshi kurashda hamkorlik qilish va boshqa davlatlarni, xalqaro biznes tashkilotlarini korrupsiyaga qarshi kurashga jalb qilishga qaratilgan qator xalqaro hujjatlar qabul qilingan.

Hozirda rivojlangan mamlakatlarda ham korrupsiya bilan bog'liq jinoyatlarlarni uchratish mumkin, lekin ular doimiy ravishda korrupsiya bilan qarshi kurashib keladi va korrupsiya darajasi kamligi bo'yicha jahon reytingida yuqori o'rinlarda turadi, Jumladan, Transperensy International xalqaro nohukumat tashkilotining 2020-yildagi statistik ma'lumotlariga ko'ra, korrupsiya darajasi past mamlakatlar reytingida Yangi Zelandiya 1, Daniya 2, Finlandiya, Singapur, Shvitsiya 3-o'rinni egallagan

bo'lsa, Markaziy Osiyo davlatlaridan Qozog'iston 94, Qirg'ziston 124, O'zbekiston 146-o'rinni egallagan [7]. Hech bir davlat korrupsiyadan, uning zararli oqibatlaridan mutlaq himoya qilinmagan. Shu sababli har bir davlat qonunlarida korrupsiyaga qarshi kurash eng dolzarb masalalardan biri sifatida e'tirof etiladi. Xususan, Xitoy Jinoyat kodeksining 382-moddasiga ko'ra davlat xizmatchilarining o'z mansab imtiyozlaridan foydalangan holda davlat mulkini o'zlashtirib olishi, o'g'irlashi, firibgarlik yo'li bilan olishi yoki boshqacha tarzda o'zlashtirishi korrupsiya deb hisoblanadi. Shuningdek, davlat organlari, davlat korxonalari, korxonalar, tashkilotlar, xalq birlashmalari davlat mulkini boshqarish va xo'jalik yuritish ishonib topshirilgan shaxslarning o'z xizmatafzalliklaridan foydalangan holda o'zlashtirib olishi, o'g'irlashi,aldash yo'li bilan davlat mulkini boshqa yo'llar bilan noqonuniy egallab olishi ham korrupsiya sifatida baholanishi belgilangan.

Korrupsiya bilan bog'liq jinoyatlarning og'ir-yengilligiga qarab javobgarlik belgilangan bo'lib, 100 ming yuandan ortiq miqdordagi yakka tartibdagi korrupsiya uchun o'n yildan ortiq muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlanishi,agar mol-mulki musodara qilingan holda yoki unsiz yillar yoki muddatsiz ozodlikdan mahrum qilish, jazoni o'ta og'irlash-tiruvchi holatlarda – o'lim jazosi va mol-mulkini musodara qilish belgilangan. Bundan tashqari Xitoy qonunchiligiga ko'ra, mol-mulk yoki xarajati uning qonuniy daromadidan oshib ketgan har qanday davlatamaldoriga, farq juda katta bo'lgan taqdirda, o'z mulkining manbalarini tushuntirish majburiyati yuklanadi. agar u manbalar qonuniy ekanligini isbotlay olmasa, uning qonuniy daromadidan oshadigan qismi noqonuniy boylik deb hisoblanadi. Har qanday davlatamaldori Xitoy tashqarisidagi bankda saqla-nuvchi o'z mablag'lari haqida tegishli tartibda davlatga xabar

qilishi shart [8]. Bizning fikrimizcha, Xitoy qonunchiligida korrupsiyaga qarshi kurashda yaxshiamaliyot yo'lga qoyilgan bo'lib, bunda mansabdor shaxslarning mol-mulki deklaratsiya qilinib, ortiqcha qismi qayerdan kelganliginiasosli ma'lumotlar bilan isbotlay olmasa, korrupsiya sifatida baholanadi va mansabdor shaxsning javobgarlikka tortilishigaasos bo'ladi.

Korrupsiyaga qarshi kurash borasidagi engasosiy xalqaro hujjat bu - shubhasiz, BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi mazkur xalqaro hujjatni ratifikatsiya qilgan: O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisi Qonunchilik palatasi tomonidan — BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasiga O'zbekiston Respublikasining qo'shilishi to'g'risida"gi Qonuni 2008-yil 24-iyunda qabul qilindi va 2008-yil-27 iyunda O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisi Senati tomonidan ma'qullandi va 2008-yil 28-avgustdan e'tiboran kuchga kirdi. BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi muqaddima hamda 8 ta bob, 71 ta moddadan iborat bo'lib, 1-bobda (1-4) umumiy qoidalar, 2-bobda (5-14) korrupsiyaning oldini olish choralari, 3-bobda (15-42) jinoyatchilik va huquqni muhofaza qilish faoliyati, 4-bobda (43-50) xalqaro hamkorlik, 5-bobda (51-59)aktivlarni qaytarish bo'yicha choralar, 6-bobda (60-62) texnik yordam va ma'lumotalmashinuvi, 7-bobda (63-64)amalga oshirish mexanizmlari, 8-bobda yakuniy qoidalaraks etgan.

O'zbekiston Respublikasi mazkur konvensiyaga bir nechta bildirishlar, bayonotlar va shartlar bilan qo'shilgan. Jumladan, Qonunning 1-bandiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Konvensiya 6-moddasining 3-bandi bo'yicha O'zbekiston Respublikasining Bosh prokuraturasi, Ichki ishlar vazirligi, Milliy xavfsizlik xizmati vaadliya vazirligi korrupsiyaning oldini olish bo'yicha aniq chora-tadbirlar ishlab-chiqish va ularniamalga oshirishda

boshqa Ishtirokchi – davlatlarga yordam ko'rsatishi mumkin bo'lgan organlar sifatida belgilanganligi bildirilgan. Bu qoida Konvensiyaning 6-moddasi 3-bandidagi har bir ishtirokchi Davlat BMTning Bosh kotibiga korrupsiyaning oldini olish bo'yichaaniq choratadbirlarni ishlab chiqish vaamalga oshirishda boshqa ishtirokchi Davlatlarga yordam berishi mumkin bo'lgan organ yoki organlarning nomi va manzilini xabar qiladi, degan talablariga to'la javob beradi. Qonunning 2-bandiga ko'ra, Konvensiya 42-moddasining 1 va 3-bandlari bo'yicha 15-19, 21, 22-moddalarda, 23-moddaning 1-bandida, 24, 25, 27- moddalarda nazarda tutilgan qilmishlar milliy qonunchilikka muvofiq jinoiy jazolanadigan qilmish ekanligi va ularga nisbatan O'zbekiston Respublikasining yurisdiksiyasi tatbiq etilishligi bayon etilgan. Ushbu xatti-harakatlar O'zbekiston jinoyat qonunchiligi bo'yicha ham jinoiy qilmish sifatida baholanadi vaamaldagi jinoyat qonunida bunday qilmishlar uchun jinoiy javobgarlik belgilangan.

BMTning Rivojlanish Dasturi nazariy tahliliga ko'ra korrupsiyani vujudga kelishida quyidagi omillar katta rol o'ynaydi. Jumladan, vakolat va hokimiyat, o'zboshimchalik va shaxsiy manfaat, hisobdorsizlik va oshkorasizlik. Shunday ekan, korrupsiya – bu keng ma'noda davlat xizmatchisi yoki mansabdor shaxsning o'ziga davlat yoki jamiyat tomonidan belgilangan vakolatni suiste'mol qilib, undan shaxsiy maqsadlarda foydalanishidir. Ushbu holatni korrupsiya borasida yetakchi nazariyotchi olim Robert Klitgard formula shaklida quyidagicha tasvirlaydi:

Korrupsiya = (Vakolat + O'zboshimchalik) – (Hisobdorlik + Oshkoralik). Har qanday jinoyatchilik ma'lum bir sabab va shart-sharoitlar ta'sirida vujudga keladi. Korrupsiya va uni vujudga keltiruvchi sabablar o'rtasida ikki tomonlamaaloqa mavjud.

Bundan xulosa shuki, birinchidan, korrupsiyani faqat uni vujudga keltiruvchi sabablar va shart-sharoitlarni yechish yo'li bilan kamaytirish va cheklash mumkin; ikkinchidan, bu muammolarni yechishga korrupsiyaga qarshi barcha yo'nalishlarda qat'iy va murosasiz kurash olib borishga ko'maklashadi.

Ilmiyadabiyotlarda quyidagi sabablar korrupsiyani vujudga keltiruvchi umumiy sabablar qatoriga kiradi.

1. Demokratikan'analar chuquranglanilmaganligi.

2. Fuqarolik jamiyati institutlarining korrupsiyaga qarshi kurashishga yetarli darajada jalb qilinmagan.

3. Hokimiyat institutlari tizimining nuqsonlari mavjudligi.

4. Qonunchilik texnikasi yetarli darajada metodik ta'minlanmaganligi vaasosiy holatlari hayotga to'g'ri tadbiq qilinmaganligi.

Korrupsiyani belgilovchi maxsus omillar qatorigaaksariyat mutaxasisslarayrim faoliyat sohalari huquqiy jihatdan lozim darajada tartibga solinmaganini vaamaldagi qonun hujjatlarida mavjud kamchiliklarni kiritadilar. Lekin bular ichida normativ-huquqiy bazaning nuqsonlari korrupsiyani vujudga keltiruvchi eng muhim omillardandir. Uning quyidagi ko'rinishlari mavjud:

- huquq kolliziyalari;
- qaytarilishlar;
- protsessual mexanizmlarning noaniqligi va samarasizligi.

Xalqaro Transparency International tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra, mazkur davlat korrupsiya darajasi eng past bo'lgan davlatlar kuchli beshtaligiga kirishga erishgan va hozirgi kunda Finlandiyada yiliga uch yoki to'rtta poraxo'rlik bilan bog'liq jinoyat ishlari ko'riladi.

E'tiborli tomoni shundaki, Finlandiyada Jinoyat kodeksida "korrupsiya" atamasi mavjud bo'lmasdan, mansabdor shaxslarning poraxo'rligi uchun, mazkur qilmishning xavflilik darajasidan kelib chiqib jarima yoxud ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi

jazo nazarda tutilgan. Shuningdek, Finlandiyada boshqa davlatlardagi kabi na korrupsiyaga qarshi kurash haqida maxsus qonun, na korrupsiyaga qarshi kurashuvchi maxsus organ mavjud. Korrupsiyaga umumiy jinoyatchilikning bir qismi qabilida kurash olib boriladi. Finlandiya Konstitusiyasi, Jinoyat kodeksi, Fuqarolik xizmati to'g'risidagi qonun, ma'muriy boshqaruvga oid yo'riqnomalar va boshqa qonunosti hujjatlar korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan hujjatlar hisoblanadi. Bularning orasida eng muhimiaxloq qoidalaridir. Finlandiyada davlat xizmatchilarini korrupsiyalashuvidan saqlovchi muhim omillardan biri – ularning moddiy va ijtimoiy ta'minlanganligidadir.

Mamlakatda korrupsiyani oldini olishga qaratilgan qonun hujjatlarning ijro yuzasidan nazoratni prezident tomonidan tayinlanib, to'laqonli mustaqil faoliyat olib boradiganadliya kansleri va parlament vakili Ombudsmanamalga oshiradi. Ushbu organga shunchalik katta vakolat berilganki, hattoki butun hokimiyat tarmoqlari faoliyatini nazorat qila oladi.

Alohida ta'kidlash lozimki, Finlandiyada ommaviyaxborot vositalari ijtimoiy nazoratning muhim vositasi bo'lib xizmat qiladi. Hukumat esa, ommaviyaxborot vositalariga nafaqat erkinlik yaratib bergan, balki har bir e'lon qilingan korrupsiya holati bo'yichaaniq choralarni ko'rib boradi.

Korrupsiya darajasi eng past bo'lgan mamlakatlardan yana biri Yangi Zellandiyadir. Mamlakatning mazkur sohadagi tajribasiga nazar tashlaydigan bo'lsak, 1961-yilda qabul qilingan Jinoyatlaraktining oltinchi bo'limi "Qonun va odil sudlovniamalga oshirishga ta'sir qiluvchi jinoyatlar" deb nomlanib, mazkur bo'limda poraxo'rlik va korrupsiya uchun javobgarlik masalalari yoritilgan. E'tiborli jihati shundaki, mazkur bo'limda har bir davlatamaldorining korrupsiya bilan bog'liq jinoyatlari uchunalohida javobgarlik belgilangan. Xususan,aktning 100-

bandida sudyalar va sud xodimlarining poraxo'rligi, 101-bandida sud xodimiga pora berish, 102- bandida vazirlarning poraxo'rligi, 103-bandida parlament deputatining korrupsiyasi va poraxo'rligi, 104-bandida huquqni muhofaza qilish organi xodimining korrupsiyasi va poraxo'rligi, 105-bandida mansabdor shaxsning poraxo'rligi, 105C-bandida chet ellik davlatamaldoriga pora berish, 105D-bandida Yangi Zelandiyadan tashqarida xorijiy davlatamaldorining poraxo'rligi, 105E-bandida xorijiy davlatamaldorlarining korrupsiyasi uchun javobgarlik masalalari alohida keltirib o'tilgan.alohida ta'kidlash lozimki, mansabdor shaxslarning korrupsiyaviy jinoyatlari uchunalohida javobgarlikning belgilanishi, bunday jinoyatniadolatli hal qilinishiga, qolaversa har bir mansabdor shaxsning o'z vazifasiga mas'uliyatini oshirishga xizmat qiladi. O'z navbatida, jinoyatchilarga qarshi kurash usullarining qonunchilikdaalohida, tizimliaks etishi, bunday turdagi jinoyatlarga qarshi kurashni ham osonlashtiradi.

Xuddi shunday rivojlangan davlatlardan yana biri Singapurning korrupsiyaga qarshi kurash olib borishda qo'llayotgan usullari haqida gapiradigan bo'lsak,asosiy vazifasi korrupsiyaga qarshi faol kurash olib borishdan iborat bo'lgan mustaqil faoliyat yurituvchi maxsus organ-Korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha tergov byurosi hisoblanadi. Byuro o'z vazifasiniamalga oshirishda quyidagilarni bajaradi:

- u davlat va xususiy sektorda korrupsiyani oldini olish yuzasidan o'rganishlar o'tkazadi;
- u hukumatamaldorlarining o'z mansabida suiiste'mollikka yo'l qo'yish kabi holatlarni tekshirib, mas'ul organlarni xabardor qiladi;
- u boshqaruvdagi kamchiliklarnianiqlash maqsadida davlat organlarining ish yuritish uslubini o'rganadi,agarda ushbu tizimda bo'shliqlar mavjud bo'lib, korrupsiya yoki mansab suiiste'molligiga sabab bo'lsa, zudlik bilan ushbu bo'linma rahbarlariga choralar ko'rishga maslahat beradi.

Shuningdek, Singapur bu illat bilan kurashishda "insonni korrupsiyaga undaydigan holatlarni yo'q qilish"ni asosiy g'oya sifatida ilgari suradi. Bunday g'oyaniamalga oshirish uchun bir nechta prinsiplar mavjud:

Korrupsiyaga qarshi samarali kurash olib borib, korrupsiya ko'rsatgichi bo'yicha yaxshigina natijalarni qayd etayotgan mamlakatlar qatorida Latviyaning yuritayotgan siyosatini hamalohida ta'kidlashimiz lozim. Latviya bunday natijaga,avvalo, mamlakatdaantikorrupsiyaviy ta'limni joriy etishga jiddiy e'tibor berib, ushbu tizimni maktablardan to oliy o'quv yurtlarigacha tatbiq etishga muvaffaq bo'lish orqali erishgan. Latviya ta'lim tizimida yoshlar o'rtasida halollik va vijdonli bo'lishni targ'ib qilishga, korrupsiya va poraxo'rlikning zararlari haqidagi tushunchalarni shakllantirishga imkon beradigan loyiha ham ishlab chiqqan. Mazkur loyiha doirasida maktab o'quvchilari orasida turli xildagi tadbirlar, jumladan, boshlang'ich sinf o'quvchilariga noinsoflik, vijdonsizlikaks etgan multifilmlar yoki ertaklar ijro etilib, ularning fikrlashlari uchun muhokamaga tashlanadi. Barcha o'quvchilarning fikrlari yozib olinib, tanlovlarga jo'natiladi. Tanlov "Korrupsiyaga qarshi birgalikda" shiori ostida o'tkaziladi.

Yana shuningdek, Latviyada har yili mamlakat hududi bo'ylab korrupsiyaga qarshi kurash masalasiga bag'ishlangan semenarlar o'tkaziladi. Bunday semenar treninglar shunchaki qog'ozbozlik yoki ko'zbo'yamachilik uchungina tashkil qilinmasdan, maxsusantikorrupsiyaviy mexanizmlarni ishlab chiqishga qaratilgan bo'ladi.

Latviyada korrupsiyaga qarshi kurashdaasosiy omil budavlatda siyosiy irodaning mavjudligi bilan izohlanadi. Mamlakatda faoliyat yuritayotgan Korrupsiyaga qarshin kurash va uni oldini olish byurosi (KNAB) faoliyat yuritib, unga quyidagi vazifalarniamalga oshiradi:

- u korrupsiya bilan bog'liq jinoyatlarni oshkor qilish va bartaraf etish;
- u ushbu sohada tergov harakatlariniamalga oshirish va jinoiy ta'qibni muvofiqlashtirish;
- u mansabdor shaxslarni faoliyatini kuzatib borish, ularga nisbatan qo'llanilgan cheklov va ta'qiqlarni nazoratga olish;
- u manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq holatlarda shaxslarni javobgarlikka tortish;
- u korrupsiyani oldini olish va unga qarshi kurashishda qonunchilikni tahlil qilish.

Shu bilan bir qatorda markur byuro tomonidanamalga oshirilgan bir nechta ishlar, jumladan, 2019-yil sentabrda Latviyaning sobiq prezidenti Raymond Beyonisni korrupsiyaviy qilmishi yuzasidan guvoh sifatida tergov qilganligi, ya'na bir sobiq president Vayra Vike-Freybergani sovg'a sifatida qabul qilgan 850 yevrolik RADO soatini o'zlashtirganligi yuzasidan tekshirish o'tkazganligi hamda Riga dumasida shahar budjetidan 20mln yevro noto'g'ri sarf qilinganlagi bilan bog'liq holatlar bo'yicha tintuv o'tkazilganligi kishini hayratga soladi. Bunday ishlarniamalga oshirilayotganligi haqiqatdan ham mazkur byuroning mustaqil,adolatli faoliyat yuritishidan dalolat beradi. O'z navbatida mamlakatda bunday siyosatning yuritilishi korrupsiyani ildiziga bolta urishga zamin yaratadi.

Korrupsiyaviy jinoyatlar uchun javobgarlik masalalari, bunday turdagi jinoyatlarni oldini olish hamda bartaraf etish bo'yicha rivojlangan davlatlar tajribasini o'rganar ekanmiz, har

bir mamlakat olib borayotgan siyosatidan kelib chiqib, o'ziga xos yo'lni tanlayotganligiga guvoh bo'lishimiz mumkin.ayrim mamlakatlarda jinoyatning xavflilik darajasidab kelib chiqib, jarima jazosidan ozodlikni mahrum qilishgacha, ba'zilarida esa, ozodlikdan mahrum qilishdan o'lim jazosiga javobgar chorasi belgilab berilgan.

Shuningdek, yuqorida tahlil qilingan rivojlangan davlatlarning deyarli hammasida korrupsiya bilan bog'liq jinoyatlarning aniq ro'yxati belgilangan bo'lib, ushbu jinoyatlarning ijtimoiy xavfliligi va ularni sodir etgan shaxslarning egallab turgan lavozimi, jamiyatdagi o'rniga qarab jazo tayinlanadi va bu jazoningadolatliligi, odilligi kabi prinsiplarning to'g'ri qo'llanishiga, jamiyatda korrupsiyaning eng past darajaga tushirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari ko'pgina xorijiy mamlakatlar korrupsion jinoyatlarni oldini olish maqsadida mansabdor shaxslarning mol-mulkini majburiy deklaratsiya qilish, barcha sohalarda jamoatchilik nazoratiniamalga oshirish hamda davlat tashkilotlari tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlarning elektron tartibdaamalga oshirish tizimi yo'lga qo'ygan. Bunday usullarningamaliyotga tatbiq qilish hamda aholining mazkur sohadagi huquqiy ongini yuklashtirish orqali korrupsiyaga qarshi samarali kurashish mumkin.

Nazorat uchun savollar:

1. Korrupsiya tushunchasini izohlang. Uning asosiy shakllari va xususiyatlari qanday?
2. Korrupsiyaning jamiyat va iqtisodiyotga ta'siri qanday bo'ladi? Ularning salbiy oqibatlarini tahlil qiling.
3. Korrupsiyaning davlat tizimi va fuqarolar o'rtasidagi ishonchga ta'siri qanday?

4. Korrupsiyaga qarshi kurashish uchun samarali mexanizmlar nimalardan iborat?

5. Xalqaro tashkilotlarning korrupsiyaga qarshi kurashishda qanday roli mavjud?

6. Milliy qonunlar va normativ hujjatlar korrupsiyaga qarshi qanday choralarni ko'radi?

7. Korrupsiyani oldini olish va unga qarshi kurashishda qanday ta'lim va tarbiya metodlari samarali hisoblanadi?

8. Korrupsiyaning turli ijtimoiy guruhlar va davlatning rivojlanishiga bo'lgan ta'siri haqida misollar keltiring.

Nazorat savollari

1. Korruptsiyaning mohiyatini tushuntirib bering.
2. Korruptsiyaga qarshi kurashish borasida qaysi davlatlarning tajribasini bilasiz?
3. Korruptsiyaga qarshi kurashishda jamoatchilik nazoratining o'rni qanday?
4. Korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha qaysi xalqaro normativ-huquqiy hujjatlarni bilasiz?
5. Korruptsiyaning qanday turlarini bilasiz?

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining "Korruptsiyaga qarshi kurashish to'g'risida»gi O'RQ-419sonli Qonuni. 2017 yil 3 yanvar.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida korruptsiyaga qarshi kurashish agentligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida»gi PQ – 4761 sonli Qarori. 2020 yil 29 iyun.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 29.12.2020. https://president.uz/uz/lists/view/4057.
4. Nurmuhamedova G.B. Korrupsiyaga qarshi kurashishda jamoatchilik nazoratining ahamiyati. Huquqiy tadqiqotlar jurnali. 2017 №6. B. 82.

5. Hamidov B. O'zbekistondagi korruptsiya xavfi bo'lgan sohalar // Ekonomicheskoye obozreniye №4 (244) 2020

Internet saytlari:

1. www...ziyo net.uz
2. www...faylasuf.uz
3. Sports...ru

TESTLAR

1. Jamiyatning asosiy xususiyatlari qanday?

A) Yalpi iqtisodiy o'sishB) Odamlarning o'zaro munosabatlari

C) Tabii resurslar

D) Hududiy chegaralar

To'g'ri javob: B) Odamlarning o'zaro munosabatlari

2. Ontologiya nima haqida o'rganadi?

A) Bilimning manbai

B) Borliq va uning tuzilishi

C) Axloqni o'rganish

D) Xulq-atvorni tahlil qilish

To'g'ri javob: B) Borliq va uning tuzilishi

3. Formal mantiqning asosiy printsipi qaysi quyidagi xulosa chiqarish shaklini o'z ichiga oladi?

A) A+B = C

B) A → B

C) If I am right, you are wrong

D) A va B ning ortiqcha kombinatsiyasi

To'g'ri javob: B) A → B

4. Insonning ongining kelib chiqishi haqida qanday yondashuvlar mavjud?

A) Tabiiy va diniy

B) Falsafiy va biologik

C) Ilmiy va o'zgarishlar asosida

D) Tanqidiy va tahliliy

To'g'ri javob: B) Falsafiy va biologik

5. Etika fani nimani o'rganadi?

A) Bilimlarni shakllantirish

B) Axloq va xulq-atvorni

C) Xalqaro munosabatlarni

D) Iqtisodiy tizimlarni

To'g'ri javob: B) Axloq va xulq-atvorni

6. Globalizatsiyaning ijtimoiy sohadagi ta'siri nima?

A) Milliy hukumatlarning kuchayishi

B) Global miqyosdagi o'zgarishlar va aloqalar

C) Bir davlatning avtonomiyasining oshishi

D) Mahalliy iqtisodiyotning rivojlanishi

To'g'ri javob: B) Global miqyosdagi o'zgarishlar va aloqalar

7. Korrupsiyaning oqibatlari nimalar bo'lishi mumkin?

A) Iqtisodiy barqarorlikning oshishi

B) Fuqarolar ishonchining yo'qolishi

C) Hukumat tizimining kuchayishi

D) Madaniyatning rivojlanishi

To'g'ri javob: B) Fuqarolar ishonchining yo'qolishi

8. Sivilizatsiya tushunchasi nima?

A) Faqat diniy qadriyatlar to'plami

B) Yangi texnologiyalar va ijtimoiy tizimlarning rivojlanishi

C) Qadimgi xalqlarning madaniyatining tarixi

D) Madaniyat va jamiyatning o'zaro aloqasi

To'g'ri javob: B) Yangi texnologiyalar va ijtimoiy tizimlarning rivojlanishi

9. Korrupsiyaning asosiy oqibatlari qanday?

A) Siyosiy ishonchning oshishi

B) Fuqarolarning davlat tizimiga ishonchsizligi

C) Milliy iqtisodiyotning barqarorligi

D) Madaniyatning yuksalishi

To'g'ri javob: B) Fuqarolarning davlat tizimiga ishonchsizligi

10. Jamiyat rivojlanishining asosiy omillari nimalardan iborat?

A) Faoliyat turlari, iqtisodiy tizimlar va texnologik o'zgarishlar

B) Madaniyat, odamlar va resurslar

C) Odamlar, qonunlar va iqtisodiy tizimlar

D) Odamlar, madaniyat va xulq-atvor

To'g'ri javob: A) Faoliyat turlari, iqtisodiy tizimlar va texnologik o'zgarishlar

11. Estetika qanday tushunchani o'rganadi?

A) Jismoniy go'zallik va tabiatni anglash

B) Ijodkorlik va san'atning mohiyati

C) Odamlarning ijtimoiy aloqalari

D) Fan va texnologiyaning yuksalishi

To'g'ri javob: B) Ijodkorlik va san'atning mohiyati

12. Epistemologiya qanday fan?

A) Bilim va haqiqatining kelib chiqish va tabiati haqida o'rganadi

B) Tabii qonunlar va ijtimoiy tizimlar haqida o'rganadi

C) Falsafiy tafakkur va mulohazalar bilan bog'liq

D) Falsafa fanining asosiy metodlarini o'rganadi

To'g'ri javob: A) Bilim va haqiqatining kelib chiqish va tabiati haqida o'rganadi

13. Mantiqiy qarorlar qaysi tizim orqali amalga oshiriladi?

A) Ilmiy kuzatuvlar va statistik tahlillar

B) Mantiqiy mulohazalar va aql-idrok

C) Diniy qarashlar va amaliyotlar

D) Aql va mantiqiy yondashuvlar asosida\

To'g'ri javob: B) Mantiqiy mulohazalar va aql-idrok

14. Insonning ongini qanday tushunish mumkin?

A) U faqat biologik jarayonlarning natijasi sifatida shakllanadi

B) U odamning ruhiy va aqliy faoliyatining mahsuli sifatida namoyon bo'ladi

C) U faqat diniy e'tiqodlar va tajriba orqali shakllanadi

D) U faqat tabiat qonunlariga bog'liq

To'g'ri javob: B) U odamning ruhiy va aqliy faoliyatining mahsuli sifatida namoyon bo'ladi

15. Etikaning asosiy vazifasi qanday?

A) Iqtisodiy tizimlarni va ijtimoiy tuzilmalarni rivojlantirish

B) Axloqiy qoidalar va me'yorlar asosida insonlarning xulq-atvorini shakllantirish

C) Milliy madaniyatlarni rivojlantirish

D) Madaniyat va san'atni shakllantirish

To'g'ri javob: B) Axloqiy qoidalar va me'yorlar asosida insonlarning xulq-atvorini shakllantirish

16. Globalizatsiyaning qanday ijtimoiy oqibatlari bor?

A) Milliy hukumatlar kuchayadi

B) Xalqaro savdo va kommunikatsiyalar rivojlanadi

C) Barcha mamlakatlar tenglashadi

D) Madaniy tafovutlar kamayadi

To'g'ri javob: B) Xalqaro savdo va kommunikatsiyalar rivojlanadi

17. Korrupsiyaning oqibatlari qaysi bo'lishi mumkin?

A) Hukumatning kuchayishi va siyosiy barqarorlik

B) Fuqarolarning ishonchsizligi va davlat tizimiga nisbatan norozilik

C) Iqtisodiy inqirozning oldini olish

D) Madaniyatning yuksalishi

To'g'ri javob: B) Fuqarolarning ishonchsizligi va davlat tizimiga nisbatan norozilik

18. Sivilizatsiya haqida qanday qarashlar mavjud?

A) Faqat diniy yondashuvlar asosida rivojlanadi

B) Ijtimoiy, madaniy va ilmiy o'zgarishlarning umumiy jarayoni sifatida tushuniladi

C) Faqat iqtisodiy o'sish bilan bog'liq

D) Bu faqat bir-birini o'rganish jarayonidir

To‘g‘ri javob: B) Ijtimoiy, madaniy va ilmiy o‘zgarishlarning umumiy jarayoni sifatida tushuniladi

19. Sog‘lom avlod tarbiyasining asosiy tamoyillari nima?

A) Tezkor o‘qitish va o‘rganish

B) Ilm-fan va madaniyatning yuksalishi

C) O‘z-o‘zini anglash va jismonîy faollik

D) Faqat iqtisodiy taraqqiyot

To‘g‘ri javob: C) O‘z-o‘zini anglash va jismoniy faollik

20. Mantiqiy tafakkurning asosiy komponentlari qanday?

A) Oddiy mulohazalar va izchil fikr yuritish

B) Tushuncha, hukm va dalil

C) Shubha va mulohazalar

D) Analitik fikrlash va ijodkorlik

To‘g‘ri javob: B) Tushuncha, hukm va dalil

21. Falsafaning «ontologiya» bo‘limi qaysi masalalarni o‘rganadi?

A) Insonning axloqiy masalalari

B) Borliqning mohiyati va tabiati

C) Jamiyatdagi o‘zgarishlar

D) Bilimning manbalari

To‘g‘ri javob: B) Borliqning mohiyati va tabiati

22. Falsafaning «epistemologiya» bo‘limi nima haqida?

A) Insonning bilish jarayonini o‘rganadi

B) Ijtimoiy adolatni tushunadi

C) Jamiyatdagi axloqiy qadriyatlarni tahlil qiladi

D) Tabiat va jamiyat o‘rtasidagi aloqalarni o‘rganadi

To‘g‘ri javob: A) Insonning bilish jarayonini o‘rganadi

23. Hangi falsafiy oqim insoniyatni axloqiy va ma'naviy jihatdan rivojlantirishga e'tibor qaratadi?

A) Hedonizm

B) Pragmatizm

C) Stoizm

D) Idealizm

To‘g‘ri javob: C) Stoizm

24.»Tabiatshunoslik» va «falsafiy izlanish» o‘rtasidagi asosiy farq nima?

A) Tabiatshunoslik faqat tabiiy hodisalar bilan shug‘ullanadi, falsafa esa ijtimoiy va axloqiy masalalar bilan

B) Falsafa faqat tabiatni o‘rganadi, tabiatshunoslik esa ijtimoiy hayotni

C) Tabiatshunoslik va falsafaning o‘rtasida hech qanday farq yo‘q

D) Tabiatshunoslik faqat matematik hodisalarni tahlil qiladi, falsafa esa barchani

To‘g‘ri javob: A) Tabiatshunoslik faqat tabiiy hodisalar bilan shug‘ullanadi, falsafa esa ijtimoiy va axloqiy masalalar bilan

25. Falsafada «materializm»ning mohiyati nima?

A) Inson ongining tabiatga bog‘liq ekanligini inkor etish

B) Borliqni faqat moddiy shakllarda tushunish

C) Faqat ruhiy va ma'naviy tushunchalarni e'tirof etish

D) Faoliyatning ijtimoiy shakllarini o‘rganish

To‘g‘ri javob: B) Borliqni faqat moddiy shakllarda tushunish

26. Falsafada «idealizm» nima?

A) Tabiatni va insonni o‘rganishdagi materialistik yondashuv

B) Ruhiy va g‘oyaviy hodisalarga katta ahamiyat berish

C) Ijtimoiy tizimlarni moddiy nuqtai nazardan o‘rganish

D) Insonni axloqiy nuqtai nazardan rivojlantirish

To‘g‘ri javob: B) Ruhiy va g‘oyaviy hodisalarga katta ahamiyat berish

27. «Dialektika» falsafasida qanday asosiy tushuncha mavjud?

A) O'zgarish va rivojlanishning qarama-qarshiliklar orqali amalga oshishi

B) Faqat bir xil shakllarda rivojlanish

C) Inson ongining to'g'ri yo'nalishi

D) Jamiyatning tenglikni ta'minlash

To'g'ri javob: A) O'zgarish va rivojlanishning qarama-qarshiliklar orqali amalga oshishi

28. "Hedonizm"ning asosiy g'oyasi nima?

A) Inson hayoti faqat axloqiy xulq-atvor asosida ma'naviy rivojlanishi kerak

B) Insonning maqsadi quvonch va zavq olishdir

C) Insonning asosiy maqsadi ijtimoiy hayotni muvozanatlash

D) Faqat intellektual rivojlanish zarur

To'g'ri javob: B) Insonning maqsadi quvonch va zavq olishdir

29. "Pragmatisizm" falsafasining asosiy g'oyasi nima?

A) Hayotdagi har bir hodisa ma'naviy rivojlanishga yordam beradi

B) Barcha amallarni foydalilik nuqtai nazaridan baholash

C) Har bir fikr va g'oya tabiatga ta'sir qiladi

D) Falsafa faqat ijtimoiy tuzilmalar bilan bog'liq

To'g'ri javob: B) Barcha amallarni foydalilik nuqtai nazaridan baholash

30. Falsafada «existentsializm» qaysi masalani o'rganadi?

A) Inson hayotining ma'nosi va erkinligi

B) Tabiat va jamiyatning uyg'unligi

C) Madaniy taraqqiyotning o'rni

D) Aqliy rivojlanishning qadriyatlari

To'g'ri javob: A) Inson hayotining ma'nosi va erkinligi

31.»Empirizm» qanday falsafiy yo'nalish?

A) Bilimning asosiy manbai tajriba va kuzatish

B) Ijtimoiy institutlarni o'rganish

C) Axloqiy me'yorlarni belgilash

D) Jismoniy kuchlarga ta'sir etish

To'g'ri javob: A) Bilimning asosiy manbai tajriba va kuzatish

32.Falsafada «sokratik dialektika» nima?

A) Ruhiy va intellektual rivojlanishning asosiy yo'li

B) Inson ongining bevosita ilmiy rivojlanishi

C) Savol-javob metodiga asoslangan tafakkur jarayoni

D) Har bir insonning falsafiy bilimi

To'g'ri javob: C) Savol-javob metodiga asoslangan tafakkur jarayoni

33.Falsafiy «g'oya»ning mohiyati nima?

A) Ijtimoiy o'zgarishlar va inqiloblarni yaratish

B) Har bir insonning shaxsiy xulq-atvori

C) Yangi bilim va yondashuvlarning ifodasi

D) Xuddi shunday amallarni takrorlash

To'g'ri javob: C) Yangi bilim va yondashuvlarning ifodasi

34.»Humanizm» falsafasi qaysi yondashuvga asoslanadi?

A) Insonning eng yuqori qadriyat ekanligini ta'kidlaydi

B) Faqat ilmiy nuqtai nazarga tayanadi

C) Yalpi diniy qarashlarga asoslanadi

D) Hayotni faqat iqtisodiy jihatdan tahlil qiladi

To'g'ri javob: A) Insonning eng yuqori qadriyat ekanligini ta'kidlaydi

35.»Aksiologiya» falsafasi nima bilan shug'ullanadi?

A) Axloq va yuksak qadriyatlarni o'rganadi

B) Borliq va vaqtni tahlil qiladi

C) Bilim va tajribani o'rganadi

D) Inson ruhining mohiyatini o'rganadi

To'g'ri javob: A) Axloq va yuksak qadriyatlarni o'rganadi

GLOSSARIY

Agnostitsizm – inson obyektiv borliqni to'liq bilishi mumkin emas, deb hisoblaydigan falsafiy ta'limot.

Antissientizm – fanning jamiyat hayotidagi roli vaahamiyatini salbiy baholaydigan falsafiy nuqtai nazar.

Antropogen – inson faoliyati bilan bog'liq.

Antropotsentrizm – dunyoni bilishda insonni ustun qo'yuvchi falsafiy yondashuv.

Aprior – tajribadan tashqarida. Inson tafakkurida tajribada ko'rilgunga qadar, tajribadan qat'iy nazar paydo bo'lgan obraz, g'oya, tushuncha.

Ateizm – xudoning borligini inkor etuvchi falsafiy nuqtai nazar.

Atribut – xossa.

Belgi – boshqa bir predmet, xossa yoki munosabatni ifodalaydigan va muayyan xabarni uzatish, saqlash yoki unga ishlov berishda ishlatiladigan moddiy, hissiy idrok etiladigan predmet.

Garmoniya – bir butun narsa qismlarining o'zaro muvofiqligi.

Germenevtika – falsafada – tarix, madaniyatni, o'zga individuallikni tushunish san'ati.

Gipotetik – ehtimol tutilgan, faraz qilingan, taxmin (gipoteza)gaasoslangan.

Globallashuv – ijtimoiy hayotning turli jabhalarida yaxlit tuzilmalarning dunyo miqyosida shakllanish jarayoni.

Globalistika – globallashuv va uning oqibatlari mohiyatinianglab etishga qaratilgan ilmiy va falsafiy tadqiqotlar fanlararo sohasi.

Gnoseologiya – bilish nazariyasi.

Deduksiya – tadqiqot yoki tavsiflash metodi, usuli bo'lib, bundaayrim qoidalar umumiy xulosalar,aksiomalar, qoidalar, qonunlardan tadrijiy yo'l bilan keltirib chiqariladi.

Dezintegratsiya – butunningayrim qismlarga parchalanishi.

Deizm – Xudo dunyoni yaratgach, unda ishtirok etmaydi va uning voqealari tabiiy kechishigaaralashmaydi, deb hisoblaydigan falsafiy nuqtai nazar.

Determinizm – barcha voqealar va hodisalarning qonuniyligi va sababiy bog'langanligi haqidagi falsafiy ta'limot.

Dialektika – harakat, rivojlanish, o'zgarish haqidagi falsafiy ta'limot.

Diskret – uzlukli.

Differensiatsiya – butunning turli-tuman qismlar, bosqichlar, shakllarga bo'linishi, parchalanishi,ajralishi.

Ideal – mutlaq barkamollik, bunday barkamollik haqidagi tasavvur.

Ierarxiya – bir narsaning funksionalahamiyati yoki xizmat mavqeiga ko'ra ikkinchi narsaga, uchinchi narsaga va hokazolarga bo'ysunishi.

Izotrop – barcha yo'nalishlarda bir xil.

Indeterminizm – determinizmga qarama-qarshi ta'limot.

Integratsiya – birlashish, birikish, yaxlit bir butunning shakllanishi.

Introvertiv – o'ziga, o'z ichki dunyosiga qarab mo'ljal oluvchi.

Imitatsiya – taqlid qilish, soxtalashtirish.

Axborot inqilobi – fan-texnika inqilobining rivojlanish bosqichi bo'lib, bundaaxborot o'ta muhim resursgaaylanadi.

Irratsionalizm – borliqni oqilona mantiqiy bilish imkoniyatini rad etuvchi nuqtai nazar.

Kauzallik – sababiyat, sabab va oqibatning qonuniyaloqasi.

Kommunikatsiya (keng ma'noda) – muloqot.

Ekzistensializmda – muloqot turi bo'lib, uning yordamida «Men» o'zini boshqa odamda topadi.

Konstitutsiyalash – yaratish, belgilash, muayyan tashkiliy tus berish.

Konsyumerizm – iste'mol qilishga bo'lgan kuchli ehtiyoj.

Koevolyusiya – birgalikda tadrijiy rivojlanish.

Kreatsionizm – butun borliqni Xudo yaratgan deb hisoblaydigan diniy ta'limot.

Materializm – dunyoning moddiyligidan va ongdan qat'iy nazar mavjudligidan kelib chiqadigan falsafiy yo'nalish

Metafizika – Gegeldan oldingi va hozirgi G'arb falsafasida borliqning o'ta hissiy tamoyillari vaasoslari haqidagi fan. Falsafaning sinonimi sifatida ishlatiladiganatama.

Metodologiya – metod haqidagi ta'limot, bilishning yangi metodlarini yaratish tamoyillarini ishlab chiqish.

Mistika – sirli, g'ayritabiiy, tushunarsiz narsa yoki hodisa.

Moddiylashtirish – ma'no strukturalari, sxemalar, loyihalarning inson faoliyatida gavdalanishi.

Modus – predmetning ungaayrim holatlardagina xos bo'lgan muvaqqat xossasi.

Monizm – plyuralizmga zid o'laroq, muayyan birasosdan kelib chiqadigan falsafiy yondashuv.

Negativ – salbiy, biror narsaga zid.

Noumen – mushohada yo'li bilananglash mumkin bo'lgan mohiyat.

Noosfera – aql-idrok sohasi yoki biosferaning shunday bir holatiki, bunda odamlarning oqilona faoliyati biosfera rivojlanishining muhim omiligaaylanadi.

Obraz – amaliy faoliyat va bilish jarayonida shakllangan hissiy yoki oqilona tasavvur.

Okkultizm – maxsus ruhiy mashqlar,alohida marosimlar orqaliayrim insonlargina bila oladigan koinotda sirli kuchlar mavjudligini e'tirof etuvchi ta'limot.

Oppozitsiya - qarshi harakat, muayyan narsaga ochiqdan-ochiq yoki zimdan qarshilik ko'rsatish.

Panteizm – Xudoni tabiat bilan tenglashtiruvchi falsafiy ta'limot.

Paradigma – mazkur davrda ilmiy hamjamiyat tomonidan e'tirof etilgan muayyan ilmiy tadqiqot yo'nalishini belgilovchi prinsiplar majmui.

Passionar – ichki energiyaga egalik yoki o'ta g'ayratlilik.

Permanent – doimiy, uzluksiz.

Persepsiya – idrok etish.

Ratsionalizm –aqlni bilish va odamlar xulq-atvorining negizi deb e'tirof etadigan falsafiy yo'nalish.

Reduksionizm – murakkab narsa yoki hodisani soddaroq narsa yoki hodisaga bog'lash.

Relyativizm – bizning barcha bilimlarimiz, qadriyatlarimiz va xulosalarimizni nisbiy, shartli deb hisoblaydigan falsafiy yondashuv.

Refleksiya – o'z fikrlari va kechinmalarini tahlil qilishga qaratilgan mulohaza.

Sakral – muqaddas.

Sensualizm – hissiy bilishning rolini oqilona bilishningahamiyatidan ustunroq qo'yuvchi falsafiy yo'nalish.

Simvol – biron-bir g'oyani ifodalovchi belgi, obraz.

Sinkretizm - qismlargaajralmaganlik, biron-bir hodisaning noraso holati bilan belgilanadigan har xil jinsli elementlarningaralashuvi.

Skeptitsizm – inson bilimining ishonchliligiga shubha bildiruvchi va barcha haqiqatlarni nisbiy deb e'lon qiluvchi falsafiy konsepsiya.

Stereotip – ko'pincha jamiyat tomonidan faol ilgari suriladigan va individ tanqidsiz qabul qiladigan borliqning nisbatan barqaror va soddalashtirilgan obrazi.

Substansiya – birinchiasos, barcha narsalar va hodisalarning mohiyati.

Ssientizm – madaniyat tizimida, jamiyat hayotida fan rolini mutlaqlashtirish.

Tabu – biron-bir narsa, harakat, so'zga nisbatan belgilanadigan diniy taqiq.

Teologiya – diniy ta'limotlar tizimi.

Teotsentrizm – dunyoni tushunish markaziga Xudoni qo'yuvchi falsafiy yondashuv.

Texnogen – texnika bilan bog'liq, uning ta'siri bilan belgilangan.

Texnokratik – texnikani birinchi o'ringa qo'yuvchi.

Texnooptimizm – turli muammolarni echishda fan-texnika taraqqiyotining rolini oshirib ko'rsatuvchi falsafiy yondashuv.

Texnopessimizm – fan-texnika taraqqiyotini jamiyat va tabiat tanazzulining manbai va omili deb e'lon qiluvchi falsafiy yondashuv.

Texnotron jamiyat – kompyuter inqilobi bosqichiga kirgan jamiyat.

Transsendental – o'ta umumiy

Universum – yagona Olam, yaxlit dunyo.

Fauna – barcha turdagi hayvonlar majmui.

Fenomen – insonga hissiy bilish tajribasida berilgan hodisa.

Fenomenologiya – bevosita kuzatish mumkin bo'lgan ideal mohiyatlar sifatidagi fenomenlar haqidagi falsafiy ta'limot.

Flora – o'simliklar dunyosi.

Fluktuatsiya – o'zgarish, belgilangan parametrlardan tasodifiy og'ish.

Futurologiya – kelajak haqidagi fan.

Evolyusion epistemologiya – bilishni jonli tabiat evolyusiyasining momenti va uning mahsuli sifatida o'rganuvchi fan.

Evristik – ijodiy, noma'lum narsalar va hodisalarni bilishda sakrashniamalga oshiruvchi.

Egalitarizm – umumiy tenglikni targ'ib qiluvchi g'oyaviy-siyosiy oqim.

Ekzistensializm – diqqat markazida hayotning ma'nosi, inson erkinligi va mas'uliyati muammolari turuvchi falsafiy yo'nalish.

Ekologiya – jonli mavjudotlarning o'zini qurshagan muhit bilan o'zaro munosabatlari haqidagi fan.

Ekologik muammo – jonli organizmlarningatrof muhit bilan muvozanatining buzilishi.

Ekologik tanglik – ekologik muammoning keskinlashuvi, bunda uning oqibatlari orqaga qaytarib bo'lmaydigan xususiyat kasb etadi.

Eksplikatsiya – u yoki bu predmet (yoki madaniyat obyekti)ning mohiyatinianiqlash, uning mazmunini keng tavsiflash.

Ekstravertiv – sirtga qaratilgan.

Empirizm – hissiy idrok etish va tajribani bilishningasosiy manbai deb hisoblaydigan falsafiy ta'limot.

Empirik – tajribada ko'rilgan.

Etimologiya – u yoki bu so'z yoki iboraning kelib chiqishi.

Epistemologiya – bilish haqidagi falsafiy ta'limot.

Etnogenez – xalqlar yoki millatlarning kelib chiqishi.

O‘z imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish – o‘zining betakror mohiyatini faoliyatda namoyon etuvchi va gavdalantiruvchi har bir individaxloqiy faoliyatining maqsadi.

Falsafa - «filosofiya» so‘zidan olingan bo‘lib, «donishmandlikni sevaman» degan ma’noni anglatadi («filo» - sevaman, «sofiya» - donolik).

Faylasuf - qadimgi Sharq va Yunonistonda har tomonlama chuqur bilim va katta hayotiy tajribaga ega bo‘lgan, inson ma’naviyatini boyitish va haqiqatni bilishga intiluvchi kishilarni faylasuf deb ataganlar.

XULOSA

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning ta’limga oid qo‘ygan maqsad va prinsiplari, shuningdek, mamlakatdagi ta’lim sohasini rivojlantirishga qaratilgan qarorlar ta’limning muhimligini, uning zamonaviy talablar bilan moslashishi zarurligini ko‘rsatadi. Prezidentning ta’limga oid fikrlari O‘zbekistonning kelajagi uchun mustahkam poydevor yaratishda muhim o‘rin tutadi.

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni ta’limni inson hayotining asosiy yo‘nalishlaridan biri sifatida qabul qiladi va unga muhim huquqiy asoslar yaratadi. Qonunda ta’limning insonni jamiyatga foydali shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qilishi, axloqiy va intellektual rivojlanishga erishish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, ta’lim tizimining barqaror va samarali rivojlanishiga katta ahamiyat berilgan.

Shavkat Mirziyoyev 2017 yilda ta’lim sohasini rivojlantirishga qaratilgan muhim qaror qabul qildi. Uning ko‘ra, ta’lim sifati va uning zamonaviy talablar bilan mosligini ta’minlash maqsadida pedagogik kadrlarning malakasini oshirish, ta’limda innovatsion texnologiyalardan foydalanishga alohida e’tibor qaratish lozim. Prezident ta’limni o‘zgartirishda davlatning muhim vazifalaridan biri sifatida zamonaviy va ilg‘or ta’lim tizimini shakllantirishga intilishni ta’kidlab, ta’limni, shu jumladan, har bir davlat ishining asosiga aylantirish zarurligini ko‘rsatgan.

Shavkat Mirziyoyevning ta’limga oid quyidagi sitatasi bizga ta’limning yosh avlod uchun katta ahamiyatini yorib beradi:

“Yuksak ilmu fan bilan kuchli davlat barpo etish uchun ta’limni rivojlantirishni maqsad qilib qo‘yishimiz kerak. Ta’lim

jamiyatning rivoji, iqtisodiy o'sishi va yangi avlodning tarbiyalanishida muhim o'rin tutadi"[6].

Bu fikrlardan kelib chiqib, ta'limning jamiyatdagi o'rni juda muhim ekanligi, har bir shaxsning intellektual va axloqiy taraqqiyotini ta'minlash, mamlakatning taraqqiyoti va global raqobatdoshligini oshirish uchun ta'lim tizimidagi islohotlar talab etilishini ko'ramiz.

Shavkat Mirziyoyevning ta'limga oid faoliyati va qabul qilingan qarorlari bilan bog'liq bir necha muhim omillarni ta'kidlash mumkin:

1. Innovatsion ta'lim tizimini yaratish: Buning natijasida zamonaviy pedagogik metodlar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish joriy etilayotgani ta'lim sifatini oshirishga yordam bermoqda.

2. Pedagoglarning malakasini oshirish: Pedagogik kadrlarning malakalarini yaxshilash maqsadida maxsus treninglar va malaka oshirish kurslari tashkil qilinmoqda.

3. Yoshlarni ta'lim va kasbiy tayyorgarlikning ahamiyati: Prezidentning ta'kidlashicha, yoshlarning kelajagi ta'limga bog'liq, shu bois, ularning bilim olishlarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash kerak.

O'zbekistonda ta'limga bo'lgan e'tibor va qo'yilgan maqsadlar mamlakatda ilg'or va kuchli ta'lim tizimini yaratishga qaratilgan. Prezident Mirziyoyevning ta'lim haqidagi siyosatlari, qo'yilgan maqsadlar va qabul qilingan qarorlar esa umumiy o'qish, ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishga ko'maklashishga yo'naltirilgan.

[6] Mirziyoyev Sh. "Yuksak ilmu fan bilan kuchli davlat barpo etish uchun ta'limni rivojlantirishni maqsad qilib qo'yishimiz kerak." *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Nutqi*, 10-may, 2017 yil, Xalq So'zi gazetasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy sayti https://president.uz/.

FOYDALANILGANADABIYOTLAR RO'YXATI

Asosiy adabiyotlar

1. Shermuhamedova N. Falsafa, darslik – Toshkent: Idris Abdurauf nashr, 2021.667-b.

2. Davronov Z., Shermuhamedova N, Qahharova M, Nurmatova M, Husanov B, Sultonova A. Falsafa, o'quv qo'llanmasi – Toshkent: TMU, 2019. – 375 b

3. Saifnazarov I., Muxtorov A., Ernazarov D, Usmonov F. Falsafa, o'quv qo'llanmasi – Toshkent: Innovasion rivojlanish nashriyot –matbaa uyi, 2021. – 424 b.

4. Madaeva Sh., Shermuhamedova N.va boshqalar Falsafa, o'quv qo'llanmasi. – Toshkent: 2019

5. Чумаков А.Н. Философия, учебник.– М.: INFRA. 2018.– 320 с.

Qo'shimcha adabiyotlar

6. Mirziyoyev Sh. "Yuksak ilmu fan bilan kuchli davlat barpo etish uchun ta'limni rivojlantirishni maqsad qilib qo'yishimiz kerak." *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Nutqi*, 10-may, 2017 yil, Xalq So'zi gazetasi.

7. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. –Toshkent: O'zbekiston, 2022. – 416 b.

8. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon demokratik davlatini birgalikda quramiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2021

9. Muxammadjonova L.A. Davlat xizmatchisi etikasi va imidji. – Toshkent: Universitet, 2017.

10. Ўзбекистоннинг коррупцияга қарши кураш стратегияси / Алиев Б, Мухтаров А., Норов Т., / ўқув қўлланма. – Тошкент: ТДИУ, 2022. –320 б.

11. Nishonova O.Dj. O'zbek etnomadaniyatining estetik xususiyatlari. – Toshkent: Universitet, 2023

12. Раматов Ж. Лойко А., Жоголь Н., Кушаков Ф. Основные проблемы философии. –Ташкент: 2022

13. Саифназаров И. Мухтаров А., Абдуллаханова Г, Алиматова Н., Эрназаров Д, Философия. Учебник (для вузов экономических специальностей). – Ташкент: Innovasion rivojlanish nashriyoti – matbaa uyi. 2021. – 424 с.

14. Xakimov N.X. Amriddinova D. Jadidchilik ta`limotida komil inson konsepsiyasining falsafiy mohiyati.–Toshkent: Iqtisodiyot, 2023.

15. Sharipov M. Mantiq. – Toshkent: Universitet, 2003

16. Shermuxamedova N.A. Falsafaga kirish –Toshkent: Innovasiya –Ziyo, 2024.

17. https://president.uz/.

MUNDARIJA

KIRISH 4
Falsafaning mohiyati va jamiyat taraqqiyotidagi roli 6
Sharq falsafasining mohiyati va ijtimoiy taraqqiyotdagi roli 16
G'arb falsafasining ustuvor yo`nalishlari va ularning fan taraqqiyotiga ta'siri 33
Borliq falsafasi (ontologiya) 58
Rivojlanish falsafasi 83
Bilish falsafasi 120
Mantiq 137
Jamiyat falsafasi 182
Tarix falsafasi, sivilizatsiya va madaniyat 200
Inson falsafasi (falsafiy antropologiya) 230
Qadriyatlar falsafasi 254
Etika 269
Estetika 291
Global jarayonlar va barqaror taraqqiyot falsafasi 304
Korrupsiyaning mohiyati, oqibatlari va unga qarshi kurash mexanizmlari 321
TESTLAR 334
GLOSSARIY 342
XULOSA 349
FOYDALANILGANADABIYOTLAR RO'YXATI 351

Turg'unov Tahir

FALSAFA

O'quv qo'llanma

Muharrir: **Erhanova N.A**
Musaxxix: **Ro'ziyeva Z**
Kompyuterda sahifalovchi: **B. Muxtorov**

shr. List. AA № 1006-9260-a51a-410a-4237-1355-6372
Bosishga ruxsat etildi: 19.08.2025-yil.
Bichimi 60x84 1/16. Ofset qog'ozi.
"Cambria" garniturasi.
Shartli b/t 20,5. Nashr hisob t 21,3
Adadi 30 dona. 35-buyurtma

«EVRIKA NASHRIYOT-MATBAA UYI» MChJ.
nashriyotida tayyorlandi.
Toshkent shahri, Mirobod tumani, Qo'yliq-4, 3-uy,

«DAVR MATBUOT SAVDO» bosmaxonasida chop etildi.
100198, Toshkent, Qoyliq 4 mavze, 46

168.000.8.

ISBN 978-9910-6151-7-6